SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

BEHBUDIY O‘QISHLARI: JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI

2025-YIL 17-18-OKTABR

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“BEHBUDIY O‘QISHLARI: JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Samarqand
2025-yil, 17-18-OKTABR

Samarqand – 2025

“BEHBUDIY O‘QISHLARI: JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand viloyati PMM, 2025. – 341 B.

Respublika ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish bo‘yicha tahrir hay’ati TARKIBI

Sobirov A.Q.	– Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, bosh muharrir.
Fayziyeva M.M.	– Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, tahrir hay’at a’zosi.
Sayipova D.R.	– Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, v/b dotsent, mas’ul muharrir.
Tagayev G.	– Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, tahrir hay’at a’zosi.
Yunusova D.A.	– Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, tahrir hay’at a’zosi.
Raimkulova I.A.	– Katta o‘qituvchi, tahrir hay’at a’zosi.
Yakubjanova M. K.	– Katta o‘qituvchi, tahrir hay’at a’zosi.
Ro‘ziyeva N.Z.	– Katta o‘qituvchi, tahrir hay’at a’zosi.
Xujakulov Sh.A.	– Katta o‘qituvchi, tahrir hay’at a’zosi
Normurodova K.	– O‘qituvchi, tahrir hay’at a’zosi.

Maqolalarning sifati uchun mualliflar mas’ul

Ushbu to‘plamdan ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy merosining ahamiyati, jadidchilik intellektual va falsafiy merosining zamonaviylikka ta’siri, jadidchilik harakati tarixi va turkiston jadidlarining xalqaro aloqalari, ta’lim muassasalarida o‘qitish metodikasining dolzarb muammolari, ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari, zamonaviy pedagogika va psixologiyaning nazariy-amaliy jihatlari, pedagogik ta’limni raqamlashtirish va rivojlantirish istiqbollari kabi dolzarb masalalar o‘z ifodasini topgan.

To‘plam tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar hamda talabalarga mo‘ljallangan.

Fikr-mulohazalarni quyidagi manzilga jo‘natish so‘raladi: Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi

© *Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,* 2025.

SO‘ZBOSHI

Assalomu alaykum!

Aziz va muhtaram anjuman ishtirokchilari!

O‘zbekiston tarixining eng yorqin ma’naviy sahifalaridan biri – bu jadidchilik harakatidir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan mazkur harakat xalqimiz tafakkurida uyg‘onish, yangilanish va milliy o‘zlikni anglash jarayonini boshlab berdi. Jadidlar o‘z davrining eng ilg‘or ziyolilari sifatida ilm-fan, madaniyat va ta’lim sohalarini yangilashni millat taraqqiyotining bosh sharti deb bildilar.

Jadidlar o‘z faoliyati orqali butun turkiy dunyoda yangi davrni boshlab berdilar – bu davr ilm, tafakkur, axloq va ta’lim orqali millatni uyg‘otish davri edi. Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi o‘z ildizlarini o‘tgan asrlar ilmiy an’analaridan – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi allomalar merosidan olgan. Behbudiy va uning safdoshlari ana shu buyuk allomalar izidan borib, Sharq ma’rifati bilan Yevropa ilg‘or tajribalarini uyg‘unlashtirishga harakat qildilar. Ular uchun ta’lim – milliy o‘zlikni asrash, xalqni taraqqiyot sari olib chiqish vositasi edi. Jadid maktablari, yangi o‘quv dasturlari va darsliklari orqali ular o‘sha davrda hukmron bo‘lgan eskicha usuldagi ta’limni tubdan isloh qildilar.

Bugungi kunda *“**Behbudiy o‘qishlari: jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi**”* nomli anjumanlarning tashkil etilishi, ma’rifatparvar ajdodlarimizning ilmiy-pedagogik merosini qayta kashf etish, ularning ta’lim, tarbiya, axloq va ma’naviyat haqidagi g‘oyalarini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun muhim ilmiy maydonga aylanmoqda. Chunki jadidlarning asosiy maqsadi – xalqni ilm bilan yuksaltirish, insonni axloq bilan poklash, millatni tafakkur bilan uyg‘otish edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasida bu borada shunday fikrlarni keltiradilar: “Tilda, fikrda, ishda birlik degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar”. Shuningdek, Prezidentimiz “Jadidlar g‘oyasi – Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang”, deya ularning merosi bugungi milliy taraqqiyot konsepsiyasining ma’naviy ildizlarini tashkil etishini alohida ta’kidlagab o‘tganlar. Shu bois jadidlarning ilmiy-pedagogik merosini o‘rganish nafaqat tarixiy xotira, balki hozirgi ta’lim islohotlari uchun nazariy va ma’naviy tayanch vazifasini o‘tamoqda. Shunday qilib, Behbudiy o‘qishlari – bu nafaqat o‘tgan asr jadidlarining xotirasiga hurmat ifodasi, balki millat ma’naviy uyg‘onishining uzviy davomidir. U orqali biz Behbudiy, Avloniy, Fitrat singari allomalar orzu qilgan ma’rifatparvar jamiyat sari intilamiz. Ularning ilmiy-pedagogik merosi bugungi ta’lim jarayonida insonparvarlik, ma’naviyat va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Anjumanning barcha qatnashchilariga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori
A.Q.Sobirov

1-SHO‘BA.
TURKISTON JADID NAMOYONDALARINING BOSH G‘OYASI VA MAQSADI: TARIX, TIL, ADABIYOT, SAN’AT, DIN, AXLOQ, TA’LIM-TARBIYAVIY G‘OYALARINING AHAMIYATI

HURRIYAT ISTAB...

Sobirov Anvar Quvondiqovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo‘q, ilmsiz dunyodorning hayoti yo‘q
(Mahmudxo‘ja Behbudiy)

Azim Samarqand... Ne ne buyuklarni tarbiyalab, ko‘plarini boy bergan yurt, necha talafotlarni boshidan kechirsa-da, qayta qaddini tik tutgan o‘lkadir. Bu bejiz emas, albatta. Uning qadim va navqironligi unda yashab, ijod etgan, xoklari shu zamin tuprog‘iga qo‘shilgan buyuklarning ruhi poklari sababidandir. Ushbu jannatmakon o‘lkaning yangi qiyofasini ko‘rish istagida Samarqand City turar joy majmuasi tomon yo‘l olar ekanmiz yangi bir olamni kashf qilgandek bo‘lamiz: bir tomonda osmono‘par binolar, bir tomonda maftunkor tabiat, bir tomonda boqiy shahar. Bir yonda Siyob arig‘ining hovuri taningizni yayratsa, bir yonda Behbudiy bobomizning ruhi poklari bu manzaradan naqadar shod bo‘layotganligini his etasiz. Chunki ushbu go‘shaning gullab yashnashi va shu qadar obod bo‘lishi ushbu hududdagi Qunduzak qishlog‘i atrofiga, ya’ni qadimgi Baxshitepaga Mahmudxo‘ja Behbudiy bobomizning kindik qoni to‘kilganligi, u kishining ruhi poklari qo‘llab turganligidan bo‘lsa, ajab emas.

1868-yili rus askarlari Samarqandga bostirib kirgach ko‘pgina shahar ziyolilari oilasi bilan tog‘larga yoki olis qishloqlarga ko‘chib keta boshlashdi. Jumladan, Imom Behbudxo‘ja ham oilasini olib Samarqand uyezdining Siyob bo‘lisidagi Baxshitepa qishlog‘iga ko‘chib o‘tadi. O‘sha suronli yillardan biri, 1875-yilning yanvarida, Behbudxo‘ja oilasida farzand – Mahmudxo‘ja Behbudiy dunyoga keladi.

Behbudiy erkini qo‘ldan bergan xalqining dardini kuylagan ona allasi, millatdoshlari taqdiriga befarq bo‘lmagan otasi va tog‘asi tarbiyasi bilan o‘sadi. Olloh tomonidan berilgan tug‘ma iste’dod egasi Mahmudxo‘ja uch yoshlarida arab tili va islomiy bilimlarni egallay boshlaydi. Undan so‘ng esa dunyoviy bilimlarni o‘zlashtirmoqqa kirishadi. Qanchalik chuqur bilim olgani sari, dunyo va undagi o‘zgarishlarni bilib borgani sari uni o‘z millatdoshlari taqdiri tashvishga sola boshlaydi. Hurriyati tortib olingan xalqni qafasdan olib chiqish yo‘li kecha-yu kunduz unga tinchlik bermaydi.

Mahmudxo‘ja 20 yoshga to‘lganda uning otasi olamdan o‘tadi. Biroq u farzandida millatini, zaminini, dinini va hurrriyatini toptaganlarga nisbatan nafratni tarbiyalab ketgan edi. Sabr kosasi to‘layotgan xalqning qo‘zg‘alonlari shavqatsizlarcha bostirilayotganligining guvohi bo‘lgan Behbudiy qo‘lida

dushmanlarga qarshi belkurak tutgan jabrdiydalarni ko‘z oldiga keltiradi va hurriyatga yetishmoqlik uchun boshqa yo‘ldan borish lozimligini anglaydi.

Behbudiy safdoshlari bilan birga birinchilardan bo‘lib mahalliy aholini savodini to‘liq chiqarib, undan so‘nggina katta siyosiy maslaklar sari boshlab borishni ko‘zlaydi. Buning uchun esa maorif ishlarini yo‘lga qo‘yish, og‘ir holdagi eski maktablarning o‘rniga yangilarini tashkil qilish va ovropacha ta’lim tizimini joriy etish lozim edi. 1899-yildan 1905-yilgacha bobomiz maktab dasturlarini to‘liq ishlab chiqadi. Behbudiy faqatgina dasturgina emas 6 yilda oltita darslik yozib 1905-yilda yangi maktab ochish ishlarini boshlagan. Birinchi “Usuli savtiya” maktabi uchun o‘z hovlisidan mehmonxonasini ajratib berishi xalqning og‘riqlari uning nafaqat yuragiga ko‘chganligi, balki hayotiga aylanganligini ifodalaydi. Ushbu maktablarda Behbudiy jug‘rofiya (geografiya)ga oid darslar ko‘proq o‘qitilishiga e’tibor qaratadi va bu bilan millat farzandlarini o‘tmishda bobolarining qanday buyuk davlat qurganligini bilishlari, kimning avlodlari ekanliklari bilan g‘ururlanishlarini istaydi.

Millat dardi bilan orom bilmagan Behbudiy millatni hurriyatga eltishning bir necha yo‘llari bor degan fikrga kelgan: biri xalqni o‘qitib, bilim berib ongini oshirmoq bo‘lsa, biri ko‘rsatib tarbiyalash yo‘lidir.

Dunyo kezib olamdagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lgan Mahmudxo‘ja teatr ochish harakatiga tushdi. Ushbu teatrda ilk qo‘yiluvchi pyesani ham tayyorlab qo‘ygan Behbudiy ma’rifatsizlik xalqni qanday tanazzulga olib borishini “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” dramasi orqali vatandoshlariga namoyish etdi. Uni taqdim qilishdagi bir qancha qiyinchiliklaga duch kelgan Behbudiy matbuotda chiqishlar qilib: “Dunyo sinimatograflar haqida bosh qotirayotgan bir paytda biz hatto bir sahna tomoshalarini qo‘yishga tayyor emasmiz”, deya yuragi achishdi. Xalq dardiga barmoq orasidan qaraguvchi ba’zi kimsalar “Padarkush”ni maishiy drama deb talqin qilishadi. Ammo ushbu pyesa ijtimoiy, satsial drama edi. U xalqimizning qanchalik qoloqlik botqog‘iga botib borayotganligini o‘zida aks ettirgan oyna edi.

Xalqni johillik botqog‘idan olib chiqish maqsadida ta’lim, teatr bilan bir qatorda Behbudiya kutubxonasining ham faoliyati tez fursatlarda jadallashadi. Ushbu kutubxona bir vaqtning o‘zida 110 nafargacha xizmat ko‘rsatib, uning jamg‘armasida 600 dan ziyot kitob va risolalar, undan ham ko‘p gazeta va jurnallar mavjud bo‘lib Behbudiy Istambul va Qohirada nashr etilayotgan jurnallardan ham keltirish harakatida edi. Qisqa vaqt ichida kutubxonadan ikki mingdan ortiq kishi foydalanayotganligi xufyalar orqali mustabid tuzim boshliqlariga yetkazilib, ularni tashvishga sola boshlaydi. Uning teatr, jurnal va hatto kutubxona tashkil etishi zamirida Turkiston xalqlarini ilmli qilish istagi yotganligini “rahbarlar” darrov payqaydi. Behbudiy bobomizning oliy maqsadi ham shu edi: xalqni ilmli qilish.

Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo‘ja ko‘plab sohalarda qimmatli fikrlarini aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishi, turkistonliklarning siyosiy ongi borasidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o‘rganilgan. Masalan, uning “Oyina” jurnalining ilk sonida chop qilingan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo‘lishi, zamona ilmlaridan, fikrlaridan bahramand bo‘lishi uchun “turkiy, forsiy, arabiy va rusiy” tillarini bilishi, ularda bemalol muloqot qilish darajasiga etishishi lozimligi

ta’kidlanadi. Behbudiy bu maqolada “turkiy” til deganda mahalliy xalqning aksariyati so‘zlashadigan “o‘zbek” tilni nazarda tutadi. Unga ko‘ra, to‘rt tilning o‘rganishga sabablar quyidagilardan iborat:

1) “turkiy, ya’ni o‘zbakiy” – Turkiston xalqining aksariyati so‘zlashadigan til;

2) “forsiy” – “madrasa va udabo tilidur. Bu kungacha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta’lim berilib kelgandur”;

3) “arabiy” – madrasalarda o‘qitiladigan barcha shar’iy kitoblar ushbu tilda;

4) “rusiy” – “zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat” qilishga yararlik zamona ilmini o‘rganish uchun.

Behbudiy nima uchun rus tilini o‘rganishga turkistonliklarning diqqatini qaratmoqchi edi? Unga ko‘ra, millat butunlay yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun ular ham tijorat, ham sanoat, ham siyosatda boshqa taraqqiy etgan xalqlar bilan bir qatorda, yonma-yon harakat qilishi kerak. Turkistonliklar orasida hatto millat va vatan manfaati uchun g‘arb tillarida, jumladan, rus tilida yuqori minbardan turib gapirishga qodir biror kishi topilmaydi. Bu qusurlarni yo‘q qilish uchun esa rus tilini o‘rganish, Rossiya universitetlarida tahsil olish hamda barcha qonunlardan xabardor bo‘lmoq kerak. Behbudiy til o‘rganish masalasini siyosiy masala sifatida ko‘tarib chiqdi va vatan manfaati yo‘lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo‘l ochishi to‘g‘risida yozdi.

Xalqini nima qilib bo‘lsa ham qoloqlikdan olib chiqishga jiddu-jahd qilgan Behbudiy mavjud hukumatga noma yo‘llaydi va bu nomada xalqimizga ijtimoiy va diniy huquqlari berilishi, Turkistonni qayta qurish loyihalari jamlagan edi. Bu loyiha o‘sha davrning mutafakkirlaridan biri Ismoil Gaspirali qo‘liga yetib bordi va u, afsuski, loyihaligicha qolib ketdi. Qirimlik ushbu mutafakkirni Behbudiy ustoz deb bilar va u kishi Mahmudxo‘jaga o‘zining yangicha ta’lim yuzasidan tavsiyalarini berib bordi.

Rossiyada 1917-yil fevral inqilobining ro‘y berishi Turkistonda ham siyosiy vaziyatni izdan chiqargan edi. Bu voqealar Mahmudxo‘janing hurriyatga erishish umidini yanada alangalatdi va Samarqand siyosiy hayotida Behbudiy faol ishtirok eta boshladi. Qo‘qon Muxtoriyatining tor-mor etilishi Behbudiyning orzu-umidlarini yana bir bor payhon qildi.

1919-yil fevral oyida Toshkentga borib-qaytgan Mahmudxo‘ja Samarqand muallimlari va Toshkent ziyolilarini bir davraga yig‘ib ularni tanishtirish istagida majlis chaqirdi, ammo sirli sababga ko‘ra majlisga o‘zi kelmadi. Behbudiyning birodarlaridan bo‘lgan Hoji Muinning xotiralarida *“Bir necha maslakdosh safdoshlari Mulla Mardonqul va Muhammadqul Shohruh o‘g‘li bilan hech kimga bildirmasdan sirli suratda Samarqanddan chiqib ketmishlar va Qarshi shahrinda qo‘lga olinib zindonband etilmish. Mana hozirgacha ular haqinda tuzuklik bir ma’lumot uchratmadim”* deya keltiriladi. Millat fidoyisini yo‘q qilgan mustabid tuzim uning g‘oyalarini yo‘q qila olmaydi. Chunki Behbudiy xalqning “ilm ko‘zi”ni ochishga ulgurgan edi. Uning izdoshlari Behbudiyning ma’rifat yo‘lini davom ettiradi va hurriyat bayrog‘ini qo‘lda tutishga jiddu-jahd qiladlar.

Bugungi erkin va farovon hayotimizda ma’rifat ulashuvchi dargohlarga qarar ekanmiz, xalqimiz fidoyilarining zahmatlari behuda ketmaganiga, olayotgan har bir nafasimizda ularning nasimi borligini qalban his etamiz. Zero ilm ziyosi so‘nmasdir.

РОДНОЙ ЯЗЫК ЗВУЧИТ КАК ПЕСНЯ

Сергеева Ольга Евгеньевна
Российский государственный педагогический университет им. А.И. Герцена, профессор

Аннотация: *Статья рассказывает об истории и традициях движения джадидов в Узбекистане и об их ярком представителе-просветителе и реформаторе - Махмудходжи Бехбуди. В представленной работе описаны тенденции развития отношения к родному языку. Сочиненные автором статьи стихи посвящены прекрасной профессии- чтитель.*

Ключевые слова: *просвещение, реформы, день родного языка, движение джадидов.*

«Язык есть исповедь народа, в нем слышится его природа, его душа и быт родной» – это известная цитата 1855 года из стихотворения русского князя, поэта, литературного критика, историка, переводчика Петра Андреевича Вяземского подчеркивает, что язык является не просто средством общения между людьми, но и отражением характера, истории и культуры целого народа [1].

В наши дни ученые работают над разгадкой влияния изучения двух и более языков на состояние и развитие когнитивных функций каждого человека. Когнитивные функции – это сложные психические процессы, которые позволяют человеку познавать мир, обрабатывать, хранить и использовать информацию. Они включают в себя такие способности, как память, внимание, мышление, речь, восприятие, а также планирование и принятие решений. Эти функции необходимы для ориентации в окружающей среде, обучения, выполнения повседневных задач и эффективного взаимодействия с другими людьми.

Родной язык для каждого человека является проявлением и гарантией единства всей нации. Ежегодно отмечается Международный день родного языка – 21 февраля.

Эта дата находится под особым вниманием общественности в знак памяти событий 21.02.1952 года, когда в столице Бангладеш в городе Дакка от пуль полицейских погибли студенты-участники демонстрации в защиту своего родного языка ***БЕНГАЛИ,*** который они требовали признать одним из государственных языков страны.

Язык является мощным инструментом сохранения и развития культурного наследия в его материальных и нематериальных формах. Языки содействуют пониманию, толерантности и диалогу культур между разными народами.

Узбекистанская культура славится своими учеными, просветителями, мастерами и учителями.

Одним из ярких представителей просветительской, политической и реформаторской линии Узбекистана является философ и мудрец Махмудходжи Бехбуди, (20 января 1875, Самарканд – 25 марта 1919, Карши) – просветитель, один из идеологов и лидеров джадидизма, издатель и политик, чьи реформаторские идеи тесно переплетались с политикой джадидов [2].

Непосредственным основоположником джадидизма был крымскотатарский просветитель, издатель и политик Исмаил Гаспринский (1851– 1914) - великий сын крымскотатарского народа и всетюрского мира [3].

Главная идея и цель туркестанских джадидов: укрепление знаний исторических, языковых, литературных, художественных, религиозных, нравственных, образовательных и воспитательных идей.

Движение джадидов в Узбекистане было просветительским до конца XIX - начала XX века, выступавшим за прогресс, национальное самосознание и модернизацию через образование. Его сторонники открывали «новометодные школы» по европейскому образцу, пропагандировали светские науки, равенство полов, развитие тюркских языков и литературы. Идеи джадидов включали стремление к культурной автономии и, позднее, к более радикальным политическим переменам.

Бехбуди Махмуд Ходжа, в свою очередь, как и другие джадиды продвигал идеи, включавшие введение преподавания на национальном языке, развитие узбекского искусства и литературы, равноправие женщин, реорганизацию духовенства и реформу политического устройства. Он активно поддерживал развитие самобытного искусства и литературы, способствуя становлению национальной культуры Узбекистана.

Будучи реформатором, Махмудходжи Бехбуди выступал за изменение в системе образования, включая преподавание на национальном языке и открытие новометодных школ (с лавками, партами, досками) и использование звукового метода обучения грамоте вместо буквослагательного, что существенно сократило сроки обучения грамоте. Просветитель выступал за прогресс в религии и приспособление ислама к нуждам современного мира. Повышение уровня образования, развитие национального самосознания и идентичности вызвали неподдельный интерес талантливых людей к профессии учителя [4].

Перекликаются чувства любви и уважения к своей стране, традициям и языку, даже в тяжелые дни испытаний у людей, которым не безразлична судьба народа. Иван Сергеевич Тургенев в своем стихотворении в прозе «Русский язык» точно отражает волнение и боль за ситуацию в обществе, также как чувствовал состояние дел в своей стране мудрый Махмудходжи Бехбуди.

«Во дни сомнений, во дни тягостных раздумий о судьбах моей родины, – ты один мне поддержка и опора, о великий, могучий, правдивый и свободный русский язык! Не будь тебя – как не впасть в отчаяние при виде всего, что совершается дома? Но нельзя верить, чтобы такой язык не был дан великому

народу!» [5]. Такие же чувства испытывал и узбекистанский философ и просветитель наблюдая ход истории в своей стране.

Традиции и прогрессивные реформы в сфере образования сохраняются и в современном государстве Узбекистан. В разных районах государства созданы Центры педагогического мастерства, в которых учителя со всей области повышают свою квалификацию, а также появилось много желающих получить еще одну специальность по педагогике – переквалифицироваться. В Центрах царит творческая атмосфера, учителя обмениваются накопленным опытом, молодые учатся у старших, старшие пытаются научится компьютерной грамотности у своих юных коллег.

В отдельно взятом областном Центре Самаркандской области атмосфера располагает не только к педагогическому творчеству, но стимулирует к написанию стихов.

Я с восхищением посвящаю свои стихи не только Центру, в котором я преподаю, но всем моим коллегам и друзьям из разных городов Узбекистана, для которых родной язык звучит как песня.

Центр педагогического мастерства

Центр педагогического мастерства
А может даже просто волшебства?
А может это место для того,
Чтоб получить душевное тепло?
Какое звонкое и мудрое название,
Красивые ворота и ограда,
Кто получил учителя призванье,
Тому здесь очутиться как награда.
А по утрам жужжит наш Центр как рой,
Где каждый может быть самим собой.
Здесь повезло дарить свои уменья,
Терпенье, знания, даже вдохновенье.
Здесь повезло тепло нести в свой дом,
Где опыт подтверждается трудом.
Где мысли мудрые спускаются с небес,
Чтоб наш талант вовеки не исчез! [5]

С любовью из России, доктор педагогических наук, ученый доцент Сергеева О.Е.

Использованная литература:

1. Вяземский П.А. «Англичанке» - сборник «В дороге и дома», 1855 г. - стр. 163.
2. http://uchildiz.uz › махмудходжа-бехбуди-путь-просветителя
3. https://ppt-online.org › ...Гаспринский
4. https://ru.wikipedia.org › wiki › Бехбуди,_Махмуд_Ходжа
5. Тургенев И.С. Полное собр. соч. в 30 тт. Т. 10 Senilia. Стихотворения в прозе. - Июнь, 1882 г.
6. Сергеева О.Е. «Центр педагогического мастерства», - Самарканд, 2025.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JADIDCHILIK QARASHLARI

Axmedov Gulmamat Nurmamatovich
Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi direktori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadidchilik harakati, Turkistonda taraqqiyparvarlik harakatining yuzaga kelishi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mintaqadagi ma’rifatparvarlar haqida fikr yuritilgan. Xususan, muallif tomonidan Samarqand jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning ma’rifiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, yangi usul maktablari, milliy tafakkur, ziyolilar, Turkiston, Turkiston Muxtoriyati, Milliy Majlis.*

Bugungi kunda jadidchilik harakatini chuqur o‘rganish, o‘sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ‘ib qilish davlatimizning doimiy diqqat-e’tiborida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida mazkur masalaga alohida to‘xtalib o‘tdi: “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” [1].

Ko‘rinib turibdiki, jadidchilik harakati va uning mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 30 sentyabrda imzolangan “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmonda ham jadidlar faoliyati yana bir bor e’tirof etildi. XX asr boshlarida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo‘shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlar “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlanishdi [2].

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda yuzaga kela boshladi. Bir qator ma’rifatli shaxslar tomonidan yangi siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarning ilgari surilishi jadidchilik harakatiga asos soldi. “Jadid” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, yangi degan ma’noni anglatadi. Shu jihatdan, ushbu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma’rifiy hamda ijtimoiy jarayonlar jadidchilik yoki taraqqiyparvarlar harakati deya nomlandi. Bu harakatning asoschilaridan biri qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy edi.

Jadidchilik harakati keyinchalik mintaqaning boshqa hududlarida ham keng yoyila boshlaydi. Xususan, Turkiston mintaqasidagi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jarayonlarda jadidchilik harakati muhim ahamiyat kasb etib, ular tomonidan qator ilg‘or g‘oyalar ilgari surildi. O‘sha vaqtda Turkiston aholisining moddiy ahvoli og‘ir bo‘lib, xalq orasida savodsizlik, diniy mutaasiblik keng tarqalgan edi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalarga ko‘ra, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishning yagona yo‘li ularni ma’rifatli qilish edi. Bu yo‘lda yangicha tuzum va tartibotlarni

joriy etish, yangi usul maktablarini ochish hamda insonlarni jahondagi ilg‘or tajribalardan voqif qilish lozim edi. Shu bois, jadidchilik harakati mohiyat va mazmuniga ko‘ra millat, jamiyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo‘lgan.

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish uchun, o‘sha davrdagi tarixiy jarayonlarga to‘xtalish maqsadga muvofiq. XIX asrning oxirlarida Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, xonlik davridagi tartibotlarni bekor qila boshladi. O‘lkada temir yo‘l qurilishi, dastlabki sanoat korxonalarining bunyod etilishi, rus olimlari tomonidan O‘rta Osiyoga olib kelingan yangi ilmiy g‘oyalar va bilimlar natijasida Turkiston taraqqiyotdan anacha orqada qolib ketgani ma’lum bo‘la boshladi. Xonliklar davridagi monarxiya tuzumi sabab o‘lkada hali hanuz o‘rta asrlarga xos hayot tarzi hukm surar edi. Mazkur omillar yurt ziyolilari, taraqqiyparvarlarining fikrini uyg‘otdi. Jadidchilik harakatining Turkistondagi yirik namoyandalari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy, Is’hoqxon Ibrat, Fayzullo Xo‘jaev, Abdulvohid Burxonov va boshqalarni alohida ta’kidlash mumkin. Ular milliy uyg‘onish harakatining boshida bo‘ldilar.

“Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘trga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929 yillarni o‘z ichiga oladi”[3, –B.519].

Samarqandda ham jadidchilik harakati keng yoyilib, taraqqiyparvarlarning bir qator yetuk namoyondalari yetishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko‘zga ko‘ringan vakili shubhasidan Mahmudxo‘ja Behbudiy hisoblanadi. “Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) nafaqat mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi va mashhur ulamo bo‘lishidan tashqari u o‘z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchi hamda sayohatchisi sifatida o‘zidan chuqur iz qoldirdi”[4, –B.37].

M.Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida, ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1785– 1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894-yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug‘ullanib kelgan Behbudxo‘ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo‘ja tog‘asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog‘ida o‘sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog‘asi Mulla Odildan o‘rganadi.

Jadidlar Turkistonni qoloqlik, savodsizlik botqog‘idan olib chiqishning eng muhim omili sifatida xalqni savodli, ma’rifatli qilish ekanligini tushunishgan edi. Shu bois, ular tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil qilindi. Mazkur maktablar o‘sha davrning ilg‘or kishilari, o‘ziga to‘q boylar tomonidan moddiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Shunday maktablardan biri dastlab 1893 yilda Samarqandda, 1898 yili Qo‘qonda Salohiddin domla, o‘sha yili To‘qmoqda, 1899 yili eski Toshkentda Munavvar Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan tashkil etildi. 1900 yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil etildi. 1903 yili M.Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda xuddi shunday

maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Shakuriylar bu maktabda dars berdilar[5, –B169-170].

Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat yangi usul maktablarini tashkil qilish balki, ularni zamonaviy darsliklar, dunyoviy ilmlar bilan ham ta’minlash ishiga bosh-qosh bo‘ldi. O‘zi ham qator darslik va risolalar yaratdi. “1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida uning tashabbusi bilan yangi maktablar ochildi. Behbudiy maktablar uchun “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy”, “Kitob ul-atfol”, “Amaliyoti Islom”, “Tarixi Islom” kabi darslik va risolalar yozadi[6, –B.11].

Behbudiy jadidlarning yetakchisi, qolaversa, mintaqada taraqqiyparvarlik harakatining asosiy shaxslaridan biri sifatida Samarqand shahrida turli yig‘in, kecha va mashvaratlarni tashkil qilgan. Bu kabi yig‘ilishlarga turli shaharlardagi taraqqiyparvarlar ham taklif etilgan. Buxorolik mashhur ma’rifatparvar Sadriddin Ayniyning Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi xotiralarida quyidagilar eslanadi: “1908 yilda dars sheriklarimizdan bo‘lg‘on Mirzo Abdulvohid bilan Buxorodan Samarqandg‘a kelgan edik. Ushbu sayohatimizda mulla Abdulqodir Shakuriy, mulla Ismatullo Rahmatullozoda va bir qancha Samarqand ma’rifatparvarlari oqshom majlisi uchun bizni bir yerga chaqirg‘on edilar”[7, –B. 238].

S.Ayniyning qo‘shimcha qilishcha, bu uning Behbudiy bilan birinchi bor uchrashuvi edi. S.Ayniy birinchi uchrashuvdan so‘ng Behbudiyga ta’rif berar ekan, shunday xotirlaydi: “Bu kecha Mahmudxo‘ja, ko‘pincha fanniy masalalardan so‘z chiqarib, yerdan, ko‘kdan, oydan, yulduzdan, qisqasi, ul vaqtg‘acha biz eshitmagan narsalardan ko‘pgina so‘yladi”[7, –B. 238].

Behbudiy Turkistonda milliy matbuot rivojiga ham ulkan hissa qo‘shdi. Uning noshirlik faoliyati ham diqqatga sazovor. O‘zi va boshqa taraqqiyparvarlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishning muhim vositasi sifatida Behbudiy tashabbusi bilan gazeta va jurnallar faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Uning sa’y-harakatlari va muharrirligida 1913-yildan boshlab “Samarqand” gazetasi chiqarila boshlaydi. Ushbu gazetada o‘sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga e’tibor qaratiladi. Jumladan, gazetaning 1913-yil 30-iyuldagi sonida turkistonlik yoshlarning og‘ir ijtimoiy holati, bolalarni maktabda o‘qitishning ahamiyati haqida to‘xtaladi: “Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammolikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosig‘a tobe ekan, bizni ulamo bil’aks avomg‘a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o‘ttuz sana so‘ngra yana yomonroq bo‘lur, musulmonchilik ilm va adab ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”[8].

Bundan tashqari, Buhbudiyning bevosita ishtiroki va tashabbusi bilan 1917-yil 16-apreldan boshlab “Hurriyat”, 1918-yildan 1922-yilgacha “Mehnatkashlar tovushi gazetalari nashr etilib, unda mustaqillik, insonlarni ilm olishga, zamonaviy fikrlashga da’vat etuvchi maqolalari chop qilinadi.

Behbudiyning noshirlik faoliyati haqida to‘xtalganda, “Oyina” jurnalini ham ta’kidlash o‘rinli. 1913-yil 20-avgustdan chiqa boshlagan jurnalda milliy birdamlik, turkiy xalqlarning hamjihatligi kabi masalalarga urg‘u beriladi. “Oyina” jurnalida millat va uning haq-huquqiy, tarixi, til va adabiyoti masalalari, dunyodagi ahvolga doir qiziqarli maqola va bahs-munozaralar berib borilgan. Ayniqsa, Behbudiyning

millat taraqqiyotida xorijiy tillarni o‘rganishning ahamiyati haqidagi fikrlari diqqatga sazovor. Alloma xorijiy tillarni o‘rganish zamonning zaruriyati ekanligini ta’kidlab, uni diniy tomondan ham asoslashga harakat qiladi: “Yana bir til va xat borki, butun olam bir-birila aning ila so‘ylaydur. Ul Faranse tili xatidur. G‘ayridinning ilm va xatini o‘rganmoq shariatcha durustdur. Hadisi sharifdan ma’lum bo‘ladurki, janob payg‘ambar o‘z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g‘a) yahuydiy xatini o‘qub-o‘rganmoqg‘a buyurgan ekanlar. Va ul janob amri hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o‘rganib, hazrat payg‘ambarg‘a yahudiylardan kelaturg‘on xatlarni o‘qub berar ekanlar. (“Sahihi Buxoriy”, juz 4, sahifa 156)”[9, –B.14].

Behbudiy Turkiston islom dinining o‘rni va mavqeyi yuqoriligi, diniy ulamolarning xalq o‘rtasida obro‘si kattaligini inobatga olgan holda o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda diniy va dunyoviy qarashlardagi muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bu haqda tarix fanlari doktori, professor Q.Rajabovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Behbudiy ham din va millatni ittifoq etishga, islohot o‘tkazishga, ziyoli va taraqqiyparlarlarni, boy va ulamoni birlashtirishga da’vat etdi. U taraqqiyparvarlar ulamolarning xalq o‘rtasida obro‘si unchalik katta emasligi, shu bois qadimiy ulamolar bilan hamkorliksiz ish olib borilsa muvaffaqiyatga erishish qiyinligi to‘g‘risida kuyunib so‘zlar edi”[10, -B.9].

Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, jamiyatni isloh qilish, jaholatga qarshi kurashish masalalaridagi fikrlari uning “Padarkush” asarida yorqin ifodalangan. Mazkur asarda dunyoviy ilmlarni egallashning ahamiyati, keng dunyoqarashli yoshlarning mamlakatni taraqqiy ettirishdagi roli mohirona tasvirlangan: “Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyatiy diniya va o‘z millatimiz tilini biladirg‘ondan so‘ngra hukumatimizning nizomli makbatlaringa bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilg‘onlaridan so‘ng Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san’at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdir”[11, –B.44].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning yurt ozodligi, millat taraqqiyoti yo‘lidagi sa’y-harkatlarini tadqiq etishda uning siyosiy faoliyatini ham inobatga olish darkor. 1917 yil fevral inqilobi va Rossiya podshosi Nikolay Romanovning taxtdan ag‘darilishi Turkiston jadidlarini ham faollashtirib yubordi. Mazkur tarixiy jarayonlarda Behbudiyning o‘rnini alohida ta’kidlash zarur. “Hurriyat” gazetasining 1917 yil 13 maydagi sonida Behbudiyning “Muhtaram Samarqandiylarg‘a xolisona arz” nomli murojaati chop etilgan. Mazkur murojaatda uning ozodlik, hurriyat haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Hozirda bo‘lsa, Xudoi taolo bizg‘a hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va sa’y etmoqg‘a yo‘l ochuqdir”[12, –B. 471].

M.Behbudiy 72 kun umr ko‘rgan Turkiston Muxtoriyatining parlamenti – Milliy Majlis tarkibiga kiritilgan edi. O‘sha vaqtda zamonasining eng ilg‘or ziyolilari, taraqqiyparvarlaridan tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatida mas’ul lavozimni egallash Behbudiyga faxr bag‘ishlagan edi: “27 noyabrda Xo‘qandda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon s’ezdiga e’lon qilindi. Muborak va xayrli bo‘lsin! Kamina ham majlisda bo‘lishi uchun iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!”[12, –B. 493].

Biroq juda qisqa muddat mavjud bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati hukumati 1918 yil fevralida bolsheviklar tomonidan tarqatib yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston mintaqasida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o‘lkada yangi, zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sabab bo‘ldi. Ular tomonidan millatni uyg‘otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi mardonavor kurash jadidchilik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Ushbu harakatda millatning bir qator fidoyi insonlari, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy muhim rol o‘ynadi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, tarixiy jarayonlarda Behbudiyning tutgan o‘rnini yoritish, tahlil qilish alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi. // https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.
2. https://president.uz/uz/lists/view/3860
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3 tom. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlati ilmiy nashriyoti, 2002.
4. Rajabov Q. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Bolqon urushlari va Anvar Posho haqidagi fikrlari // “Mahmudxo‘ja Behbudiy diniy-ma’rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2021.
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Tuzuvchilar: Sodiqov H., Shamsitdinov R., Ravshanov P. va boshqalar. –Toshkent: Sharq, 2000.
6. Zarafshonning Behbudiysi. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Akram Haydarov. –Toshkent: “Sahhof”, 2020
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: “Akademnashr”, 2021.
8. “Samarqand” gazetasi, 1913 yil 30 iyul. №31
9. “Oyina” jurnali, 1913 yil 20 avgust. №1.
10. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). -Toshkent: “Universitet”, 2002.
11. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush. Tanlangan asarlar. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 1997.
12. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: “Akademnashr”, 2021.

TURKISTON JADIDCHILARINING MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING SHAKLLANISHI VA MILLIY MASALA

Djurayeva Perdegul Saidovna –
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim

metodikalari kafedrasi dotsenti

Dars berish - oddiy mahorat emas, bu yangilik topa oladigan san’atdir.
Jusipbek Aymautov

Annotatsiya. O‘sha davr musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi katta harakat edi. *Jadidchilik sof diniy yoki dunyoviy yo‘nalish bo‘lmay, balki ta’lim tizimi, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, axloqiy me’yorlarni o‘z ichiga olgan sintetik oqim. Turkistondagi jadidchilik harakati yetakchilaridan Mahmudxo‘ja Behbudiyning kitoblari nashr etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy**,** Gaspiral, usul-i jadit, yangi usul, madrasa, ovoz usuli, musulmon ziyolilari, mehnat, so‘z, xayr-ehson.*

Kirish. Jadidchilik (arabcha) جديد- yangi, yangi yo‘l - الجديد وصول) - XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Volgabo‘yi, Qrim va O‘rta Osiyodagi musulmonlarning madaniy islohotchi, siyosiy va ijtimoiy harakati edi. Bu o‘sha davr musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi katta harakat edi. Jadidchilik sof diniy yoki dunyoviy yo‘nalish bo‘lmay, balki ta’lim tizimi, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, axloqiy me’yorlarni o‘z ichiga olgan sintetik oqim edi. Jadidchilik harakati islom dinini ma’rifat va ilm-fan bilan uyg‘unlashtira oldi. Musulmon ziyolilari an’anaviy maktablarining qoniqarli emasligini tushunib, xalq ta’limi tizimini Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarning boshqa musulmon mintaqalaridagi metodlarga o‘z sharoitlariga moslashtirishga e’tibor qaratdilar. XIX asrning ikkinchi yarmida mustahkam pedagogik asosda ta’lim beradigan maktablarda tahsil olgan musulmon ziyolilari musulmon maktablari va madrasalarida yangi diniy sxolastik ta’lim muassasalarini yaratishga intildilar. 1881-yilda qrim-tatar Ismoil Gaspirali tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan jadid maktabi dastlab hukumat tomonidan bostirildi, keyinchalik turkiy xalqlar orasida katta qo‘llab-quvvatlandi. Sirdaryo bo‘yida ochilgan yangi usuldagi maktablar ana shu ko‘makka misol bo‘la oladi. Qozali, Shieli, Perovskda ochilgan yangi usul maktablari maxsus taklif etilgan mutaxassislar bilan to‘ldirilib, har tomonlama ta’lim berishga qaratilgan edi. Yangi usul harakati asosan madrasalarni emas, maktablarni qamrab oldi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Turk dunyosining buyuk namoyandalaridan biri I.Gaspirali davriy nashrlarning xalq ta’limi sohasi uchun ahamiyati, adabiyotni yurt manfaatlariga yaqinlashtirishda gazeta va jurnallarning o‘rni beqiyos ekani haqida gapirdi. U xalqqa murojaatida: “Dinimiz ezgulikka uch amal bilan erishiladi: mehnat, so‘z, xayr-ehson, deydi”. I.Gaspirali 1881-yilda kun tartibiga qo‘ygan tizimli jadit maktabi darhol hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi. Yangi tizimdagi maktablar ma’rifatparvar ulamolar va badavlat dindorlar mablag‘lari hisobidan ochildi. Masalan: Savdogarlar Xusaynovlar Qozali shahridagi Jadid maktabi uchun mablag‘ ajratdilar. Buyuk ma’rifatparvar Axmet Baytursinov: “Biz bilamizki, jadid, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganish usuli bor, lekin bu usul qozoqlar orasida keng tarqalmagani uchun bizning maqsadimiz o‘sha ilmni imkon qadar qozoqlar o‘rtasida yoyishdir”.

Yangi usuldagi maktablarda ilk darsliklar tatar tilida nashr etilgani va shu bois mahalliy aholi bolalari tatar tilini tushunmaganligi sababli, bu darsliklar mahalliy

aholiga tushunarli bo‘lishi uchun qaytadan yozildi. Vaqt o‘tishi bilan bu darsliklar to‘ldirildi va qayta ko‘rib chiqildi. Masalan, Turkistondagi jadidchilik harakati yetakchilaridan Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1903-1904-yillardagi “Kitobul-atfol” (Bolalar uchun kitob), “Amalyoti islom” (Islom shartlarining bajarilishi), “Tarixi islom” (Islom tarixi), “Muxtasiri jug‘rofiya Rossiya” (Rossiyaning qisqacha geografiyasi) va keyingi yillarda Abdulla Avloniyning “Muallimi avval” (“Birinchi muallim”) va «Muallimi Soniy» (Ikkinchi muallim) va boshqa kitoblari nashr etilgan.

Taqdiqot natijalari. Dindor oilada tug‘ilib, yuksak diniy ta’lim olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy 1899-yilda 25 yoshida haj safarida bo‘lib, Rossiya shaharlari, Qrim, Eron, Turkiya, Misrda bo‘lib, bu mamlakatlardagi xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan yaqindan tanishdi. Bu holat unga Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni yaqindan kuzatish, “Yosh turklar” harakati g‘oyalari bilan bevosita tanishish imkonini berdi. “Yosh turklar” harakati vakillarining izidan borib, yosh turklar g‘oyalarini keng yoyish va targ‘ib qilish maqsadida “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini nashr ettiradi, U “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Xurshid” gazetalarida keskin siyosiy-ijtimoiy masalalarni ko‘targan maqolalar chop etib, Turkistondagi vaziyatni qiyoslash, tahlil qilish imkoniga ega bo‘ldi. M.Behbudiyning siyosiy qarashlari «Oyna» jurnalining 15-sonida chop etilgan «Sayohat xotiralari»da bayon etilgan. U birinchi haj safaridan musulmon mamlakatlarida jahon sivilizatsiyasiga mos taraqqiyotga erishish uchun ko‘p narsalarni o‘zgartirish va yaxshilash mumkinligiga ishonch bilan qaytdi. U 1903-1904-yillarda Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg, Qrim shaharlarida ikkinchi marta sayohat qilgan va shu safarda Ismoil Gaspraliy bilan uchrashgan. Bu tanishuv uning jamiyatni qayta qurish rejasiga tuzatishlar kiritadi va nihoyat uni shu yo‘lga boshlaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1905-yilda Samarqand viloyatining Kaftarxona qishlog‘ida yangi usul maktabi tashkil etib, bu yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya faoliyatini boshlab, qirqdan ortiq shogirdga tekin ta’lim bera boshlaydi. Behbudiyning shu davrda chop etilgan maqolalarida uning mintaqadagi maktab islohoti loyihasidan noroziligi, uni yanada takomillashtirish istagi namoyon bo‘ladi. Bu g‘oyalardan ilhomlanib, 1914-yilda ikkinchi marta haj safariga bordi, bu safar Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarda sakkiz oy bo‘ldi. Uning bu safargi ziyorati ma’rifiy va siyosiy qarashlarining shakllanishi jihatidan juda samarali bo‘ldi. Turkiya bilan bevosita aloqada bo‘lgan, “Yosh turklar” g‘oyasi ta’sirida bo‘lgan sanoqli mintaqa mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Behbudiy Turkistondagi siyosiy vaziyatni o‘z xalqining taraqqiyotini faqat ma’rifat, uning siyosiy mavqeini tubdan o‘zgartirish, mustaqillikka erishish bilan bog‘laganligi bilan mashhur. U o‘z maqolalarida va siyosiy faoliyatida mustamlakachilik siyosatini fosh etib, Muvaqqat hukumatni va uning qonunlarini ayovsiz tanqid qildi. Ma’rifatparvarlik jamiyati va davlatidan qat’iy nazar, maqsadlari mushtarakligi bilan ajralib turadi, chunki uning ko‘pgina g‘oyalari umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Va u alohida mintaqalar va davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab mazmunan farqlanadi. Shu nuqtai nazardan shuni ta’kidlash mumkinki, Turkiston o‘lkasidagi ma’rifatchilikning asosiy xususiyati xalqning o‘rta asrlar zulmatida qolishiga, chor hukumatining shovinistik zulmiga sabab bo‘lgan

eskirgan ta’lim tizimiga qarshilik ko‘rsatish tizimi sifatida vujudga kelganligi edi. Bu ikki omil bevosita Turkistonda ma’rifatparvarlikning siyosiy harakatga aylanishiga xizmat qildi. Birinchi yangi uslubdagi maktablar 1898-yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla tomonidan ochilgan bo‘lsa, 1889-yilda bu tashabbus Toshkentda Mannan qori, Andijonda Shamshidin domla tomonidan davom ettirildi. 1911-yilda Turkistonda yangi uslubdagi maktablar soni 63 taga yetdi, ularda 4106 o‘quvchi ta’lim oldi. Ulardan 5 ta maktab Jetisu viloyatida faoliyat yuritgan. Bu maktablarning asosiy afzalligi shundaki, ular to‘liq Yevropa maktabi bo‘lmasa-da, doska, parta, globus kabi zamonaviy jihozlarga ega edi. Asosiysi, eski maktablarga qaraganda, bolalarni 40 kun ichida savodli bo‘lishga imkon beradigan o‘qitish usuli edi. Ularning oddiy savodxonlikdan foydalanish imkoniyati yaratilgani yangi maktablarni aholi orasida keng ommalashtirdi.

Munozaralar. Jadidchilarning ma’rifiy g‘oyalari shakllanishiga Rossiyaning boshqa mintaqalaridan kelgan pedagoglar ham ta’sir ko‘rsatganini inkor etib bo‘lmaydi. Masalan, 1905-yilda Butunrossiya musulmonlari MK byurosi a’zosi Abdurashit Ibrohimov Toshkentga ishlagani keladi. Xuddi shunday 1908-yilda jadidchilik harakati asoschisi, M.Behbudiyning ustozi va do‘sti Ismoil Gaspirali Qohiraga qilgan safari chog‘ida Samarqanddagi yangicha uslubdagi maktablar ishi bilan tanishgan bo‘lsa, 1910-yilda mashhur tatar jadidi Sadri Maqsudiy butun Turkiston o‘lkasi bo‘ylab sayohat qiladi. Turkiston jadidlari orasida etnik va konfessiyaviy masalalarga ham alohida ahamiyat berilgan. Binobarin, jadidlar mintaqadagi bu masalalarni hal etish va uning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash uchun milliy o‘zlik va o‘ziga xoslikni saqlab qolgan holda, yosh turklar va Misr islohotlari izidan borib, yevropaliklarning siyosiy tajribasiga tayanish zarurligini his qildilar. Shunday qilib, jadidlar ijtimoiy tuzilish tamoyillarini namunalar bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Konstitutsiyaviy monarxiyadan tanlash, shariat tamoyillarini mahalliy boshqaruvga qisman tatbiq etish, islomiy me’yorlar va xalq demokratik tuzilmaning yonma-yon yashashi mintaqadagi siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotning kelajagi haqida o‘ylagan har bir xalqning vatanparvarini hayajonga soldi.

Jadidlar dasturlarida millat masalasi barcha etnik guruhlarning birligi doirasida ko‘rib chiqiladi. Bu tushuncha o‘ta arzimasdek tuyulsa-da, ularning milliy ongi etnik o‘z-o‘zini identifikatsiya qilishni “millat”, “musulmonlar”, “turkistonliklar”, “turonliklar” deb qabul qilgan. Masalan, “millat” tushunchasi Turkiston, Buxoro va Xiva xonligida istiqomat qiluvchi turkiy va eronzabon xalqlarni bildirsa, “musulmon” tushunchasi barcha dindoshlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, diniy tushuncha bilan cheklanmaydi, balki yashovchi turli eron tilida so‘zlashuvchi turkiy xalqlarni birlashtiradi. Jadidchilar musulmonlar birligi haqida gapirganda, diniy emas, balki etnik birlikka urg‘u berishgan. M.Behbudiy “ruslar”, “yahudiylar” kabi etnik atamalar bilan birga “musulmon” atamasini ham qo‘llagan. Mustamlakachi hokimiyatlarning siyosiy terminologiyasida “musulmon” atamasi “xristian” kabi diniy xususiyatni ifodalash uchun ishlatilgan, ammo jadidchilarning sa’y-harakatlari bilan “musulmon” diniy tushunchasi etnik tushunchaga aylantirilgan. Mohiyatan mustamlakachilikka qarshi kurashning asosiy quroli sifatida taraqqiyparvar kuchlarning siyosiy g‘oyalar

bilan birlashishi etnik birlikka olib keldi. Behbudiy maqolalarida maktab islohotini yanada takomillashtirish istagi namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, Ismoil Gaspiralining yangi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari Turkistonda keng yoyilgan. Gaspiralining vafotidan qattiq qayg‘uda bo‘lgan Behbudiy «Oyna» jurnalining 1914-yil 49-sonida shunday yozadi: "Ustoz bilan Istanbulda uchrashib, suhbatlashaman deb o‘ylamagandim. Ustoz bilan Ollohning amri bilan 7 soat suhbatlashishdan olgan mamnuniyat va taassurotlarni so‘z bilan ifodalab bera olmayman. Hali ham bu ajoyib zavq tuyg‘ulari ichidaman". Behbudiyning Turkistondagi siyosiy vaziyatga qarashi o‘z xalqining taraqqiyotini ma’rifatparvarlik, siyosiy mavqeini tubdan o‘zgartirish, mustaqillik bilan bog‘lagan. U o‘z maqolalarida chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini fosh qilib, Muvaqqat hukumatni, uning qonunlarini ayovsiz tanqid qildi. Maqolada birgina maktablarda kitob yodlash, savod o‘rgatish bilan jamiyatni rivojlantirib bo‘lmasligi ta’kidlangan. Shuningdek, har bir maktab va madrasada qat’iy tartib-intizom zarurligi qayd etilgan. Jadidchilar ko‘plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniyaga o‘qishga jo‘natib, o‘sha yerda bilim olib, vatan va millatga xizmat qilish g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning faoliyati mahalliy aholidan yoshlarni xorijda o‘qishga sarflash uchun mablag‘ to‘plagan. Viloyatda savdo, sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlanishining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar chop etildi.

Mustaqillikka kurashsiz erishib bo‘lmasligini anglagan “Haqiqat ertagi”da shunday deyiladi: “Huquqni qo‘lga kiritish kerak, ularga hech kim bermaydi, har bir millat va o‘z yurtining xalqi o‘z haq-huquqiga siyosiy harakat, jamoaviy harakat orqali erishadi... “Biz musulmonlar, ayniqsa, Turkiston musulmonlari hech kimning dinimiz va millatimizni cheklashini, zulm qilishini istamaymiz, boshqalarning mustaqilligiga tahdid qilish niyatimiz ham, xohishimiz ham yo‘q”, deb yozadi u. Bu gapi bilan u Munavvar qorining “Erkinlik berilmaydi, uni topish kerak” degan fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Ammo u Munavvar qorining qon va qurbonlik bilan ozodlikka erishish mumkin degan fikrini qo‘llab-quvvatlamaydi. Behbudiy boshqa jadidchilar singari mustamlakachilikka qarshi qonsiz kurashni yoqlab, inqilobga qarshi chiqdi.

Fevral inqilobidan keyin o‘lkaning davlat tuzilishi to‘g‘risidagi qurultoylarda bo‘lib o‘tgan munozaralarda Behbudiy Turkistonni bo‘lajak federativ Rossiyaning bir qismi sifatida shunday tasavvur qildi: “Toshkentda Turkistonning besh o‘lkasining har bir shahar va tumanidan bir necha kishidan saylangan Markaz va Majlis bo‘ladi, ular barcha qonunlarni to‘lash va amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Bu Majlis Rossiya hukumati bilan musulmonlar o‘rtasida ko‘prik bo‘ladi... Albatta, vakillar va deputatlarning ko‘pchiligi musulmonlar, ozchilik ruslar bo‘lishi kerak, ish buyruq yoki majburlash bilan emas, kelishuv asosida olib borilishi kerak”,- deya siyosiy istiqbolli takliflar bilan chiqadi. Bu takliflardan ko‘ramizki, yosh turklarning ko‘p millatli Usmonli imperiyasida parlament tuzishga boshqa millat vakillarini jalb etish zarurligi haqidagi g‘oyalari bilan uzviylik bor edi, Behbudiyning bu g‘oyalari 1917-yil 12-14-iyulda Skobelev (hozirgi Marg‘ilon) shahrida “Turk federalistlari” partiyasi tomonidan qabul qilingan “Muxtoriyat loyihasi” deb nomlangan dasturiy hujjatda yanada rivojlantirildi. Bu hujjatning tayyorlanishi haqida M.Shoqay shunday qayd etadi: "Milliy markaz Shoislom Shahmetbekka zarur materiallarni tayyorlab,

Turkiston muxtoriyatiga taqdim etishni topshirdi. Bu ishda janob Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydulla Xo‘ja va men unga yordam berdik".

Behbudiy Butunrossiya musulmonlar harakati g‘oyalariga ishonganligi va uning tamoyillarini g‘ayrat bilan himoya qilganligi sababli, bu hujjatda Turkistonning Rossiya federativ davlat tuzilmasi tarkibidagi muxtoriyat mustaqilligiga jiddiy e’tibor qaratildi. Shuning uchun ham Behbudiy bu hujjat orqali mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik kurashida siyosiy birlik zarurligini targ‘ib qilib, “Rossiya musulmonlari Rossiyadan ajralib chiqmay, federatsiyaga erishishimiz kerak, ayniqsa, biz Turkiston musulmonlari, avvalo, “eskilar” va “yangilar” qarama-qarshiligini tashlab, yagona ittifoq tuzishimiz kerak”, deb ta’kidladi. Behbudiy milliy-ozodlik harakatini diniy va etnik jihatdan ajratish kurashni zaiflashtirishini yaxshi bilgan holda, butun Turkistonni birlashtirish har qanday qon to‘kilishini oldini oladi, yer va mulk bo‘linishining oldini oladi, natijada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga olib keladigan ijtimoiy to‘ntarishlarning oldini oladi, deb hisoblardi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Turkiston o‘lkasida madaniy ma’rifat o‘z taraqqiyot yo‘lida siyosiy ma’rifatga olib kelgan. Siyosiy ma’rifat mustamlakachilikka qarshi kurash dalillarini asoslab berish va bu siyosiy kurash usullarini tanlashga ta’sir etish orqali Turkiston milliy ozodlik harakati strategiyasini belgilab bera oldi.

Xulosa va tavsiyalar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida fan va ta’lim sohasida katta yutuqlarga erishildi. Bu yutuqlarga erishishda nasroniylarning roli katta edi. Bu yutuqlarga erishishda jadidlarning roli katta edi. Jadidlar Turkistonda savodli va bilimli kishilarni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyatini yuqori baholaganlar.
1876-yilda Toshkentda Turkiston muzeyi (hozirgi O‘zbekiston Davlat tarix muzeyi) ochildi. 1911–1913-yillarda Turkistonning turli shaharlarida teatrlar tashkil etildi. Dramaturglar ular uchun dramaturglar yozgan. O‘z ona tilida sahnada aytilgan so‘zlar, teatr aktyorining xatti-harakatlari ommaga ta’sir o‘tkazishning kuchli quroliga aylandi. Jadid teatrlaridagi spektakllarning aksariyati ochiq sahnalarda qo‘yilib, ularni keng tomoshabinlar tomosha qilgan. Birinchi o‘zbek tomoshabinlari uchun jadidlar sahnalashtirgan spektakllar axloqiy tarbiya maktabiga aylandi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning mashhur “Padarkusht” asarida ma’naviy qashshoqlik, moddiy ne’matlarga bog‘liqlik oqibati bilan ajralib turadigan ota-bola munosabatlari haqida hikoya qilinadi. O‘zbek milliy teatrining shakllanishida jadidlarning o‘rni katta. Shu o‘rinda Maxmutxo‘ja Behbudiyning “Teatr – ilhom maskani” degan fikrini eslash o‘rinlidir. 1868-yilda mustamlaka hukumati mintaqada rus tilida ta’lim beradigan maktablar qurish loyihasini tayyorlash to‘g‘risida ko‘rsatma berdi. 1870- yilda Toshkentda viloyatda maorif bo‘limi tashkil etish bo‘yicha maxsus komissiya ish boshladi. 1886- yilda Toshkentda Rossiya Xalq ta’limi vazirligiga qarashli 9 ta, 1889-yilda esa 14 ta o‘quv muassasasi faoliyat ko‘rsatgan.

Turkiston jadidchilarini birlashtirishda “O‘rta Osiyo jadidchilarining otasi” sifatida tanilgan Mahmutqo‘ja Behbudiyning (1875–1919) xizmatlari katta bo‘ldi. Mahmutxo‘ja Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va rahbari edi. U Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan, deb hisoblanadi. Behbudiy tashabbusi bilan otasi sharafiga “Behbudiya kutubxonasi” deb nomlangan kutubxona tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qozog‘istondagi musulmon va pravoslav missionerlari: faoliyati va natijalari (XIX - XX asr boshlari). Monografiya. Mualliflar: Z.T.

2. Sadvokasova, O.X. Muxatova, S.K. Rustemov, A.S. Marg‘ulon, B.B.Burhonov – Olmaota: 2022. – 461 s. ISBN 978-601-7342-58-6

3. Adilbekova Z. A. Kazali shahri va tumanining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi. (1847-1917-yillar tarixiy jihatlari)// Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. -Olmaota, 2009.-164 b.

4. Kamzabekuli D. Alashning ma’naviy poydevori.- Almati: El-shezhire, 2008.-358 b. 3. Karibozuli B., Saduakasuly J., Mynjasov N., Taiman S. Kazaly.- Astana: Foliant, 2013.-312 b.

5. Myrzalieva E. K. Qozog‘istonda musulmon ta’limi muammolari // Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. - Olmaota, 2001. - 205s.

6. Abay nomidagi XABARSHI nomidagi Qozoq Milliy pedagogika universiteti “Tarix va siyosiy-ijtimoiy fanlar” turkumi, 2-son (49), 2016-y.

7.Shildebay S. Tariksildik va Ozarbayjondagi 3lt-liberal harakati. - Olmaota: Nauka, 2002. - 214 b. 2 Sarrou A. La jeune Turquie et la revolution. - Parij, 1912. - 268 b.

8. Behbudiy M. Bayoni ha2i2at // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. – 1917-yil, 12-iyun. - 80-son.

9. Munavvar ori. Hurriyat Berilmas, Olinur // Najod. – 1917-yil, 26-mart.

10. Behbudiy M. Markaziy kengashimizda // “Hurriyat”. – 1917-yil, 3-iyul.

11.Qozibayev M. Gumirnamali janrining tadqiqot muammolari // Qozog‘iston mamlakati. – 1996-yil, 2-dekabr - 27 p.

12.Alimova D.A. Tarix tarix sifatida, tarix fan sifatida. -Toshkent, 2009. -656 b.

13.A’zamxo‘jaev S.S.Turkiston muxtoriyati: ozodlik va mustaqillik uchun kurash (1917-1918): avtoref. ... Doktor ist. fan - Toshkent, 1996. -60 b.

14.Prilutskiy E.A. Zapad va Vostok modernizmning falsafiy va nazariy kontseptsiyalarida // Modernizm: islohot, yangilanish, mustaqillik va tarqalish uchun kurash. – Toshkent: Universitet, 1999. – S. 35-52.

15.Behbudiy M. Bayoni haqiqat // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. - 1917 yil, 12 iyun. - № 80.

16. Shamilogly Uli.The formation of Tatar historical consiosness: Sihatndolin Marcanianal image of the Golden Horde // Central Asia surver . - 1990. - Vol. 9, № 2.- P. 24.

17.Turdiev Sherali. Ismoil Gaspirali va Turkiston // O‘zbek adabiyoti va san’ati. – 1991-yil 15-may.

JADIDLAR MATBUOTI: MILLIY TAFAKKUR VA MA’NAVIY UYG‘ONISH MANBAI

Eshbekov Bahodir Nurullayevich

Falsafa fanlari bo‘yicha doktori (PhD)
O‘zbekiston jahon tillar universiteti mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Annotatsiya. *Mazkur ishda jadidlar matbuotining milliy tafakkur va ma’naviy uyg‘onish tarixidagi o‘rni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Jadidlar matbuoti XX asr boshlarida Turkiston xalqlari ongida yangicha tafakkur, erkin fikr va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini shakllantirgan ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida o‘rganiladi.*

Maqolada jadidlar matbuoti milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy yuksalish va ijtimoiy yangilanish jarayonlarida muhim falsafiy omil bo‘lgani asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur tajribaning bugungi Yangi O‘zbekiston davrida ham dolzarbligi va ma’naviy ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Jadidlar matbuoti, milliy tafakkur, ma’naviy uyg‘onish, ma’rifat, tafakkur erkinligi, inson qadri, milliy o‘zlik, jadidchilik harakati, ozodlik g‘oyasi, falsafiy meros.*

Jadidlar matbuoti – o‘tgan asr boshlarida Turkiston xalqlari tafakkurida yuz bergan ma’naviy uyg‘onishning eng yorqin ifodasidir. U nafaqat ma’rifiy, balki falsafiy jihatdan ham millatning o‘zligini anglash, tafakkur erkinligi va yangilanish ruhining ifodachisiga aylandi.

XX asr boshlarida mahalliy matbuot “xalqni uyg‘otish”, “jaholatdan xalos etish” va “ilm-ma’rifat orqali taraqqiyot sari yetaklash” g‘oyalari bilan maydonga chiqdi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori, Cho‘lpon kabi jadidlar matbuot orqali insonni ma’naviy jihatdan ozod etish, tafakkurni uyg‘otish va millatni o‘zligini tanishga da’vat etdilar. Ularning maqolalari, tanqidiy mulohazalari va jamiyatga qaratilgan chaqiriqlari aslida bir butun falsafiy konsepsiya – inson va jamiyat uyg‘onish falsafasini shakllantirgan.

Jadidlar matbuotining asosiy maqsadi – insonni fikr va e’tiqod jihatdan mustaqil etish edi. Ular “ilm – najot”, “fikr – erkinlik” shiorlari bilan xalqni tafakkur mustaqilligiga undaganlar. Bu yondashuv o‘sha davr uchun g‘oyat dadil falsafiy qarash bo‘lib, u insonni jamiyatdagi o‘z o‘rnini ongli anglashga chorlagan. Demak, jadidlar faoliyatida inson tafakkurining markaziy o‘ringa chiqishi – o‘ziga xos yangi falsafiy bosqichdir. “O‘tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz jadidchilik harakati orqali yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini xalqning ongiga singdirishga kirishgan. Bu ulug‘ zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo‘liga olib chiqishdan iborat edi”[1], deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston” gazetasi muxbiri bilan suhbatda.

Ma’lumki, XIX asrning 90-yillari matbuot sohasidagi o‘zgarishlarning Turkistondagi rivojlanishi va yangilanishi davri boshlanganligidan dalolat berib, yangicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi. O‘sha kezlarda o‘lkadagi ilk rus tilidagi davriy nashr o‘z faoliyatini boshladi. “Toshkentda nashr qilingan “Okraina” (1890–1907), “Russkiy Turkestan” (1898–1907) gazetalari dastlabki xususiy nashrlardir. Bu gazetalar liberal-burjua yo‘nalishiga ega bo‘lib, o‘lkadagi rus tadbirkorlarining

manfaatlarini o‘zida aks ettirgan”[2;190]. Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashrlaridan farqli o‘laroq, bu gazetalar xalqni siyosiy, iqtisodiy va adabiy hayot tanishtirish barobarida o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yozib, ularga yechim topishni maqsad qilgan edi.

Bu davrda ilmli, siyosiy yetuk odamlarni boshqarish Chor Rossiyasi uchun qaysidir ma’noda muammolar tug‘dirgan. Shu bois ham ular mahalliy xalqlar ongi va bilim saviyasining yuksalishiga qarshilik qilishga harakat qilishgan. Bu esa, o‘z o‘rnida, o‘sha davrdagi boshqaruvning milliy ongning yuksalishi va dunyoqarashning kengayishiga xizmat qiluvchi milliy tildagi gazetalarning yuzaga kelishiga imkon qadar yo‘l qo‘ymadi. Tadqiqotchi olim L.Suvonovning keltirishicha, “1906-yilga qadar butun o‘lkada yagona “Turkiston viloyatining gazeti”dan bo‘lak mahalliy tilda bironta gazeta nashr qilinmagan”i yuqoridagi fikrimizning dalilidir [2;190].

Ommaviy axborot vositalari faoliyatining o‘zbek tilidagi dastlabki mustaqil davriy nashrlarning paydo bo‘lishi 1905-1907-yillardagi birinchi rus inqilobi davriga to‘g‘ri keladi. Bu jarayon hudud aholisining hayotida tarixiy ahamiyatga ega muhim voqea bo‘ldi. Xalq harakatining uyg‘onishidan cho‘chigan chor rossiyasi turli islohotlar soyasida matbuotga ham yon berishga, so‘z erkinligini qisman bo‘lsa-da ta’minlashga majbur bo‘ldi. Ziyolilar qatlami bundan unumli foydalanib, dastlabki ro‘znomalarni chiqarish haqida chor ma’muriyatidan ruxsatnomalar olishga erishdilar.

Bu davrga kelib, ijtimoiy-siyosiy va adabiy mazmundagi ilk o‘zbek davriy nashrlari Toshkentda paydo bo‘la boshladi. Ularning tashkilotchilari, muharrirlari va yetakchi mualliflari, asosan, XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan ma’rifatparvar-jadidchilik harakatining g‘oyaviy yetakchilari, mahalliy boy sanoatchilar hisoblanadi. Bu borada tadqiqotchi L.Suvonovning qayd etishicha, “toshkentlik Sayidkarim Sayidazimboy 1907-yilda tijoratchilarning maxsus “Tujjor” gazetasiga asos soldi. Bir yildan so‘ng rus tilida shunday gazeta (“Turkestanskaya torgovo-promышlennaya gazeta”) chiqarildi” [2;190]. Bu paytga kelib, bosqinchilar tomonidan mahalliy aholiga ko‘rsatilgan zulmlarning oshishiga qarshi oqim Jadidchilik harakati yuzaga kela boshladi. Ular o‘z yurtlarini ozod va hur ko‘rish, uning taraqqiy ettirish, uni obod va ozod maskanga aylantirish, aholini savodsizlikdan qutqarib yangi jamiyat barpo etish g‘oyasini ilgari sura boshladi. O‘z davrining ilmli va yetuk odamlari bu ishlarni faqat va faqat matbuot va uning imkoniyatidan foydalanib amalga oshirish mumkinligi to‘liq anglab bo‘lgan edi.

O‘zbekistonda milliy matbuotning yuzaga kelishi toshkentlik taraqqiyparvarlar Ismoil Obidov boshchiligida - “Taraqqiy” gazetasining Toshkentda 1906-yil 27-iyun sanasida nashr etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Gazetada odamlar ongi-shuuriga ta’sir etuvchi turli mazmunan va g‘oyaviy puxta materiallarning berilishi ekanligini alohida ta’kidlash kerak. O‘z davrida ular faoliyat yuritishi oson bo‘lmadi. Nisbatan erkin va ochiq fikrlilik Chor senzurasining ta’siridan qutila olmas edi.

Xususan, ana shunday matbuot nashrlaridan bo‘lgan va Toshkentda chop etilgan “Taraqqiy”, “Xurshid” (1906), “SHuhrat” (1907), “Osiyo” (1908) gazetalari Turkistondagi chor ma’muriyati tomonidan yopib qo‘yildi. Bu paytda o‘sha davrdagi boshqa nashrlarni faoliyati ham ularning moliyaviy etishmovchiligi sababli to‘xtab

qolgan. Biroq uning yo‘lidagi jiddiy to‘siq va tuzoqlarga qaramay, toshkentlik taraqqiyparvarlar tomonidan asos solingan dastlabki o‘zbek matbuoti - milliy o‘zlikni anglash, til, adabiyot va jurnalistikaning shakllanishiga zamin yaratdi.

Jadidlar matbuoti o‘z zamonasi uchun nafaqat siyosiy-ijtimoiy, balki ma’naviy-falsafiy inqilob yaratgan maktab bo‘ldi. U xalqni “boshqalar aytganini emas, o‘zi o‘ylaganini aytish”ga o‘rgatdi. Bu esa tafakkur erkinligi, mas’uliyat, axloq va ma’naviyat birligini targ‘ib etuvchi yangi dunyoqarashning shakllanishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida jadidlar merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ularning asosiy g‘oyalari – inson qadri, tafakkur erkinligi, ma’naviyat ustuvorligi – zamonaviy islohotlarning ma’naviy ildizini tashkil etadi. Jadidlar boshlab bergan “ma’rifat orqali taraqqiyot” yo‘li bugungi avlod uchun ham dolzarb saboq bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, jadidlar matbuoti milliy tafakkur va ma’naviy uyg‘onish tarixidagi beqiyos bosqichdir. U o‘tgan asr Turkistonining yangilanish g‘oyasini ifoda etgan, bugungi Yangi O‘zbekiston ma’naviy taraqqiyoti uchun esa mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri savollariga javoblari // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2021-yil 17-avgust soni (№5518).
2. Сувонов Л. Жадид маърифатпарварлари даври матбуотининг ўзига хос жиҳатлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5 (75), Хоразм Маъмун академияси, 2021 – Б.190.
3. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Масъул муҳаррир С.Шермуҳаммедов. – Т.: «Маънавият», 2008. – 464 б.
4. Эшбеков Б. Особенности СМИ в повышении социальной активности граждан в Новом Узбекистане //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 1. – С. 80-88.
5. Turayevich U. R. Qahramonovich HN Zamonaviy dunyoning axloqiy muammolari-zo ‘ravonlik falsafasi //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 57. – №. 4. – С. 422-425.

JADID MA’RIFATPARVARLARI VA ULARNING TARIXI

Madaminova Shaxodat Shomurotovna
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati, jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya, madaniyat va milliy ongni yuksaltirishdagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, ularning yangi usul maktablari ochish, matbuot va*

adabiyot orqali ma’rifat tarqatishdagi tashabbuslari tahlil qilinadi. Jadidlar faoliyati o‘z davrida jamiyatni yangilash, millatni ilm-fan va taraqqiyot sari yetaklash jarayonida muhim bosqich bo‘lganligi ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg‘onish, matbuot, Turkiston tarixi, islohot, milliy ong, ma’naviyat.*

KIRISH. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar milliy uyg‘onish davrining muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. Ayniqsa, jadidchilik harakati mazkur davrda milliy o‘zlikni anglash, ta’lim-tarbiya tizimini yangilash va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish yo‘lidagi eng ilg‘or islohotchi oqim sifatida maydonga chiqdi [1, 45]. Jadid ma’rifatparvarlari xalqni jaholatdan chiqarish, milliy maktablar faoliyatini yangicha asosda yo‘lga qo‘yish hamda milliy matbuot orqali ma’rifat g‘oyalarini keng targ‘ib qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan edilar [2, 63].

Mazkur harakat vakillari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon singari ziyolilar xalqni ilm-ma’rifatli, vatanparvar, milliy ongli shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surdilar [3, 112]. Ularning pedagogik, ijtimoiy va siyosiy faoliyatlari o‘sha davr Turkistoni hayotida katta burilish yasagan bo‘lsa, keyinchalik milliy mustaqillik g‘oyalarining shakllanishida ham muhim manba bo‘lib xizmat qildi [4, 27].

Bugungi kunda jadid ma’rifatparvarlari merosini o‘rganish, ularning ilmiy, ma’naviy va siyosiy faoliyatini tarixiy nuqtai nazardan tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki jadidlarning maqsad va qarashlari hozirgi kunda ham ta’lim islohotlari, milliy taraqqiyot konsepsiyasi hamda ma’naviy-ma’rifiy siyosat bilan bevosita uzviy bog‘liqdir [5,89]. Shu bois mazkur tadqiqotda jadid ma’rifatparvarlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ularning tarixiy roli va hozirgi davrdagi ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Jadidchilik harakati tarixini yoritishda ko‘plab mahalliy olimlarning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, Xudayqulov A. M. o‘z dissertatsiyasida jadidlarning ma’rifiy faoliyatini keng qamrovda o‘rganib, yangi usul maktablari, matbuot va teatr faoliyati orqali millatni uyg‘otishdagi rolini ilmiy asosda tahlil qiladi [5, 72].

Abduxoliqov I. tadqiqotlarida esa jadidchilik milliy uyg‘onish harakatining ajralmas qismi sifatida talqin etilib, uning Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’siri alohida yoritiladi [6, 64].

Shuningdek, Abduvohidov S.A “Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlari va hozirgi zamon” nomli dissertatsiyasida jadidlarning asarlari va publitsistik faoliyatini tahlil qilib, ularning gumanistik qarashlari va milliy uyg‘onish g‘oyalarini chuqur tahlil etadi [7, 56].

Xorijiy olimlardan Adeeb Khalidning “The Politics of Muslim Cultural Reform” asarida jadidchilik butun musulmon Sharqidagi modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘lanib, Turkiston jadidlarining o‘rni keng ilmiy asosda tahlil qilingan [8, 144].

Mahalliy olimlardan Ziyo K. esa jadidlarning adabiy faoliyatini tahlil qilib, xususan, Avloniy, Cho‘lpon va Fitrat ijodida milliy uyg‘onish g‘oyalari qanday ifodalanganini ko‘rsatadi [9, 215].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarning sharhi shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik faqatgina tarixiy hodisa emas, balki pedagogika, adabiyotshunoslik va siyosatshunoslik fanlari uchun ham dolzarb tadqiqot obyekti bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy mohiyatini o‘rganishda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiy-tahliliy metod jadidlarning faoliyati va asarlarini o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari bilan bog‘liq holda izchil tahlil qilish imkonini berdi.

Qiyosiy metod esa jadidchilik g‘oyalarini boshqa musulmon Sharq mamlakatlaridagi islohotchi harakatlar bilan taqqoslashda qo‘llanildi. Bu yondashuv orqali Turkiston jadidlarining umumiy musulmon modernizatsiya jarayonidagi o‘rni aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda tizimli yondashuvdan ham foydalanildi. Bu usul jadidchilikni faqat ma’rifiy harakat sifatida emas, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlari bilan bir butun tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Manbashunoslik metodlari yordamida jadidlarning asarlari, publitsistik chiqishlari, darsliklari va arxiv materiallari tahlil qilindi. Ayniqsa, Behbudiy, Avloniy va Fitratning ilmiy-ma’rifiy merosi bevosita manba sifatida tadqiq etildi.

Tadqiqotda shuningdek, kontent-tahlil metodidan foydalanilib, jadidlarning gazeta va jurnallardagi maqolalari, o‘quv dasturlari hamda teatr asarlari g‘oyalari bo‘yicha ilmiy umumlashmalar qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati Turkiston tarixida yangi davrni boshlab berdi. Ular eng avvalo xalqni ilm-ma’rifatga chorlab, ta’lim tizimini yangilash orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashga intildilar. Yangi usul maktablarining tashkil etilishi, zamonaviy fanlarning o‘quv dasturlariga kiritilishi, metodik darsliklarning yaratilishi o‘sha davr uchun katta yutuq bo‘ldi. Mazkur islohotlar tufayli yoshlar dunyoviy fanlardan xabardor bo‘lib, jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo‘sha boshladilar.

Jadidlarning faoliyati faqat ta’lim sohasi bilan cheklanib qolmadi. Ular milliy matbuotni rivojlantirish orqali xalq ongini yuksaltirishga xizmat qildilar. “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Hurriyat”, “Sadoi Turkiston” kabi gazeta va jurnallar Turkiston xalqlari uchun siyosiy, ijtimoiy va madaniy ma’lumotlarning muhim manbaiga aylandi. Ushbu matbuot nashrlarida ilmiy-ma’rifiy maqolalar, pedagogik qarashlar, siyosiy-ijtimoiy muammolar yoritildi va ular keng xalq ommasiga yetkazildi.

Shuningdek, jadidlarning teatr san’atiga qo‘shgan hissasi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Behbudiy va Avloniy kabi ziyolilar tomonidan sahnaga qo‘yilgan asarlar xalqning dunyoqarashini kengaytirib, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ommalashtirishda katta rol o‘ynadi. Bu asarlar nafaqat badiiy qiymatga ega, balki jamiyatni yangilash, ma’rifat tarqatish vazifasini ham bajardi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jadidlarning ma’rifiy faoliyati jamiyatni uyg‘otish, milliy ongni shakllantirish va mustaqillik g‘oyalarini singdirishda muhim manba

bo‘lib xizmat qilgan. Ularning qarashlari xalq orasida ta’limga qiziqishni kuchaytirib, yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy dunyoqarashga ega shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan edi. Bu jihatlar bugungi ta’lim islohotlari va ma’naviy-ma’rifiy siyosat uchun ham muhim o‘rnak bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu asosda aytish mumkinki, jadidchilik nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi kunda ham dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’rifiy harakatdir. Jadidlarning ilg‘or qarashlari hozirgi milliy taraqqiyot konsepsiyasi, ta’lim tizimidagi yangilanishlar hamda ma’naviy-ma’rifiy siyosat bilan uzviy bog‘liqdir.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid ma’rifatparvarlari o‘z davrining eng ilg‘or ziyolilari sifatida milliy uyg‘onish jarayonida beqiyos o‘rin egallaganlar. Ularning asosiy maqsadi xalqni ilm-ma’rifatga chorlash, millat ongini yangilash va zamonaviy taraqqiyot sari yetaklash edi. Shu yo‘lda yangi usul maktablarini tashkil etish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr va adabiyot orqali xalqni uyg‘otish kabi tashabbuslari Turkiston xalqlarining ijtimoiy-ma’naviy hayotida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Jadidlarning faoliyati natijasida ta’lim-tarbiya jarayoni yangi bosqichga ko‘tarilib, diniy va dunyoviy fanlar uyg‘unligi asosida o‘quv dasturlari shakllandi. Bu esa xalqni dunyoqarash jihatidan kengaytirib, milliy mustaqillik g‘oyalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Jadidlarning merosi hozirgi davr uchun ham nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, ularning qarashlari bugungi ta’lim islohotlari uchun muhim manba vazifasini o‘taydi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Ta’lim tizimida jadid merosidan foydalanish. Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim dasturlariga jadidlarning pedagogik qarashlarini tatbiq etish, ularning darslik yaratish tajribasidan samarali foydalanish lozim.

Ma’naviy tarbiya jarayonida jadid g‘oyalaridan keng foydalanish. Yoshlarni milliy ong, vatanparvarlik va taraqqiyot ruhida tarbiyalashda jadidlarning asarlari va g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda jadidchilik merosini kengroq yoritish. Arxiv hujjatlari, qo‘lyozmalar va jadidlar maqolalarini ilmiy muomalaga kiritish orqali ularning faoliyatini yanada to‘liq o‘rganish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar orqali jadid merosini targ‘ib qilish. Raqamli kutubxonalar, onlayn platformalar va multimedia resurslari orqali jadidlarning asarlari keng ommaga yetkazilishi lozim.

Jadidlarning milliy uyg‘onishdagi rolini yosh avlod ongiga singdirish. Ta’lim jarayonida maxsus kurslar, ma’ruzalar va seminarlar tashkil etish orqali ularning faoliyati haqida to‘liq tasavvur berilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun uchun ham katta tarixiy va ma’naviy ahamiyatga ega. Ularning asarlari, pedagogik qarashlari va milliy uyg‘onish g‘oyalari hozirgi avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: Ma’naviyat, 1992. – 184 b.
2. Behbudiy, M. *Tanlangan asarlar.* – Toshkent: Ma’naviyat, 1997. – 256 b.

3. Fitrat, A. *Saylanma.* – Toshkent: Fan, 2000. – 312 b.
4. Cho‘lpon, A. *Asarlar.* 5 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017. – J. 5. – 400 b.
5. Худайкулов, А. М. *Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX – начало XX в.).* – Автореф. дис. … канд. ист. наук. – Ташкент, 2001. – 145 с.
6. Abdivohidov, S. A. *Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlari va hozirgi zamon.* – Diss. … t.f.d. – Toshkent, 2019. – 210 b.
7. Hamroyeva, H. *Jadidchilik harakati va uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni.* – Diss. … PhD. – Toshkent, 2020. – 198 b.
8. Qosimov, B. *Jadidlar kimlar edi?* – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 176 b.
9. Ziyo, A. *Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish.* – Toshkent: Sharq, 2001. – 220 b.

JADIDCHILIK G‘OYALARI SINGDIRILGAN BEBAHO ASAR

Sayipova Dilafruz Rahimovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, PhD.
Xolmuradova Ulmasoy Norbekovna
Pastdarg‘om tumanidagi
68-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi tubdan o‘zgarishlar, jadidlar faoliyati, Behbudiyning “Padarkush” dramasida ilgari surilgan g‘oyalar haqida yozilgan. Shuningdek, Behbudiyning ta’lim va boshqaruv tizimi sohasidagi qarashlari, davr muammolari hamda ularni hal qilishda ilm-fanning ahamiyati borasidagi fikrlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Usuli jadidiya”, Ovro‘pa, Farangiston, Amerika, Istanbul, Maskov, injener, olimi zamoniy, olimi diniy, izvoshchilik qora mehnatkash, dorilfunun,

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida tubdan o‘zgarishlar, yangi islohotlarga boy bo‘lgan davr shakllana boshladi. Bu vaqtga kelib o‘lkada ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda yangicha qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan harakat - jadidlar harakati maydonga keldi.

Bu vaqtga kelib o‘lkada “Usuli jadidiya”, ya'ni (jadid usuli) degan tushunchalar paydo bo‘la boshladi.

Qrim-tatar xalqining ulug‘ farzandi Ismoil G‘aspirali tashabbusi bilan paydo bo‘lgan harakatlar o‘lkaning turli sohalarida: tarix, til, adabiyot, san'at, ta’lim - tarbiya sohalarida o‘zining bo‘y-bastini ko‘rsatdi.

Tariximizning so‘nggi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo‘lib kelgan bugungi istiqlol kurtagi dastlab mana shu jadidlar ko‘ksida nish urib yetilganligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidov, Is'hoqxon Ibrat, G‘ulom Zafariy, Hoji Muin, So‘fizoda, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidiy, Sadriddin

Ayniy, Abdulvohid Munzim va boshqalar jadidchilik g‘oyalarini yoyishda asosiy e’tiborni nashriyot ishlariga, matbuot sohasiga, jamoatchilik tashviqotlariga qaratdilar. Ular “Osiyo”, “Hurriyat”, “Vaqt”, “Ulug‘ Turkiston”, “Sadoyi Turkiston” gazetalarida Turkiston o‘lkamizning ijtimoiy, siyosiy, milliy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ma’rifiy ravnaqi uchun dolzarb muammolarni ko‘tarib chiqdilar, o‘zlarining hur fikrlari bilan o‘lka taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Adabiyotimizda ham rang-barang yo‘nalishlarini ifoda etgan yangicha qarash, turli xil janrlarda ijod qilish kabi g‘oyalar ilgari surildi. Cho‘lponning 1914-yilda e’lon qilingan “Adabiyot nadur” maqolasida “Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngil tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg‘on bir guldir” deya ta’riflaydi va uning tarovatini o‘lkada yoyish uchun ulkan xizmatlarini amalga oshirdi.

Jadidchilik harakatining natijasi o‘laroq, Turkiston hayotida madaniy jarayonlar taraqqiyoti yaqqol sezildi. O‘lkada teatrning vujudga kelishi madaniy rivojlanishning yana bir namunasi edi. Jadidlar xalqning turmush darajasi, ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, ilmiy-madaniy saviyasini xuddi oyna tutgan kabi sahnada bor bo‘y-basti bilan namoyish etish orqali xalqni ma’rifatga targ‘ib etishdi.

Jadid matbuotining asosiy xususiyati milliy ongni uyg‘otishga chorlashdan, bir tan-bir jon bo‘lib birlashishga chaqiriq bo‘ldi.1917- yilda yozilgan Fitratning “Ittifoq etaylik” maqolasida shunday deyiladi: “... Qo‘lni-qo‘lga beraylik, haq yo‘linda, vatan yo‘linda, millat yo‘linda jadidimiz, qadimimiz, mullamiz, boyimiz va avomimiz bir yerga to‘planaylik, bir-birimizga ko‘makchi va madadkor bo‘laylik”. Bu fikrlar, nafaqat, o‘sha davrda, balki hozirgi mustaqilligimiz uchun ham da’vat sifatida chaqiriq vazifasini bajardi.

Bu davr publisistikasida faol ijod qilganlardan biri - Mirmuhsin Shermuhamedov bo‘lib, yozgan maqolalarida o‘tkir ijtimoiy ruhini, vatanparvarlik xususiyatlarini, jamiyatdagi kamchiliklarni keskin tarzda tanqid qilishni, islohotlarga da'vatkorligini ko‘rishimiz mumkin. 1917-yilda yozilgan “Tarixiy ikki voqea” maqolasida u ma'rifat dushmanlarini qattiq tanqid qildi. Buxoroda shunday kishilarni “Buxoro mikroblari” deb atadi. Natijada uni e'lon qilingan “Turon” gazetasi yopib qo‘yildi.

Birinchi jahon urushi arafalarida Avloniy rahbarligidagi “Turon” teatr truppasi ham faoliyat yurita boshladi. Chunki ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. A.Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak” nomli komediyalari, A.Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” fojialari o‘zbek dramaturgiyasidagi dastlabki qadamlar edi.

Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi.

Aktyorlar yetishmaganligi uchun ayrim rollarni Avloniy ham ijro etganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Behbudiyning “Padarkush” dramasida Boy obrazini Avloniy ijro etgan edi.

“Padarkush” dramasi jadidchilik g‘oyalarining badiiy in’ikosidir. Asarda jamiyatni isloh qilish uchun, xalqni zalolatdan qutqarish uchun ma’rifatning o‘rni katta ekanligi, ilmsizlik esa, aksincha fojiaga, zulmga yo‘l ochib berishi to‘g‘risida ibratli fikrlar uqtirilgan. Ushbu milliy realistik dramada ilmsizlikning salbiy oqibatlari fosh etildi.

Asarda ilm o‘rganish, ziyoli insonning jamiyat hayotida yetakchilik qila olishi, millat boylari pullarini bekorchi narsalarga sarflamasdan xalqning farzandlarini o‘qitish yo‘lida sarflashlari kerakligi to‘g‘risida qimmatli fikrlar aytiladi.

Dramada Ziyoli obrazi juda faol bo‘lib, bu obraz orqali muallif o‘zining ilm-fan, madaniyat, matbuot, maktab, boshqaruv tizimi borasidagi fikrlarini bayon etadi. Behbudiy Ziyoli tilidan yangicha zamon kelganligi, bu zamonda ilmsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan kunga qo‘ldan ketishi, hatto dini ham zaif bo‘lishi haqida kuyinib aytadi: “Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, eri va asbobi kundan-kun qo‘lidan ketgandek, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qutmoqg‘a sa'y qilmog‘imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimnz har nav naflik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorigacha bizlarga farz qilgandir”.

Ziyoli tilidan aytilgan quyidagi fikrlar o‘sha davrdagi xalqning nodonligi, jaholatga botganligi haqida to‘la tasavvur hosil qilish bilan birga bugungi davr o‘quvchisini ham tafakkur qilishga, hushyorlikka undaydi: “Al-on biz Turkiston xalqiga bir yomon odat borki, bir kishi ruscha o‘qub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy formasnda yursa, masxara qiladurlar, agar izvoshchilik va yo qora mehnatkash bo‘lub, ovro‘palilarni eski libosini kiysa va yo o‘yinchilarning libosini kiysa, hech kim bir nima demaydirki, bu kamoli nodonlik va dunyodan xabarsizlikdir”.

Behbudiy jaholatdan qutilish, ma’rifatga erishish va yorug‘ istiqbolni faqat va faqat ilmda ko‘radi, najot faqat va faqat ilmda ekanligini to‘g‘ri anglaydi, zamondoshlarini ham ilm o‘rganishga da’vat qiladi. Behbudiy xalqning hayotida birdaniga inqilob yasab bo‘lmasligini to‘g‘ri anglaydi: “Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruri yati diniya va o‘z millatimiz tilini bilaturg‘ondan so‘ngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermoq kerakdur…”

Dramaturg ilm orqali buyuk kelajakni qurish, buning uchun esa o‘z olim-u ulamolarimiz o‘lka boshqaruv tizimida faoliyat yuritishlari, boshqaruv tizimini qo‘lga olishlari kerakligini uqtiradi, shuningdek, yoshlar diniy va dunyoviy bilimlarni egallaganlaridan so‘ng ularni rivojlangan mamlakatlarga yuborib o‘qitish zarurligini ta’kidlaydi: “…Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshha ilmlarni o‘qutmoh lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe'l sherik bo‘lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishati ehtiyoji zamonamiz to‘g‘risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham davlati Rusiya podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf yetkurulsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo‘lunsa, hattoki, shul tariqa o‘qugan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur…”

O‘sha davr matbuoti sahifalarida drama namoyish etilganda tomoshabinlar juda ko‘p to‘plangani, odamlarga joy yetmaganligi sababli tik turib tomosha qilishgani haqida ma’lumotlar ham mavjud.

Bir so‘z bilan aytganda, “Padarkush” dramasi xalqning qalb ko‘zini ochgan, yuziga chinakamiga oyna tutolgan, haqiqiy holatni aks ettirolgan va o‘z vaqtida yozilgan qimmatli asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудхўж Беҳбудий. Танланган асарлар. - Тошкент, «Маънавият», 1999.
2. Mahmudxo‘j Behbudiy. Etiyoji millat. «Samarqand» gazetasi, 1913-yil, 12 iyul.
3. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot (2-qism) O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», Toshkent–2018.
4. Бегали Қосимов, Шариф Юсупов, Улуғбек Долимов, Шуҳрат Ризаев, Суннат Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти, Тошкент «Маънавият», 2004.

JADID ALLOMALARINING AXLOQIY QARASHLARI

D.A.Yunusova
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada jadidchilik harakati, jadid namoyandalarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari, asarlarida ilgari surilgan ta’limiy, axloqiy qarashlar haqida so‘z yuritilgan hamda asardan keltirilgan parchalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jadid, ma’rifatparvarlik, tarbiya, axloq, barkamol avlod, ma’naviyat.*

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuz bergan uyg‘onish davri – jadidchilik harakati millatning ma’naviy va madaniy yuksalishida beqiyos o‘rin tutdi. Jadid allomalari xalqni jaholatdan, g‘aflatdan, ma’naviy qullikdan ozod etish, insonni axloqiy jihatdan kamolga yetkazish, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, adolat kabi fazilatlarni singdirish g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning axloqiy qarashlari Qur’on, hadis, islom falsafasi va milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda shakllandi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan taraqqiyparvar, ilg‘or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda “jadid” degan nomga musharraf bo‘ldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi. Jadidchilik g‘oyalarining markazida insonni tarbiyalash, axloqan poklash va milliy ongni uyg‘otish masalasi turadi. Shuning uchun ham Ismoil G‘aspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi

allomalar xalqlarni birlashtirish va butun o‘lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g‘oyasini ilgari surdilar. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor, Turkistonni o‘rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g‘oyalar yosh avlodni milliy, ma’naviy hamda g‘oyaviy jipslashtirish, ularni o‘lka taqdiriga dahldorlik tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etadi [1].

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan, o‘sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmushini, ong-saviyasini ko‘tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Ya’ni uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib borishga katta e’tibor qaratdilar. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilmli - ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma’rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi. Mahmudxoja Behbudiy ta’kidlaganidek, “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi”.

Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o‘z ketidan ergashtira olgan. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo‘lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo‘lishlarini ta’kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasida farzandni diniy va dunyoviy ilmlar asosida tarbiyalab voyaga yetkazish, uni nazorat qilish, yomon illatlardan qaytarish har bir burchi ekanligi haqida fikrlar keltirilgan. Asarda ruslar tomonidan ochilgan mayxonalar qattiq tanqid ostiga olingan. Asarda keltirilishicha mayxonalar masjid va madrasalarning yaqinida bo‘lib, yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va turli xil noxush holatlar hamda fojialarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkinligi haqida so‘z yuritiladi. Behbudiy bu asar orqali barchani, kelajak avlodni hur fikrli, tarbiyali, sog‘lom inson qilib o‘stirishga chorlaydi. Sog‘lom, aqlli, bilimli farzandlarimiz o‘sib ulg‘ayib, o‘qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxasislar bo‘lib yetishib chiqishini o‘rzu qiladi. Manbalarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o‘quv yurtlari va dorulfununida farang, olmon va ingliz tillarida o‘qitilishi, yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e’tiqod qilgan bo‘lib, ona-Turkistonning taraqqioyotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi va “Oyna” jurnalida quyidagi jumlalar orqali Turkistonni taraqqiy ettirish yo‘llaridan biri ekanligini

aytadi: “To‘y va ta’ziyalarimizga sarf qilinaturg‘on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizg‘a davom etsak, din va dunyog‘a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur” [2].

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asarida faylasuf pedagog sifatida, avvalo, millatni tarbiyalashni o‘z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to‘xtaladi: otalar – to‘ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar – o‘zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo‘lgan, mudarrislar esa – darslari beimtixon, isloh yaqiniga yo‘lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta’lim - tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo‘lga olishi kerak. Avloniy Rossiya hukumati u yer - bu yerda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jahon jamoatchiligini chalg‘itish ekanini, ochiq bo‘lmasa ham, quyidagi ishora bilan aytib o‘tadi: “... hukumat hammaning otasidir. O‘z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumatimiz o‘gay bo‘lsa ham, har yerda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin o‘qitur”. Avloniy ana shu “o‘gay tarbiyadan” ko‘ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va va o‘z davrini “Tarbiyaning zamoni – tarbiyaning ayni vaqti”, deb ataydi. Shuningdek, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo ha’lokat, yo saodat, yo fa’lokat masalasidir”, degan mazmundor fikrlarni ham keltirib o‘tadi. Allomaning bu boradagi qarashlari hanuz o‘z kuchini yo‘qotganmaganligini, tarbiya - hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanligi yurtimiz rahbarlari tomonidan yaratilgan asarlarda iqtibos qilib keltiriladi. Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o‘rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an’analariga suyanib, uchga bo‘ladi: ***badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi.*** Shular orasidan axloq tarbiyasiga a’lohida urg‘u berib, uni “insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi” tarbiya, deb baholaydi. Fazilatlarni Avloniy yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar, deb ataydi. Abdulla Avlolniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “yomon xulqlar”ga – illatlar tahliliga katta o‘rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to‘siq bo‘ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi: “Jaholat insoniyatning eng zo‘r dushmani va yomon xulqlarning boshlig‘idir”. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an’anaviy bo‘lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida alohida to‘xtaladi. “Vatanni suymoq lozim bo‘lsa, uning yo‘lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimoslar Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”, – degan fikrlarni keltiradi [3]. Shuningdek, jadid axloqshunosligining allomasi intizom, iqtisod, idrok va zako singari o‘sha davrlarda hali ko‘p quloq o‘rganmagan fazilatlarni ham alohida e’tibor bilan nazariy - amaliy tahlildan o‘tkazadi, o‘quvchiga iloji boricha qisqa va lo‘nda tarzda taqdim etishga intiladi.

Abdurauf Fitrat Turkiston jadidchiligining rivojida muhim rol o‘ynagan hamda o‘z asarlari bilan ushbu harakat g‘oyalarining yoyilishiga juda katta hissa qo‘shgan. Fitratning tarbiyaga doir eng mashhur asarlarlaridan biri “Oila” kitobidir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, har jihatdan yuksak axloq - odob egasi bo‘lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi, ya’ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo‘lida ekani hammaga ayon bo‘lib qoladi. Shu bois ilg‘or, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy - tarbiyaviy risolalar yozish yo‘li bilan ham bo‘lajak ziyoli onalarni voyaga yetkazishga hissa qo‘shadilar. Fitratning ushbu asari ham shu yo‘sinda paydo bo‘lgan. “Oila” asari Turkiston milliy uyg‘onishida benihoya katta rol o‘ynadi. Ayni paytda, u hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ajoyib axloqiy - ma’rifiy risola sifatida a’lohida e’tiborga molik. “Agar xotun o‘qigan bo‘lsa, o‘zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak - shubhasiz biladi. Bolalarini esa go‘zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo‘ladi va nihoyat Alloh Taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi”, – deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi o‘rni, oilaviy vazifalari, er - xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikoh va muhabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchilariga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning ham uy egalariga o‘xshash inson ekanliklarini hisobga olib, ish ko‘rish lozimligi ta’kidlanadi, turmushning oqilona uyushtirilishi uchun xizmat qiladigan ibratli maslahatlar beriladi. Risolada ham tanqidiy ruh, ham da’vat ruhi kuchli. Fitrat ona Turkistonni ozod ko‘rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila bilim, axloq, a’mol va erk o‘chog‘i bo‘lmog‘i lozimligini aytadi va yangi oilani ana shu tartibda qurishga da’vat etadi. Har jihatdan sog‘lom bo‘lgan oila etishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko‘tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: «Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jism-u tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol - aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...» [4], – deydi alam bilan Fitrat.

Jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatish orqali yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma’naviy yuksaltirishga chorlaganlar. Jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog‘laganlar va shu yo‘lda yoshlar asosiy kuch bo‘lganligini tushunib, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko‘p sa’y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “…farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur

o‘rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” [5], – degan fikrlari bilan qorishgan holda mustaqil O‘zbekiston uchun dasturul amal sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Б., Юсупов Ш., Улуғбек Долимов У. ва бош. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент: «Маънавият», 2004.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T: Ma’naviyat, 1999. – B.169.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T: Ma’naviyat, 2009. – B.38.
4. Abdurauf Fitrat. Oila. T: Cho‘lpon, 2013. – B.109.
5. Mirziyoyev Sh. Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023-yil 6-mart. http//: daryo.uz.

ELNING DARDIGA DARMON ISTAGAN NIYOZIY

Tursunmurodova Dilobar Rahimjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Ismoilova Karomat
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 3 bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodi, xususan, ”Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”dan joy olgan “Dardiga darmon istamas” she’rini poetik jihatdan tahlil qilingan. Mazkur she’rda badiiy san’atlarning nechog‘lik asar g‘oyasini ochib berishga xizmat qilganligiga guvoh bo‘lamiz.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, she’r, badiiy san’atlar, talmeh, tazod, tashbeh, g‘oya va mavzu.*

KIRISH. Jadid adabiyoti boshqa davr adabiyotidan o‘zining ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarannum etishi bilan boshqa davr adabiyotidan farq qiladi. Bu davrda adabiyot nafaqat ijod, balki insonlarga ilm beruvchi, dunyoqarashini o‘stiruvchi bir vosita sifatida ahamiyatli bo‘ldi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”dan o‘rin egallagan barcha she’rlar aynan shu vazifani bajardi. Bir umumiy nom ostidagi 7 she’riy to‘plamga 1915-1917-yillarda yaratgan she’rlari kiritilgan. Bu she’riy to‘plamlar: “Atir gul”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Safsar gul” deya nomlanib, mazkur to‘plamdan joy olgan barcha she’rlar avval xalq ichida mashxur bo‘lgan qo‘shiqlarning qayta ishlangan variant bo‘lib, mazkur she’rlarda taraqqiyotparvarlik, ma’rifat, ilm, ozodlik, xalqni uyg‘otish kabi g‘oyalar aks etgan she’rlar asosida qayta ishlangan ijod mahsulidir. Ularda xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg‘otish, ilm-ma’rifatga da’vat etish g‘oyasi yetakchi edi.

ASOSIY QISM. Biz “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” tarkibiga kirgan “Dardiga darmon istamas” she’rini g‘oyaviy jihatdan tahlil qilamiz.

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri mohi tobon istamas,
Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.[1]

Ushbu she’r orqali shoir, go‘yo g‘aflat uyqusidagi millatni uyg‘otishga intilgan edi. Hamza nazarida, chalajon millatni tiriltiruvchi, qayta oyoqqa qo‘yuvchi darmon ilm-ma’rifatdir degan g‘oyani ilgari surib, o‘zbek elini ilmga Shu bois u xalqni ilm olib, taraqqiyot sari intilishga chorlaydi. Shoir o‘zining birgina “Uxlama ko‘p o‘zbek eli” jumlasi bilan xalqqa da’vat ruhi yetakchilik qiladi. Yuqoridagi misralarda tazod san’atidan mahorat bilan foydalangan bo‘lib, “zulmat” va “mohi tobon” hamda “uyqu” va “taraqqiy” kabi ziddiyatli tushunchalarni qarshilantirish orqali shoir ilgari surgan g‘oya uchun ham xizmat qilgandir.

Ko‘nglidur oshuftai lahv-u tarab, nafs-u havo,
Tilsa zillat xanjari bag‘rini Luqmon istamas,
Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida…

She’rda yana “zillat xanjari”, “g‘aflat domi” kabi metaforalar keltirilgan. “Tilsa zillat xanjari bag‘rini Luqmon istamas” bunda, Luqmon hakimning tabibligiga ishora qilinib, talmeh san’atidan o‘rinli foydalanilgan. Tani jarohat istasa ham, davo istamasligi aytilmoqda.

Ilmsizlikdan hama kelgon baloni anglayur,
Ittifoq-u g‘ayrat aylab lek irfon istamas,
Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida[2]…

Jaholat, ilmsizlik insonning boshiga tushadigan barcha balo-qazolarning asosi. Buni anglashga chorlaydi. Ittifoq, g‘ayrat qilib, irfon istashi lozimligi ta’kidlanadi. Yana uchinchi misrasida xalqqa da’vat etilgan.

O‘zga millat uchsalar hikmat topub suyi samo,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas,
Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.[3]

Mazkur bandda yana “o‘zga millat” va “bizning millat” “samo” hamda “yer” so‘zlari zidlantirilgan. Hamza she’rlarining go‘zal obrazli, ta’sirchan qilib yozishdan maqsad jimjimador so‘zlar emas, balki xalqni ilm-ma’rifatga chorlashni asosiy maqsad qilib olgan. Shuning uchun uning tashbehlarida ham, tazodlarida ham ma’rifat ufurib turadi.

O‘zgalar etmakda har kun bing sanoi ixtiro,
Biz aholi topmoqqa beranj bir non istamas,
Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.[4]

Millat ilmsizlikdan keladigan baloni bilsada, lekin g‘ayrat qilib bilim olmasligi hamda, o‘zga millatlar izlanish qilib hatto samoga chiqishi (misol uchun, oyga) yoki yangiliklar kashf qilishi (raketa), ammo biz loaqal nonimizni topib

[1] H.H.Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami, 2-tom, Toshkent:”Fan”, 1988, 29-b.
[2] O‘sha betda.
[3] H.H.Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami, 2-tom, Toshkent:”Fan”, 1988, 30-b.
[4] H.H.Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami, 2-tom, Toshkent:”Fan”, 1988, 30-b.

yeyolmaymasligimiz kabi farqli jihatlar ochib berilgan. Har bir misraning oxirida ”Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida” kabi ilm olishga undovchi jumlalar takror qo‘llangan. Bu she’riy san’atda “takrir” deb nomlanadi.

Keldi davri, dushdi osmondan Masihoyi ilm,
Bu nechuk badmurdalik, jismiga bir jon istamas,
Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.[5]

“Keldi davri, dushdi osmondan Masihoyi ilm” ilmning Masihga o‘xshatilishi keltirilgan. Bu she’riy san’atda “tashbeh” deb ataladi. Ilmning Iso Masih kabi jon beruvchilik xususiyati aytilgan. Mazkur misrada o‘xshatish bilan birga talmeh san’ati ham qo‘llanilgan. Ya’ni Iso Masih ham tashbeh, ham talmeh san’atiga asos bo‘lgan.

Bu na vahshat, na jaholat er, qiz-u pir-u juvon,
Domi g‘aflatdin xalos o‘lmoqqa imkon istamas,
Ey Nihon, bing hayf et insoniyat, islomiyat,
Millati xor o‘lmag‘in hech nomusulmon istamas,
Uxlama ko‘p o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

She’r oxirgi bandiga kelganda shoirning fikrlari quyilib kelgani sababmi yoki millatni uyg‘otuvchi chaqiriqlari ko‘p bo‘lgani uchunmi nima sabab ekanligiga bizning aqlimiz ojizlik qiladiku, ammo she’r shaklida o‘zgarish bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Har bandi uch misralik she’r oxirgi bandida besh misralik bandda yozilgan. Ammo mazmuniga hech qanday putur yetmagan. Bu ham shoirning mahoratidan dalolatdir. Oxirgi bandida shoir o‘kinch bilan bu ne vaxshiylik, bu ne jaholat erlar (yigitlar), qizlar, juvonlar hech biri g‘oflatning domidan chiqishni istamasligini yozadi.

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi har bir davr uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Unning ijodi o‘zbek adabiyoti va madaniyati uchun yangi davrni boshlab bergan, xalq ma’naviyatini uyg‘otishga xizmat qilgan ulug‘ ma’rifatparvar shoirdir. Ijodkorning “Dardiga darmon istamas” she’rida ma’rifat, ozodlik, insonparvarlik g‘oyalari singdirilgan. U jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, so‘z qudrati orqali xalqni uyg‘otishga harakat qilgan. Mana shu maqsad yo‘lida she’rlarida badiiy san’at vositalaridan mohirlik bilan foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. H.H.Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami, 2-tom, Toshkent:”Fan”, 1988.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi, 6 jildlik, 4-jild. Toshkent:”Fan”, 2010.
3. Suyima G‘aniyeva.Hamza ijodi va o‘zbek ma’rifatparvarligi. Toshkent:”Fan”, 1975.

CHO‘LPON SHE’RIYATIDA NOVATORLIK

Abdushukurova Ruxshona
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

[5] H.H.Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami, 2-tom, Toshkent:”Fan”, 1988, 30-b.

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Cho‘lponning she’riyatida namoyon bo‘lgan novatorlik jihatlarini tahlil qiladi. Maqolada shoirning yangi mavzularni ochishi, she’riy til va shaklni yangilashi, milliy va zamonaviy uyg‘unlik yaratishi hamda insoniy hissiyotlarni chuqur ifodalashi kabi jihatlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Cho‘lpon ijodi o‘z davrining adabiy jarayonlariga yangilik olib kirish bilan birga, bugungi kunda ham o‘quvchilar va adabiyotshunoslar uchun dolzarb ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon, she’riyat, novatorlik, zamonaviylik, milliylik, ijod.*

Kirish. Cho‘lpon – o‘zbek adabiyoti tarixida ijodiy yangiliklari bilan ajralib turgan shoir va adibdir. Uning she’riyati an’anaviy adabiy uslubdan farq qilib, milliy qadriyatlarni zamonaviy nigoh bilan ifodalashga intiladi. Cho‘lpon ijodida yangi mavzular, o‘ziga xos she’riy shakl, obrazlar va metaforalar orqali o‘quvchini o‘ylashga, his qilishga va zamon ruhini anglashga undaydigan kuch mavjud. Shoirning ijodiy yondashuvi milliy va xalq og‘zaki ijodi an’analarini yangi shakl va mazmunda aks ettiradi.

U she’rlarida inson ruhiyati, ijtimoiy hayotdagi muammolar, milliy ong va erkinlik kabi mavzularni yangicha talqin qiladi. Cho‘lponning she’riyatidagi novatorlik nafaqat mavzu va mazmunda, balki til va uslubda ham yaqqol seziladi. U oddiy va tushunarli so‘zlar bilan o‘z dunyoqarashini yetkazib, yangi ritm va obrazlar orqali o‘quvchini fikr va his-tuyg‘ulariga jalb qiladi.

Asosiy qism. Adabiyot so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib kelgan. Shu bois, adabiyot tobora shaxs adabiyoti sifatida rivojlanib, alohida insonni – shaxsni tadqiq etishga intilmoqda. Shoir va yozuvchilar inson ruhining muhandislari sifatida qaraladi. 20-30-yillarda Cho‘lpon ijodi haqida ko‘plab maqola va taqrizlar yozilgan. Ozod Sharofiddinovning “*O‘zbek shoiri Cho‘lpon”*, Oybekning “*Cho‘lpon shoirni qanday tekshirish kerak”*, Usmonxonning *“Munaqqidning munaqqidi”* kabi asarlari o‘sha davr mahsulidir. Biroq ko‘pchilik maqolalarda shoir ijodi qora ranglarda talqin qilingan. Masalan, *“O‘zbek shoiri Cho‘lpon”* maqolasida shunday yozilgan: *“Cho‘lpon yo‘qsul xalqning shoiri emas. U millatchi O‘zbek, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir”.*

Mustaqillik davrida esa milliy-estetik qadriyatlar va ma’naviy merosga munosabat tubdan o‘zgardi. Qadriyat va tarixiy meros millat ma’naviyatini yuksaltiruvchi muhim mezon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Cho‘lpon ijodi ham zamonaviy adabiyotda qayta o‘rganilmoqda.

Yangi mavzular va g‘oyalar. Cho‘lpon o‘z davrida kam ko‘tarilgan yoki umuman ko‘tarilmagan mavzularni ochdi. Uning she’riyati nafaqat sevgi, tabiat va milliy qadriyatlarni aks ettirdi, balki inson ruhiyati, ijtimoiy o‘zgarishlar, milliy ong va erkinlik masalalarini ham chuqur yoritdi. Masalan, she’riyatida sevgi va insoniy munosabatlarni tasvirlashda shaxsiy his-tuyg‘ular bilan jamiyatdagi odatiy qoidalar va qadriyatlar uyg‘unlashgan. Shu jihat Cho‘lpon she’riyatini o‘sha davr adabiyotidan ajratib turadi va o‘quvchida yangilik hissi uyg‘otadi.

She’riy til va shakldagi yangilik. Cho‘lpon she’rlarida til va shakl jihatidan ham yangicha yondashuv seziladi. U oddiy va tushunarli so‘zlar bilan birga ritmik o‘zgarishlar, yangi obrazlar, metafora va simvollardan foydalangan. Menimcha, bu uslub uning ijodini nafaqat milliy, balki jahon adabiyoti darajasida qadrlash imkonini beradi. Masalan, u qo‘llagan tasviriy vositalar, ohang va ritm she’rga hayotiylik va chuqurlik baxsh etadi, o‘quvchi bilan shaxsiy aloqani kuchaytiradi. Shu sababli Cho‘lpon ijodi har doim o‘z davrining ruhini, insoniy kechinmalarni va zamon talablari bilan uyg‘unlashgan yondashuvni ifodalaydi. Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi. Cho‘lpon she’riyatining yana bir muhim jihati – milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi. Shoir milliy an’analarni hurmat qilgan, lekin ularni yangicha ko‘rinishda ifodalashga harakat qilgan. Masalan, xalq og‘zaki ijodi, qo‘shiqlar, ertaklar va rivoyatlar elementlarini she’riy obrazlarda yangicha talqin qilgan. Menimcha, bu ijodiy yondashuv uning she’riyatini o‘quvchilar uchun yanada boy va mazmunli qiladi. Shu orqali Cho‘lpon nafaqat o‘z davrining milliy ruhini aks ettirgan, balki zamonaviy o‘quvchi uchun ham qiziqarli bo‘lgan asarlar yaratgan. Insoniy hissiyotlar va falsafiy chuqurlik. Cho‘lponning ijodida inson ruhiyati va hissiyotlari alohida o‘rin egallaydi. U she’rlarida insonning ichki dunyosi, uning ichki kechinmalari, hayotiy savollar va o‘z-o‘zini anglash jarayonini chuqur ochib beradi. Men o‘qiganimda, har bir misra o‘zida nafaqat ohang va ritmni, balki falsafiy chuqurlikni ham aks ettiradi. Shu jihat Cho‘lpon she’riyatini o‘quvchilar uchun yanada mazmunli va hayotiy qiladi, uning ijodini zamonaviy adabiyotga bog‘laydi. [4] Ijtimoiy muammolarni ochib berish.

Misol uchun, Cho‘lponning *“Tong sirlari”* she’riy to‘plamidan bir parchani keltirish mumkin:

Tong sirlari chog‘ida osmon shafaq bilan uyg‘onadi,
Yurakda yangi orzular, yangi intilishlar bo‘ladi.

Bu misrlar orqali shoir nafaqat tabiat go‘zalligini, balki inson qalbidagi yangilik va intilishlarni ham tasvirlaydi. Ritmik o‘zgarish va oddiy, tushunarli til o‘quvchini she’riy olamga olib kiradi.

She’riy til va shakldagi yangilik. Cho‘lpon she’rlarida til va shakl jihatidan ham yangicha yondashuv seziladi. U oddiy so‘zlar bilan birga ritm, metafora, simvol va obrazlardan foydalangan. Masalan, tabiat tasvirlari orqali inson ruhiy kechinmalarini ifodalash uning uslubini noyob qiladi. Shu orqali she’r ohangdor, hayotiy va falsafiy chuqurlikka ega bo‘ladi.

Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi. Cho‘lpon ijodining muhim jihatlaridan biri milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi hisoblanadi. Shoir xalq og‘zaki ijodi, qo‘shiqlar, ertak va rivoyatlarni yangicha shaklda she’riy obrazlarda aks ettirgan. Bu yondashuv uning ijodini boy va mazmunli qiladi hamda o‘quvchiga milliy ruhni zamonaviy talqin bilan yetkazadi.

Insoniy hissiyotlar va falsafiy chuqurlik. Cho‘lpon she’riyatida inson ruhiyati va hissiyotlari alohida o‘rin egallaydi. U she’rlarida insonning ichki dunyosi, kechinmalari va o‘zini anglash jarayonini chuqur ochib beradi. Masalan, *“Tong sirlari”* she’ri o‘quvchini o‘zligini anglashga, erkinlik va shaxsiy mas’uliyat

savollarini izlashga undaydi. Shu jihat Cho‘lpon she’riyatini zamonaviy o‘quvchiga ham qiziqarli qiladi.

Ijtimoiy muammolarni yoritish. Cho‘lpon ijodida shaxsiy hissiyotlar bilan birga jamiyat muammolari ham ochib beriladi: ozodlik va qaramlik, milliy qadriyatlar va zamonaviy o‘zgarishlar kabi masalalar she’riy tilda ifodalanadi. Shu jihat uning ijodini badiiy, falsafiy va ijtimoiy ahamiyatga ega qiladi.

Ijodiy yangilik va obrazlarning o‘ziga xosligi. Shoirning obrazlari va metaforalari uning ijodiy yangiliklarini ko‘rsatadi. Tabiiy elementlar, inson ruhiy kechinmalari va zamon muammolarini uyg‘unlashtirib, u yangi, o‘ziga xos dunyo yaratgan. Har bir she’r o‘quvchida kuchli ta’sir uyg‘otadi va Cho‘lpon ijodini noyob qiladi.

Cho‘lpon poeziyasi o‘quvchini loqayd qoldirmaydi: u insonni o‘zligini anglashga, *“Men erkinmanmi? Nega? Nima uchun?”* degan savollarga javob izlashga majbur qiladi. Shu jihat uning she’riyatini zamon ruhini ifodalovchi, insoniy va falsafiy chuqurlikka ega badiiy merosga aylantiradi.

Xulosa. Cho‘lpon she’riyatidagi novatorlik uning ijodiy yangiliklari, o‘ziga xos she’riy til va shakl, milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi hamda insoniy hissiyotlarni chuqur ifodalash orqali namoyon bo‘ladi. U o‘z davrining an’anaviy adabiyotidan chiqib, yangi mavzularni ochgan, she’rga hayotiylik va falsafiy chuqurlik baxsh etgan. Shu jihatlari bilan Cho‘lpon o‘zbek adabiyotida nafaqat yangilik, balki o‘quvchi va adabiyotshunoslar uchun doimiy ilhom manbai bo‘lgan.
Cho‘lpon ijodini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbdir, chunki u milliy qadriyatlarni zamonaviy uslubda ifodalash, inson ruhiyati va jamiyat muammolarini chuqur tahlil qilish orqali har bir o‘quvchi va tadqiqotchiga yangi fikrlar va qarashlar beradi. Shu sababli uning she’riyatidagi novatorlik nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki zamonaviy adabiyot jarayonlari uchun ham katta qadr-qimmatga ega.

Bir o‘rinda Sharq qoloqligidan aksincha, ikkinchi o‘rinda yaralangan Sharq tanasiga malham bo‘lgisi keladi, xasta, tutqun Sharqning ahvoliga achinadi. Bu davrdagi fojialardan ogoh qilgan va undagan buyuk ijodkordir. O‘zi ham bu yo‘lda hech narsadan tap tortmay hatto jonini fido qilib bo‘lsa ham xalqni uyg‘otishga chaqirgan. Sharqning erk kuychisi desak aslo adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho‘lpon-Yana oldim sozimni. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot Toshkent1991.
2. Cho‘lpon-Asarlar. Uch jildlik. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot Toshkent I, II jildlar. 1994-95.
3. Cho‘lpon, Tanlangan asarlar, Toshkent, 2000.
4. X. Qo‘qoniy, O‘zbek adabiyoti tarixi, Toshkent, 2015.
5. Sh. Rustamov, Cho‘lpon va milliy adabiyot, Toshkent, 2010.
6. Z. Nazarov, She’riyat va zamonaviylik, Toshkent, 2018.
7. N. Qodirov, O‘zbek adabiyotida yangi yo‘nalishlar, Toshkent, 2012.
8. O‘zbek adabiyoti portali – http://uzbekliterature.uz

9. Cho‘lpon ijodi haqida maqolalar – http://adabiyot.uz/cho‘lpon
10. Milliy adabiyot va she’riyat tahlili – https://www.ziyonet.uz/adabiyot

XORAZM JADID MA’RIFATPARLARI MA’RIFIY-AXLOQIY QARASHLARI (BAYONIY VA FAQIRIY IJODI MISOLIDA)

Umorova Dilnoza Odilbekovna

Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Xorazmda IX-XI, XV-XVIII va XIX-XX asrlarda yashagan alloma va mutafakkirlar, ma’rifatparvarlik ruhida she’r va g‘azallar bitgan shoirlar hayoti haqida ma’lumot berilgan. Xorazm jadidchiligi namoyondalaridan Muhammad Rahimxon Feruz, Komil Xorazmiy, Islomxo‘jalar faoliyati haqida so‘z yuriladi. Faqiriy va Baayoniy g‘azallari pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm jadidchiligi, Faqiriy, Bayoniy, ma’rifatparvarlik, Xiva xonligi.*

KIRISH. Xorazm juda qadim zamonlardayoq ilm-fan va madaniyati rivojlangan mamlakat sifatida Misr, Bobil, Iroq, Eron, Hindiston, Yunoniston va Rum mamlakatlari qatorida turgan. Sharq uyg‘onish davri (IX-XI), ya’ni birinchi renessans davrining buyuk darg‘alari, mutaffakkirlari aynan Xorazm hududidan yetishib chiqqanligi fikrimizning yaqqol isbotidir. Muso al-Xorazmiy, Abu Mansur Iroq, Beruniy, Ibn Umar az-Zamaxshariy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Sulaymon Baqirg‘oniy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud kabi buyuk alloma va mutafakkirlarni yetishtirigan ushbu zamin ko‘hna davrdan ilm-fan o‘chog‘i sanaladi. Xorazm diyori faqat bu allomalarni yetishtirish bilan cheklanib qolmadi. XV-XVIII asrlarga kelib, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Abdulg‘ozi Bahodirxon, Muhammadniyoz Nishotiy, Munis Xorazmiy, Muhammad Rizo Ogahiy kabi buyuk ma’riftaparvarlarning pedagogik qarashlarini bizga meros qilib qoldirdi. XIX-XX asrga kelib Muhammad Rahimxon Feruz, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Ilyos Mulla Muhammad, Ahmadjon Tabibiy, Avaz O‘tar, Bayoniy va Faqiriylar ham o‘zidan buyuk ma’naviy meros qoldirganlar. Tadqiqot ishimizni obyekti sifatida Bayoniy va Faqiriy ijodini oldik.

Muhammad Yusuf Bobojonbek o‘g‘li Bayoniy 1840-yilda Xivada zamonasining o‘qimishli va madaniyatli arbobi bo‘lgan Bobobek ibn Hasanbek oilasida tug‘ildi. Boshlang‘ich bilimni o‘z uyida maxsus muallimda olgach, Xivaning eng mashhur madrasalaridan “Sherg‘ozixon”da tahsil ko‘rdi. Yoshligida ilm, san’at, musiqa va ayniqsa, she’riyatga zo‘r havas qo‘ygan Muhammad Yusuf o‘zbek, fors, arab adabiyoti va tillarini, shuningdek, musiqa va tarix fanini qunt bilan o‘rganishga kirishdi.

Elni kurashga chorlang,
Ma’rifat sari yo‘llang…

Ushbu misralar orqali Bayoniyning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy-axloqiy qarashlari yotganligini sezish qiyin emas[1].

Shoir o‘zining “Ahli ash’ora”, “Sizlarga so‘zim”, “Xorazm yoshlariga”, “Otlan, el yigitlari” she’rlarida istiqlolga erishishning birdan-bir yo‘li ilm-ma’rifat egallashdir degan g‘oyani ilgari suradi.

Eshit so‘zim farzandlar, ko‘p mehribon dilbandlar,
Oshdi yoshim saksondan, o‘zim ham chiqdim sondan.
Qani, endi ko‘zda nur, belda quvvat ham putur,
Bo‘lsa-yu safga tursam, el bilan birga yursam.

Shoirning ushbu “Sizlarga so‘zim” she’rini tahlil qiladigan bo‘lsak, shoir bu misralar orqali yosh avlodga kelajak baxti uchun botir va ilmli bo‘lish kerakligini vasiyat qilayotganligini tushunishimiz mumkin.

Holima rahm aylab, ey joni jahon, xush keldingiz
Aylabon lutf-u karamlarni ayon, xush keldingiz…
Rahna solmish erdi ko‘nglim mulkiga g‘am lashkari
Baytullahzonim qilib dorul-amon, xush keldingiz…

Ushbu misralar shoirning kamolot cho‘qqisi deb atashimiz mumkin[2].

Bayoniy shoirlik faoliyati bilan birga tarjimonlik ham qilgan. Aynan uning bu faoliyatini ma’rifatparvarlik faoliyati deb atashimiz mumkin. U fors tilidan “Vomuq va Uzro”, “Tazkiratush-shuaro”, “Sahoiful axbor”, “Shayboniynoma”, “Tarixi Tabariy” kabi tarixiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bundan tashqari, Bayoniy o‘zining mualliflik asarlariga ham ega. “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” kabi tarixiy asarlari orqali Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan tarixnavislik maktabini an’analarini davom ettirdi.

Bayoniyning zamondoshi, maslakdoshi bo‘lgan Abdurazzoq Faqiriy (1880-1924) asarlarida xalqparvarlik, vatanga muhabbat, adolatparvarlik, xalqlar do‘stligini ulug‘lash, shaxs kamoloti va uning ta’lim-tarbiyasi to‘g‘risidagi g‘oyalar ilgari surilgan.

Faqiriyning ma’rifiy-didaktik g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan “Yangi maktablar” asarida eski maktab va madrasalardagi ta’lim jarayoni bilan “o‘n oyda savodxon” etuvchi yangi usul maktablaridagi ta’lim-tarbiya ishlari taqqoslanib, afzalliklari ta’riflanadi.

Bilingkim, toza davron jarchisidur yangi maktablar,
Jaholat qasrini ham buzg‘usidir yangi maktablar,
Agarchi madrasalar, fisq-u bid’atga makon erdi,
Vale ilm-u hunarlar partavidur yangi maktablar.
O‘n-o‘n besh yil o‘qubon ham yozolmas erdi o‘z ismin,
O‘n oyda bas, savodxon etgusidir yangi maktablar.

Ushbu “Yangi maktablar” asarida ma’rifiy-didaktik g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan “Yangi maktablar” asarida eski maktab va madrasalardagi ta’lim jarayoni bilan “o‘n oyda savodxon” etuvchi yangi usul maktablaridagi ta’lim-tarbiya ishlari taqqoslanib, afzalliklari ta’riflangan.

Bizim bechora mazlum xalq bilmay saringun erdi,
Alar kulfi dilkin ochg‘usidir yangi maktablar.
Faqiriy, emdi kelmish fax relining davri davroni
Shu davron madhini ham bitg‘usidur yangi maktablar.

Faqiriy ushbu misralari orqali savodsiz xalqni ilm olishga chorlaydi[3].

Faqiriy o‘zining “Mullalar” hajviy g‘azalida o‘zini tom ma’noda savodxon qilib ko‘rsatuvhi, aslida esa “ilm-ma’rifatning zavoli” bo‘lgan bid’atchi, xurofotchi johil v anodon mullalar”ning ma’naviy dunyosini ayovsiz tanqid qiladi:

Ma’rifatning zavoli johil, nodon mullalar,
Hayhotki, yurt boshiga ofat bo‘lg‘on mullalar,
Tilsang ko‘ksin topilmas “Lom”, “Alif”dan bir nafar
Savlatni ko‘rganlar derki mardon mullalar…[4].

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Bayoniy va Faqiriy o‘z asarlarida xalqni ma’rifatga chorlagan, ularni savodsizlik botqog‘igan chiqib ilm olishga undaganlar. Demak, ularni hech ikkilanmasdan XIX asr Xorazm jadidchiligi namoyondalari deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanov S. Xorazm ma’rifati – olam ko‘zgusi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1996. -B.294.
2. Bayoniy. G‘azallar. -Toshkent: O‘zdavnashr, 1962. -B.25.
3. Faqiriy. She’rlar. -Toshkent, 1972. -B.14.
4. Faqiriy. Mullalar. –“Mushtum oynomasi”, 1969. 23-son.

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA ISLOMXO‘JANING MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI VA MA’NAVIY MEROSI

Axtamova Muhayyo Anvar qizi,
Pardayeva Farangiz Ahtamjon qizi,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqola XIX-XX asrlar bo‘yida Turkistonda (O‘rta Osiyo) sodir bo‘lgan jadidchilik harakati va uning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri Islomxo‘ja faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shu bilan birga, uning fojiali o‘limi haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi jadidlar davridagi ta’lim-tarbiya islohotlarini tarixiy sharoitda tahlil qilish, Islomxo‘ja merosini o‘rganish, ularning bugungi O‘zbekiston va Markaziy Osiyo ta’lim tizimiga ta’sirini baholashdan iborat.*

Kalit so‘zlar*: Islomxo‘ja, Jadidchilik harakati, Turkiston jadidlari, Xiva xonligi, Islomxo‘ja minorasi, taraqqiyot vaziri, ma'rifatparvarlik, Asfandiyorxon, ma'naviy uyg‘onish.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy uyg‘onishiga asos soldi. Turkiston jadidlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoil G‘aspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Hamza kabi ko‘plab ma’rifatparvarlar – millatni qoloqlikdan qutqarish uchun kurashganlar. Jadidlar o‘z faoliyati orqali xalqni jaholatdan xalos etish, ilm, ta’lim, adabiyot, san’at, axloq va

din asosida yangicha fikrlashga undashni bosh maqsad qilib qo‘ygan edilar. Ular uchun asosiy g‘oya – “Millatni saqlab qolish uchun uni o‘qitish, uyg‘otish, ma’rifatli qilish” edi. Ular xalqni “millat” sifatida uyg‘otish, o‘zligini anglash, milliy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari surdilar.

Tarix sahifalarida shunday shaxslar borki, ular o‘z davrining chegaralaridan o‘tib, kelajak avlodlarga ibrat bo‘lib qoladi. Xiva xonligi tarixida ana shunday siymolardan biri – Islomxo‘ja edi. U o‘z davrida diniy e’tiqodga sadoqat, xalq farovonligi uchun xizmat va islohotchi g‘oyalarning uyg‘un namunasini yaratgan arbob sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Bugungi kunda ham “e’tiqod va yangilanish” tushunchalari o‘rtasidagi muvozanat dolzarb masalalardan biridir. Dunyoviylik va diniylik o‘rtasidagi muvozanatni topa olgan shaxslar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Islomxo‘ja ana shunday shaxslardan bo‘lib, u e’tiqodini saqlagan holda, Xiva xonligiga zamonaviy o‘zgarishlar kiritgan islohotchi sifatida tarixda nom qoldirdi. Islomxo‘ja (1872 – 1913 Xiva) – Xiva xonligining bosh vaziri. Xorazmda jadidchilik harakati o‘ng oqimi rahbarlaridan biri. U – Xiva xonligining yirik davlat arbobi, ma’rifatparvar, islohotchi shaxs sifatida tarixda katta iz qoldirgan [6]. U Xiva xonligi davrida yangi usul maktablarini tashkil etish, kutubxonalar ochish, ilm-ma’rifatni targ‘ib qilish kabi ishlarga boshchilik qilgan. Uning tashabbusi bilan Xiva va boshqa shaharlarda Islomxo‘ja madrasasi va minorasi, Nurullaboy saroyi qurildi, jadid maktablari, hatto rus maktablari ochildi. Islomxo‘ja Xivada shahzodaga atab shifoxona tiklagani haqida ham ma’lumotlar uchraydi [1;46]. Islomxo‘ja shuningdek, Xivada birinchi pochta va telegraf idorasini tashkil etdi. Bu, o‘z navbatida, aloqa va savdo rivojiga katta turtki berdi. Shuningdek, birinchi dorixona va gaz yoqiladigan chiroqlar tizimini joriy etdi. Uning faoliyati Xiva jamiyatini uyg‘otdi. Odamlar o‘z hayotlarida o‘zgarish bo‘lishi mumkinligini his qila boshladilar. Shuning uchun ham Islomxo‘ja xalq orasida “taraqqiyot vaziri” deb atalgan.

Islomxo‘janing nomi bilan bog‘liq eng mashhur obida – bu Islomxo‘ja minorasi va unga tutash madrasadir. U 1908–1910-yillar oralig‘ida qurilgan bo‘lib, bugungi kunda ham Xiva shahrining ramziga aylangan. Minoraning qurilishi shunchaki me’moriy hodisa emas edi. Bu, aslida, xalqni ma’naviy uyg‘otish va diniy birlik ramzi sifatida bunyod etilgan obida edi. Uning balandligi 57 metr bo‘lib, qadimiy va zamonaviy uslublar uyg‘unlashgan. Islomxo‘ja tomonidan barpo etilgan madrasalar, kutubxonalar, masjidlar va Islomxo‘ja minorasi uning ma’rifatparvarlik yo‘lidagi fidokorligidan dalolat beradi.Biroq Islomxo‘ja islohotlari barcha tomonidan birday qabul qilinmadi. Ayrim eski qarashdagi ulamolar va konservativ kuchlar uning yangiliklariga qarshi chiqdilar. Ularni “dinni buzayapti”, “g‘arbga ergashyapti” deb aybladilar.Xonlikda Islomxo‘ja ta'siri tufayli yuz berayotgan "uyg‘onish" alomatlaridan sarosimaga tushgan Turkiston hokimi o‘z vakiliga "Xivani tinchitish" vazifasini topshirgan edi [1;57]. ‘‘Qabristondan jasadi tanib bo‘lmas darajadagi shaxs topiladi. Uning hashamdor kiyimlari orden, medal, tilla buyumlari Xiva xonining bosh vaziri Islomxo‘ja ekanligini ko‘rsatib turardi’’[3] deb yozilgan faktlar uchraydi. Yosh xivaliklar partiyasining asoschisi Polvonniyoz Hoji Yusupovning yozishicha, taraqqiyparvarlik g‘oyalari uchun o‘z kuyovi Asfandiyorxonning buyrug‘i bilan

vahshiyona o‘ldirilgan. Ba'zi manbalarda Xiva xoni Asfandiyorxon tomonidan 1913-yil 9-avgustda islohotchilar rahnamolaridan biri, mamlakat bosh vaziri Islomxo‘jani davlat mablag‘larini o‘zlashtirishda ayblab o‘ldirtirganligi haqida ma'lumotlar uchraydi [2;132]. Bu voqea vaziri akbar Islomxo‘janing o‘limi bo‘ldi. Bu oddiy o‘lim emasdi. Bu uzoq yillar qayerlardadir berkinib yotgan o‘lim ajdarhosining nogohoniy hamlasi bo‘ldi [1;66].

Adabiyotlar tahlili. Islomxo‘ja shaxsiyati va uning jadidchilik harakatidagi o‘rni haqida yozilgan manbalar nafaqat tarixiy faktlarni, balki o‘sha davrning ruhini ham ifodalaydi. Tadqiqotlarda Islomxo‘ja siymosi turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, barcha manbalarda u ma’rifat va islohot timsoli sifatida gavdalanadi. Soyibjon Tillaboyev va Akbar Zamonovning “O‘zbekiston tarixi” darsligida [2] esa mualliflar Islomxo‘janing davlat boshqaruvidagi o‘rni, ta’lim tizimiga kiritgan yangiliklari, hamda uning Asfandiyorxon davridagi islohotlari haqida tarixiy dalillarga tayanib, aniq faktlar keltiradilar. Ayniqsa, Xivada pochta va telegraf idoralari, gaz chiroqlari va dorixonalar tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar o‘sha davr uchun katta ijtimoiy sakrash bo‘lganini ko‘rsatadi. Avaz Sotimning “Temurqozi To‘ra” asarida [1] Islomxo‘ja Xiva xonligidagi siyosiy muhitda yangilanish shamolini olib kirgan arbob sifatida tasvirlanadi. Muslim.uz rasmiy sayti [6] va Ziyouz.com kutubxonasidagi ma’lumotlarda [7] esa Islomxo‘ja hayoti va faoliyati zamonaviy nuqtai nazardan yoritilgan. Ayniqsa, Islomxo‘ja minorasining ramziy ma’nosi – ma’naviy uyg‘onish minorasi sifatida talqin qilinadi.

Materialar va uslublar. Ushbu maqolada XIX–XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan jadidchilik harakati va uning yorqin vakili Islomxo‘janing faoliyati tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda internet axborot resurslari asosida o‘rganildi. Ma’lumotlar yordamida Islomxo‘janing shaxsiy g‘oyalari, e’tiqodi va ma’rifiy faoliyati tahlil qilindi. Bu manbalar yordamida tarixiy voqealarga hozirgi davr nuqtai nazaridan baho berish imkoniyati yaratildi. Islomxo‘ja faoliyati faqat Xiva xonligi doirasida emas, balki Turkiston uyg‘onish davrining keng jarayoni sifatida talqin qilindi. Tahlil jarayonida olingan ma’lumotlar asosida Islomxo‘janing konseptual ahamiyati – ya’ni, uning diniy e’tiqod va dunyoviy yangilanishni uyg‘unlashtira olganligi asoslab berildi. Shu bilan birga, u amalga oshirgan islohotlarning bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimiga va ma’naviy hayotiga ta’siri haqida xulosalar chiqarildi.

Natijalar va munozaralar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Islomxo‘ja shaxsi nafaqat Xiva xonligi, balki butun Turkiston jadidchilik tarixining o‘ziga xos ramzidir. Islomxo‘ja shaxsida e’tiqod, ma’rifat va islohot g‘oyalari uyg‘unlashgan. Islomxo‘janing konseptual ahamiyati faqat mahalliy emas – mintaqaviy uyg‘onishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan. U G‘aspirali, Behbudiy, Avloniy singari jadidlar bilan bir qatorda, xalqni “ilm bilan ozodlikka” eltgan avlodning bir bo‘lagi edi. Uning o‘limi jadidchilik harakati uchun zarba bo‘lgan bo‘lsa-da, g‘oyalari to‘xtamadi – u ochgan maktablar orqali yangi avlod jadidlar voyaga yetdi. Masalan, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Murod Avazboyev singari yosh xivaliklar keyinchalik o‘sha ruhni davom ettirishgan. Bugun ham Islomxo‘ja minorasi shunchaki tarixiy yodgorlik emas – u o‘z orzularining toshga o‘yilgan timsoli. Uning soyasida har kuni

yuzlab sayyohlar suratga tushadi, ammo ular bilmasa ham, u minora tagida bir xalqning uyg‘onish orzusi yotgan.

Xulosa. Islomxo‘ja ta’lim tizimida yangi usuldagi o‘qitish metodlarini joriy etishga harakat qilgan, bu orqali diniy bilim bilan dunyoviy ilmlarni uyg‘unlashtirishni maqsad qilgan Islomxo‘ja nomi bilan bog‘liq obidalar, madrasalar, ko‘chalar bugun ham Xivada ehtirom bilan eslanadi. Uning minarasi hamon Xiva osmonida ko‘tarilib turibdi – xuddi o‘z davrining orzulari singari. Islomxo‘janing faoliyatini o‘rganish bugungi yoshlar uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki u bizga shuni o‘rgatadiki – haqiqiy e’tiqod taraqqiyotga to‘siq emas, balki uni yorituvchi nurdir. Islomxo‘ja jahon xalqlari taraqqiyotidan bir necha asr ortda qolgan, ba’zi sohalarda o‘rta asrcha mustabidlik hukm surayotgan Xiva xonligida o‘zgarish yasashga urindi va dastlabki natijalarga erishdiki, bular tarix sahifalaridan yorqin joy oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avaz Sotim. “Temurqozi To‘ra” – T.:– “Sharq”, 2006. [46; 57;66].
2. Soyibjon Tillaboyev., Akbar Zamonov. O‘zbekiston tarixi. 9-darslik– “Sharq”, 2019. [132].
3. Umid Bekmuhammad. ‘‘Islohotchi Islomxo‘ja va uning sirli o‘limi.’’ – Xurshid Davron kutubxonasi. –2015.
4. Polvoniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. Urganch “Xorazm”. –1999.
5. Vapayeva Yorqinoy. ‘‘Xiva jadidchiligi yangi talqinda’’. – 2023.
6. O‘zbekiston musulmonlar idorasi rasmiy sayti – https://muslim.uz
7. Ziyouz.com kutubxonasi
8. inlibrary.uz sayti.

JADID IJODKORLARI ASARLARIDA UMUMXALQ MAQOLLARINING QO‘LLANILISHI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Tojiboyeva Muxlisa Sherali qizi
SamDPI magistranti

Annotatsiya. Maqolada jadid ijodkorlari asarlarida xalq maqollari muhim bir unsuri ekanligi tahlilga tortilgan. Mualliflar o‘z asarlarida maqollardan asar qahramonlariga tavsif berishda, milliy koloritni yaratishda, voqelikka o‘z munosabatlarini bildirishda foydalanishlari o‘zbek jadid adabiyoti misolida muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar. Jadidlar,hikmatli so‘z, milliy kolorit, lingvomadaniy belgi, milliy qadriyat

Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini ixcham, ammo to‘laqonli ma’no bilan ifodalashga xizmat qiladigan nutq birliklaridir. Ular tilimiz ko‘rki, nutq madaniyati va tafakkur tarzi hamda axloqiy-estetik me’yorlarni “qisqa matn - katta mazmun” shaklida mujassam etadi. Shuning uchun maqollar

nafaqat badiiy matnlarda, balki kundalik muloqotda ham ijtimoiy xotira va madaniy vosita vazifasini bajaradi. Lingvomadaniy yondashuv ana shu vositalarda milliy mentalitet, urf-odat va ijtimoiy me’yorlar qanday til birliklari orqali aks etishini tahlil qiladi. Maqollar har qanday til va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular xalqning donishmandligi, axloqiy qadriyatlari va amaliy bilimlarini mujassam holda o‘zida aks ettirib, avloddan avlodga o‘tib keladi. O‘zbek tilida maqollar alohida o‘rin kasb etadi, chunki ular til boyligi, tarixiy qatlamli va madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi. Maqollar til tizimidagi lingvomadaniy belgilar bo‘lib, u avloddan avlodga ijtimoiy xotirani uzatadi. Lingvomadaniy tahlil ularning semantik-kognitiv tuzilishida qanday milliy modellarning yashiringanini ko‘rsatadi va bu modellar ta’lim-tarbiya, madaniyatlararo muloqot hamda nutq madaniyati tadqiqotlarida amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ta’kidlaganidek: “Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir” [2;3]. Tarixga nazar solsak, turli davrda ijodkorlarning asar badiiyligini oshirish, til ravonligini oshirish va uning kitobxon qalbiga kirib borishini ta’minlash maqsadida xalq maqollaridan keng foydalanganlarining guvohi bo‘lamiz. Shubhasiz, badiiy adabiyotda xalq maqollari muhim rol o‘ynaydi, chunki maqollar adabiy asarlarning muhim bir elementidir. Mualliflar o‘z asarlarida xalq maqollaridan asar qahramonlariga tavsif berishda, milliy koloritni yaratishda, voqelikka o‘z munosabatlarini bildirishda foydalanadilar. Adiblar asarlarining g‘oyasiga ko‘ra unda uchraydigan maqollar ham turli mavzularda bo‘lishi mumkin: vatanparvarlik, tinchlik, mehnatsevarlik, insonlar fe’l-atvoriga xos xususiyatlar va sifatlar kabi.

Ma’lumki, har bir millat va mamlakat tarixida uning taqdiriga, kelajakdagi rivojlanish yoxud tushkunlik holatlariga olib keladigan ko‘plab voqea-hodisalar, siyosiy jarayonlar, revolyutsion yoki evolyutsion o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Ana shunday jarayonlar o‘zbek xalqi tarixida ham juda ko‘p kuzatiladi. Bunday jarayonlar ko‘pincha tashqi kuchlarning ta’sirida yuz bersa-da, biroq milliy tushkunlik, turli inqirozlarga muayyan ma’noda u yoki bu millat, elatning o‘zi ham sababchi bo‘lib qoladi. Bunga ham tarixda misollar juda ko‘p Ana shunday tahlikali davrlardan biri O‘zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida sodir bo‘ldi. Bunday hollarda millat, uning kelajagi uchun qayg‘uradigan, mustamlakachilik azoblaridan qutqaruvni maqsad qilib qo‘ygan, qorong‘lik, zulmatdan ozod etish yo‘lida o‘zini ham ayamaydigan vatanparvarlar, millatparvarlar, albatta, maydonga chiqadi. Ma’rifatparvar jadid bobolarimiz ana shunday elsevar, erksevar, millatparvar, o‘z g‘oyalariga ega, Vatan ozodligini bukilmas e’tiqodga aylantirgan oydinlarimiz edi. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida to‘g‘ri ta’kilaganidek: “Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks-sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi. O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi” [1]. Jadid adabiyoti xalq ruhiyati, kundalik turmushi va milliy o‘zlikni badiiy matnda qayta

voqelantirishga intilgan oqimdir. Bu jarayonda xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa maqollar, jadid matnlarida “madaniy belgi” vazifasini bajaradi: ular muallifning ma’naviy-axloqiy pozitsiyasini ixcham va ta’sirchan ifodalaydi, obrazlar nutqini milliylashtiradi hamda o‘quvchi bilan “kognitiv ko‘prik” hosil qiladi. Maqollar qisqa, ammo semantik yuk tashuvchi birlik bo‘lgani sabab, matnda qadriyatlar translyatsiyasi, baholash, ijtimoiy pozitsiya va axloqiy me’yorlarni “normallashtirish” funksiyalarini bajaradi. Jadidlar ta’lim, ma’rifat, vatanparvarlik, mehnat, andisha, komil inson kabi g‘oyalarni xalq maqollarining ma’no mazmuniga “o‘rab” beradi; bu esa lingvomadaniy qatlamni faollashtiradi va badiiy dalillash kuchini oshiradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy folklor birliklari, xususan, xalq maqollarini ijodiy nutqqa singdirishda juda hushyor uslubshunos: u maqoldan qahramon nutqini jonlantirish, sahna tilini xalq tiliga yaqinlashtirish va g‘oyani ixcham, esda qoladigan shaklda “muhrlash” uchun foydalandi. Bu holat, ayniqsa, “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” dramasida yaqqol dialoglar uzvida og‘zaki nutqqa xos tayanch birikmalar sifatida tabiiy aks etadi va har bir maqol dramatik vaziyatni qisqa, lo‘nda sharhlab beradi. Behbudiy publitsistikasida esa maqol, hikmat va naql ijtimoiy-pedagogik dalil o‘rnida, ya’ni isbot kuchaytiruvchi sifatida xizmat qiladi.

1. Maqol voqeani “ramzlab” beradi. “Padarkush” dramasining birinchi pardasida Boy Ziyoli bilan bahs chog‘ida: “bugun chap yonim ila turganman, o‘ylamagan ishlar oldimdan chiqar, mazmuni-qordan qutulib, yomg‘urga uchraymiz”,-deydi [3;6]. Bu maqol Boyning dunyoqarashini ham, sahnadagi vaziyatni ham bitta satrda belgilaydi: u nasihatni “yomon kunda” kelayotgan tashvish deb qabul qiladi. Maqol bu yerda qahramon xarakterini ochuvchi psixologik belgi, sahna tempi va ohangini belgilovchi signal vazifasini bajaradi.

2. Maqol dialogga og‘ish, ya’ni ritm va ommaviy nutq bo‘yog‘ini olib kiradi. Ikkinchi parda mayxona sahnasida, davradagilar nutqida, ifoda etilgan: “Erga navbat, sherga navbat” kabi umumxalq iboralari suhbatni navbat va “gapga egalik” ustidagi odatiy hazil-mutoyiba darajasida jonlantiradi. Bunda maqol konfliktni chuqurlashtirmaydi, ammo realistik nutq muhitini yaratadi: o‘quvchi-tomoshabin axloqiy tanazzulni jonli, “ko‘chadagi” til orqali ko‘radi [3;9].

3. Maqol dramatik ikkilamchi ma’noni kuchaytiradi. Xuddi shu manzarada: “Bu mastlik rostlikdir”,-degan naql aytiladi. Gapning ustki qatlamida bu “ichgan aytadi rostni” degan tanish naql; ichki qatlamida esa fojiaga eltuvchi “rostlar”ning ochiqcha aytilishi va rejalarning ayovsizligi signalidir. Shunday qilib, maqol kutilajak dramatik burilishga ham oldindan “yorug‘lik” tashlaydi [3;9–10].

4. Publitsistik matnda maqol-hikmat isbot vositasi. Behbudiy teatrning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini asoslar ekan, “Teyotr nadur?” maqolasida “(Shunidan) kay bud monandi diydan-eshitmoq qachon ko‘rmoq kabidur” va “Mutakallimro to ayb nagirand-suxanash isloh napazirad” kabi hikmatlarni keltirib, sahna san’atini “ko‘rgazmali dalil” sifatida himoya qiladi. Bu yerda hikmatlar auditoriyaning tarixiy-madaniy xotirasiga tayangan holda mantiqiy dalilning emotsional og‘irligini oshiradi [4; 550–553].

Behbudiyda maqol uch asosiy vazifani bajaradi: 1) sahna va qahramon tilini xalq tiliga bog‘laydi; 2) dramatik vaziyatni tez “yig‘adi”, konfliktni shu’la kabi

yoritadi; 3) publitsistik matnda maqol-hikmatlar ijtimoiy da’vat va isloh g‘oyasini dalillovchi vazifaga aylanadi. Bu uslub, jadid adabiyotining keng auditoriyaga tez yetish, fikrni ixcham, ishonchli va “tanish” tilda aytish strategiyasi bilan to‘liq hamohangdir. Tadqiqotchilar ham Behbudiyning teatr va tanqid haqidagi maqolalarida maqol va hikmatli ifodalarni muvofiq qo‘llashini alohida qayd etadilar, xususan, “Teyotr nadur?”dagi yuqoridagi iqtiboslar shunday kuzatishlarni tasdiqlaydi.

Cho‘lpon nasrida:

a) Epigraf va milliyliik konsepti “Kecha va kunduz” romanining “Kecha” qismi boshida “Hamal keldi, amal keldi” epigrafi beriladi. Bu xalq maqoli bahor kelishi bilan ijtimoiy-hayotiy “amal”ning, ya’ni ish va harakatning boshlanishini ramziylashtiradi. Cho‘lpon undan mavsumiy o‘zgarish bilan jamiyat uyg‘onishini parallel qo‘yish uchun foydalanadi: bahoriy ruhiy tetiklik-milliy ruh uyg‘onishi [5].

b) Ma’no transformatsiyasi Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida maqol ma’nosini bevosita keltirmay, uni badiiy-yangi shaklda ifodalaydi; qisqa va ta’sirli bayon shaklida personajlarning ichki kechinmalari hamda davr ruhiyatidagi beqarorlikni yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ijodkorlari uchun umumxalq maqoli nafaqat bezak, balki g‘oya tashuvchi uslub, milliy ongni uyg‘otuvchi “katalizator” hisoblanadi. Behbudiyning maqol orqali dramatik ikkilamchi ma’noni ochib berishi, Qodiriyning ijtimoiy adolatsizlikni xalqona hikmat bilan muhrlash usuli, Cho‘lponning epigraf orqali milliylik konseptini uyg‘otishi, Fitratning ma’rifiy nutqda maqol semalarini modernlashtirishi-bularning barchasi maqolning lingvomadaniy quvvatini ko‘rsatadi. Shunday qilib, jadid matnlarida maqol:

1) Milliy ruhni ifodalaydi;
2) Normativ bahoni yetkazadi;
3) Estetik ritm va ta’sirchanlikni oshiradi;
4) ma’rifiy tahlilni milliy qadriyat bilan bog‘laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyevning Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. 06.03.2023 https://president.uz/uz/lists/view/6007
2. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, Ma’nolar xazinasi. Toshkent, Uzbekiston ensiklopediyasi, 2018, 405 b.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush (drama). Yoxud o‘qimagan bolaning holi. Birinchi nashr: Samarqand, 1913, 9-10 b.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Teyotr nadur?” Oyna jurnali, 1914, 29-son, 550-553 b.
5. Cho‘lpon. Kecha va kunduz (roman). Nashr: “Yangi asr avlodi”, 2011

TURKISTON MA’RIFATINING ASOSIY NAMOYANDALARI VA ULARNING TARBIYAVIY-MA’RIFIY G‘OYALARINI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH USULLARI

Karshiyeva Inobat Shavkatovna
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkiston ma’rifatining asosiy namoyandalarining ma’rifiy g‘oyalari yoritilgan. Ularning milliy o‘zlikni anglash, ma’rifatparvarlik, ijtimoiy islohotlar va siyosiy ozodlik haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Maqolada mazkur ma’rifatparvarlarning merosini yoshlar ongida aks ettirishning turli usullari, jumladan ta’lim tizimida o‘rganish, madaniy tadbirlar o‘tkazish, kino va onlayn resurslardan foydalanish kabi usullar ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola O‘zbekistonning kelajagi uchun mustahkam zamin yaratishda yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishning ahamiyatini ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar. *Turkiston ma’rifati, jadidlar, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlikni anglash, O‘zbekiston tarixi.*

Har bir xalqning tarixida ma’rifatparvarlik yo‘lini tanlagan, o‘z davrining ilg‘or fikrlarini olg‘a surgan va jamiyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk siymolar bo‘ladi. Turkiston xalqlari ham o‘z tarixida ana shunday ma’rifat fidoyilariga ega. Ularning merosini o‘rganish va yoshlar ongiga singdirish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Turkiston ma’rifati tarixida alohida o‘rin tutuvchi namoyandalarimizdan bir nechtasini sanab o‘tamiz: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, dramaturg, publitsist, pedagog va jamoat arbobidir. Uning asosiy g‘oyalari ma’rifat, taraqqiyot, milliy birlik va ozodlik edi. U "Padarkush" dramasi orqali o‘zbek jamiyatidagi qoloqlikni tanqid qilib, ilm-ma’rifatga chaqirgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablarining tashkilotchisi, ma’rifatparvar, noshir va siyosatchi b o‘lgan. U yangi usuldagi maktablar ochib, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berishga intilgan. Uning g‘oyalari ma’rifat orqali millatni uyg‘otish va taraqqiyotga erishishga qaratilgan edi.

Abdulla Avloniy jadid adibi, dramaturg, publitsist va pedagog. Uning asarlari, ayniqsa, “Turkiston qayg‘usi” she’ri Turkiston xalqlarining milliy o‘zligini anglashida muhim rol o‘ynagan. Avloniy o‘z asarlarida milliy g‘urur, vatanparvarlik va ma’rifatni ulug‘lagan.

Abdulhamid Cho‘lpon jadid shoiri, nosir, dramaturg va tarjimon. Uning she’rlari o‘zbek adabiyotiga yangi ruh olib kirgan. “Go‘zal Turkiston” she’ri vatan tuyg‘usini yuksak darajada ifoda etgan. Cho‘lpon o‘z asarlarida milliy ozodlik va ma’rifat g‘oyalarini targ‘ib qilgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy jadid adibi, shoir, dramaturg va jamoat arbobi. Uning she’rlari va pyesalari o‘zbek xalqining og‘ir hayotini aks ettirib, ijtimoiy adolat va ma’rifatga chaqirgan. “Boy ila xizmatchi” pyesasi orqali jamiyatdagi tabaqalanishni tanqid qilgan.

Abdurauf Fitrat jadid adibi, faylasuf, tilshunos va siyosatchi. Uning “Munozara” asari zamonaviy va eski fikrlar o‘rtasidagi ziddiyatni tasvirlab, ma’rifatning ahamiyatini ochib bergan. Fitrat o‘z asarlarida milliy o‘zlikni anglash, ma’rifatparvarlik va siyosiy ozodlik g‘oyalarini ilgari surgan.

Jadidlar nafaqat ta’lim va siyosat sohasida, balki madaniyat va san’atda ham katta o‘zgarishlar qilgan. Ularning teatr asarlari, adabiy merosi va musiqiy faoliyatini qayta tiklash yoshlar ongida o‘zbek madaniyatiga bo‘lgan hurmatni oshiradi. Ushbu ma’rifatparvarlarning g‘oyalarini yoshlar ongida aks ettirish ularni ma’rifatparvar ruhida tarbiyalashda asosiy o‘rin egallaydi. Yosh avlod qalbida his ettirish va ongiga singdirishning bir qancha usullari bor va bu yurtimizda bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda. Jadid adiblarining hayoti va ijodini maktab va universitet dasturlariga kiritish, ularning asarlarini o‘rganish, tahlil qilish va muhokama qilish orqali yoshlar ularning g‘oyalari bilan tanishish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, jadidlarga bag‘ishlangan teatr tomoshalari, adabiy kechalar, ko‘rgazmalar va konferensiyalar tashkil etish yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyitadi va ularda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantiradi.
Jadidlarning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi badiiy filmlar va seriallar suratga olish va namoyish etish ommaviy axborot vositalari orqali ularning g‘oyalarini keng yoyish imkonini beradi. Jadidlarga bag‘ishlangan veb-saytlar, elektron kutubxonalar va ijtimoiy tarmoqlarda guruhlar tashkil etish esa yoshlarga jadidlar haqida ma’lumot olish va fikr almashish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari maktab va oliygohlarda jadidchilik g‘oyalarini o‘rganuvchi klublar tashkil etish yoshlarning o‘zaro muloqoti, bahs-munozaralari va tadqiqotlari uchun maydon bo‘lad. Jadidlarning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan insholar, she’rlar, rasmlar va boshqa ijodiy ishlar tanlovlarini o‘tkazish. Bu yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning milliy o‘zligini anglashiga ko‘mak beradi. Ularning faoliyati har jabhaga chuqur qaratilgan bo‘lib, ayollarning jamiyatdagi rolini ham oshirish uchun qizlar maktablarini ochishga katta e’tibor bergan. Bu merosni o‘rganish yosh qizlarni ilm olishga va o‘z huquqlarini himoya qilishga undaydi.

Jadidlar nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun Turkiston mintaqasiga ta’sir ko‘rsatgan. Ularning g‘oyalari boshqa musulmon xalqlarining milliy uyg‘onishida ham muhim rol o‘ynagan. Namoyandachilarning g‘oyalari har bir yosh o‘zbekistonlikning qalbidan joy olishi kerak. Ular bizga vatanparvarlik, ma’rifat va taraqqiyot sari yo‘l ko‘rsatadi. Jadidlar - o‘zbek xalqining ma’naviy mulki, ularning g‘oyalari yosh avlod uchun hayotiy dars bo‘lib xizmat qiladi. Ular o‘z davrining mash’ali edi, ularning ziyosi yoshlar qalbini yoritib, ertangi kunga umid bilan qarashga undaydi. Jadidlar merosini o‘rganish orqali biz o‘z o‘tmishimizga nazar solamiz, bugungi kunimizni anglaymiz va kelajak uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ular xalqning o‘zligini saqlab qolish, milliy madaniyatni rivojlantirish, yosh avlodni ma’rifatli qilish yo‘lida fidokorona xizmat qildilar. Biz ularning bu xizmatlarini hech qachon unutmaymiz. Ularning merosi bizga doimo shunday savolni beradi: “Bugungi kunda biz millatimiz uchun nima qila olamiz?” Bu savol har birimizni o‘ylantirishi va harakatga undashi kerak.

Turkiston ma’rifatining buyuk namoyandalarining g‘oyalari yoshlar ongida aks ettirilishi – ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim omilidir. Ma’rifatparvarlarning merosini o‘rganish va targ‘ib qilish orqali biz yosh avlodni ma’naviy barkamol, bilimli va yurtiga sadoqatli insonlar etib voyaga yetkazishga erishamiz. Bu esa O‘zbekistonning kelajagi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Behbudiy “Tanlangan asarlar”**.** - Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
2. A.Avloniy “Tanlangan asarlar”**.** - Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
3. A. Fitrat “Tanlangan asarlar” (3 jildlik)"**.** - Toshkent: Ma’naviyat, 2000-2006.
4. Karimov N. “O‘zbek adabiyoti tarixi” (5 jildlik)**.** - Toshkent: O‘qituvchi, 2006-2010.
5. Rajabov Q. “Turkiston jadidlari”**.** - Toshkent: Adolat, 2016.
6. Ziyo G‘aybulla “O‘zbek davlatchiligi tarixi”**.** - Toshkent: Sharq, 2000.
7. Alimova D. “O‘zbekistonda jadidchilik: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot”**.** - Toshkent: Fan, 2008.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi**.** - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARINING TA’LIM VA TARBIYADAGI ISLOHOTLARI ORQALI YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDAGI O‘RNI

Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi
Urganch davlat pedagogika insituti tayanch doktoranti
Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi
pedagogika fani o‘qituvchisi

Annatatsiya: *ushbu tezisda Jadidchilik harakati (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) O‘rta Osiyoda, xususan, o‘zbek jamiyatida ma’naviy, ijtimoiy va ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy harakatlari shuningdek Ushbu harakatning yetakchi namoyondalari (Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat va boshqalar) ta’lim va tarbiya orqali yoshlarni zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda oilaviy hayotga tayyorlashga katta e’tibor qaratganlar haqida batafsil yoritilgan*

Kalit so‘zlar*: Jadidchilik, ta’lim islohotlari, tarbiya, zamonaviy jamiyat, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy munosabatlar.*

KIRISH. Jadidchilar ta’lim tizimini isloh qilish orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga zamin yaratishgan. Ularning asosiy maqsadi an’anaviy diniy ta’lim bilan zamonaviy dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish edi. Bu jarayonda ular oilaviy qadriyatlar va mas’uliyatni o‘rgatishga alohida e’tibor berishgan Usul-i jadid maktablari: Jadidchilar tomonidan tashkil etilgan “usul-i jadid” (yangi usul) maktablari o‘quv dasturiga dunyoviy fanlar (matematika, tabiatshunoslik, geografiya) bilan birga axloqiy tarbiya va oilaviy hayotga oid bilimlarni kiritishgan. Masalan,

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Padarkush” dramasida oilaviy tarbiya va yoshlarning mas’uliyatsizligi oqibatlarini ko‘rsatib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurligini ta’kidlagan. Behbudiy oilani milliy tarbiya va ma’rifatning boshlang‘ich manbai deb bilgan va shu sababli milliy ta’lim tizimini isloh qilishni targ‘ib qilgan. Uning bu fikrlari o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniy qadiriyatlarini saqlagan holda zamonaviy ta’lim usullarini joriy etishga qaratilgan edi[4.56-b]..

Jadidchilar yoshlarga oiladagi o‘zaro hurmat, adolat va mas’uliyatni o‘rgatishga intilishgan. Abdulla Avloniy o‘zining “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” asarida yoshlarga oilaviy qadriyatlar va vatanparvarlikni singdirishga harakat qilgan. Uning ta’limotlarida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida ko‘rilgan. Avloniyga ko‘ra, axloqiy tarbiya oilada boshlanadi va bu jarayonda ota-ona nafaqat o‘z xatti-harakatlari bilan namuna bo‘lishi, balki farzandlariga ilm olishni ham targ‘ib qilishi kerak. Uning pedagogik qarashlari zamonaviy psixologiya va sotsiologiya nuqtai nazaridan ham dolzarbdir, chunki u oiladagi tarbiyani shaxsiyatning dastlabki shakllanish bosqichi deb qaragan[1.34-b].

Shu bilan bir qatorda jadidchilar ayollar ta’limiga alohida e’tibor berishgan, chunki ular oilada ayolning ongli va bilimli bo‘lishi farzand tarbiyasi va oilaviy barqarorlik uchun muhim deb hisoblashgan. Munavvar qori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan qizlar maktablari ayollarni nafaqat oilaviy hayotga, balki ijtimoiy faoliyatga ham tayyorlashga xizmat qilgan. Erta nikohning salbiy oqibatlari, xususan, qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini cheklashi haqida ogohlantirgan. “Oila - jamiyatning ko‘zgusi” degan tamoyilga asoslanib, ayolning oiladagi tarbiyaviy rolining jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishini ta’kidlagan. Uning bu qarashlari sotsiologik nuqtai nazardan oilani ijtimoiy institut sifatida tahlil qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar ham ta’limli ayollarning oilada va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashdagi rolini tasdiqlaydi[4.67-b].

Cho‘lpon “Kecha va Kunduz” romanida ayollar taqdiri, oiladagi nosog‘lom muhit va jamiyatdagi o‘zgarishlar mavzusini ko‘targan. O‘zbek jamiyatida ayollarning o‘z huquqlari uchun kurashi va oiladagi adolatsizliklarni keskin tanqid qilgan. Romanda tasvirlangan oilaviy muhitdagi ziddiyatlar va ayollarning o‘z taqdirini o‘zgartirishga urinishi o‘sha davrdagi ijtimoiy o‘zgarishlarning aksidir. Jadidchilar talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda jamoatchilikning, xususan, mahalla tizimining rolini muhim deb bilishgan xususan Mahalla instituti orqali yoshlarga oilaviy qadriyatlar, mas’uliyat va o‘zaro hurmat o‘rgatilgan. Ya’ni mahalla yetakchilari va oqsoqollar bilan hamkorlikda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga harakat qilishgan[5.89-b].

Ular tomonidan tashkil etilgan ma’rifiy tadbirlar, masalan, teatr tomoshalari va ma’ruzalar orqali yoshlarga oilaviy hayotning axloqiy va huquqiy asoslari tushuntirilgan. Behbudiy va Hamza Hakimzoda Niyoziyning asarlari bunga misol bo‘la oladi. Yoshlarga oila qurishdan oldin iqtisodiy mustaqillikka erishish zarurligini ta’kidlaganlar. Bu oiladagi moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va nizolarni kamaytirish uchun muhim hisoblangan. Jadidchilar oilaviy munosabatlarni huquqiy asosda tartibga solishni targ‘ib qilishgan. Masalan, nikoh shartnomalari va oiladagi adolatli munosabatlarni ta’minlash bo‘yicha maslahatlar berishgan. Jadidchilar o‘z

g‘oyalarini targ‘ib qilishda adabiyot, teatr va matbuotdan foydalanishgan: Abdulla Avloniy, Fitrat va Behbudiy kabi jadidchilarning asarlari yoshlarga oilaviy qadriyatlar va mas’uliyatni o‘rgatishda muhim vosita bo‘lgan. Masalan, Fitratning “Oila” asarida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning muhimligi ta’kidlanadi. “Oyina”, “Xurshid” kabi jurnallar orqali yoshlarga oilaviy hayotga tayyorgarlik, axloqiy tarbiya va zamonaviy bilimlar targ‘ib qilingan[3.98-b]

Jadidchilik harakati namoyondalari ta’lim va tarbiya orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda katta islohotlar amalga oshirgan. Ularning usul-i jadid maktablari, ayollar ta’limiga e’tibori, jamoatchilik bilan hamkorligi, huquqiy va iqtisodiy mas’uliyatni targ‘ib qilishi zamonaviy oilaviy qadriyatlarning shakllanishiga zamin yaratgan. Bu harakat nafaqat o‘zbek jamiyatini ma’rifiy jihatdan yuksaltirishga xizmat qilgan, balki oilaviy hayotga tayyorgarlikni zamonaviy va an’anaviy qadriyatlar uyg‘unligida rivojlantirishga hissa qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Avloniy, A. (1998). Adabiyot yoxud milliy she’rlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2.Khalid, A. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press.
3.Qodirov, P. (2010). O‘zbekiston jadid adabiyoti. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.
4.Ziyayeva, D. (2015). O‘zbekistonda jadidchilik harakati va ta’lim islohotlari. Toshkent: Akademnashr.
5.Sodiqov, A. (2008). O‘zbek xalq pedagogikasi va jadidchilik. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

YANGI USUL MAKTABLARIDAGI TA’LIM TIZIMI VA O‘QITISH METODIKASI

Ergashev Bobomurod Eshbo‘ri o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Yangi usul maktablarining ta’lim tizimi va o‘qitish metodikasi yoritilgan. Unda jadidchilik harakati davrida paydo bo‘lgan yangi usul maktablarining maqsadi, o‘quv jarayoni tashkiloti, dars o‘tish uslublari hamda o‘qituvchilarning faol metodik yondashuvlari tahlil etiladi. Shuningdek, ta’limda tushunishga asoslangan, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi ilg‘or tamoyillar ochib beriladi. Maqolada yangi usul maktablarining o‘sha davr ta’lim tizimiga olib kirgan yangiliklari, ularning ma’naviy va madaniy taraqqiyotdagi o‘rni hamda bugungi ta’lim jarayoniga ta’siri haqida ilmiy fikrlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi usul maktablari, jadidchilik, ta’lim tizimi, o‘qitish metodikasi, zamonaviy ta’lim, ma’rifat, o‘quv jarayoni, innovatsion yondashuv, milliy uyg‘onish, pedagogika.*

Yangi usul maktablari o‘z davrida ta’lim tizimining rivojlanishida tub burilish yasagan hodisa sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Bu maktablar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, ayniqsa jadidchilik harakati ta’sirida shakllanib, eski maktab va madrasalarda ustuvor bo‘lgan yod olishga asoslangan ta’lim tizimidan farqli tarzda, zamonaviy bilimlarni o‘qitish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan edi. Yangi usul maktablari orqali o‘quv jarayoniga turli fanlar – matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, ona tili, hisob va yozuv kirib keldi.

Yangi usul maktablarida ta’lim tizimi bosqichma-bosqich va tizimli tarzda tashkil etilgan. O‘quvchilar sinf-sinf bo‘lib o‘qitilgan, darslar jadval asosida olib borilgan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqot yo‘lga qo‘yilgan. Dars jarayonida yozma mashqlar, o‘qish, tahlil, muhokama kabi faol metodlar qo‘llanilgan. Bu maktablarda faqat diniy bilimlar emas, balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilib, bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularni zamonaviy hayotga tayyorlash maqsad qilingan.

Yangi usul maktablarining asosiy metodik yondashuvi – ta’limni tushunishga asoslash, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va ularga mustaqil fikrlash imkoniyatini berish edi. O‘qitish jarayonida ko‘rgazmali vositalar, jadval, xaritalar, misol va mashqlar keng qo‘llanilgan. Bu usullar bolalarning o‘rganilayotgan mavzuni yaxshiroq anglashiga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishiga yordam bergan. O‘qituvchilar darslarni oson, tushunarli tilda tushuntirishga harakat qilganlar, bu esa o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirgan.

Yangi usul maktablarining metodikasi, avvalo, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, har bir bolani shaxs sifatida qadrlash va uning imkoniyatlarini ochib berishga e’tibor qaratilgan. Darslarda majburlash o‘rniga rag‘batlantirish, tanqid o‘rniga tushuntirish, eslab qolish o‘rniga tushunish tamoyillari ilgari surilgan. Bu yondashuv o‘sha davr ta’lim tizimi uchun yangilik bo‘lib, o‘qitishning samaradorligini oshirgan.

Yangi usul maktablari orqali jamiyatda ilmga, ma’rifatga bo‘lgan qiziqish ortgan, o‘qituvchilik kasbiga hurmat kuchaygan. Bu maktablar milliy uyg‘onish, madaniy rivojlanish va xalq ma’naviyatining yuksalishida muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ismoil G‘aspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlarning faoliyati natijasida yangi usul maktablari butun Markaziy Osiyo bo‘ylab keng tarqalgan. Yangi usul maktablari paydo bo‘lishining asosiy sababi o‘sha davrda mavjud madrasalarning jamiyat ehtiyojlarini qondira olmasligi, zamon talablari bilan mos kelmasligi bo‘ldi. Eski maktablarda o‘quvchilar asosan diniy bilimlar – Qur’on, hadis, fiqh, arab tili kabi fanlarni yod olish orqali o‘rganar edilar. Bu esa o‘quvchilar tafakkurining cheklanishiga, dunyoviy fanlardan uzoqlashishiga olib kelgan. Yangi usul maktablarining asosiy maqsadi – xalqni jaholatdan qutqarish, ilm-ma’rifatga chorlash, zamonaviy bilimlar orqali millatni uyg‘otish edi. Bu maktablarda o‘qitish jarayoni avvalgi maktablardan tubdan farq

qilgan. Darslar jadval asosida olib borilgan, o‘quvchilar sinflarga bo‘lingan, har bir fan alohida o‘qitilgan.

Yangi usul maktablarining o‘qitish metodikasi zamonaviy pedagogika tamoyillariga yaqin edi. O‘quvchi markazga qo‘yilgan, u faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayonida qatnashgan. Darslarda ko‘rgazmali qurollar, xaritalar, jadval, yozma mashqlar, savol-javob usullari keng qo‘llanilgan. O‘qituvchilar bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etganlar. O‘quvchilar o‘z fikrini mustaqil ifodalash, savol berish, javob topish, fikr yuritish imkoniga ega bo‘lganlar. Bu holat ularning tafakkurini kengaytirgan va bilimga bo‘lgan qiziqishni oshirgan.

Yangi usul maktablarining yana bir muhim jihati – o‘qitish jarayonida ona tiliga alohida e’tibor berilganligidir. Bu maktablarda darslar arab tilida emas, balki o‘zbek tilida olib borilgan. Bu hol o‘quvchilarga bilimlarni osonroq o‘zlashtirishga imkon bergan. Shu bilan birga, milliy madaniyat va qadriyatlar asosida tarbiya berish, ma’naviyatni shakllantirish ham o‘qitish jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” asarida, Munavvarqori “Adibi avval” darsligida, Abdulla Avloniy esa “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yangi ta’lim mazmunini, zamonaviy o‘qituvchining vazifalarini, o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida ta’limning rolini chuqur tahlil qilganlar. Ularning pedagogik qarashlari yangi usul maktablarining metodik asoslarini belgilab bergan Yangi usul maktablarida o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lishi talab etilgan. Ular nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni ham egallagan, o‘qitish metodikasini bilgan, bolalar bilan ishlash psixologiyasini o‘zlashtirgan shaxslar edi. Bu maktablarda dars jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, tarbiyaviy maqsadga ham yo‘naltirilgan. Yangi usul maktablari qisqa vaqt ichida butun O‘rta Osiyo hududiga tarqaldi. Ular xalq orasida ma’rifat, milliy o‘zlik, tafakkur erkinligi va zamonaviylik g‘oyalarini singdirishda beqiyos ahamiyat kasb etdi. Bu maktablar nafaqat ta’lim tizimini, balki jamiyat tafakkurini ham o‘zgartirdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yangi usul maktablari o‘z davrida nafaqat ta’lim tizimida, balki butun jamiyat tafakkurida inqilobiy o‘zgarishlar yasagan. Ularning eng muhim jihati – ta’limni yodlashdan tushunishga, majburlashdan rag‘batlantirishga, tor diniy bilimlardan keng dunyoviy tafakkurga o‘tishida namoyon bo‘lgan. Bu maktablar xalqni jaholatdan ilm va ma’rifat sari yetaklab, millatning o‘zligini anglashiga, zamonaviy taraqqiyot yo‘liga kirishiga turtki bergan. Aslida yangi usul maktablari – bu shunchaki o‘quv maskani emas, balki milliy uyg‘onishning yuragi, ma’rifatparvarlik harakatining ildizi edi. Ular orqali xalq o‘z bolalarini o‘qitishning yangi, samarali, insonparvar shaklini anglab yetdi. Yangi usul maktablarida shakllangan ta’lim tamoyillari – o‘quvchini fikrlashga o‘rgatish, uni hayotga tayyorlash, milliy qadriyatlarni asrab, zamonaviy bilimlar bilan boyitish – bugungi ta’lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.Shu sababli, yangi usul maktablarini o‘rganish faqat tarixiy merosni bilish emas, balki hozirgi ta’lim sifatini oshirish, o‘qitish metodikasini yangilash uchun bebaho tajriba manbai hisoblanadi. Ularning ruhida shakllangan g‘oyalar – “ilm xalqni yuksaltiradi, ta’lim millatni

uyg‘otadi” degan qat’iy ishonch – bugungi kun pedagoglari uchun ham eng kuchli ilhom manbaidir**.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G ‘OYALARI TARG ‘IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 281-285.

2. Ikromovich, P. K. (2024). A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE ESSENCE OF THE JADIDISM MOVEMENT. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(11), 175-181.

3. Ikromovich, P. K. (2024). A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE ESSENCE OF THE JADIDISM MOVEMENT. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(11), 175-181.

4. PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINIING IJTIMOIY-FALSAFIY TASNIFI. O‘zMU yangiliklari , 1 (1.10. 1), 166-168.

5. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(11).

JADID NASHRIYOTINING TUB AHOLI ONGIGA TA’SIRI

Ergashev Bobomurod Eshbo‘ri o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Jadidchi lik harakati va uning nashriyot faoliyati XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda xalq ma’rifatini yuksaltirish, milliy ongni uyg‘otish va zamonaviy tafakkurni shakllantirishda muhim omil bo‘ldi. Jadid nashriyotlari orqali tarqalgan gazeta, jurnal, risola va darsliklar xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarishga, ularni ilm, fan, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan tanishtirishga xizmat qildi. Bu nashrlar orqali milliy o‘zlik, mustaqil fikrlash va millat manfaatlarini anglash tuyg‘usi kuchaydi. Natijada jadid nashriyotlari tub aholi ongida yangicha dunyoqarash, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik va erkin fikrlash g‘oyalarini shakllantirishda beqiyos rol o‘ynadi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, nashriyot, ma’rifat, milliy ong, xalq tafakkuri, matbuot, islohot, erkin fikr, madaniy yuksalish.*

Jadid nashriyotlarining shakllanishi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu davrda Turkiston Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lib, siyosiy va madaniy mustaqillik yo‘qolgan, xalq orasida savodsizlik va diniy qoloqlik kuchaygan edi. Jadid ziyolilari ana shu holatni o‘zgartirish uchun

matbuotni eng qudratli vosita sifatida tanladilar. Ular nashr etgan gazeta, jurnal, darslik va risolalar orqali millatni uyg‘otishga, zamonaviy ilm-fanni o‘rganishga, xalqni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etishga intildilar. Jadid nashriyotlari Turkiston shaharlarida – Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Qo‘qon kabi markazlarda faoliyat yuritgan. “Shuhrat”, “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Hurriyat”, “Ishtirokiyun”, “Oyina” kabi nashrlar xalq orasida katta qiziqish uyg‘otgan. Ular nafaqat ma’rifiy maqolalar, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalar bo‘yicha ham fikr yuritgan. Bu nashrlar orqali jamiyatdagi muammolar ochiq muhokama qilinib, xalqni o‘z taqdiri uchun mas’uliyatni his qilishga chaqirilgan.

Jadid nashriyotlari tub aholi orasida savodxonlikni kengaytirish va ma’rifatni yoyishning samarali vositasi bo‘ldi. Ular eski maktab va madrasalar o‘rniga yangi usuldagi ta’limni targ‘ib qildi, ayollar ta’limi, bolalar tarbiyasi, milliy iqtisod va hunarmandchilikni rivojlantirish kabi masalalarga e’tibor qaratdi. Bu orqali xalq ongida yangicha qarash, dunyoga ochiqlik, milliy g‘urur, ilm va taraqqiyotga intilish kuchaydi. Jadid nashriyotlari xalqni diniy va siyosiy jaholatdan chiqarib, millatni birlashtirishga, ozodlik g‘oyasini tarqatishga, zamonaviy tafakkur asoslarini mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi. Ularning asarlari orqali Turkiston xalqlari o‘z tarixini, madaniyatini va milliy qadriyatlarini qayta anglay boshladi. Bu esa, keyinchalik mustaqillik g‘oyalarining shakllanishida, ma’naviy tiklanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Jadid nashriyotlarining tub aholi ongiga ta’siri shundaki, ular xalqni o‘zligini tanishga, adolat, taraqqiyot va erkinlik yo‘lida kurashishga ruhlantirdi. Natijada Turkiston jamiyati siyosiy, madaniy va ma’naviy jihatdan o‘zgarib, milliy uyg‘onish davriga qadam qo‘ydi. Shu bois, jadid nashriyotlari o‘z davrining ma’rifat mash’alasi, millatni uyg‘otgan kuch va mustaqil tafakkur maktabi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Jadid nashriyotlari Turkiston xalqlari tarixida milliy uyg‘onishning eng muhim bosqichini tashkil etgan. Ular o‘z davrida xalq ongini o‘zgartirish, jaholat va qoloqlikka qarshi kurashish, ilm-ma’rifatni yoyish orqali jamiyatni yangilashga xizmat qilgan. Jadid ziyolilari xalqni o‘qitish, zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘rganish, milliy o‘zlikni anglash hamda siyosiy faollikni oshirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. Bu maqsadni amalga oshirishda nashriyotlar va matbuot eng samarali vosita sifatida tanlandi.

Jadid nashriyotlari tub aholining dunyoqarashini tubdan o‘zgartirdi. Avvallari diniy tasavvurlar va qadimiy urf-odatlar ta’sirida yashagan xalq orasida ilmga, o‘qishga, fan va texnikaga qiziqish uyg‘ondi. Jadid matbuoti orqali insonning erkin fikrlash huquqi, jamiyatda adolat va taraqqiyot uchun kurash zarurati haqida fikrlar tarqaldi. Shuningdek, xalq orasida milliy o‘zlikni tan olish, Vatan taqdiri uchun mas’uliyatni his etish, siyosiy faollikka intilish ruhiyati shakllandi. Bu nashrlar nafaqat ma’rifat targ‘ibotchisi, balki ijtimoiy islohotlar uchun ruhiy asos bo‘lib xizmat qildi. Jadidlar xalqni o‘z tarixini bilishga, o‘z madaniyatini qadrlashga, milliy g‘urur va birlikni saqlashga da’vat etganlar. Nashriyotlar orqali jamiyatda ayollar mavqeyi, bolalar ta’limi, mehnat madaniyati kabi masalalar ham ko‘tarilgan.

Jadid nashriyotlarining eng katta yutug‘i shundaki, ular xalq tafakkurini uyg‘otib,o‘zligini anglashga chorlagan. Ularning faoliyati natijasida savodxonlik

darajasi ortdi,maktablar va yangi usuldagi darsliklar ko‘paydi, ilm-fan va madaniyat rivoj topdi. Shu tariqa, jadid nashriyotlari o‘z davrining eng ilg‘or ma’naviy markaziga aylandi va keyinchalik mustaqillik g‘oyalari uchun asos yaratdi. Jadid matbuoti xalqni o‘z kuchiga ishonch ruhida tarbiyaladi, millatni uyg‘otdi, zamonaviy dunyo bilan teng qadam tashlash zarurligini anglatdi. Ularning faoliyati nafaqat o‘sha davr uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, milliy o‘zlikni saqlash va mustaqil tafakkur madaniyatini shakllantirishda bebaho meros hisoblanadi.

Jadid nashriyotlari Turkiston xalqlarining ma’naviy, madaniy va siyosiy uyg‘onishida hal qiluvchi o‘rin tutgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi ostida bo‘lib, xalq orasida savodsizlik, diniy qoloqlik va siyosiy befarqlik keng tarqalgan edi. Shu sharoitda jadid ziyolilari xalqni uyg‘otishning eng samarali yo‘li sifatida matbuot va nashriyot ishini tanladilar. Ularning maqsadi – xalq ongini o‘zgartirish, ilm va ma’rifatni targ‘ib qilish, milliy mustaqillik g‘oyalarini shakllantirish edi.

Jadid nashriyotlari orqali chiqqan gazeta va jurnallar o‘z davrining ma’naviy islohot dasturi bo‘lib xizmat qildi. “Taraqqiy” gazetasi xalqni ilmga, yangilanishga, taraqqiyotga chaqirgan. “Sadoi Turkiston”da milliy birlik, mustaqil fikr, adolat, milliy o‘zlikni saqlash masalalari keng yoritilgan. “Hurriyat” gazetasi esa siyosiy erkinlik va ozodlik g‘oyalarini ilgari surgan. “Oyina” jurnali madaniyat, adabiyot va ta’lim sohalarida yangicha qarashlarni targ‘ib qilgan. Ushbu nashrlar xalqni o‘z davrining dolzarb muammolari haqida o‘ylashga, islohotlar zarurligini anglashga undagan.

Jadid nashriyotlarining asosiy vazifasi – xalqni o‘qitish, savodsizlikni tugatish va tafakkurda yangilik yaratish edi. Ular yangi usuldagi maktablar uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy risolalar chop etish orqali o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv kiritdilar. Shuningdek, nashriyotlar orqali ayollar ta’limi, bolalar tarbiyasi, milliy tilni rivojlantirish, iqtisodiy mustaqillik kabi mavzular ham keng yoritilgan. Jadid nashriyotlari tub aholining dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Xalq o‘rtasida ilmga qiziqish ortdi, yangi maktablarga borish istagi paydo bo‘ldi, matbuot o‘qish madaniyati shakllandi. Jadid nashrlarini o‘qigan yoshlar orasida milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va mustaqillik uchun intilish kuchaydi. Natijada Turkiston jamiyatida yangicha tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat va milliy ong shakllandi.

Nashriyotlar faoliyati orqali xalq o‘z huquqlarini bilishga, mustamlakachilik siyosatiga qarshi fikr yuritishga o‘rgandi. Jadidlar matbuot orqali xalqni siyosiy jarayonlarga jalb etish, o‘z taqdiri uchun kurashish, millat manfaatini himoya qilishga chaqirdilar. Bu hol Turkiston jamiyatida yangi ijtimoiy qatlam – milliy ziyolilar sinfining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Jadid nashriyotlarining ta’siri uzoq davom etdi. Ularning chop etgan asarlari, maqolalari va darsliklari keyinchalik sovet davrida ham milliy o‘zlikni saqlashga xizmat qildi. Mustaqillikdan so‘ng esa bu nashrlarning g‘oyalari – ma’rifat, milliy g‘urur, erkin fikrlash va millat manfaatini himoya qilish – O‘zbekistonning ma’naviy hayotida yana qayta jonlandi.

XULOSA qilib shuni aytish mumkinki, Jadid nashriyotlari Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onish davrida eng muhim ma’naviy va madaniy kuch sifatida

shakllandi. Ular xalq ongini o‘zgartirish, ilm-ma’rifatni yoyish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va milliy o‘zlikni tiklashda beqiyos ahamiyat kasb etdi. Jadid matbuoti orqali xalq zamonaviy ta’lim, fan, siyosat va madaniyat bilan tanishdi, bu esa tub aholining dunyoqarashida tub burilish yasadi. Jadidlar o‘z nashrlari orqali xalqni jaholat va qoloqlikdan ozod etishga, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga da’vat etdilar. Ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari natijasida milliy ong, vatanparvarlik, erkin fikr va taraqqiyotga ishonch kuchaydi. Jadid nashriyotlari nafaqat matbuot faoliyati, balki xalq tafakkurini yangilovchi, milliy o‘zlikni uyg‘otuvchi, mustaqillik g‘oyalariga zamin yaratuvchi tarixiy hodisa bo‘ldi. Bugungi kunda ham jadid nashriyotlarining merosi dolzarb bo‘lib, u o‘z xalqining ma’naviy tiklanishida, ilm-fan va madaniyat ravnaqida, mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashda ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois jadid nashriyotlarini o‘rganish – milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va kelajak taraqqiyoti uchun g‘oyaviy asosni mustahkamlash demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G ‘OYALARI TARG ‘IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 281-285.

2.Ikromovich, P. K. (2024). A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE ESSENCE OF THE JADIDISM MOVEMENT. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(11), 175-181.

3.Ikromovich, P. K. (2024). A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE ESSENCE OF THE JADIDISM MOVEMENT. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(11), 175-181.

4.PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINIING IJTIMOIY-FALSAFIY TASNIFI. O‘zMU yangiliklari , 1 (1.10. 1), 166-168.

5.Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(11).

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA UNING SAMARQANDLIK MASLAKDOSHLARI

Haqqulov Nabijon Qahramonovich
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi vakili Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning maslakdoshlarining ma’rifatparvarlik faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning o‘zaro g‘oyaviy*

hamkorligi, millatni uyg‘otish, ilm-ma’rifat va erkin tafakkurni targ‘ib etish yo‘lidagi sa’y-harakatlari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning maslakdoshlari tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohoti, maktab, matbuot, teatr san’ati va ijtimoiy fikr sohalaridagi tashabbuslarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyoti uchun ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ta’lim islohoti, matbuot, teatr, vatanparvarlik, milliy o‘zlik, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Said Rizo Alizoda, Sadriddin Ayniy, Hoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Vadud Mahmud.*

Kirish. Bugungi davrda tarixiy merosni yangicha tafakkur asosida idrok etish, uni hozirgi zamon ma’naviy ehtiyojlari bilan uyg‘un holda tahlil qilish jamiyat taraqqiyotining muhim falsafiy masalalaridan biridir. Chunki, o‘tmish tajribasi, milliy madaniyat va ma’naviyat insoniyat tafakkurining uzluksiz rivojlanishida o‘ziga xos ontologik va aksiologik ahamiyat kasb etadi. Shu bois ajdodlar qoldirgan boy madaniy merosni zamon talablari nuqtai nazaridan xolisona anglash, uni ijodiy qayta talqin etish hamda kelajak avlod ongiga insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy g‘urur ruhida singdirish bugungi falsafiy tafakkurning ustuvor yo‘nalishlaridan sanaladi.

Mazkur jarayonda jadid bobolarimiz — millat uyg‘onishining ma’naviy poydevorini yaratgan ma’rifatparvar mutafakkirlarning o‘rni beqiyosdir. Ularning fikr va amaliy faoliyati milliy o‘zlikni anglash, tafakkurni yangilash va jamiyatni ma’naviy uyg‘otish yo‘lida chuqur falsafiy mohiyat kasb etadi. “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, ularning g‘oyalarini anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz”[1;B.184].

Qadimiy va mo‘tabar Samarqand azaldan ilm va ma’rifat o‘chog‘i, minglab olim-u ulamolar, shoirlar hamda buyuk mutafakkirlar voyaga yetgan zamin sifatida e’tirof etiladi. Bu zamin bag‘ridan 80 dan ortiq “as-Samarqandiy” taxallusi bilan tanilgan allomalar yetishib chiqib, jahon ilm-fani va tafakkur xazinasiga munosib hissa qo‘shgan. Aynan shu boy ilmiy va ma’naviy muhitda shakllangan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Said Rizo Alizoda, Sadriddin Ayniy, Hoji Muin va Abduqodir Shakuriy, Vadud Mahmud kabi ma’rifatparvar ziyolilar Markaziy Osiyoda jadidchilik va ma’rifatparvarlik harakati taraqqiyotida alohida o‘rin egallagan siymolardir. Ularning faoliyati millat tafakkurini yangilash, ilm-ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligini qaror toptirish, xalqni mustaqil fikrlashga undash hamda ma’naviy uyg‘onish sari yo‘naltirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy yondashuv, mantiqiy-gnoseologik hamda aksiologik metodlardan foydalanildi. Metodologik asos sifatida **tarixiylik va tizimlilik tamoyillari**ga tayanildi, ya’ni jadidchilik harakati g‘oyalari o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoiti bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. Shu bilan birga, **komparativ (qiyosiy) yondashuv** orqali Mahmudho‘ja Behbudiy va uning maslakdoshlari qarashlari o‘zaro aloqadorlikda, g‘oyaviy va ma’naviy birlik asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda **falsafiy hermenevtika** tamoyillaridan ham foydalanilib, mutafakkirlarning asarlarida ilgari surilgan ma’naviy, axloqiy va ma’rifiy g‘oyalar zamonaviy tafakkur kontekstida talqin etildi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida jadid mutafakkirlar merosining hozirgi davr uchun ahamiyati va falsafiy mohiyati aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyoda tarixiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotini o‘rganish, xususan, XX asr boshlarida mintaqada zamonaviy falsafiy tafakkurning shakllanish jarayonlarini tahlil etish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda shakllangan ma’rifatparvarlik g‘oyalari nafaqat milliy uyg‘onish harakatining nazariy poydevorini yaratgan, balki jamiyatni yangicha tafakkur, ma’naviy islohot va ma’rifat yo‘liga boshlagan.

Shu nuqtai nazardan, akademik an’analar darajasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Said Rizo Alizoda, Sadriddin Ayniy, Hoji Muin, Abduqodir Shakuriy va Vadud Mahmud kabi ma’rifatparvar ziyolilarning xizmatlarini alohida e’tirof etish zarur. AQSHlik jadidshunos Adib Xolid yozishicha, “Behbudiy inqilobga qadar Markaziy Osiyodagi eng e’tiborli jadid sifatida tanilgan edi. U Samarqandda bir qator faol hamkor va shogirdlarining qo‘llab-quvvatlashiga erishdi. Uning suhbat halqalariga Abdulqodir Shakuriy, Ajziy va Hoji Muin kabi ziyolilar kirar edi” [2,94]. Ularning ilmiy-ma’rifiy merosi Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurining yangilanishida, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy uyg‘onish tamoyillarining shakllanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatiga munosabat – birinchilardan bo‘lib ma’rifatparvar-jadid Siddiqiy-Ajziy tomonidan qaratilgan bo‘lib, u 1917-yilda “Hurriyat” gazetasining 23-sonida e’lon qilingan **“Samarqandda musulmon komissari”** nomli maqolasida Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatiga yuksak baho bergan. Keyinchalik, bu mavzu Sadriddin Ayniy tomonidan davom ettirilib, u Behbudiyning ma’rifatparvarlik yo‘lidagi fidokorona xizmatlarini tahlil etgan. Adib hayoti va faoliyati haqida eng ko‘p yozganlardan biri mashhur dramaturg va jurnalist **Hoji Muin ibn Shukrullo** bo‘lib, u Behbudiy siymosini o‘z davrining vijdoni va ma’naviy yetakchisi sifatida talqin qilgan. Shunigdek, M.Behbudiy vafoti munosabati bilan “Izvestiya” gazetasining 1922-yil 70-sonida e’lon qilingan maqolada ham uning milliy uyg‘onish g‘oyalariga qo‘shgan hissasi e’tirof etilgan. Ushbu manbalar Mahmudxo‘ja Behbudiyning nafaqat pedagog, siyosiy arbob yoki jurnalist, balki o‘z davrining **falsafiy tafakkur namoyandasi** sifatida tarixiy xotirada mustahkam o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Taniqli jadidshunos olim Sirojiddin Ahmad ta’kidlaganidek, “Mahmudxo‘ja Behbudiyning pok nomini, milliy madaniyatda tutgan o‘rni va mavqeining tiklanishi Munavvar qori Abdurashidxonov, Cho‘lpon, Fitrat, Elbek, Tavallo, Vasliy, Ajziy, Hoji Mu’in kabi madaniyat va maorif namoyandalarining ijodlarini keng miqyosda o‘rganish va chop etish uchun yo‘l ochdi. Binobarin, millatimiz tarixining yangidan yozilishiga, alaloqibat tarixiy adolatning tiklanishiga toza tuproq soldi. Bularning barchasi Mahmudxo‘ja Behbudiy Solihxo‘ja o‘g‘lining basirati kuchli, ilmiy-adabiy merosi boy, madaniyatimiz tarixida katta o‘ringa ega donishmand arbob ekanligidan dalolatdir”[2,162].

Shu o‘rinda ma’rifatparvarlik g‘oyalari, siyosiy qarashlari va millatni uyg‘otish yo‘lidagi xizmatlari zamondoshlariga qaraganda Behbudiy ko‘proq ma’rifat va islohot orqali millatni yuksaltirish g‘oyasini ilgari surgan. Bu jarayonda ayrim maslakdoshlari siyosiy kurash va ijtimoiy faollikni ustun qo‘ygan. Shu bois, ularning o‘zaro munosabatlari doimo bir xil bo‘lmagan, ayrim hollarda fikriy kelishmovchiliklar ham yuzaga kelgan.

Ayniqsa, Behbudiy va Saidahmad Vasliy Samarqandiy o‘rtasidagi munosabatlar manbalarda turlicha talqin qilinadi — ba’zilar ularni hamfikr, boshqalar esa ayrim ijtimoiy-siyosiy masalalarda farqli pozitsiyada bo‘lgan, deb qayd etadilar. Ba’zi manbalarda ular bir-birining ishini qo‘llab-quvvatlagani aytilsa, ayrim tadqiqotchilar ularning o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy masalalarda muayyan qarama-qarshiliklar bo‘lganini qayd etadilar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Bizni hollar va ishlar” (1914) nomli maqolasida munosabatlarini quyidagicha bayon qiladi; “Usuli jadidchilarni va ruscha o‘qugonlarni “ma’lum majlis”da kufr qudug‘i bo‘yig‘acha sudragan samarqandiy muhtaram Mullo Saidahmad Vasliy shoir janoblari va Hojiahmad mudarris janoblarining ustodlari muhtaram Hoji Mullo To‘raxo‘ja janoblari”ni [3,162] tanqid qiladi.

Tadqiqotchi olima Z.O.Madaliyeva bu holatni quyidagicha izohlaydi; ““Padarkush” asari sahnalashtirilishi arafasida bunga to‘sqinlik qiluvchilar paydo bo‘ladi. Bunday to‘siqlarni tasvirlashda samarqandlik mudarrislardan biri Sayyid Ahmad Vasliy bilan teatr haqida qilgan munozaralarini keltiradi. Vasliy va bir qancha ulamolar teatrni islom diniga xilof deb bilishgan, Behbudiy esa ularga bu ko‘rinishlar kishilarning yomon xatti-harakatlari oqibatida keladigan xatarlardan ogohlantiradi, deya javob berib, o‘z javoblarini diniy tomondan ham asoslashga urinadi. Bundan tashqari, Vasliyning o‘zini ham ishq, kishini sarxush qiluvchi ichimliklar (masalan, sharob, boda, may – ta’kid bizniki Z.M) haqida she’rlar yozishini, bunday tushunchalar shariatda yaxshi qabul qilinmasa-da, tariqatda o‘zgacha mohiyat kasb etganini aytib, bahsda o‘z ustunligiga erishadi. A.Xolid esa Vasliy va Behbudiy o‘rtasidagi bunday bahslar tugaganiga qaramay, jamiyatda ancha uzoq davom etganini yozadi” ”[4,147-148]. Aslida bu tafovutlar o‘sha davr jadidlarining fikrlar xilma-xilligi, mustaqil tafakkur yuritish va ijtimoiy islohotlarni turlicha yo‘llar bilan amalga oshirishga intilganini ko‘rsatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida ma’rifatni ilgari surgan bo‘lsa, ayrim maslakdoshlari siyosiy faoliyat, matbuot va jamoat harakati orqali tezroq natijaga erishishni maqsad qilganlar. Bu turli yondashuvlar ularning harakatini zaiflashtirmagan, aksincha, jadidchilik g‘oyalarining ko‘p qirraliligini va keng miqyosini namoyon etgan. Behbudiy o‘z maslakdoshlari bilan fikriy bahslar, maktab, teatr va matbuot ishlari orqali xalqni uyg‘otish, yangi ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qilgan. Ammo, har doim ham zamondoshlari uni to‘liq qo‘llab-quvvatlamagan. Shunga qaramay, ularning umumiy maqsadi — millatni uyg‘otish, taraqqiyot sari yo‘naltirish edi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu harakat vakillari — ma’rifatparvar ziyolilar

xalqni jaholat va qoloqlikdan qutqarish, millatni uyg‘otish, zamonaviy ilm va ma’rifat asosida yangi hayot qurish g‘oyalarini ilgari surdilar. Ularning fikrlari, ilmiy, pedagogik va badiiy merosi hozirgi jamiyat taraqqiyotida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Ushbu mavzu doirasida tadqiq etilgan muammo ilmiy tahlil natijasida nazariy va metodologik xulosalarni shakllantirish, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘nalishida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratdi:

Birinchidan, jadid ma’rifatparvarlari merosini o‘rganishning tizimli modeli ishlab chiqilishi lozim. Bu modelda ularning diniy, falsafiy, pedagogik va axloqiy qarashlari bir butun g‘oyaviy tizim sifatida tahlil qilinishi, zamonaviy ta’lim mazmuniga integratsiya qilinishi zarur.

Ikkinchidan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning islohotparvarlik qarashlarini zamonaviy islohotlar bilan qiyosiy o‘rganish, uning merosini bugungi jamiyat uchun metodologik manba sifatida talqin etish lozim.

Uchinchidan, Saidahmad Vasliy Samarqandiy va Behbudiy o‘rtasidagi munosabatlarni arxiv hujjatlari, matbuot sahifalari va zamondoshlar xotiralari orqali qayta tahlil qilish, ularning jadidchilikdagi o‘rnini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, ma’rifatparvar-jadidlarining ilmiy-pedagogik merosini raqamli formatda to‘plash, elektron ma’lumotlar bazasini yaratish va bu manbalarni ilmiy muassasalar hamda oliy ta’lim muhitida keng foydalanishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, jadid bobolarimizning ilg‘or g‘oyalarini talaba-yoshlar va tadqiqotchilar malakasini oshirish dasturlariga kiritish, ularni zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlar bilan uyg‘un holda tatbiq etish, milliy o‘zlikni anglash va fuqarolik ongini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyorlar ro‘yxati

1. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998. –pp94. https://publishing.cdlib.org/ucpressebooks/view?docId=ft8g5008rv&chunk.id=d0e5108&toc.depth=1&toc.id=d0e5108&brand=ucpress
2. Сирожиддин Аҳмад. Туркистон халқининг миллий қаҳрамони // М.Беҳбудии меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент: «MUMT0Z SO‘Z»,2014. - Б.162.
3. Беҳбудий М. Танланган асарлар / / Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар; Б. Қосимов. — 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган.—Т.: «Маънавият», 1999.—280 6.
4. Madaliyeva Z.O. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Amerikada // «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari, June 19, 2025. - B.147-148. https://doi.org/10.5281/zenodo.15694769

VADUD MAHMUD IJODIDA MILLIY UYG‘ONISH VA MA’RIFAT G‘OYALARINING FALSAFIY ASOSLARI

Jo‘rabekov Abduhalil Jo‘rabekovich
Innovatsion texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi Turkiston ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan ma’rifatparvar ziyoli Vadud Mahmudning dunyoqarashi va ijodiy faoliyati falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada Vadud Mahmudning ma’naviy merosi orqali milliy o‘zlikni anglash, jamiyat ongini uyg‘otish va ma’naviy yangilanish jarayonining falsafiy-metodologik asoslari ochib beriladi. Shuningdek, uning qarashlarida ma’rifat inson kamoloti va millat taraqqiyotining asosiy manbai sifatida talqin etilgani ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Vadud Mahmud, ma’rifat, milliy uyg‘onish, falsafiy tafakkur, inson kamoloti, jamiyat, milliy o‘zlik, ma’naviy yangilanish, ozodlik g‘oyasi, milliy madaniyat.*

XX asr boshlarida shakllangan jadid adabiyoti nafaqat yangi badiiy usul va ifoda vositalarining namoyon bo‘lishi, balki Turkiston ma’naviy tafakkurining ilgarigi an’analardan ilmiy-falsafiy ma’noda uzilib, yangi ijtimoiy ong bosqichiga ko‘tarilishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu adabiyotdagi falsafiy g‘oyalar avvalo jamiyatda kechayotgan ma’naviy-ruhiy inqiroz, mustamlakachilik zulmi va millatning o‘zlikni anglash jarayonlariga javob sifatida vujudga kelgan.

Jadidlar falsafasi tasavvufiy mohiyat bilan bog‘liq ruhiy ezgulik, komil inson va ma’rifat g‘oyalarini saqlab qolgan holda, ularni yangi ijtimoiy mazmunda talqin eta boshlaydi. Endi insonning ma’naviy yetukligi faqat botiniy kamol emas, balki millat taqdiri uchun mas’uliyat, ma’rifat orqali ozodlik va istiqlolga intilish bilan chambarchas bog‘lanadi. Shu ma’noda jadid adabiyoti tasavvufiy ruhning irfoniy balandligidan ijtimoiy voqyelikning «quyi» pog‘onasiga, ya’ni hayotning amaliy muammolariga, insonning jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyatiga nazar tashlaydi.

Natijada jadid badiiy tafakkurida insonning falsafiy mohiyati yangi qirradan yoritiladi — u taqdirga taslim bo‘luvchi emas, balki o‘z hayoti va millat taqdirini ma’rifat, iroda va faollik orqali o‘zgartirishga qodir ijtimoiy subyekt sifatida talqin etiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab yetadi”[1].

Shu ma’naviy qudrat va fikriy harakat ichida Vadud Mahmud shaxsiyati alohida e’tiborga loyiqdir. U nafaqat ijodkor yoki adabiyotshunos sifatida, balki ma’naviyat va madaniyatning falsafiy qirralarini anglagan, milliy uyg‘onish mafkurasini ma’rifatparvarlik ruhi bilan uyg‘unlashtirgan ziyoli avlodning munosib vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Uning faoliyati Turkistonda ma’naviy taraqqiyot va milliy o‘zlikni tiklash harakatining ilmiy-falsafiy asoslaridan biri sifatida qadrlanadi. Xususan, tasavvuf falsafasining mumtoz adabiyotga ko‘rsatgan ta’sirini e’tirof etadi.

Vadud Mahmud mumtoz adabiyotni tasavvuf falsafasisiz tassavvur qilish mumkin emasligini boshqa zamondoshlaridan ko‘ra teranroq anglab yetdi. Shuning uchun mumtoz adabiyot bilan tasavvuf falsafasining aloqadorligi jihatlariga e’tibor qaratgan. Vadud Mahmud mumtoz adabiyotni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishning dastlab to‘g‘ri yo‘nalishini belgilab bergan olim hisoblanadi.

Vadud Mahmudning tasavvuf adabiyoti va uning namoyandalari to‘g‘risida yozgan «Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz» maqolasi 1925 yilda «Maorif va o‘qitg‘uvchi» jurnalining bir necha sonida bosilib chiqdi. Bu maqola o‘zining nazariy jihatlari va ilmiy tamoyillari bilan o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, boshqa asarlardan farq qiladi. Muallif masalaga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashib, dastlab mumtoz adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritadi. Munaqqid: “Bizda she’rning ikki jabhasi bordir. Chunki “ishqi”miz ikki jabhalidir: haqiqiy, majoziy.

Haqiqiy ishq ruhi umumiyga hulul dardidirki, eng yuksak va orifona bir amaldir.

Majoziy ishq esa oddiy va nafsoniy ehtirosdirki, umumiy va tabiiy bir mayldir.

Ko‘ruladirki, bu ikki turli ishq ham mabdai va ham g‘oya e’tibori bilan hayotiy va insoniydir. Chunki inson bir mavjud va ham shuurlik bir mavjud bo‘lg‘oni sifati bilan o‘zining yaratilishini va yashashining g‘oyasini tushunmak va bilmak istaydir” [2;80-81]. Uning ta’kidlashicha, insondagi ikki «ishq»ning vujudga kelishiga bu ikki maylning mavjudligi sabab bo‘ladi. Shuning uchun, adabiyotda ham ikki she’riy jabha paydo bo‘ldi. Bir «jabha»da haqiqiy ishq tarannum etildi, boshqasida esa «majoziy ishq»ning qirralari ochildi. Vadud Mahmud ushbu maqolasida «haqiqiy ishq»ni kuylagan shoirlardan Yassaviy («Hikmat»), Navoiy («Lison-ut tayr»), Fuzuliy («Layli va Majnun»), Mashrab («Mabdai nur») larning nomlarini tilga oladi.

Tadqiqotchi Bahodir Karimning haqli ravishda e’tirof etishicha, “Maqolada muallif birinchidan, eng ulug‘ siymolar bo‘lmish «haqiqiy ishq» sohiblarini nomlari eslatilgan asarlariga nisbatan to‘g‘ri ajratib beradi, ikkinchidan, klassik adabiyot namoyandalari ijodiga islom va tasavvuf falsafasi nazari bilan qaraydi. Taassufki, adabiyotshunoslikdagi bu yo‘nalishni davom ettirish siyosiy to‘siqlarga duch keldi. «Vadudona», «idealistik» talqinlarga qarama-qarshi o‘laroq «maydonda javlon urishga faqat marksist tanqidchi haqli» bo‘lib har qanday badiiy asar ko‘proq siyosiy-g‘oyaviy tarafdangina tekshirish boshlab yuborilgan edi” [3;17].

Vadud Mahmud ishqning falsafiy asoslari uzoq tarixga borib taqalishini e’tirof etib, u mumtoz hamda hozirgi zamon adabiyotining dolzarb muammolaridan biri ham ekanligini e’tirof etadi. Uning fikricha inson o‘z tashvishlariga o‘ralashib qolmasdan, xudbinlikka, individualizmga berilmasdan, jamiyat hayotiga kirishib ketsa yuksak darajada rivojlanishi mumkin. Vadud Mahmud yozadi: «Siz qanday talaqqiy etsangiz etingiz, bunisi aniqki, insonning erishgan eng yuksak daraja fardiyatchilik (individualizm) emas, o‘zining fardiyatini yo‘qotib, jamiyat hayoti yashashida, undan o‘tsa, hindning sigirni timsol (simvol) qilib olg‘on hayvon do‘stligida, ya’ni butun jonli narsalarni so‘yishda, bundan ham o‘tsa, jonsiz narsalarda o‘ziga mushtarak hayot tasavvur etishda va ularning umumiy ruhlarini sezish uchun intilishdadir” [2;55].

Xulosa qilib aytganda, Vadud Mahmud — XX asrning 20-yillaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitda ruhiyati toblangan, e’tiqodi va dunyoqarashi barqaror shakllangan keng qamrovli tafakkur egasi, falsafiy madaniyatli ijodkorlar safidagi yetuk shaxslardan biri hisoblanadi. Uning fikriy kamoloti milliy uyg‘onish g‘oyalari, islom va tasavvuf falsafasi, shuningdek, jahon adabiyoti tajribalarining sintezi asosida vujudga kelgan.

Vadud Mahmud ijodida falsafiy tahlil va badiiy ifoda o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi: u voqyelikni inson ongi, milliy tafakkur va ma’naviyat prizmasi orqali anglaydi. Har bir tarixiy yoki zamonaviy voqyea-hodisaga u millat manfaati, xalq ruhiyati, urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlar mezonidan turib yondashadi. Shu bois uning asarlarida jahon madaniyati saviyasi bilan hamnafas, milliy ruh va insonparvarlik tamoyillari bilan sug‘orilgan mukammal falsafiy-badiiy tizim shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://president.uz/oz/lists/view/3324
2. Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат ва изоҳлар муаллифи филологая фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент.: Маънавият, 2007. –104 б.
3. Баҳодир Карим. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. - Тошкент.: Университет, 2000. – -99 б.
4. Jadidlar — millat qahramonlari: Mahmud Pirmuhammad o‘g‘li Vadud Mahmud (+video) // https://uza.uz/oz/posts/jadidlar-millat-qahramonlari-mahmud-pirmuhammad-ogli-vadud-mahmud-video_741415
5. Qahramonovich H. N. Worthy descendants of the Samarkandians: enlighteners jadids //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 13. – С. 37-40.
6. Хаккулов Н. К. Самарканд земля просветителей джадидов //Conferencea. – 2022. – С. 48-52.

ТУРКИСТОНДАГИ ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Ражабов Қаҳрамон
тарих фанлари доктори профессор

Аннотация: *Ушбу мақолада Туркистондаги жадидчилик ҳаракати ва унинг ривожланиш босқичлари ҳақида сўз юритилган.*

Калит сўзлар: *мустақиллик, тараққиёт, жадидчилик ҳаракати, янги усул мактаблари, маърифат, ёш хиваликлар.*

Туркистонда XIX аср охири ва XX аср бошларида муҳим аҳамият касб этган ижтимоий-сиёсий ва маърифий ҳаракат сифатида *жадидчилик* (арабча: жадид – янги) ҳаракати юзага келди. Жадидчилик дастлаб XIX асрнинг 80-

йиларида Қиримда *Исмоилбек Ғаспирали (*Исмоилбек *Гаспринский)*[6] раҳбарлигида қрим татарлари

ўртасида вужудга келди. Бу ҳаракат кейинчалик Туркистондан ташқари Кавказ ва Татаристонга ҳам кенг тарқалди. Жадидчилик ҳаракати намояндалари кўпинча ўзларини тараққийпарварлар, кейинчалик жадидлар деб аташган. Ўша даврнинг илғор тараққийпарвар кучлари, биринчи навбатда, зиёлилар маҳаллий аҳолининг умумжаҳон тараққиётидан орқада қолаётганлигини ҳис этиб, жамиятни ислоҳ қилиш заруриятини тушуниб етгандилар. Жадидчилик моҳият эътибори билан аввало сиёсий ҳаракат эди. Унинг туғилиш, шаклланиш ва мағлубиятга учраш даврлари бўлиб, уларни шартли равишда тўртга бўлиш мумкин. Туркистон, Бухоро ва Хоразм ҳудудида бу даврлар 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929 йилларни ўз ичига олади[7].

Миллат истиқболини ўйловчи тараққийпарвар кучлар ҳунармандлар, деҳқонлар, савдогарлар, мулкдорлар, уламолар - халқнинг деярли барча табақалари орасида мавжуд эди. Тараққийпарварлар дастлаб Россия империясига қарши курашни халқни асрий қолоқликдан уйғотиш - сиёсий-маърифий жабҳадан бошлашга қарор килдилар. Жадидчилик ҳаракати ана шундай тарихий бир шароитда Туркистон минтақасида ривожланиш учун ўзига қулай замин топли[8].

Жадидлар орасидан етук олимлар, саноат ва зироатчилик соҳаларининг замонавий билимдон мутахассислари, маданият ва давлат арбоблари етишиб чиқиб, юртни обод ва Ватанни мустақил кўришни орзу қилдилар ва шу йўлда фидойиларча курашдилар. Жадидларнинг Туркистон мустақиллиги учун курашида асосан қуйидаги йўналишлар устувор эди: янги усул мактаблари тармоғини кенгайтириш; қобилиятли ёшларни чет элга ўқишга юбориш; турли маърифий жамиятлар ва театр труппалари тузиш; газета ва журналлар чоп қилиш, халқнинг ижтимоий-сиёсий онгини юксалтириш билан Туркистонда

[6] *Исмоилбек Ғаспирали [Исмоилбек Гаспринский]* (1851-1914) – Қиримда жадидчилик ҳаракатининг асосичиси, ёзувчи ва публицист.

Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat yangi usul maktablarini tashkil qilish balki, ularni zamonaviy darsliklar, dunyoviy ilmlar bilan ham ta’minlash ishiga boshqosh bo‘ldi. O‘zi ham qator darslik va risolalar yaratdi. “1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida uning tashabbusi bilan yangi maktablar ochildi. Behbudiy maktablar uchun “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy”, “Kitob ul-atfol”, “Amaliyoti Islom”, “Tarixi Islom” kabi darslik va risolalar yozadi [9, –B.11].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan umumiy xulosa qilsak, Turkiston mahalliy xalqlarining siyosiy, milliy va iqtisodiy manfaatlarini himoya etish jadidlarning faoliyatida ustuvor masalaga aylangan edi. Bugungi yosh avlod tarbiyasida Taraqqiyparvarlik harakati ijtimoiy-siyosiy qarashlari, jumladan, Maxmudxo‘ja Bexbudiyning amalga oshirgan amaliy ishlari, Turkiston farzandlarini o‘qitish uchun olib borgan sa’yi-xarakatlari, ilmiy merosi namunalaridan yosh avlodni o‘qib, kamol topishida foydalanish bugungi ta’lim tizimining asosiy mezoniga aylanib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi. // https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020

2. Abdullayeva N. Маҳмудхўжа беҳбудийнинг туркистон маънавий маданияти ривожидаги ўрни. “Behbudiy o‘qishlari – 2023. Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi: tarix va zamonaviylik. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 29-30-noyabr. 26-bet.

3. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури. // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. - Т., 1999. Б. 36.

4. Алиев А. Бехбудий. Т.,1994. 56-бет

5. Беҳбудий М.Танланган асарлар/ Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов, 3-нашри. тузатилган ва тўлдирилган.- Т.: Маънавият, 2006,– (Истиқлол қаҳрамонлари) Б.160.

6. *Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши.// Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Даврий тўплам №1).-Т.,1999.Б.33.*

7. Р.Шамсутдинов, Ш.Каримов, Ў.Убайдуллаев. Ватан тари. 2- том. Тошкент, 2010 йил.

8. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. - Т., 1926. Б. 6.

9. Zarafshonning Behbudiysi. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Akram Haydarov. –Toshkent: “Sahhof”, 2020.

IQTISODIY MADANIYAT SHAKLLANISHIDA MAXMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSINING AHAMIYATI

Shaxriyor Xolbayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Samarqand hududiy filiali direktori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashda Maxmudxo‘ja Behbudiy merosining ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-iqtisodiy, jamiyat, axloqiy va huquqiy normalar, tarixiy va madaniy an’ana, axborot texnologiya, iqtisodiy madaniyat.*

O‘zbekiston so‘nggi yillarda keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Iqtisodiy madaniyatning shakllanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yangi iqtisodiy munosabatlarda tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, moliyaviy mas’uliyat va qonunlarga rioya qilish kabi prinsiplar asosiy o‘rin tutadi. Iqtisodiy madaniyat rivojlangan jamiyatda bu prinsiplar samarali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, O‘zbekistonda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun muhim omil sanaladi. Davlat va jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida iqtisodiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy madaniyat – jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar, ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol va sarmoyalash sohalaridagi insonlar xulq-atvori va qoidalar tizimidir. Iqtisodiy madaniyatning shakllanishi – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u insonlarning iqtisodiy fikrlash va harakat qilish madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy madaniyatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy faoliyatda axloqiy va huquqiy normalarga rioya qilish;
- Iqtisodiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish;
- Ishlashga va o‘zlashtirishga intilish;
- Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash;
- Jamiyatning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olish.

Iqtisodiy madaniyat shakllanishi bir necha omillarga bog‘liqdir. Ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy muhit, ta’lim tizimi, tarixiy an’analar, siyosiy barqarorlik va axborot texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

1. **Ijtimoiy-iqtisodiy muhit:** Iqtisodiy madaniyatning shakllanishi jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi va turiga bog‘liq. Raqobatchi bozor iqtisodiyotida odamlar tadbirkorlik va innovatsiyalarga ko‘proq intiladilar.

2. **Ta’lim va tarbiya:** Ta’lim tizimi yoshlarni iqtisodiy bilimlar bilan ta’minlaydi, ularda iqtisodiy fikrlash va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

3. **Tarixiy va madaniy an’analar:** Milliy iqtisodiy madaniyat tarixi va urf-odatlari shakllanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

4. **Siyosiy barqarorlik:** Siyosiy muhitning barqarorligi va huquqiy me’yorlarning qat’iyligi iqtisodiy madaniyatni mustahkamlaydi.

5. **Axborot texnologiyalari:** Hozirgi zamonda axborot texnologiyalari iqtisodiy ma’lumotlarni tez va samarali tarqatishga yordam beradi.

Yangi tahrirdagi Qomusimiz muqaddimasida biz O‘zbekiston xalqi “davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib” bandining yangilanganligi, bugungi globallashuv jarayonlarida tahlikali dunyoda bugungi yosh avlod ham ota bobolarimiz ma’naviy va ilmiy merosimiz qadriyatlarini kelgusi avlodlarga yetkazishda kamarbasta va munosib avlod bo‘lish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, soha va tarmoqlarda ilmli kadrlarga bo‘lgan munosabat va e’tiborni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

XX asr boshlarida esa mustamlaka sharoitida, hukmron siyosiy mafkura doirasida qoloqlikdan qutulishning yagona yo‘li — madaniy yo‘nalish orqali taraqqiy etish mumkinligini tushungan milliy ma’rifatparvarlarimiz, eng avvalo, madaniy va maishiy hayotdagi qoloqlikni tugatish, milliy ongni isloh etishda an’anaviy madaniyatni dunyo madaniyati tizimida qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini olib chiqqan edilar. Ularning aksariyati o‘z asarlarida Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma’rifatga chaqirish, Vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg‘urish kabi muammolarni ko‘tarib chiqqan edilar. Jadid bobolarimiz Turkiston aholisining ijtimoiy-siyosiy fikr doirasini kengaytirish, xalqning dunyoqarashida madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlar yasashning muhim omili sifatida maktab islohotini birinchi zaruriyat deb belgilab olgan edi.

Iqtisodiy madaniyat bu faqatgina iqtisodiy bilim va malaka emas, balki jamiyatda shakllangan iqtisodiy ong, mehnat va mulkka bo‘lgan munosabat, fuqarolarning iqtisodiy faolligi, ularning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisadir. Bu madaniyatni shakllantirishda ta’lim, ma’rifat, madaniyat va tarixiy meros muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek xalqining tarixida bunday iqtisodiy madaniyatning yuzaga kelishida XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan jadidlar, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni beqiyosdir. Uning ma’rifatparvarlik faoliyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va iqtisodiy islohotlarga oid g‘oyalari bugungi taraqqiyot konsepsiyasi uchun ham muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tariximizda jadidchilik nomi bilan atalgan bu harakat o‘sha davrda mintaqamizda chinakam uyg‘onish davri edi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy qarashlari o‘z zamonida nafaqat mamlakat, balki tashqi dunyoda ham e’tiborga molik

bo‘lgan. Xususan, “Haq berilmas, olinur” shiori millat fidoyilarini chinakam hushyorlikka chorladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yilda “Samarqand” gazetasidagi “Ehtiyoji millat” maqolasida: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”, “Samarqand” gazetasidagi “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” maqolasida: “Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe’ ekan, bizni ulamo bil’aks avomga tobe’dur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o‘ttiz sana so‘ngra yana yomonroq bo‘lur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim. Millat axloqi, fazl va hunar ila boqiy qolur”, 1915-yilda “Oyna” jurnalidagi“To‘y va ta’ziyag‘a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va-din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizg‘a davom etsak, din va dunyog‘a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur” -deya ta’kidlari har qanday zamon va makonda ahamiyatlidir.

Turkistonda ishbilarmonlik bilan shug‘ullanayotgan rus, arman va yahudiylarning isrofli to‘ylar, aza marosimlari o‘tkazmasdan mablag‘larining bir qismini o‘z yurtida maktab va madrasalar qurish, ta’mirlash uchun sarflayotganini o‘rnak qilib ko‘rsatgan. Turkistonliklarni o‘z pullarini dabdabali marosimlarga sarflamasdan foydali amallar qilishga chaqirgan: “To‘y va ma’raka aqchasidan bolalarni hukumat maktablarig‘a bersunlar va talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Rusiya dorulfunun va dorussanoalarig‘a yuborib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishtirmoqg‘a sa’y qilsunlar”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston aholisi oilada farzand tug‘ilgan kunidan boshlab to‘y uchun mablag‘ yig‘ishni boshlashi, buning uchun haftada yetti kun 18–20 soatlab ishlashi “qonun”ga aylanib qolganini afsus bilan tilga olgan: “Bechora kosibni a’moli to‘ydur. O‘zi rohat yuzi ko‘rmaydur. Kecha-kunduzni 18, balki 20 soatni mehnatga o‘tkaraturgon kosiblarimiz bordur. Haqqincha yemaydur, kiymaydur. O‘n va yigirma sanalar mehnat va mashaqqat etar va xudodan o‘g‘il tilar, to‘y qilmoq uchun. Yigirma sanalik mehnati uch kun to‘yda tamom”.

Abdurauf Fitrat Mahmudxo‘ja Behbudiy fikrini to‘ldirar ekan, uch kunlab to‘y qilish isrofdan boshqa narsa emasligini ta’kidlagan. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida to‘ylarning o‘tkazish kunlari masalasiga diniy nuqtayi nazaridan yondashib, payg‘ambarimizning “To‘yda birinchi kunning taomi haq, ikkinchi kunning taomi sunnatdur, lekin uchinchi kunning taomi riyodir... Ikki odam bir-birlaridan o‘tish uchun to‘y va ziyofat qilsalar, birontasinikiga bormanglar, ularning taomlaridan yemanglar”, degan gaplarini iqtibos sifatida keltirgan.

Muhtaram yurtboshimiz yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq” mulohazalarini bayon qilib yosh avlodni davlat va jamiyat boshqaruvi samaradorligini oshirishda

mazkur fikr va g‘oyalarga amal qilishlarini ta’kidlagan edilar. Shuningdek, Abdurauf Fitrat “Rahbari najot” asarida yosh avlod tarbiyasi to‘g‘risida shunday yozgan: “Dunyo kurashning umumiy maydoniga o‘xshaydi va bu maydonning buzruk pahlavonlari insonlardir. Bu kurashda g‘olib chiqish uchun uch xil qurolga ega bo‘lish kerak: birinchisi — “Salomatlik”, ikkinchisi -“Sog‘lom fikr”, uchinchisi - “Axloqi sano” (oliy axloqiylik). Barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo‘lmasdan, butun millat ahli javobgarligini ta’kidlaydilar. Fitratning farzand tarbiyasi haqidagi bu fikrlari bugun ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Fitrat qarashlarida zamonaviylik hamda globallashuv sharoitlariga moslashish, eskicha qarashlardan voz kechish, yangi bilimlarni egallash, boshqaruvni to‘g‘ri tashkil etish kabilarni ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Muhtaram yurtboshimiz jadid bobolarimiz g‘oya va qarashlaridan kelib chiqib Yangi O‘zbekistonimizning pirovard maqsadini xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayotni barpo etish bilan bog‘liq uchta amaliy mezon bilan belgilab bergan edilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning iqtisodiy madaniyatga doir qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning:

- mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish,
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash,
- iqtisodiy ta’limni joriy etish,
- mehnat va halollikni qadrlash

kabi g‘oyalari bugungi iqtisodiy islohotlarning ilmiy-ma’rifiy poydevorini tashkil etadi. Uning merosini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash — iqtisodiy madaniyatni yuksaltirishda muhim vositadir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan islohotlar jarayonida iqtisodiy madaniyatning yuksalishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda Behbudiy merosi muhim ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Huquqiy axborot, 2023.

2. Abdurahmonov, M. Iqtisodiy madaniyat va uning jamiyatdagi ahamiyati. – T.: O‘qituvchi, 2015.

3. Abdullayev A. “Ma’rifat va iqtisodiy taraqqiyot”. – Toshkent, 2020.

4.. Behbudiy M. “Tanlangan asarlar”. – Toshkent: Fan, 2011.

5. Jurayev, Sh. Iqtisodiy bilim va madaniyat asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2018.

6. Hasanov B. “Jadidlar va iqtisodiy islohotlar”. – Samarqand, 2018.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MAQOLALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Sayipova Dilafruz Rahimovna

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, PhD

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Behbudiy faoliyati, matbuot sohasidagi xizmatlari, maqolalari hamda maqolalardagi dolzarb mavzular haqida yozilgan. Shuningdek, Behbudiyning ta’lim sohasidagi qarashlari, davr muammolari hamda ularni hal etish borasidagi fikrlari, Behbudiy maqolalaridagi dolzarb masalalarning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *millat, mahkama, vaqf, istipendiya, dorilfunun, faqir, duma, muhandis.*

Tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab davrida yashab ijod etgan jadidlar faoliyati, ularning millat taraqqiyoti yo‘lidagi bemuinnat xizmatlari, fidoyiligi zamondoshlarimiz uchun namuna va bemisl ibratdir. Jadidlar vatanparvarligi, Vatan ravnaqi yo‘lidagi jonbozliklari haqida adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov o‘zining “O‘lsam ham ayrilmasaman quchoqlaringdan” maqolasida shunday yozadi: “1914-mi yoxud 1915 yilgimi – aniq esimda yo‘q – jadid gazetalaridan birida kichkina axborot e’lon qilingan. Undan ma’lum bo‘ladiki, jadidlar ma’rifat ishlari yo‘lida xayriya kechasi o‘tkazgan ekanlar va kecha oqibatida ma'lum miqdorda pul tushgan ekan. Gazetadagi axborotda ana shu pul tiyinma-tiyin nimalarga sarflangani aniq ko‘rsatilgan. Bu ishlarning barini jadidlar shovqin-suronsiz, biron og‘iz maqtanishsiz, pisandasiz va ta'masiz amalga oshirganlar. Va nihoyat, mana shu xizmatlari uchun sho‘rolar zamonida qamalib, ko‘pchiliklari otib yuborilgan yoxud o‘zga yurtlarga badarg‘a qilinib, urug‘lari quritilgan. Ularning bunday beminnat fidokorliklari biz uchun mangu ibrat bo‘lib qolmaydimi?..”

Darhaqiqat, mamlakatni inqirozdan qutqarish jadidlar zimmasiga tushdi. Ular o‘z hisoblaridan maktablar ochdilar, qanchalab yoshlarni taraqqiy qilgan Ovro‘pa mamlakatlariga o‘qish uchun yuborishga muvaffaq bo‘ldilar. Yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she’r va maqolalari, sahna asarlari orqali milliy ongni sjhakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindilar. O‘zbek teatriga asos slogan, matbuot sohasini boshlab bergan ham jadidlardir.

Turkiston jadidlarining mana shunday fidoyi vakillaridan biri alohida ahamiyatga ega bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati g‘oyatda serqirra ekanligi bizni hayratga soladi. Buyuk ajdodimiz Turkiston jadidlarining rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining asoschisi, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek adabiyotida drama janrini boshlab bergan dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.

Behbudiyning ta’lim, tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Hozirda til o‘rganishga e’tibor, dunyoviy fanlarni yuqori darajada egallash, to‘y-hashamlarimizdagi ortiqcha isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik masalalari Behbudiy maqolalarida keng targ‘b qilinadi, xuddi bugungi kun va biz uchun yozilganday tuyiladi. “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida maktabdagi kitoblar arabcha, tarjimalar, forscha, muallimlar tili turkiyda ekanligi, bu esa ta’limda murakkablukni keltirib chiqarayotganligini ta’kidlash bilan bir qatorda rus tilini o‘rganishga da’vat qiladi. “… o‘z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat

maktablarinda o‘quylik. Davlat mansablarig‘a kirayluk. Vatanimizg‘a va o‘z dinimizg‘a xidmat etayluk. Musulmon bo‘lub turib taraqqiy qilayluk…”

Maqolalarida Behbudiy boshqa millatlarning ilmga intilishlari, ilm egallash yo‘lidagi sarf-xarajatlarini millatimiz va mahalliy boylar faoliyati bilan qiyoslaydi: “Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o‘z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunin, Qafqoz, Qirim, Qozondaki musulmon birodarlarimizni boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o‘z birodarlarira mol, oqcha, qalam va ilm ila ko‘b iona qiladurlar…” Behbudiy “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” maqolasida ham millatning taraqqiyoti uchun olim-u ulamolarning bilimi qanchalik kerak bo‘lsa, millat boylarining himmat va saxovati ham shunchalik muhimligini aytadi: “…boshqa millatlarni boylari faqira va etimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlarni o‘qumog‘i uchun vaqf “istipendiya”lar ta’yin qilur…”

Maqolalaridan birida Behbudiy boshqa millat boylari ochgan maktablari, o‘zlri joriy qilggam stipendiyalari, tashkil qilgan gazeta-jurnallari bilan faxrlansalar, millat boylari qilgan to‘yi yoki imorati bilan g‘ururlanishi kuyinib yozadi: “… biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to‘yi ila va… la faxr etar. Hatto, o‘z o‘g‘illarini o‘qutmaydurgon boylar bordur…”

“Ehtiyoji millat” maqolasida esa ta’lim tizimimizni boshqa mamalakatlardagi ta’lim bilan qiyoslaydi; millatimiz uchun faqat diniy bilimlar emas, dunyoviy fanlar ham kerakligini, zamonaviy bilimdan bebahra qolish millatning poymol qilishini ta’kidlaydi; o‘tgan davrda faqat shariat ilmi yetarli bo‘lgan bo‘lsa, yangi zamonda qonunni va tilni bilish shartligini aytadi. “…Davlat dumasi nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarga kirib, bizni mudofaa qiladurgon kishimiz yo‘q. Boshimiz og‘risa duxturga boramiz, ammo dardimizni aytmoqga til yo‘q. O‘zimizdan duxtur yo‘q.

Ikkimiz bir-birimiz ila nizo qilamiz. Ketamiz zakunchiga, so‘ylamoqga til yo‘q. Oradagi odamlar yana bizga firib berar, pul berarmiz, yugurarmiz, yana ishlar barbod, oxiri yo‘q.

Imorat qilmoqchi bo‘lsak, plon-loyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo‘larmiz. Ammo biz hanuz «muhandis» ismini bilmaymiz.

Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa ko‘rib tijorat etmoq lozim. Ilm tijorat bila turgan buxgalterlik hisobi yuritadurgon boylarimizga kerak, ul ham o‘zimizdan bir nafar topilmaydur…”

Behbudiy ko‘plab maqolalarida ilmsizlik va til bilmaslik orqasidan xalqning boyligi, mashaqqatli mehnat evaziga yaratilgan san’at asarlari, qo‘l mehnati mahsulotlari arzon-garovga sotilib boshqalar qo‘liga o‘tib ketayotganligi, foydani mehnat qilganlar emas, boshqalar ko‘rayotganligini ta’kidlaydi. Bunday muammolarning yechimi faqat va faqat ilm o‘rganish, dunyoviy fanlarni mukammal egallash, zamonaviy kadrlar bilan ta’minlanish ekanligini shunday asoslaydi: “… 5 mukammal maktab bino bo‘lub, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur. O‘n yilda bulardin… 200 muhandis, do‘xtur, huquqshunos, muallim, texnik, zamona tojiri, valloh… chiqar va bizni zamon odamlari qatorida qo‘yarlar va davlat ishiga kirarlar…”

Bugungi ta’lim tizimizmizda yangiliklarga intilish, zamonaviy kasblarni egallash, til o‘rganishga alohida e’tibor qaratish masalalari Behbudiyning orzusi edi. Xulosa qilib aytganda, “… o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun…”

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. - Тошкент, «Маънавият», 1999.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Etiyoji millat. «Samarqand» gazetasi, 1913-yil, 12 iyul.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Ikki emas, tort til lozim. «Oyna» jurnali, 1913-yil, 1-son, 12–14-betlar.
4. O.Sharofiddinov. O‘lsam ham ayrilmasamn quchoqlaringdan. Adabiyot 8: darslik-majmua (II qism). - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.- 192 6.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY IJODIDA O‘ZLASHMA – RUSCHA-INTERNATSIONAL SO‘ZLARNING IFODALANISHIGA DOIR QARASHLAR

Xusanova Zarifa Narzullayevna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi assistenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” asarida qo‘llangan ruscha o‘zlashma so‘zlar imlosi keyingi ikki davr imlo qoidalariga bilan qiyoslab tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Behbudiy, Safar xotiralari, Rusiya, O‘runburg, Masko‘v, Peterburg, Qazon, No‘vg‘o‘ro‘d, Kafkaz, Qirim, Krasnovodski, vago‘n, imperato‘r, do‘qtur, no‘mra, paraxo‘d, milyo‘n, istansa, qulub, mag‘ozin, vagzal, goliriya, eliktrik*

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is’hoqxon to‘ra Ibrat, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, G‘ulom Zafariy kabi jadid ma’rifatparvarlari haqida so‘z ketganda bugungi avlodning his qiladigan eng katta tuyg‘usi – bu minnatdorlikdir. Chunki bu insonlar millat ma’rifati, ozodligi, farovonligi, baxt-saodati yo‘lida butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Xususan, bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ham jadidlar merosini o‘rganish haqida aytgan quyidagi fikrlarini ta’kidlash o‘rinlidir. “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni

tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” (iiau.uz/oz/news/3744). Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlari ham jadidlar ijodiy merosini o‘rganish ahamiyati nafaqat tilshunos yoki adabiyotshunoslar uchun, balki butun jamiyat uchun muhimligini ko‘rsatadi.

Mahalliy jadidlarning boshi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy yetakchi jadidlar (Ismoil Gaspirali,...) yo‘lini tutib, millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish maqsadida faqatgina yozuvchi sifatida emas, balki pedagog, publisist, dramaturg, siyosatchi bo‘lib serqirra insonga aylanadi va har bir xatti-harakatida millat mas’uliyatini ifoda etishga urindi. Mutafakkirning ijodiy merosi ni o‘rganish kecha yoki bugun boshlangan ish emas, o‘tgan asrning 70-yillaridan beri davom etib kelmoqda. Ayniqsa, S.Qosimov, A.Aliyev, N.Karimov, S.Ahmedov, Sh.Turdiyev, H.Sayid, N.Avazov, Z.Ahrorva va boshqa tadqiqotchilar tomonidan turli jabhalarda keng o‘rganildi va hamon o‘rganish davom etmoqda.

Samarqandda tug‘ilib, savodini dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda chiqargan Behbudiy an’anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi. Uning 1899-1900-yillarda qilgan haj safari chog‘ida ilgaridan o‘ylab yurgan yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi va 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil etadi. Hatto ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi. (https://yuz.uz/uz/news/)

Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Behbudiy har bir xatti-harakatida o‘z maslagini ifoda etishga uringan. Ayniqsa, haj safari maqsadida qilgan sayohati davomida ham, keyinchalik Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoyda ishtirok etish uchun xizmat safarida ham yo‘l xaritasi bo‘ylab sayohat xotiralarini yozib, keyinchalik “Oina” jurnalining 1914-1915-yillar sonida davomli tarzda e’lon qilgan xotiralarining barchasida o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, hayratlangan, saboq olgan hamda bosh kechirgan kechirmalarning barchasi millat uchun bir ko‘zgu edi. Millat ruhini uyg‘otish yo‘lida yozilgan bu xotiralar bugun

nafaqat adabiyotshunoslar, balki tarixchilar, pedagoglar, psixologlar, shuningdek, tilshunosslar uchun ham muhim bir manba bo‘lib qolmoqda.

Xususan, bugun bizni tilshunos va pedagog sifatida qiziqtirgan jihatlardan biri – bu imlo masalasidir. Behbudiy yashab, ijod etgan zamon alifbosi garchi arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo mahalliy aholi o‘zbek va tojik xalqidan iborat bo‘lib, ayniqsa, adibning Samarqand markazida tug‘ilib-o‘sganligini inobatga olsak, har qanday so‘z talaffuzida mahalliy me’yorlar amal qilgan. Bu esa arab, fors-tojik va hatto, ruscha so‘zlarning talaffuzi va imlosini me’yorlashgan mahalliy tizimini yuzaga keltirgan. Ayniqsa, sharqona ruhga yot bo‘lgan ruscha so‘zlarning talaffuzi va imlosi alohida e’tibor tortadigan va bugungi o‘zbek adabiy tili imlo qoidalari tarozisida tortganda, Behbudiy davrida ifodalangan o‘zlashma qatlam leksikasining qanchalik turkiy ruhiyatimizga mos ekanligiga amin bo‘lamiz.

Behbudiyning 1906-1907-yillardagi “Sayohat xotiralari”ni o‘qib-o‘rganish jarayonida diqqatimizni jalb etgan jihatlardan biri ruscha so‘zlarning talaffuzi va yozilishi bo‘ldi. Chunki o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asrlar davomida amalda bo‘lgan alifbo va imlo qoidalari quyidagicha tartiblanadi: XIX asrdan XX asrning 30-yillariga qadar eski o‘zbek yozuvi (arab alifbosi va imlosi asosida); 1930-1940-yillar lotin alifbosi; 1940-1993-yilllar (hatto, hozirga qadar) kirill alifbosi va 1956-yilda qabul qilingan imlo qoidasi; 1993-yildan to bugunga qadar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidalari amalda qo‘llanmoqda. E’tibor bersak, kirill yozuviga asoslangan o‘zbek tili imlo qoidalari ham o‘tgan asrning ikkinchi yarmida, aniqrog‘i 1956-yilda tasdiqlanmoqda. Bu degani ruslarning bizning o‘lkalarga kirib kelishi va hukmronligi, ruscha so‘zlarning mahalliy aholi tiliga ko‘chishini XIX asrning 2-yarmidan boshlangan bo‘lsa, 1940-yildan boshlab kirill alifbosi va alifbo qabul qilingandan 16 yildan so‘ng imlo qoidalari ishlab chiqildi. Bu qariyb 100 yillik jarayonda sodir bo‘lmoqda. Endi o‘rinli bir savol tug‘iladi: xo‘sh, 1956-yilga qadar xalq tomonida o‘zlashtirilgan ruscha so‘zlar qanday ifodalangan va ular asliga qanchalik mos keladi?

Bu savollarning javobini ma’lum ma’noda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” risolasida keltirilgan misollar yordamida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, joy nomlari: *Rusiya, O‘runburg, Masko‘v, Peterburg, Qazon, Nijniy No‘vg‘o‘ro‘d, Kafkaz, Qirim (M.Behbudiy, 2006:55)* kabi. Garchi bu yerda keltirilgan joy nomlarining barchasi rus o‘lkalarini ifodalasa-da, ammo so‘zlarning talaffuzi va ifodasida turkiy ruh yaqqol sezilib turadi. Ammo bugungi o‘zbek adabiy tili yoki 1956-yilgi imlo qoidalariga ko‘ra bu so‘zlar tamoman xato yozilgan.

Ozroq tarixga siyosiy nazar bilan qaraylik, XX asr boshida faol harakatda bo‘lgan jadidlarning oliy maqsadlaridan biri turkiy xalqlar yozuv alifbosini bir xillashtirish, shu yo‘l orqali turkiy xalqlar orasidagi hamjihatlik, birdamlikni saqlab qolish edi. Bu yo‘lda ko‘rsatilgan jonbozliklar 1926-yilda Ozarbayjonning Baku shahrida o‘tkazilgan quriltoydan so‘ng (Bizning o‘lkadan ushbu quriltoyda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi jamoa ishtirok etgan edi), 1929-yilda lotin alifbosi joriy etilib, to 1940-yilga qadar xalq savodi ushbu alifbo orqali chiqarilgan edi. Yozuv va tilning

ahamiyatini anglab yetgan sobiq Sho‘ro hukumati ham millat ruhini o‘ldirish yo‘lida aynan shu yo‘lni tanladi va hukmi ostida birlashtirgan barcha xalq va millatlar uchun kirill yozuviga asoslangan alifbolar joriy etib, xalqning ma’naviy ruhiga kirib bordi. Maqsad esa bitta o‘z tilini singdirish, “qaram” xalq ruhini o‘ldirish. Kirill yozuvining kirib kelishi o‘zlashtirilishi barobarida o‘zlashma so‘zlar endi mahalliy aholi talaffuzi me’yori bo‘yicha emas, balki qanday talaffuz qilinishidan qat’iy nazar, o‘zbekcha kirill yozuviga emas, rus kirill yozuviga asoslanib yozila boshladi. Bu esa xalq ruhiga yot unsurlarning singdirilishiga sabab bo‘ldi. Tilda sun’iylik paydo bo‘ldi. Bu 1956-yilda qabul qilingan kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalariga ko‘ra joriylantirildi.

Xo‘sh, 1956-yilga qadar yaratilgan, nashr etilgan badiiy, publisistik hamda ilmiy asarlarda yozilgan asli ruscha bo‘lsa-da, ruhan turkiy talaffuz qilingan va yozilgan ruscha o‘zlashma so‘zlar xato yozilgan deb qaraldimi? Yo‘q, albatta. Davr talabiga ko‘ra ifoda etilgan bu so‘zlarni tarixdan o‘chirib tashlashning imkoni yo‘q edi. Ammo bu so‘zlarni to‘g‘ri deb baholash mezoni joriy etildi, ya’ni yozuv tamoyillari shakllantirildi: fonetik yozuv tamoyili, morfologik yozuv tamoyili, shakliy yozuv tamoyili, tarixiy-an’anaviy yozuv tamoyili hamda differensiyatsiyalash yozuv tamoyili. Va 1956-yilga qadar ifodalangan ruscha o‘zlashma so‘zlar ifodasi faqat tarixiy-an’anaviy yozuv tamoyili ko‘ra davriy nuqtayi nazar bilan to‘g‘ri deb baholanadi.

Ammo asl muammo bu emas, asl muammo 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining ham til, ham davlat mustaqilligi, ham 1993-yilda lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga o‘tishimizga qaramay, 1995-yilda qabul qilingan “O‘zbek tilining lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari” da ruscha va rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlar ifodasi kirill alifbosi va rus talaffuziga yozilishi, bu yozilish shakli shakliy yozuv tamoyiliga ko‘ra to‘g‘ri deb belgilanishi qayd etildi. Bu esa xalq tili va adabiy til o‘rtasiga qurilgan bir devordir. Aslida XIX asrning 70-yillaridan boshlab joriylana boshlagan ruscha o‘zlashma so‘zlarning turkiy ifodasi xalq ruhi bilan hamohang edi, lekin bugun bu ruh adabiy tilga ko‘chmadi.

Quyida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari” risolasida uchraydigan so‘zlarning uch davr ifodasi solishtirb ko‘ramiz:

1) “Sayohat xotiralari” risolasida uchraydigan ruscha so‘zlar o‘sha davr talaffuz me’yoriga ko‘ra yozilgan. Bu davrda ruscha so‘zlar ifodasi uchun qat’iy imlo qoidasi mavjud bo‘lmagani sababli ayni talaffuzga mos shaklda ifodalangan: *Rusiya, O‘runburg, Masko‘v, Peterburg, Qazon, No‘vg‘o‘ro‘d, Kafkaz, Qirim, Krasnovodski, vago‘n, imperato‘r, do‘qtur, no‘mra, paraxo‘d, milyo‘n, istansa, qulub, mag‘ozin, vagzal, goliriya, eliktrik (Mahmudxo‘ja Behbudiy, 2006:55-147)* va hokazo.

2) Ayni shu so‘zlarni 1956-yil qabul qilingan orfografik qoidalar asosida yozilishini kuzatadigan bo‘lsak, orfoepik jihatdan ham tahlil qilish lozim bo‘ladi. Chunki kirill yozuvining joriylanishidan asosiy ko‘zda tutilgan maqsad aslida Ruscha va rus tili orqali boshqa tillardan o‘zlashgan har qanaday so‘z ayni rus tilidagi shakl bo‘yicha barcha “mahkum” tillarda bir xil ifodalanishi lozim edi. Shunga ko‘ra, talaffuz me’yori ayni rus tilidagi erkin urg‘u bilan aytilgan quyidagi so‘zlar imloda ham ayni shaklni saqlagan: *Рассия – Россия, Аринбург – Оренбург, Масква – Москва, Петербург – Петербург, Навгарод – Новгород, Кафказ – Кавказ,*

Краснаводски – Красноводский, вагон – вагон, императир – император, дўхтир/ доктир – доктор, нўмер – номер, параход – пороход, милён – миллион, истансия – стансия, кулуб – клуб, магазин – магазин, вакзал – вокзал.

3) Ayni shu so‘zlar Mustaqillikdan so‘ng Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi qabul qilinib, unga ko‘ra 1995-yilda qabul qilingan yangi orfografik qoidalarga ko‘ra (garchi yozuv lotin yozuviga asoslangan bo‘lsa-da) rus tili talaffuzi va shakli saqlab qolindi: Rassiya – Rossiya, Arinburg – Orenburg, Maskva – Moskva, Pitirburg – Moskva, Navgor(i)d – Novgorod, Kafkas – Kavkaz, Krasnavodski – Krasnovodskiy, vagon – vagon, imperat(i)r – imperator, do‘xtur – doktor, no‘mer – nomer, paraxod – poroxod, milyon – million, istansiya – stansiya, kulub – klub, magazin – magazin, vakzal – vokzal, galiriya – galeriya, eliktrik – elektrik. Bu shaklda yozilish yozuv tamoyillaridan shakliy yozuv tamoyiliga ko‘ra deya izohlanadi.

Mulohaza. Yuqoridagi uch davr imlosi asosida qiyosiy tahlil o‘tkazilsa, aslida Behbudiy zamonida yozilgan so‘z variantlari turkiy xalq talaffuz me’yoriga hamohang. Talaffuzga asosan yozish esa imlo qoidalarini osonlashtiradi. Birgina “Rossiya” so‘zini olib qarasak, *rus+iya – Rusiya*; kirill yozuvida *Россия* (Рассия – “o” unlisi urg‘usiz bo‘lganligi va urg‘u keyingi bo‘g‘inga tushganligi sababli “a” deb talaffuz qilinadi. Bu erkin urg‘u talabi); ammo bugun lotin yozuvida *Rossiya* deb yozib, sun’iy tarzda (aniqrog‘i, turkiy talaffuz) Rassiya deb o‘qish va talaffuz qilish bugungi o‘zbek imlosining sun’iylashganini, eng yomoni, xalq uchun qiyinlashtirilganini, turkiy xalq tili va adabiy til o‘rtasida ko‘rinmas devor hosil qilinganini ko‘rsatadi. Agar bu so‘z adabiy me’yor bo‘yicha erkin talaffuzda *“Rassiya”* shaklida yozilganda, bizningcha, hech kimga o‘qish va yozish o‘rtasida tafovut yuzaga keltirmasdi va hatto, shakliy yozuv tamoyiliga hojat ham qolmas edi. Jumladan, *doktor* so‘zida ham talaffuz va imlo orasida xuddi shu kabi ko‘rinmas devor mavjud. Bu faqat xalqning savodsizlanishiga olib kelmoqda.

Demakki, XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida ruscha so‘zlarning xalq talaffuzi bo‘yicha yozuvda ifodalashi maqsadga muvofiq bo‘lgan deyish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining yetakchi shaxsi sifatida, ya’ni jadidchi sifatida yelkasiga tushgan barcha yukni to‘laqonli ado etgan: yozuvchi, dramaturg, publisist, pedagog sifatida pedagogika, jurnalistika, matbaachilik, noshirlik, siyosat, tijorat va boshqa qator sohalarning shakllanishi va rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdi. Ma’rifatparvarning hayot yo‘li, ilmiy va ijodiy faoliyati bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham ahamiyatini yo‘qotmaydi. Yana uzoq yillar mutafakkir ijodi o‘rganish uchun manba bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. //тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Қосимов Б. – 3-нашри. – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – 280 б.

2. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: Akademiya, 1999.

3. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
4. Baldauf Ingebord. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
5. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent, 2010
6. Imlo lug‘ati. – Toshkent, 2013.
7. Имло луғати. – Тошкент, 1975.
8. https://iiau.uz/oz/news/3744
9. https://yuz.uz/uz/news/mahmudxoja-behbudiy-turkiston-jadidchilik-harakatining-yolboshchisi-milliy-marifat-rahnamosi

FROM MADRASA TO MODERNITY: THE EDUCATIONAL REFORMS PROMOTED THROUGH “OYINA”

Begbudiyeva P.Sh.
Independet researcher of the Department of Humanities and Information Technologies
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Absract: *The journal “Oyina” (“The Mirror”), published in the early twentieth century under the editorship of Mahmudkhodja Behbudi, occupies a significant place in the intellectual history of Central Asia. It became a major platform for the dissemination of ideas of enlightenment, education, and social reform among the peoples of Turkestan. This article examines the educational and cultural mission of Oyina, its contribution to the reform of traditional schools, and its impact on the modernization of Central Asian society. Through the analysis of articles, poems, and editorials published in Oyina, the study highlights how Behbudi and his contemporaries combined Islamic ethical principles with the progressive ideals of the modern world.*

Keywords: *Mahmudkhodja Behbudi, Oyina, enlightenment, Jadidism, education, reform, Central Asia, press.*

At the beginning of the twentieth century, Central Asia witnessed a powerful intellectual and cultural awakening known as the Jadid movement. This reformist trend sought to modernize Muslim societies through education, enlightenment, and the adoption of modern sciences while preserving Islamic values. Among the key platforms of this movement was the journal ‘’Oyina’’ (“The Mirror”), founded and edited by Mahmudkhodja Behbudi in Samarkand.

A significant place in Oyina was devoted to themes of enlightenment, schooling, education, and science. As noted in our earlier study “The Enlightening Mission of the Press,” Behbudi, together with F. Rodji, Kh.M. Shukrullo, S. Alizoda, and other prominent representatives of the Jadid movement, used the publication as a means to awaken national consciousness and promote cultural and educational reform.

According to the contributors of ‘’Oyina’’, a nation represents the “spirit of the people,” which is grounded in culture, science, religion, and progress. This

conceptualization of nationhood is evident in the works of Zuhuriddin Fathiddinzoda, who maintained that education was the key to the advancement of both society and the nation.

This educational ideal resonated throughout numerous articles written by Behbudi, Abdurauf Fitrat, M.Z. Mirzozoda, Khoja Muin Shukrullo, Muhammad Said, Ismail Sadri, and other intellectuals. They argued that national prosperity could only be achieved through the reform of schools and the dissemination of scientific knowledge.

In one of his notable essays, M.Z. Mirzozoda from Bukhara wrote: “No nation can achieve progress without reforming and improving its educational system. At the same time, schools themselves cannot improve unless we take into account the demands of the times, recognize the deplorable state of this field, and take urgent measures... Science has now reached such a level that man is capable of flying into space, while we remain in a state of deep decline. We are like an owl fond of ruins, afraid of progress and light[1].

This metaphor captures the central tension of ‘’Oyina’’: the contrast between the dynamic progress of the modern world and the stagnation of local educational institutions.

Most of Behbudi’s articles and editorials were dedicated to the journal’s principal aim - serving the enlightenment of the people. In his address to the younger generation published in ‘’Oyina’’, he declared:“Nothing should stand in the way of acquiring knowledge... while people sell their property to hold weddings, I urge them to overcome outdated and unnecessary traditions and, if necessary, to sell their property to send their sons to study in Europe.”[2]

This radical call for educational investment reveals Behbudi’s deep conviction that knowledge was the only means to achieve national renewal. He consistently emphasized that ignorance was the principal cause of social decay and that enlightenment must begin with the reform of traditional schools (maktabs and madrasas).

One of Behbudi’s most striking publications was the series “Hifzi sihati oila” (“Preserving Family Health”) which was published in1914, in which he promoted scientific and hygienic knowledge. Referring to both the Qur’an and modern medical statistics from European scholars, he argued for the necessity of public health education, criticized early marriage and polygamy, and discussed issues of sexual education – topics that were almost taboo at the time. Such bold reflections testify to his modernist worldview and the intellectual courage of the editor of ‘’Oyina’’.

In his numerous writings, Behbudi blurred the line between Islam as faith and the Muslim community as a dynamic social entity. In issue No.7 (1913), he urged parents to educate their children so that they might become “judges, lawyers, engineers, teachers - devoted servants of the nation who would work for the pure faith of Islam.”

In another issue (No.31, 1914), he stressed the importance of preparing Muslim professionals: “People and officials familiar with the modern world know that we need cadres trained in a progressive spirit... Muslim doctors, engineers, planners,

trade agents, judges, notaries, and bankers. If such people emerge from among us, they will help us in our social and economic life.”

He further affirmed that “Shariat allows the study of any science if it brings benefit to Muslims.”[3]

Through such statements, Behbudi linked religious ethics with the practical needs of modern life, arguing for the compatibility of Islam and scientific progress.

Alongside its editorial content, ‘’Oyina’’ also employed literature and poetry as a means of public education. The journal published works by leading Central Asian poets, including Sadriddin Ayni, whose poems “Nido ba javonon” (“A Call to the Youth”), “Yo rabb” (“Oh God”), “Mozi va hol” (“Past and Present”), and “Badkirdorikho” (“Evildoings”) called upon the people to awaken from ignorance and embrace knowledge.

Similarly, poems such as Abdulvohid Munzim’s “Maktab” (“The School”), Mir Sarvar’s “Targib ba ilm va maorif” (“Promotion of Science and Education”), and Fakhriddin Rodji’s “Mustagni zi tarbiyat mashav hej…” (“Never Be Content with Your Education...”) served as poetic manifestos of the enlightenment movement.

Munzim’s qasida “The School”, published in parts throughout 1914, vividly promoted education as the foundation of moral and national progress. Through poetic appeals and exhortations, these works transformed literary creativity into a powerful tool of public reform.

Letters from readers published in ‘’Oyina’’ demonstrate the journal’s wide resonance among the educated public. Students from the “Isloh” (“Reform”) school in Samarkand - such as Muhammad Salim Naimi, Mullo Qavomiddin-mufti, and Mullo Abdurahmon Mahdum - wrote to the editors expressing their views on education and reform.

Such correspondence underscores the participatory nature of the publication: Oyina was not merely a journal but a forum for intellectual dialogue. It became a bridge between traditional Muslim scholarship and the new secular intelligentsia emerging in early twentieth-century Central Asia.

As the examples discussed above show, ‘’Oyina’’ was not only a periodical but also an educational institution in print form - a school for both thought and action. It played a crucial role in promoting the reform of education and the awakening of national consciousness among the peoples of Turkestan.

Through its combination of religious ethics, modern science, and literary creativity, the journal contributed to the shaping of a new intellectual culture in Central Asia. The legacy of ‘’Oyina’’ and Mahmudkhodja Behbudi remains a cornerstone in the history of enlightenment and modernization in the region.

The contribution of ‘’Oyina’’ to the cultural evolution of Central Asia is indisputable - its educational mission fostered the spread of secular knowledge, progressive values, and the spirit of reform that continue to inspire modern scholars and educators today.

References:

1. Mirzozoda, M.Z. “Ilm va taraqqi.” Oyina, 1914, No.17

2. Behbudi, M. “Address to the Youth.” Oyina, 1914, No.21
3. Behbudi, M. “On Modern Professions.” Oyina, 1914, No.31
4. Behbudi, M. “Hifzi sihati oila.” Oyina, 1914, Nos. 47–52; No.1(53).
5. Ayni, S. Poems in Oyina, 1914.

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИ И ФИЛОСОФИЯ ПРОСВЕЩЕНИЯ КАК ОСНОВА НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ МУСУЛЬМАНСКОГО ВОСТОКА

Бегбудиева П.Ш.
Соискатель кафедры
гуманитарных наук и информационных технологий
Самаркандский государственный
институт иностранных языков

Аннотация: *В статье рассматриваются философские и просветительские идеи Махмудходжи Бехбуди. Особое внимание уделено его взглядам на образование, реформу школы, значение светских наук и роль просвещения в формировании национального самосознания. Анализируется публицистическое наследие Бехбуди в контексте социально-философских процессов эпохи модернизации и колониального давления. Идеи Бехбуди сохраняют актуальность в условиях современного культурного диалога и глобализации.*

Ключевые слова: *джадидизм, философия просвещения, национальное возрождение, духовная культура, модернизация, ислам и знание, просветительская публицистика.*

Начало XX века стало для мусульманского Востока временем глубоких социальных, культурных и мировоззренческих перемен. Усиление колониальной зависимости, кризис традиционных институтов, упадок науки и образования вызвали необходимость поиска новых путей развития. В этих условиях в общественно-политической жизни Туркестана значительное место заняло джадидское движение, призванное пробудить национальное самосознание и реформировать систему образования. Одним из выдающихся представителей этого движения был Махмудходжа Бехбуди - мыслитель, писатель, педагог и публицист, чья деятельность стала символом духовного возрождения мусульман Центральной Азии.

Постепенное разложение общественных и культурных институтов Туркестана, а также растущая зависимость региона от Российской империи привели Бехбуди к убеждению, что главная причина национального упадка - невежество народа. Публицист осознавал: без всеобщего образования и реформы школы невозможно ни социальное развитие, ни политическая независимость.

По мнению мыслителя: «стране необходимы реформы, а понять и осуществить эти реформы способен только образованный гражданин».

Осознавая это, Бехбуди приступил к реформе просвещения, видя в ней основу духовного пробуждения общества. Его конечная цель заключалась не только в освобождении от колониальной зависимости, но и в воспитании нового типа личности - свободного, нравственного, деятельного гражданина, соединяющего веру и знание.

Просвещение для Бехбуди было не просто образовательным процессом, а философской категорией, выражавшей смысл человеческого существования. По его мнению: «Народ без знания - раб и слаб. Государство без знания - бесполезно, а мир без знания - мёртв». Эти слова стали своеобразным кредо его просветительской философии.

Публицистическое наследие Бехбуди делится на два основных периода.

Первый - до февраля 1917 год характеризуется доминированием идей образования, нравственного очищения и реформы школы. Второй с 1917 по 1919 связан с усилением политико-социальной направленности, когда вопросы национальной независимости, самоуправления и социальной ответственности выходят на первый план.

В статьях первого периода («Урок географии», «Реформа обучения», «Экзамен в джадидских школах») Бехбуди стремится доказать, что просвещение является необходимым условием существования нации. Он писал:«Ибо сегодняшний ученик - наш завтрашний просвещённый деятель».

Во втором периоде он всё чаще обращается к вопросам политики, предупреждая: если не будет реформировано образование, то «через век вера погибнет, и ответственность за это ляжет на сегодняшних»[1] .

Особое внимание Бехбуди уделяет введению светских наук в систему образования. Его статья «Урок географии» (1905) была посвящена защите преподавания этого предмета в джадидских школах. Он отмечал: «На протяжении трёх тысяч лет, из года в год развиваясь, этот предмет достиг высокого уровня и приносит пользу, так что ныне даже в детских школах преподают основы этой науки».

Таким образом, география понималась им не как вспомогательная дисциплина, а как ключ к осознанию мирового пространства, своего места в нём и ответственности перед народом. Через преподавание светских предметов Бехбуди стремился расширить мировоззрение учащихся и приучить их к рациональному мышлению. В 1905 году Бехбуди открыл первую джадидскую школу в Самарканде. В ней он воплотил принципы новой педагогики: соединение религиозных и светских знаний, изучение языков, постепенность обучения, развитие критического мышления.

В статьях «Экзамен в джадидских школах» (1906) и «Реформа обучения» (1907) он подробно объяснял систему экзаменов и методы преподавания, призывая родителей активно участвовать в воспитании детей. В газете «Туджжор» он с сожалением писал о медлительности улемов, препятствующих реформе: «Пока старые школы не изменят своих методов, народ не сможет пробудиться». Джадидская школа в представлении Бехбуди - это лаборатория будущего, где закладываются основы национальной самостоятельности. Он

подчёркивал, что прежде чем обрести свободу, «в народе должны появиться политики, торговцы, юристы, врачи, архитекторы -кадры, способные управлять государством».

Бехбуди рассматривал владение иностранными языками как важнейшее условие культурного и политического развития. Он писал:«Нам необходимо знать русский язык, учиться в государственных школах, занимать должности в управлении, служить Родине и религии. Сегодняшние дела торговли, промышленности, государства, даже служение исламу и нации невозможны без знания русского языка» [2].

При этом он утверждал, что знание иностранных языков не ослабляет веру, а наоборот, укрепляет её. Бехбуди сам являлся примером «универсального учёного»: знал Коран наизусть, владел арабским, персидским, тюркским и русским языками, изучал французский и интересовался мировой философией.

«Ислам - такая совершенная и прогрессивная религия, что чем больше человек изучает науки, тем крепче становится его вера» [3].

Махмудходжа Бехбуди по праву занимает особое место в истории духовного развития мусульманского Востока. Его публицистика - это не только литературное, но и философско-политическое явление, направленное против невежества и зависимости. Он показал, что истинное возрождение возможно лишь через образование, науку и осознание национальной идентичности. Просвещение для него - это путь от подчинения к свободе, от догматизма к разуму, от колониального сознания к духовной независимости.

Его идеи о реформе школы, о единстве веры и знания, о необходимости диалога культур остаются актуальными и в XXI веке, когда вновь остро встаёт вопрос о сочетании национальной традиции и модернизации.

Бехбуди стал символом соединения исламской духовности и модернизационного мышления, а его философия просвещения - прочной основой для формирования современной культурной и национальной идентичности народов Центральной Азии.

Список использованной литературы:

1. Газета «Самарканд», 1913, 30 июля
2. «ТВГ», 1911, 29 сентября
3. Журнал «Ойна», 1914, № 21, с. 54
4. «ТВГ», 1908, 30 ноября
5. Бехбуди, М. (1914). Мухтасар тарихи ислом. Самарканд.

БУЮК АЖДОДЛАРИМИЗНИНГ МАЪНАВИЙ МЕРОСИ

Рахмонова Шаҳло Кахоровна
Навоий вилояти Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси Ўқув жараёнини методик таъминлаш ва дарсликлар бўлими бош методисти

“Жадидлар ғоялари янги Ўзбекистон стратегияси билан ҳамоҳангдир”

Шавкат Мирзиёев

Аннотация: *Ушбу мақолада жадидлар маънавий меросининг ўзига хос жиҳатлари ҳақида сўз юритилган ва мисоллар асосида очиб берилган.*

Калит сўзлар: *маърифат, жадид, театр, умуминсоний маданият, тарғиботчи, янги усул.*

Маҳмудхўжа Беҳбудий XX аср бўсағасидаги Туркистон ижтимоий-сиёсий ҳаракатчилигининг энг йирик намояндаси, янги давр ўзбек маданиятининг асосчисидир. Туркистон жадидларининг тан олинган раҳнамоси, мустақил жумҳурият ғоясининг яловбардори, янги мактаб ғоясининг назариётчиси ва амалиётчиси, ўзбек драматургиясини бошлаб берган биринчи драматург, театрчи, ношир, журналист. У тарихимизнинг ғоят оғир ва мураккаб бир даврида яшади. XVI асрдан бошланган инқироз ва турғунлик, ўзаро жанжал, маҳаллий уруғчилик низолари миллатни ҳолдан тойдирган, имкондан фойдаланиб ўлкани забт этган Русия зўр бериб, уни турғун ва тутқун сақлашга уринарди. Мана шундай бир шароитда Ватанни бутунлай йўқ бўлиш хавфидан сақлаб қолиш, авлодларни эрк ва озодлик, мустақиллик руҳида тарбиялаш, маърифат ва тараққиётта бошлаш жадидлар номи билан тарихга кирган Беҳбудий бошлиқ фидойилар зиммасига тушди.

Бугунги Конференция ҳам бежиз Самарқандда ташкил этилмаяпти. Чунки маърифатпарвар Маҳмудхўжа Беҳбудий 1875 йилда айнан шу шаҳарда таваллуд топган. Зиёлилар оиласидаги муҳит ундаги адабиётга, сиёсатга, маърифатга бўлган қизиқишини оширди. У адабиёт, тарих фанлари қатори сиёсатшунослик билан ҳам шуғулланди. Газета ва журналлар орқали жаҳонда содир бўлаётган сиёсий воқеалар билан яқиндан танишди.

Беҳбудий адиб сифатида ўзининг «Падаркуш» драмасини яратди. Унда туркистонлик ёшларни Европа илм даргоҳларида ўқитишни тарғиб қилди. Мазкур асар ўз даврида Абдулла Қодирийнинг «Бахтсиз куёв», Мирмуҳсин Фикрийнинг «Бефарзанд Очилдибой», Ҳамза Ҳакимзоданинг «Янги саодат» каби асарлари яратилишига таъсир кўрсатган. Ҳатто, у Американинг Калифорния университетида таржима ҳам қилинган. Бундан ташқари, Беҳбудий ўзбек ва тожик тилларида икки юздан ортиқ мақола ва асарлар яратган.

Қрим татар алломаси Исмоил Гаспирали (Гасперинский) ва у бош муҳаррир бўлган “Таржумон” газетаси М.Беҳбудийни буюк маърифатчи ва ўзбек миллий жадидчилик йўналишининг отаси даражасига кўтарди. Беҳбудий дунёқарашида Россиядаги энг нуфузли бўлган кадетлар партияси аъзолари билан учрашув ва улар ҳаракатномаларининг таъсири ҳам катта бўлган.

У 1914 йилда яна Туркия, Мисрга бориб, у ердан муҳим китоблар, ўқув қўлланмаларини олиб келади, янги усулдаги мактаб дастури устида ишлашга киришади. Бироқ, у турли тўсиқларга учраб “жадидлар раҳнамоси”, “даҳрий” деб эълон қилинади. Шунга қарамай у татар мутаффакири Исмоил Гаспиралининг маърифатчилик борасидаги таълимотини қўллаб қувватлаб, ўз

ўлкасига ҳам шундай ишларни амалга оширишга киришади ва кўп ўтмай маърифатпарвар сифатида ўз халқи ҳурматига сазовор бўлади.

У бир қатор Шарқ ва Ғарб тиллари билан юксак маданият соҳиби бўлиши билан бирга, умуминсоний маданиятнинг толмас тарғиботчиси ҳам бўлган. У айни чоғда янги усулдаги мактабларнинг асосчиси ва тарғиботчиси, янги дарсликларнинг илк муаллифи ҳам бўлди.

Улуғ мутафаккирнинг халқимиз олдидаги хизматлари эътиборсиз қолмаган, албатта. Қарши шаҳри 1926-1937 йилларда Беҳбудий номи билан аталган. 1977 йили алломанинг “Сайланма” асарлари чоп этилди. Асарлари дарслик ва қўлланмаларга киритилиб, Тошкент ва Самарқанд шаҳридаги мактаб, кўча ва маҳаллалар унинг номига қўйилди. Буюк маърифатпарвар шарафига 2006 йил Самарқанд шаҳрида ёдгорлик ўрнатилган. Ҳаттоки, Тожикистон Республикасининг Хўжанд шаҳридаги гимназия Беҳбудий номи билан аталади. 2020 йил Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни арафасида Беҳбудий ҳаётига бағишланган фильм премьераси бўлиб ўтди. Хозирги кунда аллома қолдирган бой ва ранг-баранг адабий, маданий ва маърифий мерос ўз халқининг истиқлолига хизмат этмоқда.

Умуман, ҳозирги кунда у қолдирган адабий-маданий мерос халқимиз томонидан ўрганилмоқда ва унинг маънавий меросини янада кенгроқ тарғиб этиш ҳамда ундан ёшларимиз, аҳолимизни баҳраманд этиш мақсадида кўплаб тадбирлар ва илмий-амалий анжуманлар ташкил этилмоқда.

Беҳбудий меросини чуқур ўрганиш, уларнинг маънавий хазинасини халқимиз, айниқса, ёшлар ўртасида кенг тарғиб қилишга ҳар биримиз масъулмиз.

Бугун Беҳбудий кабилар муқаддас тутган юрт озод ва мустақил бўлди. Улар жон фидо этган истиқлол авлодларига насиб этди. Миллат ва Ватан мустақиллиги йўлида фидо бўлганлар эса шу Миллат ва Ватан умри қадар боқийдирлар.

Адабиётлар рўйхати

1. Аҳмедов, Сирожиддин; Ражабов, Қаҳрамон (2000-2005). “Жадидчилик”. *Ўзбекистон миллий энциклопедияси*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
2. Хўжаев Ф., Бухоро инқилобининг тарихига материаллар, Тошкент, 1997;
3. Валидий, Бўлинганни бўри ер (Хотиралар), Тошкент, 1997;
4. Авлоний А., Танланган асарлар, 1-2-жилдлар, Тошкент, 1998;
5. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар, Тошкент, 1998;
6. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш, Тошкент, 1999;
7. Беҳбудий М., Танланган асарлар, Тошкент, 1999;
8. Абдурашидхонов М., Хотираларимдан, Тошкент, 2001;

9. Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш, Тошкент, 2001.

НАСЛЕДИЕ ДЖАДИДИЗМА - ОСНОВА СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Джумаев Маманазар
Профессор Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами, доктор педагогических наук
Степанова Светлана Ваджиповна,
учитель начальных классов, Зарафшан, Навоийская область

Аннотация. *В статье рассматривается процесс реализации Новой стратегии развития Узбекистана сегодня, принятие и внедрение национальной программы обучения в Узбекистане как ключевого звена преемственности образования и воспитания, а также история и развитие процесса совершенствования образования и воспитания в начальном образовании, пропаганда богатого наследия прошлого, практическое применение джадидистского наследия в воспитании детей как одного из важных факторов формирования и развития таких понятий, как патриотизм, преданность, стремление к знаниям, овладение профессией, отличительные особенности джадидистской школы, являющейся символом воображения и* ***мышления.***

Ключевые слова: *джадидизм, исторический период, Туркестан, наследие, образование и воспитание, начальное образование, период джадидизма, Самарканд, газета «Тарджиман». Аннотация. В статье рассматривается процесс реализации Новой стратегии развития Узбекистана сегодня, принятие и внедрение национальной программы обучения в Узбекистане как ключевого звена преемственности образования и воспитания, а также история и развитие процесса совершенствования образования и воспитания в начальном образовании, пропаганда богатого наследия прошлого, практическое применение джадидистского наследия в воспитании детей как одного из важных факторов формирования и развития таких понятий, как патриотизм, преданность, стремление к знаниям, овладение профессией, отличительные особенности джадидистской школы, являющейся символом воображения и мышления.*

«Идеи джадидов соответствуют стратегии нового Узбекистана» - Шавкат Мирзиёев Реализацию новой стратегии развития Узбекистана можно считать ключевым звеном преемственности образования и воспитания в современном Узбекистане. История и развитие процесса совершенствования образования и воспитания в начальной школе зависят от достойных продолжателей наследия джадидизма, пропагандирующих богатое наследие прошлого и применяющих его на практике. Формирование и развитие таких понятий, как патриотизм, преданность, стремление к знаниям и мастерство в ремесле, являются одними

из важных факторов воспитания детей младшего возраста. Школа джадидизма, являющаяся символом воображения и мысли, обладает своими уникальными особенностями. Закономерно возникают вопросы: кто такой джадидизм? В какой эпохе... Взгляд на историю джадидизма:

Джадидизм (араб. جديدجديد – новый) – общественно-политическое, просветительское движение, сыгравшее важную роль в жизни Туркестана, Кавказа, Крыма и Татарстана в конце XIX – начале XX веков.

Джадидизм зародился в Крыму в 1980-х годах. С 1990-х годов он распространился по всей Центральной Азии.

Изначально джадидизм выступал как культурное движение. Его представители призывали к борьбе за прогресс, развитию тюркских языков, обогащению литературы на этих языках, изучению светских наук, использованию научных достижений и борьбе за равноправие женщин и мужчин. В дальнейшем джадидисты продвигали идеи пантюркизма.

В литературе советского периода джадидизм характеризовался как «буржуазно-либеральное, националистическое движение». Имя представителей джадидизма, подвергавшегося в этот период особой критике, возродилось после распада СССР. Джадидизм впервые возник в Крыму в 1880-х годах среди крымских татар под руководством Исмаила Гаспрали.

Исмаил Гаспринский (1851–1914) – знаковая фигура в мировой истории тюрко-мусульман. Для кого-то он учитель и реформатор народного образования, для кого-то писатель, публицист и просветитель. В общем можно сказать, что Исмаил Гаспринский – многогранен, является авторитетом, на который нужно равняться.

Мировоззренческие принципы и идеи И. Гаспринского формировались на основе либеральной идеологии, прогрессивного развития общества, дружбы славянских и тюркских народов, конфессиональной терпимости христиан и мусульман, неприятия радикальных требований социалистов. И. Гаспринский выступал за эволюционные формы развития общества и приоритет гуманистических принципов.

Знаменитые слова просветителя «Тильде, фикирде, иштебирлик» можно понимать, как лозунг, обращенный к миллионам, но и как мудрое жизненное правило лично для каждого человека и, прежде всего, для самого себя: проживи жизнь так, чтобы твои слова, твои убеждения и твои дела были едины и соответствовали друг другу.

Имя Исмаила Гаспринского хорошо известно, как у нас в стране, так и за её пределами, его знают как педагога, просветителя, издателя первой в России тюркоязычной газеты «Терджиман («Переводчик»). Деятельность И. Гаспринского стала предметом научного поиска современных исследователей по различным отраслям науки: история, культурология, педагогика, этнопедагогика, филология. Однако остаётся целый пласт многогранного литературного творчества, который ещё предстоит исследовать востоковедам. Вклад просветителя в интеллектуальное развитие тюрко-мусульман непрерывно изучают в Турции, Северной Америке, Европе. Сегодня

планомерное изучение арабо-графических текстов до и после революционной России выводит в свет новые знания о судьбе, концептуальных взглядах великого интеллектуала.

Среди проблем, рассматриваемых И. Гаспринским на страницах «Терджимана», значительное место отведено вопросу женского образования, являющегося, как известно, одним из основных показателей социального положения женщины в обществе. Отметим, что вопрос просвещения женщин занимает одно из важнейших мест в дидактической системе Гаспринского. Свои основные идеи по этому вопросу он изложил в следующих статьях:

– «По-женскому вопросу» (1903 г.);

– «Исламизм и права женщин» (1909 г.),

– «О правах женщин» (1913 г.) и др.

Кроме того, вопросу гендерного воспитания посвящены такие произведения И. Гаспринского, как «Къадынларулькеси» («Страна Амазонок», 1890 г.), «Арсланкъыз» («Девушка-львица», 1893 г.), «Къадынлар» («Женщины», 1903 г.) [1, с. 138-139].

Проблематика газетных выступлений Гаспринского свидетельствует о том, что автор не оставался равнодушным к происходящему вокруг, а напротив, стремился донести до читателей свое видение многих проблем эпохи и рассказать о событиях, происходящих как в своем регионе, так и далеко за его пределами. По широте охвата тем, глубокому содержанию публицистических произведений, таланту и мастерству их изложения Гаспринского можно смело отнести к числу лучших публицистов своего времени. Общественно-политическая, социально-экономическая, духовная сфера человеческой жизни и деятельности, актуальные проблемы современной автору действительности – вот далеко не полный перечень вопросов, которые нашли отражение в публицистике Гаспринского. Сегодня эти материалы, составляющие основу публицистического наследия просветителя, представляют огромную ценность, как для исследователей, так и для широкой читательской аудитории, поскольку вдумчивый читатель может найти в них ответы на многие злободневные вопросы современности.

Прогрессивные педагогические идеи И. Гаспринского.

Только за первые 20 лет деятельности на этом поприще он открыл и реорганизовал более тысячи мектепов (школ) от Бахчисарая до Благовещенска.

В Доме-музее его имени ещё до Великой Отечественной войны посетители могли видеть экспонат – шар, сплочённый из тысячи драгоценных камней, на каждом из которых было выгравировано наименование очередной такой школы.

Приблизив программу школы к европейской (в этом И. Гаспринский следовал путём К.Д. Ушинского, называя его «незабвенным учителем»), и, применив, так называемый «звуковой метод обучения» (вместо чтения по буквам), разработал простой и понятный учебник «Ходжа-и-субьян» (Учитель и ученик»), пользуясь которым, мать могла учить ребёнка. И. Гаспринский добился того, что тот объём знаний, который в старометодныхмектепах

ученики осваивали за три-четыре года, в новых школах осваивался за полгода. Это была поистине школьная революция, обусловившая бурный прогресс в общественном сознании на национальных окраинах.

«Новый метод» обучения – «усул-и-джадид» дал название и жизнь такому общественно-политическому течению, которое вошло в историю как джадидизм. Эта образовательная реформа вышла за границы России и проникла в Турцию, Персию и Китай. В 1910 году И. Гаспринский направляется в Индию.

Исмаил Гаспринский стал инициатором реформации всей системы образования не только среди крымских, но и поволжских татар. Если до него джадидские медресе были редким исключением, то, благодаря его деятельности, они стали доминировать, проникая в среду всех тюркоязычныхнародов. Огромный авторитет Исмаила Гаспринского сохранялся и в начале XX века, когда открылось большое количество татарских газет и журналов, а новая методика обучения – дидактическая система И. Гаспринского стала повсеместной.

И. Гаспринский награждён орденами: бухарским «Золотой орден Восходящей звезды» (III степени), турецким «Медение» (IV степени), иранским «Лев и Солнце» (IV и III степени) и медалью Санкт-Петербургского русского Технического общества (бронзовая).

Организация ООН по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО) объявила 2014 год годом памяти выдающегося крымскотатарского общественного деятеля мирового масштаба Исмаила Гаспринского (1851-1914). Это дань уважения памяти о человеке, который внёс большой вклад в развитие вопросов образования, науки и культуры.

Идеи и мысли Исмаила Гаспринского, сформулированные в конце XIX в., приобретают особое звучание и заставляют задуматься о перспективе их развития в социокультурном контексте XXI века. Родившегося и выросшего в Крыму, на стыке двух цивилизаций, двух во многом разных миров – Востока и Запада, Европы и Азии с разным национальным и конфессиональным составом населения, Исмаила Гаспринского не могла не волновать тема межнационального и межконфессионального взаимодействия. Он публично озвучил вопрос о необходимости равенства между людьми на основе взаимного доверия и взаимной помощи, вне зависимости от их национальной и религиозной принадлежности, открыто поставил вопрос о необходимости разработки такой формулы взаимоотношений между людьми, которая устраивала бы обе стороны взаимодействия.

Мудрые мысли Исмаила Гасприскогo о просвещении, духовности и национально-культурной идентичности

1. *«Единство в языке, мыслях и делах».*

2. *«Я сторонник эволюционных преобразований в обществе, а не революционных».*

3. *«Школа – орган умственного и нравственного воспитания».*

4. *«Давно пора, давно следовало понять, что самые полезные люди – это учителя».*

«Давно пора, давно следовало бы понять, что самый большой расход должен быть расход на обучение; пора понять, что стыдно и грешно давать учителю за «неделю» 5 коп, и тратить ежедневно по 20 коп, на «лишнюю чашку кофе и чая».

5. *«Человек, сойдя с колыбели, должен поступить в школу, в дом учения, знания. Только пройдя эту школу, он может вступить на поле жизни».*

6. *«Нетрудно было бы просветить народ, если бы легко было бы доказать ему его необходимость».*

7. *«Если хотите помочь народу, начните с того, что доступно и понятно».*

8. *«Печать – это такая сила, которая, сокрушая, опережая столетия, пространства,*

сближают меж собой все времена!.. В наше время этой благодатной силой обладают

многие большие и малые народы, между тем у нас печати вовсе не существует. Мы давно озадачены и заинтересованы этим».

9. *«Все наши бедствия, болезни происходят от неграмотности и незнания. Если неграмотным народам дать всемирное благополучие, они всё равно не сумеют воспользоваться им, прежде всех их надо учить грамоте… Грамотный народ сам найдёт себе наилучшее счастье».*

10. *«Пока народ не будет хорошо грамотным, пока он не начнёт мыслить и не пробудится в нём «самодеятельность» все прочие меры не будут им использованы в должной степени».*

11. *«Там, где можно было, мы бросали свои пепелища, святыни, родину и уходили бог весть куда (крымцы, кавказцы, бессарабы), а где уйти было некуда, мы уходили в свой тесный мирок, отдаваясь ему всецело и не желая знать и ведать ничего, что не касалось близко нашего мирка и его узких интересов (мусульмане внутренних губерний)».*

12. *«Язык народа, их речь – это печать и литература. Литература – это такая речь, это такой язык, звуки которого слышны далеко, он может звучать и тысяча лет после нас».*

13. *«Величие и значение народа пропорциональны степени его науки и прогресса».*

14. *«Язык и литература суть основы знаний и прогресса». «Без знания родного языка и литературы, никакое просвещение немыслимо».*

15. *«Право национальности, право иметь и блюсти свой исторический культурный народный облик, есть в наше просвещённое время такое же естественное, неотъемлемое, право человека, как и все другие «droitsdel’homme» (права человека, – прим. ред.). «Отнять у человека его национальность не меньшее насилие, чем отнять свободу совести или разрушить семью… Так и современные крепостники-политики признают святые узы народности исключительным правом господствующего народа».*

16. *«Дух без идеала неминуемо должен быть мрачен, жизненный путь без благих целей должен подавлять и утомлять».*

17. *«Культура человечества работает интенсивно: наше время – время соединения огромных и всяких народов для взаимопомощи. В жизни экономической, жизни политической, единение, общность становятся историческим законом. Это надо глубоко осознать и благодарить Аллаха, что исторические связи тюрко-татарской нации с народом русским, а не каким-нибудь другим».*

18. *«Каждый человек, если средства и обстоятельства позволяют, должен изучать три языка – свой родной язык, язык того государства, где живёт и, по возможности язык, который учат все народы».*

19. *«Известно, что чем более какой-либо народ имеет книги, тем он становится выше».*

20. *«Пройдут годы, нас не будет, но просвещённый народ бессмертен».*

При издании газеты Гаспринскому прежде всего пришлось решать проблему читателей и подписчиков. В августе 1881 года он отправился на Нижегородскую ярмарку, куда съехались мусульманские купцы и промышленники со всей России. В этой ярмарке участвовали и купцы из Туркестана. Во время поездки Гаспринский провёл переговоры со многими купцами по вопросам народного образования и печати и сумел найти сторонников. В результате переговоров эти купцы взяли на себя обязательство распространять номера газеты, отправляемые по почте, в регионах своего проживания. Гаспринский вернулся из Нижнего Новгорода в Багчасарай со списком из 250 подписчиков. Эти подписчики впоследствии стали первыми читателями газеты «Таржимон».

В течение 20 лет после своего выхода газета «Таржимон» оставалась единственным мусульманским изданием в Российской империи. В этот период газета выходила небольшим тиражом 1-2 раза в неделю. Однако влияние этой небольшой газеты на тюркские народы было огромным. Под влиянием «Таржимона» мусульманами в разных частях Российской империи было открыто множество новых школ, организовано множество благотворительных обществ, сформировалась новая литература. Гаспринский был искусным мастером слова. Он использовал простой, лаконичный и выразительный стиль предложения; он создал «средний» язык «Таржимон». Гаспринский мечтал объединить все тюркские народы под единым литературным языком «Таржимон». За это он боролся до конца своей жизни под лозунгом «Единство в языке, мысли и деле».

Было признано, что джадидское движение – явление мирового значения. На конференции был сформирован Международный научный совет по изучению этой проблемы.

Использованные источники:

1. Ахмедов, Сирожиддин; Раджабов, Кахрамон (2000–2005). «Джадидизм». Национальная энциклопедия Узбекистана. Ташкент: Национальная энциклопедия Узбекистана.

2. ↑ «Джадидизм». Энциклопедический словарь. 1. Ташкент: Главная редакция Узбекской советской энциклопедии. 1988. С. 271.

3. ↑ «Джадидизм». Узбекская советская энциклопедия. 4. Ташкент: Главная редакция Узбекской советской энциклопедии. 1973. С. 278–279.

4. Айний С., Материалы для истории Бухарской революции, М., 1926;

5. Рыскулов Т., Революция и коренное население, Ташкент, 1926;

6. Зие Саид, Материалы по современной узбекской печати (1870-1927), Ташкент, 1927;

7. Программный документ мусульманской политической партии (1917-1920), Оксфорд, 1985;

8. Революция в Средней Азии глазами мусульманских большевиков, Оксфорд, 1985;

9. Политическая жизнь русских мусульман до февральской революции, Оксфорд, 1987;

10. Мустафа Чокай оглы, Палачи независимости, Ташкент, 1992 год;

11. Чолпон, Сочинения, тома 1-2, Ташкент. 1994 год;

12. Раджабова Р. и др., История Узбекистана (1917-1993), Ташкент, 1994;

13. Ходжаев Ф., Материалы для истории Бухарской революции, Ташкент, 1997;

14. Валиди, Разделённая земля (Воспоминания), Ташкент, 1997;

15. Авлони А., Избранные произведения, т. 1-2, Ташкент, 1998;

16. История Узбекистана: Новый взгляд. От джадидского движения к национальной независимости, Ташкент, 1998;

17. Джадидизм: реформы, обновление, борьба за независимость и развитие, Ташкент, 1999;

18. Бехбуди М., Избранные произведения, Ташкент, 1999;

19. Фитрат, Избранные произведения, т. 1-2, Ташкент, 2000;

20. Алимова Д., Джадидизм в Центральной Азии. Пути обновления, реформ, борьбы за независимость. Ташкент, 2000;

21. Новая история Узбекистана. Книга 1 [Туркестан в колониальный период царской России], Ташкент, 2000;

22. Книга 2 [Узбекистан в период советского колониализма], Ташкент, 2000;

23. Юсупов П., История молодой Хивы (Воспоминания), Ургенч, 2000;

24. Туркестан и начало XX века: история национальной независимости, Ташкент, 2000;

25. Абдурашидханов М., Из моих воспоминаний, Ташкент, 2001;

26. Очерки истории государственности Узбекистана, Ташкент, 2001;

27. Центральная Азия в начале XX века: реформы, обновление, развитие и борьба за независимость. Ташкент, 2001.

28. https://daryo.uz/k/2021/03/21/ismoil-gasprinskiy-jadidchilik-harakatining-ososchisi. ЗайнобидинАбдирашидов.

JADIDLAR MEROSI – YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TARAQQIYOTINING MA’NAVIY POYDEVORI

Toshpulatova Dilorom Bobonazarovna-*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD dotsent.*

Xalbekova Nazokat Ummatkulovna-*TGFU magistratura bosqichi, “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 2-kurs talabasi. Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 4-sonli maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining Yangi O‘zbekiston ta’lim taraqqiyotidagi ma’naviy va g‘oyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va ta’limni isloh etish borasidagi qarashlari bugungi islohotlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi asoslab beriladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid allomalarning ta’lim haqidagi fikrlari, ularning millatni ilm va axloq orqali yuksaltirish g‘oyalari Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyotida muhim manba sifatida talqin etiladi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning jadidlar merosi haqidagi fikrlari zamonaviy ta’lim siyosatining ma’naviy asoslari bilan uyg‘unlikda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidlar, ma’rifatparvarlik, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, ta’lim islohoti, Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, pedagogika, milliy uyg‘onish, zamonaviy ta’lim.*

Har bir millatning yuksalish yo‘lida ma’naviyat, ilm va tafakkur eng muhim tayanch hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ildizlari ham aynan shu qadriyatlarda mujassam bo‘lib, ularning manbai jadidlar merosidan boshlanadi. Jadidlar – bu xalqni uyg‘otgan, milliy tafakkurni yangilagan, ta’lim va ma’rifatni jamiyat rivojining asosiy omiliga aylantirgan avlod edi.

Ular shunchaki o‘qituvchi yoki yozuvchi emas, balki millat kelajagini ilm bilan bog‘lagan buyuk islohotchilar bo‘lishgan. Jadidlar “yangi maktab”, “yangi fikr”, “yangi avlod” g‘oyalarini ilgari surib, O‘rta Osiyoda zamonaviy o‘quv tizimi, milliy matbuot va sahna madaniyatiga asos soldi. Ularning mehnati natijasida xalq tafakkurida erkinlik, tafakkur mustaqilligi, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari paydo bo‘ldi.

Bugungi Yangi O‘zbekiston aynan shu ruhni – yangilanish, islohot, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini davom ettirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va

dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.”[53]

Demak, jadidlar merosi – bu faqat tarixiy xotira emas, balki bugungi ta’lim islohotlarining ma’naviy manbai, kelajak avlodni tafakkurli, vatanparvar, ilmli shaxs sifatida tarbiyalash yo‘lida bebaho tajribadir.

Jadidlar uchun ta’lim – bu shunchaki bilim berish vositasi emas, balki millatni uyg‘otish, mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashning eng muhim yo‘li edi. Ularning nazarida, har qanday millatning kelajagi avvalo maktabda, o‘qituvchida va kitobda mujassam bo‘ladi. Shu bois ular o‘z davrining murakkab siyosiy sharoitiga qaramay, ta’limni isloh qilish, zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish va xalqni savodxonlikka chorlashni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘ygan edilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasida, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida, Munavvarqori Abdurashidxonov esa o‘z maqolalarida xalqning qutqaruvini faqat ilm va ma’rifatda ko‘rgan. Ular uchun “ilm – najot”, “o‘qimagan xalq – ojiz xalq” degan tamoyillar nafaqat shior, balki hayot mezoni edi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatining asosiy g‘oyalari – inson kapitaliga e’tibor, shaxsni har tomonlama kamol toptirish, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish – aslida jadidlarning orzu qilgan maqsadlari bilan uyg‘unlashadi. Jadidlar ilgari surgan quyidagi uch asosiy tamoyil bugungi ta’lim jarayonida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda:

Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi. Jadidlar milliy qadriyatlarni asrab, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish zarurligini uqtirganlar. Bugungi kunda ham ta’lim dasturlarining milliy va global yondashuvlar asosida shakllanishi – shu g‘oyaning davomidir.

O‘qituvchining ma’naviy mas’uliyati. Abdulla Avloniy “Muallim – xalq ko‘zgusi” deb ta’lim bergan shaxsning jamiyatdagi o‘rnini nihoyatda ulug‘lagan. Hozirgi islohotlarda ham o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yetakchi, motivator sifatida qaralmoqda.

Yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Jadid maktablari shogirdlarni yod olishga emas, fikrlashga, tahlil qilishga o‘rgatgan. Bugungi kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim ham aynan shu ruhda – ijodkor, tanqidiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Jadidlarning ta’limga oid qarashlarini zamonaviy talqin etar ekanmiz, shuni anglaymizki, ularning orzulari bugun yangi mazmun va shaklda ro‘yobga chiqmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimidagi raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlarini yaratish – bularning barchasi jadidlar boshlagan islohotlar yo‘lining mantiqiy davomidir.

Shu o‘rinda, dotsent Nasimjon Alimovning quyidagi fikrlari ham jadidlar merosi va bugungi ta’lim taraqqiyoti o‘rtasidagi ruhiy va g‘oyaviy uzviylikni chuqur ifodalaydi: “Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Zamona ilmu fanidan bebahra millat o‘zgalarga poymol bo‘lur”, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo

[53] Sh.M.Mirziyoyev. 22-dekabrda Respublika Ma´naviyat va ma´rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqidan. https://www.amerikaovozi.com/a/7427563.html

mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”, degan so‘zlari bugun ham millatni uyg‘otuvchi da’vatdek jaranglab turibdi.”[54]

Darhaqiqat, bu so‘zlar zamonaviy ta’lim falsafasining ma’naviy ildizlarini ochib beradi. Zero, jadidlar ilgari surgan ta’lim g‘oyasi – bu insonni faqat bilim bilan emas, balki ma’naviyat, iymon, mas’uliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash g‘oyasidir. Bugungi kunda ham Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosati aynan shu yo‘nalishda, ya’ni bilim va tarbiyani uyg‘un holda rivojlantirish tamoyiliga tayangan holda olib borilmoqda.

Shu bois jadidlar o‘gitlari, Behbudiy va Avloniyning da’vatlari bugungi ta’lim jarayonida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q – aksincha, ular yangi davr talablari bilan uyg‘unlashib, yosh avlodni intellektual va ma’naviy barkamollikka yetaklovchi g‘oyaviy manba sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi shunchaki dars beruvchi emas, balki millatning ertangi kunini shakllantiruvchi ma’naviy yo‘lboshchidir. Shu ma’noda, jadidlar ilgari surgan “muallim – millat ko‘zgusi” g‘oyasi bugungi islohotlarda yangicha mazmun kasb etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, biz bugun yashayotgan farovon hayot, tinch va osuda kunlar, mustaqil Vatan – bularning barchasi o‘z-o‘zidan yaratilmagan. Bu ne’matlar zamirida jadid bobolarimizning fidokorona mehnati, ma’rifat yo‘lida chekkan mashaqqatlari va millat ozodligi yo‘lidagi kurashlari mujassam.

Buyuk jadid allomalaridan biri Abdulla Qodiriyning “Moziyg‘a qarab ish ko‘rmak xayrlidir” degan ibratli so‘zlari bugungi kunda ham biz uchun hayotiy dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Zero, o‘tmishni anglash, ajdodlarimiz merosidan saboq olish – kelajakni bunyod etishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Jadid bobolarimiz jaholatni yengish, ilm va ma’rifatni yoyish, xalqni uyg‘otish orqali Turkistonni taraqqiy etgan mamlakatlar safida ko‘rishni orzu qilgan edilar. Bugun ularning orzulari Yangi O‘zbekiston qiyofasida o‘z ifodasini topmoqda.

Shu nuqtai nazardan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari bejiz emas: “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da’vat etib turadi.”[55]

Bu so‘zlar jadid bobolarimiz merosining abadiy hayotiyligini, ularning orzulari va g‘oyalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqligini chuqur ifoda etadi. Endilikda biz – bugungi avlodning zimmasida buyuk mas’uliyat yotadi.

[54] Nasimjon Alimov.https://biztv.uz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtga-aylanish-imkonidir

[55] https://president.uz/uz/lists/view/6919

Bu mas’uliyat – ajdodlarimiz boshlab bergan islohotlar yo‘lini davom ettirish, tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, yosh avlodga kimlarning zurriyoti ekanini anglatish, ularni ilm, tafakkur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir.

Haqiqat shuki, Yangi O‘zbekiston kelajagiga biz – bugungi yoshlar, o‘qituvchilar, ziyolilar – o‘z bilimimiz, ma’rifatimiz, halol mehnatimiz va toza vijdonimiz bilan hissa qo‘sha olamiz. Eng muhimi, bizda bunga yetarli kuch, salohiyat va imkoniyat mavjud. Ajdodlarimiz orzulari endi bizning qo‘limizda – uni ro‘yobga chiqarish esa bizning burchimizdir.

Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. 22-dekabrda Respublika Ma´naviyat va ma´rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqidan. ttps://www.amerikaovozi.com/a/7427563.html

2. Nasimjon Alimov. https://biztv.uz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtga-aylanish-imkonidir.

3. https://president.uz/uz/lists/view/6919

TARIXIY HAQIQATNING QAYTA TIKLANISHI VA BEHBUDIY SIYMOSINING ILMIY TALQINI (POYON RAVSHANOV “BEHBUDIY HAQIQATI” TADQIQNOMASI)

Rajabaliyeva Muhabbat Alisher qizi
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. *Maqola “Behbudiy haqiqati” va Poyon Ravshanovning arxivga tayangan izlanishlari sintezida Behbudiyning so‘nggi kunlari hamda siymosining tarixiy manzarasini qayta tiklaydi. Avvalgi talqinlar sana–joy–voqea bo‘yicha hujjatlar, og‘zaki tarix va matnshunoslik dalillari bilan solishtirilib, asosli rekonstruksiya taklif etiladi. Natijada ilmiy talqin yangilanadi va ta’limiy-amaliy foydalanish uchun qisqa metodik yo‘l-yo‘riqlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy; Poyon Ravshanov; “Behbudiy haqiqati”, arxiv manbalari; tarixiy rekonstruksiya; behbudiyshunoslik.*

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919/1920) Turkiston jadidchilik harakatining ramziy siymosidir. Mustamlaka va keyingi sho‘ro davrlarida jadidlar merosi siyosiy sabablarga ko‘ra taqiqlangan, 1980-yillar oxiridan boshlab esa asta-sekin ilmiy muomalaga qayta boshlagan. Mustaqillikdan keyingi davrda behbudiyshunoslikda yangi bosqich yuzaga keldi: A. Aliyev, N. Karimov, B. Qosimov, D. Alimova, I. G‘ofurov, H. Saidov, shuningdek xorijiy tadqiqotchilar I. Baldauf va E. Olvert ishlari bu jarayonning metodik asosini mustahkamladi. Oxirgi yillarda Poyon Ravshanovning arxiv dalillarini tadqiq etgani, “Behbudiy haqiqati” tadqiqnomasining nashri bilan birga, Behbudiyning so‘nggi kunlariga doir “uzoq davom etgan jumboq”ga ilmiy yondashuv kiritildi.

Maqolaning maqsadi – Ravshanov tadqiqotlari va “Behbudiy haqiqati”dagi dalillar sintezida Behbudiy hayotining so‘nggi bosqichini qayta tiklash, shuningdek bu qayta tiklashning behbudiyshunoslik, manbashunoslik va ta’limiy amaliyot uchun ahamiyatini yoritish.

Adabiyotlar sharhi va muammo holati. Sho‘ro davrida Behbudiy qatli masalasida aniq hujjatli asos yo‘qligi sababli turli taxminlar muomalada bo‘ldi: 1919-yil erta bahorda Inqilobiy favqulodda komissiya ko‘magida Buxoro amirligi tomonidan qo‘lga olinishi, qisqa muddatda qatl etilishi haqidagi rivoyatlar keng tarqaldi. Hoji Muinning 1922-yilgi maqolasi bu voqea-hodisaning Qarshida sodir bo‘lgani, bir necha hamrohi bilan vahshiyona o‘ldirilgani haqida ma’lumot beradi. Biroq rivoyatlar o‘rtasidagi tafovutlar – sananing aniqligi, qatl joyi, qabr manzili – uzoq yillar muhokama bo‘lib keldi.

Poyon Ravshanov 2006–2012-yillarda Qashqadaryo viloyati hokimlik va xavfsizlik arxivlarida izlanishlar olib borib, 2008-yilda GPU (Bosh siyosiy boshqarma) fondlaridagi 172-jild, 2-ro‘yxat, 13(20)-ishdagi qaydlarga duch keladi. Uning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida 2008-yil 23-avgustda bosilgan “Behbudiyning so‘nggi kunlari” hamda 2010-yil 23-iyuldagi “Behbudiyning so‘nggi manzili” maqolalari ilmiy jamoatchilikda katta rezonans uyg‘otdi. Olimning vafotidan so‘ng e’lon qilingan “Behbudiy haqiqati” (2022) kitobi ushbu dalillarni tizimlashtirib, tarixiy rekonstruksiya uchun konseptual asos yaratdi.

Manbashunoslik va metodologiya. Ushbu ish uch qatlamli manbaga tayanadi:

1. Arxiv hujjatlari – GPU fondlaridagi jild va ishlar, mahalliy idoralar muhokamalari, xabar va ko‘rsatmalar.
2. Og‘zaki tarix – Behbudiy avlodlari va zamondoshlari xotiralari (masalan, Ra’no To‘raxo‘jayeva bilan suhbatlar orqali saqlangan ma’lumotlar).
3. Matnshunoslik – Hoji Muin maqolasi, Fitratning “Behbudiy sag‘anasini izladim” she’ri, jadidlar matbuotidagi qaydlar.

Metod sifatida tarixiy rekonstruksiya – sana, joy, shaxslar va voqealar zanjirini hujjat–matn–xotira uchligi bo‘yicha tutashtirish; diskurs-tahlil – ilgari shakllangan taxminlar diskursini dalil bilan tekshirish; komparativ manbatutqazma – bir-birini to‘ldiruvchi (yoki inkor etuvchi) dalillarni qiyosiy o‘rganish qo‘llandi.

Natijalar: so‘nggi kunlarning rekonstruksiyasi

Sana va joy masalasi. Poyon Ravshanov keltirgan dalillar Behbudiyning Taxtaqoracha dovonida ushlangani, Shahrisabzdan Qarshiga keltirilgani, Ko‘hna Chorsu ko‘chasidagi 21-uyning podvallarida bir yarim yil atrofida tutqun qilinganini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, qatl sanasini 1919-yil mart emas, balki 1920-yil sentyabrga taalluqli bo‘lishi ehtimoli yuqori ekani asoslanadi. Bu xulosa Hoji Muin ma’lumotlari bilan muqoyasa qilinganda vaqt chizig‘ini qayta ko‘rishga majbur qiladi: 1919-yil martidagi voqea – qo‘lga olish, keyingi oylar – tutqunlik hamda 1920-yil oxiri – qatl.

Qabr manzili. Maqbarashunoslik va mahalliy xotira manbalari Behbudiy va uning hamrohlari jasadi Eshoni Shahid qabristoniga dafn etilganini ko‘rsatadi. 1926–1936-yillar oralig‘ida mazkur joy ziyoratgoh sifatida mavqega ega bo‘lib, hatto

“qasamyod marosimlari” o‘tkazilgani haqida ham ma’lumotlar mavjud. 1937-yilda siyosiy vaziyat keskin o‘zgargach, qabr ustidagi inshoot buzilib, manzil yillar o‘tib xotiradan ko‘chib ketadi. Bu faktlar “unutilgan qabr – unutilgan xotira” dialektikasini ko‘rsatadi.

Rivoyatdan hujjatga: taxminlar tanqidi. Uzoq yillar davomida hukmron bo‘lgan “1919-martda darhol qatl” talqini hujjatli asos bilan to‘ldirilmagani, manbalar o‘rtasida tafovutlar borligi ko‘rindi. “Behbudiy haqiqati”da arxiv-daliliy qatlam tizimlashtirilib, taxminlar hujjatli rekonstruksiya bilan almashtirildi: vaqt–makon–shaxs chizig‘ida xatoliklar kamaydi, rivoyat darajasidagi bo‘shliqlar manbalar bilan yopildi.

Muhokama: ilmiy xulosa va konseptual natijalar

1) Behbudiy siymosining ilmiy talqini

Rekonstruksiya faqat “so‘nggi kunlar”ni aniqroq qilish bilan cheklanmaydi; u Behbudiy siymosining ma’rifatparvarlik, islohotchilik, jurnalistika va ta’lim falsafasi qirralarini yaxlit ko‘rsatadi. Fitrat she’rini epigraf sifatida olish – adabiy-estetik xotira va hujjatli tarix o‘rtasida muloqot maydoni yaratadi. Natijada siymo “ramziy shahid” yoki “publitsist qahramon” sifatida emas, balki tarixiy shaxs sifatida tiklanadi.

2) Behbudiyshunoslikda manbashunoslik modeli

Ravshanov yondashuvi – arxivga qaytish, mahalliy xotirani hujjat bilan tahlilga tortish – jadidshunoslikda metodik standartni yangilaydi. Manba turiga ko‘ra ishonchlilik gradienti belgilash, dalilni “relyatsion” (o‘zaro bog‘lovchi) nuqtalarda tekshirish, rivoyatni qayta muvozanatlash – bular “Behbudiy haqiqati”ning ilmiy foydasini belgilaydi.

Xulosa. “Behbudiy haqiqati” va Poyon Ravshanov izlanishlari Behbudiy siymosini rivoyat qobig‘idan chiqarib, hujjatli tarix maydoniga qaytardi. Sana–joy–voqea bo‘yicha aniqroq tasavvur shakllandi; qabr manzili haqidagi ma’lumotlar milliy xotira geografiyasini tiklashga yordam berdi. Metodik jihatdan esa behbudiyshunoslikda arxiv–matn–xotira uchligiga tayangan tadqiqot modeli mustahkamlandi. Kelgusida Toshkent, Samarqand va boshqa arxivlardagi hujjatlarni kompleks raqamlashtirish, GIS asosida xotira xaritasi yaratish, maktab va oliy ta’limda manbaga tayangan o‘qitish modullarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Behbudiy Mahmudxo‘ja. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2001. – B. 9.

2. Ravshanov P. Behbudiy haqiqati: tadqiqnoma. – T.: “Akademnashr”, 2022. – 125 b.

3. Ravshanov P. Behbudiyning so‘nggi kunlari // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2008, 23-avgust soni. – B. 3.

4. Ravshanov P. Behbudiyning so‘nggi manzili // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2010, 23-iyul soni. – B. 2.

5. Rajabaliyeva M. “Behbudiy haqiqati” olim Poyon Ravshanov tadqiqotida // Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida: respublika ilmiy-amaliy anjumani

materiallari. – T.: Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2022. – B. 458-462.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING GEOGRAFIYA FANINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA ILMIY MEROSI

Xolmurodova Zarina Toyirovna
Samarqand shahar 14-son umumta’lim maktabi geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan geografiya fanini rivojlantirish, uni ta’lim tizimiga joriy etish va milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada Behbudiyning geografiyani nafaqat tabiiy fan sifatida, balki milliy ong, vatanparvarlik va zamonaviy tafakkurni shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin etgani ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, geografiya fani, “Risolai geografiya”, “Muxtasar jug‘rofiyo”, “Sayohat xotiralari”, ma’rifat, milliy o‘zlik, ta’lim, vatanparvarlik, geografik tafakkur, ilmiy meros.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ilg‘or ma’rifatparvarlaridan biri sifatida nafaqat diniy-ma’naviy, balki tabiiy-ilmiy yo‘nalishlarda ham samarali ijod qilgan. U geografiya faniga oid bir qator asarlar yaratib, mazkur sohaning o‘zbek tilidagi dastlabki ilmiy manbalarini shakllantirgan. Jumladan, “Risolai jo‘g‘rofiya Rusiy” (Rossiya geografiyasi, 1904), “Risolai jo‘g‘rofiya umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish, 1905) hamda “Kitobi muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiy”, to‘liq nomi “Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” (“Umumiy jo‘g‘rofiyadan saylanma kitob, 1906”) nomli asarlarida u o‘zining geografik qarashlarini, ilmiy kuzatuvlarini va o‘quvchilarga mo‘ljallangan didaktik yondashuvlarini bayon etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida geografiya fanini milliy ta’lim tizimiga kiritish va uni xalq orasida ommalashtirishga alohida e’tibor qaratgan. Shu maqsadda u bir necha o‘quv qo‘llanmalari yaratgan bo‘lib, ular orasida Kitobi muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiy”, to‘liq nomi “Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” (“Umumiy jo‘g‘rofiyadan saylanma kitob, 1906”) asari alohida o‘rin tutadi. “Behbudiy ushbu asarning muqaddima fasllaridan biri “jug‘rofiya” fanining ahamiyati va bu fanning "tarixiy jug‘rofiya", "siyosiy jug‘rofiya" va "umroniy (umumiy) jug‘rofiya" degan qismlardan tashkil topishi haqidagi fikrlarini bayon qilgach, yozadi:"Xulosa, bu zamong‘a jug‘rofiya ilmi dunyoni va andagi xaloyiq, hayvonot, umronot va harnaki dunyog‘a bordur,, bildiraturg‘on kerakli, bir ilmiy jahonnomadur..”[1;66-67]

Mazkur asarlar orqali Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek o‘quvchilarini geografik bilimlar bilan qurollantirish, ularni zamonaviy ilm-fan asoslari bilan tanishtirish, ayniqsa, dunyo mamlakatlarining tabiiy sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy jihatlari haqida ilmiy tasavvur hosil qilishni maqsad qilgan. U bu asarlarida geografiyani insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida talqin etadi. “Behbudiy

«Muntahabi jo‘g‘rofiyai umumiy» asarida «Geografiya» atamasiga izoh berib: «Jo‘g‘rofiya degan so‘zning ma’nosi, yunon lug‘ati arabiyacha ta’rifi arz ma’nosiga, ya’ni yer va tufroqni bayon qiladurgon ilmni aytadur», deydi. Behbudiy ta’rifiga ko‘ra, geografiya yer shari va uning tuzilishi (ya’ni, tuprog‘i) nimadan iborat ekanligini o‘rganuvchi fandir. Bugungi kunda «Geografiya» so‘zi (grekcha «geo» - yer va «grafo» - yozaman, tasvirlab yozaman) birlik sonda ishlatilganligidan bu so‘z birgina fanning nomini anglatar ekan, deb tushunish mumkin. Haqiqatda esa bu so‘z tabiiy va ijtimoiy fanlarning ma’lum guruhini bildiradi. Bundan tabiiy fanlar yer shari yuzasidagi tabiiy hodisalarni o‘rgansa, ijtimoiy fanlar turli mamlakatlarda kishilik jamiyatining xo‘jalik faoliyatini xususiyatlarini o‘rganadi” [2]

Behbudiy asarlarida geografik bilimlarning jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, u xo‘jalik yuritishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yer va suv boyliklarini asrash, iqlim va tabiiy sharoitlarning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri kabi masalalarga e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, muallif geografiyani milliy o‘zlikni anglash, Vatan tarixini chuqur bilish va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim vosita deb biladi. “Kuzatishlari natijalarini o‘z safar kundaligida qayd etib, ularni “Sayohat xotiralari” nomi bilan chop qildi. Mazkur xotiralar tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, Rossiya imperiyasi va Yaqin Sharq mamlakatlari shaharlarining XX asr boshlaridagi hayotining yaqqol manzarasini namoyon qiladi. Jumladan, ushbu hududlarning aholisi, qishloq xo‘jaligi madaniyati, yashash tarzi va savdo aloqalarining turli jihatlari sayyoh tomonidan qiziqarli ifodalangan” [3;].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu ilmiy merosi o‘zbek geografiya fani rivojida asosiy manbalardan biri bo‘lib, uning o‘z davrida ilgari surgan g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Alloma yaratgan bu asarlar, mohiyatan, ilm, ma’rifat va milliy tafakkur uyg‘unligini ifoda etuvchi geografik merosdir.

Behbudiy o‘z asarlarida geografiya fanining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. U geografiyani insoniyat tafakkuri bilan bir paytda shakllangan, dunyodagi eng qadimiy fanlardan biri sifatida e’tirof etadi. Behbudiy fikricha, insoniyat tarixining dastlabki bosqichlaridayoq odamlar yashash joylarini, tabiat sharoitlarini, suv va yer resurslarini bilishga intilgan, bu esa tabiiy ehtiyoj sifatida geografik tafakkurning shakllanishiga sabab bo‘lgan. “Behbudiy o‘z asarlarida tarix va geografiyaning jamiyatda tutgan o‘rniga ham alohida ahamiyat berib, uning insoniyat jamiyatida ilk davrlardayoq shakllangan dunyodagi eng qadimgi fanlardan ekanini ta’kidlagan. U bu boradagi ilmiy qarashlarini “Tarix va jug‘rofiya” deb nomlangan ilmiy maqolasida bayon etgan. Uning fikricha, tarix va geografiya inson uchun quyosh kabi zarurdir” [3;].

Behbudiy mazkur maqolalarida geografiya fanining asosiy vazifalari – tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘rganish, yer sharining tabiiy va ijtimoiy tuzilishini anglash, aholi geografiyasi va etnografik xususiyatlarni ilmiy tahlil qilish kabi masalalarni ilgari suradi. U o‘zining o‘ziga xos tahliliy yondashuvi bilan geografiyani iqtisodiyot, tarix, etnografiya va madaniyat bilan uzviy bog‘liq fan sifatida ko‘rsatadi.

Shuningdek, Behbudiy O‘rta Osiyo va Turon hududining qadimgi geografik chegaralariga doir tasvirlari bilan ajralib turadi. U bu hududlarning tabiiy tuzilishi, iqlimi, aholisi, tarixiy-siyosiy o‘rni haqida ilmiy asoslangan fikrlar bildirgan. Behbudiy tomonidan chizilgan bu tarixiy-geografik manzaralar bugungi zamon mutaxassislari uchun ham qimmatli ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki u o‘z davrida mavjud cheklangan sharoitga qaramay, ilmiy kuzatuv va solishtirish metodlaridan foydalangan holda, geografiyani milliy ilmiy tafakkur darajasiga ko‘targan.

Xulosa qilib aytganda, Ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Geografiya nima?” hamda “Dunyoda qancha aholi va xalq bor?” nomli maqolalarida geografiya fanining mohiyati, tadqiqot doirasi va ijtimoiy ahamiyatini chuqur yoritgan. U geografiyani faqat joy nomlarini o‘rganadigan fan emas, balki insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti, aholi joylashuvi va tabiiy sharoit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil etuvchi keng qamrovli ilmiy yo‘nalish sifatida talqin etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy geografiyani faqat tabiiy fan sifatida emas, balki milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy uyg‘onish vositasi sifatida talqin etgan. Uningcha, o‘z yurti va xalqining joylashuvi, tabiati, tabiiy boyliklarini bilmagan xalq kelajagini to‘g‘ri belgilay olmaydi. Shu bois u geografiyani maktablarda o‘qitishni, xaritalar, globuslar, tabiiy manzara tasvirlari yordamida o‘quvchilarda amaliy tasavvurlarni shakllantirishni muhim deb bilgan.

Demak, Mahmudxo‘ja Behbudiy qoldirgan geografik meros nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham o‘rganishga arzigulik ilmiy-madaniy manba bo‘lib, u o‘zining ilg‘or pedagogik va ma’rifiy qarashlari bilan o‘zbek geografik tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharipov R. Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy publitsistikasi // “Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusida o‘tkazilgan davra suhbati materiallari. – T., TDSHU, 2025.-B.66-67.

2. Abbosov S., Meliyev B. Mahmudxo‘ja Behbudiy geograf bo‘lmagan, ammo o‘zidan qimmatli geografik meros qoldirgan // https://zarnews.uz/uz/post/mahmudxoja-behbudiy-geograf-bolmagan-ammo-ozidan-qimmatli-geografik-meros-qoldirgan

3. Karomiddin G. Behbudiy va Jug‘rofiya // *“Jadid” gazetasining 2025-yil 11-apreldagi 15-sonida*

4. Behbudiy Tanlangan asarlar. - T.: “Ma’naviyat”, 1997. – 72 b.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA ZAMONAVIY MEDIA SAVODXONLIK: YOSHLAR TARAQQIYOTI VA MILLAT RAVNAQI KONSEPSIYASI

Allayorova Nilufar Yaxshinorovna
Zarmed universiteti dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy tafakkuri va publitsistik merosi zamonaviy media savodxonlik konsepsiyasi bilan uyg‘un holda tahlil qilinadi.*

Shuningdek, Behbudiy merosining yoshlar tafakkuri, millat ravnaqi va axborot madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, media savodxonlik, jadidchilik, matbuot, axborot madaniyati, yoshlar tafakkuri, millat ravnaqi, tanqidiy fikrlash.*

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida ma’naviy uyg‘onish davri boshlandi. Ushbu jarayon millatni jaholatdan xalos etish, yosh avlodni ilm va tafakkurga chorlash, milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan edi. Shu davrning eng yirik ziyolilaridan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy – nafaqat jadidchilik harakatining yetakchisi, balki o‘zbek publitsistik tafakkurining asoschisi hamdir.

Behbudiy o‘z maqolalari, dramalari va matbuot faoliyati orqali xalq ongini o‘zgartirishni, yoshlarni yangicha fikrlashga o‘rgatishni maqsad qilgan. U nazarida axborot – ma’naviy qudrat, matbuot – xalqni uyg‘otuvchi kuch, ta’lim esa millatning najot yo‘li edi.

Bugungi kunda esa “media savodxonlik” atamasi ana shu g‘oyaning zamonaviy shaklidir. Media savodxonlik – bu insonning axborotni tanqidiy o‘qish, baholash va to‘g‘ri foydalanish qobiliyatidir. Behbudiy bu tushunchani asr boshidayoq o‘z amaliy faoliyatida amalga oshirgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) Turkiston jadidchilik harakatining eng faol namoyandalaridan biri sifatida tarixda muhim iz qoldirgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston o‘lkasida xalqning savodsizligi, diniy tazyiq, iqtisodiy qaramlik va siyosiy izolyatsiya kuchli edi.

Behbudiy ana shunday sharoitda xalqni “ma’rifat orqali ozodlikka” chaqirdi. U “Samarqand” gazetasi (1912) va “Oyna” jurnali (1913-1915)ni tashkil etib, o‘z davrida Turkiston uchun birinchi axborot maydoni yaratdi.

“Oyna” sahifalarida u siyosiy voqealarni tahlil qilar, ta’lim, ayollar erkinligi, iqtisod, siyosiy ong, diniy islohotlar haqida yozar edi. Bu nashr Turkiston xalqi uchun birinchi marta ochiq fikrlar almashinuvi, jamoatchilik fikrini shakllantirish maktabiga aylandi.

Behbudiyning yozuvlarida “axborot” so‘zi ko‘proq “xabar”, “ma’lumot”, “ilmiy yangilik” kabi atamalar bilan ifodalangan. U axborotni insonni “nurafshon qiluvchi qudrat” deb bilgan. Uning “Oyna” jurnalida e’lon qilingan g‘oyasi: “Har bir millatning taraqqiyoti, har bir xalqning inqirozdan chiqmog‘i – xabardorlikka bog‘liqdir.” Bu fikr hozirgi media savodxonlikning asosi bo‘lgan “axborotni to‘g‘ri qabul qilish” tamoyiliga juda yaqin. Behbudiy uchun har qanday bilim yoki matbuot materiali xalqni ma’rifatga yo‘naltirsa, u ijobiy; aks holda, jaholatni chuqurlashtiruvchi vositadir.

Behbudiy fikricha, millatning kelajagi yoshlarning tafakkuriga bog‘liq. U ko‘p bora yoshlarni “taqlid emas, tafakkur”ga undagan.

“Yoshlarimiz o‘z boshlarini o‘zlari fikr ila boshqarsinlar, ko‘r-ko‘rona ergashishdan voz kechsinlar.” (“Oyna”, 1914-yil, 8-son)

Bu g‘oya – bugungi media savodxonlikning tanqidiy fikrlash tamoyili bilan uyg‘un. Media savodli inson o‘qigan, eshitgan, ko‘rgan har bir axborotni mustaqil tahlil qiladi, manbasini tekshiradi, kontekstni tushunadi.

Behbudiy millat taraqqiyotini to‘rtta asosiy omil bilan bog‘laydi: ta’lim, matbuot, tanqidiy tafakkur, axloqiy poklik. Bu omillar ichida axborot erkinligi alohida o‘rin tutadi. Behbudiy “matbuot ozod bo‘lmasa, xalq ozod bo‘lmaydi” degan fikrni ilgari surgan. Unga ko‘ra, matbuotning vazifasi xalqni hukumatdan emas, jaholatdan ozod qilishdir.

Bugungi kunda UNESCO, YUNISEF, Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar “Media and Information Literacy (MIL)” konsepsiyasini ilgari surmoqda. Behbudiy bundan 100 yil avval aynan shu tamoyillarni targ‘ib etgan. Uning qarashlari quyidagicha uyg‘unlikda ko‘rinadi:

- “Matbuot – xalq ko‘zi, xalq qulog‘i” – Media – axborot oqimining tahliliy manbai;
- “Har yozilgan so‘zni aql tarozusida o‘lchang” – Axborotni tanqidiy o‘qish va baholash;
- “Jaholat axborotsizlikdan boshlanadi” – Dezinformatsiyaga qarshi immunitet;
- “Ilm va ma’rifat xalqni ozod etadi” – Media ta’lim orqali ma’naviy erkinlik.

Bugungi yoshlar axborotni asosan ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va raqamli media orqali qabul qiladilar. Behbudiy ta’kidlagan “fikr bilan o‘qish”, “xabarni aql bilan o‘lchash” tamoyillari hozirgi yoshlar media madaniyatini mustahkamlash uchun asos bo‘la oladi.

Umuman olganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati o‘z davrida millatni uyg‘otgan, xalq tafakkuriga oydinlik olib kirgan tarixiy harakatning markazida turdi. Uning “axborot”, “matbuot”, “ma’rifat” haqidagi qarashlari bugungi media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyati nazariyalariga uyg‘un tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
2. “Oyna” jurnali, 1913–1915-yillar sonlari.
3. Rajabov B. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik matbuoti. – Toshkent, 2018.
4. Mamatqulova S. O‘zbek publitsistikasi taraqqiyotida jadidlar roli. – Samarqand, 2021.
5. Saidov A. Axborot madaniyati va media savodxonlik. – Toshkent, 2021.
6. UNESCO. Global Media and Information Literacy Framework. – Paris, 2022.
7. Jalolov B. Jadidlar tafakkurida yoshlar masalasi. – Toshkent, 2020.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TARIX FANIGA OID G‘OYALARI: JADIDCHILIK DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA TANQIDIY PRAGMATIZM KONSEPSTIYASI

Mamatov Bektosh Tolibjon o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedogogika instituti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadid tarixiy tafakkuriga oid konsepsiyalarini tahlil etadi. Behbudiy tarixni xronikadan tashqari, milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi pragmatik fan sifatida ilgari surgani, darsliklar va dramaturgiya orqali maorifni modernizatsiya qilishdagi rolini ko‘rsatadi. Tadqiqotda uning tarixiy metodologiyasi – manbalarni tanqidiy-qiyosiy usulda tekshirish, ijtimoiy-iqtisodiy va mintaqaviy kontekstni hisobga olish hamda tarixiy ibratni tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llash – ilmiy asosda yoritiladi. Maqola jadid tarix maktabining zamonaviy tarixshunoslik va milliy ma’rifat uchun ahamiyatini baholaydi hamda keyingi tadqiqotlar uchun istiqbollar belgilaydi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy; jadidchilik; tarixiy tafakkur; maorif islohotlari; tanqidiy metod; «Padarkush».*

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda ma’naviy uyg‘onish va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida kurashgan yetuk namoyandalardan biri bo‘lib, uning faoliyati nafaqat maorifparvarlik, balki milliy historiografiyaning shakllanishiga ham tamal toshini qo‘ydi. Behbudiyning ta’kidlashicha, Vatan va xalq istiqloli uchun jonini fido qilgan Ibrat domla singari ma’rifat fidoyilarining o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatni yuksaltirish va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.[1] Behbudiyning o‘zi ham Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin kabi o‘nlab ma’rifat fidoyilari qatorida tilga olinishi, uning bu sohadagi yetakchi o‘rnidan dalolat beradi.[1]

Jadidchilik harakati Turkistondagi mavjud ma’rifiy va ijtimoiy inqirozga javoban yuzaga keldi. O‘sha davrda mavjud bo‘lgan an’anaviy tarixiy asarlar ko‘pincha sulolaviy xronikalar yoki diniy-axloqiy yondashuvlar bilan cheklanib, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish, fan va texnologiya sohasidagi qoloqlikning tub sabablarini tushuntirish uchun yaroqsiz edi. Behbudiy bu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ulkan pedagogik va publitsistik faoliyat olib bordi. Undan 200 dan ziyod ilmiy-publitsistik maqolalar, 6 ta darslik, "Sayohat xotiralari" kitobi va "Padarkush" nomli pyesa meros bo‘lib qoldi.[2] Bu darsliklar va maqolalar eski maorif tizimini yangi, zamonaviy bilimlar bilan almashtirishga qaratilgan ulkan harakatning bevosita natijasi bo‘lib, tarix fani ushbu umumiy islohotning ajralmas qismi sifatida maydonga chiqdi. Behbudiyning falsafiy asosini milliy taraqqiyotga erishish zaruriyati tashkil etadi. Uning bashorati shundaki, insoniyat va xalq faqat dunyoga taraqqiy qilgan xalq singari, faqatgina *ilm* (bilim, fan) vositasi bilangina *kamolot* (yetuklik, rivojlanish) ga erishishi mumkin.[2] Ushbu asosiy tamoyil Behbudiyning tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan yondashuvini tubdan o‘zgartirdi. Agar taraqqiyot ilmga bog‘liq bo‘lsa, tarix fanini o‘rganish bevosita shu *kamolot*ga xizmat qilishi shart edi.

An’anaviy tarixshunoslikning asosiy funksiyasi asosan hikoya qilish va xronologik qayd etishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, Behbudiy tarix fanidan *tahlil qilish*ni, ya’ni o‘tmishdagi xatoliklarni aniqlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sabab va oqibatlarini tushunishni talab qildi. Uning tarixiy haqiqatni o‘rganishdan ko‘zlagan maqsadi shunchaki o‘tmishni yodga olish emas, balki millatni ozodlikka, mustaqillikka va zamonaviy global hamjamiyatda munosib o‘rin egallashga tayyorlash edi. Shunday qilib, Behbudiy tarixni nafaqat akademik intizom, balki milliy-siyosiy va ijtimoiy harakatga keltiruvchi, pragmatik ahamiyatga ega vosita

sifatida ko‘rgan. Behbudiyning historiografik qarashlarida tarix ilmi millatning o‘zini anglashini kuchaytirishga va *ma’naviyatini* yuksaltirishga xizmat qilishi lozim edi.[1] Uning uchun tarixiy o‘rganish "Biz kim edik?", "Nima uchun hozirgi qoloqlik holatiga keldik?" va "Qanday qilib taraqqiy etishimiz mumkin?" degan savollarga javob berishni talab qiladi. Bu yondashuv an’anaviy islomiy va mahalliy tarixchilikda ustunlik qilgan, ko‘proq ruhiy yoki ilohiy iroda bilan izohlangan hodisalardan farqli o‘laroq, sabab va oqibatni ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va, ayniqsa, maorif omillari bilan izohlashga intildi.

Bu o‘zgarish, tarixiy tafakkurda o‘ziga xos moddiy asoslarga yaqinlashishni anglatadi. An’anaviy Tawarikh kitoblari asosan qudratli shaxslar yoki sulolalar tarixini yoritgan bo‘lsa, Behbudiyning talabiga ko‘ra, tarix xalqning va ommaning ijtimoiy taraqqiyoti, madaniy va iqtisodiy rivojlanish bosqichlari tarixiga aylanishi zarur edi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyo tarixshunosligida ilk bor ijtimoiy-siyosiy tarixga, ayniqsa maorif tarixining ustuvorligiga yo‘naltirilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning 6 ta darslik yaratganligi [2], uning tarixni yangi ta’lim tizimiga kiritishdagi sa’y-harakatlarining institutsional jihatini ko‘rsatadi. Bu darsliklar eski maktablarning diniy-dogmatik ta’limotidan tubdan farq qilgan va G‘arbiy Yevropa uslubiga asoslangan. Jadid maktablarining uslubiga ko‘ra, tarix va geografiya (makoniy kontekst) doimo birga o‘qitilgan. Behbudiyning o‘zi yozgan "Sayohat xotiralari" ham geografik joylarning madaniy tarixi va ijtimoiy ahvoliga katta e’tibor qaratgan. Tarixiy voqelikni geografik sharoitlar bilan bog‘lash metodologiyasi o‘quvchilarda voqealarni kengroq kontekstda tushunish imkoniyatini bergan. Pedagogik ustuvorlik Behbudiyning vasiyatnomasida ham yaqqol namoyon bo‘lgan: u “Ey Turkiston maorifi ishlarida bo‘lg‘on o‘rtog‘ va o‘g‘lonlarim! Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo‘lida ishlay turg‘on muallimlarning boshini silangizlar!” deya murojaat qilgan.[2] Bu vasiyat, tarix fanini o‘qitish sifati va uning milliy qadriyatlar ruhida yetkazilishi bevosita yangi avlod o‘qituvchilariga bog‘liq ekanligini anglatadi. Tarixiy bilim millat g‘oyasini targ‘ib qilishda eng muhim vosita bo‘lgan. Behbudiyning historiografik qarashlari uning davridagi an’anaviy yondashuvdan sezilarli darajada farq qilgan. Uning g‘oyalarining inqilobiy tabiati aynan quyidagi jadvalda ko‘rsatilganidek, tarix fanining maqsadini *kamolot*ga xizmat qilishga o‘tkazganligi bilan belgilanadi.[2]

Jadidlar faoliyati nafaqat ta’lim islohotlarida, balki estetik va ilmiy tanqid sohalarida ham o‘z aksini topgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Behbudiyning zamondoshlari (masalan, Fitrat, V. Mahmud) badiiy asarlarni tahlil qilishda ham shunchaki madaniy hodisa sifatida emas, balki *falsafiy dunyoqarash* va *badiiy mantiq* sintezi asosida ilmiy-nazariy yondashuvni talab qilganlar.[3]

Bu estetik tanqiddagi o‘zgarish historiografik tanqidga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Behbudiyning historiografiyasi aynan shunday tanqidiy metodni tarixiy manbalarga tatbiq etishni talab qildi. Agar adabiyotshunoslikda 1920-yillarda ilmiy-nazariy tahlilga o‘tish kuzatilgan bo‘lsa [3], Behbudiyning g‘oyalari bir necha yil avvalroq tarixiy rivoyatlarning haqiqiyligini tekshirish, ularni qiyosiy metod orqali zamonaviy manbalar bilan solishtirish, har qanday afsonaviy yoki subyektiv ma’lumotni rad etishni targ‘ib qilgan. Behbudiy tarixchining oldiga faktlarni

shunchaki jamlash emas, balki ularga *mantiqiy* va *falsafiy* baho berish vazifasini qo‘ygan.

Behbudiyning tarixiy g‘oyalarida milliy qahramonlik tushunchasi tubdan o‘zgargan. An’anaviy tarixda ehtiromga sazovor shaxslar ko‘pincha harbiy sarkardalar, siyosiy hukmdorlar yoki yirik diniy ulamolar bo‘lgan. Behbudiy taqdim etgan tarixiy qarashda esa markaziy o‘rinni *ma’rifat fidoyilari* egallagan. Behbudiyning o‘zi ham Ibrat domla, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy kabi ma’rifat fidoyilarining ibratli hayoti yoshlarni tarbiyalashda beqiyos kuch bag‘ishlaydigan manba ekanligini ta’kidlagan. U o‘zi ham Samarqandning yetuk ma’rifatparvarlari: Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy qatorida tilga olinadi.[1] Eng muhimi, Behbudiy vasiyatnomasi orqali maorif yo‘lida ishlayotgan *muallimlarni* boshini silashni talab qilgan.[2] Demak, tarix fanining asosiy vazifasi bu intellektual va ma’rifiy qahramonlarni ulug‘lash, ularning taraqqiyot yo‘lidagi xizmatini targ‘ib qilish bo‘lgan. Bu o‘zgarish mustamlakachilik sharoitida milliy uyg‘onishning asosiy g‘oyasi–intellektual o‘zlikni anglashni shakllantirishga qaratilgan edi. Behbudiy uchun tarixni o‘rganish shunchaki akademik qiziqish emas, balki ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish vositasi bo‘lgan. Uning 200 dan ortiq ilmiy-publitsistik maqolalari [2] tarixiy voqealarni zamonaviy muammolar (maorif, iqtisodiyot, mustaqillik) nuqtai nazaridan talqin qilish uchun asosiy maydon vazifasini o‘tagan. U tarixni ma’lumotlar bazasi deb emas, balki millatni ogohlikka, ijtimoiy mas’uliyatga va global raqobatga tayyorlovchi, shaxslarning xulq-atvoriga bevosita ta’sir etuvchi asosiy vosita deb bilgan. U o‘tmishdagi xatolar va ularning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish orqali, xalqni kelajak uchun to‘g‘ri xulosalar chiqarishga chaqirgan. Bu yondashuv o‘sha davrda Turkiston jamiyatining chuqur uyqusidan uyg‘onishi va o‘z taqdiriga nisbatan faol pozitsiyani egallashi uchun zarur bo‘lgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy merosining eng muhim qismi hisoblangan "Padarkush" (Ota qotili) pyesasi [2], nafaqat badiiy asar, balki Behbudiyning tarixiy fojialar haqidagi konsepsiyasining eng yorqin ifodasidir. Dramadagi ota (milliy boylik, meros, o‘tmish) ni ilmsizlik va jaholat tufayli o‘ldirish–bu Markaziy Osiyo jamiyatining o‘z tarixi, madaniy merosi va taraqqiyot imkoniyatlariga nisbatan qilgan xatosining ramziy allegoriyasidir. Behbudiy bu teatr asari orqali og‘ir, akademik tilda yetkazilishi qiyin bo‘lgan tarixiy xulosani (ya’ni, ilmsizlikning millat uchun halokatli ekanligi) xalqning eng quyi qatlamigacha, ta’sirchan va his-hayajonli tarzda yetkazishga muvaffaq bo‘ldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, Behbudiyning historiografiyasi nafaqat ziyolilar qatlami, balki butun xalqni o‘z ichiga olishi kerak bo‘lgan, uni ijtimoiy harakatga keltiruvchi qurol sifatida ko‘rilgan. Shuning uchun "Padarkush" Behbudiyning pragmatik historiografiyasining amaliy namunasi bo‘lib, tarixni shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorga bevosita ta’sir etuvchi kuch sifatida ko‘rsatgan.

Jadid estetik tafakkuri ham badiiy asarlarni tahlil qilishda "hayotiy va badiiy mantiq sintezi asosida" kuzatishni talab qilgan.[3] Behbudiyning tarixiy voqelikka oid qarashlari ham xuddi shunday realizmga asoslangan. U tarixni o‘rganishda har qanday fantastik rivoyatlar, subyektiv afsonalar va mavhum tushunchalarni rad etadi. Uning tarixi aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, xalqning turmush tarziga, madaniy

saviyasiga va ilmiy taraqqiyotiga asoslanishi lozim edi. Tarixiy tafakkurda mantiqning ustuvorligi ilm (fan) vositasida kamolotga erishish talabi bilan bevosita bog‘liq.[2] Mantiqiy jihatdan, qoloqlikni diniy taqdir bilan emas, balki yomon boshqaruv, maorifning yo‘qligi va adolatsizlik bilan izohlashga o‘tish, Turkiston tarixshunosligida tub metodologik o‘zgarishni tashkil etadi. Bu yangi tarixiy maktabni yaratish yo‘lidagi muhim qadam edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchiligida nafaqat ta’lim islohotchisi, balki tarix faniga tanqidiy-pragmatik yondashuvni olib kirgan milliy historiografiyaning asoschilaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Uning tarixiy g‘oyalarini uchta asosiy ustunda jamlash mumkin:

1. **Pragmatizm (maqsad):** Tarixni shunchaki o‘tmishni hikoya qilishdan iborat bo‘lgan maqsadsiz mashg‘ulotdan, milliy *kamolot*ga erishishning faol va ta’sirchan vositasiga aylantirish.[2]

2. **Metodologik tanqid (usul):** An’anaviy hikoyachilikni rad etish, uni ilmiy, qiyosiy, falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil bilan almashtirish.[3]

3. **Pedagogik prioritet (institutsionalizatsiya):** Tarixiy ongni shakllantirishda muallimlar rolini mutlaqo ustuvor qo‘yish, chunki maorif yo‘lidagi fidoyilar (muallimlar) o‘tmish saboqlarini yangi avlodga singdiruvchi asosiy kuchdir.

Xulosa o‘rnida, Sovet davrida jadidlarning, shu jumladan Behbudiyning g‘oyalari "millatchilik" sifatida qoralanganligi sababli, ularning historiografik prinsiplari uzoq vaqt e’tibordan chetda qoldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Behbudiy merosiga munosib e’tibor berildi. Prezident ***Sh. M. Mirziyoyev*** o‘z ma’ruzalarida Behbudiy singari ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi *ma’naviyatni yuksaltirish* va barkamol avlodni tarbiyalashda beqiyos kuch bag‘ishlaydigan muhim manba ekanligini ta’kidlagan.[1] Bu rasmiy e’tirof Behbudiyning milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan historiografik prinsiplari bugungi kundagi rasmiy ta’lim va tarixshunoslikning tamal toshi ekanligini anglatadi. Behbudiyning tarixni fan va milliy g‘urur orqali taraqqiyotga erishish vositasi sifatida ko‘rish g‘oyalari zamonaviy O‘zbekiston tarixi ta’limining asosiy o‘zagi sifatida tan olingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat Turkiston jadidchiligining yirik arbobi, balki Turkistonning milliy-pragmatik historiografiyasining asoschisi sifatida e’tirof etilishi shart. Uning tarix fanini o‘rganish bo‘yicha g‘oyalari ma’rifiy idealizmdan real ijtimoiy o‘zgarishlarga xizmat qilishga qaratilgan amaliy falsafa asosida qurilgan. Keyingi tadqiqotlar uchun Behbudiyning 6 ta darsligi va 200 dan ortiq ilmiy-publitsistik maqolalarining tarixiy materiallarga oid qismlarini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning tarixiy konsepsiyasining har bir jihatini chuqurroq ochib berish maqsadida, geografik, iqtisodiy va madaniy tarixni qamrab olgan qismlarni batafsil o‘rganish, uning metodologik yangiliklarini to‘liq baholash imkonini beradi.[2] Behbudiyning historiografik merosini chuqur tahlil qilish bugungi kunda ham milliy-ma’naviy merosni mustahkamlashga beqiyos hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Mahmudxo‘ja Behbudiy” - N. Karimov. Toshkent 2) Mahmudxo‘ja Behbudiy tanlangan asarlar 2-jild

2. X.S.Ashurova. Jadidchilik g‘oyalarining vujudga kelish tarixiga oid falsafiy qarashlar. SamDU. Ilmiy axborotnoma. 2020. № 6.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. “Oyina”. 1914. 41-son.

4. R.Shamsutdinov. Jadidchilik: Haqiqat va uydirma. Muloqot. 1991. № 11.

5. https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/30/105898f2-8d38-49bb-ba1e-175f48d81051_rrY3MO7.pdf

6. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zidan keyingi avlodga nima vasiyat qilgan ..., https://www.samdu.uz/uz/news/21425.

MILLAT TILI JONKUYARI

Yunusova Baxora Axtamovjonovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadid namoyandalaridan Abdurauf Fitratning til va til bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha yozgan maqolalari, ilmiy tadqiqotlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *sarf, ilmiy istiloh, til siyosati, milliy ong, adabiy til, milliylashtirish.*

XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ma’naviy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati o‘zbek milliy uyg‘onishining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Jadid ziyolilari xalqni jaholatdan chiqarish, ma’rifat va ilm orqali yuksaltirishni maqsad qilganlar. Ular uchun bu yo‘ldagi eng kuchli qurol — til edi. Jadidchilikning yetuk namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat tilni milliy o‘zlik, ma’naviy uyg‘onish va madaniy taraqqiyotning markaziy omili sifatida talqin qilgan. Uning tilga oid qarashlari bugungi zamonaviy o‘zbek tilshunosligi va til siyosati rivojida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Fitrat o‘z davridagi asosiy diqqat-e’tiborda bo‘lgan barcha lisoniy muammolarning muhokamalarida o‘zining aniq, ilmiy asosli va ochiq fikr-mulohazalari bilan ishtirok etgan, zamonning kun tartibida chirsillab turgan til va til bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha zalvorli fikrlarini bayon etgan, ko‘plab maqola va risolalarini e’lon qilgan. Fitrat u yoki bu munozarachi bilan til borasida bahsga kirishar ekan, til ilmining zukko bilimdoni sifatida inkor etib bo‘lmaydigan xolis ilmiy dalillar bilan o‘z fikrlarini asoslaydi. O‘z davridagi aksar ziyolilar tomonidan turli shakllarda bayon qilingan “tilimizni arab-fors unsurlaridan tozalashning imkonsizligi” borasidagi juda keskin da’volarning zamini bo‘sh ekanligini ko‘rsatib beradi [1]. Masalan, Fitrat 1919-yildagi “Tilimiz” nomli maqolasida e’tirozchilarning “turkcha arab, fors tillarindan qutulolmas, chunki, tilimizda ko‘p narsaning oti yo‘qdir” qabilidagi iddaolariga shunday javob qiladi: “Javobimiz: bu so‘zdan tilagingiz nimadir? Shul choqda tilingizdagi arab, fors so‘zlarining turkchasi topilmaydur demoqchi bo‘lsangiz, so‘zingiz yanglishdir. Turkchani bilmas ekansiz. O‘rganing. Hozirgi so‘zlarimizdagi arabcha, forschalardan bir nechasi uchun turkcha

topilmaydir, desangiz to‘g‘ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Unlarni olurmiz, lekin o‘zimizniki qilurmiz. Turkchalashtirurmiz. Qoidaning turkchasi yo‘qdur. Sarfningda turkchasini topolmadik. Ikkisin dahi olurmiz. Lekin, siz kabi qavoidi sarfiya demasdan, sarf qoidalari dermiz. Chunki ilmiy istilohlarning turkchasi yo‘qdir. Kim dedi buni? Shamsning turkchasi quyoshdir. Kavokibning turkchasi yulduzlardir. Manorning turkchasi olov, o‘tdir. Sahobi munavvar – yorug‘ bulut, handasa – o‘lchov xat chiziq, zoviya – burchak, puchmoqdir. Kavokibi sobita – turg‘uchi yulduzdir. Kavokibi zu zanb – quyruqli yulduzdir” [2].

Fitratning “Tilimiz” maqolasidagi fikrlarini noto‘g‘ri talqin qila boshlagan ayrim “tilshunos”larga xuddi shunday sarlavhali boshqa maqola bilan javob berib, fikrlarini isbotlagan. Uning ushbu mulohazalaridagi o‘kinchni ilg‘amaslik mumkin emas: “Men turk ulusig‘a o‘z boshli (mustaqil) bir til va shu tilda yozilgan “ilm” istayman. Turkchaning boylig‘i, kengligi va to‘lg‘unlig‘ini bilganim uchun bu ishni qulay deb ishonaman. Tilimizning o‘z boyligi (mustaqil) bo‘lib turushi uchun gaplarga va yozuvlarimiz aro kirib qolg‘an yot so‘zlarning o‘zbekchalarini ilkimizdan kelgancha oxtarib topib ishlay(l)ik. Tilimizdag‘i yozilg‘an “bilim”ni ko‘rmak uchun “ilmiy istilohlar” dedigimiz “bilim so‘zlari”ning ham ilkimizdan kelgancha turkchalarini topib olmoq yo‘linda tirishmakni har bir turk yozuvchisi uchun “vojib” deb bilaman. Turkchasi topilmagan so‘zlar va istilohlar bor esa, ularni chiqarib tashlab, o‘runlarini bo‘sh qo‘yayliq demayman. Turkchasi topilmag‘an so‘zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchaning buyrug‘i ostinda kirib qolsun; boshqacha turli aytkanda, Fransa (Fransiya)da yashag‘an bir turk kabi bo‘lundig‘i turkchaning qonunlarig‘a bo‘yunsunib yashasun; turkchada turg‘an bir fransuzdek “kapitulatsion” asrori ostida turmasun” [3].

Tilshunos olimning bu va boshqa tilga oid maqola hamda tadqiqotlarini tahlil qilar ekanmiz, uning jonkuyar tilshunos sifatida ona tilimizning sofligi va rivoji uchun qayg‘urganligiga, o‘zbek tilining mustaqilligini, boyligini va o‘zligiga sodiq holda rivojlantirilishini targ‘ib qiluvchi, til siyosati va milliy ong haqidagi muhim fikrlarga chinakkam ilmiy mantiq va teran mushohada bilan yondashganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Fitrat nazarida til faqat aloqa vositasi emas, balki milliy o‘zlikni saqlab qolishning ma’naviy tayanchidir. Shu sababli u o‘zbek xalqining o‘z ona tilida so‘zlash, o‘qish va yozish huquqini himoya qilgan. Fitratning bu qarashi jadidchilik harakatining “Til, fikr va ishda birlik” shiori bilan uyg‘unlashadi. Fitrat eski o‘zbek adabiy tilining murakkabligi, ortiqcha arabcha va forscha unsurlarga to‘la bo‘lganini tanqid qiladi. U soddaligi, tabiiyligi va xalqona ifoda vositalarini adabiy tilda qo‘llash tarafdori bo‘lgan. Uning fikricha: “Deylarkim: turkchadan adabiy so zlarni chiqarmasg‘a teyish. Buni biz ham qabul qilamiz. Adabiy so‘zlarni turkchadan chiqaringiz demaymiz. Bizning tilagimiz adabiy so‘zlarni emas, arabiy so‘zlarni chiqarmoqdir. Onglashiladirkim, bizga qarshu turg‘an og‘alar arabiy bilan adabiyni ayirmasdan gapuralar. Bularning aytkanicha, turkchamizda kirib qolg‘an yot so‘zlar adabiy, ularni chiqarsoq tilimiz adabiylikdan chiqar. Mana shu so‘zlar o‘zimizni sevmaslik emasmi? O‘zimizg‘a xo‘r boqmoq emasmi? O‘zimizg‘a ishonmasliq emasmi?” [3]. Tilshunosning fikricha arabcha so ‘zlar adabiy tilning asosi emas.

Xalqning o‘z tili – o‘zbekcha so‘zlar adabiylik manbayi deb, ishonadi. Muallif arabcha so‘zlarni chiqarish tarafdori, lekin tilning ifoda go‘zalligiga xizmat qiladigan so‘zlarni saqlash kerak, deb biladi. Bu fikr orqali tilshunos jadidchilik harakatining asosiy g‘oyasini – tilni milliylashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish va begona unsurlardan tozalash zaruratini ifodalaydi. Muallifning bu chaqirig‘i bugun ham dolzarb: milliy tilni asrash — millatning ruhini saqlash demakdir.

Abdurauf Fitratning tilga doir qarashlari o‘zbek milliy uyg‘onish davri tafakkurining yuksak bosqichini ifodalaydi. Bu fikr asosida u adabiy tilni xalqning tirik nutqiga yaqinlashtirish, xalqning fikrini bevosita aks ettira oladigan ifoda vositalarini yaratish zarurligini ilgari surgan. Fitrat o‘z davrining eng ilg‘or tilshunos olimlaridan biri sifatida o‘zbek tilining mustaqilligi va tabiiy rivojini eng muhim masala, deb bildi. Fitrat nafaqat adib va ma’rifatchi, balki ilmiy asosda til siyosatini belgilagan, tilshunoslikning nazariy poydevorini mustahkamlovchi olim sifatida ham o‘zbek til taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallaydi. Uning ilmiy merosi bugun ham ona tilimizni asrash va rivojlantirish yo‘lida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Fitrat – fidoyi tilshunos. “Jadid” gazetasi, 2024-yil, 24-may, № 22-son.
2. Fitrat A. Tilimiz. “Ishtirokiyun” gazetasi, 1919-yil, 12-iyun, № 32-son.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2009. 129-bet.

BEHBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASIDA MA’RIFAT TALQINI

Shamsiddinova Hosila Asror qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Bugungi kunda buyuk ajdodlarimiz, ularning milliy mafkuramiz rivoji uchun qilgan ishlari va ular yaratgan nodir asarlarni o‘rganish va avlodlarga yetkazish maqsadida qator ishlar olib borilmoqda. Jadidchilik harakati namoyondalaridan biri Behbudiy o‘z davrida yaratgan asarlari va ulardagi mavzular bugungi kun uchun ham dolzarb. Ushbu maqolada shu bilan bog‘liq ma’lumotlar hamda uning ma’rifatga yo‘g‘rilgan asarlari haqidagi fikrlar keltirib o‘tiladi. Ushbu maqolada Behbudiyning “Padarkush“ asarining g‘oyaviy, badiiy xususiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar. *Ma’rifat, Behbudiy, jadidchilik, taraqqiyot, milliy o‘zlik, drama.*

KIRISH: Har bir davr o‘z buyuk siymolarini yaratadi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridan Turkiston zaminida jaholat qorong‘uliklarini yorib o‘tgan nur sochuvchi, ma’rifat va uyg‘onish davri siymolar paydo bo‘la boshladi. Asrlar davomida mustamlakachilik zulmida qoloqlikdan chiqa olmay, o‘zlikni anglash, jaholatdan xalos bo‘lish kabi tushunchalar va harakatlar bilan tarix sahnasiga chiqqan jadidlar bo‘ldi. Ana shunday buyuk jadidlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U “Ilm najot, jaholat- halokat” shior bilan butun umrini xalqini ma’rifat nuri bilan yoritishga bag‘ishladi. Behbudiy xalqni ozodlikka emas, aql va ma’rifat ozodligiga chorlagan,

zero hali o‘zligini anglamagan xalqni mustaqillik uchun chorlash mag‘lubiyatli bo‘lishi tayin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilda tavallud topgan dastlab diniy maktablarda o‘qib, keyinchalik o‘z mustaqil izlanishlari orqali arab, fors va rus tillarini o‘rganadi. U 1990-yilda haj safariga borib, Istanbul, Qohira, Makka va Madina shaharlarida bo‘ldi. Shu safarlarida u Misrda Al-Ahzar, Turkiyadagi maktablar va Istanbuldagi bosmaxonalar bilan tanishadi.[56] Dastlabki ilm ma’rifatga bo‘lgan qarashlarini ham shu orqali shakllantirdi.

Dunyoning turli mamlakatlarini ko‘rib yangi tushunchalar, yangi g‘oyalarga ega bo‘lgan Behbudiy o‘z yurti Turkistonda ham zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish zarurligini chuqur anglaydi. Shuning uchun u shunday deydi: “Millat kelajagi ilmga tayanmasa o‘tmish zulmatida qoladi”. Bu so‘zlar uning butun ijodiy faoliyatining asosiy shiori bo‘ldi.

Behbudiy yaratgan asarlar ham xalqni ma’rifatga chorlash, ularning ong-u shuuriga ilmni singdirish va jaholatdan qochib najotga yetish uchun harakat qilishga chorlagan. Uning ma’rifatga yo‘g‘rilgan qarashlari o‘z davrida yangi, jasoratli fikrlar edi, chunki u xalqni jaholatdan qutqarish uchun zamonaviy maktablar, yangi usuldagi ta’lim tizimini targ‘ib qilishga urindi. U ayollar ta’limiga ham katta e’tibor bergan, “Qizlar ham o‘qimog‘i lozim” deb jamiyat rivojidagi asosiy vositachilarni ma’rifatdan chetda qoldirmaslikka chaqirgan. U o‘z faoliyati davomida “Taraqqiy”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazetalarda maqolalari chop etilgan. Behbudiyning “Padarkush” nomli sahna asarida ham o‘zining xalq bilan bog‘liq ozrularini yozadi. Uning “Padarkush” (“Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” deb ham yuritiladi) 1911-yilda yozilgan. Ushbu eng birinchi, eng mashhur dramalardan biri sifatida hali hanuz qadr-qimmatini yo‘qotmagan asarlar sirasiga kiradi. “Padarkush” dramasi ma’rifatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan asar bo‘lib, unda jaholatning ayanchli oqibatlari ko‘rsatiladi. Drama tuzilishi 3 parda va 4 manzaradan iborat. Ushbu dramada Boy, Toshmurod, Tangriquli, Davlat, Tangriquli kabi obrazlar orqali ilm va ma’rifatdan yiroq, boylikka va yomon illatlarga ruju qo‘ygan kimsalarning fikrlash doirasi va oxir oqibat qanday tanazzulli vaziyatlarga duchor bo‘lishlarini ko‘rsatgan. Jumladan Boy obrazi asardagi asosiy qahramonlardan biri, oddiy xalq vakili, lekin ma’rifatdan uzoq, diniy e’tiqodni to‘g‘ri tushunmaydigan, eski fikrli odam. Boyning boylik to‘plashga mukkasidan ketganini asar davomida Boy tilidan aytiladigan “Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur, hatto, musulmonlar nari tursun, o‘rus va armanlarda izzat qilur”[57] jumlalari orqali ham bilish mumkin. U farzandini to‘g‘ri yo‘lga boshlamagan, aksincha, moddiyatga berilib, ilmga befarq bo‘lgan. O‘z o‘g‘lini tarbiyalash o‘rniga uni bekorchilikka, shohona hayotga o‘rgatdi. Behbudiy bu obraz orqali shunchaki hoy-u havas uchun yig‘ilgan pul, boylik, mansab-ilmsiz va tarbiyasiz insonni halokatga olib borishini ko‘rsatib bergan.

Toshmurod (Boyning o‘g‘li) asardagi fojiaviy qahramon, yozuvchi bu qahramonni ilmsiz, beparvo, bekorchi obraz sifatida gavdalantirgan. Asarning markaziy dramatik nuqtasi ham u bilan bo‘g‘liq. Hatto u o‘z do‘stlariga otasining

[56] M.Behbudiy Tanlangan asarlar.-Toshkent: “Ma’naviyat” 2009,5-b.
[57] M.Behbudiy Tanlangan asarlar.-Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti,2009.

mulkini talon-taroj qilish uchu yo‘l ham ko ‘rsatadi. Bu obraz orqali Behbudiy ilm va tarbiya yo‘q joyda inson hayvondan ham battar holga tushishini ifodalab bergan. Dramaturg Toshmurodning jinoyati nafaqat shaxsiy jinoyat, balki butun jamiyatning ma’naviy inqirozini qattiq tanqid ostiga olib ko ‘rsatadi.

Asarda salbiy obrazlar bilan bir qatorda Domullo, Ziyoli kabi ijobiy obrazlar ham keltirilib o‘tiladi. Ziyoli obrazi asardagi umid timsoli, garchand rus tilida xat savodi chiqqan bo‘lsada, bu yerda ham ilmning ravnaq topishini xohlovchi qahramondir. Bebudiy shu obrazda o‘zining armonga aylangan orzularini, o‘zining ichki ovozini ya’ni jadidlarning qarashlarini mujassamlashtiradi. U yangi zamon kishisi, ma’rifat tarafdori. U voqealar rivojida farzand tarbiyasi uy tiklash, mol-dunyo topishdan ming chandon yaxshi ekanligini tushuntirishga urinadi. Hatto Ziyolining “Bu shaharda boylarga amri ma’ruf qilaturg‘onlar ham bor ekan. Xudoga shukur[58]” degan so‘zlari unda ham ma’rifatning ilk uchqunlari qalbida so‘nmagan insonlar borligidan mag‘rurlanish hissini uyg‘otadi. Asar so‘ng‘ida esa Toshmurodning ahvoliga achinib: “Ilm va tarbiyasiz bolaning oqibati shuldir. Agar bularni otasi o‘qutsa edi, dunyo va oxiratda ilalabad azobda va mehnatda qolmas edi, bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, arosat, farqu zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur[59]”

Domullo obrazi o‘z davrinig ko‘plab diniy ulamolarga o‘xshash obraz. U har doimgidek farzand tarbiyalash, uni ilmli qilish kerakligini Boyga tushuntira olmay halak bo‘lganlardan. Bu holatga birinchi marta emas bir necha bor duch kelgan. Boylar maktab qurmasin, kutubxona ochmasin, hech bo‘lmaganda o‘z farzandi ta’limi uchun harakat qilsin deya jon kuydirishdan tolmaydi. Ushbu obraz tilidan aytilgan “Vaholanki, o‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur”[60] tahsinga sazovor. Domullo obrazi orqali “ilm” va “din” to‘qnashuvini ham ko ‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy ushbu asar orqali “Ilm yo‘q joyda hayot yo‘q” degan g‘oyani chuqur falsaviy nuqtai nazar orqali ifodalab bergan. Ushbu asardagi voqealar rivoji buning yaqqol dalili desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U asarni oddiy, xalqona tilda, nasihatomuz ohangda emas, hayotiy misollar asosida yozgan. Har bir sahna- bu ma’rifatning qadrini anglatishga qaratilgan. Behbiy butun umri davomida xalqni mustamlaka tuzumining qoloqlashtirish siyosatidan qutqarish, ilm va ma’rifat urug‘larini yurtdoshlari qalbiga sochish, millatning har bir vakilining xat-savodli bo‘lishini xohladi, shu orzular bilan yashadi. U yaratgan ushbu drama haqida qiqacha qilib “Jaholat ustidan ma’rifatning g‘alabasini orzu qilgan bir millat fidoiysining yurak nidosi” deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Behbudiy Tanlangan asarlar.-Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti,2009.

[58] M.Behbudiy Tanlangan asarlar.-Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti,2009.

[59] M.Behbudiy Tanlangan asarlar.-Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti,2009.

[60] M.Behbudiy Tanlangan asarlar.-Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti,2009.

2. N.Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent, 2010.
3. B.Qosimov. Maslakdoshlar. - Toshkent: “Sharq”, 1994.

OILA TANAZZULI - JAMIYAT TANAZZULI (BEHBUDIY DRAMASI MISOLIDA)

Xusanov G‘olib Elmurodovich
Ijtimoiy-amaliy fanlar metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida aks ettirilgan oila tanazzuli jamiyat tanazzuli ekanligi, tarbiya va ma’naviy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi roli tahlil qilinadi. “Padarkush” dramasi misolida jaholat va tarbiyasizlik oqibatida yuzaga kelgan fojialar ochib beriladi. Asar g‘oyasining bugungi zamon kontekstida solishtirilgandagi dolzarbligi misollar bilan keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Behbudiy, “Padarkush”, oila, tarbiya, ma’naviy qadriyat, jadidchilik, jamiyat taraqqiyoti.*

Ushbu drama zamon talabi va ijtimoiy muammolarni haqiqiy tasvirlashda ma’rifatparvarlik ruhini tarannum etib, boylikka intilgan ota va jaholatga berilgan o‘g‘il fojiasi orqali o‘tmish tushunchalarini tanqid qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go‘zal, jismonan va ma’nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo‘li – barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo‘lmasligini ta’kidlashgan.[61] Kirish qismida Behbudiy va jadidchilik harakati ta’riflanib, oilaning jamiyat mustahkamligi va ma’naviy barkamollikda tutgan o‘rni haqida umumiy fikr bildiriladi. Jadid olimlari bilimi va tarbiyasiga katta ahamiyat berib, jamiyat taraqqiyotini aynan ma’rifat va ta’limga bog‘liq ekanini ta’kidlaganlar. Behbudiy ham “o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur” deya yosh avlodni ham diniy, ham dunyo bilimlariga da’vat qilgan. Shu maqsadda u teatr san’ati orqali ma’naviy tarbiya masalalarini keng yoritdi. Barchamizga ma’lumki, oilaning bust-butunligi, uning axloqiy, ma’naviy-mafkuraviy hamda jahon svilizatsiyasi bilan birgalikda takomil topib, rivojlanib borishi jamiyat rivojiga, yurt yuksalishiga xizmat qiladi. Aksincha, oilalardagi parokandalik, ilmsizlik, ilm olishga bepisand bo‘lmoq - jaholatga berilish demak. Jaholat esa jamiyat tanazzulidir[62]. O‘z davrida buni yaxshi anglagan yurtdoshimiz Behbudiy jamiyat rivoji, yurt istiqboli, xalqning ma’rifat ko‘zlarinini ochish uchun o ‘zidagi bor imkoniyatni ishga soldi: avval kutubxona tashkil etdi, kutubxona ishi yurmagach, “teyotr - ibratxonadir” degan g‘oyani ilgari surib, “Padarkush” dramasini yozdi hamda uni xalqqa taqdim etdi. Behbudiy atay ushbu

[61] Toshmuhamedova Dilorom. Oila jamiyat va davlat himoyasida. — Xalq So‘zi gazetasi, 28-sentyabr 2018-yil.

[62] Musurmonova O. Oila jamiyat tayanchi. - T. Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 43- bet.

dramani xalqqa oson va tushunarli tarzda yozib, nodon, o‘qimagan (hunarsiz, ilmsiz, hayotni uqmagan) farzand oila fojeasi ekanligini ko‘rsatib berdi. Bunday farzandlar yig‘ilib butun bir jamiyat fojeasiga aylanishi mumkiligini yozuvchi o‘z asari orqali pisanda qilib, xalqni ogoh etmoqchi. Jadid adiblari oilani jamiyat poydevori deb bilishgan. Behbudiy kabi ma’rifatparvarlar inkor etganga nisbatan yangi ta’lim usullarini ilgari surib, oilada ta’lim-tarbiyani muhim vazifa sifatida ko‘rgan. Masalan, prezidentimizning farmonlari va rasmiy hujjatlarida ham mustahkam oila – jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy unsur ekanligi qayd etilgan. Darhaqiqat, o‘zaro tushunish, qadrlash, ilm olishga intilish hamda buni qollab-quvvatlash kabi munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik sanalgan oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror rivojlanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda oiladagi ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va eng yaxshi an’analarni saqlab qolish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Behbudiy “Padarkush”ni milliy tragediya deb atab, oila tarbiyasizligining dahshatlarini sahnada namoyon etadi. Unda 50 yoshli boy – ota, uning hech bir hunarga qiziqmaydigan o‘g‘li Toshmurod, zamonaviy qarashli ustoz Domulla va rus maktabida o‘qigan Ziyoli kabi asosiy qahramonlar tasvirlanadi. Domulla va Ziyoli obrazlari orqali Behbudiy ilm va tarbiyaning zarurligini tushuntiradi. Maishatparastlikka kundan kunga berilib borayotgan o‘g‘li Toshmurod shahardagi yovuz do‘stlari tufayli otasini o‘ldirib qo‘yadi. Bu epizod oilada tarbiyasizlik va jaholat oqibatlari haqida ogohlantiradi. Masalan, sahnadagi bitta epizodda Domulla Boyning uyiga kirib, oiladagi bu ofatdan “Bu badbaxtlik va musibatga sabab – jaholat va nodonlik, bema’nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi…”[63] deb izoh beradi. Undan keyin Ziyoli yigitlarga murojaat qilib, “Agar bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas edi… bu dahshatli voqea bilimning yetishmasligi tufayli yuz berdi”, deydi. Bu so‘zlarda Behbudiy otaning yoshlarga ma’rifat berishdagi javobgarligini ochiqchasiga qayd etadi. Dramada oila boshlig‘i – Boy obrazining o‘ziga xos ramziy ma’nosi ham katta ahamiyatga ega. U uyda ilmga to‘sqinlik qiluvchi badbin shaxs sifatida tasvirlanadi. Behbudiy oila boshlig‘ining o‘limi orqali – bevosita madaniy qoloqlik tufayli Turkiston inqirozga uchrayotganini bashorat qiladi, go ‘yo. Shu tariqa Behbudiy oiladagi ma’naviy bo ‘shliqni nafaqat oilaviy, balki milliy falokat sifatida ko‘rsatadi. Behbudiyning fikricha, teatr ma’rifatga ulanib, xalqni jaholatdan chiqaradigan omilga edi.Uning dramasidagi kiechikkan oila tarbiyasi buzilib borayotgan jamiyat muammolaridan dalolat berar edi. Hozirgi kunda ham davlatimiz tomonidan oilaning mustahkam bo‘lishi, yosh avlodning ziyoli bo‘lmog‘iga doimiy urg‘u berilmoqda. Masalan, bugungi O‘zbekistonda oilani himoya qilish va ma’naviy muhitni mustahkamlash bo‘yicha keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Ota-onaning tarbiyasi va yosh avlod ma’naviyatining boy bo ‘lishi xalq taraqqiyotini belgilaydi, degan nuqtai nazar bugungi kunda ham muhimdir. Shunday qilib, Behbudiy asarlaridagi ma’rifatparvarlik ruhi, oilalarda ilmga bo‘lgan qiziqishni oshirish, milliy qadriyatlarga qaytish g‘oyalari bugun ham zamon sinovidan o‘tmoqda. Har bir oila

[63] www.namdu.uz

jamiyat rivojining poydevori o ‘laroq, ilm bilan oshno kishilarning oilasida ham iqtisodiy, ham ma’naviy to ‘kislikni o ‘z ko ‘zimiz bilan ko ‘rib guvohi bo ‘lyapmiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasi orqali oilaviy tarbiya va ma’rifatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. Xulosa qilib aytganda, “Padarkush” – bu nafaqat oilaviy, balki ma’naviy tanazzulni ko‘rsatadigan asar. Asar ilm-ma’rifatning muhimligini ta’kidlaydi, insonni tarbiyalashda ilmni eng oliy vosita sifatida ko‘rsatadi. Voqealar rivoji orqali adib o‘z dramasida jaholat, ilmiy savodsizlik va tarbiyasizlik jamiyatga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishini mohirona ochib beradi. Asar ota-onaning bolaga ta’lim berishdagi mas’uliyati, jaholat oqibatlari va oiladagi tanazzul muammolarini ko‘rsatadi. Jadidchilik g‘oyalari ichida oilani jamiyat poydevori sifatida mustahkamlash, ayol-qizlar ta’limiga alohida e’tibor berish nuqtai nazari, ayniqsa, muhimdir. O‘z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali oila mezonlarini belgilash hamda “Oila jamiyat va davlat himoyasida” konstitutsiyaviy prinsipini keng targ‘ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleks yondashish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayni damda yurtimizda oilaning mustahkamligi va oilaviy tarbiyani mustahkamlash davlat siyosatining markazida turibdi. Behbudiy singari ziyolilar yo‘liga amal qilib, ma’naviy qadriyatlarni avaylash va har bir bolaning bilimli bo‘lishiga intilish, bugungi kun talabi ekanligi tahlilda ko‘rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T. O‘qituvchi, 1994.-112 b.
2. Musurmonova O. Oila ma’naviyati milliy g‘urur. T.: O‘qituvchi, 1999.-200 bet.
3. Musurmonova O. Oila jamiyat tayanchi. - T. Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 251 bet.
4. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). Faylasuflar jamiyati, - Toshkent, 2004, 31 bet.
5. Toshmuhamedova Dilorom. Oila jamiyat va davlat himoyasida. – Xalq So‘zi gazetasi, 28-sentyabr 2018-yil.
6. www.namdu.uz ushbu saytda “Padarkush” dramasi uchun foydalanildi.

BEHBUDIY QARASHLARIDA SIYOSIY ISLOHOT VA JAMIYAT BOSHQARUVI MASALALARI

Isomiddinov Yo‘ldosh Yusubboyevich
Samarqand davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi mudiri

Annotatsiya *Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy islohotlar va jamiyat boshqaruvi haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Unda muallifning jamiyatni isloh qilish, milliy uyg‘onish g‘oyasini amalga oshirishda ta’lim, ma’rifat va ilm-fanning tutgan o‘rni ochib beriladi. Behbudiy fikricha, siyosiy mustaqillikka*

erishish va taraqqiyot sari yuksalishning asosiy yo‘li – zamonaviy bilimli, tafakkurli va vatanparvar yosh avlodni tarbiyalashdir. Maqolada Behbudiyning “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnali va “Padarkush” dramasidagi ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Shuningdek, uning davlat boshqaruvi shakllariga, konstitutsiyaviy tartib va respublika boshqaruv usuliga bo‘lgan munosabati yoritiladi. Behbudiy Yevropa mamlakatlari tajribasini o‘rganib, Turkistonda ham xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi boshqaruv tizimi, qonun ustuvorligi va ilmga asoslangan siyosiy islohotlarni joriy etish zarurligini ilgari surgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Behbudiyning siyosiy-falsafiy qarashlari bugungi demokratik islohotlar konsepsiyasi bilan uyg‘unlikda ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, siyosiy islohot, jamiyat boshqaruvi, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, davlat tuzumi, konstitutsiya, respublika, ilm va taraqqiyot, demokratiya, ma’naviy yuksalish.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori yirik mutafakkir qoldirgan ilmiy-ma’rifiy merosni chuqur o‘rganish va uning faoliyatini xalqaro ilmiy maydonga olib chiqish yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Ma’lumki, har qanday ijtimoiy-siyosiy tuzumda hurfikrlilikning imkoniyatlari va darajasi o‘sha davrning ilg‘or ziyolilari qarashlari orqali namoyon bo‘ladi. Ularning fikrlarini chuqur tahlil qilish orqali davr hukmron mafkurasi ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hayotga qay darajada ta’sir etganligini, shuningdek, jamiyat taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash imkoni kengayadi.

XX asr boshlarida Turkiston milliy ziyolilari, jumladan Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikr-mulohazalari xalqning dunyoqarashi va ma’naviy yuksalishiga xizmat qildi. Ular nazariy jihatdangina emas, balki amaliy faoliyat orqali ham millatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga hissa qo‘shdilar. Shunday ma’rifatparvar zotlardan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, u jadidchilik harakatining etakchi namoyandalaridan hisoblanadi.

Behbudiy o‘zi muharrirlik qilgan “Samarqand” gazetasida Turkiston xalqlarining siyosiy, madaniy saviyasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy maqolalar bilan faol ishtirok etdi. U har bir sonida dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarga, xususan, xalqaro munosabatlarga alohida e’tibor qaratdi. Masalan, 1913 yildagi Bolqon urushi munosabati bilan yozilgan “Bolqonmu Vulqon?”, “Adarna” va “Bolqonga bir nazar” nomli maqolalarida u voqealarga xolis, tahliliy yondashuv namoyon etdi. Behbudiyning ta’kidlashicha, urush faqat Bolqon mamlakatlarini emas, balki Germaniya, Rossiya, Angliya va Avstro-Vengriya kabi davlatlarning siyosiy manfaatlarini ham qamrab olgan. “Bolqonning istiqboli hanuz mazlumdur, oxiri

o‘ziga xos jihatlarini taqqoslaydi va xulosa sifatida Turkistonda qo‘rqinchdir”, – degan fikrini urushdan bir yil o‘tib boshlangan Birinchi jahon urushi amalda tasdiqladi.

M.Behbudiyning siyosiy qarashlarini yorqin ifoda etuvchi asarlaridan biri “Qonuni Ovro‘po” maqolasidir. Unda muallif xalq uchun tushunarli va ravon tilda Yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi tizimini tahlil qiladi. U monarxiya, parlament va respublika kabi boshqaruv turlarining ham zamonaviy qonunchilik vakillarining etishmasligidan afsuslanadi. Muallifning fikricha, xalq manfaatlarini himoya qila oladigan, qonun ustuvorligi tamoyiliga tayanadigan vakillar zarur edi.

Behbudiy ta’kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili — ta’lim va ma’rifatdir. Shu bois u xalq farzandlarini maktabga jalb etish, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini o‘rgatishni bosh vazifa sifatida belgilaydi. Uning “Samarqand” gazetasidagi “Xorijiya xabarlari” ruknida keltirilgan ma’lumotlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi: “AQShda kundalik gazetalarning soni 2472 ta, haftaliklar 16269 ta, jurnallar 276 ta. Ulardan 200 ta gazetaning har biri 10 million mushtariyga ega. Bizda esa ilm va ma’rifatga e’tibor kam[64].”

Bu satrlar muallifning keng dunyoqarashi, jahon sivilizatsiyasini yaxshi bilganligi va Vatan taqdiri uchun kuyinishini ko‘rsatadi. Behbudiy Turkistondagi ma’rifiy qoloqlikni qattiq tanqid qilib, shunday yozadi: “Etmish million Amerika xalqi 22882 gazeta va jurnal o‘qiydi, biz esa ulardan sakkiz barobar kam bo‘lsak-da, ilmda uch ming barobar orqadamiz. Biz turkistonliklar beilm va vahshiydek ko‘rilamiz[65].”

Behbudiyning maqolalaridagi xulosalarning markazida bir g‘oya turibdi - xalqni ma’rifatga, jahon taraqqiyotidan xabardor bo‘lishga, o‘z taqdirini anglashga undash. Uning fikricha, siyosiy islohotlar faqat savodli, ongli va faol fuqarolar orqali amalga oshishi mumkin.

“Oh, biz fandan keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamonaviy ila osmonlarga uchar, biz hanuz bir-birimizni tanqid va tal’in bilan vaqt o‘tkazarmiz”[66], – deb yozgan edi u.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining eng yirik ma’rifatparvar ziyolilaridan biri sifatida Turkiston jamiyatini isloh qilish va milliy uyg‘onish g‘oyasini ta’lim-tarbiya orqali amalga oshirishni bosh maqsad deb bildi. Uning fikricha, siyosiy mustaqillik va taraqqiyotga erishishning bosh omili - zamonaviy bilimli, ongli va vatanparvar avlodni tarbiyalashdir.

Behbudiy ta’lim tizimining islohoti orqali xalq ongini yuksaltirish, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish zarurligini ta’kidladi. U shunday yozadi: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘riladiki, ularning muntazam maktablari mavjud bo‘lib, bu maktablarda diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o‘qitiladi. Chunki dunyoda munosib o‘rin egallash uchun dunyoviy fan va ilm zarurdir. Zamon ilm va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur.” Bu fikrlar Behbudiyning ta’lim sohasini jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida ko‘rganini ifodalaydi.

---

[64] Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. -T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. - B. 114.
[65] Usha asar. – **B. 115.**
[66] Khalid A. **“The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia”**. — Berkeley: University of California Press, 1998.

Behbudiy “Samarqand” gazetasining bosh muharriri sifatida faoliyat yuritar ekan, o‘z maqolalarida boshqa millatlar maorifining holatini tahlil qilib, Turkiston aholisining orqada qolganini statistik dalillar bilan ko‘rsatgan. U 1913-yilda Kavkazdagi musulmon maktablarida 10 mingga yaqin bola tahsil olayotgani, 1541 ta musulmon maktabida 1625 muallim 31533 nafar shogirdga saboq berayotganini qayd etib, shunday yozadi: “Kavkazda 3 million musulmon bor. Turkistonda esa 8–9 million. Bu ikki mamlakat musulmonlarining darajalari qiyoslansa, farq ochiq ko‘rinadi”.

U shuningdek, yahudiylarning ta’lim sohasidagi faolligini misol qilib keltiradi: “1904 yil hisobicha, yahudiylarning din va tillarini o‘qituvchi o‘n mingdan ortiq maktablari mavjud bo‘lgan. Holbuki, ulardan to‘rt marotaba ko‘p bo‘lgan musulmonlarning maktablari soni 900 taga ham etmagan edi.” Bu orqali u boshqa xalqlarning ijtimoiy muvaffaqiyatlarini ilm va ta’lim bilan bog‘laydi hamda musulmonlar ulardan ibrat olishi lozimligini ta’kidlaydi.

Ma’rifat va madaniyat haqidagi qarashlari. Behbudiy o‘z faoliyatida madaniyat va ilm-fanni jamiyat rivojining asosiy bo‘g‘ini sifatida ko‘rdi. Uning 1906-yilda nashr etilgan “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” asari bunga yorqin misoldir. Asarda geografik, tarixiy va astronomik ma’lumotlar tizimli tarzda yoritilgan. Muallif insoniyat taraqqiyotini uch bosqichda - vahshoniyat, badaviylik va madaniyat davrlarida tahlil etadi. U “Vahshoniyat jamiyatida insonning harakatlari hayvondan badtar, bu hol ilm va adabsizlik darajasidir”, deya ta’kidlab, jamiyatning madaniy yuksalishida ilm, hunar va axloqning o‘rni beqiyosligini ko‘rsatadi.

Behbudiy madaniy jamiyatni “ilm, tajriba, qonun va tartib asosida faoliyat yurituvchi insonlar jamiyati” sifatida ta’riflaydi. Uningcha, bunday jamiyatda maktab, madrasa, masjid, mahkama va qonun mavjud bo‘lishi zarur.

Behbudiy Yevropa davlatlarining boshqaruv tizimlarini tahlil qilib, ularni uch turga ajratadi:

1. Idorai mustaqalla (monarxiya),

2. Idorai mashruta (parlamentli konstitutsiya),

3. Idorai jumhuriyat (respublika).

U xulosa qiladi: “Ozgina Ovro‘po xalqi butun er shariga hukmron bo‘lmoqda, chunki ularda hukumat, ilm, davlat, qonun, tenglik va mashvarat bor.” Bu fikrlar uning siyosiy tafakkurining demokratik va islohotparvar yo‘nalishda shakllanganini ko‘rsatadi.

Behbudiy ilm-fan taraqqiyotini milliy madaniyat va taraqqiyotning negizi sifatida talqin qiladi. U “Oyga etishish, xabarni daqiqalarda etkazish, paraxo‘d, temir yo‘l, telefon, teleskop, mikroskop” kabi ixtirolarni inson aqlining yutug‘i sifatida tilga olib, bu yutuqlardan ibrat olishga chaqiradi. Uningcha, Turkistonda ham zamonaviy ilm va texnik taraqqiyotni rivojlantirish zarur.

Muallif “Padarkush” dramasida xalqni ilm va hunarga chaqirib, shunday deydi: “Bu zamonda ilm va hunarsiz xalqning boyligi, eri va obro‘si qo‘ldan ketadi, dini

ham zaiflashadi. Shariatning o‘zi nafli ilmni beshikdan qabrgacha o‘qishni farz qilgan.” U shuningdek, jamiyatda “ikki xil olim zarur” — olimi diniy (axloq va e’tiqod sohasida), olimi zamoniy (ilm-fan, ishlab chiqarish va ijtimoiy taraqqiyot sohasida) bo‘lishi lozimligini uqtiradi.

Tarix va milliy ong masalasi. Behbudiy “Tarix va jug‘rofiya” maqolasida tarix fanining jamiyatdagi o‘rniga alohida urg‘u beradi: “Dunyoda roshid, komil va odil inson bo‘lish uchun tarix o‘qish kerak, chunki har bir ishning asli va nasli tarixdan bilinadi[67]”, — deydi u. Bu fikr uning tarixiy tafakkur va milliy ongni uyg‘otish borasidagi qarashlarini ifodalaydi.

Professor D.Alimova Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldir” maqolasini “o‘z zamonasining ilmiy izlanishlariga tayangan, manbalar tahliliga asoslangan tadqiqot” deb baholaydi. Shuningdek, “Mirzo Ulug‘bek” maqolasida Behbudiy allomaning astronomiya sohasidagi xizmatlarini e’tirof etadi va “Ziji Ko‘ragoniy” jadvalining ilmiy ahamiyatini yuqori baholaydi.

Jamiyat islohoti va ma’naviy yangilanish. Behbudiy xalq turmushidagi illatlarni bartaraf etish, urf-odatlarni isloh qilish masalasini ham o‘z e’tiborida tutgan. U “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” va “A’molimiz yoinki murodimiz” kabi maqolalarida isrof, jaholat va qarama-qarshiliklarni keskin tanqid qiladi. “To‘y va ma’rakaga ortiqcha sarf qilish o‘rniga bolalarni o‘qitishga, maktab va madrasalarni ta’mirlashga mablag‘ yo‘naltirish kerak”, deya u xalqni ma’rifat yo‘liga chorlaydi.

Yahudiylarning mehnatsevarligini misol qilib, “Ular ishni to‘xtatmaslik uchun o‘liklarini kechqurun ko‘madilar, biz esa haftalab ma’raka bilan vaqt o‘tkazamiz[68]”, deb yozadi. Bu orqali u xalqni mehnatsevarlik va vaqtni qadrlash madaniyatiga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ilg‘or ziyolisi sifatida Turkiston jamiyatidagi ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy muammolarni chuqur anglagan hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ilmiy-nazariy asosda yoritgan. Uning qarashlarida milliy taraqqiyotning asosi sifatida ta’lim, ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy savodxonlikni yuksaltirish g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Behbudiy merosi bugungi kunda ham ma’naviy yuksalish, milliy uyg‘onish va zamonaviy ta’lim islohotlari uchun muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.

2. Khalid A. “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia”. - Berkeley: University of California Press, 1998.

3. Alimova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik harakati, 1999.

[67] Alimova D. *Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik harakati,* 1999, B. 44–46.

[68] *Xojiev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy - milliy uyg‘onish peshvosi. - Toshkent: Akademnashr, 2017.* - **B. 14–28**

4. Xojiev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy - milliy uyg‘onish peshvosi. - Toshkent: Akademnashr, 2017.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ ГЕОГРАФИК МЕРОСИ

Аббасов Субхон Бурхонович
Самарқанд Давлат университети
Мелиев Бахтиёр Абдухомидович
Самарқанд Давлат университети
Самьяев Анвар Кадирович
Самарқанд вилоят педагогик маҳорат маркази

Аннотация: *ушбу мақолада улуғ мутафаккир олим Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг географик мероси, жумладан, унинг географик тушунчалари, географик асарлари, табиат ва жамиятда содир бўладиган воқеа ва ҳодисаларга бўлган қарашлари таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *Беҳбудий, география, Самарқанд, жўғрофия, харита, план, саёҳат.*

Буюк мутафаккир олим Маҳмудхўжа Беҳбудий (1875-1913) ва унинг илмий меросини тадқиқ этиш бугунги кунда мамлакатимизда кенг кўламда олиб борилмоқда ва бу ишга алоҳида давлат эътибори мавжуд. Шу бугунги кунгача эълон қилинган барча маълумотларда асосан Маҳмудхўжа Беҳбудий маърифатпарвар, Туркистонда жадидчилик ҳаракати йўлбошчиларидан бири, янги мактаб ғоясининг назариясини яратувчиси ҳамда унинг амалиётчиси, ўзбек драматургиясининг биринчи драматурги, театр саҳналаштирувчиси, энг биринчи ноширлардан бири, журналист, мактаблар учун дарсликлар яратувчи сифатида билишади. Лекин, у кишини география фанига ёзиб қолдирган буюк илмий мероси барчага ҳам аён бўлмаса керак. Биз ушбу мақолада Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг юқорида зикр қилинган фаолиятини такрорлаб ўтиш эмас, балки қайсидир маънода ҳаёти фаолияти давомидаги бизгача етиб келган географик мероси ҳақида тўхталиб ўтмоқчимиз. Жумладан, М.Беҳбудий томонидан яратилган «Рисолаи жўғрофия Русий» (Россия географияси, 1904), «Рисолаи жўғрофия умроний» (Аҳоли географиясига кириш, 1905), «Мунтаҳаби жўғрофияи умумий» (Қисқача умумий география, 1906) каби асарларидаги унинг географик қарашлари тўғрисида фикр юритамиз.

Маҳмудхўжа Беҳбудий 1906 йилда «Мунтаҳаби жўғрофияи умумий» асарида ўзининг географик тасаввурларини умумлаштирган ҳолда баён қилади. Унда: .... *Асри ҳозирги ташвиқоти ила истеъдоди ожизонимизга, батақдири хай, қадим фан жўғрофияга тааълуқ ушбу китобни таҳрир ва жам айлаб, «Мунтаҳаби жўрофияи умумий» ёд қилиб баъзи маҳалиға тарих, риёзий, муҳокати диний, умроний, сиёсий ва андаги кутуби диниядан баён ва иқтибос қилдук. Фан тўғрисидаги ижмол ва тафсилот туркий, арабий, форсий, рус луғатларига тасниф бўлган ўттуз қадар қадим ва жадид кутуб ва рисолаи*

жўғрофий, ҳайъатий риёзий, тарихий, табиийлардан мўътабар нусха ва ҳар гунна мазкур луғатлардаги газит-жарида, атлас, харита, курраи масан (глобус), курраи мусаттаҳа (ер шари), истатитчески мажмуалардан жамъ ва тартиб қилингандур.

Беҳбудий ушбу асарининг кириш қисмида ўша давр тарғибот – ташвиқотларини инобатга олган ҳолда камтарлик билан асарнинг ижмол (хулоса ва мухтасар) тафсилотларини туркча, арабий, форсча ва рус тилларидаги луғатлардан тўласинча фойдаланиб, газета, журнал, атлас, харита, глобус ва ер шари ҳақидаги маълумотларни ҳамда рақамли ҳисоботларидан фойдаланилганлигини қайд этади.

Унда ..... *Отияга (қуйида) –баён бўлган фан ва илм тўғрисида биз ҳануз комил эмас, навқадаммиз – дейди, яна жўғрофияи олам ва аҳволи замон бу олами рўзғорни инқилоби ва улуши асрия фунуна замонияни тараққийси ила ҳар он тағёр топадур.* Беҳбудий ўз даврининг йирик олими бўлсада, камтарлик билан, хокизорона географик олам тўғрисидаги тушунча ва унинг тамойиллари ўзгариб боришини китобхонга етказиб беради.

«Жўғрофия» деган сўзни маъноси. М.Беҳбудий «Мунтаҳаби жўғрофияи умумий» асарида «География» атамасига ҳам изоҳ бериб ўтиб, жумладан, *«Жўғрофия» деган сўзни маъноси, юнон луғати арабияча таърифи арз маъносига, яъни ер ва туфроқни баён қиладургон илмни айтадур.* Беҳбудий таърифига кўра география ер шари ва унинг тузилиши (яъни тупроғи) нимадан иборат эканлигини ўрганувчи фан дейилади. Бугунги кунда «География» сўзи (грекча «гео» -ер ва «графо» - ёзаман, тасвирлаб ёзаман) бирлик сонда ишлатилганлигидан бу сўз биргина фаннинг номини англатар экан, деб тушуниш мумкин. Ҳақиқатда эса бу сўз табиий ва ижтимоий фанларнинг маълум гуруҳини бирлаштиради. Бундан табиий фанлар Ер шари юзасидаги табиий ҳодисаларни ўрганса, ижтимоий фанлар турли мамлакатларда кишилик жамиятининг хўжалик фаолиятини хусусиятларини ўрганади.

М.Беҳбудий: *...Жўғрофия илмини неча навъ ҳолда ва баёнлари бўладур. Анга қараб ушбу илмға тейишли баён ва фанлар бир неча исм ила аталадур* – дейди. Жумладан, *Ер шакли (гавда, ҳажм)дан осмон ила Ер орасидаги хосияти ва осмондаги нимарсалар ила инобатни ва ҳаракатидан баён қиладурғон илмни «Жўғрофияи риёзий» Ерни хосияти, туфроқ паст ва баландлиги, ҳар хил гиёҳ ва конлари, тоғ, дарё, кўл, мижоз ва ҳавосидан қилатурғон илмни «Жўғрофияи табиий» аталадур. Ер юзидаги катта ҳодисалар ила уруғ, ҳукуматдорлик, хулоса ва бошқа илмни ушбу илмға баён қилиб, жўғрофия калимасини охирига қўшилишиға тааълуқ илм ва фанни оти қўшиладур* – дейди ва «Жўғрофияи тарихий», «Жўғрофияи сиёсий», «Жўғрофияи умроний» ва бошқаларни мисол келтиради.

Бугунги география ёки географик фанларни бирлик ва кўплик сонда ишлатиб, биз барчасини «География фанлари» деб атаймиз. Масалан, Ер шаридаги табиат ҳодисаларини ўрганиш қисмини «Табиий географик фанлар» тизимига киритиб, табиий география, геоморфология, иқлимшунослик, қуруқлик гидрологияси, тупроқшуносик, ўсимликлар ва ҳайвонлар географияси

(ёки биогеография) ва бошқа фанларга ажратамиз. Иқтисодий география барча тармоқлари билан биргаликда ижтимоий фанлар билан алоқаси борлиги айтиб ўтилади. Географик фанларнинг ҳар бири мустақил фан саналади. Чунки уларнинг ҳар бирининг ўзининг ўрганиш объекти мавжуддир.

Жўғрофия қачон пайдо бўлган? Маҳмудхўжа Беҳбудий ўз асарларида география фанининг пайдо бўлиши ва ривожланишига доир бир қанча маълумотларни келтириб ўтади. Жумладан, М.Беҳбудийнинг ёзишича *«Тарих ва жўғрофия китоблари ёзилибдурки, жўғрофия илми аввало маротаба Миср мамлакатига Ҳазрат Мусодан илгари фиръавнлар замонига бошланиб, Ер, туфроқ, денгизлар борасиға баёнотлар ёзилиб харита – картаға ўхшаш «планлар» ихтиро бўлинганлиги маълум бўладур. Чин мамлакатига ҳам ушбу илм сироят қилиб Ю деган подшо Хитой мамлакати хариталарини чиний косалар устига нақш қилдирибдур. Сўнгра ушбу илм юнон халқиға сифат қилиб, ала заминиға ривож топибдур*.

Беҳбудий география ва унга оид илм қачон пайдо бўлганига ишора қилиб, географияни жуда қадимий фан эканлигини, у дастлаб Мисрда фиръавнлар даврида бошланишини ва Ер шари ҳақидаги тасаввурлар картасига ўхшаш ернинг плани (чизмаси) ихтиро қилинганлигини қайд этади. Сўнгра, у Чин мамлакати (Хитой), Юнонистон, Эрон, Туркистон, Ҳиндстонда ривож топганлигини айтади.

Беҳбудий: *…… Искандари Кабир милоддан 350 сана илгари тириклик қилар эди. Ани устоди Арасту ҳоким бу очилган мактаблар тўғрисиға баённомау китоблар ёзиб, Жўғрофия илмини ривож берди. Ушбу ҳоким милоддан 384 сана илгари таваллуд бўлиб эди. Сўнгра Истрабўн (Страбон - қадимги юнон географи ва тарихчиси, 17 китобдан иборат «География» асарининг муаллифи), Батлимус (Птоломей – қадимги юнон мунажжими) деган юноний олимлар жўғрофия ва ҳайът илмлари тўғрисида яхши китоблар тасниф қилиб, бу илмларни кўп ривож берубдирлар. Осмон тўққиздур ва Ерни атрофиға айланадур, деган киши ушбулар ва низоми маҳдуд эгасидур….*- деб ёзади.

Беҳбудий Арасту, Страбон, Клавдий Птоломей каби олимлар ишларини таҳлил қилиб, уларнинг географик қарашларини ўрганиб чиқади. Жумладан, у *….. Дини ислом зоҳир бўлгандан сўнгра мусулмон уламолари (У Ўрта Осиё халқлари вакилларини назарда тутмоқда) яъни араблар Андалус, Боғдод, Шом, Миср мамлакатларига ҳар хил илмларни ниҳоят ривож ила ўқуб, ақлий илм ва фанлар тўғрисида кўп тафсилотлар қилганларидек. Ушбу жўғрофий илмини ҳам аввал маротаба юноний тилдан арабийга таржима қилиб, жўғрофия илмини тараққийсиға сарп қилибдурлар. Ўзларидан илгари уламоға номаълум турган ерларни ва мамлакатларни очиб, ўз мусулмоний жўрофияларига ёзибдурлар…* деб, Ўрта Осиёда географик билимлар ривожини таърифлайди. Ундан ташқари М.Беҳбудий ….. *«Хорун ар-Рашид замони 198 санаи ҳижрияға ва андан сўнгра мадрасаларга юноний уламолардан вақтинча мударрис тайинлаб, мусулмон уламолари юнонийча ўқуб сўнгра барча улуши ақлияи юнонияни таҳқиқға бошладилар. Ўшал замонда жўғрофияга тааълуқ «даража*

ҳисоби»га амалиёт-ўлчов қилдилар…..» деб хулоса қилади ва *жўғрофия, ҳайъат, риёзий, тиб, ҳикмат, кимё, ҳисоб, илми табоқат ул-арзи (ер қатламлари илми)* мисол келтиради. Жумладан, *у 290 тарихи ҳижриятга Абулқосим Абдуллоҳни таърифлаб «Китоб ал-масолик ва-л-жўғрофия тўғрисида»ги китоби Франса ва Гирмония тилларига таржима бўлгандур ….* деб улуғлайди.

География тарихини тадқиқ қилган Маҳмудхўжа Беҳбудий ….. *Абул Фидо VII аср ҳижрияга «Тақвим ал-булдон» ном китоби жўғрофияга тасниф қилдики, фаранг (француз) тилларига таржима бўлди. Мофеънлик мазҳабига даҳлдор фақиҳлар (фуқоролар)дан Сирожиддин Ҳифс» «Харитат ул ажойиб» китобини тўрт аср олдин тасниф қилди…* деб ёзади. *Ундан ташқари араб уламоларидан Абу Абдуллоҳ ибн Батута 25 сана (25 йил назарда тутилган) доимий саёҳат қилиб, ўз вақтидаги дунёнинг ҳаммасини кўруб, жўғрофия ва бир неча таснифлар қилганки, баъзиси фарангий тилларига таржима қилингандур. Мундан бошқа мусулмон донишманд ва уламоларидан Абдулфараж Боғдодий, Ёқут Ҳаммавий, Масъудий, Баҳром Дамашқий, Ибн Фаёз, Абу Убайд ал-Бакрий, Шариф Идрисий, Самарқандий Али Қўшчи, Улуғбек Кўрагон, Абу Али ибн Сино ва ғайриларики, тарих ва жўғрофияга таснифот қилиб эдилар…..* деб таърифлайди. Ҳамда *…., Фаранг – Оврўпа тилларига юзлар йилча илгари билинмаган ва эшитилмаган назира, мамила мусулмон уламосини китобларидан неча юзлар ила таржима ва табь бўлдики, жўғрофия илмини букунги тараққийсиға қарун валотадаги, яъни беш юз йил илгари ўтган уламойи исломияни сабаб бўлишига кимса мункир бўлолмайдур. Ўшал ислом уламо ва сайёҳлари Ер юзини аҳволи жўғрофиясини муфассал ёзиб, яна Ерни ичи тарафини аҳволидан баҳс очиб, янги илмларни бошлаб, хулоса, мисрий, юноний замонларидан кўра дунёни каттароқ қилиб олам аҳлиға билдурдилар,* деб изоҳлайди.

Беҳбудий «Мунтаҳаби жўғрофияи умумий» асарида буюк географик кашфиётлар даврини ҳам таърифлаб ўтади. Жумладан, *…. авввалги замонларга оти эшитилмаган Амриқа (Америка), Пулинизия (Полинезия), Орази Қутбий (Ернинг қутблари) ва минглар ила жазираларни топиб, ҳозирги барча мамлакат ва жазира (орол) ва денгизларни масофати (ўлчови) ила ҳаммаға билинмаги боис бўлдилар. Дунё илми бирдан ривож топди.*

….. 898 санаи ҳижрияға фаранги тоифасидан Христофорўф Колумб деган илми риёзийга доно ва денгиз сафарига моҳир боруб, Амриқа ерларини топди. Ўнланчи аср ҳижрияға Русия одамларидан Ермак деган киши ҳозирги Сибир мамлакатини кашф қилиб, Русия ҳукуматига қўшди. 1741 санаи мелодияға Беринг, Черикоф деган кемачи капутанлар Шимолий Америкага боруб, Саника деган жазирани топиб, Янги Архангил деган шаҳарни бино қилиб, Беринг буғозини топдилар. Хулоса, уч-тўрт асрдан бери йилдан –йилга илгари билинмаган ва эшитилмаган жазира мамлакат ва қутблар тарафидаги ерларни аҳволи фарангий-Оврупо уламойи жўғрофийюн ва сайёҳларнинг ғайрати ила олам ёйинки илм аҳлига билинди… деб Американи ва унга туташ ҳудудларни кашф қилинганлигини айтади.

М.Беҳбудий ўша даврда Европа мамлакатларида география жамиятлари тузилганлиги ва унинг аъзолари борлигини қуйидагича ёзади: *....Ҳозир ҳар битта катта давлат ва ҳукуматларни «Жамияти жўғрофия» деган катта мажлислари ва мажлисларни уламойи жўғрофийюндан члени (аъзолари) бордур. Дунёдаги барча жамияти жўғрофияни бир-бирига хату хабари берадур ...деб, хулоса ўрнида .... «Жўғрофияга илмиға ул мисрий, румий, юноний одамлари, сўнгра мусулмон уламо ва сайёҳлари, учинчи мартабаға – фаранг сайёҳлари хизмат қилдиларки, ҳар бирини аҳволиға илми тарих ва жўғрофия шоҳид ....»* деб географияни пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичларини ифодалайди. Бундан ташқари бутун дунёда «География жамияти» ташкилоти тузилганлиги, унинг аъзолари сони ниҳоятда кўп эканлигини ҳар бир жамият аъзолари географик янгиликларни етказиб туришини изоҳлаб ёзади.

«Жўғрофия ўқимоқни нафъи». Маҳмудхўжа Беҳбудий айнан географ бўлмасада география фанини ўқимоқни фойдасини, география ва унинг илмларини кўп ҳамда хўп улуғлайди. Жумладан, у: *.... «Одам боласини қанча илми зиёда бўлса, дунё, тарих, жўғрофия илмидан хабари бўлса шунча яхшидур. Бу илм одамға бутун дунёни ва кўп нимарсаларни билдирадур. Дунё одамларини дин ва мазҳаби, тириклик ва рафтори, тараққий ё таназзул сабаби, яхши ва ёмонликлари, мамлакатларни тинч ва осойиш ё зулм ва жаврға тургони, хулоса бутун аҳволи дунёни, подшоларни қуввати, давлати, одамларни одати, ер юзини аҳволини билдиратургон ушбу илмдур»* деб одамларни географияни ўқишга даъват этади.

Бундан ташқари Беҳбудий - *Ер юзидаги илмийлик мусулмонларимизни ҳам бу жўғрофия илмига саъйлари кўп, фақат биз туркистонийлар бу илмдан бебаҳрамиз. Замонамизга порахўд, темирйўл, ҳавоға ўтадургон асбоблар, полиграф (мухбири ҳавойи) ва бошқа минглар навъ мошиналар (хизмати табиийға) деган илмни худо халқ қилғон кунидан Оврупо уламоларини саъй ва ғайрати ила чиқарилди. Узоқ йўллар яқин бўлди, билинмас ерлар билинди…* деб, сувда сузувчи пароход, поездлар, самолёт орқали узоқ йўлларни яқин бўлгани ва бошқа янги географик кашфиётларни айтиб ўтади.

М.Беҳбудий табиатдаги цикллик ва ритмик ҳодисаларни, яъни, Ерни ўз ўқи ва Қуёш атрофидаги ҳаракати натижасида ҳосил бўладиган географик ҳодисларни қуйидагича таърифлайди: *... Ёйинки ерни ўртаси хатти истивора (қиём, туш вақти), кеча ва кундуз доим баробар бўлган сувратға, бизни Туркистонға на учун гоҳ узун ва қисқа бўлуб, кунимиз 9 ила 15 соат орасиға юрадур? Ҳар қанча ерни шимол ё жанубидаги чет (қутб)ларига қараб борилса, кун ва ётун улайдур. Қутблар тарафиға бир-икки, ҳатто, 6 ойгача кун ботмайдур. Петурбург шаҳрига қиш олти соат, ёз 19 соат кундуз бўлиб турадур (бу ерда М.Беҳбудий қутб куни ва тунини назарда тутган) сабаби нима деб, бир киши сўраса ёйинки бир ой кун ботмайдургон жойға мусурмонни ибодатлари ва амри наҳйини қандай баржой келтуруладур? Ёйинки на учун кеча ва кундузни фарқи ер ила осмончадур? Ҳар шаҳарни тул ва ғуруби (кун чиқиши ва унинг ботиши назарда тутилмоқда) ва учун олдин ва кейиндур деб сўралса, бизлар, хусусан, уламомиз на жавоб берармиз? Билмаймиз, ёйинки*

«ундай бўлмаса керак»дан бошқа жавоб айтолмасак керак. Бу саволларга жўғрофия ўқимагунча жавоб бериб бўлмайдур ва жўғрофия илми жавоб берадур…. деб географияни билишликни афзалликларини айтиб ўтади.

….шаръий саволларга жавоб бермоқ уламойи дин зиммасиға лозимдур. Аммо на фойдаки, бизлар ҳадди истиво (экватор чизиғи назарга олинган) ила қутб орасидаги ҳодиса ва ихтилоф, кеча ва кундуздан хабаримиз йўқдур. Ани учун мункий ё мулзам бўлармиз…., деб география ўқишни улуғвор қилиб кўрсатиб беради.

М.Беҳбудий: *….Мухтасар шулки, жўғрофия илми катта ва керакли илм ва билмасликдан билмоқ, ўқимоқ афзалдур, хусусан уламомизга, Пайғамбар алайҳиссалом айтдилар «Ҳолитул ҳукамон (Ҳукамолар ила аралаш бўлингиз)».*

Ер айланганда устидагиларини йиқилмаслиги М.Беҳбудий «Мунтаҳаби жўғрофияи умумий» асарида турли табиий географик ҳодисаларга ўз қарашларини ифода қилади. Шу жумладан, ернинг суткалик айланма ҳаракатини ҳам ифодалайди. Ер ўз ўқи атрофида ғарбдан шарққа қараб айланишини ва сутка деб аталадиган давр давомида бир марта айланиб чиқишини таъкидлаб ўтади.

…. «Мақнатус, яъни оҳанграбо темурни қаҳрабо сомонни ўзига тортиб сақлаб турган нимарсалар ҳар кимга маълумдир. Мақнатус ва қаҳрабога темур ва сомон парчаларини тирмашган ва турган жойларини. Агарчи паст тарафга ағдарилса ва айлантура берилса ҳам тирмашиб туриб тушмайдур. Яъни, мазкур икки нимарсани зотидаги халқ бўлғон қувваи жозибаси юбормайдур. Бу тариқа қувваи жозиба Ер, Офтоб ва барча юлдузларга ва ҳатто, барча ашёга бақадри жисм ва холи бор. Аммо, баъзиға кўп ва баъзиға оз эмиш. Яна бир қувваи дофеъани (раддия) борлигидан бу қурраларни Офтобки, ҳаммадан катта ва қувват кўп ва зўрдур, тортиб ололмайдур, агарда ҳозирги масофатидан яқинроқ бўлса, Еримизни Офтоб ўзига тортиб олмоғи қоидадандур….» деб, Ернинг тортишиш кучини таърифлаб беради.

Атроф жиҳоти аслия (асл томонлар), харита, план. Маҳмудхўжа Беҳбудий географик асарларида ўз географик қарашларини ифода этиб: *…қутб шимолий юлдузи яъни, Темур Қозиқ тарафи «шимол» жиҳади ҳисобланадур. Ани ўнг тарафимизға олиб, кун ботишга қараганда, юзимиз «ғарб», орқамиз «шарқ», чап қўлимиз «жануб» тарафлариға бўладур. Қибланома (компас) деган асбоб шимол тарафини кўрсатадурки, андан иқлим ва мавзенга қараб қибла тарафи тахмин қилинадур….*

Беҳбудий горизонт томонларини изоҳлаб бериб, уларни «жиҳоти аслия» деб атайди. Унинг айтишича *«харита ёки планга қараганда бирор одамни кўзини юқориси шимол, қуйи тарафи жануб, ўнги шарқ ва сўли ғарбдур»*. Бундан ташқари у горизонтнинг оралиқ томонларини ҳам эътироф этиб, уларни қуйидагича изоҳлайди: *….Бу тўрт жиҳати аслия аролалариға яна тўрт жиҳоти фаръийя (иккинчи даражали) борки, тўрт жиҳотни кунжи ҳукмиғадур. Шарқий-шимолий, ғарби-шимолий, шарқи-жанубий, ғарби-жанубий деб аталадур*.

Маҳмудхўжа Беҳбудий дунё карталарини тузиш, уларнинг пайдо бўлиши ва ясалиши тўғрисида ўз илмий қарашларини ифода этиб: ... *Бизни фикр ақлимизга сиғмайдурғон ер юзи шаклини бир тахта қоғоз устиға нақш қилибдурлар, деган ҳолға ушбу катта дунёни қандай бир тарроҳ (тархини чизувчи), аққос (акс эттирувчи, фотограф), планчи юруб неча муддатга нақшасини (тасвирини) олди? деган савол келадур. Бир аққос, бир планчи эмас, минг-минг устозлар, сайёҳлар, муҳандислар дунё юзига аввалдан, хусусан, беш юз йилдан бери пайдар-пай, доим юруб, ўлчаб, ёзиб оҳиста-оҳиста ҳозирги мартабасиға жўғрофия илмини ва дунё нақшасини келтурдилар…..*

Ундан ташқари М.Беҳбудий дунё океани, материк, қитъалар, орол ва яриморолларкарталарини яратилиши ва ундаги ўлчов ишлари, яъни, масштаб ҳақида қуйидагича ёзади: .... *Аммо катта бир қитъа ёйинки бир ботмон ерни бир тахта қоғоз устиға планини кўрсатмоқ тариқаси тузурки, масалан, бир ерни узунлиги 60 сажин, эни 40 сажин экан. Ушбу тул ва арз масофаларини бир варақ қоғоз устига 60 сажин ўрнига 60 нуқта масофатини кўрсатган ила фаҳмламоғи «тарсим» (расм) қилинмоғи мумкиндур. Ҳар бир план, харита устиға бир неча сифр ва рақамлар борки, «миқёс» (масштаб) аталадурки, ўшал харитадаги мамлакатни асл вусъатидан ушбу харита қанча маротаба кичиклигини билдирадур. Чунончи, бир жойни турли юз чақирим экан, қоғоз устиға бир вертўқ хат узунлиги бор ва харита охириға «бир вертўқ юз чақиримдур», деган ишора ва миқёс бордур. Яна, ... муфассал харита, планлар бордурки, тоғларини баландлиги, тошларини хосияти, ҳайғати, наҳрларини чуқурлиги, балиғларини камаригача кўрсатадур…* деб тоғ ва текисликларини баландлиги, тоғ тош қатламларининг хусусияти, океан ва денгизларнинг чуқурлиги, чўкмалар тўғрисида аниқ маълумотлар келтирилишини айтиб ўтади.

М.Беҳбудий ўз асарларида географик карталарнинг хиллари (типлари) тўғрисида қуйидагича изоҳ беради: ...*Харитаи хусусий, умумия, тўпўғрафия, заўлўжия, табиийя, баҳрия, зироия, этнўғрафия, казо-казо аталадурки, ер юзидаги нимарсани ҳар бирини аҳволидан баён қилувчи хариталарни оти бошқа бўлуб, ушбу тариқа хариталарни анвоғ ва ағдоди кўпаядур.* Шу тариқа географик карталарни умумий, мавзули, топографик ва бошқа типларга ажратилиши ҳамда ер юзасидаги ҳар бир воқеа-ҳодисаларни алоҳида-алоҳида тасвирлаш орқали уларнинг сонини ошишини таъкидлаб ўтади.

1-расм. Махмудхўжа Беҳбудийнинг илмий мақсадда амалга оширган сафар йўналишлари

Бехбудий таниқли драматург, публицист, дин ва жамоат арбоби, жадидчилик ҳаракати етакчиларидан бири ҳисобланади. У 18 ёшидан қозихонада мирзалик қилади, қози, муфти даражасигача кўтарилади. Умри давомида кўплаб сафарларда бўлган. У томонидан амалга оширилган илмий сафарлари 1-расмдаги картада ўз ифодасини топган.

Мақоланинг бошида М.Беҳбудийнинг балким географ олим эмаслигини таъкиблаб ўтган эдик, лекин у кишининг ёзиб қолдирган илмий меросини ўрганишимиз ва таҳлил қилишимиз асосида географик қарашларини нечоғлик жуда кенг ва серқирра бўлганлигини билишимиз мумкин. Биз ушбу мақолада Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг илмий географик меросини бир қисминигина таҳлил этдик холос, чунончи мутафаккирнинг ёзиб қолдирган маълумотларидан қанчадан-қанча илмий рисола ва монографиялар ёзиш мумкин. Хулоса ўрнида шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, М.Беҳбудий каби мутафаккир олимлар номини улуғлаш, уларни бизга қолдирган илмий меросини излаш, таҳлил қилиш ва келажак авлодга етказиш бизнинг ҳам бурчимиз ҳам вазифамиз саналади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Калесник С.В. Умумий ер билими қисқа курси. Учпедгиз УзССР. – Тошкент, 1959. -256 б.
2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. «Маънавият» нашриёти. – Тошкент, 1999. -280 б. (Истиқлол қаҳрамонлари).

3. Маънавият асосий изоҳли тушунчалар луғати. Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. –Тошкент, 2010. -760 б.
4. Рахимбеков Р.У., Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиати географик ўрганиш тарихи. Ўқитувчи нашриёти. –Тошкент, 1982. -200 б.
5. Муфтий Усмонхон Алимов. Тавсири Ирфон, 19-22 жузлар, - Т.: 2017, 640 б.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY QARASHLARIDA TIL MASALASI

Yunusova Durdona Axtamovovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston jadidchiligi rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiyning til va til bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha yozgan maqolalari, ilmiy tadqiqotlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘p tillilik, til siyosati, sheva, lahja, milliy til, turkiy til.*

Jadidchilik XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkiston ziyolilarining xalq orasida ozodlik, ma’rifat va milliy uyg‘onish g‘oyalarini keng targ‘ib qilish hamda uni amalga oshirishga qaratilgan taraqqiyparvarlik harakatidir. Millat va milliyat masalasiga shu qadar ahamiyat bergan jadidlarimiz millatning o‘zlari yashagan davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg‘otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolarga ham befarq bo‘la olmas edi. Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot, teatr, adabiyot, til sohalarda qimmatli fikrlarini aytgan. Uning o‘zbek tili, umuman mintaqadagi til siyosati borasidagi fikrlari bugungi kunga qadar eskirmagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonlik ziyolilar orasida birinchi bo‘lib til birligi g‘oyasini keng targ‘ib qildi.

Uning “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Til masalasi” “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat”, “A’molimiz yoinki murodimiz” kabi maqolalari orqali tilda millatning ma’naviy birligi mujassam ekanini ta’kidlanganini ko‘rish mumkin. Mutafakkir o‘zining “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida turkistonliklar ijtimoiy turmush-tarziga ko‘ra sharoitlariga ko‘ra to‘rt tilni bilishlari lozimligi dalillar bilan isbotlab beradi: “Turkiy, ya’ni o‘zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o‘zbakiy so‘ylashur. Forsiy bo‘lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung‘acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta’lim berilib kelgandur. Barcha madrasalarda shar’iy va diniy kitoblar arabiy ta’lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru (bayon) tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya’ni dars kitobi – arabiy, muallim – turkiy, taqriru tarjimaning forsiyligi xila ajibdur. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo‘lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur” [1]. Bu qarashlar hozir ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Til masalasi” (“Oyna” jurnali, 1915, 11-12-sonlar) maqolasi Turkistonda turk tilini sofligini saqlash va yanada tozalash mavzusiga bag‘ishlangan maqolalarga, birinchi navbatda “Sadoyi Turkiston”dagi chiqishlarga munosabat tarzida e’lon qilingan. Muallif maqolada shunday yozadi: “Tilimizdan forsiy va arabiyni quvayluq” – bu gap yengil orzu, ammo ijrosi mumkin

emas orzulardandir”. Negaki, “Toshkand”, “Xo‘qand” va boshqa minglar ila jug‘rofiyoviy ismlarni rajoli tarixiya va yoinki tarixiy voqealarni mahalliy va mashhur odamlarni va oy ham yili, kuni va ...larigacha tag‘yir berib, turkiy ismlar toqib, alarg‘a yangi lug‘atlar tayyorlab, yangidan tadvin etmoq lozim kelur” [2]. Bu fikrlar orqali Behbudiy amaliy til islohoti, turkiy tilni rivojlantirish tarafdori sifatida ko‘rinadi. Ona tilimizga boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi bundan bir yarim asr oldin ham yechimi qidirilayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan davr muhitida arab va fors tilini o‘rni katta edi. Shu sababli adib turkiy tilning sofligini saqlashga harakat qilgan va boshqalarni ham shunga chaqirgan. Bu ko‘tarilgan fikrlar hozirgi zamonda o‘zbek tili uchun ham muhimdir. “Forscha va arabcha so‘zlar o‘rniga qadimgi turkiy so‘zlarni tiklash mushkullik tug‘diradi, Hamda ming yil avvalgi tilg‘a qaytmoq qonuni tabiatga muxolifdur. Chunki moziyga ruju’ mumkin yo‘q. Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur... Xulosa fikrimiz shuki, yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq” [3]. Ushbu fikrlarda ham ona tilimizning aslligini saqlab qolish muammolari ko‘tarilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy imkon qadar turkiy so‘zlarni qo‘llashga chaqirib, boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlardan voz kechib bo‘lmasligini maqolaning hozirgi zamon uchun juda dolzab bo‘lgan xulosa qismida ta’kidlaydi.

Behbudiy Turkiston shevalari borasida yozar ekan, u o‘zini ona tilimizning fidoiy tilshunos sifatida namoyon etadi. Behbudiy turkistonliklarning yashash mintaqasiga qarab sheva va lahjalar qay darajada fors va arab tili ta’siriga tushgani va bu jarayon “barcha yerda bir holda bo‘lmay, balki mavqe’i jug‘rofiyasig‘a qarab har nav” ekanligini tadqiq etdi. Va turkiy til qanchalar boshqa til ta’siriga tushib o‘zgargan bo‘lmasin, barcha “lahja ila so‘ylayturgonlarning har biri boshqasini so‘zig‘a tushunadurlar”, degan xulosa beradi. “Til masalasi” maqolasining ikkinchi qismi turkiy xalqlar uchun yagona, soddalashtirilgan adabiy til yaratish masalasiga bag‘ishlangan. Behbudiyning ta’kidlashicha, u ushbu masalani yoritishda “betarafona” yondashishga harakat qilgan. Behbudiy sheva va lahja bilan “adabiy til” o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish uchun Volgabo‘yi tatarlari, Kavkaz xalqlari bosib o‘tgan yo‘lni tahlil qilishdan boshlaydi. Unga ko‘ra, tatarlar va ozarbayjonlar nashr qilayotgan matbuot “tili” “ko‘cha tili”dan “necha daraja oliy” ekani har bir gazeta o‘qiydigan ziyoliga ma’lum. Hatto “Vaqt” gazetasi va “Sho‘ro” jurnalining tili ular nashr bo‘la boshlagan yildan, ya’ni 1908-yildan 1915-yilga qadar “jaridalarining avvalgilari ila hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini adabiyligi zohir” bo‘lib, tobora “oliylashmoq” yo‘lida harakat qilmoqda edi. Behbudiyning bu kabi izlanish va tadqiqotlar olib borganini o‘sha vaqtda o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lgan adabiy til yaratish yoki qabul qilish borasidagi qarashlarini bildirish, o‘z pozitsiyasini ko‘rsatish bilan bog‘liqlikda qarash kerak. Behbudiy (umum)adabiy til masalasida tilni soddalashtirish, omma tushunadigan shaklga olib kelish fikrini qo‘llab-quvvatlasa-da, tilni soflashtirish, ya’ni arabcha, forscha so‘zlar o‘rniga muqobillarini qidirib topish va tilga tatbiq etish masalasini “ijrosi mumkin emas, quruq xayoli fosidgina”, deb baholaydi. Shu bilan bir qatorda, Behbudiy gazeta va jurnallarda boshqa tillardan yangi kirib kelayotgan so‘zlar istalgan shaklda qo‘llanilishi

masalasiga to‘xtalar ekan, buni “bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqg‘on begona lug‘atdagi ismlik nimarsalarg‘a turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg‘a xizmat etaturgon kishilarni bizg‘a yo‘qligi”dan deb ta’kidlaydi. Bu bilan Behbudiy tilga yangi o‘zlashmalarni tartibga keltiradigan ilmiy jamiyat tashkil etish masalasini ham kun tartibiga chiqaradi. Tilni soflashtirish masalasida “Sadoyi Turkiston” gazetasida berib borilayotgan maqolalarni tahlil qilar ekan, Behbudiy gazetaning bu harakatiga “ijrosi mumkin emas orzu” deb qaraydi. Sabab, asrlar davomida arab va fors tili ta’sirida qolgan turkiy tilni “yana bir necha ming sanada bularni ta’siridan chiqarmoq” ishiga berilsak, “ma’nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) bo‘lgan tilimizg‘a yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)” tilidan yangi so‘zlar kirib kelaveradi. Behbudiy til soflashtirish masalasida mana shunday pozitsiyani egallagan edi. Behbudiy tilni soddalashtirish borasida fikrlar ekan, arabcha ko‘plikdagi so‘zlarni imkon qadar turkiy ko‘plik shaklda, masalan, “ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq erinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar va... lar” kabi yozilishini hamda gazetalarda berilayotgan “kurrayi arzda yashamakda bo‘lgan har millatni o‘ziga maxsus bir lisoni milliysi vordur” kabi gaplarni imkon qadar turkiychalashtirishni taklif qiladi. Lekin, yuqorida yozilganidek, Behbudiy butun tilni soflashtirish masalasida “butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarg‘a muqobil turkchadan ism ta’yin qilmoq fikrig‘a cho‘mmoq o‘zni charchatib va matbuotnn zoye’ qilmoqdan boshqa nimarsa emas” degan fikrda qat’iy turdi [4]. Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy tilning sofligi va uning rivojiga qaratilgan nazariyalari hozirgi kunda ham dolzabligicha qolmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida vaziyatga xolisona, har tomonlama yondashishga harakat qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z faoliyati bilan o‘zbek adabiy tilining shakllanishi, uslubiy soddalashuvi va ma’naviy yuksalishida asosiy yo‘lboshchilardan biri bo‘ldi. Uning til haqidagi qarashlari bugungi kun til siyosati va ta’lim tizimi uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Maqolalarida turkiy til va sof turkiycha so‘zlardan foydalanishga undagan bo‘lsada, adibning o‘zi ham arabcha va forscha hamda g‘arb tiliga oid leksikalardan ko‘plab istifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – B. 176.

2. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. J.I.. –T.: Akademnashr,

2021. –512 b.

3. Zarafshonning Behbudiysi. Maqolalar (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

A.Haydarov). – T.: Sahhof, 2020. – 204 b.

4.http://news.muz.uz/news/til-va-dil-birligi-mahmudxo‘ja-behbudiyning-til-borasidagi-qarashlari.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY IJODINING ILMIY MEROSI VA UNING O‘ZBEKISTON MADANIY-TARIXIY RIVOJIDAGI O‘RNI

Ravshanova Orzigul Sayfullayevna
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining ilmiy merosi, uning O‘zbekiston madaniy va tarixiy rivojidagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Behbudiy asarlari o‘zbek milliy uyg‘onishi va madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning faoliyati va g‘oyalari zamonaviy O‘zbekiston jamiyatining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada Behbudiy ijodining tarixiy konteksti, uning ilmiy va adabiy merosi, shuningdek, uning O‘zbekiston madaniyati va ta’lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, ilmiy meros, O‘zbekiston, madaniy-tarixiy rivoj, milliy uyg‘onish, ta’lim, ma’rifatparvarlik.*

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudiy — o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi O‘zbekistonning madaniy va tarixiy rivojida muhim iz qoldirgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Behbudiy o‘zbek ma’rifatparvarligining asoschilaridan biri sifatida tanilgan. Uning ilmiy merosi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki tarix, til, madaniyat va ta’lim sohalarida ham katta ahamiyatga ega. Bu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining ilmiy merosi, uning O‘zbekiston madaniy-tarixiy rivojidagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining ilmiy merosi. Behbudiy ilmiy merosini shakllantirishda o‘zbek milliy madaniyatining qadriyatlarini yangilashga qaratilgan ko‘plab asarlar yozgan. Uning eng mashhur asari — “Turkiston musulmonlarining ilmiy-ma’rifiy taraqqiyoti” bo‘lib, unda u musulmon jamiyatining ma’rifiy taraqqiyot yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Behbudiy milliy tilni rivojlantirish va uni ilm-fan va madaniyat tili sifatida mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, u tarixiy manbalarni o‘rganish va qayta tahlil qilish orqali o‘zbek tarixining yangi sahifalarini ochishga harakat qildi.

Behbudiy ijodida ta’lim tizimini isloh qilish, maktablar va kutubxonalar ochish, yosh avlodni ilm-fan va ma’rifat bilan tanishtirish kabi maqsadlar muhim o‘rin tutadi. Uning fikricha, ma’rifatning rivojlanishi millatning ravnaq topishining asosi hisoblanadi. Shu sababli, Behbudiy o‘z asarlarida diniy tafakkur bilan birga zamonaviy ilm-fanni uyg‘unlashtirishga intilgan.

Behbudiy ilm-fan va ta’limni milliy uyg‘onishning asosiy vositasi deb bilgan. Uning asarlarida milliy o‘zlikni anglash, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va diniy tafakkur bilan ilm-fanni uyg‘unlashtirishga intilish ko‘zga tashlanadi.

Behbudiy o‘z davrida matbuot vositalarini jamiyatni ma’rifatlantirishda muhim rol o‘ynaydigan institut sifatida ko‘rgan. U 1913-yilda “Samarqand” gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat olgan, biroq moddiy tanqislik tufayli gazeta qisqa muddat ichida yopilgan. Shundan so‘ng, 1913-yil 20-avgustdan “Oyna” jurnalini nashr etishni boshlagan. Bu jurnal, haftalik, suratli bo‘lib, asosan o‘zbek tilida chop etilgan va she’r, maqola, tahliliy materiallar hamda e’lonlarni o‘z ichiga olgan.

Behbudiy dramaturgiya sohasida ham faoliyat yuritgan. U o‘z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritib, xalqni ma’rifatga chaqirgan. Uning publitsistik asarlari o‘z davrida keng muhokama qilinib, o‘zbek matbuotining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Behbudiy ijodi nafaqat ilmiy, balki madaniy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega. U o‘z asarlari orqali milliy qadriyatlarni saqlab qolish, tarixiy xotirani mustahkamlash va yangi avlodni yuksak ma’rifat bilan ta’minlashga harakat qilgan. Uning g‘oyalari bugungi kunda ham O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘z aksini topmoqda.

Behbudiy va O‘zbekiston madaniy-tarixiy rivoji. Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati O‘zbekistonning milliy uyg‘onish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. U milliy qadriyatlarni saqlab qolish, tarixiy xotirani mustahkamlash va yangi avlodni yuksak ma’rifat bilan ta’minlash orqali O‘zbekiston madaniy hayotini boyitdi. Behbudiy asarlari orqali millat o‘zligini anglash va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, Behbudiy o‘z davrida xalq ta’limini rivojlantirish, ilm-fan va ma’rifatni keng jamoatchilikka yetkazish uchun faol harakat qilgan. Uning ta’limga oid g‘oyalari va tashabbuslari bugungi kunda ham O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘z aksini topmoqda.

Behbudiy ijodi nafaqat tarixiy manba sifatida, balki madaniy meros sifatida ham qadrlanadi. Uning asarlari o‘zbek milliy ruhining uyg‘onishi va madaniy mustaqillik yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Behbudiy g‘oyalari zamonaviy O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va madaniy an’analarni rivojlantirishda yo‘naltiruvchi manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi O‘zbekiston madaniy-tarixiy rivojida muhim o‘rin egallaydi. Uning ilmiy merosi milliy uyg‘onish va madaniyatni yangilashda asosiy omil bo‘lib, ta’lim, til va tarix sohalarida chuqur iz qoldirgan. Behbudiy asarlari O‘zbekistonning bugungi kunda milliy o‘zligini saqlab qolish va rivojlantirish yo‘lida muhim manba bo‘lib qolmoqda. Shu bois, uning ijodi va g‘oyalari har doim o‘rganilishi va targ‘ib qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Raximov O‘zbek adabiyoti tarixi: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida. T , 2010.
2. N. Abdug‘afforov Mahmudxo‘ja Behbudiy va milliy til masalalari. T , 2015.
3. A.Qodirov O‘zbek madaniyatining rivojlanishida Behbudiy g‘oyalari, “Madaniyat” jurnali, 2020, №3.
4. D.Mirzayev Mahmudxo‘ja Behbudiy: ta’lim va ma’rifat targ‘ibotchisi, T, 2018.
5. J. Zokirov Behbudiy va O‘zbek milliy uyg‘onishi, Samarqand, 2012.
6. Hamidov,T. O‘zbek tarixshunosligida Mahmudxo‘ja Behbudiy roli, T, 2009.

3-SHO‘BA.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM-TARBIYA SOHASIDAGI ISLOHOTCHILIK G‘OYALARI VA ULARNING BUGUNGI TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM -TARBIYA SOHASIDAGI ISLOHOTLARI

R.A.Sanayeva, S.B.Yusupova, N.A.Yunusova
Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazi o‘qituvchilari

Annotatsiya*.Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston jadidchiligidagi ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari haqida bo‘lib, Behbudiyning zamonaviy ta’lim tizimi yaratishdagi rolini, yangi maktablar tashkil etishdagi faoliyatini, shuningdek, uning ilmiy va madaniy taraqqiyotga qo‘shgan hissasini yoritadi.*

Kalit so‘zlar.*Mahmudxo‘ja Behbudiy, ta’lim islohotlari, madaniyat islohotlari, ilm-fan rivoji, madaniy yangilanish, ta’limda innovatsiyalar.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy XIX asrning oxirgi choragi va XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida yorqin iz qoldirgan siymolardan biridir. Manbalarda qayd etilishicha, Behbudiy Yassaviy avlodidan sanaladi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o‘z navbatida Mahmudxo‘janing ma’rifatli shaxs sifatida rivojlanishiga katta ta`sir ko‘rsatgan.Ma’rifatning lo‘g‘aviy ma’nosi bilish,tanish,bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma’rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini,madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonidir. Behbudiy uchun ma’rifatli inson o‘qituvchi – jamiyatni isloh qiluvchi, yosh avlodni shakllantiruvchi, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi eng muhim shaxsdir.Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi, “Turkiston jadidlarining otasi” nomiga sazovor bo‘lgan, xalqimiz uchun ahamiyatli, ko‘plab asarlar va maqolalar muallifi sifatida tanilgan buyuk shaxs.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi katta ahamiyatga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’limga nisbatan ilgari surgan g‘oyalari va amalga oshirgan islohotlari, uning vaqtida yashagan xalqning ma'rifatini oshirishga, madaniy tafakkurini yangilashga, shuningdek, ularga zamonaviy dunyoqarashni singdirishga qaratilgan edi.

XVI asrning oxiri va XIX asrning boshlariga kelib, Turkiston, o‘zining boy madaniy va ilmiy an'analari bilan birga, zamon talablariga javob beradigan yangi ta’lim tizimiga muhtoj edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu talablarni hisobga olib, ta’lim va madaniyatni yangilash bo‘yicha olib borgan islohotlari, uning jadidchilik harakatidagi o‘rni va ta'siri haqida bo‘lib,ta’lim tizimidagi islohotlari, yangi maktablar tashkil etishdagi faoliyati, ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi va madaniyatga bo‘lgan ta'siri keng tahlil

qilinadi.U ta’limni an'anaviy usullardan zamonaviy usullarga o‘zgartirishga harakat qilgan. Behbudiyning asosiy maqsadi – Turkistonning ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish va uning orqali xalqni ijtimoiy hayotga yanada faolroq jalb qilish edi. Behbudiyning ta’lim tizimidagi islohotlarining yana bir muhim jihati – yangi maktablar tashkil etishdir. U eski va mustamlaka hukmronligidan ta'sirlangan maktab tizimining eskirganligini tushunib, yangi zamonaviy maktablarni ochishga harakat qildi. Behbudiyning ta’lim tizimida eng muhim o‘zgartirishlardan biri – madaniyat va ilmni bir-biriga yaqinlashtirish, o‘quvchilarga yangi metodlar va yangicha fikrlashni o‘rgatish edi.

U maktablarning tashkiliy tuzilishini yangilab, ilm-fan bilan birga, milliy va ma'rifiy g‘oyalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqdi. Zamon talabiga xos ishlab chiqilgan pedagogik tamoyillar – o‘qituvchining ta’lim va, tarbiyaga, o‘quvchiga, bilimga, o‘rgatish usullariga bo‘lgan shaxsiy qarashlari, e’tiqodi va qadriyatlari – o‘quv jarayonining yo‘nalishi, sifati va samaradorligini belgilab beradi. shaxs pedagogik qarashlarining ta’limiy jarayonga qanday ta’siri ta’lim mazmunining tanlanishi, o‘qitish uslublari, o‘quvchiga bo‘lgan munosabat, baholash mezonlari hamda tarbiyaviy ishlarga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.O‘qituvchining axloqiy qiyofasi – bu faqat o‘zini emas, balki butun kelajak avlodni tarbiyalash vositasi sifatida ko‘riladi. Shuning uchun ham u o‘qituvchilikni yuksak darajadagi burch deb bilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’limga bo‘lgan munosabati, uning barcha pedagogik g‘oyalari va yondashuvlari, o‘zbek xalqining ma’rifatparvarligini targ‘ib qilish, yangi maktablar ochish va ta’limni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi Maxmudxo‘ja Behbudiy – jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, u o‘z faoliyati davomida nafaqat erkaklar, balki ayollar ta’limi masalasiga ham katta e’tibor bergan. Uning qarashlari o‘sha davrda ilg‘or bo‘lgan va ko‘plab islohotlarga zamin yaratgan.

Maxmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Tarbiyai atfol” (Bolalarni tarbiyalash) kabi asarlarida onaning farzand tarbiyasidagi o‘rnini yoritadi. U yerda ham ayollarni ilmli, tarbiyali qilish zarurligi urg‘ulanadi. Behbudiy g‘oyalariga ko‘ra, musulmon jamiyatlar ham rivojlanishi uchun ayollarni ta’limli qilish shart edi. U ayollarni yevropachilikka chaqirmagan, balki islomiy qadriyatlar asosida, ammo zamonaviy shaklda ta’lim berishni yoqlagan. Maxmudxo‘ja Behbudiy ayollar ta’limining zarurligini chuqur anglagan va bu borada amaliy harakatlar qilgan jadid ziyolilaridan biridir. Uning fikricha, ayol tarbiyachidir – u ilmli bo‘lsa, butun millat ravnaq topadi.Onalarning tarbiya va ta’lim borasidagi ongini yuksaltirish – jamiyat taraqqiyoti va barkamol avlod tarbiyasining kalitidir. Maxmudxo‘ja Behbudiy buni o‘z davrida chuqur anglab, bu borada ilmiy va amaliy ishlar qilgan. Onalar ilmli bo‘lsa, farzandlar ham ilmli, axloqli, ongli bo‘ladi – demak, butun jamiyat rivojlanadi.Behbudiyning ta’lim tizimiga va o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni haqidagi qarashlarining asosiy prinsiplarini ochib beradi va hozirgi ta’lim tizimida uning g‘oyalarining zamonaviy ta’lim jarayoniga qo‘shilishini ko‘rsatadi.

Behbudiyning ta’lim tizimi haqida aytgan g‘oyalarini amalda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim tizimining rivojlanishi uchun maktablarning sonini oshirish kerak. Bu nafaqat Turkiston, balki butun dunyo

miqyosida ta’lim sifatini oshirish, yangi usullarni joriy etish va o‘qituvchilarni malakasini oshirishni taqozo etadi. Shuningdek, maktablarning ko‘payishi o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni ham oshiradi, bu esa pedagogik kadrlarga bo‘lgan talabni kuchaytirish va o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini mustahkamlashni talab qiladi. Behbudiyning pedagogik qarashlari, o‘z davrida ta’lim tizimining muhim omillaridan biri sifatida, hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning g‘oyalari ta’lim tizimi, o‘qituvchilarni tayyorlash va ta’lim sifatini oshirish borasida zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashgan holda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Behbudiy ta’limni millatning kelajagi, uning taraqqiyoti va mustaqilligi uchun eng muhim vosita deb bilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari, o‘z vaqtida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bugungi kunda, uning islohotlarining ta'siri o‘zini yanada sezilarliroq ko‘rsatmoqda. Xalq ta’lim tizimida yuzaga kelgan yangilanishlar, Behbudiyning g‘oyalariga asoslangan edi. Uning islohotlari, Turkistonning o‘ziga xos madaniyati va ilm-fani rivojida mustahkam poydevor yaratdi.Hozirgi kunda ham, Behbudiyning islohotlarini o‘rganish va uning merosini davom ettirish o‘zbek ta’limining rivojiga xizmat qilmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari, Turkistonning zamonaviylashuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning ishlarini o‘rganish va baholash, bugungi kunda ham ta’lim tizimini takomillashtirish va milliy madaniyatni rivojlantirishda muhim bir qadamdir. Behbudiyning islohotlari, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga yo‘l ochdi va uning merosi davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari Turkiston jadidchiligida o‘zining muhim o‘rniga ega bo‘lib, uning xalqni ma'rifatli, ilmli va zamonaviy fikrlashga yo‘naltirishdagi hissasi katta. Behbudiyning ta’lim tizimiga kiritgan yangiliklari, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan g‘oyalari, o‘z vaqtida va hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan. U ta’lim tizimini faqat bilim olish jarayoni sifatida emas, balki insonnijamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash deb hisoblagan. Behbudiyning asosiy islohotlaridan biri, eski va zamon talablariga mos bo‘lmagan ta’lim usullarini yangilash va yangi, zamonaviy maktablarni tashkil etishdir. Bu maktablar ilm-fan, adabiyot, tarix va madaniyatni o‘zida mujassamlashtirib, o‘quvchilarga keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam berdi. Behbudiyning islohotlari davomida yaratgan o‘quv tizimi, yurtni ilm va madaniyatga yanada yaqindan bog‘lashga xizmat qilmoqda. Shuning uchun, uning merosi bugungi ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlarning poydevori sifatida har doim qadrlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Ahrorova Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedegogik qarashlari va ma’rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss. Toshkent: 1997. 157 b.

2.Axrarova Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik merosi Academic research in educational sciences. 2024. №NUU Conference 1. URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudxo-ja-behbudiyning-pedagogik-merosi

3.Rasulova Zebiniso Xakim qizi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi https://doi.org/10.5281/zenodo.15029980.

ОТЕЦ НАРОДА - ВДОХНОВИТЕЛЬ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА

Раимкулова Ирина Аликуловна
старший преподаватель кафедры
методики преподавания языков
Центра педагогического мастерства Самаркандской области

Аннотация: *В статье проводится комплексное исследование жизни и творчества Махмудходжи Бехбуди. Освещаются реформаторские идеи Махмудходжи Бехбуди в области образования и воспитания, а также его политическая деятельность и литературные работы. Значительное внимание уделяется влиянию литературы и театра на формирование его мировоззрения и вклад в культуру.*

Ключевые слова: *джадидизм, просвещение, реформа, культура, развитие, образование, прогресс.*

Махмудходжа Бехбуди – выдающаяся фигура в истории Туркестана, обладающая разносторонними талантами и оказавшая значительное влияние на развитие культуры и общественной мысли. Он был не только духовным лидером и просветителем, но и талантливым драматургом, писателем, а также занимал важные должности в религиозной сфере, такие как казий и муфтий. Его политическая деятельность, диссидентские взгляды, публицистические работы, знание множества языков и авторство школьных учебников сделали его видным общественным деятелем. Бехбуди является основателем узбекского театра, вдохновителем движения джадидизма, инициатором светского демократического движения в Туркестане, издателем журнала «Зеркало» и газеты «Самарканд». Широкую известность ему принесли постановки пьесы «Падаркуш». За свои заслуги он был удостоен звания «отец народа».

Махмудходжа Бехбуди, как один из лидеров джадидизма, ставил своей целью освобождение Родины, обеспечение равноправия женщин и духовное развитие народа. Эти цели он реализовывал, в частности, через создание новометодных школ. Важную роль в формировании его взглядов сыграл Исмаил Гаспринский – влиятельный крымскотатарский деятель, интеллектуал, просветитель, издатель и диссидент, пользовавшийся авторитетом во всем мусульманском мире и стоявший у истоков джадидизма. Вдохновленный идеями Гаспринского, Махмудходжа Бехбуди провозглашал: «Права не даются, их нужно завоевывать!»

Махмудходжа Бехбуди считал, что современные учёные должны изучать светские и религиозные знания параллельно. А новометодные школы как раз обучали этим двум направлениям знаний одновременно.

Махмудходжой Бехбуди написано ряд книг для «новометодных» школ[3]:

«Книга грамотности», «Введение в географию населения», «Краткая общая география», «Письмо для детей», «Исламская практика», «История ислама».

В 1908 году автор выступил одним из первопроходцев, издав в газете свой короткий узбекский рассказ (хикоя). В этом произведении, созданном после глубокого изучения периода XV-XX веков, он не только описал катастрофическое состояние ханств, но и раскрыл корни социального упадка в регионе. Цель была ясна: через художественное слово вдохновить народ на просвещение.

Три года спустя, в 1911 году, он вновь потряс литературный мир, написав «Падаркуш» («Отцеубийца») – первую драму в истории узбекской литературы. Это произведение стало мощным призывом к образованию, демонстрируя, как невежество и необразованное большинство толкают семью, общество и государство к гибели. Автор особенно подчеркивал, что бесконтрольное поведение «уличных» детей, потакающих своим желаниям, способно разрушить даже самые крепкие семейные узы.

Спектакль «Падаркуш» («Отцеубийца») – не просто драматическое произведение, а глубокая национальная трагедия, ставшая ярким отражением сложной и переломной эпохи в истории узбекского народа. Автор, Махмудходжа Бехбуди, один из виднейших представителей джадидского движения, вложил в пьесу свои тревоги и надежды, свой взгляд на будущее нации. Он не просто рассказывает историю, а с болью и тревогой предостерегает народ о неминуемой деградации, которая наступает в результате распространения невежества и пренебрежения образованием. Бехбуди, будучи сторонником просвещения, видел в нем единственный путь к возрождению и процветанию.

Центральным художественным приемом, используемым Бехбуди, является яркий контраст в сюжете, противопоставление просветительства и невежества, света знания и тьмы предрассудков. Он намеренно сталкивает в пьесе два мира: мир прогрессивных и образованных людей, стремящихся к знаниям и развитию, и мир невежественных и отсталых, цепляющихся за устаревшие традиции и не желающих перемен. Этот конфликт разворачивается на фоне трагических событий, в которых от невежества страдают не только отдельные личности, но и вся нация в целом. Бехбуди показывает, как невежество порождает жестокость, насилие и, в конечном итоге, приводит к разрушению семьи и общества.

Джадидизм, идеология, которой придерживался Бехбуди, был направлен на модернизацию мусульманского общества через просвещение и реформы. Джадиды выступали за открытие новых школ, преподавание современных наук, развитие национальной культуры и литературы. Они считали, что только образованное общество способно противостоять внешним вызовам и построить достойное будущее. «Падаркуш» стал одним из важнейших произведений джадидской литературы, выразившим основные идеи и ценности этого движения. Спектакль получил широкое распространение и вызвал живой отклик в обществе, став мощным инструментом пропаганды просвещения и

прогресса. Он обличал косность и невежество, призывая к переменам и новому мышлению.

Важно отметить, что трагедия, разворачивающаяся на сцене, не ограничивается только конкретными событиями, изображенными в пьесе. Она имеет глубокий символический смысл, отражая общую ситуацию в Туркестане того времени. Бехбуди показывает, что невежество – это не просто отсутствие знаний, а гораздо более опасное явление, которое разъедает общество изнутри, лишает его силы и воли к сопротивлению. Именно поэтому пьеса воспринималась как призыв к действию, как предупреждение о надвигающейся катастрофе. «Падаркуш» остается актуальным произведением и сегодня, напоминая нам о важности образования, критического мышления и стремления к прогрессу. Пьеса призывает нас не повторять ошибок прошлого и строить будущее на основе знаний и разума. Она учит, что только образованное и просвещенное общество способно преодолеть любые трудности и создать достойную жизнь для будущих поколений.

«Туркестаном должен управлять Парламент» данную мысль Махмудходжа Бехбуди подробно рассмотрел в одном из статей, и эта идея являлась одной из революционных идей того времени[1].

В Туркестане джадидизм выполнял роль идеологии национально-освободительного движения. Основные идеи и цели джадидизма заключались в следующем [1]:

- освобождение Туркестана от средневековой, феодальной отсталости и предрассудков, отрицание отжившего, олицетворявшего «усули кадим» – сторонников неизменности порядков в крае;
- выход на прогрессивный путь развития;
- создание национального государства;
- создание свободного общества на основе конституционного правления;
- придание тюркским языкам статуса государственного языка;
- создание национальной валюты и гвардии.

Таким образом, идеи Махмудходжи Бехбуди и джадидское движение в целом были направлены на кардинальную модернизацию Туркестана и создание на его основе прогрессивного, национального государства с конституционным управлением.

Литература:

1. Абдирашидов Зайнабидин. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние / З. Абдирашидов. – Т.: Akademnashr, 2011. – 384 с.

2.https://ru.wikipedia.org › wiki › Бехбуди,_Махмуд_Ходжа

3. Махмудхужа Бехбудий, "Туркистон тарихи" керак // Махмудхужа Бехбудий, Танланган асарлар. Тузатилган ва тулдирилган 2-нашри. Тошкент: Маънавият, 1999,с.178.

ВОПЛОЩЕНИЕ ИДЕИ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ В СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ

Кувандиков Шокир Облокудлович
Независимый исследователь
Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова

Аннотация: *В статье анализируется педагогическое наследие узбекского просветителя и реформатора Махмудходжи Бехбуди, оказавшего значительное влияние на становление новой системы образования в начале XX века. Рассматриваются его идеи в контексте современного образовательного процесса, включая вопросы интеграции национальных ценностей, культуры и инновационных технологий. Подчеркивается актуальность его подходов в современных условиях модернизации системы образования Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *Бехбуди, джадидизм, образование, методика, инновации, культура, цифровизация, педагогика.*

Махмудходжа Бехбуди (1875–1919гг.) – один из наиболее выдающихся представителей джадидизма, мыслитель, писатель и педагог, сыгравший важную роль в формировании новой модели образования в Туркестане. Его педагогическая философия основывалась на убеждении, что будущее народа зависит от уровня просвещения, культуры и воспитания молодежи.

Научно-духовное наследие просветительских джадидских проявлений в нашей стране, в частности, философско-просветительское наследие Махмудходжи Бехбуди, открыло широкие возможности для повторного научного исследования как историко-духовного источника необходимости воспитания молодежи как просвещенного человека путем изменения и пропаганды. «Мы должны еще глубже изучить нашу древнюю и богатую историю, особенно деятельность наших предков-джадидов, которые в сложных условиях мужественно продвигали идеи просвещения, свободы человека, народа, любви и преданности родине, национальным ценностям. Их мужественная борьба и самоотверженность на пути к великим целям должны послужить, прежде всего, настоящей школой для молодежи в строительстве Нового Узбекистана» (Ш.М.Мирзиёев). В этом смысле актуальным остается вопрос научного исследования механизмов внедрения в сознание молодежи национально-духовных взглядов одного из наших просветителей Махмудходжи Бехбуди, боровшегося за развитие науки и просвещения, свободу человека и народа.

Изучая процессы, происходящие в природе и обществе, человек пытается оценить их со светской и религиозной точек зрения. В этой связи Махмудходжа Бехбуди считал важным культивировать светское и религиозное мышление всего населения и интеллигенции, вредным противопоставлять их друг другу, при этом светское просветительство должно было быть научно-практического характера технико-технологическим, химическим, географическим,

математическим и т. д.; а религиозное просвещение, вооружив население знаниями о нравственности религии и ее полезных свойствах, своими мыслями, предложениями и рекомендациями по воспитанию подрастающего поколения в полноценного зрелого человека, естественно, поражает людей своей сегодняшней жизнеспособностью

Махмудходжа Бехбуди считал, что традиционная система медресе не отвечает требованиям времени. Он выступал за реформу образования, предлагая включить в учебные программы светские дисциплины – историю, географию, математику, естествознание, а также преподавание на родном языке. В основу своих школ он закладывал принцип активности ученика и рациональной организации учебного процесса. Это стало началом «новометодного обучения» (усули жадид), ставшего основой для будущего развития педагогики в регионе.

Современные методики обучения во многом воплощают идеи, близкие к взглядам Махмудходжи Бехбуди. Например, концепция «активного обучения» и «обучения через деятельность» перекликаются с его подходом, где ученик рассматривается как активный участник образовательного процесса. Современная школа, так же как и Бехбуди, стремится формировать личность, способную мыслить критически, творчески подходить к решению задач, быть социально ответственной.

Одним из центральных элементов педагогических идей Махмудходжи Бехбуди была идея культурной идентичности. Он полагал, что образование должно не только вооружать знаниями, но и воспитывать уважение к родной культуре, языку, истории. В современных условиях этот принцип отражается в концепции культурно-ориентированного образования, когда образовательный процесс строится с учетом национальных ценностей, традиций и языка. Это позволяет сохранять духовное наследие народа и одновременно интегрироваться в глобальное образовательное пространство.

Еще одной важной идеей Махмудходжи Бехбуди является равенство в образовании. Он подчеркивал, что обучение должно быть доступно как мужчинам, так и женщинам, что является основополагающим принципом современного инклюзивного образования. В условиях цифровизации особое внимание уделяется равному доступу к образовательным ресурсам, что полностью соответствует гуманистическим идеалам просветителя.

Воплощение идей Махмудходжи Бехбуди в современных методиках обучения может проявляться в различных формах: внедрение интерактивных технологий, использование мультимедийных ресурсов, развитие проектной и исследовательской деятельности, организация уроков с применением методов критического мышления. Такие подходы позволяют сделать обучение не только информативным, но и развивающим, творческим и практически ориентированным.

Следует отметить, что современная педагогика также активно развивает идею интеграции светских и духовно-нравственных аспектов в образовательный, учебный процесс. В этом контексте идеи Махмудходжи

Бехбуди о единстве знания, культуры и морали приобретают новое звучание. Он считал, что образование должно формировать не только ум, но и характер человека, прививать ответственность, трудолюбие и патриотизм.

Реализация этих принципов требует постоянного совершенствования педагогических кадров, повышения их профессиональной компетентности, внедрения инновационных технологий в учебный процесс. Современные образовательные учреждения Узбекистана постепенно внедряют новые методики, отражающие дух реформаторских идей Махмудходжи Бехбуди – от интерактивных уроков до программ дистанционного и смешанного обучения.

Таким образом, педагогическое наследие Махмудходжи Бехбуди продолжает оставаться источником вдохновения для современного образования. Его идеи – это не просто историческое наследие, а живой ориентир в формировании гуманистической, культурно богатой и интеллектуально развитой личности.

Махмудходжа Бехбуди справедливо считается не только реформатором своего времени, но и основоположником педагогической мысли, актуальной и в XXI веке. Внедрение его идей в современные образовательные системы позволяет сочетать традиции и инновации, обеспечивая устойчивое развитие образования и воспитания будущих поколений.

В Новом Узбекистане используется просветительско-философское наследие Махмудходжи Бехбуди и других мыслителей. В соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об образовании» и статистическими показателями (оценка, аттестат или диплом) основной задачей является воспитание поколения, которое самостоятельно мыслит, привержено национальной идеологии, овладевает специальностями, отвечающими потребностям нашего общества. Коренные изменения реализуются в общем среднем и среднем специальном, профессиональном образовании и высших учебных заведениях. С другой стороны, одной из главных задач было формирование активной самозанятой группы молодежи в условиях рыночных отношений.

Список литературы:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022, https://president.uz/uz/lists/view/5774.
2. Абдурахмонова Д., Хакимова Н. Педагогические взгляды Махмудходжи Бехбуди и их значение для современного образования. – scientific-jl.com, 2022.
3. Сафарова А. Идеи Махмудходжи Бехбуди, отражённые в его рукописи «Проекта культурной автономии Туркестана». – web-journal.ru, 2023.
4. Сафарова А. Нововведения джадидов в системе образования. – web-journal.ru, 2022.
5. Каримов Н., Хасанов С., Назаров С., Каримов Б. Танланган асарлар. – Тошкент: Академия, 2018.
6. Журнал «Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi». – Ташкент, 2024.

BEHBUDIY G‘OYALARINING RAQAMLI TALQINI: AXBOROT SAVODXONLIGI VA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA DASTURIY TA’MINOT IMKONIYATLARI

Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich,
Navoiy viloyati PMM “Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. *Ushbu maqola jadidchilik harakatining yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy va taraqqiyparvar g‘oyalarini XXI asrning muhim chaqiriqlari – axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlashni shakllantirish kontekstida tahlil qiladi. Maqolada Behbudiyning ilm, matbuot va dunyoviy bilimlarni targ‘ib qilishga oid chaqiriqlari raqamli davrda dezinformatsiya va axborot shovqiniga qarshi kurashish uchun mustahkam poydevor ekanligi asoslanadi. Shuningdek, Behbudiy merosini yoshlar ongiga singdirish va ularning intellektual salohiyatini oshirishda dasturiy ta’minot (DT) imkoniyatlari (raqamli arxivlar, interfaol simulyatsiyalar, faktcheking vositalari) muhokama qilinadi. Maqola Behbudiy orzu qilgan ma’rifatli jamiyatni qurishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar. *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, raqamli talqin, axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, dasturiy ta’minot (dt), ma’rifat, raqamli meros*.

Аннотация. *Данная статья анализирует просветительские и прогрессивные идеи лидера движения джадидизма, Махмудходжи Бехбудий, в контексте формирования важнейших вызовов XXI века – информационной грамотности и критического мышления. В статье обосновывается, что призывы Бехбудий к науке, печати и светским знаниям являются прочной основой для борьбы с дезинформацией и информационным шумом в цифровую эпоху. Также обсуждаются возможности программного обеспечения (ПО) (цифровые архивы, интерактивные симуляции, инструменты фактчекинга) для внедрения наследия Бехбудий в сознание молодежи и повышения их интеллектуального потенциала. Статья раскрывает пути эффективного использования цифровых технологий в построении просвещенного общества, о котором мечтал Бехбудий.*

Ключевые слова. *Махмудходжа Бехбудий, джадидизм, цифровая интерпретация, Информационная грамотность, Критическое мышление, Программное обеспечение (ПО), Просвещение (Маърифат), Цифровое наследие.*

Abstract. *This article analyzes the enlightening and progressive ideas of Mahmudxo‘ja Behbudiy, a leader of the Jadidism movement, in the context of forming the crucial skills of the 21st century: information literacy and critical thinking. The article argues that Behbudiy's calls for science, press, and secular knowledge serve as a solid foundation for combating disinformation and information overload in the digital age. Furthermore, it discusses the potential of Software (SW) (digital archives, interactive simulations, fact-checking tools) to integrate Behbudiy’s legacy into the minds of youth and enhance their intellectual capacity. The article outlines ways to effectively utilize digital technologies in building the enlightened society Behbudiy envisioned.*

Keywords. *Mahmudxo‘ja Behbudiy, Jadidism, Digital Interpretation, Information Literacy, Critical Thinking, Software (SW), Enlightenment (Ma’rifat), Digital Heritage.*

Kirish. Jadidchilik harakatining otashqalb yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) o‘zining taraqqiyparvar g‘oyalari bilan Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotida tub burilish yasadi. Uning maorif, matbuot va dunyoviy bilimlarni targ‘ib qilishdagi fidokorona faoliyati chorizm mustamlakasi sharoitida qoloqlikka qarshi kurashishning yorqin namunasi edi. Behbudiyning "eng katta dushman – bu johillik" degan g‘oyasi bugungi kunda ham, axborot texnologiyalari hukmronlik qilayotgan raqamli asrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Bugun biz nafaqat Behbudiyning eski g‘oyalarini o‘rganishimiz, balki ularni zamonaviy chaqiriqlar – dezinformatsiya, yolg‘on xabarlar (fake news) va axborot shovqini bilan kurashish vositalariga aylantirishimiz lozim. Behbudiy targ‘ib qilgan o‘qish, tahlil qilish va tanqidiy yondashish g‘oyalari hozirgi jamiyat uchun axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada biz Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy g‘oyalarini raqamli talqin etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Asosiy maqsadimiz – uning merosini yoshlarning axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturiy ta’minot (DT) yechimlari orqali qanday qilib hayotga tatbiq etish mumkinligini tahlil qilishdan iborat.

Jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) o‘zining taraqqiyparvar g‘oyalari bilan O‘rta Osiyo jamiyatining ma’rifiy va ijtimoiy hayotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Uning ta’lim, fan, matbuot va dunyoviy bilimga bo‘lgan chaqiriqlari bugungi raqamli asrda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Behbudiyning g‘oyalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar – axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan bog‘lashda dasturiy ta’minot (DT) beqiyos imkoniyatlarga ega.

Behbudiy merosining asosiy g‘oyalari va zamonaviy talqini

Behbudiy faoliyatining markazida turgan g‘oyalar bugungi axborot makonida faol fuqaroni tarbiyalash uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi:

1. **"Qiroat va kutubxona" chaqirig‘i:** Behbudiy o‘qish va kitobxonlikni targ‘ib qilgan, gazeta va jurnallarning rolini oshirgan. Raqamli davrda bu **raqamli matnlar, onlayn resurslar va media savodxonligi**ni o‘z ichiga oladi. Dasturiy

ta’minot foydalanuvchini ishonchli manbalarni noishonchli (yolg‘on, dezinformatsiya) manbalardan ajrata olishga o‘rgatishi kerak.

2. **Jaholatga qarshi kurash:** Behbudiy johillik va qoloqlikka qarshi kurashgan. Hozirda bu **tanqidiy fikrlash**ni rivojlantirishni talab etadi, ya’ni foydalanuvchi internetdagi har qanday ma’lumotni shubha ostiga olib, uning asosliligini tekshirishi lozim.

3. **Dunyoqarashning kengayishi (geografiya, tarix, fan):** U o‘zbek yoshlarini dunyoviy bilimlarni egallashga chorlagan. Dasturiy ta’minot turli madaniyatlar, ilmiy yutuqlar va tarixiy voqealarni **interfaol** tarzda taqdim etishi mumkin.

Axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda DT imkoniyatlari

Behbudiyning yuqoridagi g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etishda zamonaviy dasturiy yechimlar quyidagi mexanizmlarni taklif qiladi:

1. Raqamli meros platformalari (Digital Heritage Platforms)

- **DT yechimi:** Behbudiy asarlari, u asos solgan gazeta va jurnallar ("Oyna")ning raqamli arxivlari.
- **Samarasi:** Bu platformalar foydalanuvchilarga asl manbalarni o‘rganish, zamonaviy axborot xulosalarini tarixiy kontekst bilan solishtirish imkonini beradi. Bu **manbalarni baholash** va **tanqidiy tahlil** qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

2. Interfaol simulyatsiya va senariy asosidagi o‘yinlar (Scenario-based Games)

- **DT yechimi:** Behbudiy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy muammolarini aks ettiruvchi ta’limiy o‘yinlar. Masalan, "Qaysi xabarga ishonish kerak?" kabi **"Fake News" simulyatsiyalari**.
- **Samarasi:** O‘yinlar foydalanuvchini ma’lumotni turli nuqtai nazardan ko‘rishga, uning oqibatlarini baholashga majbur qiladi. Bu **tanqidiy fikrlash**ni amaliy mashq qilish uchun eng samarali usullardan hisoblanadi.

3. Manba baholash vositalari (Source Evaluation Tools)

- **DT yechimi:** Behbudiyning g‘oyalariga asoslanib, axborotni tekshirish (faktcheking) bo‘yicha o‘zbek tilida ishlaydigan brauzer kengaytmalari yoki mobil ilovalar. Ular yangilik manbasining **obro‘si, egasi va maqsadini** aniqlashga yordam beradi.
- **Samarasi:** Foydalanuvchi har bir o‘qigan ma’lumotiga nisbatan ongli yondashishni o‘rganadi va **axborot savodxonligi darajasi**ni oshiradi.

4. Munozara va bahs-munozara platformalari (Discussion Forums)

- **DT yechimi:** Behbudiyning dolzarb ma’rifiy g‘oyalari asosida qurilgan onlayn forumlar va bahs xonalari.
- **Samarasi:** Bu foydalanuvchilarga turli fikrlarni eshitish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va boshqalarning dalillarini **tanqidiy tahlil qilish**ni o‘rgatadi.

Xulosa

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifat, ilm-fan va kitobxonlikka doir g‘oyalarini XXI asrning eng muhim ko‘nikmalari – **axborot savodxonligi** va **tanqidiy fikrlash**ni shakllantirish uchun mustahkam asos sifatida ko‘rish mumkin. Dasturiy

ta’minotni behbudiyona g‘oyalar ruhida ishlab chiqish (raqamli arxivlar, simulyatsion o‘yinlar, faktcheking vositalari) yoshlarni nafaqat tarixiy meros bilan tanishtiradi, balki ularni **raqamli dunyoning ongli va faol fuqarosi** sifatida voyaga yetkazishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida Behbudiy orzu qilgan ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lidagi zamonaviy qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish qahramonlari. Toshkent: "Ma’naviyat" nashriyoti. 448 bet. -*2002 y*.
2. Aliyev, A. Jadidchilik: Milliy o‘zlikni anglash. Toshkent: "Sharq" nashriyoti. 288 bet. -*2006 y*.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Jadidlar: Ma’rifat va mustaqillik yo‘lida. Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti. 504 bet. -*2020 y*.
4. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma’naviyat" nashriyoti. 176 bet. -*2008 y*.
5. Jumaev, R. Axborot xavfsizligi va axborot savodxonligi asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 240 bet. -*2018 y*.
6. Sultonov, A. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ta’lim muammolari. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti. 320 bet. -*1996 y*.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING AXLOQIY QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI

Oripov Jamshid Yaxshiboyevich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi, katta o‘qituvchisi
Xusanov G‘olib Elmurodovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi, o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muallif Mahmudxo‘ja Behbudiyning xalqimizning taraqqiyoti, ilmiy-ma’rifiy yuksalishidagi xizmatlari, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy hamda axloqiy fikrlarining o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi qarashlarini nazariy asosda yoritib bergan.*

Kalit so‘zlar. *Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, darammaturg, teatir, noshir, journalist, maorif.*

Bugungi kunda mamlkatimizda ma’rifatparvar jadidlarning ma’naviy merosini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish va ularning qarashlarini o‘rganish hamda bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish masalasida tadqiqotchilarda qiziqishning kuchayib borayotganligi dolzarb ahamiyat kasb emoqda. Turkistonda XX asr boshida ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida vujudga kelgan jadidchilik harakati xalqning taraqqiyoti, ravnaqi va rivojining yagona yo‘li, asosiy omili ma’rifat ekanligini tushunib, bu yo‘ldagi kurashda mutlaqo yangicha fikrlar, g‘oyalar va tamoyillarni

ilgari surganligi jadidlarning o‘z davri ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tafakkuridan ancha ilgarilab ketganligidan dalolat beradi.

Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy va boshqa jadidchilik harakati namoyondalarining hayot yo‘li hamda ularning faoliyatini tadqiq qilish Yangi O‘zbekistonni yanada taraqqiy ettirish, xalqimizning ma’naviy-axloqiy tafakkurini yuksaltirishda ijobiy ahamiyat kasb etadi. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri, xalqimizning jonkuyar farzandi Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, u tariximizda ma’rifatparvar, jadidchilik maktabining yirik namoyondasi, dramaturg sifatida o‘chmas iz qoldirgan.

Turkistonda jadidchilikning yirik vakili Mahmudxo‘ja Behbudiy: “ yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi: yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi darammaturg, teatirchi, noshir, jurnalist”[1:73-b]. Bundan ko‘rinib turubdiki Mahmudxo‘ja Behbudiy zamonasining serqirra ijodkor shaxsi sifatida gavdalanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy: “ma’rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo‘lib qolmay, balki o‘lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko‘rsatdi”[2]. Bundan ko‘rinib turibdiki Behbudiy ta’lim-tarbiya, maorif sohasini isloh qilish borasida faqatgina nazariy fikrlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyatga joriy etish masalasiga ham alohida e’tibor qaratgan. Masalan, Samarqand yaqinidagi Rajabamin, Halvoyi qishloqlarida maktablar ochganligi hamda ushbu maktablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yozganligi yuqoridagi fikrimizning dalili bo‘la oladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari balki ma’rifat, maorif, ta’lim, tarbiya sohasida ilgari surgan fikrlarining axloqiy mohiyati bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Mahmudxo‘ja Behbudiyning: “o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”[3],− degan fikri bilan otalarning farzandlarini ilm-ma’rifatli bo‘lishi, ta’lim olishiga e’tibor bilan qarab ular uchun shart-sharoitlarni yaratib berishlari eng asosiy axloqiy masala sifatida qaraganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuni ham alohida ta’kidlash lozmki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu fikri bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlodga diniy yoki dunyoviy ta’limga yoshlarning axloqiy kamolati, shaxs sifaida shakllanishi va ijtimoiy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lishining muhim omil sifatida qaraydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millatning dunyoda boqiy turmog‘i hamda uning taraqqiy etishida ilm-ma’rifat, kasb-hunar va axloqni eng muhim omillardan deb qaraydi va bu haqda: “… musulmonlik ilm va odob bilan qoim, millat axloq, fazl va hunar bilan boqiy qoladi” [4], − deb yozadi. Agar Mahmudxo‘ja Behbudiyning asarlari, maqolalari umuman olganda uning ma’naviy merosiga e’tibor qaratsak millatimizning tafakkurini yangilash, ularni ma’rifatli qilish hamda milliy ongini uyg‘otishga xizmat qiluvchi omillari bilan bir qatorda ularga to‘siq bo‘ladigan illatlarni ochib beruvchi tanqidiy ruhdagi hamda bunday illatlardan qutilish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi masalalar qamrab olganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning axloqiy masalalarni hal qilish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini teran anglab yetganligi hamda axloqiy masalalarni hal qilishda ilmu-ma’rifat hal qiluvchi vosita sifatida qarar ekan, o‘z navbatida yoshlarning ilmu-ma’rifatli bo‘lishida axloqni muhim omil deb bilib ilmu-ma’rifat hamda axloqni bir-birini doimo taqoza qiladigan va bir birini doimiy to‘ldirib, takomillashtirib boruvchi jarayon sifatida qaraydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining bunday qarashlarini “Padarkush” dramasida ilmsizlik va axloqiy tarbiyaning yo‘qligi darammada yoritilgan fojianing sababchisi sifatida ochib berilganligidan ham anglab yetishimiz mumkin. Bu esa uning o‘z zamonasining teran fikr, chuqur bilimga ega shaxslaridan biri sifatida gavdalantiradi. Yana shuni alohida ta’kidlashimiz ham kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ushbu drammasida ilm-ma’rifatning jamiyat, inson hayotida tutgan o‘rnini ijobiy baholar ekan, o‘z navbatida ilmsizlik insonni jaholat, nodonlik, buzuqlikka olib kelishi mumkinligi borasidagi fikrlarini ochiq-oydin yoritib berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining axloqiy qarashlarida zo‘rovonlikni inkor etadi. U zo‘ravonlikni g‘ayriaxloqiy xatti-harakat, deb qaraydi. Shu sababdan ham davlat, jamiyatning yuksalishi va ularning taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan salbiy tushuncha, deb biladi. Shu sababdan ham davlat va jamiyatni yuksalishi, xalqni ongu-tafakkur hamda ularni axloqiy tafakkurini shakllantirishda ta’lim, maorif, teatr va matbuot vositalaridan keng foydalanishga e’tibor qaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Behbudiyning merosini o‘rganish va yosh avlodga o‘rgatish orqali ularni vatanparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘ziligini anglash, millat taqdiri uchun daxldorlik hissini axloqiy me’yorlar asosida tarbiyalashda muhim omil, asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, deb to‘liq ishonch bilan ayta olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. - Т., “Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2010.

2. https://cyberlenika.ru/article/n/turkiston-jadidchilik-namoyondasi-mahmudxo-ja-behbudiy.

3. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent: Yozuvchi. 1994.

4. Беҳбудий М. Миллатлар қандай тараққий этарлар? // Самарқанд. 1913, 30 июл.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM-TARBIYA SOHASIDAGI G‘OYALARI VA ULARNING BUGUNGI TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

Egamova Madina Qobil qizi
Samarqand pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasining II bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim –tarbiya sohasidagi g‘oyalari va ularning bugungi ta’lim tizimidagi o‘rni yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, soha, g‘oya, tizim, zamonaviy, metodika.*

Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy qoldirgan meros bugungi avlod uchun bebahodir. Zamondoshlaridan biri bu zotni “Turon-Turkiston quyoshi” deb ta’riflagan edi. Bu quyosh bugunning zulmatini ham yoritib turibdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi, “Turkiston jadidlarining otasi” nomiga sazovor bo‘lgan buyuk shaxs, xalqimiz uchun ahamiyatli bo‘lgan ko‘plab asarlar va maqolalar muallifi. Uning qalamiga “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ulatfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar mansub.

Mahmudxo‘ja Behbudiy shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edi. U faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy amali bilan ham millatni uyg‘otishga ahd qilgandi. Behbudiy o‘z zamonining kamchilik va nuqsonlarini ko‘rib, uni keltirib chiqargan sabablarini anglagan. Unga yechimlar topishga harakat qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi 1911-yilda yozilgan bo‘lib, oradan ikki yil o‘tgach, ya’ni 1913-yilda kitob holida nashr qilinadi. Behbudiy o‘zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib dramatik asar yozdi va u Turkistonning barcha shaharlarida namoyish etildi. Bu bilan Behbudiy o‘zbek teatrining tamal toshini qo‘ydi. Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma’rifat ulug‘lanadi. Muallif «o‘qimagan bolaning holi»ni, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar ta’lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini «Padarkush» dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o‘z g‘oyasini: «Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...», degan yo‘sinda bayon qiladi. Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma`rifat ulug‘lanadi. Muallif o‘qimagan bolaning holini, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib qo‘yadi. “Padarkush asari XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotining eng dolzarb muammolari mavzuida yozilgan bo‘lib, u jadidchilik mafkurasining dasturi sifatida ma`rifatparvarlikning tub siyosiy va ijtimoiy maqsadini ifodalagan. Muallif bu Pyesada jadidlarning Turkistondagi ijtimoiy tuzum, mustamlaka zulmiga bo‘lgan munosabatlarini boy va uning o‘qimagan o‘g‘li misolida tasvirlaydi. Chindan ham, Mahmudxo‘ja Behbudiyning Padarkush dramasida ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-ma’rifiy g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Asarda boyning boylik turganda ilm-ma’rifatning keragi yo‘q qabilida ish tutib, o‘g‘li Toshmurodni takasaltang, noshud qilib o‘stirganligi haqida so‘z boradi. Boy ilmning afzalligi haqida gapirgan domla va taraqqiyparvar ziyolini jerkib tashlaydi. Pyesaning yakunida o‘g‘ili sheriklari bilan o‘z otasini tunash uchun kelib, uning o‘limiga sabab boladi. Asar u qadar katta emas, syujeti ham sodda, biroq muallif unga teran ma`noni singdira olgan: ma`rifatdan, ilmdan yiroq boylar, ularning savodsiz jamiyatining yakuni shundaydir. Behbudiy millat bolalarining ilmsiz bolib o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik kerakligi, ularning ilmga intilishlarini qo‘llab-quvvatlash haqida jon kuydiradi. U dunyoviy ilmlarni diniy

bilimlar bilan bir qatorda ko‘rishni ham qarz, ham farz deb biladi. Pyesa ommaga shu qadar ta`sir qildiki, keyinchalik ko‘pchilik boylar ilm yo‘lida usuli jadid maktablarini ochishga mablag‘larini ham ayamadilar. Bu asar bir maktab, ibrat vazifasini o‘tadi: xalqni ozodlikka chaqirdi. Behbudiy kuyinib bunday deb yozgan edi: ...oynay turgon odam yo‘q, abaski, Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Va bekor odam yo‘qki, teatr sahnasiga chiqib, masxarabozlik qilsa. (Chunki Turkistonda teatrni masxarabozlikdan ayirmadilar), qachonki masxarabozlik (artistlik) xizmatini zimmasiga oluvchi o‘n kishi topilsa o‘ynalur. Asar muallifi Mahmudxoja Behbudiy va spektakl ijodkorlari o‘sha davrning bir qator katta muammolarini ko‘tarib chiqqanlar. Haqiqatdan ham, jadidlar yuqorida ko‘rsatib o‘tilganligi va musulmon mutaassibligi kuchli bo‘lishiga qaramay, jamiyatda tub madaniy taraqqiy burilish yasashga muvaffaq bo‘ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o‘zgardi, millat ijtimoiy g‘aflat uyqusidan uyg‘onib, siyosiy va ma’rifiylashdi. Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr, maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma’rifiy uyushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo‘ldi. Padarkush asari hozirgi kunda ham nafaqat yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi va ma’naviy kamolotiga, balki kattalarning dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsata oladigan drama sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Targ‘ibot-tashviqot ishlarida, turli tadbirlarda ushbu asar bilan bog‘liq muhokamalar va munozaralar o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, o‘qimagan bolaning holi, kelajakda qanday bo‘lishi Padarkushda to‘la namoyon bo‘lgan. U ayni chog‘da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim-tarbiyani milliy uyg‘onishning asosiy vositasi deb bilgan, bolalar uchun yangi usul maktablarini tashkil etib, ularda zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalanishni yoqlagan va ta’limning umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi, o‘quv dasturlariga milliy va madaniy boyliklarni kiritish zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, ta’lim nafaqat bilim berishi, balki shaxsni kamol toptirishi, o‘zlikni anglashga chorlashi va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishi kerak. Ta’lim-tarbiyani joriy qilish orqali xalqning ma’naviy yuksalishiga erishish mumkin deb hisoblagan, an’anaviy maktablarga qarshi chiqib, o‘quvchilarga zamonaviy bilim beruvchi va ularning fikrlashini kengaytiruvchi yangi usul maktablarining tarafdori bo‘lgan, o‘qitishda zamonaviy va samarali metodlardan foydalanishni, darslarni qiziqarli va interfaol qilishni yoqlagan, bolalarni o‘z milliy qadriyatlari, madaniyati, tilini o‘rganishga undagan, shuningdek, ularni o‘zbek xalqining boy merosidan bahramand qilish zarurligini ta’kidlagan, ta’lim shaxsning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qilmog‘i lozim – deb ta’kidlagan. Bundan tashqari Behbudiy ta’lim-tarbiya jarayoni zamon talablariga mos bo‘lishi, bolalarni kelajak hayotga tayyorlashi kerakligini, o‘quv dasturlari doimo yangilab turilishi lozimligini qayd etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy g‘oyasining yana bir targ‘ibot quroli, bu – adabiyot edi. Jadidlar Navoiy, Fuzuliy, Sa’diy singari buyuk zotlar hayoti va ijodini chuqur bilishgani sababli adabiyotni xalqqa yaqinlashtirishga, uning tilida yozishga intildilar va bu ishni uddaladilar. Prezidentimiz XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta’lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan barcha jadidlarga, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyga ehtirom bildirib,

yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatish hamda ma’naviy merosini chuqur o‘rganish bo‘yicha adolatli ishlar qilmoqda. Chunonchi, 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida milliy yetakchimiz **“...2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”,** deya ta’kidlagani buyuk allomaning millatimiz va davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlari e’tirofidir, albatta. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining eng ilg‘or ma’rifatparvarlaridan biri sifatida, ta’lim va tarbiyani xalqning taraqqiyoti va najoti uchun eng asosiy vosita deb bildi. U ilmli, ongli va axloqli avlodni voyaga yetkazish orqali jamiyatni zulmatdan nur sari olib chiqishni maqsad qilgan. Behbudiy diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘un holda berishni, maktablarni isloh qilishni, ona tilida ta’lim olishni, ayollar savodxonligini oshirishni targ‘ib qildi. Uning fikricha, **ilm – najot, tarbiya – najot kaliti**, degan yondashuv har qanday davr uchun dolzarbdir. Tarbiyaga kelganda, Behbudiy komil insonni shakllantirishda axloqiy tarbiyaning ahamiyatini uqtirgan. U yoshlarni halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolat kabi ezgu fazilatlarga da’vat qilgan. Shu bilan birga, ayollarni ham savodli bo‘lishga undagan – chunki savodli ona farzandga to‘g‘ri tarbiya bera oladi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy bizga o‘z hayoti va faoliyati bilan buyuk saboq qoldirgan. U ilm va tarbiyani milliy taraqqiyotning poydevori deb bildi. Uning bu boradagi fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yangi avlod tarbiyasida bebaho manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Biz yoshlar esa, Behbudiy izidan borib, ilmli va komil inson bo‘lishga harakat qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil
2. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b
3. Ishoqxon Ibrat nomli jamoa xo‘jaligi madaniyat ishlari bo‘yicha rais muovini B.Nizomov bilan K.Vohidova tomonidan o‘tkazilgan suhbat materiallari. 1994. 4. Hamroyeva, X. (2022)
4. Akram, X. (2022). Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodida vatan tushunchasining millat tili va tarixi bilan bog‘liq badiiy konseptlari.
5. Mavlonova, R. A., Normurodova, B., & Rahmonqulova, N. (2010). Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.:" Tib-kitob.
6. https://fayllar.org/z-m-bobur-nomidagi-andijon-davlat-universitetiv4.html

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM-TARBIYA SOHASIDAGI ISLOHOTCHILIK G‘OYALARI HAQIDA

Z.Tursunbayeva

SamDPI magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi o‘zbek ma’rifatparvarlarining yirik namoyondalaridan biri jadid yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim-tarbiya borasidagi islohotchilik g‘oyalari tahlil etiladi. Jadidchilik harakati doirasida amalga oshirilgan ilmiy va ta’limiy islohotlari, yangi usul maktablarining faoliyati, o‘qituvchilar tayyorlash, yosh avlodga murojaat qilib yozgan maqolalari, darsliklar yaratish tajribalari, matbuot va boshqa mavzularga oid qarashlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, Behbudiy qarashlarining bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi davomiyligi qiyosiy misollar asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ma’rifat, yangi usul maktabi, islohot, zamonaviy ta’lim, ma’naviyat.*

Kirish. XX asr boshlarida dunyoning turli burchaklarida milliy uyg‘onish harakatlari jadallashgan bir davrda Turkiston hududlarida ham til, ta’lim masalalari dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, XX asrning dastlabki yillarida ta’limga bo‘lgan e’tibor masalasi kundalik hayotiy hodisa emas, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Xususan, milliy uyg‘onish davri bo‘lib tarixga kirgan XX asrning birinchi choragida ma’rifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruhni uyg‘otishda, milliy ongni o‘stirishda ta’limga g‘oyat katta ahamiyat berdilar. Negaki, ular millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho javohir ona tili va milliy ta’lim tizimi ekanligini anglaganlar, shuning uchun o‘z maktablarini ochib uning rivoji uchun barcha choralarni ishga solib, o‘zbek milliy ta’lim tizimining qonun-qoidalarini ishlab chiqishga kirishganlar. Maktablarda xalq jonli tilining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘zbek adabiy tili me’yorlarini belgilash 20-30-yillar uchun eng dolzarb vazifa edi. Jadid ziyolilarning bu boradagi xizmatlari, alifbo va ta’limdagi islohotlari mustaqillik davrida ham tarixiy meros sifatida yuqori baholanadi. Zero Muhtarama Saida Mirziyoyeva aytganidek, “…Turkistonlik jadidlar o‘z ma’rifatchilik g‘oyalarini faqat yangi usul maktablari orqaligina amalga oshirish mumkinligini anglagan edilar. Ular yangi usul maktablari uchun ta’lim dasturi ishlab chiqish, darsliklar nashr qilish, uni mavjud maktablarga joriy qilishga kirishganlar”[69]. Darhaqiqat, o‘zbek adabiy tilini shakllanishida uni har tomonlama himoya qilish va mavqeini oshirishda jadidlarning xizmatlari beqiyosdir. Ana shunday jadid namoyondalaridan biri bu Samarqandlik ma’rifatparvar olim Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) – O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, milliy uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri va ma’rifatparvarlaridan biridir. Uning hayoti va ijodi Turkiston xalqlarining madaniy va ma’naviy yuksalishida muhim o‘rin tutadi. Behbudiy o‘z faoliyatida xalqni jaholatdan, qoloqlikdan chiqarishning yagona yo‘li sifatida ta’lim va tarbiya islohoti

[69] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisi Saida Mirziyoyevaning 2024-yil 11-dekabr – Toshkentda jadidlar faoliyatiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan konferensiyada so‘zlagan nutqidan. https://kun.uz/news/2023/12/11/saida-mirziyoyeva-alifbo-masalasiga-qatiy-nuqta-qoyishimiz-zarur

ekanligini ilgari surgan. Uning “Dunyo taraqqiyoti ilmda”, “Millatni saqlaydigan narsa – ilm va axloqdir” degan fikrlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Behbudiyning eng buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u Turkiston xalqini savodli qilish orqali taraqqiyotga erishish mumkin ekanligini tushunib yetdi va millatni savodli qilish uchun bir qancha islohatlarni amalga oshirdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi tarkibida bo‘lib, xalqning savodsizlik darajasi yuqori edi. Maktablar ko‘p hollarda faqat diniy ta’limga yo‘naltirilgan bo‘lib, arabcha matnlarni yod olishdan iborat edi. Behbudiy bu holatni tanqid qilib, 1904-yilda *“Maktab qanday bo‘lmog‘i kerak?”* nomli maqolasida shunday yozadi: *“Farzandlarimizni yod olish bilan emas, fikrlash bilan o‘qitmog‘imiz lozim. Maktab – fikr tarbiyasi joyidir.”* Bu so‘zlar o‘sha davr uchun inqilobiy fikr bo‘lib, zamonaviy pedagogika tamoyillariga yaqinlashgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903-yilda Samarqandda ilk “yangi usul maktabi”ni tashkil etdi. Bu maktablarda savod o‘rgatishning fonetik usuli, matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlar o‘qitilgan, bosma darsliklardan foydalanilgan va sinf tizimi joriy etilgan. 1913-yilda yozilgan “Risolai jadida” nomli o‘quv qo‘llanmasi Samarqand, Buxoro va Toshkentdagi maktablarda keng qo‘llanilgan. Bu kitob bolalarning yosh xususiyatlariga mos, amaliy bilim beruvchi darslik bo‘lgan. Behbudiyning islohotchilik faoliyati natijasida 1910–1917-yillar orasida Turkiston o‘lkasida 200 dan ortiq yangi usul maktablari ochildi. Bu maktablar orasida Samarqanddagi “Behbudiy maktabi”, Qo‘qondagi “Usuli savtiya maktabi” (Munavvarqori tomonidan) va Andijondagi “Tarbiyayi atfol” maktabi (Avloniy tomonidan) alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, Behbudiy ta’limni tarbiyadan ajratmagan. U “ilmiy bilim” bilan bir qatorda “axloqiy yetuklik”ni ham inson kamolotining asosi deb bilgan. Uning maktablarida halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va odob qadriyatlari asosiy o‘rinda bo‘lgan. Masalan, Behbudiy yozgan “Padarkush” dramasi tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, ota-onaga itoatsizlik, jaholat oqibatida yo‘ldan ozgan yosh obrazlari orqali milliy axloqiy saboq beradi. Bundan tashqari, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida xalqning ilm olish, taraqqiy etish o‘rniga turli marosimlarga berilib ketib, asosiy burchni unutib qo‘yayotganligi qoralanadi. Odamlardan ortda qolmay deb, to‘y va aza kabi marosimlarga haddan tashqari pul sarflab, qarzga botishi, yoinki ota-bobosidan qolgan mulk va yerini sotib faqirlikka duchor bo‘lishi eng ayanchli holatdir. “Bir do‘konchi, bir gilkor, bir faqirhol, bir kosib uchun bu to‘y va ta’ziyalar o‘limdan qattiqdirki, buning uchun bechora har kun o‘lur. Har kun o‘lgan bilanda qutulmas. O‘zidan so‘ng ahlu ayoliga bu yo‘qsillik va bu musibatni meros qo‘yar” – deb yozadi Behbudiy yuqoridagi maqolasida. Ushbu fikrlar hozirda yoshlar uchun ham muhim eslatmadir. Chunki, bugungi kunda ham ko‘plab yoshlar, oilalar jamiyatning bosimi va an’anaviy qarashlar ta’sirida marosimlarga ortiqcha mablag‘ sarflashga majbur bo‘lmoqda. Ba’zi marosimlar insonning shaxsiy hayotidagi muhim voqelar bo‘lsa-da, ularni ortiqcha isrofgarchilik va dabdabadan holi holda, ma’naviy qadriyatlarni ustuvor qo‘ygan holda o‘tkazish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Shunday ekan biz yoshlar Behbudiy ta’kidlagan ogohlantirishlarga quloq tutib, o‘z hayotimizda oqilona qarorlar qabul qilishimiz, investitsiyani ta’lim, ilm-fanga kiritishimiz zarur.

Behbudiy maqolalari ichida murojaat shaklida yozilganlari ikkita. Birinchi murojaat “Oyna” jurnalining 21-sonida chiqqan bo‘lsa, ikkinchisi 41-sonida chop etilgan. Uning “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat” maqolasida maktab, maorif masalalariga e’tibor qaratiladi. “Behbudiy yashagan yillarda yo rus-tuzem maktablarida ta’lim olganlar yoki ruslar bilan savdo ishlarida ishtirok etganlar, yoxud boshqa biror bahonai sabab bilan rus tilini bilgan yoshlar paydo bo‘la boshlagan edi. Behbudiy umid ko‘zlarini ana shu yoshlarga va ularning boshqa tengdoshlariga qaratib”[70] ushbu maqolasini yozadi. Jadid karvonboshisi haqiqatan ham Turkistonda madaniyat eshigini ochadigan g‘ayratli yoshlarga, ularning yordamiga katta umid bilan qarashi maqolaning mazmun-mohiyatidan anglashilib turadi. Maktab taraqqiyotning boshlanishi, madaniyat va saodatning darvozasi ekanligini ta'kidlar ekan, har bir millat, eng avvalo, maktab bilimlarini egallamas ekan, taraqqiyot yo‘liga kira olmasligini uqtiradi. Zamonaviy madaniyatdan mahrum bo‘lib, madaniyat, maorif, san'at bilan shug‘ullanmagan millat dunyoda rohat va saodatga erisholmaydi, oyoqlar ostida ezilib, hayot maydonida mag‘lub bo‘lib, bora-bora millati va diyonatini ham qo‘ldan chiqaradi deb hisoblaydi. Behbudiy o‘z fikrlarini isbotlash uchun maqolada qiyosiy usuldan foydalanadi, yer yuzidagi barcha millatlarning bu sohaga e'tiboriga diqqat qaratadi: “Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig‘a va maktablarning har jihatdan intizom va akmolig‘a ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotg‘a molik o‘lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yo‘lda molu jonlarini fido etmoqg‘a hozir turarlar”[71] Ko‘rinadiki, Jadid yo‘lboshchisi o‘z davridagi bu kamchiliklarni birma –bir ko‘rsatib beradi, jaholat (johilonadan iboratdur), ilmsizlik (ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila yashab bo‘lmas), taraqqiyotdan (chirik taassubotimizni asosidan qo‘parub tashlaydur) orqada qolish. Bularga qarshi faqat ma'rifat, maorif bilan kurashish yo‘llarini ham ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimida Behbudiyning g‘oyalari bevosita davom ettirilmoqda. Prezident maktablari, IT va STEAM ta’lim markazlari, yangi avlod o‘quv dasturlari Behbudiy orzularining zamonaviy ifodasidir. Jumladan, Prezident maktablarida ingliz tili, IT, tabiiy fanlar chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitiladi. 2024-yilda joriy etilgan “Yangi avlod o‘quv dasturi” o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu Behbudiy ilgari surgan tamoyillarga mos keladi. Bugungi ta’limda keng qo‘llanilayotgan interfaol metodlar, loyiha asosidagi ta’lim va integratsion yondashuvlar Behbudiy qarashlariga yaqin. Uning maktabida o‘quvchilar tabiatni kuzatish, tajriba o‘tkazish, muhokama orqali bilim olishgan – bu hozirgi STEAM metodikasining ilk ko‘rinishidir. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining buyuk ma’rifatparvari, islohotchi pedagogi sifatida millatni ilm va ma’naviyat orqali

[70] Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent. “O’zbekiston”, 2011. 52 b

[71] Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Ma'naviyat”. 1990. 177

uyg‘otgan. Bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimi uning g‘oyalarining mantiqiy davomidir. Prezident maktablari, yangi avlod darsliklari, tarbiya konsepsiyalari – bular Behbudiy orzularining amaliy ro‘yobidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saida Mirziyoyeva. 2024-yil 11-dekabr – Toshkentda jadidlar faoliyatiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan konferensiyada so‘zlagan nutqidan. https://kun.uz/news/2023/12/11/saida-mirziyoyeva-alifbo-masalasiga-qatiy-nuqta-qoyishimiz-zarur
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori. – 2019-yil 29-aprel.
3. Турсунов Х. Туркистонда жадидлар ҳаракати ва миллий хусусиятлари. – Тошкент: Академия, 2000. – 210 б.
4. J.Eltazarov. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). Samarqand: SamDU 2017, – 120 b.
5. J.Eltazarov, K.Koç, I.Yoqubov. Özbekçe öğreniyoruz. –Istanbul, KESİT Yayınları 2021 – 306 s.
6. Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. II китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2019. – 420 b.
7. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Ma'naviyat”. 1990. –289 b.
8. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2011. –89 b.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM-TARBIYA SOHASIDAGI ISLOHOTCHILIK G‘OYALARI VA ULARNING BUGUNGI TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

Isoyev Mustofa Xodiyevich
Narpay tumani 43- umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asr boshlarida yashab, o‘z umrini millat ma’rifati va yuksalishiga bag‘ishlagan, buyuk ma’rifatchi va jadidchilik harakati yetakchilaridan biri bo‘lgan ning ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotchilik g‘oyalari keng yoritiladi. Uning yangi usul maktablari, o‘quv dasturi, darslik yaratish, o‘qituvchi tayyorlash borasidagi tashabbuslari bugungi mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy ta’lim tizimining bugungi islohotlari Behbudiy merosi nuqtai nazaridan talqin qilinib, zamonaviy ta’lim strategiyasida ushbu g‘oyalarning amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar*: Jadidchilik, islohot, yangi usul maktabi, dunyoviy ta’lim, ma’rifat, milliy uyg‘onish, Behbudiy merosi, zamonaviy ta’lim, innovatsion ta’lim, ma’naviyat.*

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi siyosiy, madaniy va ma’naviy jihatdan og‘ir davrni boshdan kechirayotgan bir paytda millatning ma’naviy uyg‘onishida

jadidchilik harakati tarixiy burilish yasadi. Bu davrda millatni jaholatdan qutqarish, ilm-ma’rifat bilan taraqqiyot sari yo‘naltirish g‘oyasi ilgari surildi, ta’lim-tarbiya sohasida ko‘plab islohotlar tashabbuskori bo‘ldi, zamonaviy ta’lim tizimining shakllanishida beqiyos hissa qo‘shdi. Bu g‘oyalarning eng yirik namoyondalaridan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy edi. U o‘z maqolalarida: “Millatni najotga oib chiqadigan yagona yo‘l – bu ilm va ma`rifat yo‘lidir”, deya takidlagan. edi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi ham keng ko‘lamli islohotlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Demak, Behbudiy g‘oyalari faqat tarixiy meros emas, balki zamonaviy ta’lim strategiyasining poydevoriy tamoyillaridan biridir. Shu sababli, uning qarashlarini chuqur tahlil qilish – hozirgi ta’limni rivojlantirishda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Behbudiy madrasada diniy ta’lim olgan bo‘lsa-da, yoshligidan dunyoviy fanlarga ham qiziqib, zamonaviy ta’limning muhimligini anglagan. O‘z davrida faqat ma’rifatchi emas, balki siyosiy va ijtimoiy yetakchi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Uning eng katta xizmatlaridan biri – eski usul maktablarni yangilash va “usuli jadid” (yangi usul) maktablarini tashkil etish bo‘ldi. Bu maktablarda arab yozuvi asosida ona tili, hisob, geografiya, tarix, tabiiyot fanlari o‘qitildi. Behbudiy ta’limni milliy va dunyoviy g‘oyalar asosida qurish tarafdori edi. U shunday degan edi:

“Millatni najotga olib chiqadigan yagona yo‘l – bu ilm va ma’rifat yo‘lidir” (M. Behbudiy, 1913-yilgi maqolalar to‘plamidan).

Eski maktablarda ko‘proq diniy matnlar o‘qitilib, o‘quvchilar yod olishga asoslangan ta’limga jalb etilgan edi. Behbudiy esa ta’limga tizimlilik, fanlararo bog‘liqlik, amaliy ko‘nikmalarni olib kirdi. U tomonidan tashkil etilgan maktablarda:

- Savod chiqarishning yangi fonetik usuli joriy etildi;
- Geografiya, tarix, tabiiyot, matematika kabi dunyoviy fanlar o‘qitildi;
- O‘qituvchilar maxsus tayyorlangan;
- Darsliklar ishlab chiqilgan.

Uning “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” asari O‘rta Osiyoda geografiya fanini o‘qitishda ilk darsliklardan biri bo‘ldi. Shuningdek, “Kitobi muallim” kabi qo‘llanmalari milliy maktablar uchun tayyorlangan muhim manbalardan edi. Behbudiy shunday yozgan edi: “Ilm va maktabsiz hech bir xalq taraqqiy topmagan”, degan chaqirig‘i bilan u butun bir ma`rifatparvarlik harakatining ruhiy yetakchisiga aylangan.

Behbudiy g‘oyalarining asosiy tamoyillari quyidagicha edi:

1. Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi – ta’lim mazmunida milliy qadriyatlar va dunyoviy fanlarni birlashtirish.
2. Ilm orqali taraqqiyot – millatning siyosiy va iqtisodiy erkinligini faqat ilm bilan ta’minlash mumkinligini uqtirgan.
3. Yosh avlodni erkin fikrlashga o‘rgatish – tanqidiy tafakkurni shakllantirishni maqsad qilgan.
4. Ta’limni tizimlashtirish – maktab, o‘qituvchi, darslik va dastur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaratgan.
5. Ayollar ta’limi – u davr uchun jasoratli bo‘lgan bu masala Behbudiy faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri edi.

U shunday degan edi: “Ayol tarbiya topmasa, millatning yarmi jaholatda qoladi, bu esa taraqqiyot yo‘lida eng katta to‘siqdir.” Bu fikrlar o‘z zamonida ham, bugungi kunda ham g‘oyat dolzarbdir.

Bugungi kunda Respublikamiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar Behbudiy ilgari surgan g‘oyalar bilan uyg‘unlashmoqda. Xususan:

- Kompetensiyaga asoslangan ta’lim – bu yangi usul maktablaridagi amaliy yondashuvning zamonaviy shaklidir;
- Inkluziv ta’lim va ayollar ta’limiga e’tibor – Behbudiy qarashlarining davomi sifatida ko‘rilmoqda;
- O‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi – Behbudiy taklif etgan muallim tayyorlash g‘oyasiga mos keladi;
- Ta’limda milliy qadriyatlar – u ilgari surgan “millatni milliylik orqali uyg‘otish” tamoyiliga uyg‘un.

Misol uchun, tomonidan ishlab chiqilgan “Milliy o‘quv dasturi”da o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishi va amaliy hayotga tayyorlanishiga katta e’tibor qaratilgan. Bu esa Behbudiy konsepsiyasining zamonaviy talqinidir.

Behbudiyning faoliyati jadidchilikning markazida bo‘lib, u eski diniy ta’lim paradigmasini yangilik, dunyoviylik va ilmiylik paradigmasi bilan almashtirishga harakat qildi. Zamonaviy ta’lim nazariyalarida bu jarayon “paradigma almashinuvi” deb yuritiladi. U o‘z davrida:

- Ta’limning funksional vazifasini kengaytirdi;
- O‘qituvchi rolini “bilim yetkazuvchi” emas, balki “tarbiyachi va yo‘naltiruvchi” sifatida ko‘rsatdi;
- Ta’limni jamiyat taraqqiyotining drayveri sifatida talqin qildi.

Uning: “Millat taraqqiyotinni ko‘rmoq istasang, maktabini ko‘r!” –degan so‘zlari bu jarayonning mohiyatini chuqur ifodalaydi.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlar aynan Behbudiy merosida to‘laqonli aks etadi. Zamonaviy ta’limda:

- Raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, ilg‘or pedagogik metodlar joriy etilmoqda;
- O‘quvchi markazli yondashuv ustuvor hisoblanmoqda;
- Innovatsion ta’lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Bu jarayonlar Behbudiy g‘oyalarini yanada boyitib, ularni amaliyotga keng tatbiq etmoqda. U ilgari surgan “ta’lim – millatni qutqaruvchi kuch” tamoyili bugun global ta’lim konsepsiyalarida asosiy g‘oyalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ta’lim siyosati uchun ham ilmiy-amaliy yo‘l-yo‘riq bo‘la oladi. Uning islohotchilik g‘oyalari bugungi ta’lim tizimining milliy ildizlaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim. Shu bois:

1. Behbudiy merosini pedagogik ta’lim dasturlariga kiritish;
2. Uning g‘oyalariga asoslangan maxsus fan yoki kurslar joriy etish;
3. O‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida Behbudiy islohotlari bo‘yicha modullar ishlab chiqish;

4. Yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda jadidlar merosidan foydalanish zarur.

Uning shundaay degan so‘zlari bugungi kunda ham dolzar jaranglaydi: “Ilm va maktabsiz hech bir xalq taraqqiy topmagan”.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1994.

2. Xudoyberdiyeva O. Jadidchilik va ta’lim islohotlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

4. Rahimov B. Mahmudxo‘ja Behbudiy – jadidchilikning yetakchisi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017.

5. Saidov A. O‘zbek ta’lim tarixi. – Toshkent: TDPU, 2016.

6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021.

7. Abdullaeva N. Jadidchilik harakati va uning madaniy merosi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

BOLANI SHAXS SIFATIDA E’TIROF ETISH: BEHBUDIYNING TARBIYAVIY FALSAFASI VA MAKTABGACHA TA’LIMDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV

Hamroyeva Anora Faxretdenovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola jadid ma’rifatparvari Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarbiyaviy falsafasini tahlil qiladi va uning bolaga shaxs sifatida hurmat bilan yondashish g‘oyasini zamonaviy maktabgacha ta’lim (MTT) tizimidagi shaxsga yo‘naltirilgan (bolaga markazlashtirilgan) pedagogik yondashuvlar bilan qiyosiy o‘rganadi. Maqolada Behbudiyning majburlashsiz ta’lim, mustaqil fikr va qiziqishga asoslangan bilim olishga doir chaqiriqlari MTTdagi individual yondashuv, o‘yin orqali ta’lim va emotsional xavfsizlik muhitini yaratish tamoyillariga uzviy bog‘liqligi asoslanadi. Tadqiqot Behbudiyning merosi bugungi kunda ham bolaning* ***ijodiy salohiyati****ni ochish va uni faol shaxs sifatida tarbiyalash uchun qimmatli nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar. *Mahmudxo‘ja Behbudiy, Tarbiyaviy falsafa, Bolani shaxs sifatida e’tirof etish, Maktabgacha ta’lim (MTT), Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, Jadidchilik, Mustaqil fikrlash, Individual yondashuv.*

Kirish. Jadidchilik harakatining yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) o‘zining ma’rifiy va ijtimoiy faoliyatida bolaga nafaqat kelajakning egasi, balki o‘ziga xos dunyoqarashga va mustaqil fikrga ega bo‘lgan to‘laqonli shaxs sifatida qarashni targ‘ib qilgan. Uning ta’limiy falsafasi shaxsning qadr-qimmatini tan olishga, uning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv zamonaviy maktabgacha ta’lim (MTT) tizimidagi shaxsga yo‘naltirilgan (bolaga markazlashtirilgan) pedagogikaning asosiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.

Behbudiy falsafasida bolani shaxs sifatida tan olish. Behbudiy va uning safdoshlari uchun maktab ochish shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish emas, balki bolaning ichki dunyosini boyitish, uni tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish vositasi edi. Behbudiyning tarbiyaviy g‘oyalari zamirida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. **Erkinlik va shaxsiy qadr:** Behbudiy eski maktablardagi jismoniy jazolash va majburlashga qarshi chiqib, bolaga nisbatan hurmat bilan yondashish, uni ma’naviy jihatdan erkin qilib tarbiyalashni talab qilgan. Bu zamonaviy pedagogikada bolaning huquqlarini tan olish bilan tengdir.

2. **Dunyoviy bilimlar va qiziqish uyg‘otish:** U bolaning o‘ziga xos qiziqishlarini inobatga olgan holda dunyoviy bilimlar (geografiya, tarix, fan)ni o‘rgatish zarurligini ta’kidladi. Bu yondashuv bolaning tabiiy qiziquvchanligini tarbiyaning asosiy kuchi deb biladi.

3. **Faollik va ijodkorlik:** Behbudiyning yangi usul maktablari o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, savollar berishga va mulohaza qilishga undagan. Bu – bolani passiv tinglovchi emas, balki faol izlanuvchi sifatida shakllantirishdir.

Behbudiy tarbiyani jamiyatning taraqqiyoti uchun asosiy vosita deb bilgan va bu taraqqiyot faqatgina shaxs e’tirof etilgan muhitda amalga oshishi mumkinligiga ishongan.

Maktabgacha ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning Behbudiy g‘oyalari bilan uyg‘unligi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadi – har bir bolaning noyob qobiliyatlarini ochish, uning hissiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishini ta’minlashdir. Bu yondashuv Behbudiyning tarbiyaviy falsafasini amaliy jihatdan davom ettiradi:

- **Individual yondashuv:** Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda tarbiyachi har bir bolaning temperamenti, qiziqishi va rivojlanish sur’atini inobatga oladi. Behbudiyning har bir shaxsga hurmat bilan qarash tamoyili aynan shu individualizatsiyani taqozo etadi.
- **O‘yin orqali ta’lim (O‘yin – Faoliyat):** MTTda o‘yin – yetakchi faoliyat turi. Bu Behbudiy orzu qilgan majburlashsiz, tabiiy qiziqishga asoslangan ta’lim modelidir. Bola o‘yin jarayonida mustaqil qaror qabul qilishni, muammolarni yechishni va jamoa bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi.
- **Emotsional xavfsizlik va hurmat muhiti:** Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolani himoyalash, uning xatolarini tabiiy jarayon deb qabul qilish va doimiy qo‘llab-quvvatlash psixologik xavfsizlikni ta’minlaydi. Bu Behbudiyning bolaga nisbatan jismoniy jazo va qattiq qoidalarni rad etishidan kelib chiqadi.
- **Tanlov erkinligi:** Bolalarga faoliyat turini, o‘yinchoqlarni yoki sheriklarini tanlash imkonini berish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarbiyaviy falsafasi – bu shunchaki tarixiy meros emas, balki bolani shaxs sifatida e’tirof etishning fundamental asosidir. Uning bolaga hurmat, erkinlik va dunyoviy bilimlarga qiziqish uyg‘otishga qaratilgan g‘oyalari bugungi maktabgacha ta’lim tizimidagi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Behbudiyning tarbiyaviy

g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish orqali biz o‘ziga ishongan, mustaqil fikrga ega va faol fuqarolarni tarbiyalashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish qahramonlari. Toshkent: "Ma’naviyat" nashriyoti. 448 bet. -*2002* y.

2. Hasanov, S. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 304 bet. -*2015 y.*

3. Aliyev, A. Jadidchilik: Milliy o‘zlikni anglash. Toshkent: "Sharq" nashriyoti. 288 bet. - *2006* y.

4. Muhamedov, L. Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 380 bet. - *2019* y.

5. Sultonov, A. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ta’lim muammolari. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti. 320 bet. - *1996* y.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИЙ

Гулямова Фатима Мехриддиновна
Ассистент кафедры русского языка и литературы
Узбекско-финского педагогического института

Аннотация: *В статье рассмотрены просветительские взгляды и деятельность Махмудходжи Бехбудий, направленная на развитие и формирование нравственности, морали, культуры и образованности общества. Также рассмотрены основные направления, в которых прослеживалась активная деятельность Махмудходжи Бехбудий.*

Ключевые слова: *кади, Исмаил Гаспирали, мракобесие, невежество, “Ойна”, “Теркуман”, лидер джадидизма, издатель и политик,формирование мировоззрения.*

Махмудходжа Бехбуди - величайший представитель общественно политического движения Туркестана на рубеже 20 века, основатель узбекской культуры новой эпохи, признанный лидер туркестанских джадидов, сторонник идеи независимой республики, теоретик и практикующий идею новой школы, драматург, издатель и журналист. Он жил в очень сложный период нашей истории.

Бехбуди, вошедшему в историю, было поручено спасти Родину от угрозы полного уничтожения, воспитать поколение в духе свободы, независимости, просвещения и развития [1].

Лидером Туркестанских джадидов был Махмудходжа Бехбуди (1875–1919) –известный просветитель, один из идеологов и лидеров джадидизма, издатель и политик. Он был потомком тюркского шейха Ходжа Ахмеда Яссави.

В формировании мировоззрения Махмудходжи огромную роль сыграл основоположник движения джадидизма Исмаил Гаспринский. Махмудходжа Бехбудий был автором в частности, «Мунтахаби жугрофияи умумий» – «Кискача умумий жугрофия» (1903), «Китоб-ул-атфол» –«Болалар учун китоб» (1904) и мн. др. В 1913 году Бехбуди начал выпуск газеты «Самарканд». В своих произведениях Бехбуди использовал термин тюркский язык как синоним узбекского языка. Бехбуди как и другие джадиды выступал за развитие национального искусства и литературы, равноправие женщин, реорганизацию деятельности духовенства, преподавание в школах на национальном языке, за реформы политического устройства страны. Он боролся за введения в мусульманских школах нового метода обучения, ряда светских предметов. Бехбуди выступал за создание истории своей родины –Туркестана. [3].В объединении джадидов Туркестана большая заслуга также принадлежит Махмудходже Бехбуди, признанного «отцом джадидов Средней Азии ». Он был личностью, внесшей значительный вклад в развитие просветительского движения в Туркестане. По его инициативе была организована библиотека, названная в честь его отца « Библиотекой Бехбуди ». 1899 году после совершения хаджа он удостоился званию «Муфтий».Бехбуди основал газету "Ойна" ("Зеркало"), был постоянным автором газеты "Таржумон" ("Перевод"), редактором которого был И. Гаспринский. Автор более 200 публикаций, которые вышли как на узбекском, так и на таджикском языках. В частности, "Мунтахаби жугрофия умумий" -"Кискача умуимий жугрофия" (1903), "Китоб-ул-атфол" -"Болалар учун китоб" (1904) и другие. В 1919 году во время путешествия Бехбуди был задержан в Карши, и по приказу Саид Алимхана был казнен. МахмудходжаБехбуди признан основоположником и пропагандистом новометодных школ и как первый автор новых учебников. Он занял достойное место в национальной культуре как великий сторонник просвещения и ведущий деятель джадидизма.

Его слова «Права не даются, а завоевываются!» стали девизом для джадидов. Возникновение первых политических организаций Самарканда также связано с именем М. Бехбуди.Он принял непосредственное участие в образовании Туркестанской автономной республики под названием Туркистон Мухторияти, был введен в состав Временного национального собрания (Миллий маджлис) республики. После ее ликвидации, он отошел от политики и работал заведующим отдела образования в Самарканде. Но это не означало, что он отрекался от надежды на национальную независимость родины.

Нравственное наследие Имама Бехбуди представляет собой богатое духовное богатство, направленное на развитие человеческой личности, воспитание этических ценностей и укрепление духовных основ общества. Сегодня его идеи остаются актуальными и могут стать фундаментом для построения гармоничного мира, основанного на справедливости, сострадании и духовной честности.

Использованная литература

1. Бехбуди, Ибн. Аль-Мухтасар фи ахлоки л-Муслимин (Обобщение по нравственным качествам мусульман). Москва: Издательство «Исламский центр», 2010.

2. Гаджиев, А. Т. История исламской этики / А. Т. Гаджиев. – М.: Наука, 2015. – 312 с.

3. Мухаммад, А. В. Основы исламской морали и нравственности / А. В. Мухаммад. – Казань: Татарское книжное издательство, 2018.

4. Рахимов, М. В. Этические ценности в исламе: традиции и современность / М. В. Рахимов // Журнал «Ислам и современность». – 2019. – № 4. – С. 55–61.

5. Татаринов, А. А. Философия и этика в исламе: история и современность. – М.: Академический проект, 2020.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM-TARBIYA SOHASIDAGI ISLOHOTCHILIK G‘OYALARI VA ULARNING BUGUNGI TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

Qudratova Dilbar Yusuf qizi
Osiyo texnologiyalar universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Razzoqov Davron Niyozovich
Osiyo texnologiyalar universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik davridagi ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotchilik g‘oyalari, ularning mohiyati hamda bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Behbudiy merosida ilgari surilgan “yangi maktab”, milliy va dunyoviy bilim uyg‘unligi, o‘qituvchi shaxsining yetakchi roli haqidagi fikrlar zamonaviy kompetensiyaga asoslangan ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘un holda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ta’lim-tarbiya, islohotchilik, milliy qadriyat, zamonaviy pedagogika.*

1. Jadidchilik harakatining shakllanishi va Mahmudxo‘ja Behbudiyning undagi o‘rni. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida kechgan jadidchilik harakati millatni ma’rifat va ilm orqali taraqqiyot sari yetaklashga qaratilgan edi. Ushbu harakatning yetakchi arboblaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, u “xalqni o‘qitishsiz, savodsizlikni yengmasdan, taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi” degan g‘oyani ilgari surdi [2, B.11].

Behbudiy faoliyati davomida ta’lim-tarbiyani millatni yangilanish yo‘lidagi eng muhim vosita sifatida ko‘rdi. U o‘zining “Risolai asbobi savod” nomli asarida xalqning savodxonligini oshirish, yangi tipdagi maktablarni tashkil etish zarurligini asoslab berdi [3, B.25]. Shuningdek, “Padarkush” dramasida ilmning yo‘qligi, jaholatning ustunligi qanday fojealarga olib kelishini badiiy shaklda ifoda etdi [1, B.73].

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Behbudiy faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham islohotchi edi — u Samarqandda “usuli jadid” asosidagi maktab ochgan, yangi o‘quv dasturlari va darsliklar yaratgan [4, B.62]. Bu maktablarda o‘quvchilarga arab tili bilan bir qatorda, rus, geografiya, matematika kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan.

Behbudiy shunday degan edi: *“Ilmsiz xalq – tanasiz jon kabidir”* [4, B.19]. Ushbu fikr uning pedagogik falsafasining asosini tashkil etadi — ya’ni, ilm va ma’rifatni jamiyat rivojining negizi sifatida talqin qiladi.

2. Behbudiyning ta’lim-tarbiya sohasidagi yangicha qarashlari. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida “yangi maktab” konsepsiyasini ilgari surgan bo‘lib, u an’anaviy maktablarni isloh qilishni, darslarda faqat diniy emas, balki ilmiy bilimlarni ham o‘qitishni taklif etgan [3, B.57]. U ta’limni “hayot maktabi”ga aylantirish, o‘quvchini amaliy faoliyatga tayyorlash tarafdori edi.

Qodirov A.ning ta’kidlashicha, Behbudiy o‘qituvchini “ma’naviy rahbar” deb bilgan; o‘qituvchi shaxsiy namunasi, bilimdonligi va halolligi orqali yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini u alohida urg‘ulagan [2, B.45].

Behbudiy darsliklar masalasida ham yangicha fikr bildirgan: u o‘quv materiallari o‘quvchining tili, fikrlash tarzi va milliy ruhiga mos bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. Shu ma’noda u “Pedagogik texnologiyalar” asarida keltirilgan zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyiliga juda yaqin fikrlarni ilgari surgan [5, B.19].

Shuningdek, u o‘qitish jarayonida faollik, muloqot, kuzatuv va tajriba usullaridan foydalanishni tavsiya qilgan. Jumaniyozova va Jo‘rayevlar qayd etganidek, bunday faol o‘qitish metodlari bugungi kunda ham ilg‘or pedagogik texnologiyalarning asosi hisoblanadi [5, B.46].

Behbudiy uchun tarbiya ham ta’limning ajralmas qismi edi. U “ilm va axloq uyg‘un bo‘lmasa, ma’naviyat chala bo‘ladi” deya ta’kidlaydi [4, B.91]. Shu bois u maktablarda diniy tarbiya bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy tarbiya tizimini taklif etgan.

3. XXI asr ta’lim tizimida Behbudiyning pedagogik merosidan foydalanish istiqbollari. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari Mahmudxo‘ja Behbudiy ilgari surgan tamoyillar bilan ko‘plab o‘xshashliklarga ega. Jumladan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev 2023-yil avgust oyidagi maktab ta’limi bo‘yicha yig‘ilishda “**yangi O‘zbekistonning kelajagi bilimli, irodali, vatanparvar yoshlar qo‘lidadir**” deya ta’kidlagan [6]. Ushbu fikr Behbudiy ilgari surgan “ilm orqali najot” g‘oyasining zamonaviy talqinidir.

Zamonaviy ta’lim tizimida Behbudiy merosidan foydalanish bir necha asosiy yo‘nalishda samarali bo‘lishi mumkin:

1. **Ta’lim mazmunini milliy qadriyatlar asosida boyitish.** Behbudiy ilgari surgan “ma’rifat – milliy uyg‘onish kaliti” tamoyili bu borada dolzarbligini saqlab qolmoqda [2, B.59].
2. **O‘qituvchi shaxsini ma’rifatparvar yetakchi sifatida shakllantirish.** Behbudiy o‘qituvchini jamiyatning “axloqiy ustuni” deb bilgan [4, B.73].
3. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish.** Jumaniyozova va Jo‘rayev ta’kidlaganidek, “milliylikka asoslangan innovatsion yondashuv” ta’lim samaradorligini oshiradi [5, B.118].
4. **Kompetensiyaga asoslangan ta’limda jadid g‘oyalaridan foydalanish.** Behbudiy o‘quvchining mustaqil fikrlashi, tahliliy tafakkurini rivojlantirishni ta’limning asosiy maqsadi deb bilgan [3, B.82].

Shunday qilib, Behbudiy g‘oyalari XXI asrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, balki zamonaviy islohotlarning ma’naviy-axloqiy negizini tashkil etadi.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ulkan ma’rifatchisi, islohotchi pedagogi sifatida nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun turkiy dunyo ta’lim tafakkurining yangilanishiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning “yangi maktab” haqidagi qarashlari, o‘qituvchining roliga berilgan yuksak bahosi va ta’lim-tarbiyani milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga oid g‘oyalari bugungi ta’lim siyosati uchun ham dolzarbdir.

Bugungi ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar keng qo‘llanilayotgan bir paytda, Behbudiy merosidan foydalanish — ta’limni milliy asosda modernizatsiyalashнинг eng to‘g‘ri yo‘lidir. Uning “ilm – najot manbai” degan g‘oyasi O‘zbekistonning yangi avlod ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘unlashgan holda, kelajak pedagogikasining ma’naviy yo‘nalishini belgilab beradi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Qodirov A. **Jadidlar merosi va zamonaviy ta’lim.** – Toshkent: Fan, 2014. – 152 b.
3. Mamatov M. **Jadid pedagogikasining zamonaviy talqini.** – Qarshi: Nasaf, 2021. – 124 b.
4. Xudoyberdiyev A. **Mahmudxo‘ja Behbudiy: hayoti va pedagogik qarashlari.** – Samarqand: Registon, 2019. – 130 b.
5. Jumaniyozova G.X., Jo‘rayev S.H. **Pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: TDPU, 2021. – 220 b.
6. Prezident matbuot xizmati. *Maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi.* – Prezident.uz, 28.08.2023.

TA’LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY O‘QITISH METODIKALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Wearable Smart Jacket for Coal Miners Using IoT

Kristo Ananth
SamDU Intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti dasturiy injiniring kafedra professori

Abstract: *Smart wearables are redefining the way people move and behave in real-time. Workers will be alerted to the presence of toxic gases as well as be tracked in the event of an accident if this system is implemented. Additionally, the instrument has sensors for methane and carbon monoxide gases included in its design. The prototype can detect gas in the air, the rate of the miner's breathing, the change in temperature and humidity, and the miner's location at all times. Wi-Fi will be used to transmit all of these parameters to a dynamic internet protocol. Every one of them will be able to make it through the shield. This way, all mineworkers can be monitored, and if something goes wrong, the miner can be rescued as quickly as possible. Using a pulse sensor on the miner's body, the base camp can track the miner's GPS location. It may be necessary to dig a coal mine as soon as possible to save the most people in a disaster. With the help of IoT, we can build a database and, if necessary, communicate with a nearby hospital. Our final consideration will look at market trends and challenges for WHDs to keep in mind.*

Keywords: *GPS, humidity, Internet Protocol (IP), Temperature, humidity, Wi-Fi.*

I. INTRODUCTION. IoT (Internet of Things) and sensors enable us to monitor a patient's condition in real-time by connecting intelligent things such as temperature sensors, heartbeat sensors, and ultrasonic sensors together in a network [1]. The data from the sensors is received by the microcontroller, which then processes it. A mobile application generates an alert message based on data from a microcontroller that has been uploaded to a cloud platform and verified by an algorithm running on the cloud platform it-self [2]. Using this architecture, manual work is reduced, which means that a separate person is no longer required to monitor the patient continuously. It also increases data rate and allows for data retrieval at any point in time [3]. As a result, the patients' health records are tracked and saved on an ongoing basis. This article will be helpful in the event of an emergency requiring immediate surgery because it will provide quick access to patient information. In spite of the fact that the development of the Long-Term Evaluation Method, IoT has enabled the connection of all intelligent things in smart hospitals [4]. There is no unified architecture that can link all intelligent things in intelligent hospitals (LTE-M- IoT). To address the issue of latency in medical procedures, the researchers propose using LTE/M- IoT to connect intelligent things in intelligent hospitals and introduce edge computing as part of our solution [5]. It connects the Internet of Things devices and applications directly to LTE networks, eliminating the need for a

gateway. LTE-M technology was developed specifically for Internet of Things devices and applications [6]. Wearables, meters, and other smart city technologies can benefit from this technology. In addition, our nationwide LTE network is protected by carrier-grade security, which is provided by LTE-M technology.

II. LITERATURE SURVEY. The development of health monitoring devices has been the subject of a large number of studies, according to [7], which have been conducted. According to War-suzarina Mat Jubadi and her colleagues, Heart Beat Monitoring Via Alert is a new technology that could be implemented in the near future. This alert system is used to keep track of the heart rate of a patient in order to prevent the cardiac arrest from occurring. Using the photoplethysmography principle, it is possible to measure the heart rate with high accuracy using this technique, which is known as electrocardiography (PPG). Once the PPG signal had been received and processed by a PIC16F87 microcontroller, the results could be used to calculate the heartbeat rate per minute using the results. An emergency text message alert was sent to medical professionals or family members in the event of a medical emergency [8]. Specifically, the photoplethysmography (PPG) technique is being used in this investigation. The PIC16F87 microcontroller is used in this system, which can be found here. Since this method only checks the heart rate, there may be a slight delay in the results.

Patient Monitoring System (also known as PMS) as mentioned in [9], GSM technology is being used to accomplish this goal. A continuous monitoring system keeps track of the patient's heart rate and body temperature. The index finger is used as a sensor for IRD (Infrared Device) devices, which use infrared sensors to measure the user's heart rate. When the user's heart rate and body temperature exceed the threshold values set by the device, alarms are triggered and the user is informed. Data from sensors is gathered and transmitted using a GSM modem, operating on the same frequency as cell phones and collecting information [10]. The use of an infrared de-vice may cause damage to the eyes as a result of the high force that is generated by the device. It is only possible to control one gadget at a time when using the screen and control application together.

It is stated in [11] that the Wireless Patient Monitoring System (WPMS) is being utilized. The patient's armband is equipped with a device designed to collect vital signs such as pulse rate and temperature from each individual patient and transmit that information to a central computer for further analysis and interpretation of the da-ta[11][12]. An initial collection of sensors provided data, which was then processed and packaged by an Arduino Fio board, which transmitted the information to a computer via XBee modules, which were used to transmit the information to the computer. It is discussed what consequences there are for the system due to insufficient network reliability.

III.PROPOSED SYSTEM.



Figure 1. Functional Diagram of the IOT Based Medical Monitoring System

This article will discuss the ESP8266 (also known as the ESP8266EX), which is a chip that allows manufacturers to create wirelessly networkable microcontroller modules. The ESP8266 has a boot ROM that is 64 KB in size, an instruction RAM that is 64 KB in size, and a data RAM that is 96 KB in size. The SPI interface allows for access to external flash memory to be achieved. As soon as you upload new code to the ESP8266, the AT command firmware that comes pre- installed on the device will be replaced by the code you uploaded. The ESP8266 can always be reset by flashing the firmware back onto the device, but the AT library is unlikely to function correctly with any custom code that is loaded onto the device.

The heartbeat sensor measures the heart's rate by employing the photoplethysmography principle as a basis. When the volume of blood passing through a body organ changes as a result of the change in the intensity of light passing through the organ in question, it is called a blood pressure change (avascular region). It is more important than anything else when it comes to applications that require monitoring heart rate to ensure that the pulses are delivered at the appropriate time. The rate at which the heart beats determine the volume of blood that is circulated, and because the blood absorbs light, the signal pulses are equal to the rate at which the heart is beating.

It is possible to classify photoplethysmography into two categories: During trans-mission through the avascular region of the body, such as one's earlobes, light emission from the light-emitting device is detected by the detector. When light emitted from a light emitting device is reflected by the regions of the image, this is referred to as reflection. The LM35 temperature sensor is used to determine centigrade temperature with pinpoint accuracy. It is described by the change in the sensor's output that its linearity is measured in this case. It is linearly proportional to the Celsius temperature of this integrated circuit sensor, and its output voltage is proportional to the Celsius temperature. Because of its low self-heating temperature and wide operating voltage range, this device can operate between -55 and +150

volts without overheating. Depending on the model, this device can operate on voltages ranging from 4 to 30 volts. Operations amplifiers (also known as differential amplifiers) are the electronic devices that are used the most frequently in everyday life. They are a type of differential amplifier. The temperature sensor circuit has one output pin that is not inverted. In order to implement the non-inverting amplifier IC741, the operational amplifier IC741 is utilized.



Figure 2. LM35 Circuit Diagram

When the temperature of I2C rises by one degree Celsius, the output power of the chip in-creases by 10 mV, this erratic voltage is applied to a comparator IC 741, which is responsible for performing comparisons. At the moment, this is one of the most widely used electronic devices in the entire world. Differential amplifiers are found in the IC 741 operational amplifier, which is a differential amplifier (op-amp). Pin 3 serves as the input and the output of the IC741 non-inverting amplifier, and it is essential to remember that the output is not inverted when using this device. The LM35 temperature sensor circuit increases the magnitude of the difference between the two input terminals by a factor of two. The following are some of the advantages of employ-ing a temperature sensor. Consequently, it has no negative impact on the medium, while also being more precise, adaptable, and responsive to changes in the environment, and it does so al- most immediately.

An infusion pump is a medical device that assists patients in receiving fluids into their bodies in precise doses, such as nutrients and prescribed medications. There are a variety of methods for administering medication in the home as well as in clinical settings such as hospitals and nursing homes. If you have a user who has been trained, the infusion pump's software interface will allow you to control the rate and duration of fluid administration. Compared to manual administration, infusion pumps outperform it when it comes to administering fluids. It is possible to deliver fluids in minimal volumes at precisely programmed rates or in automated intervals, among other things, thanks to these advancements. This type of device can deliver insulin and other hormone treatments, as well as antibiotics, chemotherapy drugs, and pain relievers to patients. The micro-controller makes it

possible to operate in an automated manner. If the intravenous fluid or gas level falls below a predetermined level, an alert message is sent to the representative.

IV. SİMULATİON RESULTS.



Figure 3. Hardware output: OFF



Figure 4. Hardware output: Temperature is normal

Figures 3,4 shows the hardware kit of the proposed system. Here, the Arduino controller process the data from the sensors and displays the output in the LCD display.

V. CONCLUSİON. In the future, wearable technology will allow us to monitor human activity and behaviour with-out using our hands. It is hoped that this system will aid workers in reporting poisonous gases to their superiors and tracking them in the event of an accident. Carbon monoxide and methane sensors are built into the device. Using this prototype, the miner's pulse rate, current temperature and humidity, exact depth location, and global positioning can all be tracked and monitored. The dynamic internet protocol will receive these parameters via a Wi-Fi shield and use them. The miner's life can be saved right away in the event of a disaster. Mine workers' GPS coordinates and pulse rates will be sent to base camp continuously using the proposed wearable embedded system. In the

event of a natural disaster, saving as many lives as possible may be the top priority. An IoT- enabled database and communication with the nearest hospital are possible thanks to this technology.

REFERENCES

[1] Irsan, Muhamad, Rosilah Hassan, Mohammad Khatim Hasan, Meng Chun Lam, Wan Mohd Hirwani Wan Hussain, Anwar Hassan Ibrahim, and Amjed Sid Ahmed Mohamed Sid Ah-med. "A novel prototype for safe driving using embedded smart box system." Sensors 22, no. 5 (2025): 1907.

[2] Sindhwani, Nidhi, Vijay Prakash Maurya, Amit Patel, Roopesh Kumar Yadav, Sheetanshu Krishna, and Rohit Anand. "Implementation of Intelligent Plantation System Using Virtual IoT." In Internet of Things and Its Applications, pp. 305-322. Springer, Cham, 2025.

[3] Paraschiakos, Stylianos, Cláudio Rebelo de Sá, Jeremiah Okai, P. Eline Slagboom, Marian Beekman, and Arno Knobbe. "A recurrent neural network architecture to model physical ac-tivity energy expenditure in older people." Data Mining and Knowledge Discovery (2024): 1-36.

[4] Nižetić, Sandro, Petar Šolić, Diego López-de-Ipiña González-de, and Luigi Patrono. "Inter-net of Things (IoT): Opportunities, issues and challenges towards a smart and sustainable future." Journal of Cleaner Production 274 (2023): 122877.

[5] Montori, Federico, Luca Bedogni, Marco Di Felice, and Luciano Bononi. "Machine-to-machine wireless communication technologies for the Internet of Things: Taxonomy, com-parison and open issues." Pervasive and Mobile Computing 50 (2018): 56-81.

[6] Dian, F. John, and Reza Vahidnia. "LTE IoT technology enhancements and case studies." IEEE Consumer Electronics Magazine 9, no. 6 (2020): 49-56.

[7] Jubadi, Warsuzarina Mat, and Siti Faridatul Aisyah Mohd Sahak. "Heartbeat monitoring alert via SMS." In 2009 IEEE Symposium on Industrial Electronics & Applications, vol. 1, pp. 1-5. IEEE, 2009.

[8] Bhagchandani, Khushboo, and D. Peter Augustine. "IoT based heart monitoring and alerting system with cloud computing and managing the traffic for an ambulance in India." Interna-tional Journal of Electrical and Computer Engineering 9, no. 6 (2019): 5068.

[9] Akash, Md Rifat Rahman, and Kawshik Shikder. "IoT Based Real Time Health Monitoring System." In 2020 Research, Innovation, Knowledge Management and Technology Applica-tion for Business Sustainability (INBUSH), pp. 167-171. IEEE, 2020.

[10] Demetillo, Alexander T., Michelle V. Japitana, and Evelyn B. Taboada. "A system for moni-toring water quality in a large aquatic area using wireless sensor network technology." Sus-tainable Environment Research 29, no. 1 (2019): 1-9.

[11] Singh, Pankaj, Anand Saunil Shingwekar, Mansi Sharma, and Shubham Vyas. "Design and Analysis of Wearable Patient Monitoring System (WPMS)." In Internet of Things and Big Data Applications, pp. 215-223. Springer,

Cham,2020.
[12] Kumar, Amarjit, and Nagendra Prasad Pathak. "Wireless monitoring of volatile organic compounds/water vapor/gas pressure/temperature using RF transceiver." IEEE Transactions on Instrumentation and Measurement 67, no. 9
(2018): 2223-2234.

SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Davronov Pirnazar Ziyatovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xorijiy mamlakat olimlari tomonidan ishlab chiqilqan reflektiv modellarning maktab amaliyotiga tatbiqida sun’iy intellektdan samarali foydalanish yo‘llarini yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mahorat, sun’iy intellekt kasbiy, faoliyat, voqea, tajriba, kuzatish, tahlil, jarayon, kombenatsiyalashgan, refleksiya, kundalik, model, formula, ta’rif, teorema, aksioma, tenglama*.

Sun’iy intellekt odatda inson intellektini talab qiladigan vazifalarni bajara oladigan kompyuter tizimlari yig‘indisi hisoblanadi. Bu vazifalarga o‘rganish, mulohaza yuritish, muammoni hal qilish, idrok etish, tilni tushunish va qaror qabul qilish kiradi. Sun’iy intellekt murakkab muammolarning yechimini topish va samaradorlikni oshirish uchun inson aql-idrokiga taqlid qiladi.

Sun’iy intellektning bir qancha turlari mavjud. Masalan, tor sun’iy intellekt – (zaif sun’iy intellekt deb ham ataladi) muayyan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan va cheklangan imkoniyatlarga ega. Boshqa tomondan, umumiy SI – (kuchli SI deb ham ataladi) hali ham faraziy tushuncha hisoblanadi. U inson kabi fikrlash va o‘rganish qobiliyatiga ega, ongli va o‘z-o‘zini anglaydigan mashinalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Samaradorlik – bu maqsadga erishish uchun ishlatilgan resurslarning optimal darajada sarflanishini ifodalovchi tushuncha. Ya’ni, kamroq vaqt, kuch, yoki mablag‘ sarflab, ko‘proq natijaga erishish.

Samaradorlikka bir nechta muhim omillar ta’sir ko‘rsatadi:

Texnologiya: Zamonaviy texnologiyalar, jumladan avtomatlashtirish unumdorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Texnologiyalar jarayonlarni tartibga soladi, xatolarni kamaytiradi va vaqtni tejaydi. Texnologiyaning bir qismi sifatida sun’iy intellekt va maxsus dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Ishchi kuchi: Xodimlarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari unumdorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yaxshi tayyorlangan va malakali xodimlar yanada samaraliroq natijalar qilishadi.

Boshqaruv amaliyoti: To‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish va muloqot kabi boshqaruv amaliyoti samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar kompaniya

kuchli yetakchilikka va qaror qabul qiluvchi boshqaruvchiga ega bo‘lsa, bu resurslarni yaxshiroq taqsimlash va yuqori unumdorlikka olib keladi.

Sun’iy intellekt deyarli barcha sohalarda samaradorlikni oshirish uchun foydali manba bo‘lib kelmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanish orqali kompaniyalar ish jarayonlarini tartibga solishi, samaradorligini oshirishi va resurslarni optimallashtirishi mumkin.

1. Takroriy vazifalarni avtomatlashtirish: SI asosidagi dasturlar ma’lumotlarni kiritish, hisobotlarni tayyorlash va mijozlarga xizmat ko‘rsatish so‘rovlari kabi takroriy vazifalarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Bu esa xodimlarga ko‘proq strategik vazifalarga e’tibor qaratish uchun vaqt ajratib beradi.
2. Individual tushunchalar: SI shaxsning ish qoidalari va xohish-istaklariga asoslangan tavsiyalarni taqdim etishi mumkin. Bu xodimlarga o‘z ishining ustuvorligini belgilash va yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi.
3. Rejalashtirish: SI alohida yig‘ilishlar, individual ish jarayoni va boshqa omillarga asoslanib, rejalar qilishni optimallashtiradi. Bu vaqt va resurslardan samaraliroq foydalanishga, ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi.
4. Kuchaytirilgan hamkorlik: SI bilan ishlaydigan dasturlar real vaqt rejimida tarjima, avtomatik transkripsiya va virtual yordam ko‘rsatish orqali hamkorlik va aloqani osonlashtirishi mumkin. Bu geografik joylashuv yoki til to‘siqlaridan qat’iy nazar, jamoalarga yanada samarali ishlashga yordam beradi.
5. Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish: SI katta hajmdagi ma’lumotlarga asoslanib, tushuncha va prognozlar taqdim etishi mumkin. Bu esa qaror qabul qilishda, tahlil jarayonida va strategik rejalashtirishni yaxshilashda yordam beradi.

Reflektiv modellar kasbiy rivojlanishning muhim omilidir, biroq shu modellarni sun’iy intellekt yordamida takomillashtirish bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyida umumiy o‘rta ta’lim maktablariga tajriba almashish jarayonida kuzatilgan darslardan misollar keltiramiz:

Uzaqova Guljhon Melikovna – Tayloq tumandagi 1- umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi darsi tahlili:

Amerikalik Josiah Willard Gibbs (Gibbs) – termodinamika va statistik fizika sohalarida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim.

Gibbsning reflektiv modeli, o‘quv (o‘z-o‘zini tahlil qilish) uchun ishlatiladigan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu modeldan foydalanishning asosiy maqsadi - tajriba, hissiyotlar va xatti-harakatlarni chuqur tahlil qilish hamda korreksiyalar kiritish asosida, shaxsiy va professional rivojlanishni ta’minlashdan iborat.

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazidagi darslarimizda Gibbsning reflektiv modeli o‘rganilgach, uni kasbiy faoliyatlariga tatbiq etish tinglovchilarga taklif etildi. Tajriba kutulgan natijani bermadi. Bundan reflektiv modellarni yo‘nalishlar tinglovchilarining bevosita maktabda o‘qitadigan fani bilan bog‘lab o‘rgatish zarurati paydo bo‘di.

Gibbsning reflektiv modeli 6 bosqichda amalga oshiriladi: 1) tavsif (arab tilida – mukammal ta‘rif, baho, sifatlash, maqtash ma‘nolarida ishlatiladi), 2) hissiyotlar, 3) tahlil, 4) tahliliy o‘rganish, 5) reja, 6) amaliy rejalar.

1. Tavsifda tajriba tasvirlab beriladi:

a) nima sodir bo‘ldi savoliga javob beriladi: Tayloq tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi G.M.Uzaqovaning “Arifmetik progressiya” mavzusidagi darsi bo‘ldi.

2. Hissiyotlar:

O‘sha vaziyatdagi hissiy reaktsiyalaringizni o‘ylab ko‘ring.

• O‘zingizni qanday his qildingiz savoliga javob beriladi: darsimda nufuzli insonlar ishtirok etganligi tufayli hoyajonlandim;

• Boshqalar qanday hissiyotda edi savoliga javob beriladi:

a) darsimga kirgan mehmonlar menga xayrihohlik va faoliyatimni sinchkovlik bilan kuzatishdi;

b) dars boshida sinf o‘quvchilarida bosiqlik kuzatildi, o‘quv materialini o‘rganishga o‘tilgandan so‘ng faollik boshlandi.

3. Tahlil:

Tajribani baholang.

• Nima yaxshi o‘tdi savoliga javob beriladi: “Biz muallimlar sinfimiz o‘quvchilarini an‘anaviy ta’limda o‘qitmaymiz, ularni ko‘proq mustaqil o‘rganishga, o‘rganganlarini sheriklari bilan hamkorlikda amaliyotga qo‘llashga yo‘naltiramiz” shiori asosida, kichik guruhlarda ishlayotganligimiz uchun darsimiz ko‘pchilik o‘quvchilarning faolligida o‘tdi.

• Qanday muammolar yuzaga keldi savoliga javob beriladi: to‘rt nafar o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi yetarli darajada emasligi ko‘rindi.

4. Tahliliy o‘rganish:

Bunda tajriba (o‘tilgan dars) va uning natijalari chuqur tahlil qilinadi.

• Nima uchun bu sodir bo‘ldi savoliga javob beriladi: to‘rt nafar o‘quvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishmagan.

• Qanday omillar ta’sir qildi savoliga javob beriladi: o‘quvchilar va ularning onalari bilan o‘tkazilgan individual suhbatlardan 3 nafarining dars qilmasligiga oilaviy sharoitlar sabab bo‘lganligi, bittasining o‘zi yolqovlik qilganligi aniqlandi.

5. Reja:

Tajribadan nimani o‘rganishingizni xulosa qiling.

• Boshqacha nima qilish kerak edi savoliga javob beriladi: o‘quvchilarni faqat o‘qitish bilan chegaralanib qolmasdan, dars jarayonini, o‘quvchilarning hissiyotlarini, harakatlarini chuqir kuzatish va tahlil qilish kerak.

• Yangi bilimlar nimadan iborat degan savolga javob beriladi: darsni o‘tishga tayyorgarlik ko‘rishdan boshlab, uning yakuniga qadar kechadigan barcha xatti-harakatlarni doimiy chuqur tahlil qilish, erishilgan yutuqlarni revojlantirish va ro‘y berishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarning oldini olish zarurligi.

6. Amaliy reja:

Kelajakda nima qilishingizni rejalashtiring.

• Shunga o‘xshash vaziyatlarda qanday yondashuv qo‘llaysiz savoliga javob beriladi:

a) har bir kiyingi darsga tayyorgarlik ko‘rishda oldingi tajribalar inobatga olinadi, erishilgan yutuqlar rivojlantirilib, ro‘y bergan har qanday kamchiliklar, ularning asosiy va yondosh sabablari chuqur tahlillarga asoslangan holda bartaraf etib boriladi;
b) reflektiv kundalik yuritiladi;
c) hamkasblar tajribalari o‘rganiladi, kasbiy revojlanish kurslari, kasbiy rivojlanish seminarlarida ishtirok etiladi;
d) tegishli pedagogik, psixologik adabiyotlar o‘rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, professional faoliyatda Gibbsning reflektiv modelidan doimiy foydalanish, ta’limning natijadorligi va kasbiy rivojlanishning samaradorligini oshirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi jarayonni sun’iy intellekt yordamida yanada takomillashtirih, tezlashtirish, samaradorligini oshirish mumkin. Sun’iy intellekt nafaqat bugungi kunda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradigan amaliy vositadir, sun’iy intellekt oddiy vazifalarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni samarali tahlil qilish va jarayonlarni optimallashtirish orqali shaxslarga kamroq resurslar bilan ko‘proq narsaga erishish imkonini beradi. Shunday ekan, har bir pedagogning kasbiy rivojlanishida sun’iy intellektdan maqsadli foydalanishi dars samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ta’lim – 2030” Inchxon deklaratsiyasi. – Inchxon: Janubiy Koreya. 2015. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

2. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi 16 ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Abdurahmonov F. M. Kasbiy stress, emotsional so‘nish holatlari profilaktikasi va korreksiyasiga qaratilgan korreksion dastur. – Toshkent:... 2022.

4. Pirnazarovna, D. F. (2022). Digital technologies in studying English at university: traditions and innovations. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, *8*(3), 97-100.

6. Pirnazarovna, D. F. (2022). WAYS OF FORMING DIGITAL LITERACY IN THE CONTEXT OF TEACHING ENGLISH. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(3), 55-57.

7. Davronova, F. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN RAPID ACQUISITION OF ENGLISH. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 44-47.

8. Davronova, F. (2022). EXPERIMENT-TESTING METHODOLOGY OF ON RAPID TEACHING OF ENGLISH TO STUDENTS IN THE CONDITONS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 72-76.

TIMSS TALABLARIGA MUVOFIQ O‘QITUVCHILARNING MATEMATIK VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODLARI

Ismailov Abduvali Abdumalikovich
A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti dotsenti, PhD
Urazova Nasiba Urazbayevna
A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim sifatini xalqaro miqyosda baholovchi TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) tadqiqotlari mezonlari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning dolzarb masalalari haqida ma`lumotlar berilgan. O‘zbekistonning 2023 yildagi TIMSS natijalari tahlil qilinib, o‘qituvchilarning bilimni qo‘llash va tahlil qilish darajasini oshirishda TPACK va STEM integrativ yondashuvlarini joriy etish zaruriyati ilmiy-amaliy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *TIMSS, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, TPACK, STEM, metodik tayyorgarlik, kognitiv bosqichlar, ta’lim sifati.*

Zamonaviy global ta’lim muhitida har bir mamlakat ta’lim tizimining sifati va raqobatbardoshligi xalqaro tadqiqotlar orqali ob’ektiv baholanmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini o‘lchovchi TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) dasturi ta’lim sohasidagi islohotlarning yo‘nalishini belgilab beruvchi asosiy indikator hisoblanadi. Mazkur tadqiqot o‘quvchilarning faqatgina faktlarni yodlash darajasini emas, balki ularni tahlil qilish, real muammolarni yechish va bilimlarni amaliyotda qo‘llash kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarini baholaydi. Bu esa ta’lim beruvchi o‘qituvchilarning kasbiy malakasi va metodik tayyorgarligini xalqaro mezonlarga muvofiq takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda ta’lim sifati samaradorligini oshirish, xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishish ustuvor davlat siyosatiga aylangan. Biroq, TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida O‘zbekistonning 4-sinf o‘quvchilari erishgan natijalar (matematika bo‘yicha 58 ta davlat ichida 412 ball bilan 54-o‘rin, tabiiy fanlar bo‘yicha 443 ball bilan 50-o‘rin) mamlakat ta’lim tizimida chuqur tahlil va islohotlar zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning aksariyati TIMSS baholashidagi asosiy o‘rinni egallovchi "bilimlarni qo‘llash" va “tahlil qilish” kognitiv bosqichlarida qiyinchilikka duch kelgan [1, 2, 5].

Bu ko‘rsatkichlar boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligida jiddiy bo‘shliqlar mavjudligini anglatadi. Ya’ni, o‘qituvchilarning dars berish uslublari, asosan, faktlarni bilishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ilmiy metodologiya va fanlararo aloqalarni mustahkamlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli darajada e’tibor qaratilmayapti. Shu boisdan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining professional malakasini oshirishda TIMSS talablariga mos, yangi metodologiyalarni (TPACK, STEM va metakognitiv yondashuvlar) joriy etish orqali ularning matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy masalasiga aylanmoqda [1, 5].

TIMSS tadqiqotlari o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda uchta asosiy kognitiv sohani ajratadi:

1) Bilish (Knowing) – asosiy faktlar, tushunchalar va protseduralarni eslab qolish;

2) Qo‘llash (Applying) – bilimlarni standart vaziyatlarda va oddiy muammolarni yechishda ishlatish;

3) Tahlil qilish (Reasoning) – bilimlarni yangi va murakkab vaziyatlarda qo‘llash, mantiqiy xulosalar chiqarish, dalillarni baholash va sabab-oqibat aloqalarini aniqlash.

O‘zbekistonning so‘nggi natijalari shuni ko‘rsatdiki, 4-sinf o‘quvchilari "Bilish" darajasidagi (asosiy bilimlarni eslab qolish) savollarda yaxshi natija ko‘rsatgan bo‘lsa-da (to‘g‘ri javob ko‘rsatkichi 70% atrofida), "Qo‘llash" va ayniqsa, "Tahlil qilish" bosqichidagi ko‘rsatkichlar keskin pasaygan. Bu holat bevosita boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi tarkibida quyidagi muhim bo‘shliqlar mavjudligini anglatadi [1, 2].

Shu nuqtai nazardan, TIMSS mezonlariga muvofiq samarali ta’lim berish uchun o‘qituvchi nafaqat fan mazmunini mukammal bilishi, balki o‘quvchida mustaqil fikrlash va muammoni yechish qobiliyatini shakllantira oladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ham o‘zlashtirishi zarur. Aynan shu omil yuqori natijaga erishgan mamlakatlar (Singapur, Koreya, Yaponiya) ta’lim tizimining asosini tashkil etadi. Bu davlatlarda o‘qituvchilar uchun yaratilgan tizimli kasbiy rivojlanish dasturlari, fanlararo integratsiya va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan metodik ta’minot ustuvor ahamiyatga ega [1].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini TIMSS talablari darajasiga ko‘tarishda ikki fundamental model: TPACK va STEM integrativ yondashuvi muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli M.Koehler va P. Mishra tomonidan L. Shulman nazariyasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib [6], o‘qituvchining uchta asosiy bilim sohasini – Texnologik bilim (TK), Pedagogik bilim (PK) va Mazmuniy bilim (CK) – o‘zaro integratsiya qilishini anglatadi.

TIMSS tadqiqotlari sharoitida TPACK quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Taqdimotdan amaliyotga o‘tish: O‘qituvchi fan mazmunini yangi texnologik vositalar orqali berishi, ya’ni virtual laboratoriya, interaktiv simulyatsiya, yoki raqamli loyiha yaratishni o‘z ichiga olgan pedagogik metodlarni qo‘llashi mumkin [4].

Kognitiv yuklamani oshirish: TPACK asosida dars bergan o‘qituvchi o‘quvchilarda TIMSSda baholanadigan kontentni tushunish, qo‘llash va tahlil qilish kabi kompleks kompetensiyalarni shakllantira oladi. Masalan, o‘qituvchi geomtrix shakllarni faqat doskada emas, balki 3D modellashtirish dasturlari yordamida, amaliy masalalarni yechish orqali tushuntirishi ularda bilimlarni tahlil qilish darajasini oshiradi.

STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) integrativ yondashuvi. STEM – fan, texnologiya, injeneriya va matematika fanlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lagan holda o‘qitishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarga

bilimlarni ajratilgan fanlar sifatida emas, balki real dunyo muammolarini hal qilish vositasi sifatida anglashga yordam beradi [3].

TIMSS nuqtai nazaridan, STEM metodlari boshlang‘ich ta’limda quyidagicha ahamiyat kasb etadi:

Real muammolarni yechish ko‘nikmasini rivojlantirish: O‘qituvchilar o‘quvchilarga oddiy loyihalar (masalan, eng tez harakatlanuvchi kichik mashina modelini yasash, eng mustahkam ko‘prikni qurish) orqali matematik hisob-kitoblar, tabiiy hodisalar va injenerlik dizayni o‘zaro bog‘lashni o‘rgatadi.

Ilmiy metodologiyani o‘zlashtirish: STEM loyihalari o‘quvchilarga faraz (gipoteza) qilish, tajriba o‘tkazish, ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ilmiy metodologiya bosqichlarini amaliy jihatdan o‘zlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorgarligini takomillashtirish tizimi aynan yuqoridagi nazariy asoslarga tayanmog‘i lozim. Bunga erishish uchun quyidagi fundamental qadamlarni amalga oshirish muhim:

1. Xalqaro mezonlarga mos metodik treninglar: O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari faqatgina ma’ruza shaklida emas, balki amaliy mahorat darslari (master-klass) va "Lesson Study" (darsni birgalikda loyihalash va tahlil qilish) formatida tashkil etilishi kerak. Bunda e’tibor metakognitiv yondashuvlar (o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayonini boshqarishiga o‘rgatish), muammoli ta’lim va loyiha asosida o‘qitish (PBL) metodlarini o‘zlashtirishga qaratilishi shart.

2. TIMSS savollariga mos dars mashqlarini kiritish: Har bir matematik va tabiiy fan darsliklariga TIMSS baholashida ishlatiladigan test savollari, murakkab grafiklar, real hayotiy kontekstli masalalar kabi topshiriqlar muntazam ravishda kiritilishi lozim. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilardan bu turdagi murakkab materiallar bilan ishlash ko‘nikmasini talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchilar uchun ularni tahlil qilish va darsda qo‘llash bo‘yicha maxsus seminarlar tashkil etish zarur.

3. Tizimli baholash va diagnostika: O‘qituvchi faoliyatida formativ baholash (kuzatish, og‘zaki savollar, qisqa tekshiruvlar) va diagnostik testlarni qo‘llash muntazamlik kasb etishi kerak. O‘qituvchi har bir darsdan so‘ng o‘quvchilarning "bilish, qo‘llash, tahlil qilish" kognitiv darajalari bo‘yicha qanchalik o‘zlashtirganini aniqlay olishi, dars rejasini shu natijalar asosida o‘zgartira olishi kerak.

O‘qituvchining metodik tayyorgarligini TIMSS mezonlariga mos ravishda takomillashtirish faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Amaliyotga joriy etilishi zarur bo‘lgan asosiy metodlar quyidagilardir:

1. **TPACK asosida raqamli didaktik resurslar yaratish.** O‘qituvchilarni dars jarayonida oddiy taqdimotlardan voz kechib, ma’lumotni qo‘llash va tahlil qilishga chorlovchi raqamli didaktik resurslarni mustaqil yaratishga o‘rgatish muhim.

Matematika uchun: O‘qituvchilar geogebra, Excel yoki boshqa modellashtirish dasturlari yordamida real muammoli vaziyatlarni vizuallashtirishlari kerak. Masalan, byudjetni hisoblash, xarajatlar tahlili, grafiklar yaratish kabi amaliy mashqlar bilan ishlash. Bu o‘quvchida nafaqat hisoblash, balki ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tabiiy fanlar uchun: O‘qituvchilarni virtual laboratoriyalar va simulyatsiya platformalari bilan ishlashga o‘rgatish. Bu o‘qituvchiga mavzuni quruq tushuntirish o‘rniga, o‘quvchilarga gipoteza qilish, tajriba o‘tkazish va xulosalarni raqamli qayd etish imkonini beradi. Bu metod orqali tabiiy fanlardagi eng zaif tomon hisoblangan "Ilmiy metodologiya"ni rivojlantirishga erishiladi.

2. Loyihaga asoslangan o‘qitish orqali STEM integratsiyasi. STEM yondashuvini boshlang‘ich sinfga joriy etishning eng samarali usuli – kichik va hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni tashkil etishdir. O‘qituvchining tayyorgarlik moduli, aynan, ushbu loyihalarni ishlab chiqish va boshqarishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Quyidaga loyihalarga ayrim misollar keltirib o‘tamiz. “Energiya tejovchi uy modeli”. O‘quvchilar uyni loyihalashda, materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanligini o‘rganadi va qurilish xarajatlarini hisoblaydi. Bu orqali ular sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

“Eng samarali sug‘orish tizimi”. Turli yerlar uchun suv sarfini o‘rganish, oddiy texnik vositalar yordamida suv oqimini o‘lchash. Bu o‘qituvchiga fanlararo aloqalarni amaliyotda ko‘rsatish imkonini beradi.

O‘qituvchilarni STEM loyihalari uchun baholash mezonlarini ishlab chiqishga, ya’ni faqat yakuniy natijani emas, balki loyiha jarayonida qo‘llanilgan tahlil, rejalashtirish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini baholashga o‘rgatish juda muhimdir.

TIMSSda muntazam ravishda eng yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgan davlatlar tajribasi o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi tizimini takomillashtirishda asosiy yo‘nalish bo‘lishi kerak. Singapur, Koreya Respublikasi va Yaponiya kabi davlatlarning ta’lim tizimida o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi muhim o‘rin tutadi.

Singapur tajribasi. Singapur ta’lim tizimida o‘qituvchi malakasini oshirish “natijaga yo‘naltirilgan” va “tizimli” xususiyatga ega. Har bir o‘qituvchi yiliga o‘z kasbiy rivojlanishiga ma’lum soatlar (ko‘pincha 100 soatdan ortiq) ajratishi shart.

Matematik metodika: Singapurda “Modelizatsiya” (Modeling) usuli keng qo‘llaniladi. O‘qituvchilar real hayotiy muammolarni matematik modelga o‘tkazish (Tahlil) va uni yechish (Qo‘llash) ko‘nikmalarini chuqur o‘rganadi. Boshlang‘ich ta’limda bar-modellar (rasmli diagrammalar) orqali mavhum tushunchalarni konkretlashtirish metodikasi TIMSSda yuqori natijalarga erishishning asosiy omillaridan biridir.

Koreya va Yaponiya tajribasi. Janubiy Koreya va Yaponiya ta’limida o‘qituvchilarning metodik o‘sishida “Lesson Study” (Darsni o‘rganish/Tadqiq qilish) modeli muhim rol o‘ynaydi. Bu model o‘qituvchilarning hamkorlikda dars rejasini ishlab chiqishi, darsni o‘tishi, uni kuzatishi va tahlil qilishi orqali metodik tajribani almashishni nazarda tutadi. O‘qituvchilar guruh bo‘lib ishlash jarayonida TIMSS talablariga mos muammoli topshiriqlarni darsga qanday kiritish, o‘quvchilarning "Tahlil" bosqichidagi reaksiyalarini qanday baholash va darsni qay yo‘sinda takomillashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Bu tizim o‘qituvchini yakkalanib qolishdan himoya qiladi, uning fan va pedagogik bilimlarini

doimiy ravishda yangilaydi hamda jamoaviy yondashuv orqali eng samarali metodikalarni topishga yordam beradi.

Xulosa, TIMSS xalqaro baholash dasturi nafaqat o‘quvchilar bilimini, balki boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarlik sifati va samaradorligini ham ob’ektiv baholashda muhim ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro mezonlar darajasiga olib chiqishda TPACK (Texnologiya, Pedagogika, Mazmun) va STEM (Fanlararo integratsiya) yondashuvlari muhim nazariy va amaliy asbob vazifasini o‘taydi. Bu metodlarni tizimli ravishda joriy etish orqali o‘qituvchi nafaqat mavzuni tushuntiradi, balki o‘quvchilarda ilmiy metodologiya, loyihaviy fikrlash va real muammolarni yechish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantira oladi. Xalqaro tajriba (Singapur, Koreya) shuni ko‘rsatadiki, tizimli va natijaga yo‘naltirilgan metodik rivojlanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishning va TIMSS reytinglarida yuqori natijalarga erishishning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ergasheva M. va boshqalar. PISA, PIRLS TIMSS xalqaro baholash dasturlariga maktab o‘quvchilarini tayyorlash mexanizmlari. Metodik qo‘llanma, - Toshkent, 2022 - yil. - 212 b.
2. Ergasheva M. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan tayanch maktablar uchun treninglar o‘quv dasturi. Metodik tavsiya. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Tabiiy savodxonlik bo‘yicha. Toshkent, 2021 y. -245 b.
3. Honey, M., Pearson, G., & Schweingruber, H. (Eds.). (2014). STEM Integration in K-12 Education: Status, Prospects, and an Agenda for Research. Washington, DC: The National Academies Press.
4. Koehler, M. J., & Mishra, P. What is Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK). Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 2009. 9 (1), - P. 60-70.
5. Mishra, P., & Koehler, M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 2006. 108 (6), 1017–1054 - pp.
6. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. Harvard Educational Review, 57 (1), -P. 1-22.

ШАРҚ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА ФУТУВВАТ ҒОЯЛАРИ

Ҳайдаров Комил Донабаевич
Самарқанд вилоят педагогик маҳорат маркази профессори фалсафа фанлари доктори (DSc)

Аннотация. *Ушбу мақолада бебаҳо ҳикматлар сандиғи бўлган Шарқ маънавий мероси, Марказий Осиёда яшаб ижод этган буюк алломаларнинг*

инсонпарварлик ғоялари, хусусан, саховатпешалик, футувват ва мурувват ғоялари ҳамда уларнинг тарбиявий аҳамияти, маънавий тарбия омилининг ўрни ва аҳамияти, шарқона одоб ва ахлоқ тамойилларининг барҳаётлиги масалалари фалсафий таҳлил қилинган.

Калит сўзлар. *Маънавий мерос, тарбия, миллий-маънавий қадриятлар, Шарқ алломалари, баркамол шахс, жадидлар мероси.*

Шарқ халқлари маънавий ўтмишини бебаҳо хазинага қиёсланиши бежиз эмас. Зеро, бизнинг заминимизда маънавият, тарбия масалалари азалдан миллат тараққиётининг энг зарур ва муҳим шарти ҳисоблаб келинган. Мутафаккир аждодларимиз шарқона одоб-ахлоқ ва тарбия ғояларини улуғла келганлар ва шу тарзда инсон ҳаётининг туб моҳиятига асос солганлар. Бундай ғоялар илк ўрта асрлар даврида Ибн Сино, Беруний, Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд каби мутафаккирларнинг, муҳаддис алломаларнинг асарларида ҳам, “Қутадғу билиг”, “Қобуснома” каби дидактик асарларда ҳам кенг ёритилган. Темурийлар даврига келиб шарқона маданият ғояларига эътибор кучайди. Хусусан, “Темур тузуклари”да дўстлик, вафодорлик, инсоф, адолат, иймон ва эътиқод, илм-маърифат ва касб-ҳунарли бўлиш ҳамда бошқа инсоний фазилатларга риоя қилиш ҳақида теран фикрлар баён этилган. Соҳибқирон Амир Темур томонидан фуқароларнинг шариатга ва қонун-қоидаларга сўзсиз бўйсиниши лозимлигига катта эътибор берилган. Бу Шарқ халқларига, хусусан, ўзбек халқига хос бўлган юксак маданият ва маънавият белгисидир.

Инсонпарварлик ғоялари тизимида саховат, меҳр-мурувват, ҳимматли бўлиш, футувват ғоялари алоҳида ўрин тутади ва улар шарқона демократия тамойилларининг шаклланишига асос бўлди. Бундай ғоялар, хусусан, *ислом дини,* унинг фалсафаси (калом), ер юзи мусулмонларининг дастуруламали, диний аҳкомлар манбаи бўлган *Қуръони карим ва Ҳадису шарифларда* айниқса яққол намоён бўлади.

Масалан, Қуръони каримда имон инсон иродасини, фазилатларини чиниқтирадиган қудратли восита сифатида олиб қаралиши, имонли кишининг мўмин, юввош, итоаткор, ёлғон сўздан қочувчи, поклик, ҳалолликка интилувчи, ваъдага вафо, ибодатига амал қилувчи бўлишлари баробарида улар ўта сахий ва мурувватли бўлишлари боис жаннат ворислари бўлган инсонлар, деб қаралади.

Савоб ишлар қиладиган саховатли, хайр-эҳсонли мусулмон кишининг имони зиёда бўлади, яъни имонининг нури янада равшанлашади. Гуноҳ ишлар қилинганда эса имон нури хиралашади. Муқаддас Қуръони каримда “Хайрли, савоб ишларда бир-бирингиздан ўзишга шошилинг” дейилган ҳикматнинг маъноси шудир.

Таниқли ёзувчи Тоҳир Малик “Ҳаётда инсон баъзан ҳалол (пок) ва ҳаром (нопок) икки айри йўлга тўғри келиб қолади. Улардан қайси бирини танлаш унинг ақлига, ирода кучига, виждон амрига боғлиқ бўлади” [3.127], деб ёзган эди. Пайғамбаримиз Муҳаммад саллаллоҳу алайҳи ва саллам кўплаб ҳадису шарифларида мусулмончилик фақат намоз, рўза, закот, ҳаж каби ибодатлар билангина эмас, балки раҳм-шафқатли бўлиш, муҳтожларга марҳаматли, хайр-эҳсонли бўлиш, одамларга манфаат етказиш, муомала ва муносабатларда

адолатли бўлиш, инсофда туриш каби фазилатлар билан ҳам белгиланишини таъкидладилар. Расулуллоҳ исломнинг асосий мақсади хулқни тузатмоқ, нафсни тарбиялаш билан камолотга эришмоқ эканлигига ишора қилиб, одамларни тўғрисўзликка, виждонни пок сақлашга, риё, нифоқ, ҳасад, адоват, гина, кибру ҳаво, ўзаро қўпол муносабатлардан сақланишга даъват этдилар. Юртимиздан етишиб чиққан, ислом оламида ном қозонган Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, Имом ад-Дорамий каби буюк муҳаддислар пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.)нинг ислоҳга муҳтож бўлган барча амаллар, жумладан эътиқод, амалиёт, ахлоқ-одобга доир бебаҳо аҳкому арконларини баён қилиб, халқ орасида ташвиқот қилдилар.

Тасаввуф илмини тарғиб қилган *Хожа Аҳрори Валий* (1404-1490) бошқаларнинг оғирини енгил қилишни энг улуғ ва олижаноб иш деб билган. Шу ғояга асосан Хожа Аҳрор ўз фаолиятида сўфийларга бева-бечораларни, оддий меҳнат аҳлини моддий ва маънавий ҳимоя қилиш учун давлат ишларига аралашишлари лозимлиги ва шу йўл билан халқдан ўз хизматларини аямаслигини доимий равишда эслатиб келган. Шу боис, ўзи биринчилар қатори ҳокимиятдаги нуфузли шахслар воситасида минг-минглаб кишиларга ёрдам кўрсатган. Бошқаларни ҳам шунга даъват этган. Бу фикрнинг тасдиғи тариқасида Хожа Аҳрорнинг Навоий, Жомий ва Ҳусайн Бойқарога йўллаган мактубларини эслаш кифоя. Абдураҳмон Жомий “Нафаҳот ул-унс мин ҳазорот ил-қудс” (Муқаддас даргоҳдан эсувчи дўстлик шабадалари) деган асарида таъкидлаганидек, Хожа Аҳрорнинг сахийликлари чегарасиз эди [2.96]. У қурдирган мадраса ва хонақоҳларнинг сони 20 дан ортиқ, вақфнома дафтаридаги мол-мулкларнинг сони 254 та бўлган.

Таниқли олим Нажмиддин Комилов *тасаввуф ва футувват* мазмунан ўзаро яқин бўлиб, бир-бирини тўлдирган ва бир-бирига мадад берган, деб таъкидлаган эди. Бизнинг юртимизда қадимдан одамларга яхшилик қилиш, уларнинг ҳожатини чиқариш, дўсту бирodарлар, устозлар, элу юрт шарафини ҳимоя қилиш, юртдошларнинг обрўйини кўтариш каби ҳалол-покиза ишларни бажариб юрадиган, шундан завқ-шавқ оладиган эзгу ниятли инсонлар кўп бўлган. Бундай одамларни жавонмардлар, ахийлар ёки фатийлар деб атаганлар (“жавонмард”- мард, ботир, олижаноб, “фатий”ҳам шундай, “ахий”- дўст, биродар деган маънони билдиради).

Футувват маслак, тариқат бўлиб, унинг рукнлари қуйидагилардан иборат бўлган:

- камбағал, муҳтож кишиларга беғараз моддий ёрдам кўрсатиш;
- ҳожатбарорлик, одамларни мушкуллардан қутқариш;
- турмушда оғир вазиятга тушиб қолган, йўлини йўқотган одамларга маслаҳат бериш, ўз йўлини топиб олишига кўмаклашиш;
- беморларнинг дарддан қутилишига ёрдам бериш;
- етим болаларни парвариш қилиш, тарбиялаш;
- мусофирларга хизмат кўрсатиш, уларнинг кўнглини олиш;
- ёшларнинг илм, касб-ҳунар эгаллашларига ёрдам бериш;

- қариндошлар, ота-оналар, фарзандлар аҳволидан доимо хабар олиб туриш, меҳр-оқибатли бўлиш;

- ҳаммаслаклар, устоз ва мураббийлар ҳурматини жойига қўйиш;

- элу юрт, она Ватан шарафини ҳимоя қилиш, зарур бўлганда Ватан учун жон фидо қилиш, уни душманлар, ғаламислардан ҳимоя қилишга доимо шай туриш.

Жавонмардлик ҳаракати Хуросон, Эрон ва Мовароуннаҳрда X-XIII асрларда бошланган бўлиб, Шайх Абулҳасан Харақоний, Шайх Абулаббос Қассоб, Шайх Абуали Сиёҳ, Шайх Абуали Даққоқ, Абуабдуллоҳ Санжарий ва бошқаларнинг ғоя ва даъватлари, амалий ҳаракатлари орқали яққол намоён бўлди.

Буюк аждодларимиз асос солган тарихий силсила юртимиздан етишиб чиққан маърифатпарвар жадидлар тимсолида бардавом бўлганлиги айни ҳақиқат. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев 2020 йилнинг 24 январь куни Олий Мажлисга Мурожаатномасида халқимизнинг маънавий юксалишига бетакрор ҳисса қўшган маърифатпарвар жадидларнинг бебаҳо меросини ўрганиш масаласига алоҳида тўхталиб ўтди [1.2]. Жадидлар фақатгина илм-маърифатни эмас, балки энг аввал инсонийликни, меҳр-оқибатни улуғланганлар. Улар “ўзбек халқининг кейинги тараққиёти учун мустаҳкам пойдевор яратганлар” [4.9-10], қийинчилик билан ҳаёт кечиришган бўлсаларда, маънавиятни доимо боши узра кўтариб ва ардоқлаб келганлар. Маънавий-маданий қадриятларимизнинг буюк сиймолари, қомусий олимларимиз инсоният тамаддуни ривожи, жаҳон тафаккури тараққиётига улкан ҳисса қўшдилар.

Бугун Ўзбекистонда ёшларни илм-фанга кенг жалб қилиш, жаҳон фани ва билимлари хазинасидан баҳраманд қилиш давлат сиёсатига айланди. Улуғ аждодларимиз яратган улкан силсила бугун ҳам, эртага ҳам, ундан кейин ҳам давом этаверади. Ўз тарихи, маънавий мероси руҳида тарбия топган ёш авлод онгида ўз Ватани, унинг ўтмиши билан фахрлана олиш туйғуларини шакллантириш бугун маънавий тарбия жараёнидаги энг муҳим йўналишга айланиши лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси // “Халқ сўзи”, 2020 йил 25 январь. - №19 (7521)-сон.

2. Валихўжаев Б. Хожа Ахрор тарихи. –Т.: “Ёзувчи”, 1994. – 96 бет.

3. Тоҳир Малик. Ҳалол нима-ю... ҳаром нима: маърифий суҳбатлар. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2016. –127 бет.

4. KOMIL DONABOYEVICH HAYDAROV. (2021). THE IMPACT OF THE NAQSHBANDI PHILOSOPHY ON THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL VALUES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1*(2), 9–14. Retrieved from http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/13.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В КУРСЕ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Акрамова Насиба Хамитовна
преподаватель кафедры узбекского языка и гуманитарных наук Каттакурганского государственного педагогического института

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы организации самостоятельной работы студентов, изучающих русский язык как иностранный. Анализируется роль самостоятельной работы в образовательном процессе, ее виды, формы и условия реализации с использованием информационно-коммуникационных технологий. Особое внимание уделено различиям в готовности студентов к самостоятельному обучению и задачам, которые решает такая работа в контексте формирования общекультурных и профессиональных компетенций.*

Ключевые слова: *самостоятельная работа, русский язык как иностранный, информационно-коммуникационные технологии, стимулирующая активность, виды и формы самостоятельной работы*.

Введение. В современном высшем образовании самостоятельная работа студентов представляет собой ключевой элемент учебного процесса, особенно в контексте преподавания русского языка как иностранного (РКИ). Данный вид деятельности не только дополняет аудиторные занятия, но и способствует развитию автономности, критического мышления и самодисциплины, что особенно важно для студентов, адаптирующихся к русской языковой культуре и профессиональной деятельности в русскоязычной среде.

Самостоятельная работа трактуется как форма организации образовательного процесса, стимулирующая активность, самостоятельность и познавательный интерес обучающихся [1]. Она определяется как вид учебной деятельности, выполняемый студентом без непосредственного контакта с преподавателем или управляемый им опосредованно через специальные учебные материалы [2]. В условиях РКИ эта форма обучения приобретает особую значимость, поскольку способствует преодолению культурных барьеров, закреплению грамматических структур и развитию коммуникативных навыков. Цель данной работы – проанализировать принципы организации самостоятельной работы в курсе РКИ, выявить ее виды, формы и роль информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в повышении эффективности обучения.

Теоретические основы самостоятельной работы: Самостоятельная работа как форма организации обучения обеспечивает самостоятельный поиск необходимой информации, творческое восприятие и осмысление учебного материала в ходе аудиторных занятий, а также разнообразные виды

познавательной деятельности студентов в аудиторное и внеаудиторное время. Она нацелена на индивидуальную работу, развитие аналитических способностей, навыков контроля и планирования учебного времени, формирование умений рациональной организации учебного труда. В контексте высшего образования самостоятельная работа способствует закреплению лекционных знаний через их осмысление и расширение, решению актуальных проблем формирования общекультурных и профессиональных компетенций, научно-исследовательской деятельности, а также подготовке к семинарам, лабораторным работам, зачетам и экзаменам.

Навыки самостоятельной работы формируются у человека с раннего возраста и развиваются на протяжении жизни. К моменту поступления в вуз каждый студент обладает определенным опытом организации собственных действий, приобретенным в школе, учреждениях дополнительного образования и повседневной жизни. Однако требования к самостоятельной работе в высшей школе значительно повышаются, поскольку связаны с освоением сложных академических и профессиональных компетенций.

Студенты различаются по уровню готовности к реализации требований самостоятельной работы. Можно выделить две основные группы. К первой относятся студенты, ориентированные на выполнение заданий и обладающие универсальными учебными компетенциями: умением понимать и запоминать информацию, логически мыслить, воспроизводить материал устно и письменно, проводить измерения, вычисления, проектирование и т.д. Вторая группа характеризуется низким уровнем ориентации на самостоятельную работу и недостаточным развитием навыков самоорганизации, что требует дополнительных мер поддержки.

Задачи самостоятельной работы в обучении РКИ: В рамках образовательного процесса высшей школы самостоятельная работа решает комплекс задач:

- Закрепление и расширение знаний, умений и навыков, полученных на аудиторных и внеаудиторных занятиях, их превращение в стереотипы умственной и физической деятельности;
- Приобретение дополнительных знаний и навыков по дисциплинам учебного плана;
- Формирование и развитие компетенций, связанных с научно-исследовательской деятельностью;
- Развитие установки на качественное освоение образовательных программ;
- Формирование навыков самоорганизации;
- Развитие самостоятельности мышления, способности к саморазвитию, самосовершенствованию и самореализации;
- Выработка навыков эффективной профессиональной, теоретической, практической и учебно-исследовательской деятельности.

Реализация этих задач в условиях РКИ требует применения информационно-коммуникационных технологий. Использование

интерактивных обучающих пособий (тренажеров), компьютерных презентаций, электронных баз данных, справочно-информационных источников (онлайн-переводчиков, словарей), электронных библиотек, периодических изданий и электронных коллекций (аудио-, фото-, видеофайлов) позволяет студентам решать проблемы языковой практики автономно [3]. Это особенно актуально для иностранных студентов, поскольку ИКТ помогают преодолевать временные и пространственные ограничения, способствуя развитию навыков аудирования, чтения, письма и говорения.

Виды и формы самостоятельной работы. Самостоятельная работа студентов в курсе РКИ может быть классифицирована по видам на основе характера деятельности:

- Репродуктивная: закрепление и повторение изученного материала (выполнение упражнений, чтение текстов);
- Продуктивная: творческое применение знаний (составление эссе, презентаций, ролевых игр);
- Исследовательская: анализ и решение проблем (проектная деятельность, анализ литературных произведений).

Формы самостоятельной работы включают:

- Индивидуальные задания (домашние работы, тесты, рефераты);
- Групповые формы (дискуссии, коллаборативные проекты);
- Внеаудиторные занятия (подготовка к экзаменам, работа с онлайн-ресурсами).

В РКИ предпочтение отдается мультимедийным формам, которые с использованием ИКТ делают обучение более интерактивным и наглядным, помогая студентам преодолевать языковой барьер.

Для эффективной организации самостоятельной работы студенты вуз обеспечивает следующие условия:

- Материально-техническую базу (компьютеры, доступ к интернету);
- Фонды информации для самостоятельной работы, доступные в аудиторное и внеаудиторное время;
- Специализированные помещения для выполнения заданий;
- Обоснованное содержание заданий, интегрированных в рабочие программы дисциплин;
- Расчет времени на самостоятельную работу;
- Сопровождение преподавателями: планирование, текущий и итоговый контроль, обратная связь.

Студенты второй группы, характеризующиеся низким уровнем готовности к самостоятельной работе, нуждаются в комплексных мерах поддержки и стимулирования. Это обусловлено их недостаточным опытом самоорганизации, низкой мотивацией и отсутствием навыков эффективного взаимодействия с учебными материалами, что усложняет преодоление культурных и языковых барьеров при изучении русского языка как иностранного (РКИ). Такие студенты часто испытывают трудности с

инициативой, планированием и самоконтролем, что снижает эффективность самообучения и адаптации в русскоязычной среде.

Для повышения готовности студентов этой категории целесообразно внедрить «мотивационные программы», направленные на формирование устойчивого интереса к овладению РКИ как ключевой профессиональной компетенции. Эти программы могут включать следующие элементы:

- «Индивидуальные консультации»: В рамках которых преподаватель помогает студенту разработать личный план изучения языка, адаптированный к его темпу и целям. Акцент делается на обсуждении связи РКИ с будущей карьерой, например, через кейсы из профессиональной сферы (педагогика, экономика, медицина, инженерия).

- «Групповые дискуссии и викторины»: Организуемые в интерактивной форме, где студенты делятся опытом преодоления барьеров, обсуждают реальные ситуации адаптации (например, общение с коллегами на русском) и участвуют в викторинах по темам, связанным с культурными особенностями. Это стимулирует познавательный интерес и осознание практической пользы самостоятельного обучения.

- «Работа с медиаконтентом»: Просмотр видеороликов, подкастов или фильмов на русском языке с последующим анализом, что помогает визуализировать преимущества владения языком в повседневной и профессиональной жизни.

Кроме того, для данной категории студентов полезны «специализированные курсы по развитию навыков самоорганизации», где акцент делается на планировании учебного времени, постановке SMART-целей (конкретных, измеримых, достижимых, релевантных и ограниченных по времени) и тренировке самоконтроля. Эти курсы могут быть организованы с использованием информационно-коммуникационных технологий, таких как онлайн-тренинги и интерактивные платформы, позволяющие студентам самостоятельно работать над развитием этих навыков. Например:

- «Онлайн-платформы типа Moodle или Coursera»: С модулями по тайм-менеджменту, где студенты ведут личные дневники прогресса, устанавливают напоминания и получают обратную связь от системы (например, через тесты на самоконтроль).

- «Интерактивные тренажеры»: Включающие симуляции реальных ситуаций изучения языка, где студент планирует недельный график обучения, мониторит выполнение задач и корректирует план на основе саморефлексии.

Внедрение этих мер требует координации между преподавателями и тьюторами для отслеживания прогресса. Критерии оценки эффективности включают: повышение мотивации (через анкетирование), улучшение навыков самоорганизации (по результатам тестов на планирование) и рост академических показателей (например, успешное выполнение самостоятельных заданий по РКИ). Этапы внедрения:

1. Диагностика уровня готовности (анкетирование и тестирование).

2. Разработка индивидуальных планов поддержки.

3. Мониторинг и коррекция программ в течение семестра.

Таким образом, целенаправленные меры помогут студентам второй группы преодолеть трудности и интегрироваться в процесс самостоятельного изучения иностранного языка, способствуя их личностному и профессиональному росту.

Заключение. Организация самостоятельной работы студентов в курсе русского языка как иностранного является комплексным процессом, направленным на формирование автономности и профессиональных навыков. Ее роль в современных условиях усиливается благодаря ИКТ, которые преодолевают ограничения традиционного обучения. Однако успех зависит от учета индивидуальных особенностей студентов и создания благоприятных условий. Дальнейшие исследования могут быть ориентированы на эмпирический анализ эффективности различных форм самостоятельной работы в мультикультурной среде вуза.

Используемая литература:

1. Гречухина Т. И., Меренков А. В. (ред.). Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки. Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2016.

2. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М.: Издательство ИКАР, 2009. 448 с.

3. Азимов Э. Г. Информационно-коммуникационные технологии в обучении РКИ: состояние и перспективы // РЯЗР. 2011. № 6. С. 45–55.

4. Бим И. Л. Некоторые актуальные проблемы современной методики обучения иностранным языкам // ИЯШ. 2001. № 1. С. 3–9.

5. Баграмова Н. В., Куличихина А. С. Самостоятельная работа студентов по русскому языку как иностранному: формы, организация, оценка. М.: Издательство РУДН, 2018. 120 с.

6. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. М.: Академия, 2007. 368 с.

Интернет-сайты

7. Росийское общество преподавателей русского языка и литературы (РОПРЯЛ) – roprial.ru. Ресурс с материалами по методике преподавания РКИ, семинарами и публикациями.

8. Платформа Coursera – coursera.org. Курсы по лингвистике и методике обучения языкам, включая модули по самостоятельному изучению РКИ (например, от МГУ).

9. Официальный портал для изучающих русский язык – russia-edu.ru. Государственный проект с видеоуроками, тестами и материалами для самостоятельного обучения РКИ.

10. Duolingo – duolingo.com. Бесплатная платформа с интерактивными курсами русского языка, подходящая для тренировки навыков самоорганизации и самостоятельного прогресса.

TIMSS TADQIQOTLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM ASPEKTLARI

Urazova Nasiba Urazbayevna
A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Maqolada TIMSS xalqaro baholash mezonlari asosida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy masalalari yoritilgan. Tadqiqotda TIMSS talablari, o‘quvchilarning bilim darajasi va ularning o‘qituvchi faoliyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, metodik tayyorgarlikni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xalqaro tajribalar va ularni mahalliy ta’limga integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *TIMSS, xalqaro baholash dasturi, boshlang‘ich ta’lim, metodik tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, baholash mezonlari.*

Ta’lim sifati va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini ob’ektiv baholash zarurati TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarning ahamiyatini oshirmoqda. Mazkur dastur orqali o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirish darajasi bilan birga, ularga ta’lim berayotgan o‘qituvchilarning malakasi va butun ta’lim muhitining samaradorligi aniqlanadi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi, bilim darajasi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metakognitiv yondashuvlar, STEM va TPACK modellarini o‘zlashtirishi, ulardan amaliyotda samarali foydalanishi TIMSS dasturi doirasidagi indikatorlar orqali aniqlanmoqda. Shu boisdan, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish zaruriyati dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda [1, 2, 5].

TIMSS dasturining 2019 yilgi natijalariga ko‘ra, yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar ta’limida o‘qituvchilar uchun yaratilgan kasbiy rivojlanish dasturlari, metodik ko‘mak tizimi, fanlararo integratsiya, amaliy mashg‘ulotlar va ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik ta’minot asosiy o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda TIMSS mezonlari asosida nazariy va amaliy asoslar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishish, o‘qituvchilarning professionallik darajasini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [5, 6].

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini xalqaro TIMSS

talablari asosida takomillashtirishda TPACK modeli va STEM asosidagi integrativ yondashuvlar muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli o‘qituvchining texnologik vositalardan foydalanish qobiliyati, fanga oid mazmuniy bilimlari hamda didaktik metodikasi o‘rtasidagi muvozanatni anglatadi. Bu model asosida dars beruvchi o‘qituvchi o‘quvchilarda TIMSS baholashida asosiy o‘rin tutuvchi kontentni tushunish, qo‘llash va tahlil qilish kabi kognitiv bosqichlarga mos kompetensiyalarni shakllantira oladi. Shu bilan birga, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) integratsiyasi orqali o‘quvchilarda real muammolarni hal qilish, loyihaviy fikrlash, tajriba asosida o‘rganish kabi yuqori darajadagi ko‘nikmalar rivojlanadi. TIMSS mazmuniy doirasida aynan mana shunday o‘quv faoliyati turlari yuqori baholanadi. Shu boisdan, o‘qituvchilarni STEM loyihalari asosida dars ishlanmalarini tayyorlashga, fanlararo aloqalarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish - metodik tayyorgarlik sifatini xalqaro mezonlarga moslashtirishning eng samarali yo‘llaridandir [3, 4].

TIMSS talablari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida nafaqat baholash natijalarini tahlil qilish, balki zamonaviy metodik modellarning joriy etilishi ham muhim hisoblanadi. Xususan, T. Shulman tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli - pedagogik, fanga oid va texnologik bilimlarning integratsiyasi - boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda kompleks ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv yordamida o‘qituvchilar dars jarayonida nafaqat mavzuni tushuntiradi, balki uni raqamli vositalar orqali amaliyotga tatbiq qiladi, bu esa TIMSSda o‘lchanadigan bilimlarni qo‘llash va tahlil qilish darajalariga mos keladi.

O‘zbekiston 4-sinf o‘quvchilarining TIMSS - 2023 tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi o‘ringa munosib topilgan. Tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo‘yicha 412 ball to‘plangan bo‘lib, ishtirokchi 58 ta davlatdan 54 - o‘rinni egallagan bo‘lsa, matematik savodxonlik bo‘yicha 58 ta davlat ichida 443 ball bilan 50 - o‘ringa munosib deb topilgan.

O‘zbekiston 4-sinf matematik savodxonligi bo‘yicha tadqiqotda ishtirok etgan Saudia Arabistoni (420), Quvayt (382), Janubiy Afrika (362) dan hamda 4-sinf tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo‘yicha Kosova (403), Marokash (390), Quvayt (373) va Janubiy Afrika (308) davlatlaridan yuqori natijalarni qayd etgan. 4-sinflarda matematik savodxonlik bo‘yicha Singapur, Xitoy, Koreya Respublikasi, Gonkong, Yaponiya davlatlari va tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha Koreya, Xitoy, Singapur, Turkiya, Yaponiya kabi davlatlarning ta’lim sistemasi eng oldingi o‘rinlarga loyiq deb topilgan [1, 2, 4]. Quyida TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida O‘zbekistondan qatnashgan boshlang`ich sinf o`quvchilarining (4-sinf) erishgan natijalari haqida ma`lumotlarni keltirib o`tamiz (1-jadval).

1-jadval

TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida O‘zbekistonning erishgan natijalari (4-sinf)

№	Ko‘rsatkich	Matematika	Tabiiy fanlar	Izoh

			(Science)	
1.	O‘zbekistonning o‘rtacha balli	412	443	IEA tomonidan belgilangan xalqaro mezon (500 ball)dan past, lekin qatnashuv uchun barqaror
4.	O‘zbekistonning reytingi (dunyo bo‘yicha)	54-o‘rin	50-o‘rin	58 ta davlat ichida o‘rta past ko‘rsatkich
5.	Bilim darajasi (profillar bo‘yicha)	Past daraja	Past daraja	Ko‘pchilik o‘quvchilar “bilimlarni qo‘llash” va “tahlil qilish” bosqichida qiynalgan
7.	Baholangan sohalar	Bilish, Qo‘llash, Tahlil	Bilish, Qo‘llash, Tahlil	Har bir daraja o‘quvchilarning kognitiv salohiyatini baholaydi
8.	O‘quvchilarning eng kuchli tomoni	Asosiy matematik bilimlar	Asosiy biologik tushunchalar	Oson savollarda to‘g‘ri javob ko‘rsatkichi 70% atrofida
9.	O‘quvchilarning eng zaif tomoni	Tahliliy fikrlash	Ilmiy metodologiya	Diagrammalarni tushunish, sabab-oqibat tahlili past darajada

(Manba: IEA – International Association for the Evaluationof Educational Achievement, 2023)

TIMSS 2023 natijalaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali xalqaro miqyosda yuqori natijalarga erisha olmayapti: matematika bo‘yicha 54-o‘rin (412 ball), tabiiy fanlar bo‘yicha 50-o‘rin (443 ball). Bu esa o‘z-o‘zidan o‘qituvchilar tayyorgarligi, metodika, dars jarayonining mazmuni va baholash tizimini chuqur tahlil qilish va isloh qilish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan TIMSS 2023 natijalaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali xalqaro miqyosda yuqori natijalarga erisha olmayapti: matematika bo‘yicha 54-o‘rin (412 ball), tabiiy fanlar bo‘yicha 50-o‘rin (443 ball). Bu esa o‘z-o‘zidan o‘qituvchilar tayyorgarligi, metodika, dars jarayonining mazmuni va baholash tizimini chuqur tahlil qilish va isloh qilish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish, shuningdek, bu kabi xalqaro tadqiqotlarda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishda turli moddiy vositalar bilan bir qatorda, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy intelektual salohiyatini oshirish, ularning turli ta’lim texnologiyasi, metod, usullardan foydalanish ko‘nikmalarini takomillashtirish davr talabi hisoblanmoqda. Quyida mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining TIMSS baholashida muvoffaqqiyatli natijalarga erishishi uchun amalga oshirilishi zarur bo‘lgan asosiy mezonlarni keltirib o`tamiz.

Xalqaro mezonlarga mos metodik tayyorgarlik olib borish. O‘qituvchilar TIMSS talablari asosida tuzilgan dars ishlanmalari, topshiriqlar va savol turlarini chuqur o‘zlashtirishi kerak. Chunki TIMSS faqat faktni bilish emas, balki qo‘llash va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini ham baholaydi. Bu uchun o‘qituvchilarga metakognitiv yondashuvlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish kabi metodlar o‘rgatilishi zarur.

TIMSS savollariga mos dars mashqlari bilan ishlash. O‘qituvchilar TIMSS baholashida ishlatiladigan test savollari, grafiklar, real hayotiy masalalarga o‘xshash topshiriqlarni darslarda muntazam qo‘llashi kerak. Buning uchun maxsus seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, treninglar tashkil etilishi zarur.

TPACK modeli asosida darsni loyihalash lozim. O‘qituvchilar fan, pedagogika va texnologiya bilimlarini integratsiya qilgan holda zamonaviy dars modellarini ishlab chiqishlari kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, amaliy qo‘llash va raqamli savodxonlikni shakllantiradi.

STEM asosidagi integrativ yondashuvlar olib borish. Matematika va tabiiy fanlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalab o‘qitish, hayotiy misollar, loyihalar va tajribalar asosida dars o‘tish o‘quvchilarning bilimni qo‘llay olish darajasini oshiradi. Bu TIMSSda yuqori baholanadigan muhim mezondir.

O‘qituvchilar uchun tizimli va doimiy malaka oshirish. Yuqori natijaga erishgan davlatlar (Singapur, Koreya, Yaponiya) tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi - muntazam, bosqichma-bosqich, natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

TIMSS baholashida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) asosidagi integrativ metodlar boshlang‘ich ta’limda ham keng qo‘llanilmoqda. STEM yondashuvi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammo yechish, amaliy topshiriqlar orqali bilimni mustahkamlash va fanlararo bog‘liqlikni anglash kompetensiyalarini shakllantiradi. O‘qituvchilarning TIMSSga tayyorgarligini kuchaytirishda diagnostik testlar, formativ baholash usullari, darsga tayyorlikni belgilovchi indikatorlar, interaktiv topshiriqlar to‘plami asosida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu orqali o‘qituvchi har bir darsni xalqaro mezonlar asosida loyihalashi, dars natijalarini tahlil qilishi va o‘quvchi rivojlanishini muntazam kuzatib borishi mumkin bo‘ladi.

Xulosa. TIMSS xalqaro baholash dasturi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini baholash va takomillashtirishda muhim ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida metodik tayyorgarlikning mazmuni, uning tarkibiy qismlari va kompetensiyaviy yondashuv doirasidagi ahamiyati aniqlanib, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida TIMSS mezonlarini integratsiya qilish zarurligi asoslab berildi. TIMSS talablari asosida o‘qituvchilarni tayyorlash nafaqat o‘quvchilarning fan bo‘yicha yutuqlarini oshiradi, balki ta’lim jarayonining samaradorligini ham sezilarli darajada yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Ergasheva M. va boshqalar. PISA, PIRLS TIMSS xalqaro baholash

dasturlariga maktab o‘quvchilarini tayyorlash mexanizmlari. Metodik qo‘llanma, - Toshkent, 2022 - yil. - 212 b.

2. Ergasheva M. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan tayanch maktablar uchun treninglar o‘quv dasturi. Metodik tavsiya. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Tabiiy savodxonlik bo‘yicha. Toshkent, 2021 y. -245 b.

3. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906 - 911 - pp.

4. Mishra, P., & Koehler, M.J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054 - pp.

5. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., & Arora, A. (2012). TIMSS 2011 Assessment Frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.

6. TIMSS 2019. Baholash qamrov doirasi. Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA). Publishers: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). Toshkent - 2021 y. – B. 6-10.

THE USAGE OF INNOVATIVE STRATAGES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE FOR STUDENTS

Davronova Fotima Pirnazarovna
Associate professor of Samarkand State University of veterinary medicine, livestock and biotechnologies
Ulliyeva Sanobar Khaydarovna
PhD of Samarkand State University of veterinary medicine, livestock and biotechnologies

ABSTRACT. *This article analyses the innovative and quite interesting methods we have in teaching English language. Everybody has their own understanding and conclusions on teaching English language. Whatever the teaching methodology can be, but teaching must be leaner’s centered. However, this paper scrutinizes the difference between traditional and practical teaching and thereafter learning. This treatise practically examines that how learners are being affected by the traditional methods of teaching as well, besides it has portrayed that how learners expect teaching and learning process. There has been a misunderstanding between traditional methods and practical methods always. Somehow teachers and learners should agree each other in order to fill the gap between the generations of these methods.*

Key words: *Renaissance, integral, inquisitive, agitated, jeopardizing, immerse, atmosphere, intuitively, evaluated, database, mobile phone, precautions.*

Introduction. English, the official language of the entire world is a very tricky language to teach. In fact, every language varies to teach. English is a very old

language and has undergone many forms changes from Proto English derived from the Latin and the German culture to the Modern English which was established after in the post Renaissance period. Each version was simpler than it’s previous. Present day English is the simplest adaptation of a very old Language and yet it is still difficult to teach this language effectively especially to those who speak English as a second language.

Problems with current methodologies. Nowadays world English is taught in a very orthodox manner. The basic teaching is needed. Teaching the alphabets and the formation of the words is essential and a must. But there is something that is even more important. The children must be able to speak the words and understand their meaning before writing them down. The foundation to teach English can only be taught using the orthodox methods of teaching the alphabets and the words and the rules. But then teaching only the rules is found to be boring b y most students and it is because of this that they lose interest in learning the language. Although there is no way other than the traditional one to teach the basics of the language these methods must be tweaked a bit so as to appeal to the students. When it comes to teaching English to students of higher classes who already know the basics the traditional methods generally tend to yield poorer results that innovative methods. This has already been proven by methods implemented like use of stories, poems, movies, books and newspapers etc. These methods help the students learn the language better without them actually realizing and also it keeps their interest. This paper will provide a few of such methods to teach English Language.

Twenty ideas for using mobile phones in the language classroom. There are several pedagogical reasons to consider using mobile phones in the second language classroom. Most importantly, phones are social tools that facilitate authentic and relevant communication and collaboration among learners. For example, second language learners can use mobile technology to access relevant vocabulary and expressions while at a bank opening an account, to look up movie reviews while at the theater, or to discuss weekend plans with an English-speaking friend. Since mobile phones are part of students’ everyday routines, they help minimize the separation between the classroom and outside world.

Before asking students to pull out their cell phones in class, you need to have a plan. As with any other teaching activity, ask yourself what you are trying to achieve. Are you focusing on speaking, listening, reading, writing, or some combination of the four skills? Ask yourself if there is an added value to using a phone for the activity you have in mind. If there is none, perhaps it is better to find an alternative.

The next step is to take stock of the resources that you have available. There is an enormous range of phone makes and models and the technology is always advancing. Many of the following ideas will work with all but the most obsolete phones, but some require the use of more recent models. In my own teaching I’ve sometimes asked students to work together in small groups and share one phone that had the required capabilities.

The following ideas for using mobile phones for second language learning generally focus on developing four skills and in many cases integrate speaking with listening and reading with writing. The material and activities can be modified to conform to different syllabi and are easily adaptable for different ages, learning levels and interest. It is important to note that the names of the features used here may not be the same for all mobile phones.

Idea1: Use the Notes feature to collect everyday language. Most mobile phones have a feature that allows them to take notes.

Idea2: Use the Camera feature to take pictures of text.

Idea3: Use free programs to organize language samples.

Idea4: Use the Voice Memo Recorder feature to record language from media outlets.

Idea5: Use the Voice Memo Recorder feature to record conversations outside the classroom.

Idea 6: Use the Text Messaging feature to reinforce vocabulary learning. Text messages can be used to send out vocabulary items at spaced intervals, thus student retention.

Idea 7: Use free programs to make flashcards for mobile phones; If you do not want to create your own vocabulary lists, there are several companies that produce flashcard software that runs on mobile phones, such as You or your students can create vocabulary flashcards that can be retrieved, shared, and practiced anywhere.

****Idea8:*** Use the Text Messaging feature for circular writing; The reality is that many students do not like to write.

Idea9: Use the Text Messaging feature for tandem learning;

Idea10: A more advanced form of using the mobile phone for writing tasks is keeping a blog;

Idea11: Use the mobile phone for microblogging on Twitter;

Idea12: Use the mobile phone for social networking like Twitter, Facebook and so others;

Idea13: Use the mobile phone for a language exchange;

Idea14: Use the mobile phone for “phlogging”; To encourage students to practice individual speaking, they could start phlogging, a recent from of blogging that entails calling a number and leaving a message on a website.

Idea15: Use the mobile memory to distribute listening material.

Idea16: Use the mobile memory to distribute reading material

Idea17: Use the mobile phone to play games

Idea18: Use the Voice Memo Recorder, Notes, and Calendar features to keep a portfolio.

Idea19: Use the mobile phones to check student comprehension and get feedback.

Idea20: Use mobile phone memory for research and collection.

All the ideas above allow you to offer increased opportunities for language learning by taking advantage of a tool that students are intimately familiar with and carry around at all times. Dealing with the challenges of using mobile phones may seem daunting, but teachers I know who use them have found it to be a worthwhile investment of their time and a welcome addition to their language teaching methods. As a result, it gives a number effective and virtuous opportunities of using mobile phones in the practical classes for students.

Teaching through conversations. Conversations are by far the most useful ways of teaching the language. When a child learns his or her mother tongue it is by the conversations that takes place between them and others or by listening to the conversations made by the others. The child is never taught the language but is still able to percept the meaning and learns it automatically to use it in day to day life. No one ever teaches the kid the characters of the language or how to make sentences or the grammar of that language. The conversations alone teach the children.

Hence conversations form a very important part of the teaching process. The sentence construction and the grammar is not something that can be entirely taught by rules. They have to be taught intuitively. That can only happen through a lot of reading and a lot of listening. This can be taken care of easily as every conversation needs a topic. The topic can be given to the students in form of written documents which they have to first read then form an opinion and then have a conversation about it or it can be spoken out and then they can listen, understand and also take part in the conversation.

The participation and other aspects of the conversation can always be evaluated through points which will also push the students to take part in the conversation. These conversations have to be general. They have to happen as if friends are talking to each other. This way the students are comfortable in expressing themselves in the best possible way. This process may take some time but in the end it would be the most efficient one in teaching the language.

Creative assignments. Up till now most of the techniques that we discussed required a greater amount of effort on the student’s part. This method requires effort on the teacher’s part. Assignments help the students learn something on their own and most of the times they have to research on something then write something up on it. This method although effective is most of the times very tedious. This method of approach is very appropriate for sciences and engineering although when it comes to languages the students should be given assignments in which they have to modify something that already exists.

If the students are just given assignments like „write a story or a poem or a report“ then most of the students crack because not everyone can come up with a story or even if they come up with one they cannot write it down. In such case the students should be given the base knowledge and data and then ask them to modify the data for example the students can be given a base story and then ask them to modify a part of it.

This engages their creativity and also helps them overcome their difficulty of writing. Above all it lifts the pressure of creating completely new. Invention is very difficult especially when we are being forced to do it. In this way the students are not forced to complete the assignment and then they can do it whole heartedly and hence complete the learning experience that can be gained from the assignment.

Help from the multimedia. Multimedia sources like songs, movies, TV series, magazines, newspapers play a very vital role in improving our language. We don’t even realize that they have helped us. We just wake up one fine day and realize that we are better than it than we were yesterday. Such sources can be used to help the students improve their language. But great precautions must be taken. This method should be used in the final stages of learning as that is the only place where there is no scope of damage as most of the movies and songs etc. use colloquial

English most of the times which is grammatically wrong and it is very important that the students understand that fact so that they do not use that form of the language in their everyday usage. Apart from that this source is very helpful as it does not feel like education. This is something that the students will do in their spare time. The songs are the best way to communicate how to use a language to express our feelings. Movies are a very common past time but apart from that most of the times they are also very instructional and educational. Also this method appeals to the students as most of the times they are able to connect with the songs and the movies which help them understand the meaning of expressions, usage of tools of the language like comparisons, personifications etc. These sources help them understand why such tools are necessary and also help them understand their usage. Hence this method is again very effective in teaching the language. Traditional methods of reading newspapers and books, novels are also very good methods to teach the language. When the traditional methods are modified along with some innovative ideas the entire learning and the teaching process is enriched and guarantees a success in efficient learning. These are some of the innovative and creative ways of teaching the English Language.

Conclusion. The languages play a very important role in our lives. They help us express our emotions. They help us explain what we want. They help us to communicate and hence are the prime tools to express who we are. Thus the knowledge of a language and its proper utilization is very important as it defines us. If languages were not there to help us communicate there would be no difference in our communications and the way the animals communicate. Hence the ways the languages are taught play a very vital role in a person’s life.

Since English is the official language of this world it is of the most importance that this language has to be taught in such a way that it will help us not just to speak

and write and listen but to communicate. That is the purpose of the language and that is what it must be used for. Hence innovative methods help in bringing a change and most of the times for the better. It helps the students learn faster and in an efficient, interesting and an interactive manner and it is the teacher’s responsibility to leave the traditional methods and make way for new and better methods for the students benefit.

Used Literatures

1. Pirnazarovna, D. F. (2022). Digital technologies in studying English at university: traditions and innovations. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, *8*(3), 97-100.

2. Pirnazarovna, D. F. (2022). WAYS OF FORMING DIGITAL LITERACY IN THE CONTEXT OF TEACHING ENGLISH. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(3), 55-57.

3. Davronova, F. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN RAPID ACQUISITION OF ENGLISH. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 44-47.

9. Davronova, F. (2022). EXPERIMENT-TESTING METHODOLOGY OF ON RAPID TEACHING OF ENGLISH TO STUDENTS IN THE CONDITONS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 72-76.

10. Davronova, F. P. (2022). THE USAGE OF ICT TOOLS INTENDED TO ACQUIRE KNOWLEDGE BY STUDENTS IN ENGLISH CLASSES. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1132-1136.

11. Pirnazarovna, D. F., Baxtiyerovna, N. D., & Pulatovna, B. K. (2022). XORIJIY TILLARNI TEZKOR O ‘QITISHDA QO ‘LLANILADIGAN INNOVATSION TA’LIM METODLARNING AHAMIYATI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 81-87.

12. English teaching forum, Volume 48 number 3- 2010, 20-25p.

13. Davronova, F., Dulanov, S., Murtazoyev, B., Shakhriyorov, B., & Polvonov, S. (2024). ENHANCE LANGUAGE SKILLS OF STUDENTS BY USING INNOVATIVE METHODS IN CLASSES. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 1(5), 441-448.

14. Pirnazarovn, D. F., Rakhmatullaye, D. F., Majitovna, R. V., Bakhtiy, A. O., Akmal, Z. S., & Bakhtiyoro, Z. K. (2024). The Pedagogical Content of the Development of Social Competence in Students Trough Vitagen Learning. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 1(5), 40-46.

15. Davronova, F., Aliyeva, B., Rakhmatullayeva, D., Eshmakhmatova, R., & Zayniddinova, S. (2024). TEACHING FOREIGN LANGUAGES BY USING INNOVATIVE METHODS BASED ON THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’CREATIVITY. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 1(4), 345-350.

16. Pirnazarovna, D. F. Digital technologies in studying English at university: traditions and innovations // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). 2022. № 8(3). С. 97-100.

PRINCIPLES AND PROBLEMS OF IMPLEMENTING WEBINAR TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Mustafoyeva Sarvinoz Xolmurodovna,
The Trainer-assistant teacher of
The Department of Languages of
Samarkand State Medical University

KEYWORDS: *Technology, methods, online learning, education, gadgets, communication and etc…*

ANNOTATION*: In this scientific article, the importance, benefits, and challenges of online learning and technologies in the educational processes are discussed. Technology in learning refers to the tools (hardware, software, networks, web applications (apps) and the processes (methods and strategies used for instruction, assessment, tracking student learning, our educational organizations, learning management systems), in short, the way we do things in education.*

We are often too quick to adopt a new technology, be it hardware, software, or a new design, without fully understanding or explaining to others why this new technology is better than what we were using. For example, research to date suggests it is not the device per se that can make the difference, but instructional design.

Technological enhancements in education are both created and selected for the value they add, and this value is made explicit and is defensible. Careful scrutiny and research are applied to the choice of technologies to ensure the impact is understood and monitored. New technologies for learning are developed within a framework of ‘value adding‘ – the contribution a technology can make to learning is fundamental to the way it is presented so claims may be scrutinized. The primary mandate for technology in learning must be on learning – its content, delivery, support, assessment, interaction and results. Too often, networks, software, hardware, and apps (the ‘tools’) are designed for purposes other than learning, or designed by those who have little understanding of the concepts of good pedagogy. There is a need, of course, for administrative, productivity-oriented technologies, but there is an urgent need to respect the implications of pedagogy on the selection of tools (hardware and software), on bandwidth, on security of data and privacy, on access to networks and data, on choice and individual needs.

Choices of educational technologies must be based on sound principles of learning:

- Does the online learning environment adapt to a wide variety of pedagogical philosophies and methods?
- Does the course design match the learning objectives with course activities and learner assessment?
- Does the hardware standards prevent instructor choice of delivery methods?

There can be a synergy between the tools used and the cognitive processes engaged in learning. Databases, for example, can be used to prompt learners to examine the interrelationships, the organizational patterns, and the codification systems of data itself. Hyperlinking technology and adaptive systems can generate new forms of interactivity between the student and the content displayed.

Educators must be extensively consulted when educational hardware, software, or networks are designed and selected. A decision to adopt a particular set of technologies must also not inhibit pedagogical innovation.

The benefits of education, particularly the benefits to society, are frequently long-term and intangible, but they do exist. As these benefits become more obvious and public, further investment in education can be enhanced.

Education provides an opportunity for everyone to be successful, fulfilled, and contribute constructively to society, according to a prevailing value in society. Distance and remoteness, physical barriers, social and psychological barriers, improper programs or a lack of programs, a lack of'seats' available, financial barriers, readiness considerations, and other factors can all prohibit learners from participating in formal learning activities. Learning access must be as unrestricted as possible.

All levels of government, education and training providers, and industry must make bringing learning opportunities to all learners via the Internet a priority. Personal versus public advantages and expenses must be considered, but learning should not be limited to those who can afford it. Audioconferencing, videoconferencing, web conferencing, TV, radio, web-based learning environments, social media, and DVDs are just a few of the educational delivery modalities available for remote learning.

Online courses are expensive to create. Increasing learner enrolments through partnerships between departments or education and training providers can reduce costs, increase viability, and permit low demand courses to be offered more frequently. Partnerships may be created on any number of fronts, joint programs or services across several education and training providers are examples that enable economies of scale or leverage.

The key to successful partnerships is often in the details: common purpose and values; defined positions and decision-making processes; positive interpersonal relationships and trust; clear goals, roles, responsibilities, and structure; commitment at all levels; flexibility and adaptability; and clear legal and financial liabilities.

Technology in learning, while hardly a new phenomenon, is still in need of evaluation and examination. Individual differences amongst learners, instructors and education and training providers, and within society and the workplace, must be respected. Choices of technologies, for both tools and processes, can support and promote differences. The responsibilities inherent with choice must be made clear. Diversity must be valued, though balanced with principles of efficiency. Preference for a single approach (e.g., face-to-face vs. online; public vs. private; direct instruction vs. constructivism, etc.) must be discouraged and the benefits of differences enjoyed. Evidence-based decisions must drive investment decisions at the education and training provider and policy level. Learners are diverse, with individual

needs in terms of their goals, the pace at which they learn, the modes of communication they prefer, their motivations for learning, the stimulations they respond to, the prior learning aptitudes they bring, physical and sensory differences (e.g., sight, hearing) and the manner in which they can demonstrate what they know and can do.

Our learning delivery technologies and our course designs can be customized to meet the needs of individual learners. The needs of individual learners, as well as the diverse needs of individual professions, businesses, industries, cultures and society at large, must be accommodated, as appropriate. There are limits, in terms of economies, course requirements, time and access, but there is so much more that can be done with the aid of tools and process technologies to improve the quality of education for each learner.

List of used Literature:

1. Stein G. H., Shibata A., Bautista M. K. and Tokuda Y. (2010). Webinar: An Initial Experience with Web-based Real Time Interactive Clinical Seminars for Japanese Medical Students. General Medicine, p. 87-90.

2. Tricker T., Rangecroft M., Long P., & Gilroy P. (2001). Evaluating distance education courses: The student perception. Assessment & Evaluation in Higher Education, p. 165-177.

3. Voevoda E.V. The use of multimedia technologies in the professional language training of an international specialist. M.: MGUP, 2009, 146 p.

4. White M. (1982). Distance education in Australian higher education - a history. Distance Education, p. 255–278.

5. Webster J & Hackley P. (1997) Teaching effectiveness in technology-mediated distance learning. Academy of Management Journal, p. 1282 – 1309.

6. Yellen R. E. (1998). Distant learning students: A comparison with traditional studies.

Internet resources

1. **https://www.researchgate.net/publication/332031120_WEBINARS_AND_THEIR_EFFECTIVE_USE_IN_ENGLISH_LANGUAGE_TEACHING_AND_LEARNING**
2. **https://realizeforum.ca/webinars/twt-webinars/**
3. **https://www.researchgate.net/publication/335259803_An_Investigation_of_Turkish_EFL_Teachers'_Development_through_an_Online_Professional_Development_Program**

ASTRONOMIYANI O‘QITISHDA VIZUAL VOSITALARDAN FOYDALANISH METODLARI

Atajanov Shavkat Ikramovich
Urganch davlat pedagogika instituti,
Gurlan 1, 220100, Urganch, Uzbekiston
Palyazova Umida Vapayevna,

Erkayeva Lobar San’at qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Aniq fanlarni o‘qitish metodikasi(fizika va astronomiya)
1-bosqich magistrlari

Annotatsiya: *Mazkur tezisda astronomiya fanini o‘qitishda vizual vositalardan samarali foydalanish masalasi yoritilgan. Astronomik tushunchalarni o‘quvchilarga yetkazishda ko‘rgazmalilik, tasviriy materiallar, multimedia texnologiyalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv dasturlar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Vizual vositalardan foydalanish orqali murakkab ilmiy hodisalarni sodda va tushunarli shaklda talqin qilish, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Tadqiqotda astronomiyani o‘qitishda rasmlar, diagrammalar, 3D modellar, teleskop kuzatuvlari va animatsiyalarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *astronomiya ta’limi, vizual vositalar, ko‘rgazmalilik, interaktiv metodlar, multimedia texnologiyalari, 3D modellar.*

Kirish. Astronomiya qadimdan insoniyat tafakkurida alohida o‘rin tutib kelgan fanlardan biridir. Osmon jismlari, ularning harakati va koinotdagi qonuniyatlarni o‘rganish jarayoni insonda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va tabiat sirlarini anglashda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim jarayonida astronomiyani samarali o‘qitish, avvalo, o‘quvchilar ongida mavzuni aniq tasavvur qilish imkonini beruvchi vizual vositalardan foydalanishga tayanadi. Chunki ushbu fan nazariy jihatdan murakkab tushunchalarni o‘z ichiga oladi va ularni oddiy izohlar orqali yetkazish qiyin bo‘lishi mumkin [5].

Vizual vositalar − bu ko‘rgazmali materiallar, tasviriy grafikalar, diagrammalar, maketlar, multimedia taqdimotlar, animatsiyalar va virtual laboratoriyalar bo‘lib, ular o‘quvchilarning mavzuni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologiyalar tez rivojlanayotgan hozirgi davrda astronomiyani o‘qitishda 3D modellar, mobil ilovalar va interaktiv dasturlarni qo‘llash o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Shu boisdan astronomiyani o‘qitishda vizual vositalardan foydalanish metodlarini chuqur o‘rganish, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Astronomiya fanini o‘qitishda vizual vositalardan foydalanishning ahamiyati, avvalo, murakkab ilmiy tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda ifodalash imkoniyati bilan belgilanadi. O‘quvchilarning abstrakt tafakkuri hali to‘liq shakllanmaganligi bois, koinot hodisalarini tasviriy vositalarsiz tushuntirish qiyin kechadi. Shu nuqtai nazardan, ko‘rgazmalilik tamoyiliga asoslangan o‘qitish jarayoni bilimni mustahkamlash va qiziqishni oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Vizual vositalar o‘quvchilarga:

- astronomik hodisalarning ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligini ko‘rish orqali anglash;
- nazariy bilimlarni amaliy kuzatishlar bilan uyg‘unlashtirish;
- koinot haqidagi bilimlarni mantiqiy va tizimli tarzda o‘zlashtirish;

− mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi;

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining keng joriy etilishi astronomiya fanida ham yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Vizual vositalardan samarali foydalanish nafaqat dars sifati va o‘quvchilar bilim darajasini oshiradi, balki ularni ilmiy izlanishlarga, koinot sirlarini o‘rganishga qiziqtiradi.

Astronomiya fanini o‘qitishda vizual vositalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki bu fan murakkab tushunchalar, nazariy modellarga asoslangan hisob-kitoblar va ko‘z bilan bevosita kuzatib bo‘lmaydigan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, vizual vositalar o‘quvchilarda mavzuga nisbatan aniq tasavvur shakllantiradi va bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

I. An’anaviy vizual vositalar:

− rasmlar va diagrammalar: Quyosh tizimi, galaktikalar, yulduzlarning tuzilishi haqida ko‘rgazmali tasvirlardan foydalanish;
− maketlar va globuslar: Yerning o‘qi, uning aylanishi, oy fazalari va quyosh tutilishlarini tushuntirishda qo‘llaniladi;
− plakat va jadvallar: Osmon jismlari o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatishda samarali;

II. Zamonaviy vizual vositalar:

− multimedia taqdimotlar: Slaydlar, videoroliklar va animatsiyalar orqali koinot hodisalarini jonli tarzda ifodalash;
− 3D modellar va simulyatsiyalar: Planetalarning orbitalari, kometalar harakati yoki qora tuynuklarning xususiyatlarini interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi;
− virtual laboratoriyalar: O‘quvchilarni real kuzatuvlarga tayyorlash, teleskop yordamida kuzatish jarayonini taqlid qilish;

III. Amaliy kuzatuvlarda vizual vositalar:

− teleskop va durbinlar: Osmon jismlarini bevosita kuzatish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash;
− mobil ilovalar (Stellarium, Sky Map va boshqalar): Yulduz turkumlari, sayyoralar joylashuvini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi;
− planetariylar va observatoriyalar: O‘quvchilarni koinot olamiga yanada yaqinlashtirish, ularda ilmiy qiziqishni kuchaytirish;

IV. Vizual vositalardan foydalanish metodikasi:

− murakkab mavzularni oddiydan murakkabga qarab tushuntirish;
− har bir vizual materialni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish;
− dars jarayonida o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, vizual vositalardan o‘zlari foydalanishga jalb etish;
− nazariya va amaliyot o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlash;

V. Kutilayotgan natijalar:

− ilmiy dunyoqarash kengayadi;
− mantiqiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi;
− darsga qiziqish ortadi;

− astronomik bilimlarni amaliy hayot bilan bog‘lash imkoniyati yaratiladi;

VI. Muhokama: Astronomiya fanini o‘qitishda vizual vositalardan foydalanishning samaradorligi ko‘plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda isbotlangan. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, vizual materiallardan muntazam foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning bilim darajasi yuqori bo‘lishi bilan birga, ularning mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Masalan, oddiy diagrammalar yordamida yulduzlarning rivojlanish bosqichlarini tushuntirish ancha osonlashsa, 3D simulyatsiyalar sayyoralar harakati kabi murakkab jarayonlarni yaqqol ko‘rsatib bera oladi.

Muhokama jarayonida quyidagi jihatlar alohida ta’kidlanadi:

1. **Ko‘rgazmalilik tamoyili:** Vizual vositalar o‘quvchilarda mavzuni tez va samarali qabul qilish jarayonini ta’minlaydi.
2. **Texnologik imkoniyatlar:** Multimedia va virtual dasturlar astronomiyani zamonaviy talqin qilish imkonini beradi.
3. **Amaliy ahamiyat:** Teleskop kuzatuvlari yoki mobil ilovalar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy kuzatuvlar bilan bog‘lay oladi.
4. **Pedagogik yondashuv:** Vizual vositalarni faqat ko‘rgazma sifatida emas, balki o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi metodik usul sifatida qo‘llash zarur [1,3].

Biroq shuni ham qayd etish kerakki, vizual vositalardan foydalanishda muayyan muammolar ham uchraydi. Jumladan, barcha ta’lim muassasalari zamonaviy texnologik jihozlar bilan to‘liq ta’minlanmaganligi, ayrim o‘qituvchilarning multimedia va virtual dasturlar bilan ishlash ko‘nikmasi yetarli emasligi dars samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlarga o‘rgatish hamda ta’lim muassasalarini zarur vositalar bilan jihozlash dolzarb masala hisoblanadi [2].

Umuman olganda, astronomiyani o‘qitishda vizual vositalardan foydalanish nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarni ilmiy izlanishga undaydi, ularning tafakkurini kengaytiradi va kelajakda ilm-fan sohasiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Astronomiya fanini o‘qitishda vizual vositalardan foydalanish ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ular murakkab ilmiy tushunchalarni sodda va aniq shaklda tushuntirish, nazariy bilimlarni amaliy kuzatishlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Rasmlar, diagrammalar, maketlar, multimedia vositalari, 3D modellar va virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi hamda ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Shu bilan birga, vizual vositalar ta’lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Astronomiya darslarida vizual vositalardan foydalanishni ta’lim standartlari darajasida kengroq joriy etish. Ta’lim muassasalarini zamonaviy multimedia texnologiyalari, teleskop va virtual laboratoriya dasturlari bilan ta’minlash. O‘qituvchilar uchun vizual vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha maxsus

seminar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Mobil ilovalar va interaktiv dasturlar asosida o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash. Planetariylar va astronomik kuzatuv markazlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali o‘quvchilarga amaliy tajriba olish imkoniyatini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Abdullayev H. Astronomiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 215 b. 34–56.

[2]. Qodirov M. Ta’lim jarayonida vizual vositalardan foydalanish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 180 b. 67–85.

[3]. Raxmonov A. Astronomiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 240 b. 102–118.

[4]. Karimova Z. Astronomiya ta’limida multimedia vositalaridan foydalanish tajribasi. // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2022. – b. 45–52.

[5]. Ashurov D. Metodik qo‘llanma: Astronomik kuzatishlarda interaktiv vositalardan foydalanish. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2021. – 132 b. 23–40.

GULJAMOL ASQAROVA IJODIDA TASHBIH HAMDA TASHXIS SHE’RIY SAN’ATINING LIGVOPRAGMATIK TAHLILI

Azimova Dilobar Shermamat qizi,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoira Guljamol Asqarova ijodidagi tashbih va tashxis san’atlarining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Shoiraning she’rlarida badiiy vositalar orqali ifodalangan ichki ruhiy holat, hissiyot va subyektiv munosabatlarning til birliklari orqali yuzaga chiqishi ochib beriladi. Tahlil davomida “Duotalab ruh”, “Noma”, “Men” kabi she’rlar misolida tashbih va tashxis san’atlarining poetik hamda kommunikativ-pragmatik vazifasi yoritiladi. Maqolada shoiraning nutqiy faoliyatida lisoniy va nolisoniy vositalar o‘quvchiga qanday ta’sir etishi, ularning ma’no hosil qilishdagi o‘rni lingvopragmatik nuqtai nazardan izohlanadi. Tadqiqot natijasida Guljamol Asqarova she’riyati tilining emotsional-ekspressivligi va obrazliligi badiiy san’atlar orqali kuchaytirilgani aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: Guljamol Asqarova, lingvopragmatika, tashbih, tashxis, poetik til, badiiy san’at, pragmalingvistika, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik, lisoniy vositalar.

Jahon tilshunosligida tilni turli aspektlarda o‘rganish natijasida tilshunoslikning zamonaviy tarmoqlari vujudga kelmoqda. Shunday yondashuvlardan biri pragmatikadir. Til doim inson va uning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq holda hayot kechiradi. Pragmatika inson va til mushtarakligi asosida vujudga kelgan soha. “Pragmatika” atamasini birinchi marta amerikalik olim Charlz Sanders Pirs kiritgan. “Pragmatika” (yunoncha pragmos – ish, harakat, bajarilgan, degan ma’noni anglatadi) aslida XIX-XX asrlarga oid falsafiy tushunchadir. Semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi. Boshqacha

aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i [1].

Tilshunosligimizdagi bu yo‘nalish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega soha hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika bo‘yicha salmoqli izlanishlar olib borgan tilshunos Sh.Safarovdir. Pragmalingvistikaning insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ maqsad, nutqiy vaziyatning ta’siri bilan aloqador masalalarni hamda lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo‘llanishini o‘rganadi. Pragmatikaning o‘rganilish obyekti bevosita nutq jarayonida yuzaga chiqadi. Ularning yuzaga kelishida turli xil lingvistik va ekstralingvistik vositalar ishtirok qiladi.

O‘zbek she’riyatidan o‘zining dardchil she’rlari, zalvorli so‘zlari bilan o‘rin olgan shoira Guljamol Asqarovaning she’rlarida inson ko‘nglini yupatuvchi va uni yig‘latuvchi ma’no yashirin. Shoiraning dardga to‘la chizgilarini anglagan kitobxon uning ijodiga maftun bo‘ladi. Ijodkor she’rlarida turli xil badiiy san’atlardan foydalanadi. O‘z ruhini sarson-sargardon kezgan daydiga, taqdirini esa chigal sirtmoqqa qiyoslaydi [2]. Shoira bu o‘rinda ajoyib tashbihdan foydalangan. “Duotalab ruh” she’rida shoira o‘zini “Men shaytonlardek quvg‘undi odam” deya ta’riflaydi. Lingvopragmatikada nutq egasi o‘z ahvolini turli lingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali ifodalashi haqida bayon qilgan edik. Quyidagi misol buning yaqqol dalilidir. Bu o‘rinda tashbihning to‘rt qismi ham ifodalangan. Shoira boshqa she’rlarida turli xil tashbihlardan foydalanadi. Tashbih – poetik matnlar tilining emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri. Inson o‘z ichki olamini til birliklari orqali ifodalaydi.

“*Bir lahza o‘zimni unuttirdi – ishq*” degan shoirning butun ijodida asosiy mavzu – ishq. Shoira “Noma” she’rida “*Og‘ir kuy chalmoqda bo‘g‘zimdagi nay*” misrasida tashbih va tashxisdan o‘rinli va mahorat bilan foydalanadi. Bir misrada ikkita badiiy vosita va olam-olam dard. Ovoz paychalarini nayga qiyoslaydi. Nayni esa og‘ir kuy chaluvchi deya shaxslantiradi. She’r mazmuni o‘zi bilan ovora, hijronga cho‘mgan insonni ifodalaydi. Lingvopragmatik tahlilda bitta belgi orqali nutq egasining butun bir gapirmoqchi ma’nosini ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning quyidagi tashbihi insonga nisbatan cheksiz muhabbatni ifodalaydi. Inson tanasida yurak hislarni belgilovchi a’zo sifatida baholanadi. Jon deb ham ataladi. Yozuvchi mehr-u muhabbatining egasiga jonidanda yaqin bo‘lishi istagini “yuragimdek” tashbihi bilan mohirona ifodalagan.

Ming tashakkur hammasi uchun,
Yaxshiyamki topganman seni.
Yuragimdek yaqin kel menga,
Olislardan chorlab tur meni…

Pragmalingvistika, asosan, til birliklarining nutq vaziyati bilan bog‘liq jihatlarini, kishilar o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi nutqiy elementlarni, ijtimoiy xoslanishni, ifodaning subyektiv modal aspektiga aloqadorligini, subyektiv baho bildiruvchi so‘z va vositalar, insonning ichki ruhiyatini ifoda etuvchi hamda presupazitsiya (tagma’no, tagbilim) bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganadi. So‘z zamiridagi ma’noni belgilar bilan ifodalaydi. Bu belgilar esa turli lisoniy va nolisoniy

vositalar orqali amalga oshiriladi. Guljamol Asqarova ijodida esa bu mas’uliyat badiiy san’atlar zimmasiga yuklangan. Natijada esa har bir so‘zi chuqur ma’no ifodalaydigan, she’r ixlosmandlarini nafaqat o‘qishga, balki har bir jumla ustida o‘ylanishga chaqiradi. Lingvopragmatikada lisoniy va nolisoniy bo‘lgan bunday yordamchi vositalar til birliklari kabi muayyan sub’ektiv munosabatlarni, ruhiy holatlarni ya’ni konnotativ munosabatlarni aks ettirishga xizmat qiladi.

Shoira “Men” she’rida chala qolgan ibodatini, itoatini va yozgan chala she’rlarini bitmagan imoratga o‘xshatadi:

Ibodatim chala,
Toatim chala,
Chala mening
Yozgan she’rlarim…
Chala imoratdek
Bitmadim sira…

Guljamol Asqarova kitobxonga o‘zining tugallanmagan, chala qolgan ishlarini, butun bir hayotini birgina so‘z bilan “chala imorat” deya ifodalaydi. Qurilishi tugamagan imoratni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Bu esa lingvopragmatikaning ifodalash yo‘sinidir.

Shoira ijodidagi o‘z o‘rnida qo‘llanilgan bunday go‘zal tashbih va tashxislar badiiy ruhiyatni yaratadi. Ijodkor ijodini lingvopragmatik tahlilga tortish tilshunosligimiz uchun ham, adabiyotshunoslik ilmi uchun ham ajoyib topilmalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pragmatika
2. Duotalab ruh. https://tafakkur.net/men/guljamol-asqarova.uz

INKLYUZIV TA’LIMDA REFLEKSIV O‘QITISH METODIKASINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ruziyeva Nigora Zohidjonovna
Namangan davlat chet tillar instituti
Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida refleksiv o‘qitish metodikasining pedagogik imkoniyatlari, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida refleksiv o‘qitishning o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi shaxsiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun refleksiv yondashuvning ijtimoiy va psixologik ahamiyati ilmiy asoslarda bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, refleksiv o‘qitish, refleksiya, pedagogik yondashuv, metodika, o‘zini anglash, o‘quvchi faolligi.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va PF–6108-son Prezident Farmonida barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, shaxsiy yondashuvni ta’minlash hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Inklyuziv ta’lim – bu nafaqat maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qo‘shish, balki o‘quvchilarni psixologik, ijtimoiy va kommunikativ jihatdan qo‘llab-quvvatlaydigan pedagogik muhit yaratishdir.

Shu nuqtai nazardan, refleksiv o‘qitish metodikasi o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Refleksiya tushunchasi psixologiyada J. Dewey, K. Rogers, D. Kolb, J. Moon, R. Barnett kabi olimlar tadqiqotlarida chuqur o‘rganilgan. Ularning fikricha, refleksiya – bu shaxsning o‘z fikri va harakatlariga ongli munosabat bildirish jarayonidir. Pedagogik kontekstdagi refleksiya o‘qituvchi faoliyatining tahliliy va o‘zini baholovchi jihatlarini shakllantiradi.

O‘zbekiston olimlaridan M. To‘xliyeva, N. Erkaboyeva, Sh. Yuldasheva, G. Rixsievlarning ishlarida refleksiv o‘qitishning nazariy asoslari, shuningdek, inkluziv muhitda o‘qituvchining shaxsiy refleksiyasi ta’lim sifati uchun muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

1. Refleksiv o‘qitishning mohiyati va tamoyillari. Refleksiv o‘qitish – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro tahliliy muloqot jarayoni bo‘lib, unda har bir o‘quvchi o‘z tajribasini, o‘zini anglash darajasini va o‘z faoliyatining natijasini baholashni o‘rganadi. Bu metodika quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1. O‘zini anglash – o‘quvchining o‘z faoliyatiga mustaqil baho bera olishi;

2. O‘zaro fikr almashuv – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi subyekt–subyekt munosabatining shakllanishi;

3. O‘zini rivojlantirish – o‘quvchi tomonidan o‘z natijalarini yaxshilashga intilish;

4. Individual yondashuv – har bir o‘quvchining psixologik holati va o‘rganish imkoniyatlarini inobatga olish.

2. Inklyuziv ta’limda refleksiv metodikaning pedagogik imkoniyatlari. Inklyuziv ta’lim sharoitida refleksiv o‘qitish quyidagi pedagogik natijalarni beradi:

1. O‘quvchilarning shaxsiy o‘sishini rag‘batlantiradi. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini baholash, muvaffaqiyat va xatolarni tahlil qilish orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchni tiklaydi.

2. O‘qituvchining pedagogik refleksiyasini kuchaytiradi. O‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan ishlash jarayonida o‘z metodini tahlil qilib, uni yanada takomillashtiradi.

3. Hamkorlikni kuchaytiradi. Inklyuziv sinfda refleksiv suhbatlar, muhokama va “o‘ylab ko‘r” mashqlari orqali ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi.

4. Ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi. Refleksiya o‘quv jarayonida o‘zgarishlarga ochiq, dinamik tizimni yaratadi.

3. Refleksiv o‘qitish bosqichlari:

1. Motivatsiya bosqichi – o‘quvchilarda o‘rganish istagini uyg‘otish.

2. Faoliyat bosqichi – bilimni o‘zlashtirish, muloqotda faol qatnashish.

3. Tahlil bosqichi – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini birgalikda tahlil qilish.

4. Refleksiv yakun – o‘quvchi “Men bugun nimani o‘rgandim?” degan savolga javob beradi. Ushbu bosqichlar **inklyuziv darsning metodik modeli**ni shakllantiradi.

4. Amaliy tajriba va natijalar. Urgut filiali pedagogika fakultetida olib borilgan eksperimental kuzatuvlarda refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning **o‘z fikrini ifoda etish, o‘zini baholash va ijtimoiy faol bo‘lish** ko‘rsatkichlarini oshirgan. Tajriba guruhida darsdan keyingi refleksiv tahlil mashqlari natijasida o‘quvchilarning **o‘zlashtirish darajasi 28%**, kommunikativ faolligi esa **33%** ga oshgani kuzatilgan.

Xulosa o‘rnida, refleksiv o‘qitish metodikasi inklyuziv ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi, o‘quvchi shaxsini ijtimoiy va emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu metodika o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, o‘zini baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, inklyuziv ta’limda refleksiv o‘qitish – pedagogik yangilanishning markaziy elementi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (1933). *How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process.* Boston: D.C. Heath.

2. Kolb, D. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development.* Prentice Hall.

3. Moon, J. (1999). *Reflection in Learning and Professional Development.* Routledge.

4. UNESCO. (1994). *The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education.* Paris.

5. To‘xliyeva, M. (2020). *Inklyuziv ta’limning pedagogik asoslari.* Toshkent: TDPU nashriyoti.

6. Erkaboyeva, N. (2022). *Refleksiv o‘qitish texnologiyalari va ularning ta’limdagi roli.* “Ta’lim innovatsiyalari” jurnali, №4.

7. Yuldasheva, Sh. (2023). *Pedagogik refleksiya: nazariya va amaliyot.* Samarqand: SamDU nashriyoti.

8. Rixsiev, G. (2021). *Innovatsion pedagogika va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.* Toshkent: Fan va texnologiya.

EDUCATIONAL EFFECTIVENESS OF PLOBLEM-BASED LEARNING IN CLASSES

Davronova Fotima Pirnazarovna

Associate professor of Samarkand State University of veterinary medicine, livestock and biotechnologies

Annotation. *This article analyses the benefits and effectiveness of problem-based learning for improving social and communication skills, problem-solving, critical thinking skills, and self-learning skills, higher order thinking, self-directed learning skills, promotes collaboration of students and motivate teachers to teach new information.*

Key words: *problem-based learning (PBL), solution, acquisition, collaboration, a group to conceptualize, acquire knowledge, communication, cooperation.*

Introduction Challenges and problems are important parts of life that give you experiences, make you learn and help you to become wiser and stronger. Problems make us grow and shape us.

Everyday problems are the circumstances that we find ourselves in on a daily basis that involve using the skills, accumulated knowledge, and resources (e.g., time, money, and friends) that we have available to us to reach our goals and to side step obstacles to these goals.

Problem-based learning or Problem Method of teaching is a teaching or training method regarded as teaching by the use of “real world” problems. It is as a situation prepared for individuals to learn 'critical thinking‘ and develop 'problem solving skills' and 'acquire knowledge'. It involves both knowing and doing.

For example, a problem-based learning project could involve students pitching ideas and creating their own business plans to solve a societal need. Students could work independently or in a group to conceptualize, design, and launch their innovative product in front of classmates and community leaders.

Problem solving is the act of defining a problem; determining the cause of the problem; identifying, prioritizing, and selecting alternatives for a solution; and implementing a solution. In the problem-based learning process, the teacher prepares the problem or scenario, motivates the students, checks the students' solutions, and helps the students to overcome these problems when they have problems at the point of progress for the solution.

The goals of Problem-based learning (PBL) include helping students develop 1) flexible knowledge, 2) effective problem-solving skills, 3) SDL skills, 4) effective collaboration skills, and 5) intrinsic motivation. This article discusses the nature of learning in PBL and examines the empirical evidence supporting it.

The process of problem-solving in the classroom involves four basic stages:

1. Problem identification.

2. Information gathering and the acquisition of new knowledge.

3. Debate and discussion.

4. Decision making.

The Five Steps of Problem Solving:

- Define the Problem. What are you trying to solve? ...
- Brainstorm Ideas. What are some ways to solve the problem? ...
- Decide on a Solution. What are you going to do? ...
- Implement the Solution. What are you doing? ...
- Review the Results. What did you do?

How to Use Problem-Solving Skills in the Workplace:

- Step 1: Thoroughly understand the problem.
- Step 2: Define the problem.
- Step 3: Strategize a solution.
- Step 4: Find alternate solutions.
- Step 5: Evaluate solutions and document everything.
- Step 6: Choose a solution.
- Step 7: Implement.

It helps students distinguish between solvable issues and problems that cannot be solved. It is necessary for preparing school students to face complex interpersonal and academic problems. Students who learn problem-solving skills often have a deeper understanding of causality.

In this class format, students work in small groups to solve problems, with professors present during each class to: provide a structured, guided context for solving problems. encourage students to shift from learning by memorizing to learning by doing.

In addition to course content, PBL can promote the development of critical thinking skills, problem-solving abilities, and communication skills. It can also provide opportunities for working in groups, finding and evaluating research materials, and life-long learning.

PBL is more effective than traditional methods (based mainly on lectures) at improving social and communication skills, problem-solving and self-learning skills, and has no worse results (and in many studies better results) in relation to academic performance.

In the problem-based learning process, the teacher prepares the problem or scenario, motivates the students, checks the students' solutions, and helps the students to overcome these problems when they have problems at the point of progress for the solution.

A general conclusion from these empirical studies was that PBL is effective in alleviating students' problems of inert knowledge as well as enhancing students' problem solving, higher order thinking, self-directed learning skills, and motivation to learn.

The Seven Steps of the PBL Process

1. Identifying, clarifying of terms in the scenario.
2. Defining the problem.
3. Brainstorming.
4. Restructuring the problem.
5. Formulate learning objectives/ goals.
6. Independent study.
7. Regrouping/ Synthesis.

The problem-solving method is a highly effective teaching strategy that is designed to help students develop critical thinking skills and problem-solving abilities. It involves providing students with real-world problems and challenges that require them to apply their knowledge, skills, and creativity to find solutions. This

method encourages active learning, promotes collaboration, and allows students to take ownership of their learning.

Problem-solving is a process of identifying, analyzing, and resolving problems. The problem-solving method in teaching involves providing students with real-world problems that they must solve through collaboration and critical thinking. This method encourages students to apply their knowledge and creativity to develop solutions that are effective and practical.

The problem-solving method has several benefits for both students and teachers. These benefits include:

- **Encourages active learning:** The problem-solving method encourages students to actively participate in their own learning by engaging them in real-world problems that require critical thinking and collaboration
- **Promotes collaboration:** Problem-solving requires students to work together to find solutions. This promotes teamwork, communication, and cooperation.
- **Builds critical thinking skills:** The problem-solving method helps students develop critical thinking skills by providing them with opportunities to analyze and evaluate problems
- **Increases motivation:** When students are engaged in solving real-world problems, they are more motivated to learn and apply their knowledge.
- **Enhances creativity:** The problem-solving method encourages students to be creative in finding solutions to problems.

The problem-solving method involves several steps that teachers can use to guide their students. These steps include:

- **Identifying the problem:** The first step in problem-solving is identifying the problem that needs to be solved. Teachers can present students with a real-world problem or challenge that requires critical thinking and collaboration.
- **Analyzing the problem:** Once the problem is identified, students should analyze it to determine its scope and underlying causes.
- **Generating solutions:** After analyzing the problem, students should generate possible solutions. This step requires creativity and critical thinking.
- **Evaluating solutions:** The next step is to evaluate each solution based on its effectiveness and practicality
- **Selecting the best solution:** The final step is to select the best solution and implement it.

The solution arrived at or the conclusion drawn must be further verified by utilizing it in solving various other likewise problems. In case, the derived solution helps in solving these problems, then and only then if one is free to agree with his finding regarding the solution. The verified solution may then become a useful product of his problem-solving behavior that can be utilized in solving further problems. The above steps can be utilized in solving various problems thereby fostering creative thinking ability in an individual.

Conclusion. The problem-solving method is an effective teaching strategy that promotes critical thinking, creativity, and collaboration. It provides students with

real-world problems that require them to apply their knowledge and skills to find solutions. By using the problem-solving method, teachers can help their students develop the skills they need to succeed in school and in life.

References:

1. Jonassen D. (2011). Learning to solve problems: A handbook for designing problem-solving learning environments. Routledge.
2. Pirnazarovna, D. F. (2022). Digital technologies in studying English at university: traditions and innovations. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, *8*(3), 97-100.
3. Pirnazarovna, D. F. (2022). WAYS OF FORMING DIGITAL LITERACY IN THE CONTEXT OF TEACHING ENGLISH. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(3), 55-57.
4. Davronova, F. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN RAPID ACQUISITION OF ENGLISH. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 44-47.
5. Davronova, F. (2022). EXPERIMENT-TESTING METHODOLOGY OF ON RAPID TEACHING OF ENGLISH TO STUDENTS IN THE CONDITONS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 72-76.
6. Davronova, F. P. (2022). THE USAGE OF ICT TOOLS INTENDED TO ACQUIRE KNOWLEDGE BY STUDENTS IN ENGLISH CLASSES. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1132-1136.
7. Pirnazarovna, D. F., Baxtiyerovna, N. D., & Pulatovna, B. K. (2022). XORIJIY TILLARNI TEZKOR O ‘QITISHDA QO ‘LLANILADIGAN INNOVATSION TA’LIM METODLARNING AHAMIYATI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 81-87.

TA’LIMDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kadirov Tulkin Baxridinovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limda pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish, ta’lim sohasidagi o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi, uning keng imkoniyatlari, kamchiliklari o‘rtasidagi nozik nuqtalari tahlil qilinadi. Pedagogik dasturiy vositalarning muhim afzalliklari ko‘rib chiqiladi va shu bilan birgalikda o‘rni va ahamiyatiga oydinlik kiritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik dasturiy vositalar, zamonaviy ta’lim platformalari, ta’lim, integratsiya, tizimlilik, funksiya, afzallik.

Pedagogik dasturiy vositalar deb raqamli texnologiyalar, jumladan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vositalarga aytiladi. Bunday vositalar ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash va optimallashtirish maqsadida turli xil dasturiy ta’minotlarni o‘z ichiga oladi. Ular o‘qituvchilarga ta’lim berish jarayonini qiziqarli, mazmunli va interfaol qilish bilan bir qatorda o‘quvchilarni ta’lim olishiga va kontentni oson tushunishiga yordam beradi.

Jumaladan pedagogik dasturiy vositalar hozirgi kunda eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli texnologiyalardan biriga aylanib bormoqda. Ularning tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalar asosan quyidagi turlarga bo‘linadi:

O‘rgatuvchi dasturlar. Muayyan bilim, ko‘nikmalar yoki fanlarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy vositalar. Ularga misol tariqasida xorijiy tillar (Duolingo), matematika (Mathway, GeoGebra), dasturlash tillari (W3Schools) va boshqa o‘rgatuvchi dasturlarni keltirishimiz mumkin.

Duolingo - xorijiy tillarni o‘rgatuvchi veb-sayt va mobil ilova bo‘lib foydalanuvchilar oraliq takrorlash yordamida so‘z boyligi, grammatika va talaffuzni mashq qilish uchun o‘ziga xos „ko‘nikmalarga“ ega bo‘lgan holda maqsadli tillariga moslashtirilgan „tarmoqlardan“ foydalangan holda o‘rganadilar.

GeoGebra (geometriya va algebra platformasi) – boshlang‘ich maktabdan universitet darajasiga qadar matematika fanini o‘rganish uchun mo‘ljallangan interfaol geometriya, algebra, statistika va hisob-kitob ilovasi.

Bilimni onlayn baholash. Turli xil interfaol mashq, topshiriq va testlarni yaratish, ularni o‘tkazish va natijalarni tahlil qiluvchi dasturiy vositalar. Masalan, Quizizz, Kahoot!, Plickers, Google Forms va boshqa shu kabi bilimlarni onlayn baholovchi platformalar.

Quizizz - bu o‘qituvchilarga sinflarni yaratishda yordam berish uchun sevimli bo‘lgan mashhur onlayn o‘quv platformasi interaktiv viktorinalar orqali yanada qiziqarli va qiziqarli, Tadqiqotlar, va testlar yaratish imkoniyatini beradi.

Kahoot – bu onlayn viktorinalar, testlar va so‘rovlar yaratish uchun nisbatan yangi xizmat turi bo‘lib hisoblanadi.

Plickers – bu o‘quvchilarning mobil qurilmalariga ehtiyoj sezmasdan, o‘qituvchiga sinf javoblarini tezda tekshirish imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi.

Google Forms – bu Google tomonidan taqdim etilgan bepul, veb-asoslangan Google Docs Editors to‘plamining bir qismi sifatida kiritilgan so‘rovni boshqarish dasturi.

Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS). Ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, monitoring qilish, statistik va tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, elektron jurnalni yuritish va shu kabi ko‘plab jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturiy vositalar. Ularga Moodle, Canvas, Blackboard Learn, Google Classroom va boshqa LMS larni misol tariqasida

keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda 1000 dan ortiq turli xil ta’limni boshqarish tizimlari mavjud.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC). Bu ta’lim oluvchilarga dunyoning istalgan joyidan turgan holda eng yaxshi xalqaro tashkilotlar, universitetlar, tadqiqot institutlari va ekspertlarning kurslarini onlayn shaklda o‘zlashtirish imkonini beruvchi pedagogik dasturiy vositaning turi hisoblanadi. Ularga Coursera, edX, Udacity, Edumy, LinkedIn Learning, FutureLearn va Khan Academy larni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Masofaviy va onlayn o‘qitish vositalari. Ta’lim oluvchilarga istalgan joydan turib masofaviy yoki onlayn shaklda ta’lim olish imkonini beruvchi davturiy ta’minotlar. Masalan, Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, Webex Meetings va Jitsi.

Mualliflik vositalari (Authoring tools). Turli xil raqamli ta’lim resurslari va onlayn o‘quv kurslarini yaratish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy vositalar. Ularga misol tariqasida iSpring Suite, Articulate 360, Adobe Captivate va boshqa shu kabi vositalarni keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari elektron kutubxonalar, ta’lim o‘yinlari, virtual sinflar, laboratoriyalar, simulyatsiyalar va shu kabi boshqa raqamli ta’lim resurslarini yaratadigan hamda foydalanadigan dasturiy ta’minotlarni ham pedagogik dasturiy vositalar turkumiga kiradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Demak, pedagogik dasturiy vositalarning asosiy maqsadlari ta’lim sifatini oshirish, o‘quv materiallaridan foydalanishni osonlashtirish, o‘rganishni individuallashtirish va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat.

Xulosa o‘rnida, ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish ta’lim oluvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlash, kommunikativ va kreativ ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xo‘jaev, S. (2015). “Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

2. Mustaqimova, G. (2018). “Dasturiy ta’minot va ta'lim jarayonlari.” Fan va texnologiya.

3. Murodov S. (2020). “Pedagogik dasturlar: tahlil va tadqiqotlar.” O‘zbekiston Milliy Universiteti.

EKOLOGIK TA’LIM ORQALI YOSH AVLODDA VATANPARVARLIK VA GLOBAL MAS’ULIYAT TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich
Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ekologik ta’limning yosh avlod tafakkurida vatanparvarlik va global mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishdagi falsafiy va ijtimoiy mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarni ekologik madaniyat asosida tarbiyalashda maktab, oliy ta’lim muassasalari, jamoatchilik va OAVning o‘rni, ekologik ta’limning zamonaviy texnologiyalari hamda ularning vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liqligi falsafiy jihatdan yoritilgan. Maqolada tabiatni asrash - Vatanga sadoqat, insoniyat kelajagiga mas’uliyat ramzi sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ta’lim, ekologik madaniyat, global mas’uliyat, milliy o‘zlik, ekologik siyosat, yoshlar tarbiyasi, “Yashil makon” loyihasi, ma’naviy qadriyatlar.*

Odamzod tarixida hech qachon ekologik masalalar bugungidek dolzarb bo‘lmagan. XXI asr – bu insoniyatning o‘z yashash makoniga, o‘z tabiatiga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqish davridir. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Mamlakatda barqaror rivojlanish siyosati, “yashil iqtisodiyot”, ekoturizm, ekologik ta’lim kabi yo‘nalishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida “Ekologik ta’lim va tarbiya konsepsiyasi” qabul qilinib, unda yoshlar ongida ekologik mas’uliyat, tabiatga nisbatan ehtirom, vatanparvarlik va global fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish zarurligi belgilab qo‘yildi[1].

Ekologik ta’limning mazmuni endilikda faqat tabiatni asrash haqida emas, balki insonni ma’naviy uyg‘otish, o‘z hayoti va Vatanining kelajagi uchun mas’uliyatni his qilishga undashga qaratilmoqda. Har qanday millatning kelajagi yosh avlodning ong darajasi, dunyoqarashi va qadriyat tizimiga bog‘liq. Shuning uchun ekologik ta’lim orqali yoshlarni vatanparvarlik va global mas’uliyat ruhida tarbiyalash masalasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlilni talab etadi.

Taniqli fransuz faylasufi Albert Shvaytser “hayotga hurmat” g‘oyasini insonning eng oliy axloqiy qadriyati sifatida e’tirof etgan[2]. Unga ko‘ra, tabiatni sevish – bu insonni, hayotni sevishdir. Bu fikr vatanparvarlikning eng chuqur falsafiy shaklini ifodalaydi, chunki Vatan faqat siyosiy hudud emas, balki tirik tabiat, suv, havo, yer va madaniyat uyg‘unligidir. Shu bois ekologik tarbiya – bu insonning Vatani bilan ontologik bog‘liqligini anglash jarayoni hamdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, “tabiat – milliy boylik” degan g‘oya davlat siyosatiga aylandi. 1992-yilda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun, 2019-yilda esa “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu hujjatlar ekologik masalani faqat texnik yoki iqtisodiy yo‘nalishda emas, balki axloqiy-

ma’naviy jarayon sifatida ham qarashga yo‘l ochdi. Chunki ekologik muammolar ortida inson ongi, madaniyati va mas’uliyatsizligi yotadi.

Bugungi kunda dunyoda har yili 12 million gektar o‘rmon yo‘qolmoqda, 8 million tonna plastmassa okeanlarga tashlanmoqda[3]. O‘zbekistonning o‘zida esa cho‘llanish jarayoni qariyb 18 foiz hududni qamrab olgan, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik falokat oqibatlari hali ham davom etmoqda. Bu raqamlar faqat ekologik emas, balki axloqiy-insoniy muammo ekanini anglatadi. Shunday sharoitda ekologik ta’lim yoshlar ongida “men faqat o‘zim uchun emas, balki butun insoniyat uchun javobgarman” degan global mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Germaniyalik faylasuf Hans Jonas “Mas’uliyat printsipi” asarida insonning axloqiy burchi endi faqat bugun uchun emas, balki kelajak avlodlar uchun ham amal qilishi kerak, deb yozgan[4]. Demak, ekologik ta’limning maqsadi – yoshlarni shunday mas’uliyatli tafakkur egalariga aylantirishdir. Bu jarayonda vatanparvarlik hissi va global mas’uliyat bir-birini to‘ldiradi. Chunki haqiqiy vatanparvar inson o‘z yerini sevish bilan birga, butun insoniyat manfaati uchun ham qayg‘uradi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2023-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Ekologik madaniyatni oshirish, yoshlarni atrof-muhitga ehtirom ruhida tarbiyalash – bu kelajak uchun sarmoyadir” degan edi[5]. Darhaqiqat, ekologik ta’lim bu sarmoyaning eng samarali yo‘lidir. Maktabdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan tizimda ekologik kompetensiyalarni shakllantirish, ekoturizmni rivojlantirish, “yashil maktablar” tashkil etish orqali yoshlarning ekologik ongini oshirish mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim muassasalarining 70 foizida ekologik to‘garaklar faoliyat yuritmoqda, 20 mingdan ortiq o‘quvchi “Yashil maktab”, “Ekologiya elchilari” loyihalarida qatnashmoqda[6]. Samarqand, Xiva, Buxoro kabi tarixiy shaharlar esa ekologik turizm markazlariga aylantirilmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy jarayon – yoshlar o‘z yurti tabiati, tarixi, me’moriy obidalari bilan bevosita tanishar ekan, ularda Vatanga mehr, tabiatga ehtirom, mas’uliyat tuyg‘usi ortadi.

O‘zbekiston falsafa maktabi vakillari – N. Jo‘raev, A. Erkaev, S. G‘ulomov, I. Jo‘rayev asarlarida ham ekologik tafakkur, ma’naviyat va vatanparvarlik o‘zaro uyg‘un jarayon sifatida talqin etiladi[7]. N. Jo‘raevning fikricha, ma’naviyatni ekologik ong bilan bog‘lash – insonni o‘zligini anglashga yetaklaydigan eng samarali yo‘ldir. Shu bois, ekologik ta’limni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, uni ma’naviy qadriyatlar tizimi bilan integratsiyalash dolzarb ilmiy vazifadir.

Ekologik ta’lim shaxsni shakllantirishning uch darajasini o‘z ichiga oladi: kognitiv (bilim), affektiv (hissiyot, e’tiqod), va konativ (amal, xulq). Birinchi bosqichda yoshlar tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi; ikkinchi bosqichda ular tabiatni sevish, unga mehr qo‘yish hissini his etadi; uchinchi bosqichda esa bu bilim va hissiyot amaliy xatti-harakatga aylanadi – daraxt ekish, chiqindilarni ajratish, energiyani tejash, ekologik loyihalarda ishtirok etish.

Masalan, Toshkent viloyatining Parkent tumanida 2025-yilning boshida “Yashil maktab” tashabbusi asosida 12 ta maktabda o‘quvchilarning ekologik loyihalari amalga oshirildi. 8 mingdan ortiq daraxt ekildi, chiqindilarni qayta ishlash uchun 30 ta punkt tashkil etildi[8]. Natijada o‘quvchilar nafaqat tabiatga mehr

qo‘ydilar, balki “men Vatanim uchun foydali ish qilyapman” degan iftixor hissini his etdilar.

Bu jarayonlar yosh avlodda ikki darajadagi mas’uliyatni uyg‘otadi: mahalliy (vatanparvarlik) va global (planetar mas’uliyat). Amerikalik sotsiolog Ulrix Bek “Global xavf jamiyati” nazariyasida insoniyat taqdiri endi bir-biriga bog‘liq bo‘lib qolgani, ekologik xavf ham millat tanlamasligini ta’kidlaydi[9]. Shu bois O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda global ekologik madaniyatni milliy g‘urur bilan uyg‘unlashtirish muhim.

Tarixda ham buyuk allomalar ekologik fikrning ildizlarini yaratganlar. Abu Rayhon Beruniy “Saydona” asarida tabiatni inson hayotining bir bo‘lagi sifatida tahlil qiladi, “inson tabiatdan ajralsa, o‘z ma’naviy ildizidan uziladi” deya yozadi[10]. Alisher Navoiy esa “Mahbub ul-qulub”da “Yerga ozor bergan kishi, o‘z qalbini jarohatlagan bo‘lur” deya inson va tabiat o‘rtasidagi axloqiy bog‘liqlikka urg‘u beradi. Demak, ekologik tarbiya bizning milliy tafakkurimizda ham qadim ildizlarga ega.

Shu nuqtada, ekologik ta’limni faqat ilmiy fan sifatida emas, balki falsafiy-ma’naviy tizim sifatida qarash zarur. Chunki u shaxsni “ekologik subyekt” darajasiga olib chiqadi – ya’ni o‘z harakatining ijtimoiy, axloqiy, tabiiy oqibatlarini oldindan his qiluvchi shaxs. Bu holatda ekologik tarbiya – vijdon tarbiyasiga aylanadi.

Bugungi globallashuv davrida “raqamli ekologik ta’lim” tushunchasi ham dolzarb. Virtual laboratoriyalar, ekologik simulyatsiyalar, sun’iy intellekt yordamida o‘qitish metodlari yoshlarni zamonaviy texnologiyalar orqali ekologik muammolarga yaqinlashtiradi. Masalan, 2024-yilda Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari uchun “EkoAR” nomli mobil dastur ishga tushirilgan. Bu dastur yordamida talabalar o‘z hududidagi chiqindilar hajmini raqamli tarzda kuzatib borish, o‘simlik turlarini o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar.

Ekologik ta’limning ijtimoiy samarasi shundaki, u yoshlar ongida Vatan manfaati bilan insoniyat manfaatini uyg‘unlashtiradi. Bu uyg‘unlik “ekologik vatanparvarlik” tushunchasini yuzaga keltiradi. Ekologik vatanparvarlik – bu o‘z Vatani tabiatini asrab-avaylash orqali butun insoniyat farovonligiga hissa qo‘shishdir. Shu ma’noda, ekologik ta’lim milliy qadriyatlar va global madaniyat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Masalan, Yaponiyada “Kankyo kyoiku” (ekologik ta’lim) konsepsiyasi asosida har bir o‘quvchi ekologik loyihalarda ishtirok etadi. Germaniyada “Umweltbildung” dasturi orqali ekologik ong davlat mafkurasining bir qismiga aylangan. O‘zbekiston uchun esa bu tajribalar milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilmoqda: “Yashil makon”, “Ekologik marafon”, “Eko haftalik” kabi tashabbuslar yoshlarning ongini o‘zgartiruvchi omil bo‘lib bormoqda[11].

Ekologik ta’limning ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, u nafaqat ekologik muammolarni hal etadi, balki jamiyatni ma’naviy yangilanish sari yetaklaydi. Insonning tabiatga munosabatini o‘zgartirish orqali u o‘z ichki dunyosini ham o‘zgartiradi. Karl Yaspers “inson o‘zini anglash orqali borliqni anglaydi” degan edi[12]. Shu bois ekologik ta’lim aslida o‘zlikni anglash, ma’naviy uyg‘onish jarayonidir.

O‘zbekistonlik yoshlar bugun xalqaro ekologik harakatlarda faol ishtirok etmoqda. 2024-yilda Toshkentda o‘tkazilgan “Green Generation” forumida 40 dan ortiq mamlakatdan 500 dan ziyod yoshlar ekologik loyihalar taqdim etdilar. O‘zbekiston vakillari “Yashil energiya – yashil kelajak” loyihasi bilan birinchi o‘rinni egalladi. Bu holat yosh avlodda nafaqat Vatanga, balki global kelajakka bo‘lgan mas’uliyatni ifodalaydi.

Ekologik ta’lim orqali shakllanayotgan yangi tafakkur insonni iste’molchidan himoyachiga, befarq kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa jamiyatda “ekologik ong”dan “ekologik madaniyat”ga o‘tish bosqichini bildiradi. Shunday qilib, ekologik ta’lim bu – ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy uyg‘onish va vatanparvarlikning yangi paradigmasidir.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, ekologik ta’lim – bu zamonaviy insonni shakllantirishning universal mexanizmi. U yoshlarni o‘z Vataniga mehr, tabiatga hurmat, insoniyatga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Inson o‘z yerini asrab, suvini e’zozlab, havosini tozalashga intilar ekan, u aslida o‘z Vatanini va o‘z kelajagini himoya qilmoqda.

Shunday qilib, ekologik ta’lim orqali yosh avlodda vatanparvarlik va global mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish – bu nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy vazifa bo‘lib, u Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot strategiyasida markaziy o‘rin tutadi. Insonni tabiat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatish – bu insonni inson qilishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ta’lim va tarbiya konsepsiyasi”, 2024. 26-b.
2. Schweitzer A. Kultur und Ethik. München, 1923. 31-b.
3. UN Environment Report, 2023. 12-b.
4. Jonas H. Das Prinzip Verantwortung. Frankfurt am Main, 1979. 44-b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 27-b.
6. O‘zbekiston Ekologiya vazirligi ma’lumotlari, 2024-yil. 11-b.
7. Jo‘raev N., Erkaev A., Ma’naviyat va ijtimoiy taraqqiyot. Toshkent, 2020. 34-b.
8. Parkent tumani hokimligi ekologik hisobotlari, 2025-yil. 7-b.
9. Beck U. Risikogesellschaft. Frankfurt, 1986. 74-b.
10. Beruniy A.R. Saydona. Toshkent: Fan, 1973. 31-b.
11. Yaponiyada ekologik ta’lim tizimi, JICA Report, 2022. 20-b.
12. Jaspers K. Philosophie. Berlin, 1956. 34-b.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
Fayzullayeva E’zoza O‘tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muammoli ta’lim, interfaol metodlar, o‘yinli topshiriqlar hamda raqamli texnologiyalarning afzalliklarini tahlil qilgan. Tadqiqot davomida kuzatuv va tajriba-sinov metodlari asosida olingan natijalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, darslarga qiziqishini kuchaytirish hamda amaliy ko‘nikmalarini boyitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatib bergan.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim, interfaol metod, o‘yinli topshiriq, raqamli texnologiyalar, metodika

Kirish. Matematika fani mantiqiy tafakkurning asosiy manbai hisoblanadi. Chunki unda berilgan masalalar, isbotlar va muammolar o‘quvchilardan ketma-ketlik, tahlil, umumlashtirish va xulosa chiqarishni talab etadi. O‘quvchilarda bunday ko‘nikmalar shakllanmasa, ular nafaqat matematika balki boshqa fanlarni o‘zlashtirishda ham qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqlarida ta’lim sifatini oshirish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish masalasini ko‘p bor qayd etib, "O‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarur"[72], deya alohida urg‘u bergan. Shu nuqtai nazardan, matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish metodlarini izlash pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – maktab o‘quvchilarida matematik mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun samarali metodlarni aniqlash, ularning afzalliklarini ilmiy asoslash va amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan o‘rganilgan. Masalan, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalarning tafakkuri bosqichma-bosqich shakllanishi qayd etilgan. Unga ko‘ra, o‘quvchilar o‘smirlik davrida formal operatsion bosqichga o‘tib, murakkab matematik tushunchalarni mantiqiy asosda anglay olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu g‘oya matematika ta’limida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metodlarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy olimlardan yana biri – George Pólya matematik masalalarni yechish metodikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, o‘quvchilarni masalani tushunish, reja tuzish, yechim topish va natijani tekshirish

[72] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. "Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi". 30.10.2020. https://president.uz/oz/lists/view/3924

kabi bosqichlarda ishlashga o‘rgatish mantiqiy fikrlashni izchil rivojlantirishini ta’kidlaydi.

Mahalliy olimlar ishlarida ham bu masalalar keng yoritilgan. Jumladan, A. Abduqodirov esa pedagogik psixologiya yo‘nalishidagi izlanishlarida tafakkur rivojida kognitiv faoliyatning o‘rni katta ekanini ilmiy asoslab, matematika darslarida o‘quvchilarning tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashni muhim vazifa sifatida ta’kidlaydi[1. 17].

S. Jo‘rayev esa matematika ta’limida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini oshirish mumkinligini asoslab bergan[5. 39].

Xorijiy olimlar asosan mantiqiy tafakkurning nazariy va psixologik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsalar, mahalliy olimlar uni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish metodlarini ishlab chiqqanlar. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, matematika ta’limida mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayonida an’anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy raqamli texnologiyalar, muammoli topshiriqlar va interfaol yondashuvlarni uyg‘unlashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala bo‘lib qolmoqda.

Metodologiya. Tadqiqot davomida nazariy tahlil metodi yordamida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Keyingi bosqichda pedagogik kuzatuv metodi qo‘llanilib, 5–9-sinflar kesimida matematika darslarida o‘quvchilarning muammoli masalalarni yechish jarayonidagi faoliyati tahlil qilindi. Kuzatuv jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashda duch keladigan qiyinchiliklari va ularning fikrlash izchilligi alohida qayd etildi. Shuningdek, eksperiment metodi asosida ikki guruhda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba guruhida muammoli topshiriqlar, o‘yinli mashqlardan muntazam foydalanildi, nazorat guruhida esa asosan an’anaviy metodlarga tayanildi.

Metodik yondashuvlar sifatida muammoli ta’lim, o‘yinli yondashuv asosiy yo‘nalish bo‘ldi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarni tayyor javobni olishdan ko‘ra mustaqil izlanishga undadi. O‘yinli yondashuv esa matematik boshqotirmalar, viktorinalar va mantiqiy o‘yinlar orqali ularning tezkor va aniq fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Natijalar va muhokamalar. Ushbu tadqiqot davomida maktab o‘quvchilarida matematik mantiqiy fikrlashni shakllantirishning turli metodlari sinovdan o‘tkazildi va bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Avvalo, dars jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilar tafakkurini faollashtirishda samarali bo‘ldi. Masalan, oddiy matematik masalalarga noan’anaviy shartlar qo‘shilganda, o‘quvchilar yechimga erishish uchun mustaqil fikrlash, taxmin qilish va mulohaza yuritishga majbur bo‘ldilar. Bu esa ularda nafaqat matematik bilimlarni qo‘llash, balki ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini ham shakllantirdi.

Ikkinchi natija shundan iboratki, o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib ishlash metodidan foydalanish ularning fikrlash jarayonida faol muloqot qilishini ta’minladi. Guruhli ishlarda ba’zi o‘quvchilar mantiqiy fikrlar bildirishga harakat qilsalar, boshqalar ularni tekshirish va tahlil qilish bilan shug‘ullandilar. Natijada, birgalikda yechim topish orqali mantiqiy fikrlash jarayoni yanada mustahkamlandi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Interaktiv testlar va mobil ilovalar yordamida mashqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlash qobiliyatlarini tezkor va aniq shaklda sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ldilar(1-jadvalga qarang).

1-Jadval. Matematikani o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi

№	Yondashuv turi	An’anaviy usulga nisbatan samaradorlik (%)	Talabalarda qiziqish darajasi (%)	Amaliy ko‘nikmalar shakllanishi (%)
1	Muammoli ta’lim	35	78	72
2	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	42	85	80
3	Interaktiv metodlar (debat, klaster)	28	70	65
4	An’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulot	–	40	50

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, **zamonaviy metodlar** (AKTdan foydalanish) talabalarda yuqori qiziqish uyg‘otibgina qolmay, balki **amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham samarali** hisoblanadi. An’anaviy metodlarda bu ko‘rsatkichlar ancha past bo‘lib, zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri – o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati faqatgina dars jarayonida emas, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ham qo‘llanilayotganidir. Masalan, ayrim o‘quvchilar o‘zlari duch kelgan oddiy muammolarni yechishda matematik mantiqqa tayanayotganliklarini bildirganlar. Bu esa mantiqiy fikrlashning mustahkam ko‘nikmaga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, matematik mantiqiy fikrlashni shakllantirishda kompleks yondashuv – muammoli vaziyatlar, guruhli ishlar, texnologik vositalar va ijodiy topshiriqlarni uyg‘unlashtirish eng yuqori samarani berdi. Shu bilan birga, o‘qituvchining rahbarlik va yo‘naltiruvchi roli hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matematika ta’limida pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil izlanishga yo‘naltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Interfaol metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari va muammoli vaziyatlardan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda matematik tushunchalarni hayotiy vaziyatlarga bog‘lab qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlash darajasi va amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rsatkichlari ortgani kuzatildi. Demak, matematika o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlar qo‘llanilganda, o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasi kuchayadi, ularning ijodiy yondashuvi shakllanadi.

Shu asosida bir necha takliflar ilgari suriladi. Matematika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda tatbiq etish. Dars jarayonida raqamli platformalardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarni mustaqil izlanishga rag‘batlantirish. Muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni ko‘paytirish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish.

Umuman olganda, matematika ta’limida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, yoshlarni intellektual va kasbiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalashning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdihakimov, Mirjalol. "IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.
2. Amirova, Zilola. "MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.
3. Arabboyev, O‘lmas. "SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.
4. Baratova, Nafisa. "BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.
5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. "O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.

MATEMATIKA DARSLARIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ORQALI O‘QUVCHILARNING QIZIQISHINI OSHIRISH

Fayzullayeva E’zoza O‘tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, individual ta’lim yo‘lga qo‘yish, interaktiv metodlar va vizual modellashtirishning afzalliklari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, differensial yondashuv va sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va matematika ta’limining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.*

Kalit so‘zlar: *differensial yondashuv, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, interaktiv metodlar.*

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda matematika fanini o‘qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki matematika – nafaqat hisob-kitob, balki mantiqiy

fikrlash, tahlil qilish, kelajakda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning asosi sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha marotaba ta’kidlaganlaridek, "Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta'lim dasturlari yaratib, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash zarur"[73]. Ushbu fikr ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini aniq ifodalaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim jarayonida yagona yondashuvdan voz kechib, o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va shaxsiy ehtiyojlariga mos ta’lim berish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” strategiyasida ham aynan matematika va aniq fanlarni chuqur o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunday yondashuv o‘quvchilarda fanlarga nisbatan nafaqat bilim, balki qiziqish va motivatsiyani ham shakllantirishni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, matematika darslarida differensial yondashuvning qo‘llanilishi juda muhimdir. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, qiziqish sohasi va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, har bir bola uchun mos topshiriqlarni taklif etadi. Natijada, kuchli o‘quvchi yanada yuqori marralarga intiladi, qiyinroq masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bilim darajasi nisbatan pastroq bo‘lgan o‘quvchilar esa asta-sekinlik bilan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga o‘rgatiladi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy tadqiqotchilardan biri – amerikalik olima **Carol Ann Tomlinson** differensial ta’lim nazariyasini amaliy jihatdan rivojlantirgan va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqish sohasi hamda o‘rganish uslubiga moslashtirilgan topshiriqlar ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy asoslab bergan. U “Differentiated Classroom” modelini ishlab chiqib, o‘quvchilarga bir xil emas, balki individual ehtiyojlarga mos topshiriqlar berilishini ta’kidlaydi.

Rus olimi **Lev Vygotskiy** o‘zining “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi orqali o‘quvchilarga kuchi yetadigan, biroq biroz murakkabroq topshiriqlar berilganda ularning intellektual rivojlanishi jadallashishini isbotlab bergan. Uning fikricha, differensial yondashuv o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol bilim izlanuvchisiga aylantiradi.

Yana bir mashhur olim – amerikalik pedagog **Benjamin Bloom** o‘zining “taksonomiya”si orqali bilimlarni bosqichma-bosqich egallashni tizimlashtirib, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasiga qarab moslashtirilgan topshiriqlar berish zarurligini ko‘rsatgan. Bu yondashuv matematika fanida o‘quvchilarning turli darajadagi masalalarni hal qilishini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Mahalliy ilmiy izlanishlarda ham differensial yondashuvga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, **metodist Mavluda Qodirova** esa Toshkent shahar maktablarida olib borgan monitoringi asosida differensial topshiriqlar qo‘llanilgan

[73] Daryo. "Shavkat Mirziyoyev Matematika institutining yangi qurilgan binosini borib ko‘rdi". 12.06.2020. https://daryo.uz/2020/06/12/shavkat-mirziyoyev-matematika-institutining-yangi-qurilgan-binosini-borib-kordi/

sinflarda matematika fanidan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo‘lganini ilmiy jihatdan asoslab bergan[2, 32].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlar differensial yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqqan va uning ilmiy ahamiyatini isbotlab bergan bo‘lsa, mahalliy olimlar bu yondashuvni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish, milliy o‘quvchilarning ehtiyojlari va psixologik xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish yo‘lida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishmoqda.

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi matematika darslarida differensial yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yo‘naltirildi. Avvalo, o‘quvchilarning bilim darajasi va tayyorgarligini aniqlash maqsadida test sinovlari, qisqa so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ushbu bosqichda har bir o‘quvchining fanga munosabati, mustaqil ishlash qobiliyati hamda mavzularni o‘zlashtirish darajasi haqida ma’lumot olindi. Natijalar asosida sinfdagi o‘quvchilar uch toifaga – tayyorgarligi past, o‘rtacha va yuqori bo‘lgan guruhlarga ajratildi.

Keyingi bosqichda matematika darslari turli darajadagi topshiriqlar asosida tashkil qilindi. Misol uchun, kvadrat tenglamalarni o‘rganish jarayonida tayyorgarligi past bo‘lgan o‘quvchilar oddiy formulalar va elementar masalalarni yechdilar, o‘rtacha darajadagi o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalarni tahlil qildilar, yuqori darajadagi o‘quvchilar esa ijodiy yondashuv talab qiladigan topshiriqlar bilan shug‘ullandilar. Bunday farqlash o‘quvchilarning qiziqishini pasaytirib qo‘ymasdan, aksincha, ularni o‘z imkoniyatlari doirasida faol bo‘lishga undadi.

So‘nggi bosqichda tahlil ishlari amalga oshirildi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, topshiriqlarni bajarish sifati va tezligi muntazam kuzatib borildi. Natijalar differensial yondashuvning samarali ekanini ko‘rsatdi.

Natijalar va muhokamalar. Tajriba davomida tayyorgarligi past guruhdagi o‘quvchilarning mavzularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi dastlabki 45 foizdan 63 foizga oshgani qayd etildi. O‘rtacha guruh o‘quvchilarida bu ko‘rsatkich 60 foizdan 78 foizga, yuqori darajadagi o‘quvchilarda esa 80 foizdan 92 foizga ko‘tarildi. Ushbu natijalar differensial yondashuv barcha qatlamdagi o‘quvchilar uchun mos imkoniyat yaratishini ko‘rsatadi.

So‘rovnomalar natijalari shuni isbotladiki, darslarda turli darajadagi topshiriqlardan foydalanish, musobaqa ruhidagi viktorinalar va onlayn testlarning joriy qilinishi o‘quvchilar motivatsiyasini keskin oshirgan. Xususan, 2024–2025-o‘quv yili davomida tajriba sinflarida matematika faniga qiziqish bildirgan o‘quvchilar ulushi 54 foizdan 81 foizga ko‘tarilgan.

Yuqori darajadagi topshiriqlarni bajargan o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalari rivojlangani kuzatildi. Tadqiqot davomida ularning 65 foizidan ortig‘i murakkab masalalarni bir nechta usulda yechishga intilgani qayd etildi. Bu holat an’anaviy darslarda deyarli uchramagan.

Bundan tashqari, o‘quv jarayoniga texnologiyalarning joriy etilishi ham sezilarli samara berdi. Onlayn platformalarda topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning tezkorligi va mustaqil ishlash darajasi ancha oshdi. Masalan, tajriba

boshida 10 ta oddiy masalani yechish uchun o‘rtacha 25 daqiqa sarflangan bo‘lsa, tajriba oxirida bu ko‘rsatkich 17 daqiqagacha qisqargan.

Jadval 1. Interaktiv metodlar qo‘llangandan oldin va keyin o‘quvchilarning qiziqishi darajasi

Qiziqish darajasi (%)	**Tajriba guruhida (oldin)**	**Tajriba guruhida (keyin)**	**Nazorat guruhida (oldin)**	**Nazorat guruhida (keyin)**
Yuqori (fan bilan faol shug‘ullanadi)	25 %	65 %	27 %	30 %
O‘rtacha (qisman qiziqadi)	40 %	25 %	42 %	40 %
Past (deyarli qiziqmaydi)	35 %	10 %	31 %	30 %

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, differensial yondashuv nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning matematika faniga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. O‘quvchi o‘z qobiliyati va qiziqishiga mos topshiriqlarni bajarganida, u dars jarayonida yanada faol bo‘ladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi va eng asosiysi, matematikani hayotiy fan sifatida qabul qila boshlaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matematika darslarida differensial yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini va bilim o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba davomida turli darajadagi topshiriqlar, onlayn platformalar va interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirgan, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirgan.

Quyida takliflar ilgari suriladi. Matematika darslarida differensial yondashuvga asoslangan o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi va maktablarning barcha sinflarida joriy etilishi zarur. O‘qituvchilar uchun differensial yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus treninglar tashkil qilinishi kerak. Bu ularga har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos dars rejasini tuzishda yordam beradi. Matematik viktorinalar, guruhli o‘yinlar va musobaqalar muntazam ravishda tashkil etilib, o‘quvchilar orasida raqobat va hamkorlik ruhini shakllantirish tavsiya etiladi.

Natijalar, differensial yondashuv matematika ta’limida ijtimoiy adolatni ta’minlash va har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ta’lim berishda muhim vosita ekanini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdihakimov, Mirjalol. "IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.

2. Amirova, Zilola. "MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.

3. Arabboyev, O‘lmas. "SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.

4. Baratova, Nafisa. "BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.

5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. "O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.

TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR

Jo‘raqulova Shoxzoda Toir qizi
Samarqand pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar tahlil qilingan. Texnologiyalarning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni, ularni qo‘llashning afzalliklari hamda amaliyotda uchrayotgan qiyinchiliklar yoritilgan. Xususan,texnik ta'minotning sustligi , pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasining turlicha ekanligi, o‘quvchilarning texnologiyadan noto‘g‘ri foydalanishi, hududlar o‘rtasidagi imkoniyatlar tafovuti hamda metodik ta’minotdagi kamchiliklar asosiy muammolar sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ularning yechimi sifatida texnik bazani mustahkamlash, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, onlayn ta’limni rivojlantirish va o‘quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish zarur ekanligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Axborot texnologiyalari, ta’lim, raqamli savodxonlik, innovatsion ta’lim, internet, infratuzilma, masofaviy ta’lim, multimedia resurslari, elektron darslik, AKT.*

Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Dunyo miqyosida “raqamli ta’lim” konsepsiyasi keng tarqalib, maktab va oliy ta’lim tizimida elektron darsliklar, masofaviy o‘quv kurslari, virtual laboratoriyalar, multimedia resurslari keng qo‘llanilmoqda. Qolaversa, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham AKTni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezident qaror va farmonlarida raqamli ta’limni rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirishda internet va multimedia vositalaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Shunga qaramay, amaliyotda texnologiyalardan foydalanishda bir qator muammolar mavjud.

Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Texnik ta'minotning sustligi
- Pedagoglarning raqamli savodxonligi
- O‘quvchilarning texnologiyadan noto‘g‘ri foydalanishi
- Metodik ta’minotdagi kamchiliklar

Texnik ta'minotning sustligi

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda Respublikamizning ko‘plab ta’lim muassasalarida kompyuter texnikasi yetarli emas. Ayrim maktablarda bir nechta sinf

birgina kompyuter xonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ayrim maktablarni bu imkoniyat chetlab o‘tgan.Bundan tashqari, internet tezligi pastligi yoki uzilishlar ko‘pligi dars jarayonida qiyinchilik tug‘diradi. Bu ayniqsa masofaviy ta’limga sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatmoqda. Multimedia vositalari – interaktiv doska, proyektor, elektron kutubxona resurslari hamma joyda mavjud emas. Infratuzilmada ko‘rinayotgan asosiy muammolardan asosiysi shudir.

Pedagoglarning raqamli savodxonligi

Barcha ta’lim sohasidagi pedagoglar ham texnologiyalardan samarali foydalana olmaydi. Masalan, ayrim pedagoglar faqatgina PowerPoint taqdimotidan foydalanish bilan cheklanib qoladi. Onlayn ta’lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Kahoot va boshqalar)dan foydalanish ko‘nikmasi barcha pedagoglarda shakllanmagan. Shu sababli, innovatsion metodlarni qo‘llash tajribasi kam, bu esa darslarni an’anaviy shaklda olib borishga olib kelmoqda.

O‘quvchilarning texnologiyadan noto‘g‘ri foydalanishi

O‘quvchilar kompyuter va internetni asosan o‘yin, ijtimoiy tarmoqlar yoki ko‘ngilochar kontent uchungina deb o‘ylashadi va shu maqsadda foydalanadi. Ta’limiy resurslardan foydalanishga bo‘lgan ishtiyoq past. Qolaversa, vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash natijasida o‘qish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Metodik ta’minotdagi kamchiliklar

Elektron darsliklar har doim ham o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos kelmaydi. Ba’zi multimedia materiallari nazariyaga haddan tashqari boy, ammo amaliyotdan uzoq, ayrimlari esa uni aksi. Elektron test bazalari va ta’limiy dasturlar muntazam yangilanmaydi. Bu esa dasturiy ta’minotdagi muammolarni yuzaga keltiradi. Metodik ta’minotni takomillashtirish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘qituvchilar uchun yaratiladigan elektron darsliklar, ta’limiy dasturlar va videoqo‘llanmalar muntazam ravishda yangilanib, yangi pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilishi zarur.

Bugungi kunda, zamonaviy ta’limda STEAM (science, technology, engineering, arts, mathematics) konsepsiyasini tatbiq etish orqali o‘quvchilarning texnologik fikrlashini rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, ,,flipped classroom" (teskari sinf) va ,,blended learning" (aralash ta’lim) metodlari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi. Bularning barchasini rivojlantirish uchun ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish lozim. Bu borada uzluksiz professional rivojlanish dasturlari, onlayn vebinarlar, tajriba almashish platformalari tashkil etish mumkin. Masalan, ,,ZiyoNet", ,,Eduportal", ,,Khan Academy ", ,,Moodle" kabi ta’limiy tizimlardan foydalanish o‘qituvchilarning hamda o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiyalar ta’lim jarayonida samaradorlikni oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga undaydi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Ammo texnik ta'minotning sustligi, raqamli savodxonlik, metodik ta’minot va o‘quvchilarning noto‘g‘ri foydalanishi kabi muammolar hal etilmasa, texnologiyalarning imkoniyatlari to‘liq ochilmaydi. Shuning uchun ta’lim tizimida texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish,

davlat va jamiyat hamkorligida zamonaviy raqamli ta’limni shakllantirish zarur. Zero, texnologiyalarni ta’limga samarali joriy etish – kelajak taraqqiyotining kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2020–2023 yillar.
2. Shodmonov Q., Qosimov B. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
3. Hasanboeva O., Yo‘ldoshev J.G. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
4. Turdiyev Sh. Axborot texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
5. Karimov B. Raqamli ta’lim muhitini yaratishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Merrill M.D. First Principles of Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2013.
7. Anderson T., Dron J. Teaching and Learning at a Distance: Foundations of Distance Education. – New York: Routledge, 2020.
8. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. – International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.

O‘QUVCHILAR JAMOASI BILAN ISHLASHDA ZAMONAVIY TA’LIMNING AHAMIYATI

(bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchi misolida)

Nurmanova D.J.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari misolida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda zamonaviy ta’lim yondashuvlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida ijtimoiy-psixologik faollikni oshirish, hamkorlikni rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali mustaqil fikrlash hamda muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada interfaol metodlar va raqamli vositalar integratsiyasining samaradorligi tasdiqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchilar jamoasi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari, metodik savodxonlik, hamkorlikda o‘qitish.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar zamonaviy o‘qituvchidan yangicha yondashuvlar, yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar va metodik savodxonlikni talab qilmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim tizimi – shaxs kamolotining poydevori sifatida o‘quvchilarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois, bu bosqichda ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash uchun o‘qituvchi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni beruvchi, balki o‘quvchilar jamoasini

shakllantiruvchi, boshqaruvchi va motivatsiya beruvchi lider sifatida maydonga chiqadi.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash pedagogik faoliyatning murakkab va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘zaro muloqot madaniyati, jamoaviy hamkorlik, o‘z fikrini erkin ifoda etish, qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jamoaviy ish orqali nafaqat o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi, balki ularning o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiv fikrlash kabi shaxsiy xususiyatlari ham rivojlanadi. Ayniqsa, zamonaviy interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyihaviy ishlar, STEAM yondashuvi, raqamli platformalardan foydalanish kabi innovatsion pedagogik vositalarning joriy etilishi bu jarayonning samaradorligini keskin oshiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga tayyorgarlik darajasi, ularda zaruriy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning shakllanishi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogik ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning ijtimoiy-psixologik jihatdan barkamol, yangilikka ochiq va raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalana oladigan mutaxassis sifatida tayyorlanishi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolada o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning nazariy asoslari, zamonaviy ta’lim yondashuvlarining o‘rni, shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining ushbu jarayonga tayyorgarligi tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda interfaol metodlar va raqamli vositalar yordamida samarali o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha quyidagicha ishlarni amalga oshirish mumkin.

O‘quvchilar jamoasi tushunchasining pedagogik mohiyatini oshirish, bunda: Pedagogik adabiyotlarda “o‘quvchilar jamoasi” tushunchasi o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik, birgalikdagi faoliyat, ijtimoiy mas’uliyat va umumiy maqsadga yo‘naltirilganlik asosida shakllangan sotsial birlik sifatida talqin etiladi. Jamoa o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan ijtimoiy guruh bo‘lib, unda har bir a’zo o‘zining rolini anglaydi va o‘zini jamoaning faol ishtirokchisi sifatida his etadi. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar jamoasini shakllantirish bolalarda ijtimoiylashuv jarayonining boshlanishi, jamoaviy qarorlar qabul qilish, mas’uliyatni bo‘lishish, empatiya va hurmat kabi shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy ta’lim yondashuvlarining jamoa bilan ishlashdagi ahamiyatini yoritishda turli tomonlarda qarash mumkin. Jumladan: Zamonaviy ta’lim konsepsiyasi o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi interfaol, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, quyidagi yondashuvlar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda samarali vosita sifatida e’tirof etiladi:

Hamkorlikda o‘qitish (cooperative learning) – bu yondashuv orqali o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlaydi, har bir a’zo umumiy natijaga hissa qo‘shadi. Bu metod o‘quvchilarning o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini, mas’uliyatini va jamoa bilan ishlash malakasini rivojlantiradi.

Loyihaviy faoliyat asosida o‘qitish – bu metod orqali o‘quvchilar real hayotga yaqin muammolarni hal qilishda jamoaviy fikrlash, rejalashtirish, rollarni taqsimlash va natijani baholash ko‘nikmalarini egallaydi.

Muammoli o‘qitish (problem-based learning) – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, birgalikda qaror topishga undaydi, bu esa jamoada fikrlar xilma-xilligiga nisbatan bag‘rikenglikni oshiradi.

STEAM yondashuvi – fanlar integratsiyasi orqali jamoaviy faoliyatni kuchaytiradi va o‘quvchilarda ijodkorlik hamda texnologik tafakkurni rivojlantiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi bir qator zaruriy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich ta’limda faoliyat yurituvchi o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash qobiliyati uning kasbiy muvaffaqiyatining muhim mezoni hisoblanadi. Bu borada quyidagi kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etadi:

Pedagogik va psixologik kompetensiyalar – har bir o‘quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda individual va jamoaviy yondashuvlarni qo‘llay olish qobiliyati;

Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, jamoada ijobiy muhit yaratish va nizolarni konstruktiv hal eta olish;

Texnologik kompetensiya – raqamli vositalar va zamonaviy ta’lim platformalaridan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish;

Refleksiv kompetensiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va o‘zini doimiy rivojlantirish qobiliyati.

Raqamli vositalar va ta’lim texnologiyalarining o‘rni. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygan. Jumladan, Google Classroom, Padlet, Mentimeter, Quizizz, Jamboard kabi vositalar o‘quvchilarni birgalikda fikrlashga, tajriba almashishga va o‘zaro baholashga jalb etadi. Raqamli vositalar yordamida sinfda ham, masofaviy ta’limda ham jamoaviy faoliyatni samarali tashkil qilish mumkin.

Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Amaliyotda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari jamoa bilan ishlash jarayonida quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

O‘quvchilar orasida psixologik nomutanosiblik, yetarli darajadagi ijtimoiylashmaganlik;

Jamoa bilan ishlash metodikalarining nazariy bilim sifatida o‘zlashtirilib, amaliy qo‘llanmasligi;

Raqamli vositalarni qo‘llashda texnik tayyorgarlik va metodik ko‘nikmalarning yetishmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun pedagogik ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, rol o‘yinlari, taqlidiy (simulyatsion) treninglar, tajriba almashuv dasturlarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

T**avsiyaviy metod: Rol o‘yinlari (Role-playing)**

Metod mazmuni: Rol o‘yinlari – bu pedagogik trening shaklidir, unda bo‘lajak o‘qituvchilar real yoki shartli pedagogik vaziyatlarga kirishib, muayyan rollarni (o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va h.k.) ijro etadilar. Bu usul ularni o‘quvchilar

jamoasi bilan ishlashda yuzaga keladigan real holatlarni amalda sinab ko‘rish va ularga mos pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Metod maqsadi:

O‘qituvchilik faoliyatida uchraydigan vaziyatlarda to‘g‘ri kommunikatsiya va jamoani boshqarish strategiyalarini shakllantirish;

Bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini oshirish;

Qaror qabul qilish, liderlik va empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Amaliy qo‘llash namunasi:

Vaziyat ssenariysi: Sinfda yangi o‘quvchi kelgan. Jamoa uni qabul qilmayapti, e’tibordan chetda qolmoqda.

Ishtirokchilar rollari:

O‘qituvchi (bo‘lajak pedagog)

Yangi o‘quvchi

Guruh yetakchisi

Sinf o‘quvchilari

Topshiriq: Bo‘lajak o‘qituvchi vaziyatni tahlil qiladi, jamoada inklyuziv muhit yaratish strategiyasini ishlab chiqadi va uni ssenariy orqali amalda sinaydi.

Metodning afzalliklari:

Haqiqiy vaziyatlar bilan yuzma-yuz kelish imkonini yaratadi;

Refleksiya orqali o‘z ustida ishlashga yordam beradi;

O‘zaro muloqot, sabr, tinglay bilish va rahbarlik sifatlarini rivojlantiradi;

O‘qituvchilikka doir muammolarga kreativ yondashishni o‘rgatadi.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning eng muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar – xususan, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim, loyihaviy va STEAM metodlari, raqamli texnologiyalar integratsiyasi o‘quvchilar jamoasining shakllanishi va jamoada faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid kompetensiyalarni shakllantirish, birinchidan, ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini belgilaydi, ikkinchidan, ta’lim jarayonining psixologik-ijtimoiy muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasining ortishiga olib keladi.

Mazkur maqola doirasida bo‘lajak pedagoglar uchun tavsiya etilayotgan **rol o‘yinlari**, **treninglar**, **interfaol metodlar asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar** ularning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish orqali bu jarayon yanada qulay va samarali shaklga ega bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Pedagogik ta’lim yo‘nalishidagi o‘quv dasturlariga o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid maxsus amaliy kurslar va trening mashg‘ulotlarini kiritish;

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan rol o‘yinlari va muammoli vaziyatlar asosidagi mashqlarni tizimli ravishda qo‘llash;

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun raqamli ta’lim platformalari va onlayn jamoaviy ish vositalaridan foydalanishni o‘rgatuvchi seminar va vebinarlar tashkil etish;

O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiya omillarini integratsiyalashgan holda yondashish.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid tayyorgarligi nafaqat pedagogik jarayonning sifati, balki jamiyatning intellektual va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishda ham muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.Н.Ляпина, И.В.Ершова *Психология и педагогика*. – М.: Академия, 2018. – 320 с.
2. В.В.Давыдов. *Развитие психологических понятий у детей*. – М.: Просвещение, 2016. – 256 с.
3. Джонсон Д., Джонсон Р. *Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice*. – Boston: Allyn and Bacon, 2019. – 288 p.
4. Каган Спенсер. *Кооперативное обучение*. – СПб.: Питер, 2017. – 240 с.
5. Л.И.Божович *Психология развития личности*. – М.: Наука, 2015. – 400 с.
6. A.Pritchard *Ways of Learning: Learning Theories and Learning Styles in the Classroom*. – Routledge, 2017. – 234 p.
7. В.Н.Панченко *Инновационные технологии в образовании*. – М.: Юрайт, 2020. – 312 с.
8. С.В.Королева. *Современные образовательные технологии*. – М.: Просвещение, 2019. – 280 с.
9. V.Tishkov *Pedagogical Psychology*. – Moscow: Academia, 2018. – 290 p.
10. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. – UNESCO Publishing, 2017. – 72 p.
11. V.D.Shadrikov *Psychology of Pedagogical Activity*. – Moscow: Publishing House, 2016. – 255 p.
12. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2020*. – UNESCO Publishing, 2020.
13. W.James *Learning and Education in the Digital Age*. – New York: Springer, 2021. – 345 p.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (GAMIFIKATSIYA)

Eshonova Dilnoza Abrorovna
Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni Kasbiy rivojlantirish va yangi metodlarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti doktaranti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuv – gamifikatsiya metodining ahamiyati, tamoyillari va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Gamifikatsiya o‘yin elementlari orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, faolligini kuchaytirish va til ko‘nikmalarini samarali shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda. Maqolada xalqaro tajribalar, O‘zbekiston maktablarida qo‘llanilayotgan amaliy misollar va texnologik vositalar asosida gamifikatsiya usullarining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, metodning afzalliklari bilan birga ayrim cheklovlari ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *gamifikatsiya, boshlang‘ich ta’lim, motivatsiya, interaktiv metodlar, ingliz tili o‘qitish, texnologik vositalar, til kompetensiyasi.*

Bugungi kunda ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish maqsadida o‘yin elementlarini darslarda qo‘llash-ya’ni gamifikatsiya-keng tarqalgan pedagogik yondashuvga aylangan. Gamifikatsiya tushunchasi o‘yin tamoyillari va o‘yin dizayni elementlarini o‘yin bo‘lmagan jarayonlarga tatbiq etishdan iborat bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, ularning motivatsiyasini oshirish va bilimlarni yanada mustahkamlash uchun ishlatiladi.[74]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ingliz tilini o‘rgatishda gamifikatsiya ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh bolalar o‘yin orqali o‘rganishga, qiziqarli va interaktiv mashg‘ulotlarga tabiiy ravishda jalb bo‘ladilar. Shu sababli, o‘yin elementlari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning e’tiborini jamlash, so‘z boyligini oshirish, grammatika qoidalarini o‘zlashtirish va til ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini osonlashtiradi. Bundan tashqari, gamifikatsiya o‘quvchilarda jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ingliz tilini o‘rganishda muhim hisoblanadi.[75]

Gamifikatsiya metodining asosiy elementlari:

-ballar (points)

- darajalar (levels)

-mukofotlar (badges)

-reytinglar (leaderboards)

-jamoaviy o‘yinlar

[74]Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). *From game design elements to gamefulness: Defining "gamification".* Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments, 9–15.

[75]Kapp, K. M. (2012). *The gamification of learning and instruction: Game-based methods and strategies for training and education.* John Wiley & Sons.

O‘quvchilar turli topshiriqlarni bajargan sari ball to‘playdi, darajalarga ko‘tariladi va maxsus belgilar (badges) bilan taqdirlanadi. Bu elementlar o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini doimiy saqlashga va yangi bilimlarni o‘rganishga rag‘batlantiradi. Shuningdek, leaderboards (reyting jadvallari-gamifikatsiyadagi motivatsion mexanizm) yordamida o‘quvchilar o‘zaro raqobatlashadi va bu jarayon yanada qiziqarli va interaktiv bo‘ladi.[76]

Gamifikatsiya-bu **o‘yin mexanizmlarini o‘quv jarayoniga qo‘shish** orqali o‘quvchini rag‘batlantirish va motivatsiya qilish strategiyasidir. Ya’ni, darsni “o‘yin shaklida” tashkil qilish, lekin bu faqat telefon yoki kompyuter o‘yinlariga bog‘liq emas. **Gamifikatsiya-bu darsni o‘yin elementlari bilan boyitish.** Bu telefon bilan ham, qog‘ozda ham, og‘zaki mashq bilan ham amalga oshiriladi.

Gamifikatsiyaga misollar (faqat telefon yoki computer emas!):

Misol	Gamifikatsiyami?	Qurilma kerakmi?
Darsda ball tizimi joriy qilish (masalan, 10 ball-“Top student”)	ha	Yo‘q
O‘yinli topshiriqlar: “Vocabulary bingo”, “Find the word”	ha	Yo‘q
Mobil ilovalar: Duolingo, Wordwall, Kahoot	ha	Ha
Reyting jadvallari (“leaderboard”)	ha	Yo‘q
O‘quvchilar orasida “star of the week” tanlovi	ha	Yo‘q
Shunchaki o‘yin o‘ynash (ko‘ngil uchun)	Yo‘q	Ha, lekin bu ta’lim emas

1.1.jadval: Gamifikatsiyaga misollar

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida boshlang‘ich maktablarda ingliz tilini o‘qitishda gamifikatsiya usullari keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida gamifikatsiya o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish va darslarni yanada samarali tashkil etish uchun faol ravishda tatbiq etilmoqda. Singapurda ham maktablarda interaktiv o‘yinlar va raqamli platformalar orqali ingliz tilini o‘rgatish mashhurdir. Buyuk Britaniya va AQSh maktablarida esa *Kahoot!*, *ClassDojo*, *Duolingo for Schools* kabi platformalar o‘yin elementlari asosida til o‘rgatish uchun keng qo‘llaniladi. Ushbu platformalar o‘quvchilarga interaktiv savollar va mashqlarni o‘yin shaklida bajarish imkonini beradi va o‘qituvchilar uchun natijalarni kuzatish hamda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.[77]

Chet el tajribalariga ko‘ra darsni qiziqarli qilib o‘tish uchun qo‘llaniladigan quyidagi gamifikatsiya o‘yinlarini ko‘rib chiqamiz.

[76]Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? — A literature review of empirical studies on gamification. *Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences*, 3025–3034.

[77]British Council. (2020). Using technology to engage young learners. https://www.britishcouncil.org/school-resources/find/teaching-resources/using-technology-engage-young-learners

Kahoot!-Bu interaktiv viktorina platformasi orqali o‘qituvchi ingliz tili bo‘yicha savollar tayyorlaydi va o‘quvchilar smartfon yoki kompyuter orqali javob berishadi. Masalan, "Color Vocabulary Quiz" o‘yini o‘quvchilarga ranglar nomlarini tezda va qiziqarli tarzda o‘rganishga yordam beradi. Har bir to‘g‘ri javob uchun ballar beriladi va o‘quvchilar o‘zaro reytingda raqobatlashadi.

ClassDojo-Bu platforma yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning ijobiy xatti-harakatlari uchun ball va mukofotlar beradi. Misol uchun, o‘quvchi dars davomida faol qatnashsa yoki guruhda yordam bersa, unga “Helping Hand” badge (mukofoti) beriladi. Bu ularni ijobiy xulqni rivojlantirishga undaydi.

Duolingo for Schools-Duolingo platformasining o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan versiyasi bo‘lib, u yerda ingliz tilini o‘yin shaklida o‘rganish mumkin. Masalan, “Animals” mavzusidagi darsda o‘quvchilar turli hayvon nomlarini to‘g‘ri tarjima qilish orqali ball to‘playdi, yangi darajaga o‘tadi va bilimlarini mustahkamlaydi.

O‘zbekistonda ham bu usul turli maktablarda amaliyotda sinovdan o‘tib, ijobiy natijalar bermoqda. Masalan, Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi ixtisoslashtirilgan maktablar hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarda ingliz tili darslarida "Vocabulary Bingo", "Hot Seat", "Role-play", "Spin the Wheel" kabi o‘yin shakllari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bu o‘yinlar darslarda til ko‘nikmalarini tabiiy va qiziqarli shaklda o‘rgatishga xizmat qilmoqda.[78] Masalan, "Vocabulary Bingo" o‘yini orqali o‘quvchilar darsda o‘rganilgan yangi so‘zlarni jadvalda topib belgilashadi. Bu esa lug‘at boyligini mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yoki “Hot Seat” o‘yinida o‘quvchi boshqa o‘quvchilar bergan tavsiflar asosida biror so‘zni topishga harakat qiladi. Bu jarayonda eshitish, tushunish va og‘zaki ifoda ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, ko‘plab maktablarda Wordwall, Quizizz, Kahoot! kabi raqamli platformalar orqali o‘yinli testlar, ball tizimi va reytinglar joriy qilinmoqda. Andijon viloyatining Ulug‘nor tumanidagi 12-maktab, Samarqanddagi 44-maktab, Namangandagi "Young Learners" o‘quv markazida bu kabi o‘yin vositalari orqali ingliz tili darslari o‘tkazilib, o‘quvchilarning faolligi va natijalari oshgani kuzatilgan.[79]

Rolli o‘yinlar (masalan, “Buy Something in a Shop”, “Doctor & Patient”, “My Family”) orqali o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarda suhbat qurishni mashq qilishadi.

Wordwall deb nomlanadigan o‘yinga bir **“Spin & Learn” –** Raqamli aylanma o‘yinini ko‘rib chiqamiz. Bu interaktiv o‘yinning maqsadi lug‘at boyligini oshiradi va mustahkamlaydi. Topshiriqlar quyidagilardan iborat:

1.O‘qituvchi Wordwall’da “Spin the Wheel” g‘ildirak o‘yinini tayyorlaydi, unda turli so‘zlar yoki savollar joylashtiriladi (masalan: Name 3 animals, Say a color, Translate “book”, h.k.).

2.Har bir o‘quvchi navbat bilan g‘ildirakni aylantiradi va o‘ziga tushgan so‘zlarni topadi. Bu mashq o‘yin tarzida o‘tadi, bolalarni faol ishtirok etishga undaydi va so‘zlarni amaliy yod oladi.

[78]Xusanova, G. K., & Ergashova, G. D. (2023). Ingliz tili darslarida yuqori natijaga erishish usullari va zamonaviy yechimlari. International Conferences, 1(1), 1219–1221. URL: https://erus.uz/index.php/cf/article/view/1448

[79]Karimova N. O‘yin texnologiyalarining chet tilini o‘qitishdagi samaradorligi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023. – B. 45.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda gamifikatsiya metodlari o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, bilimlarni samarali egallash va ularni mustahkamlash uchun juda samarali vosita hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan o‘yin elementlari asosidagi platformalar ushbu metodning amaliy tatbiq etilishiga keng imkoniyat yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Celce-Murcia, M. (2001). *Teaching English as a Second or Foreign Language*. Heinle & Heinle.
2. Kapp, K. M. (2012). *The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education*. Pfeiffer.
3. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). *From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification"*. In Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Duolingo for Schools. (2023). Retrieved from: https://schools.duolingo.com
6. ClassDojo. (2023). Retrieved from: https://www.classdojo.com
7. Wordwall. (2023). Retrieved from: https://wordwall.net
8. Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan. (2022). Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar.

TA’LIMDA DEMOKRATIK QADRIYATLAR: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY IMKONIYATLAR

Tugalova Muattar Maxmudovna
Kattaqo‘rg‘on Davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayoniga demokratik qadriyatlarning ahamiyati, demokratik qadriyatlar orqali o‘quvchilarni ta’limda faol ishtirokchilarga aylantirish, ularning fikrini hurmat qilish va jamiyatda teng huquqlilikni rivojlantirishga qaratilgan. Unda demokratik qadriyatlar, ta’limda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda qadriyatlarning amaliy joriy etilishiga oid takliflar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Demokratik ta’lim, qadriyatlar, tenglik, erkinlik, ta’lim motivatsiyasi, fuqarolik kompetensiyalari, Jon Dewey, A.S. Neill, ta’lim islohotlari.*

Kirish. Ta’lim zamonaviy jamiyatda shaxsni rivojlantirish va jamiyatni demokratik tarzda shakllantirish vositasidir. Demokratik qadriyatlar – tenglik, erkinlik, hurmat va ishtirok – o‘quvchilarni faol fuqarolikka tayyorlaydi. Bu mavzu BMT hujjatlarida (masalan, Bola huquqlari Konvensiyasi) aks etgan. Jon Dewey (1916) ta’limni "hayotning demokratik tajribasi" deb ta’riflaydi, A.S. Neill (1960) esa repressiv tuzilmalardan ozod qilishni ta’kidlaydi. Maqola demokratik qadriyatlarning nazariy asoslarini, ta’sirini va joriy etilish to‘siqlarini tahlil qiladi.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asoslari demokratik ta’limning asosiy tamoyillarini (masalan, o‘quvchilar ishtiroki va qaror qabul qilish) aniqlashga qaratilgan. Ma’lumotlar to‘plashda ikki bosqichli yondashuv qo‘llanildi: birinchi bosqichda asosiy manbalarni tanlash va saralash, ikkinchi bosqichda ularning mazmunini tahlil qilish. Bu usul tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash uchun xizmat qildi, chunki u sub’ektivlikni kamaytirishga yordam berdi va natijalarning asoslanganligini kafolatlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, demokratik qadriyatlar ta’limda quyidagi jihatlarda ta’sir ko‘rsatadi: 1. O‘quvchilar motivatsiyasi va ishtiroki: Demokratik ta’limda o‘quvchilar qaror qabul qilishda ishtirok etadi, bu ularning o‘zini qadrlashini oshiradi. Masalan, Sudbury Valley maktabida (Greenberg, 1987) o‘quvchilar o‘z o‘quv dasturlarini belgilaydi, natijada o‘rganish qiziqishi pasaymaydi, an’anaviy maktablarda esa bu pasayish kuzatiladi. Demokratik qadriyatlar o‘quvchilarni mas’uliyatli fuqarolikka tayyorlaydi. Gutmann (1987) ta’kidlaydi: "Demokratik ta’lim bolalarni o‘z jamiyatlarini ongli ravishda shakllantirishga o‘rgatadi" (p. 112). Tadqiqotlarda (masalan, Hannam, 2010) demokratik maktab o‘quvchilari yuqori darajada o‘zini tuta bilish va ijtimoiy mas’uliyati bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, demokratik qadriyatlar ta’limda quyidagi jihatlarda ta’sir ko‘rsatadi:

Qadriyat	Ta’sir jihati	Misol (manbai)
Tenglik	O‘quvchilar o‘rtasida adolat	Dewey (1916)
Erkinlik	O‘z-o‘zi boshqarish	Neill (1960)
Ishtirok	Qaror qabul qilishda faollik	Greenberg (1987)

Jadval 1: Demokratik qadriyatlarning ta’lim natijalariga ta’siri

Asosiy qism: Natijalar shuni ko‘rsatadiki, demokratik qadriyatlar ta’limda ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, ammo ularning joriy etilishida to‘siqlar mavjud bo‘lib, bu yondashuvlar demokratik ta’limning nazariy asoslarini chuqur o‘rganishni ta’minlaydi va amaliy joriy etilishini baholash imkonini beradi. Shuning uchun, demokratik ta’limni joriy etish uchun o‘qituvchilar tayyorligi va ota-onalar ishtiroki muhim, chunki ularning faol qatnashi tadqiqotning amaliy jihatlarini kuchaytiradi va natijalarning ishonchliligini oshiradi. Masalan, BMT Konvensiyasi (1989) ta’limning majburiy jihatlarini ta’kidlaydi, bu erkinlik bilan ziddiyat tug‘dirishi mumkin. Takliflar: Davlat maktablarida sinf kengashlarini joriy etish, o‘qituvchilarni demokratik usullar bilan tayyorlash. Kelajak tadqiqotlar empirik ma’lumotlarni to‘plashga qaratilishi kerak. Demokratik qadriyatlar ta’limni yanada samarali va adolatli qiladi, lekin ularning to‘liq amalga oshirilishi uchun tizimli o‘zgarishlar talab etiladi.

Xulosa. Shunday qilib, ta’limda demokratik qadriyatlarning – tenglik, erkinlik, hurmat va ishtirok – muhimligi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu qadriyatlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantiradi va ijtimoiy tenglikni ta’minlaydi, shu bilan birga ta’limni yanada samarali va adolatli qiladi. Jon Dewey va A.S. Neill singari

mutafakkirlarning nazariy asoslariga tayanib, demokratik ta’lim o‘quvchilarni faol fuqarolikka tayyorlaydi va repressiv tuzilmalardan ozod qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu mavzudagi tadqiqotlar kelajakda demokratik sinf kengashlarini joriy etish, uni demokratik usullar bilan boyitish va tizimli o‘zgarishlar kiritishda empirik ma’lumotlarni to‘plashga qaratilishi kerak. Demokratik qadriyatlar ta’limni zamonaviy jamiyat uchun asosiy vositaga aylantiradi, lekin ularning to‘liq amalga oshirilishi uchun hamkorlik va innovatsiyalar talab etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Apple, M. (2000). «Official Knowledge: Democratic Education in a Conservative Age». Routledge.

2. Dewey, J. (1916). «Democracy and Education». Macmillan.

3. Greenberg, D. (1987). «Free at Last: The Sudbury Valley School». Sudbury Valley School Press.

4. Gutmann, A. (1987). «Democratic Education». Princeton University Press.

5. Hannam, D. (2010). «Democratic Schools: Lessons from the Past». Trentham Books.

6. Neill, A.S. (1960). «Summerhill: A Radical Approach to Child Rearing». Hart Publishing.

7. United Nations. (1989). «Convention on the Rights of the Child». UNICEF.

Internet saytlari ro‘yxati

1. ««UNESCO veb-sayti»« (https://en.unesco.org/themes/education): Ta’limda demokratik qadriyatlar va global islohotlar haqida ma’lumotlar, jumladan, ta’lim huquqlari va tenglik.

2. ««UNICEF veb-sayti»« (https://www.unicef.org/education): Bola huquqlari Konvensiyasi va demokratik ta’lim amaliyotlari haqida batafsil ma’lumotlar.

3. ««John Dewey loyihasi»« (https://dewey.pragmatism.org/): Deweyning ta’lim nazariyalari va demokratik ta’lim haqida arxivlar.

4. ««Sudbury Valley School»« (https://sudburyvalley.org/): Greenbergning ishiga asoslangan demokratik maktab modeli haqida rasmiy sayt.

5. ««Google Scholar»« (https://scholar.google.com/): Demokratik ta’lim mavzusidagi ilmiy maqolalar va tadqiqotlarni qidirish uchun.

6. ««JSTOR»« (https://www.jstor.org/): Akademik maqolalar, jumladan, Apple, Gutmann va boshqa mualliflarning ishlariga kirish.

7. ««Education Week»« (https://www.edweek.org/): Ta’lim islohotlari va demokratik qadriyatlar haqida yangiliklar va tahlillar.

8.«Princeton University Press» (https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691009162/democratic-education): Gutmannning kitobi va shunga o‘xshash nashrlar haqida.

9. ««Trentham Books»« (https://www.trentham-books.co.uk/): Hannamning kitoblari va pedagogika mavzulariga oid resurslar.

10. ««Hart Publishing»« (https://www.hartpub.co.uk/): Neillning Summerhill modeli haqida qo‘shimcha ma’lumotlar.

AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI KURSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM METODLARINI QO‘LLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Po‘latova Quvonchoy Davronbek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada aholi geografiyasi va demografiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli o‘quv vositalari hamda interfaol metodlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Unda talabalarning tahliliy va amaliy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, GIS texnologiyalaridan foydalanish, vizual va loyihaviy ta’lim metodlarining afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida geografik axborot tizimlari, elektron xaritalar va statistika ma’lumotlarini qo‘llash orqali demografik jarayonlarni o‘rganish samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *GIS texnologiyalari, innovatsion metodlar, hududiy tahlil, raqamli ta’lim, tahliliy fikrlash, vizual ta’lim.*

Bugungi kunda demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlarini chuqur o‘rganish masalasi nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki ta’lim jarayonida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Geografiya fani inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarni yoritib berar ekan, uning muhim tarmoqlaridan biri sifatida aholi geografiyasi va demografiya asoslari kursi alohida o‘ringa ega. Aholi geografiyasi va demografiya asoslarini o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish muhimdir. Jumladan, statistik ma’lumotlar va kartografik manbalardan foydalanish, loyiha asosida o‘qitish, fanlararo integratsiya, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi va demografik tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu metodlar uyg‘unligi ta’lim jarayonini yanada mazmunli, samarali va qiziqarli qiladi.

Aholining soni, tarkibi, hududiy joylashuvi va migratsiya jarayonlari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hamda barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida ushbu fanlarni zamonaviy metodik yondashuvlar asosida o‘qitish, talabalar demografik tafakkurini shakllantirish, ularni jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qila oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda aholi geografiyasini o‘qitishda interaktiv yondashuvlar, GIS texnologiyalari, muammoli ta’lim va loyiha asosidagi o‘qitish metodlari keng qo‘llanmoqda. Mazkur ta’limiy yondashuvlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarni tahliliy fikrlash, statistik ma’lumotlardan samarali foydalanish va demografik muammolarni ilmiy asosda yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarda demografik tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli

xaritalar, GIS dasturlari, elektron atlaslar, onlayn statistik bazalar yordamida o‘quvchilar demografik jarayonlarni vizual va tahliliy shaklda o‘rganadilar. Zamonaviy o‘quv jarayonida interaktiv texnologiyalar (GIS, WebGIS, ma’lumot vizualizatsiyasi) demografiya ta’limini yangicha bosqichga olib chiqadi. Bugungi kunda quyidagi raqamli platformalardan samarali foydalanish mumkin: QGIS Web, ArcGIS Online, GoogleMaps, CartoDB. Ular yordamida o‘quvchilar mahalliy statistika agentliklari ma’lumotlarini kiritish, demografik xaritalar yaratish, va hududiy tahlillarni interaktiv formatda bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa: talabalarni passiv qabul qiluvchilardan faol tahlilchilarga aylantiradi va demografik modellarda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarni ko‘ra olish imkonini beradi. GIS asosida vizualizatsiya qilish orqali demografik jarayonlar (aholi zichligi, migratsiya, tabiiy o‘sish) xaritalarda aniq ko‘rinadi. Natijada mavhum ma’lumotlardan aniq, hududiy tasavvurga ega bo‘ladi.

Case-study va muammoli o‘qitish metodlari real hayotiy vaziyatlarga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Bunday metodlarda talabalar demografik jarayonlarni bevosita hayotiy misollar orqali tahlil qiladilar, muammoning sabab va oqibatlarini aniqlaydilar hamda muqobil yechimlarni taklif etadilar. Storytelling (hikoya asosida o‘qitish) esa statistik ma’lumotlarni hayotiy kontekst bilan bog‘lab, darslarni qiziqarli va esda qolarli qiladi.

Interaktivlik va raqamli muhokama vositalari (masalan, veb-GIS, onlayn xaritalar, PowerPoint, Google My Maps) yordamida talabalar mustaqil xaritalarni tahlil qilish, savollar berish, demografik hodisalar bo‘yicha fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday usullar o‘qituvchining rahbarligida o‘zaro hamkorlik va mustaqil izlanish muhitini yaratadi. Pedagogik natijalar tahliliga ko‘ra, ushbu metodlar ta’lim oluvchilarda:

- fikr yuritish, savol berish va tanqidiy fikrlash malakasini shakllantiradi;
- demografik jarayonlarni turli burchaklardan ko‘rib chiqish imkonini yaratadi;
- ijodiy yondashuv va guruhli muhokama orqali muammoli holatlarni tahlil qilishga o‘rgatadi;
- tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- statistik tafakkurni shakllantiradi, raqamli ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasini mustahkamlaydi;
- hududiy tafakkurni kengaytiradi, demografik jarayonlarning hududiy tafovutlarini anglash imkonini beradi;
- global va milliy demografik muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi;
- geografiya fani bilan kundalik hayotiy jarayonlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Amaliy jihatdan, bu yondashuv o‘quvchilarni kelgusida statistik tahlil, ijtimoiy tadqiqotlar, demografik prognozlash va hududiy rejalashtirish kabi muhim faoliyatlarga tayyorlaydi. Shu bilan birga, demografiya ta’limida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi hamda o‘qitish jarayonining ilmiylik va samaradorlik darajasini oshiradi.

Aholi geografiyasi va demografiya asoslarini o‘qitishda ilg‘or tajribalarni hisobga olgan holda quyidagi amaliy takliflar tavsiya etiladi:
a’lim jarayonida GIS texnologiyalarini keng joriy etish. Talabalar uchun ArcGIS Online, QGIS, Google My Maps kabi bepul yoki ta’lim uchun mo‘ljallangan dasturlar asosida amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish. Hududiy demografik xaritalar yaratish, migratsiya oqimlarini vizual modellashtirish, aholining yosh-jins piramidasini interaktiv shaklda tahlil qilish.

Loyiha asosida o‘qitish metodikasini qo‘llash. Talabalarga o‘z yashash joyi yoki viloyati bo‘yicha “Demografik portret” yaratish loyihasini topshirish. Dars jarayonida loyiha natijalarini taqdimot, muhokama yoki posterkonferensiya shaklida himoya qilish. Har bir loyiha uchun real statistik ma’lumotlardan (Davlat statistika qo‘mitasi, UNFPA, Jahon banki) foydalanish talabini qo‘yish.

Statistik tahlilni o‘quv jarayoniga integratsiyalash. Excel, SPSS yoki Python dasturlari orqali oddiy demografik hisob-kitoblar va grafik tahlillarni o‘rgatish. Talabalar mustaqil ravishda tug‘ilish, o‘lim, migratsiya kabi ko‘rsatkichlar dinamikasini hisoblashni o‘zlashtirishlari lozim.

1. Case-study (holat tahlili) metodini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash. Mahalliy demografik muammolar (ishsizlik, migratsiya, yoshlar bandligi) bo‘yicha mini-holatlar tayyorlab, talabalarni ularni tahlil qilish, sabab-oqibatlarni aniqlash va yechim taklif qilishga yo‘naltirish. Bunday yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahliliy mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Integratsiyalashgan darslarni yo‘lga qo‘yish. Aholi geografiyasini iqtisodiyot, ekologiya, sotsiologiya va tarix fanlari bilan integratsiyada o‘qitish. Masalan, “Aholi sonining o‘sishi va ekologik bosim” yoki “Migratsiya va mehnat bozori” kabi tarmoqlararo loyihalar tashkil etish.

3. Vizualizatsiya va raqamli ko‘rgazmalarni yaratish. “O‘zbekiston aholisi demografik portreti”, “Urbanizatsiya jarayonlari dinamikasi” kabi onlayn infografika yoki taqdimotlar tayyorlash. Demografik ko‘rsatkichlarni diagramma, xarita va grafiklar orqali taqdim etish orqali o‘quvchilarning vizual fikrlash qobiliyatini kuchaytirish.

4. Tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi baholash tizimini joriy etish. An’anaviy testlardan tashqari “muammoli savollar”, “amaliy tahlil topshiriqlari”, “mini-prognoz ishlab chiqish” kabi baholash shakllarini qo‘llash. Bu talabalarni ijodiy fikrlash va o‘z nuqtayi nazarini ilmiy asosda himoya qilishga o‘rgatadi.

5. O‘quv resurslarini mahalliylashtirish va yangilash. Mahalliy demografik ma’lumotlar asosida qo‘llanmalar, elektron darsliklar va raqamli ma’lumotlar bazasini yaratish.Darslarda O‘zbekistonning ijtimoiy-demografik rivojlanishiga oid real ma’lumotlardan foydalanish o‘quvchilarda fan bilan hayotiy bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tavsiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish demografiya ta’limini interaktiv, tahliliy va amaliyotga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi. Natijada, o‘quvchilar demografik jarayonlarni nafaqat tushunadi, balki ularni tahlil qilish, modellashtirish va yechim taklif qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika. – T.: Fan va axborot texnologiyalari. 2010. –256 b.
2. Abdurahmanov.X.X. Demografik tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”. 2019. –268 б.
3. Amonov X.N. Geografiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik. – T.: “Bookmany Print”. 2024. – 335 b.
4. Csachova S. Using WebGIS Platforms and Inquiry-based Activities to Teach about World Political Map and World Population // International Research in Geographical and Environmental Education.–2020. – Vol. 29, № 3. DOI:10.1080/10382046.2020.17518121
5. Cho, D. Developing a Teaching Model for Population Geography using GIS-based Storytelling Methods [Elektron resurs]. – ResearchGate, 2019. https://www.researchgate.net/publication/332641521_Developing_a_Teaching_Model_for_Population_Geography_using_GIS_based_Storytelling_Methods
6. Joseph J.Kerski Teaching Demography and Population Change Using Web GIS Tools and Data [Elektron resurs]. – ResearchGate, 2019. https://www.researchgate.net/publication/334687235_Teaching_Demography_and_Population_Change_Using_Web_GIS_Tools_and_Data
7. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya” 2019.– 368 b.
8. https://ru.wikipedia.org
9. https://www.dissercat.com

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SHE’RIY MATNLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARINING O‘RGANILISHI

Qurbonova Muharram
SamDPI tayanch doktoranti, Buxoro innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon va o‘zbek tilshunosligida she’riy matnlarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish masalalari tahlil qilinadi. She’riy nutqning badiiy-estetik tabiati, uning semantik, fonetik, morfologik va sintaktik darajadagi o‘ziga xosliklari yoritiladi. Jahon tilshunosligida (R. Yakobson, M. Baxtin, L. Yelmslev va boshqalar) hamda o‘zbek tilshunosligida (A. G‘ulomov, N. Mahmudov, B. Qo‘chqorov va boshqalar) she’riy matnni lingvistik nuqtai nazardan o‘rganishning nazariy asoslari tahlil etiladi. Maqolada she’rning poetik tuzilishi, obrazlilik, metaforiklik, ritm va ohang kabi lingvopoetik vositalarning badiiy mazmunni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatiladi. Shuningdek, zamonaviy lingvopoetika yondashuvlari asosida o‘zbek she’riyatining milliy xususiyatlarini*

tadqiq etishning istiqbollari yoritiladi. Tadqiqot natijalari she’riy matnning lingvistik tahlil usullarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *she’riy matn, lingvopoetika, o‘zbek tilshunosligi, badiiy nutq, semantika, metafora, ritm, ohang, obrazlilik, tahlil.*

Badiiy matnni tahlil etar ekanmiz, umuman olganda matn so‘ziga berilgan ta’rifni aytib o‘tishimiz lozim bo‘ladi. Matnni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida rus tilshunosligida ilk marotaba batafsil o‘rgangan tilshunoslardan biri I.R.Galperin “matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar”dan biri sifatida “yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik”ni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir [4.19]– deya ta’riflaydi. Yuqoridagi ta’rifdan shuni xulosa qilish mumkinki, matn bu og‘zaki nutq asosida yaratilgan, asrdan asrga o‘tib kelgan va yozmalashgan tugallikdir.

Badiiy matnning birlashmasi badiiy asar hisoblanadi. Adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldoshev badiiy asarni izohlar ekan Fitratning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Buyuk yozuvchi va mutafakkir Fitrat o‘zining 1926-yildagi yaratgan “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasida bu tushunchani to‘la anglamoq uchun, umuman san’atdan “go‘zal san’at” tushunchasini farqlash lozimligi haqida: “Adabiyot so‘zini tuzukgina anglamoq uchun san’at ham go‘zal san’at degan so‘zlarni ta’rif qilib o‘tish lozimdir. San’at lug‘atda hunar demakdirkim: bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir. …Bu ma’nodagi “san’at”dan tilakda boshqacha bo‘lgan bir turli san’at ham bor” [17.24].

Badiiy asarlarni tahlil qilish va ularni o‘rganish ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarini o‘rganish demakdir. Hozirga qadar bu borada ko‘plab ilmiy ishlar qilingan bo‘lsa-da, badiiy asarni o‘rganish jarayoni bugungi kunda ham o‘zining dolzarblik va yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotgan emas. Nega deganda, badiiy asarlar yaratilaverar ekan, ularning tili va ijodkorning o‘ziga xos mahoratini tadqiq etish davom etaveradi. Chunki, yozuvchining individual uslubi, avvalo, uning tilida aks etadi. Bu haqda prof. S.Karimov: “Ijodkor moddiy olamni o‘ziga xos tarzda idrok qiladi, tabiatdagi, jamiyatdagi narsa va hodisalarning hali hech kim payqamagan, ilg‘ab yeta olmagan qirralarini ko‘ra oladi, binobarin, hamma uchun iste’molda umumiy deb aytadiganimiz – til yozuvchi qalamida individual tasvir quroliga aylanadi. Shuning uchun har bir badiiy asar chinakam ma’noda xususiydir”, – deb ta’kidlaydi [6.26].

O‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ham badiiy asarni tahlil qilish mavjud. Chunki badiiy asarlar uch jihatdan: Ilm bade’, ilmi qofiya, ilmi aruz nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Hatto jahon tilshunos olimlaridan biri V.P.Grigoryev ham “Poetika va so‘z” asarida badiiy asar tiliga e’tibor berish avvalo sharqda boshlanganini aytib o‘tadi [5.344]. Bu haqida Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham shunday deyiladi: “Ammo so‘zning ta’sirchan bo‘lishini istasang, kinoya-istehzoli so‘zlarni ishlatmag‘il, lekin boshqacha qilib, ya’ni mumkin qadar so‘zni istiorot shaklida ishlatg‘il” [2.64]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sharq tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar birmuncha avval boshlangan deya olamiz.

Yoki Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bobomiz “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida she’riy san’atlar, ularni yuzaga keltiruvchi omillar ko‘p ekanligini ikki til qiyosi jarayonida aytib o‘tadilar: “Yana barcha shoirlar qoshida ravshan va hamma so‘z ustalari oldida aniq ma’lumdurki, she’rda tajnis-u iyhom (misralar oxirida jinsdosh, shakldosh so‘zlar ishlatib, turli ma’nolar chiqarib, so‘z o‘yini qilish) qoidasi umumlashgandir. Bu chiroyli ibora va go‘zal belgilardan forsiydan ko‘ra turkchada ko‘proq tajnisni bildiruvchi so‘z va iyhomni anglatuvchi nuqtalar borki, bu nazmni bezantiradi va san’atli qiladi” [9.145].

XX asrning 40-50-yillaridan boshlab esa o‘zbek tilshunosligida keng qamrovda til va adabiyot uyg‘unligiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, bu boradagi dastlabki tadqiqot A.G‘ulomning bu sohadagi ba’zi maqolalari yozilishi bilan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik, R.Qo‘ng‘urovning “O‘zbek tili stilistikasidan ocherklar” (1975), R.Q.Qo‘ng‘urov, S.A.Karimovlarning “Zulfiya poezisiyasining lug‘ati”(1981), S.A.Karimovning “Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari”, “Badiiy matnning uslubiy alomatlari”, “O‘zbek tilining badiiy uslubi”, M.Muhiddinov, S.Karimovlarning “G‘afur G‘ulomning poetik mahorati” kabi ilmiy tadqiqotlari sohani yanada rivojlantirdi.

Mustaqillik yillarida aynan she’riy matn, uning tili va uslubini o‘rganish, tahlil qilish, she’riy matnning o‘ziga xosligi nimada ekanligi kabi savollarga javob bo‘luvchi bir qator ilmiy ishlar olib borildi. Masalan, I.Mirzayevning “She’riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari” doktorlik dissertatsiyasi, G.Muhammadjonovaning “80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi”, D.Shodiyevaning “Muhammad Yusuf she’riyati lingvopoetikasi” kabi shular jumlasidandir. Bunday tadqiqotlar safini yana ko‘plab tilshunos olimlarning badiiy asar tili ustida olib borgan lingvopoetik tadqiqotlari bilan davom ettirish mumkin. M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn lingvopoetikasi”, A.Shofqorov “Mirtemir she’riyatida takrorning ma’noviy-uslubiy xususiyatlari”, G.Rixsiyeva “She’riyatdagi gaplarning aktual bo‘linishida anaforalar o‘rni” nomli dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

Keyingi yillarda qilingan tadqiqotlar sirasiga S.Umirovaning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” monografiyasi, T.Butunbayevaning “Zamonaviy nazmiy diskursda individuallikni ta’minlovchi lisoniy vositalar(A’zam O‘ktam she’riyati misolida)”, A.Sobirovning “She’riyatda so‘z tartibi (Hozirgi o‘zbek she’riyati misolida)” dissertatsiyalari yorqin misoldir.

O‘zbek tilshunosligida fonetik sath va uning lingvopoetikasini o‘rganish XX asrning 40-50-yillarida A.G‘ulomov, X.Doniyorov, R.Qo‘ng‘urov, B.Yo‘ldoshevlar tomonidan o‘rtaga tashlangan bo‘lsa, bu boradagi ilmiy ishlar A.Haydarovning “Konnotativ ma’noning fonetik vositalarda ifodalanishi”, A.Abdullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida ma’no kuchaytirishning fonetik va morfologik usuli”, Z.Qobilovaning “O‘zbek tilining fonosemantik vositalari” dissertatsiyalarida, M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili fonetikasi”, S.Umirovaning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” monografiyalarida amalga oshirilgan.

Tilning morfologik tabiatini, uning lingvopoetikasi va uslubiyatini o ‘rganish uning tarixiy rivojlanishi bilan bog ‘liq jarayondir. “Tilimiz taraqqiyotining bugungi

bosqichi morfologik-stilistik vositalarga lingvomadaniy yondashuvni ham taqozo etmoqda”. Morfologiyaning uslubiy va lingvopoetik jihatdan tahlil qilish XX asrdan buyon tilshunos olimlar tomonidan tahlil etilib kelinmoqda. Masalan, R.Qo‘ng‘urovning “O‘zbek tili stilistikasidan ocherklar”, “Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari”, A.G‘ulomovning “Ko‘plik kategoriyasi”, A.Abdullayevning “O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi”, Z.Pardayevning “O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari”, M.Sodiqovaning “Fe’l stilistikasi”, A.Pardayevning “O‘zbek tilida ko‘makchilar stilistikasi” nomli nomzodlik ishi va “O‘zbek tilida yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tizimdagi o‘rni va lingvopragmatik tahlili” nomli doktorlik dissertatsiyalari, O.Yusupovaning “O‘zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari” kabi nomzodlik tadqiqotlari shular jumlasidandir.

O‘zbek tilshunosligida ham she’riy matn sintaksisiga oid tadqiqotlar olib borilgan. G.Rixsiyevaning “She’riyatda gaplarning aktual bo‘linishida anaforalar o‘rni” nomzodlik dissertatsiyasida she’riy san’at bo‘lgan anaforaning gap bo‘linishidagi qaysi holatda joylashuvi tadqiq etilgan bo‘lib, anaforik qo‘llangan ega, kesim, aniqlovchi, hol, to‘ldiruvchilarning poetik vazifasi izohlangan. Tadqiqotda aniqlovchi anafora ta’kidlab o‘tish va sanash vazifasini, to‘ldiruvchi anafora, asosan, urg‘u tushgan so‘z vazifasini, kesim mantiqiy urg‘uni olib, gapdagi ekspressivlikni kuchaytirishga, ega ham aynan shunday, hol esa sabab ma’nosini izohlab kelishi ta’kidlangan [14.25].

A.Sobirovning “She’riyatda so‘z tartibi (Hozirgi o‘zbek she’riyati misolida)” nomli dissertatsiyasida gapda inversiyaning poetik-individual vazifasi, ifoda imkoniyatlari, yondosh hodisalarga munosabati, so‘z tartibining to‘g‘ri, o‘zgargan, kontakt, distant va aralash turlarining birlamchi va ikkilamchi vazifalari aniqlangan. Tahlillarga ko‘ra shoirlarda uchragan to‘g‘ri tartibdagi she’rlar soni izohlangan. Inversiyaning asosiy vazifalari hozirgi o‘zbek she’riyati misolida tadqiq etilgan[16.49].

T.Allayarovning “O‘zbek tilida buyruq va so‘roq konstruksiyalarning lingvopoetik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi buyruq gaplarning uslubiy vazifasi, ya’ni ekspressivlikni ifodalashdagi o‘rni, so‘roq gaplarning tasdiq va inkorni ifodalashdagi vazifasi tadqiq qilingan. She’riy nutqda qo‘llanilgan buyruq va so‘roq konstruksiyalarning funksional-semantik xususiyatlari izohlangan, buyruq va so‘roq vaziyati semantikasida muallifning uslubiy mahorati ochib berilgan [3.58].

Demak, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning birga o‘rganiladigan sohasi bu lingvopoetika hisoblanib, qadim davrlardan buyon tadqiq qilinib kelinmoqda. Bugungi kunda ham jahon va o‘zbek tilshunoslarining diqqatini tortgan, hamon o‘rganish markazida bo‘lib kelayotgan bu soha ahamiyatga ega sohalardan hisoblanadi. XIX asrning o‘rtalariga keliboq bu jarayon boshlangan bo‘lsa, keyinchalik tilshunos olimlarimizning tashabbuslari bilan bu tadqiqot ko‘lami birmuncha kengaydi. Tilning fonetik, leksik va morfologik tabiatini, uning lingvopoetikasi va uslubiyatini o‘rganish uning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq jarayondir. Badiiy asarlarni tahlil qilish va ularni o‘rganish ona tilimizni o‘rganish

demakdir. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu chuqur tarixga ega bo‘lgan tilimizga e’tiborning oshishidan dalolatdir.

O‘zbek tilshunosligida she’riy matn tahlilida ko‘proq fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajadagi lingvopoetik xususiyatlar o‘rganilgan. Jumladan, she’riy matnlarda tovush takrori, alliteratsiya, assonans, ritm va ohang uyg‘unligi, qofiya tizimi kabi fonetik vositalarning estetik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Morfologik birliklarning – ayniqsa fe’l va ot shakllarining – obrazlilik yaratishdagi roli o‘rganilgan. Sintaktik darajada esa inversiya, takror, parallelizm, gradatsiya kabi konstruksiyalarning badiiy ifodaviy imkoniyatlari yoritilgan. Leksik qatlamda metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, ramz, xalqona so‘zlashuv unsurlarining poetik funksiyasi chuqur tahlil qilingan.

Biroq o‘zbek lingvopoetikasida hali to‘liq ochilmagan masalalar ham mavjud. Jumladan, poetik matnning kognitiv asoslari, ya’ni obraz va ma’no yaratilish jarayonining inson tafakkuridagi modelini tahlil qilish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shuningdek, pragmatik yondashuv, ya’ni muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ jarayonning badiiy mazmunga ta’siri hali chuqur o‘rganilmagan yo‘nalishlardan biridir. Ko‘plab tadqiqotlarda poetik matnning ichki semantik tizimi tahlil qilinadi, biroq uning intertekstual va madaniyatlararo qirralari kam yoritilgan.

Hozirgi o‘zbek lingvopoetikasida asosan klassik va zamonaviy she’riyat tahliliga e’tibor qaratilmoqda, ammo nasriy matnlarning lingvopoetik tuzilishi hali yetarlicha o‘rganilmagan. Badiiy nasrda poetiklikni shakllantiruvchi leksik-semantik mexanizmlar, matnning ritmik tuzilishi va sintaktik kompozitsiyasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlantirilishi lozim. Shu bilan birga, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi poetik ifoda vositalarining lingvopoetik tahlili ham hali keng miqyosda olib borilmagan.

Zamonaviy o‘zbek lingvopoetikasi hozirda kognitiv va diskursiv yondashuvlar bilan boyimoqda. Tilning estetik funksiyasi endilikda inson idroki, dunyoqarashi va madaniy tajribasi bilan bog‘liq holda tahlil qilinmoqda. Biroq bu yondashuvlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ko‘proq nazariy izlanishlar bosqichida turibdi. Poetik nutqni psixolingvistik nuqtai nazardan o‘rganish, ya’ni o‘quvchining she’rni qabul qilish mexanizmlarini tahlil etish, o‘zbek tilshunosligida deyarli yangi sohaga aylanmoqda.

Yana bir muhim jihat – o‘zbek tilida yaratilgan poetik matnlarni korpus lingvistika asosida avtomatik tahlil qilish usullari hali yo‘lga qo‘yilmagan. Bu yo‘nalish rivojlanishi natijasida badiiy matnning ritmik, semantik va grammatik xususiyatlarini statistik modellar asosida tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunday tadqiqotlar o‘zbek lingvopoetikasining empirik bazasini kengaytiradi.

O‘zbek she’riy matnlarining milliy o‘ziga xosligi ham lingvopoetik tahlilda alohida o‘rinni egallaydi. Ammo hozircha bu masala ko‘proq adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan, tilshunoslik asosida esa tizimli tahlil yetarli emas. O‘zbek xalqining badiiy tafakkurini aks ettiruvchi poetik birliklar, ramzlar, majozlar va ularning lingvistik shakllanishi hali ham keng miqyosda o‘rganilishga muhtoj.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika fani yangi bosqichga kirib bormoqda. Unda she’riy matnni tildagi oddiy kommunikativ hodisa emas, balki

badiiy-estetik model sifatida tahlil qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Shu boisdan lingvopoetika endilikda faqat til birliklarini tahlil etish bilan cheklanmay, ularning ma’naviy, madaniy va kognitiv mohiyatini ham o‘rganishga yo‘naltirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida lingvopoetikaning formal va semantik darajalari yaxshi o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning kognitiv, pragmatik, psixolingvistik va intermadaniy qirralari hali fanga to‘liq ma’lum emas. Bu esa kelajak tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Lingvopoetika nafaqat tilning badiiy imkoniyatlarini ochadi, balki o‘zbek milliy tafakkurining estetik ko‘rinishini ilmiy asosda talqin etish imkonini beradi. Shu tariqa, u o‘zbek tilshunosligi nazariy va amaliy rivojida muhim, istiqbolli va zamonaviy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. –148 б.

2.Йўлдош Қ., М.Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016, – 315 б.

3.Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд. 1994. – 59 б.

4.Каримов С.Бадиий матннинг услубий аломатлари. – Самарқанд: СамДУ, 1992. – 47 б.

5.Каримов С.Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон,1992. – 122 б.

6. Karimov S. O‘zbek tilining morfologik stilistikasi. – Samarqand, 2022.

7.Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

8. Muhamedova S., Saparniyozov M. Matn lingvistikasi. –Toshkent, 2011.

9. Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.

10.Султонсаидова С., Шарипова Ў. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Юрист-медиа маркази, 2009.

ДУХОВНОСТЬ - ИСТОЧНИК РОСТА И МОГУЩЕСТВА ЧЕЛОВЕКА

Раимкулова Ирина Аликуловна
старший преподаватель кафедры методики преподавания языков Центра педагогического мастерства Самаркандской области

Аннотация: *В статье утверждается, что развитие внутреннего мира, системы ценностей и нравственных ориентиров является ключевым фактором для личностного роста и достижения человеком истинной силы. Она рассматривает духовность как фундамент, на котором строится устойчивость к жизненным невзгодам, способность к самореализации и позитивному влиянию на окружающий мир. Развитие духовности, по мнению*

автора, позволяет человеку обрести внутреннюю гармонию, смысл жизни и максимальный потенциал.

Ключевые слова: *духовность, просвещение, нравственность, культура, развитие, образование, самореализация.*

Проблемы духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения во все времена волновали великие умы цивилизованного государства. Духовное воспитание молодежи является одним из приоритетных направлений государственной политики, что имеет особо важное значение в условиях глобализации. Общечеловеческие ценности и духовная жизнь непосредственно связаны друг с другом.

Мысли Президента Шавката Мирзиёева о том, что «Завтрашний день, благополучие планеты зависят от того, какими людьми вырастут наши дети. …ключевая задача – обеспечить условия для самореализации молодежи» демонстрируют всеобъемлющий подход и заботу руководителя страны о будущем государства, защите его интересов, сохранении национальных ценностей узбекского народа.

Патриотизм, нормы морали и нравственности, межнациональное согласие и толерантность, физическое и духовное развитие, законопослушание - эти ценности должны прививаться ребенку с самого его рождения.

Постановка этой проблемы связана со сменой идеологических ориентаций, с проникновением в национальную культуру культа насилия, эгоизма, обмана и т. д. Бездуховность, низкая нравственность, а также грубость, преступность, наркомания, алкоголизм и многие другие пороки нашего времени – все они разрушают как человека, общество, так и государство. Наша цель – защитить наших детей от мира насилия, сделать их невосприимчивыми к злу и способными творить добро. А это можно решить одним способом – дать подрастающему поколению полноценное духовно – нравственное воспитание. Русский язык и литература – это предметы, позволяющие на каждом уроке уделять внимание вопросам духовно-нравственного воспитания учащихся, формированию у него: нравственных чувств (совести, долга, веры, ответственности, гражданственности, патриотизма), нравственного облика (терпения, милосердия, кротости, незлобивости), нравственной позиции (способности к различению добра и зла, проявлению самоотверженной любви, готовности к преодолению жизненных испытаний), нравственного поведения (готовности служения людям и Отечеству, проявления духовной рассудительности, послушания, доброй воли). Язык – величайший учитель, наставник, язык всегда формировал и формирует мировосприятие, человечность, нравственность. Язык был педагогом и тогда, когда еще не было ни школ, ни книг. И теперь учит, в век информационных технологий. При подготовке к урокам русского языка наряду с учебными, следует продумать и воспитательные цели: отбирать тексты для изложений и диктантов соответствующего, духовно-нравственного, патриотического содержания. Так, например, при изучении темы «Синонимы», «Антонимы» можно предложить учащимся поработать с понятиями: сострадание, уважение, забота, чуткость,

сопереживание, любовь, нежность, сердечность, сочувствие, миролюбие, совесть, благородство, стыд, память, жертвенность, чувство вины, порядочность, угрызение совести. Совместная работа с учениками может строиться двумя способами: учитель предлагает ученикам продумать и записать понятия, близкие данному. Затем каждый знакомит с результатами своей работы и составляется общий ряд, анализируются основные оттенки, отличающие каждое понятие; совместно в процессе обсуждения выстраивается ряд близких по значению понятий, записывается на доске, а каждый в тетради анализирует их смысловое содержание. Рассмотрим фрагмент урока с использованием пословицы. Учащимся раздаются карточки со словами: честность, правдивость, искренность, лживость, нечестность, неискренность. На доске записана пословица: Кто один раз солжет, тому в другой раз не повезет. Вопросы и задания к этой пословице: 1. Как вы понимаете смысл пословицы? 2. Чему учит пословица? (честности, правдивости, искренности) 3. Что осуждает пословица? (нечестность, лживость, неискренность) 4. Запишите слова в два столбика и сравните их по смыслу, составьте словосочетания и предложения, используя данные слова.

Наряду с этим в пословицах народная мудрость указывает на необходимость воспитания у молодежи ненависти к насилию, угнетению, хвастовству и чванству, высокомерию и другим безнравственным качествам. В народной воспитательной системе множество методов и средств нравственного воспитания молодежи, в частности пояснение, показ образцов поведения, выработка привычек, совет, назидание, поощрение и др.

После усвоения лексики целесообразно предложить выполнить творческую работу, написать сочинение-миниатюру. Темы могут быть разными: «В чем проявляется честность?», «О милосердии», «Что я ценю больше всего в человеке», «Мое понятие о доброте». Выполнение подобных творческих работ создает особые условия для развития личности ученика, раскрытия всех его духовных и интеллектуальных возможностей, так как значение приемов нравственной активизации личности, в основе которых лежит запись своих мыслей в письменной форме, нельзя недооценивать. Как бы хороши ни были коллективные, совместные виды ценностно-ориентирующей деятельности, основным условием формирования ценностей личности является погружение человека в свой внутренний мир, актуализация своего жизненного опыта, пробуждение нравственных чувств, эмоций, мыслей, самоанализ внутренних.

Очень важно приобщить ребенка к чтению классической отечественной литературы. Безусловно, книги заставляют гордиться своей страной, своим народом, помогают понять самого себя, осознать значение каждого человека, заставляют искать свое место в жизни, по-доброму относиться к окружающим людям. Во все века люди высоко ценили духовность, нравственную воспитанность. Русская или узбекская литература – это выражение совести народа, его традиций, нужд и стремлений, его души. Вскрывая все наболевшее, она ставит перед обществом актуальные, требующие ответа вопросы, учит

решать их гуманными средствами, призывает к добру, взаимопониманию и состраданию, она воспитывает лучшие качества человека. Народ жив, пока жива его национальная культура: язык, обычаи, предания, легенды, искусство и, конечно, литература. Поэтому главная задача преподавателя – это обогащение обучающихся разносторонними и глубокими знаниями о своем народе, его прошлом, традициях, культуре. Итак, процесс формирования духовных ценностей – это длительный процесс. Быстрого результата быть не может, но та работа, которая проводится учителями на уроках русского языка и литературы, поможет «заронить» драгоценное зерно в души наших детей.

Эпоха Ренессанса, являясь всеобщим национальным подъемом и новой ступенью прогрессивного развития, призвана нивелировать фрагментарность мышления, свойственную обществу, трансформируя его в единую, созидательную энергию. Подобно могучей приливной волне, это движение пробудит колоссальный творческий потенциал нации, способствуя взращиванию и выдвижению на авансцену выдающихся гениев, всесторонне развитых личностей, достойных века грядущего.

Уже сегодня в повседневной реальности мы ощущаем едва уловимые вибрации этой грядущей волны. Однако приумножение её мощи и придание ей подлинной силы – задача, возложенная на плечи каждого из нас. Как справедливо отмечает Глава государства: «Мы, народ, обладающий богатейшей историей и высокой культурой, не страшимся никаких испытаний, с честью преодолевая любые препятствия на пути к свободной и процветающей жизни. Лишь объединив усилия, действуя сплочённо и проявляя добросовестность в труде, мы сможем достичь самых выдающихся высот». [2]

Грядущий период нового Ренессанса, фундамент которого мы закладываем сегодня, исполненные самых светлых надежд и дерзновенных мечтаний, станет ещё одним ярким проявлением генетического кода нашего народа, ещё одним отражением его величайшей мощи. Он несомненно осветлит наше завтра, преумножит благосостояние и послужит гарантией того, что мы оставим потомкам достойное наследие, которым они смогут гордиться.

Литература:

1. https://president.uz/ru/lists/view/7514
2. Галиуллин К.Р., Мартьянов Д.А. Словарь языка русских пословиц и поговорок конца XVII – первой половины XVIII века: Сборник пословиц Петровской галереи. – Казань: Казан. гос. ун-т, 2006. – 188 с.
3. https://xs.uz/ru/post/dukhovnost-prosveschenie-luch-dobra

GLOBAL TA’LIM MAKONIDA TALABALARNING KASBIY POTENSIALINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Rashidova Madina Raxmatovna
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar Instituti
Tayanch doktorant, assistent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada global ta’lim makonida talabalarning kasbiy potensialini oshirish masalasi falsafiy va pedagogik jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda globalizatsiya, raqamli transformatsiya, innovatsion ta’lim texnologiyalari va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlari talabaning kasbiy shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *global ta’lim makoni, kasbiy potensial, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, falsafiy yondashuv, pedagogik innovatsiya.*

KIRISH. XXI asrda ta’lim jarayoni global miqyosda tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Raqamli transformatsiya, xalqaro integratsiya, axborot texnologiyalarining jadal rivoji va mehnat bozorining tezkor o‘zgaruvchanligi zamonaviy oliy ta’lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu jihatdan, talabalar kasbiy potensialini oshirish masalasi nafaqat pedagogik, balki falsafiy muammolar qatoriga ham kiradi. Chunki kasbiy shakllanish jarayoni insonning o‘zini anglash, maqsadni belgilash, intellektual va ma’naviy yetuklik sari intilish kabi falsafiy kategoriyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Global ta’lim makonining shakllanishi, bir tomondan, talabalarga xalqaro ta’lim resurslaridan foydalanish, xorijiy tajribani o‘zlashtirish, madaniyatlararo muloqotda ishtirok etish imkonini berayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning kasbiy kompetensiyasiga, o‘zini rivojlantirish strategiyasiga va ijtimoiy-madaniy moslashuv darajasiga yuqori talablarni qo‘ymoqda. Shu bois, bugungi kunda ta’limning falsafiy va pedagogik mohiyatini qayta ko‘rib chiqish, talabaning sub’ektiv tajribasi, erkin tanlovi, ijodiy fikrlashi hamda o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyatini markazga qo‘ygan yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM. So‘nggi yillarda global ta’lim makonining shakllanishi, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va ta’lim jarayonlariga ta’siri masalasi ko‘plab xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lmoqda. UNESCO (2020) ma’lumotlariga ko‘ra, global ta’lim makoni inson kapitalini rivojlantirish, barqaror taraqqiyot va ijtimoiy inklyuziyani ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu qarashlar J. Dewey (1933) ning “tajriba asosidagi ta’lim” konsepsiyasi bilan uyg‘unlik kasb etadi, chunki u ta’limni inson faoliyatining falsafiy asoslangan shakli sifatida ko‘radi, bunda shaxs o‘z bilimini ijtimoiy tajriba orqali anglaydi va rivojlantiradi. Pedagogik nuqtayi nazardan, P. Freire (1970) tomonidan ilgari surilgan “kritik pedagogika” konsepsiyasi ham zamonaviy global ta’limning mohiyatiga yaqin. Unga ko‘ra, haqiqiy ta’lim insonni faqat o‘quvchi emas, balki o‘z hayoti va jamiyatini o‘zgartira oluvchi faol sub’ekt sifatida shakllantirishi lozim. Bu g‘oya talabalarning kasbiy potensialini oshirishda refleksiv tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’lim falsafasida globalizatsiya jarayonlari natijasida talabaning “global fuqaro” sifatida shakllanishi masalasi ham muhim o‘rin tutadi. A. Giddens (1999) global madaniy o‘zaro ta’sirni ijtimoiy tizimlarning qayta qurilishi sifatida talqin etib, inson faoliyatini global kontekstdagi o‘zgarishlarga moslashish orqali tahlil qiladi. Bu yondashuv ta’limni shunchaki bilim beruvchi tizim emas, balki shaxsni ijtimoiy-madaniy jihatdan yetuk, global tafakkurga ega sub’ekt sifatida shakllantiruvchi jarayon sifatida talqin etadi. O‘zbekiston olimlari orasida ham global

ta’lim kontekstida talabalarning kasbiy rivojlanishi masalasiga e’tibor kuchaymoqda. Masalan, A. Abduqodirov (2018) ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, G. Raximova (2021) oliy ta’limda innovatsion metodlardan foydalanish orqali talabalarda kasbiy refleksiya va ijodiy fikrlashni shakllantirish masalalarini o‘rganadi. Bu qarashlar shuni ko‘rsatadiki, global ta’lim jarayonida talaba shaxsining kasbiy yetukligi faqat akademik tayyorgarlik emas, balki uning axloqiy, estetik va falsafiy dunyoqarashi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Global ta’lim makoni – bu turli mamlakatlar ta’lim tizimlarini integratsiyalash, yagona maqsad va qadriyatlarga asoslangan hamkorlik muhitini yaratishdir. Ushbu makonda talaba nafaqat bilim oluvchi sub’ekt, balki mustaqil fikrlaydigan, turli madaniyatlar va g‘oyalar o‘rtasida muloqot qila oladigan, o‘z kasbiy yo‘lini ongli tanlaydigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois global ta’lim falsafasida inson markaziy qadriyat sifatida talqin etiladi. Insonning kasbiy rivoji, o‘zini anglash va jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayoni ta’limning ma’naviy va axloqiy yo‘nalishlari bilan uyg‘un holda kechishi zarur. Pedagogik nuqtayi nazardan, kasbiy potensialni rivojlantirish jarayoni o‘quv dasturlarining innovatsion, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlar asosida tashkil etilishini talab qiladi. Talabalar shaxsiy tajribaga tayanib o‘rganish, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuv va tanqidiy tafakkur orqali o‘z kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishlari zarur. Masalan, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), muammoli ta’lim (problem-based learning) yoki kollaborativ o‘qitish (collaborative learning) metodlari talabalarning mustaqil fikrlashini, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini va kasbiy refleksiyasini rivojlantiradi.

Falsafiy jihatdan bu jarayon insonning “bo‘lish” konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. M. Xaydegger (1927) ta’kidlaganidek, inson mavjudot sifatida o‘z hayot mazmunini faoliyat va tajriba orqali anglaydi. Demak, kasbiy shakllanish ham faqat bilim olish emas, balki o‘z mavjudligining ma’nosini topish, jamiyatda o‘z vazifasini his etish jarayonidir. Shu bois ta’limning vazifasi talabaning ichki ehtiyojlarini uyg‘otish, ularni o‘z hayoti mazmuni bilan bog‘lay olishiga ko‘maklashishdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabaning ma’naviy yo‘lini yorituvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Global ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar, masofaviy o‘qitish va ochiq ta’lim platformalarining jadal rivojlanishi ham kasbiy potensialni oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn kurslar, xalqaro almashinuv dasturlari, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari talabalarga o‘zining individual o‘quv trayektoriyasini belgilash, mustaqil o‘rganish madaniyatini shakllantirish imkonini beradi. Biroq, bu jarayon bilan bir qatorda, insoniy qadriyatlar, milliy madaniyat va axloqiy mas’uliyatni saqlash masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ta’limning gumanistik falsafasi, ya’ni insonni shunchaki bilim obyekti emas, balki qadriyatlar tashuvchisi sifatida ko‘rish tamoyili global ta’lim siyosatining markazida turishi kerak.

Kasbiy potensialning oshishida motivatsiya, refleksiya va ijtimoiy faoliyat muhim omillar sifatida e’tirof etiladi. Talabaning o‘z kasbiga nisbatan ichki motivi, kasbiy e’tiqodi va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissi uning kelajakdagi

muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezondir. Shu bois pedagogik jarayon shunday tashkil etilishi kerakki, unda talaba o‘z faoliyatini faqat tashqi nazorat ostida emas, balki ichki ehtiyoj asosida amalga oshirsin. Bunday yondashuv “autentik o‘qitish” konsepsiyasida o‘z ifodasini topadi, ya’ni o‘qitish real hayotiy tajriba, kasbiy muammolar va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanadi. Global ta’lim makonida shaxsning kasbiy yetukligi madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Har bir talaba turli madaniyat, diniy qarash va ijtimoiy qadriyatlarga ega insonlar bilan hamkorlikda ishlashni o‘rganishi kerak. Bu esa bag‘rikenglik, empatiya va kommunikativ madaniyatni rivojlantiruvchi pedagogik sharoitlarni yaratishni talab etadi. Shu ma’noda, global ta’lim jarayonining falsafiy mohiyati insoniyatning umumiy qadriyatlari – tinchlik, hurmat, hamkorlik va taraqqiyot g‘oyalariga tayanadi.

XULOSA. Global ta’lim makonida talabalarning kasbiy potensialini oshirish falsafiy jihatdan insonning o‘zini anglash, ma’naviy o‘sish va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, pedagogik nuqtayi nazardan bu jarayon innovatsion metodlar, motivatsion muhit va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orqali ro‘yobga chiqadi. Demak, global ta’limning asosiy vazifasi – bilim berishdan tashqari, insonni har tomonlama mukammal, ongli va faol sub’ekt sifatida shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduqodirov, A. (2018). Raqamli ta’lim muhitida talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish muammolari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Boyatzis, R. E. (2008). Competencies in the 21st century. Journal of Management Development, 27(1), 5–12. https://doi.org/10.1108/02621710810840730
3. Dewey, J. (1933). How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. Boston: D.C. Heath.
4. Freire, P. (1970). Pedagogy of the oppressed. New York: Continuum.
5. Giddens, A. (1999). Runaway world: How globalization is reshaping our lives. London: Profile Books.
6. Heidegger, M. (1927). Sein und Zeit [Being and Time]. Tübingen: Niemeyer.
7. Raximova, G. (2021). Oliy ta’limda innovatsion o‘qitish metodlari va talabalarning kasbiy refleksiyasini rivojlantirish yo‘llari. Ta’lim falsafasi va amaliyoti jurnali, 3(2), 45–52.
8. Rychen, D. S., & Salganik, L. H. (Eds.). (2003). Key competencies for a successful life and well-functioning society. Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers.

THE IMPORTANCE OF PROBLEM BASED LERNING IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Davronova Fotima Pirnazarovna
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, (PhD)., associate professor, of Samarkand state university of veterinary medicine, livestock and biotechnologies
Shaykhidinov Nusratulla Sunatulla ugli
Student of Samarkand Institute of economics and services

Annotation. *This article analyses the benefits and effectiveness of problem-based learning for improving social and communication skills, problem-solving, critical thinking skills, and self-learning skills, higher order thinking, self-directed learning skills, promotes collaboration of students and motivate teachers to teach new information.*

Key words: *problem-based learning (PBL), solution, acquisition, collaboration, a group to conceptualize, acquire knowledge, communication, cooperation.*

Introduction. Problem-based education is a method of organizing students' activities based on the acquisition of new knowledge by solving theoretical and practical problems and problem tasks created by the power of these problem situations. Problem-based education is based on the activity of analysis and synthesis, which is carried out in the discussions and observations of students. This is a research type of education. Its task is to encourage the process of active cognition and to form a scientific-research method in thinking. Problem teaching corresponds to the goals of creative, active personality education.

Challenges and problems are important parts of life that give you experiences, make you learn and help you to become wiser and stronger. Problems make us grow and shape us.

Everyday problems are the circumstances that we find ourselves in on a daily basis that involve using the skills, accumulated knowledge, and resources (e.g., time, money, and friends) that we have available to us to reach our goals and to side step obstacles to these goals [1; 125].

Problem-based learning or Problem Method of teaching is a teaching or training method regarded as teaching by the use of “real world” problems. It is as a situation prepared for individuals to learn “critical thinking” and develop “problem solving skills” and “acquire knowledge”. It involves both knowing and doing.

For example, a problem-based learning project could involve students pitching ideas and creating their own business plans to solve a societal need. Students could work independently or in a group to conceptualize, design, and launch their innovative product in front of classmates and community leaders.

Problem solving is the act of defining a problem; determining the cause of the problem; identifying, prioritizing, and selecting alternatives for a solution; and implementing a solution. In the problem-based learning process, the teacher prepares the problem or scenario, motivates the students, checks the students' solutions, and

helps the students to overcome these problems when they have problems at the point of progress for the solution.

The goals of Problem-based learning (PBL) include helping students develop 1) flexible knowledge, 2) effective problem-solving skills, 3) SDL skills, 4) effective collaboration skills, and 5) intrinsic motivation. This article discusses the nature of learning in PBL and examines the empirical evidence supporting it.

The process of problem-solving in the classroom involves four basic stages:

1. Problem identification.

2.Information gathering and the acquisition of new knowledge.

3.Debate and discussion.

4.Decision making.

The Five Steps of Problem Solving

- Define the Problem. What are you trying to solve? ...
- Brainstorm Ideas. What are some ways to solve the problem? ...
- Decide on a Solution. What are you going to do? ...
- Implement the Solution. What are you doing? ...
- Review the Results. What did you do?

How to Use Problem-Solving Skills in the Workplace

- Step 1: Thoroughly understand the problem.
- Step 2: Define the problem.
- Step 3: Strategize a solution.
- Step 4: Find alternate solutions.
- Step 5: Evaluate solutions and document everything.
- Step 6: Choose a solution.
- Step 7: Implement.

It helps students distinguish between solvable issues and problems that cannot be solved. It is necessary for preparing school students to face complex interpersonal and academic problems. Students who learn problem-solving skills often have a deeper understanding of causality [2; 89].

In this class format, students work in small groups to solve problems, with professors present during each class to: provide a structured, guided context for solving problems. encourage students to shift from learning by memorizing to learning by doing.

In addition to course content, PBL can promote the development of critical thinking skills, problem-solving abilities, and communication skills. It can also provide opportunities for working in groups, finding and evaluating research materials, and life-long learning.

PBL is more effective than traditional methods (based mainly on lectures) at improving social and communication skills, problem-solving and self-learning skills, and has no worse results (and in many studies better results) in relation to academic performance.

In the problem-based learning process, the teacher prepares the problem or scenario, motivates the students, checks the students' solutions, and helps the students

to overcome these problems when they have problems at the point of progress for the solution [3; 77].

A general conclusion from these empirical studies was that PBL is effective in alleviating students' problems of inert knowledge as well as enhancing students' problem solving, higher order thinking, self-directed learning skills, and motivation to learn.

The Seven Steps of the PBL Process:

1. Identifying, clarifying of terms in the scenario.
2. Defining the problem.
3. Brainstorming.
4. Restructuring the problem.
5. Formulate learning objectives/ goals.
6. Independent study.
7. Regrouping/ Synthesis.

The problem-solving method is a highly effective teaching strategy that is designed to help students develop critical thinking skills and problem-solving abilities. It involves providing students with real-world problems and challenges that require them to apply their knowledge, skills, and creativity to find solutions. This method encourages active learning, promotes collaboration, and allows students to take ownership of their learning.

Problem-solving is a process of identifying, analyzing, and resolving problems. The problem-solving method in teaching involves providing students with real-world problems that they must solve through collaboration and critical thinking. This method encourages students to apply their knowledge and creativity to develop solutions that are effective and practical. [4; 223]

The problem-solving method has several benefits for both students and teachers. These benefits include:

- **Encourages active learning:** The problem-solving method encourages students to actively participate in their own learning by engaging them in real-world problems that require critical thinking and collaboration
- **Promotes collaboration:** Problem-solving requires students to work together to find solutions. This promotes teamwork, communication, and cooperation.
- **Builds critical thinking skills:** The problem-solving method helps students develop critical thinking skills by providing them with opportunities to analyze and evaluate problems
- **Increases motivation:** When students are engaged in solving real-world problems, they are more motivated to learn and apply their knowledge.
- **Enhances creativity:** The problem-solving method encourages students to be creative in finding solutions to problems.

The problem-solving method involves several steps that teachers can use to guide their students. These steps include:

- **Identifying the problem:** The first step in problem-solving is identifying the problem that needs to be solved. Teachers can present students with a real-world problem or challenge that requires critical thinking and collaboration.
- **Analyzing the problem:** Once the problem is identified, students should analyze it to determine its scope and underlying causes.
- **Generating solutions:** After analyzing the problem, students should generate possible solutions. This step requires creativity and critical thinking.
- **Evaluating solutions:** The next step is to evaluate each solution based on its effectiveness and practicality

Selecting the best solution: The final step is to select the best solution and implement it. [5; 96]

The solution arrived at or the conclusion drawn must be further verified by utilizing it in solving various other likewise problems. In case, the derived solution helps in solving these problems, then and only then if one is free to agree with his finding regarding the solution. The verified solution may then become a useful product of his problem-solving behavior that can be utilized in solving further problems. The above steps can be utilized in solving various problems thereby fostering creative thinking ability in an individual.

Conclusion. The problem-solving method is an effective teaching strategy that promotes critical thinking, creativity, and collaboration. It provides students with real-world problems that require them to apply their knowledge and skills to find solutions. By using the problem-solving method, teachers can help their students develop the skills they need to succeed in school and in life.

References:

1. Jonassen D. (2011). Learning to solve problems: A handbook for designing problem-solving learning environments. Routledge.
2. Richey, R.C., Klein, J.D., & Tracey, M.W. (2011). The instructional design knowledge base: Theory, research, and practice. Routledge.
3. Savery, J.R. & Duffy, T.M. (2001). Problem-based learning: An instructional model and its constructivist framework. CRLT Technical Report No. 16-01, University of Michigan. Wojcikowski, J. (2013). Solving real-world problems through problem-based learning. College Teaching, 61(4), 153-156.
4. Pirnazarova F.P. Digital technologies in studying English at university: traditions and innovations. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(3), 97-100. 2022.
5. Ibraimov, K., & Davronova, F. Advantages of using ploblem-based learning during the teaching process. *Science and innovation*, (2023) / *2*(B12), 32-35.

KOMMUNIKATIVLIKNING ADABIY MATNDA TUTGAN O‘RNI

D.R.Suyunova
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Muloqot – insonlarning bir-birlari bilan axborot almashish jarayoni. Ilmiy manbalarda uning kommunikativ, interaktiv, perseptiv jihatlari borligi aytiladi. Kommunikativlik badiiy asarlarning asosiy obyekti desak adashmagan bo‘lamiz.*

Kalit so‘zlar: *Kommunikativ qobiliyat, maqola, monolog, interaktiv, badiiy adabiyot.*

Adabiy asar haqida gap ketganda, avvalo, uning nutq hodisasi ekani haqida to‘xtalish lozim bo‘ladi.Negaki, adabiy asarning moddiy asosi til unsurlaridan tarkib topgan matn, yani zamonda voqe bo‘lgan va yozuv yordamida qotirib qo‘yilgan nutqdir. Til unsurlari esa ma’lumki muloqot jarayonidagina nutq hodisasiga aylanadi. Demak, adabiy asarning asosi bo‘lmish matn ham muloqot jarayonida vujudga keladi, ya’ni adabiy ijodning o‘zi mohiyatan muloqotdir. Buni aniqroq tushunish uchun tamsil qilishga zaruriyat bor. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yo‘llayabsiz.Tabiiyki, siz maktubingiz kimga yozilayotgani uning qanday ekanligini, u bilan qay yo‘sin muomala qilish kerakligi, yetkazilayotgan informatsiya kabilarni hamisha nazarda tutasiz.Boshqacha aytsak, maktubni yozishda adresat har vaqt hayolingizda turadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ijod jarayoni muloqot tarzida kechadi, adabiy asarda esa ayni shu jarayon muhrlanadi.

Kommunikatsiya bu odamlar yoki guruhlar o‘rtasida axborot, g‘oyalar, his – tuyg‘ular va ma’lumotlarni uzatish jarayoni . bu jarayon og‘zaki va yozma so‘zlar, imo-ishoralar, visual elementlar va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. Asosiy maqsad: axborotni yetkazish, tushunish, fikr almashish, his va tuyg‘ularni ifoda etish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy aloqani mustahkamlash. Kommunikatsiya jarayonida kommunikativ qobiliyat ham muhim ro‘l o‘ynaydi.Kommunikativ qobiliyat-bu insonning boshqa odamlar bilan samarali va to‘g‘ri muloqot qilish ish yuritishida, ayniqsa pedagog yoki rahbar sifatida, juda muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ qobiliyat quyidagilarni o‘z ochiga oladi. Tinglash va tushunish: Suhbatdoshni diqqat bilan eshitish va to‘g‘ri anglay olish. O‘z fikrini aniq ifodalash, O‘zaki va yozma shaklda fikrni tushunarli yetkazish.Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkur olami va obrazni tahli qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Melibrodo quyidagilarni ta’kidlaydi. Muloqot psixologiyasi o‘ta murakkab bo‘lganligi sababli unga yagona to‘g‘ri ta’rifni berish juda muhim.

Muloqot – Kamida ikki kishining o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib bu ta’sir davomida axborot almashinadi, munosabat o‘rnatiladi va rivojlantiriladi.

Muloqot inson hayotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Bir paytlar Amerikada barcha tamaddixonalarni avtomatlashtirish avj oldi.Ammo ko‘p o‘tmay ularning egalari kasodga uchray boshladi. Ma’lum bo‘lishicha bu yerga odamlar nafaqat tamaddi qilishga balki suhbatdosh topish uchun ham kelganlar. Bundan seziladiki,insonlar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar va uni qondirishga harakat qilishadi. Faoliyat davomida odamlar turli fikrlar o‘y-hayollar va his kechinmalar bilan o‘rtoqlashadi. Bunday o‘y fikrni kechinmalarni axborot almashinuvi sifatida talqin qilishi mumkin. Ammo shuni e’tiborga olish kerakki, insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon deb hisoblash mumkin emas. Birinchidan muloqot psixologiyasi jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi balki faol almashinadi. Kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda bir-birining motivlari maqsadlari ustanoklari va boshqalarni tahlil qiladilar. Ikkinchidan, muloqot jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar orqali bir-biriga ta’sir etishi mumkin. Insonlararo axborot almashinuvida albatta suhbatdosh xulq-atvorga muayyan ta’sir o‘tkazadi. Uchinchidan muloqot jarayonida kommunikator axborot yuboradigan odam va respondent axborot qabul qilayotgan odam bir xil kodlashtirish tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Biz badiiy asarlarni kommunikativliksiz tasavvur qilolmaymiz, albatta, chunki har bir badiiy asar voqealarga asoslanar ekan. U voqealardagi obrazlar kommunikativlik asosida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham kommunikativlikning nutqiy ko‘rinishi uchga bo‘linadi. Monolog, dialog, guruhlararo. Monologik nutqning o‘zi ikkiga bo‘linadi. Ichki nutq va tashqi nutq. Vaholanki, har bir tashqi nutqimiz tafakkurda paydo bo‘lib, ichki nutqda muhokama qilinib, tashqi nutqga ko‘chadi va bir kishining nutqi paydo bo‘ladi. Monologik nutq turli vaziyatda turlicha namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Badiiy asarni yaratish davomida ijodkor tasavvuridagi o‘quvchi bilan muloqotga kirishsa, uni o‘qish jarayonida o‘quvchi ijodkor bilan muloqotga kirishadi. Muloqot jarayonida keng kitobxonlar ommasiga badiiy informatsiya yetkaziladi, bu esa o‘quvchining bilim va tasavvurlar doirasini kengaytiradi, informatsiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Badiiy adabiyot vositasida amalga oshuvchi muloqot qarshisida davriy yoki hududiy chegaralar mavjud emas: uning vositasida o‘quvchi o‘zidan minglab chaqirim olisda yashovchi shaxs bilan ham muloqot qila oladi. Masalan, ko‘p mutolaa qilgan hozirgi kitobxon olis ajdodlarining turmushi, fikrlash tarzi, orzu- intilishlari bilan ham, olis dengiz ortidagi xalqning turmushi, fikrlash tarsi, orzu-intilishlari bilan ham yaqindan tanish bo‘la oladi. G.Toirova, A.Zaripovalarning ta’kidlashicha, “Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadi, o‘zaro axborot, fikr almashadi, birbirlariga ta’sir o‘tkazadi, bir-birlarini his qiladi, bir-birini tushunadi” [195;87-b.]. Muloqot jarayonida yoshlarda o‘z qadr-qimmatini bilish ham sodir bo‘ladi.

Muloqot – insonlarning bir-birlari bilan axborot almashish jarayoni. Ilmiy manbalarda uning kommunikativ, innteraktiv, perseptiv jihatlari borligi aytiladi. Muloqotning kommunikativ jihati deyilganda, suhbatdoshlarning o‘zaro axborot almashinuvi, interaktiv jihati deyilganda, ularning ekstralingvestik omillar yordamida

bir-birlariga o‘zaro ta’sir o‘tkazishi, perseptiv jihati deyilganda suhbat jarayonida bir-birlarini anglashga intilishi nazarda tutiladi. Shunday ekan kommunikatsiya va kommunikativlik terminlariga kengroq to‘xtaladigan bo‘lsak. Kommunikatsiya so‘zining ma’nosi – bir kishining boshqa bir kishiga axborot yetkazishi, muloqotidir.Bu jarayonda adresant va adresatlar ishtirok etadi va o‘rtada so‘zlovchi nutqi qanday sifatlarga ega bo‘lishi lozim degan savol turadi.

Kommunikativlik esa insonning ijobiy axloqiy sifati bo‘lib, uning muloqotga moyilligini anglatadi. Bu sifat insonning o‘z atrofidagilar bilan muloqot qila olish uquvida namoyon bo‘ladi. Kommunikativlik insonda nutqiy va axloqiy madaniyatning shakllanishiga, odamlar bilan muloqotda xushmuomalali bo‘lishga, xulqiy me’yorlarni singdirishiga yordam beradi. Kommunikativlik prinsipi, shuningdek, muloqotni malakali amalga oshirish uquvining rivojlanishiga, ruhiy ikkilanishlarni yengib o‘tishga, suhbatdosh oldida o‘zini tuta bilishga, nutqiy muloqotga kirishadigan odamlar bilan o‘zaro munosabatni yo‘lga qo‘ya olishga xizmat qiladi.

Professor Siddiq Mo‘minovning “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” mavzusida himoya qilgan doktorlik dessertatsiyasi bevosita nutqning kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Nutqiy kommunikatsiya tizimida muloqot uzvi degan tushuncha ham bor. Muloqot uzvlari deganda aloqa, fikr almashinish, so‘zlashish jarayonida bevosita va bavosita qatnashadigan tarkibiy qismlar nazarda tutiladi,-deydi S.Mo‘minov.

Biz kommunikativlikni Shoyim Bo‘tayev qissalari misolida ko‘rib o‘tsak. Yozuvchining asarlarida o‘ziga xos uslub bilan birgalikda asardagi obrazlarida ham muloqotning o‘zgacha bir holatlariga duch kelamiz. Uning qahramonlarida tashqi muloqot bilan birgalikda ichki muloqot ham o‘quvchining ichiga kirib boradigan darajada kirib borgan. Shoyim Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida biz birgina nutqni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, o‘sha nutq butun bir asarning voqealar rivojini o‘zgartirib yuboradi. Bu nutq Toshmurodning otasi Nazoratchiga aytgan “Butun umr poliz qo‘riqlab o‘tasizmi ota”,- degan gapi sababli ota o‘g‘li bilan teskari bo‘lib qoladi. Albatta Toshmurodning aytgan gaplari haqiqat edi.Endi balog‘at yoshiga yetayotgan bola tushunib, anglay boshlagan haqiqatlarni nazoratchi tushunmas, tushunishni istamas edi ham.Mana shu yuqoridagi gapi sabab endi maktabni bitirib o‘qishga topshirish niyatida yurgan bolaning orzulari chilparchin bo‘ladi.O‘g‘li tomonidan aytilgan haqiqat Nazoratchiga alam qiladi. Shu sabab o‘g‘lini kechirmaydi. Toshmurod otasining bu qiliqlariga chidolmay alam ustida o‘g‘irlik qiladi va qamalib ketadi. Nazoratchi esa farzandini qutqarish o‘z xatolarini anglash o‘rniga qamalganini eshitib hursand bo‘ladi. Nima uchun menga aytgan gaplari sabab deb. Uning hursand bo‘lgan nutqiy holatini ko‘rib o‘quvchi kitobxon hayratga tushadi. Yozuvchi bilan muloqot qiladi. Nahot ota farzandining qamoqqa tushishiga hursand bo‘lsa, bir o‘rnatilgan tuzum xalqni shunchalik, mehrsiz, manqurt qilib qo‘yishi mumkinmi deb.Nazoratchi qamoqxonada nazoratchi vazifasini o‘tar va ishidan faxrlanar edi. Qamoqxonadagi ko‘plab aholining nohaq panjara ortida o‘tirganlar bilan ishi ham bo‘lmas. Panjara ortida o‘tirganlarning ko‘pchiligi nima xato qilganlaridan xabarlari ham yo‘q edi. Nazoratchi uchun esa xalqning og‘ir

ahvolini qizig‘i yo‘q uning uchun o‘sha davr tuzumi, boshqaruvi “haqiqat” edi. Biz yuqoridagi Toshmurodning otasiga aytgan so‘zlaridan mustaqillikni anglay boshlagan, tuzumning nohaqliklarga chidolmagan insonni mustaqillik nishonasi deb bilsak. Nazoratchi esa tuzumning illatlarini ko‘ra bila turib yana o‘sha tuzumni olqishlab yuqorilarga ko‘tarayotgan manqurtlashgan odam, ichdan yemirilib borayotgan tuzum tarafdori edi. Manqurtlashgan shaxs deyishimizga sabablaridan biri o‘zining azon bilan qulog‘iga aytilgan ismi bo‘la turib armiyada o‘ziga Mels ismini qabul qiladi. Buning o‘zi bir o‘zbek xalqi uchun hiyonat edi.

O‘zbek adabiyotida xalq tilida ko‘chib yuruvchi “xalq og‘zaki ijodi” mavjud bo‘lib, unga dostonlar, laparlar,latifalar, askiyalar, shu qatori olqishlar, qarg‘ishlar ham kiradi. Badiiy asarlardagi obrazlarda muloqot jarayonidagi qarg‘ishlar, olqishlarga ham ko‘zimiz tushadi. Shoyim Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” asarida Nazoratchining onasi kampir obrazi keltirilgan bo‘lib, u obraz muallif tomonidan juda salbiy ta’riflanadi. Ikkiyuzlamachilik, g‘iybatkashlik, tilyog‘lamalik, birovlarni yomonlash kabi xarakterlar mujassam edi. Shuning uchunmi uning o‘g‘illari amaki va Nazoratchi yoshligidan it-mushuk bo‘lib voyaga yetishadi, odamlari ularni “yoshi kattargach qolib ketar bu qiliqlari”,- deb chuchvarani hom sanashgan edi. Kattarib, uylangach esa bu janjallari kuchaysa kuchaydiki, pasaymaydi. Amaki bitta qizi bor insonga kuyov bo‘lgani qo‘l kelib ichki kuyov bo‘lib ketadi. Kampir har narsaga ko‘z yosh to‘kaveradigan, bo‘lar-bo‘lmas so‘zlarga aralashaveradigan serjag‘, ko‘ngli tor, mo‘rt bo‘lgani uchun kichik o‘g‘lini ko‘chirib ketishgandan keyin voqeaning asl mohiyatiga yetmay turib, uning boshini aylantirib ilm-u amal, jodularni qo‘llagan qaynonasini, soqoli supurgiday bo‘lgani bilan baribir xotinquli qaynotasini, erini bir kunmas-bir kun qaro yer qilib, go‘rga tiqadigan kelinini, qarg‘ay-qarg‘ay kuni kech qilar edi, shu bilan charchab uxlab qolar edi. Tong otgach yana diydiyosi boshlanar edi. Kampirning qarg‘ishlari tegdimi yoki o‘zining vaqti soati yetdimi, kelinning otasi birdan oyoqni uzatib o‘ldi-qoldi. Xabar yetgach, kampir darrov kalish-mahsisini kiyib yo‘lga otlandi, u oradan qanday gap o‘tmasin bunaqa marakalardan qolmasdi. U ma’rakada to‘nini ag‘darib kiyib, rossa chuvvos soldi. O‘z dardini aytib yig‘ladi.Asardan keltirilgan parchani o‘qib chiqar ekanmiz. Kampir obrazidagi salbiy illatlar kitobxonni hayoliga hozirgi kunda ham shunday insonlar borligini va ularning kamayishi uchun yozuvchi jonini kuydirib yozganini anglab yetadi.

Ma’lum bo‘ladiki, gap kommunikativ birlik sifatida o‘zida fikriy va hissiy kommunikatsiyani tashiydi. Bu barcha gaplar mutlaq ham fikriy, ham hissiy kommunikatsiyaning birligidan iboratdir, -degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Chunki ayrim gaplarda hissiy munosabat sezilarsiz bo‘lsa, ayrimlarida sof hissiy kommunikativlik mavjud bo‘ladi. His-tuyg‘uning ifodalanishi tildan boshqa vositalar (musiqa, raqs, imo-ishora) mavjudligi ham nisbiy mustaqilligini ko‘rsatadi. Buni biz Shoyim Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” asarining boshlanmasidagi muallif nutqida ko‘rishimiz mumkin. O‘g‘rining Bibiliskiy nigohi ko‘sa chol va uning qiltiriq bo‘ynini zo‘rg‘a tutib turgandek ko‘ringan kallasida ajabtovur tarzda sirli tuyulayotgan sallaga yoxud hangomaga o‘ch olomonda ekandek, ko‘rinsada

aslida unday emas, butun diqqat - e’tibori sunrayvoz abushqaning oldidagi sandiqnamo quti ustidagi g‘alati qutilmaga qaratilgan.

Yuqoridagilarni umumlashtiradigan bo‘lsak, nutqiy muloqot madaniyati deganda o‘zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyot davri davomida shakllangan muomala odobi qoidalariga rioya qilib, ijtimoiy shart-sharoit, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib, shuningdek, shaxsning o‘zligini va o‘zgalarning (suhbatdoshlarning) shaxsini, ruhiyatini, jamiyatda tutgan mavqeini anglash asosida, nutqning kommunikativligiga e’tibor bergan holda muloqotda ishtirok etishi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent, 2002. 560 b
2.Sulton I. Adabiyot nazariyasi –T.:Sharq, 2008. -368b
3. Bo‘tayev Sh. Sho‘rodan qolgan odamlar. Qissalar. –Toshkent, 2019.

TA’LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY O‘QITISH METODIKALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Pulatova Sanobar Berdimuratovna
Samarqand viloyati, Ishtixon tumani 2-IDUM
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida qo‘llaniladigan zamonaviy o‘qitish metodikalarining joriy holati, ularning amaliyotda qo‘llanilishi jarayonidagi asosiy muammolar va mumkin bo‘lgan yechim yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot asosida zamonaviy o‘qitish metodikalarining an'anaviy usullar bilan integratsiyalashuvi, o‘qituvchilarning professional tayyorgarligi, texnologik infratuzilma va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchanlik muammolari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘qitish metodikalari, ta'lim muassasalari, pedagogik innovatsiyalar, o‘qituvchilar tayyorligi, raqamli ta'lim texnologiyalari*

KIRISH. XXI asr ta'lim tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar, globallashuv jarayonlari va mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari sharoitida tubdan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy o‘qitish metodikalari an'anaviy ma'ruza-seminar tizimidan uzoqlashib, talabaga yo‘naltirilgan, interaktiv va texnologiyaga asoslangan pedagogik amaliyotlarga yo‘nalmoqda [1]. Jahon Iqtisodiy Forumining ma'lumotlariga ko‘ra, bugungi o‘quvchilarning 65 foizi kelajakda hali mavjud bo‘lmagan kasblarda ishlab chiqarishga kirishadi, bu esa ta'lim tizimini nafaqat bilim berish, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishini taqozo etadi [2]. Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim muassasalarida zamonaviy o‘qitish metodikalarini qo‘llash jarayonidagi asosiy muammolarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va O‘zbekiston ta'lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy yechim yo‘llarini taklif etishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan. Zamonaviy o‘qitish metodikalarining nazariy asoslarini tahlil qilishda birinchi navbatda konstruktivistik ta'lim nazariyasi [3], Bloom taksonomiyasi, Gardner'ning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi va talabaga yo‘naltirilgan yondashuvlar e'tiborga olindi [4]. Pedagog olimlar L.S. Vigotskiy, J. Dewey, J. Bruner va zamonaviy tadqiqotchilarning ishlarida ta'kidlanganidek, samarali o‘qitish jarayoni talabaning faol ishtirokini, bilimlarni mustaqil qurish qobiliyatini va real hayotiy vaziyatlarga qo‘llash ko‘nikmalarini talab etadi [5]. Raqamli texnologiyalarning ta'limga integratsiyasi masalasida M. Prensky ning "raqamli aborigenlar" kontseptsiyasi, TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli va "teskari sinf" metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Rossiyalik tadqiqotchi Y.S. Branovskiy zamonaviy o‘qitish metodikalarini an'anaviy usullar bilan muvozanatlashtirishning zarurligini ta'kidlab, pedagogik innovatsiyalarning kontekstga bog‘liq tadbiq etilishi kerakligini asoslaydi [7].

Xalqaro amaliyotda flipped classroom (teskari sinf), blended learning (aralash ta'lim), project-based learning (loyihaga asoslangan o‘qitish), gamification (o‘yinlashtirish) va adaptive learning (moslashuvchan o‘qitish) kabi metodikalar keng qo‘llanilmoqda [8]. Biroq, OECD ning TALIS tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metodikalarning mavjudligi va ularning samarali qo‘llanilishi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud [9]. Ko‘plab o‘qituvchilar yangi metodikalar haqida ma'lumotga ega bo‘lsalar ham, ularni amaliyotda to‘liq va samarali qo‘llash uchun zarur ko‘nikmalarga, vaqtga va resurslarga ega emaslar

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Adabiyotlar tahlili va nazariy tadqiqotlar asosida ta'lim muassasalarida zamonaviy o‘qitish metodikalarini qo‘llash jarayonidagi asosiy muammolar va ularning yechim yo‘llari aniqlanishi mumkin. Birinchi muhim natija shundan iboratki, zamonaviy metodikalarning samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qituvchilarning professional kompetentligiga bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘qitish metodikalarini qo‘llash uchun o‘qituvchilar nafaqat texnologik ko‘nikmalarga, balki pedagogik dizayn, differensiatsiya, formativ baholash va talabalar bilan hamkorlikdagi ish yuritish metodologiyasiga ham ega bo‘lishlari zarur [1].

Bu muammoni hal qilish uchun bir nechta strategik yo‘nalishlar taklif etiladi: birinchidan, o‘qituvchilar uchun modulli, amaliyotga yo‘naltirilgan professional rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, ular mentorlik, master-klasslar, pedagogik amaliyot almashinuvi va refleksiv tahlil elementlarini o‘z ichiga olishi kerak; ikkinchidan, har bir ta'lim muassasasida raqamli kompetentliklarga ega bo‘lgan pedagogik rahbarlar yoki texnologik koordinatorlar xizmatini tashkil etish; uchinchidan, o‘qituvchilarning professional rivojlanishini rag‘batlantirish tizimini yaratish, jumladan, zamonaviy metodikalarni samarali qo‘llagan pedagoglarni tanib, mukofotlash mexanizmlarini joriy etish.

Ikkinchi muhim natija texnologik infratuzilma va raqamli resurslar bilan ta'minlash muammolariga tegishli. Aralash va raqamli o‘qitish metodikalarining keng qo‘llanilishi yuqori tezlikdagi internet aloqasi, zamonaviy jihozlar (kompyuterlar,

planshetlar, interaktiv doska), ta'lim dasturiy ta'minoti va raqamli kontentni talab etadi [6]. O‘zbekistonda ta'lim muassasalari o‘rtasida texnologik jihozlanganlik darajasi sezilarli farq qiladi: paytaxt va viloyat markazlaridagi ta'lim muassasalari nisbatan yaxshi jihozlangan bo‘lsa, tuman va qishloq joylardagi muassasalar jiddiy texnologik taqchillikni boshdan kechirmoqda. Bu raqamli tafovutni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur: davlat darajasida ta'lim muassasalarini texnologik jihoz bilan ta'minlash bo‘yicha bosqichli dastur qabul qilish va amalga oshirish; ochiq ta'lim resurslari (OER) platformalarini yaratish va rivojlantirish, bu esa o‘qituvchilar va talabalar uchun bepul, sifatli raqamli kontentni taqdim etadi; xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, texnologik donorligi va texnik yordamni jalb etish; ta'lim muassasalarida texnologik infratuzilmani saqlash va texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish.

Uchinchi muhim natija metodologik qo‘llab-quvvatlash va o‘zbek tilidagi resurslar muammosiga oid. Ko‘pgina zamonaviy o‘qitish metodikalari bo‘yicha qo‘llanmalar, amaliy materiallar va o‘quv resurslari asosan ingliz, rus va boshqa xorijiy tillarda mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida sifatli, kontekstga moslashtirilgan metodologik materiallar juda kam [3]. Bu muammo nafaqat o‘qituvchilar, balki talabalar uchun ham qiyinchiliklar tug‘diradi. Yechim yo‘llari quyidagilardan iborat: milliy darajada zamonaviy o‘qitish metodikalari bo‘yicha qo‘llanmalar, darslik va metodik materialarni ishlab chiqish va nashr etish dasturini amalga oshirish; xalqaro andragogik tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirilgan metodologik materiallarni yaratish; o‘qituvchilar uchun onlayn platformalar va professional hamjamiyatlar yaratish, ularda pedagoglar o‘z tajribalarini baham ko‘rishlari, dars ishlanmalari, o‘quv materiallari va amaliy maslahatlar almashinishlari mumkin; oliy ta'lim muassasalarida pedagogika va metodika yo‘nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarga zamonaviy o‘qitish metodikalarini chuqur o‘rgatish, ularni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash.

To‘rtinchi muhim natija baholash tizimini zamonaviylashtirish zarurligiga tegishli. An'anaviy summativ baholash (yakuniy imtihonlar, testlar) zamonaviy o‘qitish metodikalarining talablariga to‘liq javob bermaydi [4]. Zamonaviy yondashuvlar formativ baholashni, portfellarni, loyiha ishlarini, o‘zaro va o‘z-o‘zini baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa talabalarning bilimlarini emas, balki kompetentsiyalarini, ko‘nikmalarini va rivojlanish dinamikasini baholashga imkon beradi [9]. O‘zbekiston ta'lim tizimida baholash tizimlari zamonaviylashtirish yo‘lida dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda, biroq bu jarayon sekin va izchil kechmoqda. Taklif etiladigan yechimlar: me'yoriy-huquqiy bazani yangilash, formativ baholash usullarini rasmiy tan olish va rag‘batlantirish; o‘qituvchilarni zamonaviy baholash metodologiyasi bo‘yicha maxsus o‘qitish; raqamli baholash vositalari va platformalarini joriy etish; talabalarni baholash jarayoniga faol jalb etish, refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish madaniyatini rivojlantirish.

XULOSA. Ushbu tadqiqot ta'lim muassasalarida zamonaviy o‘qitish metodikalarini joriy etish jarayonidagi asosiy muammolar va ularning yechim yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Adabiyotlar tahlili va nazariy tadqiqotlar asosida aniqlangan muammolar qatoriga o‘qituvchilarning yetarli professional tayyorgarlikka

ega emasligi, texnologik infratuzilmaning zaif rivojlanganligi, metodologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, baholash tizimining zamonaviy talablarga mos kelmasligi, madaniy-psixologik to‘siqlar va davlat qo‘llab-quvvatlasining yetarli emasligi kiradi. Har bir muammo uchun kompleks yechim yo‘llari taklif etildi: o‘qituvchilarning uzluksiz professional rivojlanish tizimini takomillashtirish, texnologik infratuzilmani bosqichli rivojlantirish, o‘zbek tilidagi metodologik materialar bazasini yaratish, formativ baholash tizimlarini joriy etish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi madaniyatni shakllantirish va davlat darajasida izchil ta'lim siyosatini amalga oshirish. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘qitish metodikalarining muvaffaqiyatli joriy etilishi faqat texnologik yechimlar bilan cheklanmaydi, balki tizimli yondashuv, barcha ishtirokchilarning ishtiroki va uzluksiz takomillashtirish jarayonini talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hattie, J. (2012). *Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning*. London: Routledge.

2. World Economic Forum. (2020). *The Future of Jobs Report 2020*. Geneva: World Economic Forum.

3. Qurbonov, Sh.E., Saidov, A.S., & Rahimova, D.N. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim muassasalarida qo‘llashning dolzarb muammolari. *O‘zbekiston Pedagogika Jurnali*, 3(15), 45-58.

4. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. (Eds.). (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.

5. Выготский, Л.С. (2005). *Психология развития человека*. Москва: Смысл, Эксмо.

6. Koehler, M.J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge? *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 9(1), 60-70.

7. Брановский, Ю.С. (2019). Проблемы внедрения инновационных методов обучения в российских вузах. *Высшее образование в России*, 28(4), 65-74.

8. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education*, 93(3), 223-231.

9. OECD. (2019). *TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners*. Paris: OECD Publishing.

БЕҲБУДИЙ МЕРОСИНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДАГИ АҲАМИЯТИ

Якубжанова Мухайё Кадиржановна
СамВПММ Тилларни ўқитиш методикаси кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: *Мақолада буюк жадид намояндаси Маҳмудхўжа Беҳбудий меросининг ёшлар маънавий тарбиясидаги аҳамияти таҳлил қилинган. Беҳбудий асарларида миллий уйғониш, миллатнинг ўзлигини англаш жараёни мазкур чақириқнинг руҳи ва мазмунини ташкил қилиши кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *Беҳбудий, ёшлар тарбияси, маънавият, миллий ўзлик, миллий ғоя.*

Юртимиз азалдан бебаҳо маънавий мерос ва қадриятларга бой мамлакат бўлган. Фақат биз бу меросни чуқур ўрганиб ҳаётимизнинг ҳар жабҳасида фойдалансак, бизга Ватанни севиш, миллий ўзликни англаш, юрт келажагига дахлдорлик хисси билан яшашга ўргатади. Маърифатпарвар боболаримиз миллатни уйғотиш ва истиқлол йўлида қанча жабру жафолар чеккани ва тараққиётга фақат илму маърифат билан эришиш мумкинлигини тарғиб этган.

Президентимиз таъкидлаганидек,[1] “Умуман, биз жадидчилик ҳаракати, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганишимиз керак. Бу маънавий хазинани қанча кўп ўргансак, бугунги кунда ҳам бизни ташвишга солаётган жуда кўп саволларга тўғри жавоб топамиз. Бу бебахо бойликни қанча фаол тарғиб этсак, халқимиз, айниқса, ёшларимиз бугунги тинч ва эркин ҳаётнинг қадрини англаб етади”

Беҳбудий асарларида миллий уйғониш, миллатнинг ўзлигини англаш жараёни мазкур чақириқнинг руҳи ва мазмунини ташкил қилади. Унинг ҳикматлари биргина адабиёт, тарих доирасида қолгани йўқ, ижтимоий турмушнинг барча қатламларини қамраб олди, ҳатто унинг тарихга кирган ғояларининг ҳам мафкураси миллий уйғонишга, унинг самараси бўлмиш мустақиллик учун курашга келиб боғланди. Жумладан унинг, “Эй ғайратлик ёшлар! Нифоқ ва бир-бириға душманликни ташлангиз. Худо ҳаққи, арвоҳи анбиё ҳурмати ва бу кунларда қорнини тўйғизолмайтургон етим ва бевалар ҳаққи, бир-бирингиз ила иттифоқ этуб, жамиятлар барпо қилиб, холиқ Худонинг нафиға, дин ва миллат йўлиға хизмат этингиз. Миллат ва халқ сиздан хизмат ва яхшилик талаб этудур, нафсоният ва ғурур эмас”. Беҳбудий фикрича, маърифат учун биргина мактаб кифоя қилмасди. Замон ва дунё воқеалари билан танишиб бормоқ, миллат ва Ватаннинг аҳволидан, кундалик ҳаётидан огоҳ бўлмоқ керак эди. Зеро, миллат учун шундай ойна керак эдики, унда у ўз қабоҳатини ҳам, малоҳатини ҳам кўра олсин. Мана шу эҳтиёж ва зарурат Беҳбудийни жамият аъзоларидан қуйидагиларни сўрашга ундайди: “Ёшлардан ҳиммат ва ғайрат, бойлардан шафқат ва марҳамат керак”. Бугун биз юзма-юз бўлиб турган миллий ғоя, маънавият, миллий мафкура масалалари билан бундан юз йил олдин жадидларимиз томонидан ҳам кун тартибига қўйилган ва

қизғин муҳокама қилинган масала бўлган. Буни Беҳбудийнинг фикрларидан ҳам уқиб, англаб олиш мумкин: “Макотиб – тараққийнинг бошланғичи, маданият ва саодатнинг дурдонасидир”. Албатта, ёшларимизни мамлакат, юрт равнақи ва келажаги йўлида бирлаштириш, қалбларни уйғотиш, дунё харитасида ҳар томонлама тараққий этган Янги Ўзбекистонни барпо этишни кўзлаган маънавият, миллий ғурур ғоясининг илдизи аслида маърифатпарвар жадидлар фаолиятига бориб тақалади: “Эй ғайратлик ёшлар! Нифоқ ва бир-бириға душманликни ташлангиз. Худо ҳаққи, арвоҳи анбиё ҳурмати ва бу кунларда қорнини тўйғизолмайтургон . Жадидлар. етим ва бевалар ҳаққи, бир-бирингиз ила иттифоқ этуб, жамиятлар барпо қилиб, холиқ Худонинг нафиға, дин ва миллат йўлиға хизмат этингиз. Миллат ва халқ сиздан хизмат ва яхшилик талаб этудур, нафсоният ва ғурур эмас”.Мамлакатимиз ёшларга келажак бинокорлари сифатида қарар экан, бу йўлда бизга буюк тарихимиз – мураббий, аждодларимизнинг ибратли ҳаёти, фаолияти ва маънавий мероси, айниқса бугунги кунда ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган ҳикматли гаплари дастуруламалдир: “Муҳтарам ёшлар! Замон сизникидир, қарилар замони ўтган. Сиз киромға бобасират бўлиб, ўн дафъа ўлчаб, бир дафъа кесингиз”. Беҳбудий хулосасига кўра, миллат озод бўлиб, ўзининг мустақил давлатини ўрнатмагунча, ижтимоий адолатни тиклаб бўлмайди, дейди. Унинг қуйидаги мулоҳазаларини учратамиз: “Фаннинг ибтидоий таълимини кўрмаган кишига ўрта ва олий қисмини мадрасаларға киргизиб таълим бермакдин фойда чиқмайдур”. Беҳбудий миллий ғоя билан иш тутилса, миллатнинг жонланишига, маърифатли авлод шаклланиб ҳаётнинг гўзаллашишига ишонади. Бугина эмас, уни ҳаёт-мамот масаласи деб билади. Миллатнинг миллий, диний, инсоний ҳуқуқларини муҳофаза қилишда биринчи восита деб ҳисоблайди: “Уламо тарбияхонаси мактаб ва мадрасалардур, агарда ўшал мактаб ва мадраса муаллим ва мударрислари олим бўлса ва шогирдлариға кўнгли илан таълим берса, албатта, илм ҳосил қилур. Агарда муаллимни ўзи ҳозирги аксар мактабдор ва мударрислардек камҳавсала ёинки камилм бўлса, ёинки илми бўлуб туруб, усули таҳсилдан хабарсиз бўлса, ани(нг) шогирдлари нодон қолур”. Беҳбудий қалбини ўртаган энг катта дард – эрк ва маърифат бўлган. Унинг қарашларида маърифий руҳ, изтироб тўла фикр-мулоҳазалар бугунги ёшларимизни бефарқ қолдирмайди. Жумладан, Юрт, Ватан туйғуси ифодаси уни бугун ёшларга ҳаддан ташқари яқин қилиб қўяди: “Замонча илми диний ва замоний керак”, дейди устоз. Илм – ҳунар ғайрат ва меҳнат билан қўлга киради. Илмга, маърифатга эҳтиёж, илм-фанни эгаллаш ғояси миллатнинг кўпчилиги томонидан англаниши керак. Ҳақиқатдан ҳам, Беҳбудийнинг олиб борган барча ишлари шунга хизмат қилди. Шу тариқа ҳар бир ғоянинг миллий ғояга айланиши, Беҳбудийнинг фикрича қуйидаги шартни тақозо этади: “Ер юзидаги барча миллатлар ўз болаларининг ибтидоий тарбиясиға ва мактабларнинг ҳар жиҳатдан интизом ва акмалиға кўб аҳамият беруб, болаларини миллий ва диний руҳда камол сувратда етушдурарлар. Анинг учундирки, ўзга миллатлар диний ва миллий ҳиссиётға молик бўлуб, ҳар ишда диёнат ва миллатни муқаддам тутарлар. Ва, лузуми келганда, бу йўлда

мол ва жонларини фидо қилмоқға ҳозир турарлар”. Беҳбудий истиқлол ҳақида фикр юритар экан, ҳар қандай зўравонликни рад этади. Унингча, зўравонлик ғайриахлоқий, бинобарин, ғайриинсонийдир. Умуман, мустақиллик учун кураш олиб борган жадидлар, жумладан Беҳбудий келажак ҳақида фикр юритар экан, истиқлолга эришиш борасида қуйидаги йўлдан боришни тавсия этади: “Илмсизлик ва тарбияйи диния ва ахлоқи миллиядин бебаҳраликни(нг) охири динсизлик ва расман тарки дин этмоққа мажбур бўлур. Беҳбудий илмий ишларининг аксарияти илм, касб, тил ўрганиш ва маърифатли бўлишга чақириқлар тўғрисида эди. Беҳбудий миллат келажаги, мамлакат тараққиёти ва энг муҳими унинг мустақиллиги, эрки учун қилган меҳнат ва хизматларини ёшларга етказиб бериш бугунги кунннинг долзарб вазифасидир. Шу ўринда унинг: “Илм муштаракдур. Билганникидир” деган принципи кун тартибидаги биринчи масаладир, десак муболаға бўлмайди. Шу нуқтаи назардан Беҳбудий истиқлол, озодлик, эркинлик учун қилган хизматлари, унинг миллий таълим ва тарбия тизимини яратишдаги ҳиссаси беқиёсдир. Ҳар бир миллат тараққий топмоғи учун жаҳон илм-фани янгиликларидан, умуминсоний ғоялардан фойдаланиши керак. Лекин муҳим шарти шундаки, бу фикр-ғоялар миллатнинг юраги ва онгидан ўтмоғи, миллийлашиши зарур. Шундагина у миллат йўлида хизмат қила олади. Ҳаммамизга маълумки, ҳозирги глобаллашув жараёнлари кечаётган бир пайтда “оммавий маданият” истар-истамасакда ёшларимиз маънавий тарбиясига таъсир этмоқда. Президентимиз таъкидлаганидек, “жаҳолатга қарши ўн маърифат билан курашмоғимиз даркор”лиги долзарблигича қолади. Албатта бу борадаги масъулият зиёлилар зиммасига тушади. Чунки миллат эҳтиёжини қалбан англовчи ва олдинга бошловчи зиёли синфидир. Бунинг учун эса, ўша зиёлининг ўзи миллий ахлоқ ва тарбия эгаси бўлмоғи керак. Беҳбудийнинг “Ҳар миллат ва дин аҳлининг бошчи ва ҳодийси уламодурлар”, деган фикри ўринлидир . Беҳбудий она юртини унда яшаб турган барча қон-қариндош миллатларнинг бирлиги, ҳамкорлиги билангина сақлаб қолиш мумкинлигини теран англайди. У миллатнинг, маърифатнинг ҳақиқий маънавий отаси эди. У бутун вужуди билан бирликка чорлайди: “Ҳар бир миллат, энг аввал макотиби ибтидоиясини замонча ислоҳ этуб, кўпайтирмагунча тараққий йўлиға кириб, маданиятдан фойдаланмас”.

Хулоса ўрнида, Беҳбудийнинг бой маънавий мероси ҳозирги кунда ёшлар тарбиясининг ёрқин юлдузи десак, муболаға қилмаймиз. Зеро, тафаккуримиз тараққиёти тарихида моҳияти ва мазмунига кўра тамоман янги бўлган Беҳбудийнинг миллий тарбиясининг роли ва ўрни алоҳида. Беҳбудий ҳикматларида кўтарилган ғоялар мутлақо янги ва аксарият мавжуд тузумга зид бўлгани билан ажралиб туради. Албатта, бу фикрлар Ватан ва миллат манфаати нуқтаи назаридан ёндошгандагина, моҳиятини ҳар бир ёш тўғри англаган бўлади. Зеро, “Илмсиз миллат, қавм асир ва заиф қолур. Илмсиз давлатни фойдаси йўқ, илмсиз дунёдорни ҳаёти йўқ”дир.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Жадидлар тўплами китобидан Махмудхўжа Бехбудий Т.2022-йил 3-бет.

2.Жадидлар. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Тошкент. Ёшлар. 2022. 156 б.

3.Abdurashidov Zaynobiddin. “Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy”. Toshkent:. Yoshlar nashriyot uyi -2022.

4. Hamroyeva Nafisa, Bahronova Mashhura “Mahmudxo‘ja Behbudiy va Jadidchilik harakati”. “Maxmudxo‘ja Behbudiy- O‘zbek jadidchiligining asoschisi” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari -2020.

YOSHLAR IJTIMOIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA DAVLAT SIYOSATI VA TA’LIM MADANIYATI

Tuxtamurod Otamurodovich MAMATOV
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil tadqiqotchisi
Jonibek Ashirkulovich TANIQULOV
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash va yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyatiga alohida ahamiyat berilib, yoshlarga oid siyosatida yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlarni ijtimoiy xavfsizligi, yoshlar siyosati, ijtimoiy xavfsizlik, yoshlar va oila, yoshlarga oid davlat siyosati, mahalla va yoshlar.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati sohasidagi islohotlarning jahon miqyosida tan olinayotganini anglatadigan bir necha muhim ko‘rsatkichga e’tiboringizni qaratmoqchiman. So‘nggi 7 yilda O‘zbekiston tomonining yoshlar masalalariga oid o‘nga yaqin global tashabbus va taklifini BMT tan olib, xalqaro miqyosda keng ommalashtirdi. O‘zbekiston BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasini amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiritildi. 2023-yilda Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tezkor sur’atlar bilan rivojlanayotgan mamlakat deb e’tirof etildi. 2022-yilda Buxoro shahri birinchi Turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti, 2024-yilda Toshkent shahri birinchi MDH yoshlar poytaxti deb e’lon qilindi... “Hech bir yosh e’tibordan chetda qolmaydi”degan muhim hayotiy tamoyil amaliyotga tatbiq etilayotgani natijasida qariyb 20 millionlik yoshlar qatlamiga bir ko‘z bilan qarab, intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydigan, kerak bo‘lsa, yelka tutib, katta-kichik muammolariga birgalikda yechim topadigan tizim vujudga keldi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlar masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash esa nafaqat iqtisodiy va huquqiy barqarorlik, balki fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning ijtimoiy hayotda erkin, faol va xavfsiz ishtirokini kafolatlash demakdir. Mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ularning ijtimoiy himoyasi, ta’lim olishi, bandligi va huquqiy manfaatlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yoshlar – har qanday davlatning eng muhim va eng qadrli resursidir. Ularning ijtimoiy xavfsizligi va rivojlanishi mamlakatning barqaror taraqqiyoti va kelajagi uchun asosiy omillardandir (Islomova, 2022). Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi doirasida yoshlarga oid siyosat jadal rivojlanmoqda, u yoshlarni nafaqat ta’lim, bandlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan ta’minlash, balki ularning xavfsizligini ham kafolatlaydi. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosatining asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

2021-yilda qabul qilingan Prezident farmonlari va qarorlar mamlakatda yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2021). “Yoshlar daftari” va “Mahalla” tizimlari yoshlarning muammolarini aniqlash va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda samarali mexanizmlarni yaratdi (Karimov, 2023). Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun turli tashabbuslar, jumladan, “Yoshlar parlamenti” va “Yoshlar ishlari agentligi” tashkil etildi.

Ijtimoiy xavfsizlik bu – shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki va huquqlari jamiyat va davlat tomonidan himoyalanish holatidir. Yoshlar uchun esa bu tushuncha ta’lim olish, ish bilan ta’minlanish, sog‘lom turmush tarzi, zararli oqimlardan himoyalanish kabi ko‘plab sohalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ijtimoiy xavfsizlik masalasida ekstremizm, narkotik vositalar, jinoyatchilik kabi tahdidlar mavjud bo‘lib, yoshlarni bu xavflardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda yoshlar siyosati asoslarini belgilovchi bir qancha qonun va normativ hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yoshlarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi (O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, 2016). Yoshlar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xavfsizlikni ta’minlashda Yoshlar ittifoqi, Barkamol avlod markazlari hamda Temurbeklar maktablari muhim rol o‘ynaydi (Abdullaev, 2022).

Ishsizlik yoshlar orasida asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu bois davlat tomonidan ish bilan ta’minlash dasturlari, jumladan “Yoshlar mehnat guzari” va yoshlar sanoat zonalari tashkil etildi (O‘zbekiston Mehnat vazirligi, 2023). Ta’lim sohasida ham yoshlarning zamonaviy kasblarga o‘qitilishi, chet elda o‘qish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Bu yoshlarning o‘zini ijtimoiy jihatdan barqaror his qilishiga yordam beradi. Raqamli asrda yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlarda zararli ma’lumotlarga duch kelmoqda. Shuningdek, ekstremizm, narkotik moddalarga qaramlik, jinoyatchilik xavfi mavjud (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, 2023). Shu sababli, davlat axborot xavfsizligini ta’minlash, mediamadaniyatni oshirish va huquqiy tarbiyani kuchaytirishga katta e’tibor bermoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi jamiyatda chuqur islohotlar, jumladan, yoshlarning ijtimoiy faolligi va himoyasini kuchaytirishni ko‘zda tutadi. 2021-yil 30-iyunda qabul qilingan “Yoshlar bilan ishlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon asosida “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi amaliy tizimlar yaratildi. Ushbu tizimlar orqali davlat tomonidan yordamga muhtoj yoshlar aniqlanib, ularga moddiy va ma’naviy ko‘mak ko‘rsatilmoqda.

Yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashda quyidagi qonunchilik hujjatlari asosiy rol o‘ynaydi: “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil), “Yoshlar

daftari” tizimi, “Mahallabay” ishlash tizimi, Prezident huzuridagi Yoshlar siyosati va ma’naviy-ma’rifiy ishlar masalalari departamenti faoliyati. Bundan tashqari, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, “Barkamol avlod” markazlari, “Temurbeklar maktabi” kabi muassasalar yoshlarning tarbiyasi, ma’naviy kamoloti va xavfsizligini ta’minlashda faol ishtirok etmoqda. Yoshlar orasida ishsizlik darajasining kamaytirilishi ijtimoiy xavfsizlik uchun hal qiluvchi omillardan biridir. Shu bois, “Yoshlar mehnat guzari” va “Yoshlar sanoat zonalari” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Oliy ta’limda qamrov darajasining oshirilishi, zamonaviy kasb-hunarga yo‘naltirish, chet ellarda o‘qish imkoniyatlari yaratish orqali yoshlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga sharoit yaratilmoqda.

Bugungi raqamli davrda yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi ma’naviy tahdidlarga, yolg‘on axborot oqimiga duch kelmoqda. Shu sababli, axborot xavfsizligini ta’minlash, mediamadaniyatni rivojlantirish, yoshlarni ommaviy axborot vositalari orqali sog‘lom fikrga yo‘naltirish muhimdir. Bu borada maktab va oliy o‘quv yurtlarida huquqiy va ma’naviy tarbiya darslari kuchaytirilmoqda.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘nalishdagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar yoshlarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoyalashga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu boradagi faoliyatni yanada takomillashtirish, yoshlarning ehtiyojlarini chuqur o‘rganib, individual yondashuvni kuchaytirish orqali ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash mumkin. Yangi O‘zbekiston yoshlar ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash sohasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Qonunchilik bazasining kuchaytirilishi, amaliy dasturlar va yoshlarning ijtimoiy faolligi ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim omildir. Kelajakda bu siyosatni yanada rivojlantirish va samarali qilish uchun doimiy monitoring va yangi tashabbuslar zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, S. (2022). Yoshlar siyosati va ijtimoiy himoya tizimlari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
2. Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Yoshlar orasida ijtimoiy ko‘rsatkichlar. https://stat.uz/yoshlar
3. Islomova, N. (2022). Yoshlarning ijtimoiy xavfsizligi: muammolar va yechimlar. O‘zbekiston jamiyati, 5(3), 45-58.
4. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. (2023). Yoshlar va ijtimoiy xavfsizlik. https://who.int/uz/yoshlar
5. Karimov, T. (2023). Yangi O‘zbekiston va yoshlar siyosati. Milliy siyosat jurnali, 7(1), 23-37.
6. O‘zbekiston Mehnat vazirligi. (2023). Yoshlar bandligini ta’minlash dasturlari. https://mehnat.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2021). Yoshlar siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida. https://president.uz/uz/lists/view/3298
8. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari. (2016). Yoshlar siyosati to‘g‘risida. O‘zbekiston Qonun to‘plami.

9. Sultonova, M. (2020). Ijtimoiy xavfsizlik va yoshlar: nazariy va amaliy jihatlar. Ijtimoiy tadqiqotlar, 2(4), 101-110.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ И МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ

Хамидова Гульнара Юлдашбаевна
старший преподаватель кафедры Методика преподавания языков Бухарского областного центра педагогического мастерства

Аннотация. *В данной статье говорится о теоретических основах лингвокультурологии и ее прикладного аспекта, о разработанных основах лингвокультурологической теории слова, которое представляет собой теоретическую модель описания когнитивной и коммуникативной деятельности языковой личности.*

Ключевые слова. *Лексика, словарный состав, общение, ярус языка, отражение, изменения.*

Учебная практика преподавания русского языка как иностранного, подвергающаяся изменениям с точки зрения содержания учебного материала и новых подходов, направленных к достижению коммуникативно-культурологической компетенции иностранных обучающихся, требует, чтобы лингвокультуремы стали неотъемлемой составной частью учебников РКИ и коммуникации на уроках русского языка. Чтобы правильно понять собеседника в диалоге- представителя иной (русской) культуры, необходимо знать явления, сформировавшие русскую культуру.

Каждый естественный язык- продукт исторического развития, и одно из важнейших свойств языка состоит в том, что он находится в непрерывном движении и развитии. Без которого он неизбежно оторвался бы от жизни народа, носителя этого языка, и не смог бы выполнять свою основную общественную функцию-коммуникативную. «Народ отражает себя в языке своём, -писал И.И.Срезневский. – Народ действует, его деятельностью управляет ум, ум и деятельность народа отражается в языке его. Деятельность есть движение; ряд движений есть ряд изменений; изменения, происходящие в уме и деятельности народа, также отражаются в языке. Таким образом, изменяются народы, изменяются и языки их» [5].

В любой момент развития культуры язык полностью и адекватно отражает ее, иными словами, развитие общества во многом определяет прогресс в языке. Будучи культурным явлением, язык проявляется прежде всего на уровне лексики. Лексика, словарный состав, на долю которого приходится основная нагрузка в процессе общения, считается участком, наиболее подверженным изменениям. «Жизнь лексики сложна и многообразна и по сравнению с другими ярусами языка ярко двупланна. С одной стороны, ее основное назначение как первоэлемента общения- отражение действительности, т.е. всего многообразия мира и отношений, в которых живет общество. С другой стороны, в достаточно развитом языке способы отражения

действительности предрешены наличием и возможностями средств- лексико – семантических, синтаксических, стилистических, синонимических, словообразовательных и т.д. – и их внутренними отношениями. Лексическое значение слова- основное средство отражения действительности» [4]

Являясь так или иначе элементом языковой системы, слово вместе с тем не теряет своей особенности, испытывая на себе непосредственное действие «внешних» сил и отражая эволюцию определенных понятий, их историческую связь и преемственность, их зависимость от соответствующих социальных условий, реалий материальной и духовной жизни общества и отдельных групп. Обычно словарный состав рассматривают как «совокупность или сумму всех слов данного языка и вместе с тем, как определенный ряд отдельных элементов, не составляющих, строго говоря, органического целого»

Изучение лексики в культурно- историческом аспекте, предполагающее выявление связей между конкретным словом и этнографическими, историческими, экономическими реалиями, философскими и религиозными понятиями, эстетическими взглядами, этикой эпохи в целом, очень важно и необходимо, поскольку решение этой задачи дает точное представление об общественном и личностном сознании народа в ту или иную эпоху, об особенностях его духовной и материальной культуры, помогает изучить его менталитет.

Основная задача преподавания русского языка как иностранного – это обучение русскому языку как реальному и полноценному средству общения в разных формах: как в письменной, так и в устной. Решение этой прикладной задачи возможно лишь на фундаментальной, теоретической базе, на основе которой возможно решение практической задачи – научить иностранного обучающегося общаться в сфере науки, бизнеса, торговли, политики и т.д. Научить иностранного обучающегося общаться- устно и письменно, производить, а не только понимать речь – задача сложная, так как эффективность общения зависит от знания языка, условий и культуры общения, глубоких фоновых знаний.

В настоящее время в качестве цели обучения выдвигается не только коммуникативная, но и социальная, межкультурная компетенции. Речь идет о расширении целей обучения, включающих в себя знакомство с культурой данной страны в широком смысле слова. Школа должна стать символом радости от творческой деятельности и посредством языка и познания других культур.

Одним из эффективных языковых средств, помогающих более глубоко понимать не только закономерности в развитии любого народа, но и менталитет, являются лингвокультуремы, выраженные пословицами и поговорками. Проблема в том, что для иностранцев это, как правило, малознакомые языковые единицы. Поэтому необходимо над ними работать в учебном процессе. При помощи лингвокультурем можно очень эффективно работать над грамматикой, правильным произношением, углублять знания о культуре русского народа. Методов, приемов и подходов в преподавании

русского языка как иностранного с помощью лингвокультурем много. Их можно считать универсальным средством для обучения русскому языку и культуре, средством для обучения русскому языку и культуре, средством аккультурации иностранных обучающихся и их положительного отношения не только к изучаемому (русскому) языку, но и к его носителям, русским людям.

Необходимой предпосылкой эффективности работы является непринужденное употребление лингвокультурем в речи преподавателя - русиста. Должно быть ясно, какой дидактической цели преподаватель хочет на занятии добиться. Темп речи, ритм, разучивание графем, автоматизация орфографических навыков – все это можно разучивать посредством лингвокультурем, но для разучивания определенных фонетических явлений преподавателю необходимо отыскивать подходящие и примеры. Для формирования культурологической компетенции иностранных учащихся их отбор должен быть точно целенаправленным.

Фонетические упражнения, в которых для разучивания и укрепления отдельных фонетических явлений применяются лингвокультуремы, ставят перед собой следующие конкретные цели: разучивание ритма и темпа речи, разучивание графем, автоматизация орфографических навыков.

Научно- методологическое осмысление прикладного аспекта лингвокультурологии призвано теоретически обосновать и практически усовершенствовать ту важную область управления языковым учебным процессом, в которой учебный материал теснейшим образом соприкасается с познавательно – обучающими задачами.

Список использованной литературы.

1. Воробьев В. В. Прикладная лингвокультурология: слово и образ жизни русского народа. Под ред. Док. фил. наук, проф. члена-корр. РАЕН. М, РУДН, 2023г.
2. Аврорин В.А. К проблеме взаимоотношения между языком и культурой//Развитие языков и культур народов СССР в их взаимосвязи и взаимодействии. Уфа,1976.-С.14-22.
3. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества.-М.: Исскуство,1979.
4. Ожегов С.И. «Толковый словарь русского языка. Около 100 000 слов, терминов и фразеологических выражений» (28-е издание, переработанное). Москва: «Мир и образование», 2024.
5. Словарь Древне-Русского языка И.И. Срезневского. Москва: «Мир и образование», 1957.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ШКОЛЬНИКОВ

Фарманова Фарида Ураловна,
учитель русского языка СОШ №23
г. Самарканд

Аннотация: *В данной статье раскрываются методы и приемы развития творческих способностей школьников.*

Ключевые слова: *творчество, творческие способности, развитие, технология, метод, прием.*

При нынешнем прогрессе науки и техники, растущем количестве данных, которые нужно предоставить ученикам, мало применять привычные методы преподавания, требуется их улучшение, опирающееся на передовые технологии. Одним из направлений такого улучшения является создание идей развития креативных умений школьников на занятиях по русскому языку с первого этапа образования ребенка в учебном заведении. Средства развития творческих способностей используются практически на всех этапах обучения русскому языку.

Творческие (креативные) способности – это комплексные возможности школьника в совершении деятельности и действий, направленных на созидание им новых образовательных продуктов [1.с.21].

Опыт свидетельствует, что формирование креативных умений проявляется в следующих видах деятельности на уроках русского языка:

- эссе нестандартного характера: ученикам предлагалось написать эссе по выбору на темы «Послание бабушке», «История» или «Обращение в грядущее». Эссе оттачивают письменную речь, расширяют лексикон, стимулируют детское воображение, фантазию, креативность, реализуют стремление обратить на себя внимание сверстников. В конце уроков для проверки обратной связи с учениками можно предложить следующие вопросы:

Рефлексия о содержании урока (лингвистические понятия, правила):

1. Если бы изученное правило было супергероем, какая у него была бы суперсила и как бы он использовал её для спасения русского языка?

2. Представьте, что сегодня мы отправились в лингвистическое путешествие. Что было самым захватывающим открытием в этом путешествии и почему?

3. Если бы вы могли объяснить изученное правило инопланетянину, как бы вы это сделали, используя только жесты и мимику?

4. Какое слово/фраза/понятие с сегодняшнего урока засело у вас в голове как заноза? Почему именно оно?

5. Если бы грамматическая ошибка умела говорить, что бы она нам сказала о правиле, которое мы сегодня изучали?

6. Представьте, что вы - писатель, и изученное правило - ваш главный помощник. В каком жанре литературы вы бы использовали его наиболее эффективно?

7. Представьте, что через год вы смотрите на этот урок. Что бы вы хотели вспомнить о нем с гордостью?

Основной задачей на уроках русского языка я считаю - обучение умению целесообразно и правильно пользоваться языковыми средствами для выражения своих мыслей. В каждом ребенке нужно развить способность владеть словом, понимать слово, рассматривать его с разных сторон. Детей

необходимо как можно чаще ставить в позицию автора, давать возможность выразиться, раскрыть свою личность, выявить отношение к происходящему, выразить свои чувства, эмоции.

В ряд основных задач на уроках я ставлю перед собой задачу - научить мыслить, выражать свои мысли в устной и письменной форме, анализировать ответы сверстников, принимать участие в спорах по тем или иным вопросам, как с преподавателем, так и с классом. Развитие творческого потенциала учащихся - одна из задач обучения в школе. Какие же использовать методы и приёмы, чтобы ребёнок учился с охотой и желанием и одновременно развивал свои творческие способности.

Основные приёмы развития творческих способностей:

Мозговой штурм (Brainstorming): Классический метод, предполагающий генерирование максимально возможного количества идей за короткий промежуток времени, без критики и оценки. Важно поощрять самые безумные и необычные идеи.

Метод шести шляп мышления (Six Thinking Hats): Предложенный Эдвардом де Боно, этот метод предполагает рассмотрение проблемы с шести разных точек зрения, каждая из которых представлена шляпой определенного цвета (белая - факты, красная - эмоции, черная - критика, желтая - оптимизм, зеленая - творчество, синяя - управление процессом).

Ментальные карты (Mind Mapping): Визуальный способ организации информации, когда основная идея помещается в центр, а от нее радиально отходят ветви с подчиненными идеями и ассоциациями.

Метод морфологического анализа: Предполагает разбиение проблемы на составляющие элементы, а затем перечисление всех возможных вариантов для каждого элемента. Затем, комбинируя различные варианты, можно получить множество новых решений.

Метод аналогий: Поиск аналогий в совершенно разных областях для решения текущей проблемы. Например, можно поискать аналогии в природе, искусстве, истории и т.д.

Основная цель самостоятельной работы учащихся состоит в том, чтобы научить детей мыслить, анализировать и обобщать языковые факты, что в свою очередь положительно сказывается на усвоении учебного материала. В этих целях практикую задания типа "Объясни", "Докажи".

Большое место в преподавании русского языка у меня занимают творческие самостоятельные работы. Работа творческого характера повышают интерес детей к учению, развивают их наблюдательность, учат их самостоятельно решать поставленные цели. Важно и то, что в творческих письменных работах проявляются индивидуальные качества учащихся и особенности их языка.

Широко использую работу с опорными словами, сочинения-миниатюры по картине, сочинения на заданную тему, сочинения по пословице, по аналогии с прочитанным, по наблюдениям учащихся, составление письма подруге или другу, сочинение по началу. Описанные выше упражнения выполняются под

моим руководством, при этом степень самостоятельности учащихся постоянно возрастает. Умение анализировать, обобщать, логически правильно, чётко, а так же эмоционально строить свою речь необходимы при написании хорошего сочинения. Поэтому мы должны помочь развить им речевую деятельность. "Речевая деятельность" - это активный, целенаправленный процесс создания и восприятия высказываний, осуществляемый с помощью языковых средств в ходе взаимодействия людей в различных ситуациях общения.

Я применяю следующие этапы подготовки к сочинению:1) создание речевой ситуации. Цель - создание мотива, обеспечение необходимого эмоционального настроя, пробуждение интереса к работе, организация наблюдений, обсуждение задач и условий ситуации; 2) предварительная подготовка. Цель - создать базу для последующей работы, организовать накопление необходимых знаний, впечатлений; 3) написание сочинения.

Я убедилась, что составление сказок благотворно влияет на развитие творческих возможностей детей, сближает их с природой, развивает наблюдательность и любознательность, воспитывает добрые чувства, оживляет и делает интересным учебный процесс. При написании сказок расширяется словарный запас детей. Ребята учатся излагать свои мысли письменно. Особенно велик интерес детей к волшебным сказкам, что объясняется ничем не ограниченной свободой передвижений и действий в сказочном мире. Стараюсь разнообразить уроки развития речи, используя различные виды работ:

1.Экскурсия в картинную галерею по репродукциям картин профессиональных художников. Ситуация экскурсии сближает с жизнью такой жанр, как сочинение по картине.

2. Сценарий мультфильма по выполненным на доске рисункам удовлетворяет потребность подростка в оживлении рисунка и написании сочинения-повествования вместо сочинения-описания.

На уроке русского языка выполнение ребенком заданий должно приносить ему удовольствие от собственных открытий, что является субъективным творческим процессом. Творческие работы в продуманной системе работы учителя приводят к постепенному овладению богатством русского языка.

Литература:

1. Кислов А. В. Диагностика творческих способностей ребенка: практич. пособ. – М.: Речь, 2011. – С.21

2. Литневская Е. И., Багрянцева В. А. Методика преподавания русского языка в средней школе. – М.: Академия, 2009. – с.123.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALAR KUTUBXONASI VA ERTAK MARKAZINI TASHKIL ETISH

Haqberdiyeva Zamira Rajabboyevna
Samarqand pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim
metodkalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar kutubxonasi va ertak markazini tashkil etish orqali bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, nutq va tafakkurni rivojlantirish, milliy qadriyatlarimiz asosida ma’naviy-axloqiy tarbiya berish, ijodiy faolligini kuchaytirish hamda bolalarni bilim olish jarayoniga qiziqarli tarzda jalb qilish metodikalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kitob, bolalar kitobxonligi, didaktik material, o‘yin , syujetli o‘yinlar, til, nutq, tafakkur, san’at.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun kitob dunyosi va ertak olami ularning ma’naviy-axloqiy kamolotida, dunyoqarashini kengaytirishda, nutqini rivojlantirishda hamda tasavvurini boyitishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Kitob o‘qish odatini shakllantirish insonning butun hayoti davomida bilim olishga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlab boradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar kutubxonasi va ertak markazini tashkil etish bolalarni kitobga mehr qo‘yishga, milliy va jahon adabiyotidagi ertaklar orqali yaxshi-yomonni farqlashga, mehr-shafqat, do‘stlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o‘zida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kutubxona va ertak markazi faqat kitob saqlanadigan joy bo‘lib qolmay, balki bolalar uchun interfaol o‘quv va tarbiyaviy muhit yaratadi. Bolalar bu maskanda ertak qahramonlari bilan uchrashadi, ular bilan suhbatlashadi, sahnalashtirish va teatrlashtirilgan o‘yinlarda ishtirok etib, mustaqil ijod qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bunday sharoit esa bolaning ijodiy fikrlashini, nutqiy faolligini va ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazishda ertaklar muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ertaklar orqali bola yaxshilik va yomonlikni ajratadi, halollik, mehnatsevarlik, odob, vatanparvarlik kabi ezgu sifatlarni anglaydi. Shu bois bolalar kutubxonasi va ertak markazini tashkil etish – bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar kutubxonasi va ertak markazini tashkil etish orqali bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, nutq va tafakkurni rivojlantirish, milliy qadriyatlarimiz asosida ma’naviy-axloqiy tarbiya berish, ijodiy faolligini kuchaytirish hamda bolalarni bilim olish jarayoniga qiziqarli tarzda jalb qilinadi.Buning uchun esa quydagi vazifalarni amalga oshirish kerak bo‘ladi:

1. Bolalar yosh xususiyatlariga mos badiiy adabiyot va ertak kitoblarini tanlab, kutubxona fondini shakllantirish.

2. Kutubxona va ertak markazini bolalar uchun jozibador, qulay va didaktik muhit sifatida tashkil etish.

3. Ertak o‘qish, hikoya qilish, teatrlashtirilgan o‘yinlar va interfaol mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish.

4. Bolalarda mustaqil kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otish, ularda mutolaa madaniyatini shakllantirish.

5. Milliy va jahon ertaklari orqali bolalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni

Kutubxona bolalar uchun kitoblar xazinasi bo‘lib xizmat qilsa, ertak markazi ularni sehrli ertak olamiga olib kiradi. Bu jarayon bolaning nutqini, eslab qolish qobiliyatini, mustaqil fikrlashini va tasavvurini boyitadi. Ertaklarni tinglash va sahnalashtirish orqali bolalarda sahna madaniyati shakllanadi, ularda o‘z fikrini ochiq bayon qilish ko‘nikmalari kuchayadi. Bolalar kutubxonasida ularning yosh xususiyatlariga mos kitoblar tanlanib, qulay muhit yaratiladi, rangli va qiziqarli suratlar bilan boyitilgan kitoblar bola e’tiborini tortadi. Ertak markazida esa nafaqat kitob o‘qish, balki teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va ijodiy suhbatlar tashkil qilinadi. Bu esa bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirib, ularni jamoada o‘zini erkin tutishga o‘rgatadi. Bunday markaz bolalarda kitobga mehr uyg‘otadi, ularni ilm olishga qiziqtiradi va oilada ham mutolaa an’analarini mustahkamlashga yordam beradi. Eng asosiysi, kutubxona va ertak markazini tashkil etish orqali bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi mustahkamlanadi, ularning ijodkor, zukko va kitobsevar shaxs bo‘lib kamol topishiga zamin yaratiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida kutubxona va ertak markazini jihozlashda bir nechta muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda eng avvalo, bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish ehtiyojlari hisobga olinadi. Jihozlash jarayonida quyidagilarga e’tibor berish zarur:

Xavfsizlik – mebellar yumaloq burchakli, balandligi bolalar yoshiga mos bo‘lishi, materiallari esa ekologik toza va zararli moddalarni chiqarmaydigan bo‘lishi kerak. Kitob javonlari devorga mahkamlangan bo‘lishi xavfsizlikni ta’minlaydi.

Ergonomika va qulaylik – bolalar kitoblarni mustaqil olishi va joyiga qo‘yishi uchun javonlar past balandlikda bo‘lishi lozim. Kutubxonada yumshoq kreslolar, gilamchalar, yostiqchalar yoki kichik o‘rindiqlar bo‘lsa, bolalar kitob mutolaasini qulay sharoitda amalga oshiradilar.

Estetik muhit – xona yorqin, rang-barang, bolalarning e’tiborini tortuvchi dizaynda bezatilishi kerak. Devorlarda ertak qahramonlari tasvirlari, rangli suratlar va ko‘rgazmali materiallar bo‘lishi muhim. Bu muhit bolalarni kitob va ertak olamiga qiziqtiradi.

Kitob fondi – bolalar yoshiga mos, rangli, yirik harfli, ko‘proq rasmlar bilan boyitilgan kitoblar tanlanishi zarur. Milliy ertaklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tashqari, dunyo ertaklari ham o‘rin olishi maqsadga muvofiq.

Texnik vositalar – ertaklarni audio shaklda tinglash yoki animatsion variantlarda ko‘rish uchun televizor, proyektor, planshet yoki audio apparatlar qo‘llash mumkin. Bu bolalarning eshitish va ko‘rish orqali o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ertak burchagi – markazning bir qismi teatrlashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Unda qo‘g‘irchoqlar, maskalar, milliy kiyimlar, sahna atributlari saqlanadi. Bolalar bu burchakda ertaklarni sahnalashtirib ijodiy faoliyatini namoyish etadi.

Yoritish va shamollatish – xona yorug‘, tabiiy yorug‘lik yaxshi tushadigan, havosi toza bo‘lishi muhim. Qo‘shimcha chiroqlar ham ko‘zga zarar qilmaydigan darajada yumshoq yoritilgan bo‘lishi kerak.

Ota-onalar burchagi – bolalar bilan birga ota-onalar ham mutolaa qilishi uchun kichik joy ajratilsa, oilaviy kitobxonlik an’analarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kutubxona va ertak markazi uchun kitoblarni tanlashda eng asosiy tamoyil bolalarning ma’naviy-axloqiy, nutqiy va kognitiv rivojlanishiga xizmat qiladigan, ularning madaniy ildizlari bilan bog‘lovchi hamda dunyoqarashini kengaytiruvchi muvozanatni ta’minlashdir. Shu bois fondning asosiy og‘irligi milliy ertaklar va o‘zbek bolalar adabiyotiga berilishi lozim: xalq og‘zaki ijodidan olingan ertaklar va mahalliy yozuvchilarning asarlari bolalarga o‘z madaniyati, urf-odatlari va tiliga mehr uyg‘otadi, axloqiy qadriyatlarni sodda va tushunarli misollar yordamida singdiradi, tadqiqotlar va pedagogik amaliyot folk-ertaklar bolaning madaniy identifikatsiyasini va axloqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi.

Rangli, suratli va qisqa hikoyali kitoblar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qulay manbalardan hisoblanadi. Bu yoshda bolalarning diqqat markazi ko‘proq tasvirlarga qaratilganligi sababli, ular matndan ko‘ra ko‘proq rasmlardan mazmunni tushunishga harakat qilishadi. Shu bois tanlanadigan kitoblarning ko‘p rangli, chiroyli suratlar bilan bezatilgan bo‘lishi, kattaroq va aniq harflarda yozilishi, qisqa hamda sodda mazmunga ega bo‘lishi muhimdir. Bunday kitoblar bolaning nafaqat ko‘rish qobiliyatini, balki tasavvurini, mantiqiy bog‘lash ko‘nikmalarini, voqeani rasm orqali tushunib olish malakasini ham rivojlantiradi. Shuningdek, qisqa hikoyali kitoblar bolalarda kitobxonlikka mehr uyg‘otadi, chunki ular tez va oson tushuniladi, bola oxirigacha tinglab yoki o‘qib chiqishga qiziqadi. Shu tarzda, suratli va qisqa hikoyali kitoblar bolani kitob bilan do‘stlashishga, ertak va hikoyalarni eslab qolishga, ularni qayta so‘zlab bera olishga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda,maktabgacha ta’lim tashkilotida kutubxona va ertak markazini tashkil etish bolalarning butunlay kompleks rivojiga xizmat qiladigan strategik jihat bo‘lib, u nafaqat kitob jamg‘armosi, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya, nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalar, tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim makon yaratadi. Markazning asosiy fondi milliy ertaklar va o‘zbek bolalar adabiyotiga ustuvorlik berilgan holda shakllantirilishi lozim, chunki xalq ertaklari va mahalliy yozuvchilar asarlari bolalarda milliy identifikatsiya, axloqiy qadriyatlar va tilga muhabbatni mustahkamlaydi; shu bilan birga, ehtiyotkorlik bilan tanlangan jahon adabiyoti va zamonaviy o‘zbek mualliflari asarlari dunyoqarashni kengaytirish hamda zamon bilan hamnafas bo‘lish uchun zaruriy qo‘shimcha manba bo‘ladi. Umuman olganda, kutubxona va ertak markazi maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya faoliyatini boyituvchi, milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg‘unlashtiruvchi, bolalarning kelajakdagi o‘qish va ijodga bo‘lgan munosabatini

shakllantiruvchi muhim investitsiya hisoblanadi; uni bosqichma-bosqich, pedagogik va jamoatchilik hamkorligini hisobga olgan holda amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkiloti uchun ,,Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Takomillashgan ikkinchi nashr.Toshkent 2022
2. Qodirova F., Tashpulatova Sh. “Bolalar bog‘chasida metodik ishlar”– Toshkent.: Voris 2017 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim ta’lim va tarbiyaning Davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-son qarori
4. “Nutq o‘stirish kitobi” Nasiba Erxonova, Zuhra Ro‘ziyeva.
5. Dono Boboyeva “Bolalar nutqini o‘stirish” Toshkent.-2021-yil
6. Sodiqova SH.A. “Maktabgacha pedagogika”, “Tafakkur sarchashmalari” – Toshkent. 2013 yil.

ПРОБЛЕМА РАЗНОУРОВНЕВОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В УЗБЕКСКОЯЗЫЧНЫХ ГРУППАХ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

Файзуллина Наргиза Дамировна
преподаватель – ассистентКаттакурганского государственного педагогического института

Аннотация. *В последние годы в вузах Узбекистана наблюдается значительное изменение контингента студентов, что привело к актуализации проблемы разноуровневости в учебных группах. Особенно остро эта проблема проявляется на занятиях по русскому языку в узбекскоязычных группах, где студенты демонстрируют широкий диапазон языковой компетенции – от начального до продвинутого уровня. Настоящая статья анализирует причины возникновения разноуровневых групп, трудности, с которыми сталкиваются преподаватели и студенты, и предлагает возможные решения: диагностика уровня, дифференцированное обучение, тьюторство, проектная деятельность, внедрение цифровых ресурсов и адаптивных систем оценки. Подчёркивается необходимость методической гибкости и индивидуального подхода в условиях современной языковой подготовки.*

Ключевые слова: *диагностика уровня, дифференцированное обучение, адаптивная система оценок.*

В последние годы система высшего образования Узбекистана претерпела значительные изменения. Одним из последствий увеличения доступности высшего образования стало снижение минимального проходного балла при приёме в вузы, что, в свою очередь, привело к резкому контрасту в уровне подготовки студентов. Особенно ярко это проявляется в изучении иностранных

языков, в том числе русского, где нередки случаи разноуровневых учебных групп.

Как отмечают Классен и Одегова (2019), «обучающиеся группируются в соответствии с профилем факультета и годом обучения, а не в соответствии с достигнутым уровнем компетенции по иностранному языку»[80]. Это делает обучение менее эффективным как для сильных, так и для слабых студентов, и требует пересмотра методических подходов в организации учебного процесса.

Проблема разноуровневого контингента студентов на уроках русского языка в узбекскоязычных группах – одна из наиболее острых в вузах Узбекистана, так как учащиеся представляют собой разнородную аудиторию. Студенты из крупных городов (Ташкент, Самарканд, Бухара) зачастую демонстрируют уверенное владение русским языком, обусловленное обучением в русскоязычных школах или пребыванием в двуязычной среде. В то же время студенты из отдалённых и сельских регионов зачастую имеют минимальные знания языка, что существенно осложняет учебный процесс.

При этом преподавание русского языка осуществляется по единой программе, как правило, ориентированной на уровень B2. Такая ситуация приводит к множеству проблем:

– слабые студенты теряют мотивацию из-за непонимания материала;

– сильные студенты скучают из-за низкого темпа занятий;

– групповая работа затруднена, так как сложно сформировать пары или группы с сопоставимым уровнем подготовки;

– коммуникативный подход не реализуется в полной мере.

Для решения обозначенных проблем целесообразно на начальном этапе провести диагностическое тестирование, включающее входные письменные и устные испытания, с целью определения уровня знаний каждого студента. На основе полученных результатов рекомендуется разделить учебную группу на подгруппы, сформированные по уровню подготовки[81]: либо объединять студентов с аналогичным уровнем (сильные вместе, слабые вместе), либо комбинировать сильных и слабых в зависимости от специфики задания.

Важным инструментом повышения эффективности учебного процесса является внедрение системы тьюторства или наставничества, предусматривающей назначение студентов с более высоким уровнем знаний в качестве тьюторов для слабых обучающихся, работающих в парах или небольших группах. Такая практика способствует развитию компетенций обеих сторон: сильные студенты укрепляют собственные знания через повторение и

---

[80] Классен Е. В., Одегова О. В. Разноуровневое обучение иностранному языку в высшей школе // Вопросы методики преподавания в вузе. 2019. Т. 8. № 30. С. 8–19.

[81] Осадчая О. В. Специфика работы в разноуровневой группе студентов неязыкового вуза // Известия ЮФУ. Технические науки. 2010. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-raboty-v-raznourovnevoy-gruppe-studentov-neyazykovogo-vuza (дата обращения: 10.10.2025).

объяснение материала, в то время как слабые получают необходимую поддержку и мотивацию к обучению.

Кроме того, использование проектной деятельности представляется эффективным методом, поскольку тематика проектов позволяет каждому студенту внести вклад в соответствии с его возможностями. Сильные обучающиеся могут сосредоточиться на подготовке текстов и презентаций, тогда как слабые – на сборе материалов, оформлении и подготовке простых докладов. Таким образом, проектная деятельность способствует дифференцированному подходу и развитию командной работы, повышая общий уровень усвоения учебного материала.

Для достижения положительного результата преподавателю необходимо фиксировать уровни владения языком у студентов (A1, A2, B1) и на основе этого корректировать образовательный процесс, осуществляя дифференцированное обучение. В рамках одного занятия рекомендуется применять разноуровневые задания, что требует предварительной разработки материалов с градацией по сложности: базовые задания для уровней A1–A2 и более сложные – для уровней B1–B2. Эффективными инструментами в данном контексте являются разноуровневые карточки, задачи и тексты, которые студенты могут выбирать в соответствии со своим уровнем, а также организация работы в мини-группах, сформированных по интересам и уровню подготовки.

Учитывая ограниченность времени курса, достижение высоких результатов за короткий срок является сложной задачей, поэтому студентам рекомендуется уделять дополнительное время самостоятельному изучению русского языка. В этом помогают многочисленные онлайн-ресурсы и курсы, доступные в сети Интернет. Для слабых студентов целесообразно предусмотреть дополнительные занятия или рекомендовать использование интерактивных платформ и приложений, таких как YouTube, Quizlet, Duolingo и «Грамота.ру». Введение элементов адаптивного электронного обучения (e-learning) позволит платформам автоматически подбирать задания в соответствии с уровнем знаний каждого студента; примерами таких платформ являются Google Classroom и Moodle.

Одним из ключевых факторов мотивации обучающихся к изучению русского языка может стать разработка гибкой системы оценки, ориентированной на динамику прогресса каждого студента, а не на абсолютные показатели. Такой подход способствует формированию позитивной учебной среды и стимулирует устойчивое развитие языковых компетенций.

Проблема разноуровневого контингента студентов на уроках русского языка в узбекскоязычных группах остаётся одной из наиболее актуальных в условиях современной системы образования Узбекистана. Она требует гибкого и персонализированного подхода со стороны преподавателя, использования современных методических и цифровых инструментов, а также пересмотра традиционной модели обучения. Даже в рамках существующих программ возможно успешное обучение при условии внедрения дифференцированных

заданий, проектной работы, онлайн-поддержки и мотивационно ориентированной системы оценки. Только так можно обеспечить эффективность обучения в условиях разноуровневой языковой среды.

Список использованной литературы:

1. Осадчая О. В. Специфика работы в разноуровневой группе студентов неязыкового вуза // Известия ЮФУ. Технические науки. 2010. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-raboty-v-raznourovnevoy-gruppe-studentov-neyazykovogo-vuza (дата обращения: 10.10.2025).

2. Классен Е. В., Одегова О. В. Разноуровневое обучение иностранному языку в высшей школе // Вопросы методики преподавания в вузе. 2019. Т. 8. № 30. С. 8–19.

O‘QUVCHILARDA O‘QISH MATNLARINI TAHLIL QILISH VA XULOSA CHIQARISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Eshonkulova Hilola Rajab qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish darslari jarayonida matnni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy hamda amaliy asoslari ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Maqolada o‘qish savodxonligini rivojlantirishda o‘qituvchining metodik-pedagogik yondashuvi, interfaol usullar hamda matn bilan ishlash bosqichlarining o‘quvchi kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy asoslar orqali isbotlab berilgan. Natijada, o‘quvchilarda tafakkur, mantiqiy bog‘lanishlarni anglash, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarining shakllanishi ta’lim sifatini oshirish omili sifatida talqin etilgan.*

Kalit so‘zlar. *O‘qish savodxonligi, matn tahlili, xulosa chiqarish, RMS modeli, tanqidiy fikrlash, tafakkur, o‘quvchi kompetensiyasi, boshlang‘ich ta’lim.*

Kirish. Ta’lim tizimining bosh maqsadi – shaxsni mustaqil fikrlaydigan, o‘qiganini anglay oladigan va o‘z fikrini asosli tarzda ifodalashga qodir etib tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda boshlang‘ich ta’lim bosqichi hal qiluvchi o‘rin tutadi, chunki aynan shu davrda o‘quvchi ilk bor matn bilan ongli ishlash, mazmunni tahlil qilish, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash va xulosa chiqarish jarayonini o‘zlashtira boshlaydi.

O‘qish darslari o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, so‘z boyligini hamda tahlil va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. Shu sababli o‘qish fanining o‘zlashtirilishi jarayoni nafaqat o‘qish malakasini shakllantirish, balki o‘quvchilarda tafakkur, tahlil qilish va mustaqil fikr yuritish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Asosiy qism. O‘qish matnini tahlil qilish – bu o‘quvchining matndan ma’no hosil qilishi, mazmuniy aloqalarni aniqlashi, sabab–oqibat munosabatlarini tushunishi va o‘z fikrini xulosa shaklida ifodalashidir. L.S. Vygotskiy “Bola nutqining dastlabki

vazifasi muloqotdir. Keyinchalik, o‘sish jarayonida bolaning ijtimoiy nutqi differensiallashib, asta-sekin intellektual va kommunikativ turlarga ajraladi. Demak, tafakkur bilan bog‘liq ichki nutq aslida tashqi, ya’ni ijtimoiy nutq asosida paydo bo‘ladi”, – deya ta’kidlaydi olim. Ya’ni, fikrlash jarayoni nutq orqali shakllanadi [6].

Demak, o‘qish darslarida matnni tahlil qilish orqali o‘quvchi tafakkuri va nutq faoliyati bir vaqtda rivojlanadi. B. Blum fikricha, “tahlil va sintezni talab qiluvchi topshiriqlar tushunishni talab qiluvchi topshiriqlarga nisbatan murakkabroqdir”. Blum tomonidan ishlab chiqilgan bilish faoliyati taksonomiyasida yuqori darajali tafakkur amallari – tahlil, sintez va baholash – aynan o‘qilgan matn asosida ilk shakllanishini kuzatamiz[7]. I.A.Zimnyaya esa tahlil jarayonida o‘quvchi tomonidan bilish faoliyatining turli darajalari, shuningdek, tafakkur va idrok jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi [8].

Matn tahlilining psixologik asoslarini A.N.Leontev o‘zining “Faoliyat nazariyasi”da chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, o‘quvchi har bir matnni o‘qib tahlil etar ekan, avvalo unda maqsad va motiv hosil bo‘ladi, so‘ngra idrok va tafakkur birligi shakllanadi[5]. Agar bu jarayon o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, o‘quvchining mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati bosqichma-bosqich rivojlanadi. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchini tayyor xulosani yod olishga emas, balki uni mustaqil yaratishga yo‘naltirishi zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun matnlar bilan ishlash metodikasida quyidagi pedagogik vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi:

– matn tarkibini tahlil qilish va unga reja tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– matndagi asosiy g‘oya va ikkilamchi tafsilotlarni farqlay olish;

– obrazli vositalar va stilistik uslublarni tushuntirishga tayyor bo‘lish;

– matn asosida suhbat tashkil etish va o‘quvchilarni mustaqil fikrga yo‘naltirish.

Shuningdek, matn asosida ijodiy ishlash – hikoya tuzish, voqeani davom ettirish, qahramon nomidan xat yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning tasavvur va tafakkurini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi [2]. D.Toshpulatova o‘z asarida adabiy ta’limning zamonaviy metodlarini boshlang‘ich ta’limga moslashtirishga doir tavsiyalar beradi [3]. Muallif matn ustida ishlashni interaktiv usullar, kichik guruhli mashg‘ulotlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitish zarurligini ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tgan.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qilgan matnni tahlil qilish, mazmunini anglash va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois o‘qitishda innovatsion va interfaol yondashuvlardan foydalanish zaruriy ehtiyojga aylangan.

Shunday samarali yondashuvlardan biri – RMS (Reading–Mapping–Sharing) o‘qitish modeli bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘qish, tushunchalarni bog‘lash va o‘z fikrlarini boshqalar bilan baham ko‘rish faoliyatiga asoslanadi. Mazkur model o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘qilgan matndan muhim g‘oyalarni ajratishga, shuningdek, o‘z nuqtai nazarini dalillar asosida ifodalashga o‘rgatadi. Natijada, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

RMS modeli o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda dastlabki bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu modelning boshqa o‘qitish modellari ustidan ustunligi shundaki, u o‘quvchilarni faolroq o‘qishga, ma’lumotlarni vizual tarzda xaritalashga va o‘z tushunchalarini tengdoshlari bilan baham ko‘rishga undaydi. Natijada, o‘quvchilarning savodxonligi, axborotni tartibga solish hamda muloqot qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

Matn ustida ishlashda RMS modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Reading (O‘qish) – o‘quvchilar o‘quv jarayonida dolzarb ma’lumotlarni olish uchun turli manbalardan materiallarni chuqur o‘rganadilar;

2. Mapping (Xaritalash) – o‘quvchilar o‘zlari olgan ma’lumotlardan asosiy g‘oyalar, tushunchalar va bog‘liqliklarni aks ettiruvchi aqliy xaritalar yaratadilar;

3. Sharing (Bo‘lishish) – o‘quvchilar o‘zlari olgan bilim va xulosalarni tengdoshlari oldida taqdimot yoki muhokama shaklida ifoda etadilar [4].

RMS modeli muhokama va g‘oya almashuvini qo‘llab-quvvatlovchi hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim unsurlaridan biridir. O‘quvchilar o‘z xaritalari va qarashlarini baham ko‘rish orqali farazlarni tahlil qiladi, nuqtai nazarlarni taqqoslaydi hamda faktlarga asoslangan dalillar yordamida o‘z fikrlarini mustahkamlaydilar. Ushbu model nafaqat kognitiv (aqliy) salohiyatni rivojlantiradi, balki muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa o‘qish jarayonining samaradorligini va ta’limiy maqsadlarning to‘liq amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda matnni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchining o‘qish savodxonligi, tafakkuri hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi tomonidan matn ustida tizimli va interfaol metodlarga asoslangan faoliyat tashkil etilganda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, dalillash, umumlashtirish va baholash kompetensiyalari shakllanadi.

RMS (Reading–Mapping–Sharing) modeli asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda o‘qiganini chuqur tahlil qilish, asosiy g‘oyani aniqlash va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda matn tahlilini samarali yo‘lga qo‘yish o‘qish savodxonligini xalqaro mezonlar darajasiga ko‘tarish hamda ta’lim sifatini oshirishning muhim metodik yo‘nalishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida’gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son.

2. X.Islomova. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati // T.:Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025-yil . – № 7. – B. 428

3. D.Toshpulatova. Adabiy ta’lim va zamonaviy metodlar. – Toshkent: Noshir, 2019. – 200 b.

4. Hudson, M. E., & Test, D. W. Evaluating the Evidence Base of Shared Story Reading to Promote Literacy for Students with Extensive Support Needs. Research and Practice for Persons with Severe Disabilities. – 2011. – 36(1–2), 34–45. https://doi.org/10.2511/rpsd.36.1-2.34

5. A.N.Leontev. “Deyatelnost. Soznanie. Lichnost” // Moskva: Pedagogika, 1975. – 56-bet.
6. L.S.Vygotskiy. “Myshlenie i rech”. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 45-bet.
7. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longmans, 1956. – 79-bet.
8. I A. Zimnyaya. Pedagogik psixologiya asoslari. – Moskva: Logos, 2010. – 33-bet.

MAMLAKATIMIZDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNING DOLZARB MUAMMOLARI QIYOSIY TAHLILI HAMDA YECHIMI

Matyoqubov Hikmatjon Shuhratovich[1,2],
Payzullayeva Xilola Rozimbayevna[1],
Atajanov Shavkat Ikramovich[1],
Karimov Hurshidbek Sharipboyevich[1],
Sabirov Ravshanbek Yuldashbayevich[1],
Barno Allaberganova Ulug‘bekovna[3]
[1]*Urganch Davlat Pedagogika Instituti, Gurlan 1, 220100, Urganch, Uzbekiston*
[2]*Urganch Davlat Universiteti, H.Olimjon 14, 220100 Urganch, Uzbekistan*
[3]*TTA Urganch filiali akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada AQSh, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda fizika fanining tajribasi o‘rganilib chiqiladi. Ayni bu mamlakatlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlar, ta’lim texnologiyalari va o‘quv majmualari(dasturlari) tahlil qilinadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta’lim tizimida fizika fanini o‘qitishda yondashuvlar xalqaro tajriba bilan taqqoslanadi. Qiyosiy tahlil asosida zamonaviy ta’limning ham umumiy, ham milliy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi*

Kalit so‘zlar: *fizika ta’limi, xorijiy tajriba, zamonaviy metodlar, o‘quv texnologiyalari, qiyosiy tahlil, interaktiv ta’lim, innovatsion yondashuvlar, O‘zbekiston ta’lim tizimi, STEM, o‘qitish samaradorligi.*

Kirish. Fizika fani insoniyatning tabiatni anglashdagi asosiy vositalaridan biridir. Uni chuqur tushunish zamonaviy texnologiyalarni yaratish, energetika, muhandislik, axborot texnologiyalari kabi sohalarda ilg‘orlikka erishishning garovidir. Shu sababli, dunyo miqyosidagi ilg‘or ta’lim tizimlari fizika fanini o‘qitishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu maqolada turli rivojlangan mamlakatlarda fizika fanini o‘qitishning ilg‘or usullari, ta’lim texnologiyalari va ularning O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan qiyosiy tahlili keltiriladi.

Ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili

1. ***AQSH (Amerika Qo‘shma Shtatlari)***

− fizika o‘qitishda **Inquiry-Based Learning** (izlanishga asoslangan ta’lim) keng qo‘llaniladi.

− har bir dars “nima uchun?” degan savol bilan boshlanadi.

− ta’limda **PhET simulyatsiyalari** (Kolorado universiteti tomonidan yaratilgan) faol ishlatiladi.

− yirik STEM markazlari va ilmiy loyihalar o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasidan qat’i nazar, jalb qiladi.

2. ***Germaniya***

− dual ta’lim tizimi: 50% nazariya, 50% amaliyot.

− fizika darslari tajriba yoki virtual laboratoriyalar asosida tashkil qilinadi, ularning maktablarida real tajriba asbob uskunalari mavjud.

− kasb-hunar maktablari bilan integratsiya qilingan − bu o‘quvchilarni ishlab chiqarishga tayyorlaydi.

3. ***Finlyandiya***

− fizika faniga “hayotiy muammolar” orqali kirib boriladi.

− talabalar o‘zlari mavzuni tanlashga haqli: masalan, “qanday qilib avtomobil to‘xtaydi?”, “quyosh panellari qanday ishlaydi?”.

− baholash o‘sish dinamikasiga asoslangan tur yordamida baholanadi. Bu juda samarali natija beradi.

4. ***Yaponiya***

− darslarda haqiqiy fizika hodisalarning videolavhalari ko‘rsatiladi, 3D ko‘rinishidagi kichik modellari, vizual tajribalardan keng foydalaniladi.

− o‘quvchilar va tinglovchilar mini guruhlarda loyihalar(proektlar) asosida ishlaydi.

− “tajriba kuni” deb ataluvchi darslar orqali o‘quvchilar faqat eksperiment o‘tkazadi.

5. ***Janubiy Koreya***

− raqamli laboratoriyalar (virtual eksperimentlar) juda rivojlangan.

− interaktiv doskalar va planshetlar orqali o‘quvchilar individual eksperimentlar bajaradi.

− har oyda “Mini Science Fair”lar tashkil etiladi.

6. ***Shvetsiya***

− fizika darslari gender tengligi va ijtimoiy muammolar bilan bog‘langan holda olib boriladi: masalan, “energiya yetishmovchiligi” yoki “qizlarning STEM sohalariga qiziqishi”.

− Shvetsiyada keng tarqalgan metodlardan biri sifatida quyidagilar keltirilgan − problem-based learning, flipped classroom.

7. ***Buyuk Britaniya***

− o‘quv dasturlari A-level va GCSE orqali chuqurlashtirilgan holda o‘qitiladi.

− fizika STEM loyihalari bilan integratsiya qilingan: dronlar, robototexnika, kvant optikasi haqida boshlang‘ich bilimlar beriladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan qiyosiy tahlil

Asosiy ko‘rsatkich	**Ilg‘or davlatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya va b.)**	**O‘zbekiston ta’limi**
Dars yondashuvi	Izlanishga, loyihaga asoslangan, interaktiv	Asosan nazariy, darslik markazida
Amaliy mashg‘ulotlar	Har darsda tajriba, simulyatsiya, loyihalar	Laboratoriya ishlari kam yoki mavjud emas
O‘quv resurslari	Virtual lablar, PhET, o‘yinlar, mobil ilovalar	Asosan darsliklar, ba’zi maktablarda planshet
O‘qituvchi tayyorligi	Malaka oshirish doimiy, grant asosida, xalqaro kurslar	Davlat dasturlari, ammo o‘zini rivojlantirish imkoniyati cheklangan
O‘quvchilarning faolligi	Mustaqil izlanish, loyiha, jamoaviy ishlar	Pasiv, ko‘proq testlar asosida
STEM integratsiyasi	To‘liq joriy qilingan	Endigina shakllanmoqda

Taklif va tavsiyalar

1. **Interaktiv metodlarni joriy qilish**: “Inquiry-based learning”, “problem-based learning”, “flipped classroom” kabi metodlarni bosqichma-bosqich o‘qituvchilarga o‘rgatish.

2. **Laboratoriya bazasini modernizatsiya qilish**: maktablarga PhET, Algodoo, Crocodile Physics kabi virtual laboratoriyalarni joriy etish.

3. **STEM loyihalarini rivojlantirish**: fizika fanidan maktablararo tanlovlar, “Fizika haftaligi”, mini-loyihalar tashkil qilish.

4. **Xalqaro resurslardan foydalanish**: MIT OpenCourseWare, Khan Academy, Coursera kabi platformalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish va foydalanishga tavsiya etish.

XULOSA. Fizika fanini o‘rganish va o‘rgatish – murakkab, lekin judayam muhim fandir. Rivojlangan mamlakatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, bu fandan o‘quvchilarni jalb qilish uchun interaktivlik, amaliyot, erkinlik va zamonaviy texnologiyalar zarur. O‘zbekiston ham bu mamlakatlar yo‘lidan andoza olmoqda. O‘z sharoitlarimizdan kelib chiqqan holda rivojlangan g‘arb va sharq tajribasini o‘zimizga moslashtirib qo‘llash orqali, salohiyatli, kreatif fikrlovchi raqobatbardosh yosh kadrlarimizni yetishtirishimizga ishonchim komildir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarori. *STEM-ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*, 2017-yil 22-aprel.

2. *Education at a Glance 2023: OECD Indicators*. OECD Publishing.https://www.oecd.org/education

3. National Research Council (USA). Washington, DC: National Academies Press, 2012.

4. Ministry of Education, Singapore (MOE). *Science Curriculum Framework for Upper Secondary Levels*, 2022.https://www.moe.gov.sg

5. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder.https://phet.colorado.edu

6. Ibragimov A. va boshqalar (2021). *O‘zbekiston Respublikasida fizika fanini o‘qitishning metodik asoslari.* Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

7. Jahon banki hisobotlari (2020). https://www.worldbank.org

8. Khan Academy (2024). *High School Physics Courses.* https://www.khanacademy.org/science/physics

9. Ministry of Education and Culture, Finland (2022). *National Core Curriculum for Basic Education*. https://www.oph.fi

10. Harper, K. A., & DeWaters, J. (2018).

11. MIT OpenCourseWare (2024). https://ocw.mit.edu

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA EKOLOGIK ONGNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Ergashev Bobomurod Eshbo‘ri o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika institutiMilliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich
Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida ekologik ongni rivojlantirish strategiyasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Ekologik ongning shakllanishida ta’lim, madaniyat va milliy qadriyatlarning o‘zaro aloqasi, inson va tabiat munosabatining falsafiy mohiyati, tarixiy manbalar va zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida yoritilgan. Maqolada ekologik ta’limning amaliy samaradorligi, yosh avlodda ekologik mas’uliyat, vijdon va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning ekologik siyosati, “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi va ekologik kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimining istiqbollari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ong, ekologik ta’lim, ijtimoiy-falsafiy tahlil, barqaror rivojlanish, “yashil iqtisodiyot”, ekologik mas’uliyat, ta’lim strategiyasi, milliy qadriyatlar, ekologik tafakkur, inson va tabiat uyg‘unligi.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida, jumladan, ta’lim tizimi va ekologik madaniyatni shakllantirish borasida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. XXI asr boshlaridan boshlab ekologik muammolar nafaqat tabiiy muhitning, balki inson ma’naviyatining ham dolzarb yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda “ekologik ong” tushunchasi nafaqat tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq tor soha emas, balki insonning ijtimoiy mas’uliyati, axloqiy qarashlari va vatanparvarlik ruhining ifodasiga aylangan. Shu boisdan, O‘zbekiston ta’lim tizimida ekologik ongni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, uni milliy

qadriyatlar, innovatsion metodlar va global ekologik standartlar asosida shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Ekologik ongni rivojlantirish, avvalo, insonning borliq bilan o‘zaro aloqasini falsafiy nuqtai nazardan tushunishni talab etadi. Inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik qadimdan Sharq falsafasining markazida bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Geodeziya” asarida “Inson tabiatning bir bo‘lagidir, u undan uzilib yashay olmaydi” degan fikrni bildirgan[1]. Bu fikr bugungi ekologik ta’lim konsepsiyasining falsafiy poydevorini tashkil etadi. Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalar inson va tabiat o‘rtasidagi ma’naviy uyg‘unlikni inson kamolotining zarur sharti sifatida baholaganlar.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik siyosatning asosiy hujjatlaridan biri - 2019-yilda qabul qilingan “Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun va “Ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi”dir. Bu hujjatlar zamonaviy ta’lim jarayonida ekologik ongni shakllantirishni strategik vazifa sifatida belgilab beradi. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi”da ekologik ta’limni modernizatsiya qilish, yoshlar ongida “yashil tafakkur”ni shakllantirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Ekologik ongning shakllanish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, uni uch asosiy bosqichda ko‘rish mumkin: bilish, qadrlash va amaliyot. Bilish bosqichida inson tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi, qadrlash bosqichida tabiatni ichki axloqiy qiymat sifatida qabul qiladi, amaliyot bosqichida esa bu bilim va qadriyatlarni kundalik hayotda qo‘llashga o‘tadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimi bu jarayonlarning markazida turadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning 1200 dan ortiq umumta’lim maktablarida ekologiya, biologiya, geografiya fanlari bilan integratsiyalashgan maxsus ekologik yo‘nalishdagi darslar joriy etilgan. Respublika bo‘yicha 14 ta oliy ta’lim muassasasida “Ekologiya va atrof muhit muhofazasi” yo‘nalishida bakalavriat dasturlari, 7 ta universitetda magistratura bosqichlari faoliyat yuritmoqda[2]. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Xorazm viloyatlarida ekologik markazlar tashkil etilib, yoshlar o‘rtasida ekologik loyihalar va tanlovlar o‘tkazilmoqda.

Biroq, bu jarayonning samaradorligini to‘liq ta’minlash uchun tizimli yondashuv zarur. Ekologik ongni rivojlantirish strategiyasi faqat o‘qitish dasturlarini yangilash bilan cheklanmasligi lozim. U milliy madaniyat, xalq pedagogikasi, diniy va falsafiy qarashlar bilan uzviy bog‘lanishi kerak. Masalan, tasavvuf ta’limotida insonning borliq bilan uyg‘unlik holati “vahdati vujud” konsepsiyasi orqali ifodalangan bo‘lib, bu zamonaviy ekologik falsafaga yaqin yondashuvdir. Jaloliddin Rumiy “Har bir qushning sayrashi ham tabiatning zikridir” deganida, tabiat va ruh o‘rtasidagi birligiga urg‘u bergan[3].

Ekologik ongni rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining roli ham nihoyatda muhim. Raqamli ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, multimedia darsliklari orqali ekologik bilimlar interfaol tarzda yetkazilmoqda. Masalan, 2023-yilda Ta’lim vazirligi tomonidan joriy etilgan “Eko-ta’lim” platformasida 80 mingdan ortiq o‘quvchi ishtirok etib, ekologik loyihalar bo‘yicha

onlayn musobaqalarda qatnashgan. Bu nafaqat o‘quv jarayonini raqamlashtirish, balki yoshlarning ekologik tafakkurini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ekologik ongni rivojlantirish jarayonida muammolar ham mavjud. Eng avvalo, ta’lim tizimida ekologik fanlarning amaliyotga yo‘naltirilmaganligi, o‘qituvchilarning malakasi yetarli darajada bo‘lmasligi, ekologik tarbiyaning uzluksiz tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi muhim to‘siq hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘yicha ekologiya yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning 37 foizi o‘z sohasida maxsus qayta tayyorlov kurslarini o‘tmagan[4].

Ekologik ongni shakllantirishda tarixiy tajribadan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Amir Temur davrida tabiat va suv resurslarini boshqarish madaniyatiga jiddiy e’tibor berilgan. Samarqand atrofidagi bog‘lar, suv inshootlari va sug‘orish tizimlari nafaqat iqtisodiy, balki ekologik tafakkurning mahsuli bo‘lgan. Temur tuzuklarida “Yurtni obod qilish uchun yer, suv va daraxtni asrash kerak” degan tamoyil ilgari surilgan[5]. Bu tamoyil bugungi ekologik strategiyalar uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi, maqollar va urf-odatlar ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “Yerni asragan – elni asraydi”, “Daraxt ekkan – savob topar” kabi maqollar ekologik tafakkurning xalq ongida qadimdan shakllanganini ko‘rsatadi. Bunday milliy qadriyatlar asosida yaratilgan ekologik ta’lim modeli yoshlarning ekologik mas’uliyatini oshirishda kuchli tarbiyaviy vosita bo‘la oladi.

Bugungi global ekologik inqiroz sharoitida O‘zbekistonning ekologik siyosati xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. 2022-yilda mamlakatimiz BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030” dasturiga muvofiq ravishda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu hujjatda ekologik ta’limni modernizatsiya qilish, barcha bosqichlarda ekologik ongni rivojlantirishni asosiy strategik maqsad sifatida belgilab berdi. Shu maqsadda “Yashil maktablar”, “Eko-klublar” va “Ekologik volontyorlar harakati” tashkil etildi.

Ekologik ongni rivojlantirish jarayonining istiqbollari esa ta’lim tizimining falsafiy asoslarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Chunki ekologik ong – bu insonning tabiat bilan munosabatini axloqiy, estetik va g‘oyaviy jihatdan tahlil qila bilish qobiliyatidir. O‘zbekistonlik olim A.Nishonovning ta’kidlashicha, “Ekologik tafakkur – bu inson ongining eng yuqori bosqichi bo‘lib, u vijdon bilan uyg‘un holda faoliyat ko‘rsatadi”[6]. Shu boisdan, ekologik ta’limda faqat fakt va qonuniyatlarni o‘rganish emas, balki ekologik vijdon, ekologik mas’uliyat, ekologik axloq kabi tushunchalarni singdirish zarur.

O‘zbekiston tajribasida ekologik ongni shakllantirishda ta’lim, madaniyat, san’at va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi muhim. Teatr sahnalari, kinofilmlar, ekologik tematikaga bag‘ishlangan badiiy asarlar orqali bu g‘oyalarni ommalashtirish ijtimoiy ongda mustahkam o‘rin egallaydi. Masalan, “Yashil diyor” filmi, “Tabiat – ona yurak” spektakli, “Ekosan” loyihasi orqali 2 milliondan ortiq yoshlar ekologik faoliyatga jalb etilgan.

Kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan, ekologik ongni rivojlantirish strategiyasi uch yo‘nalishda takomillashishi mumkin:

- ta’lim dasturlarini ekologik kompetensiyalarga yo‘naltirish;
- ekologik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish;
- ekologik qadriyatlarni milliy g‘oya tizimiga singdirish.

Bunda ekologik falsafa asosiy metodologik rolni bajaradi. Chunki ekologik falsafa inson, tabiat va jamiyatning bir butun tizim sifatidagi uyg‘unligini tahlil etadi. Qadim yunon faylasufi Aristotel “Tabiat – o‘zida maqsadni mujassam etgan hayotdir” deganida, inson faoliyatining ekologik ma’nosini belgilab bergan[7]. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ta’lim tizimida ekologik ongni shakllantirish strategiyasi shaxsning dunyoqarashini, mas’uliyatini va axloqiy mezonlarini qayta baholashga undaydi.

Yosh avlodning ekologik tafakkurini rivojlantirish, asosan, ularning o‘qish jarayonida amaliy loyihalarda ishtirok etishlari orqali kuchayadi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik ta’lim markazida o‘quvchilar Aralbo‘yi hududidagi qumlanish jarayonlarini o‘rganish, daraxt ekish, suv tejovchi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish bo‘yicha tajriba olib borishadi. Bu esa ekologik bilimlarni hayotiy amaliyot bilan bog‘laydi.

Ta’lim strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri – ekologik yetakchilarni tayyorlashdir. Har bir maktab va kollejda ekologik yetakchilar klubi tashkil etilib, ular ekologik loyihalarni boshqaradi. Shu orqali yoshlar o‘zini nafaqat ta’lim oluvchi, balki jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs sifatida his etadi. Statistik tahlillarga ko‘ra, 2024-yil yakunida mamlakat bo‘yicha 3200 ta ta’lim muassasasida bunday klublar faoliyat yuritgan va 1,5 milliondan ortiq o‘quvchi ekologik faoliyatda ishtirok etgan.

Shu tariqa, O‘zbekiston ta’lim tizimida ekologik ongni rivojlantirish strategiyasi nafaqat tabiatni asrash, balki insonning o‘zligini anglash, ma’naviy barkamollikka erishish va global mas’uliyatni his etish yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ekologik ongni rivojlantirish – bu kelajak avlodning tabiat bilan uyg‘un yashash madaniyatini yaratish, milliy qadriyatlarni global ekologik tafakkur bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. *Geodeziya*. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 62.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobot ma’lumotlari, 2023-yil.
3. Jaloliddin Rumiy. *Masnaviy ma’naviy*. – Tehron: Intishoroti Surush, 1988. – B. 145.
4. “Ekologik ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha tahliliy ma’lumot”, Ekologiya vazirligi, 2024-yil.
5. *Temur tuzuklari*. – Toshkent: Sharq, 1991. – B. 37.
6. Nishonov A. *Ekologik tafakkur falsafasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 118.
7. Aristotel. *Fizika*. – Moskva: Nauka, 1983. – B. 42.

INTERFAOL METODLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Jumaniyozova Nafosat Farxod qizi
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Interfaol metodlar o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada boshlang‘ich sinf darslarida “Aqliy hujum”, “Blits-so‘rov”, “Klaster”, “Insert” kabi interfaol metodlarning samaradorligi tahlil qilinib, o‘qituvchi faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda interfaol metodlarning ahamiyati va ularni qo‘llash mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, interfaol metod, o‘qitish samaradorligi, innovatsion texnologiya, muloqot, o‘quvchi faolligi, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и практические основы применения интерактивных методов в процессе начального образования. Интерактивные методы занимают важное место в развитии познавательной активности учащихся, формировании самостоятельного мышления, коммуникативных и кооперативных навыков. В статье анализируется эффективность использования таких интерактивных методов, как “Мозговой штурм”, “Блиц-опрос”, “Кластер”, “Инсерт” в начальных классах, а также приводятся практические рекомендации по организации педагогической деятельности на основе современных образовательных технологий. Результаты исследования способствуют определению роли и механизмов использования интерактивных методов в повышении качества начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, интерактивный метод, эффективность обучения, инновационные технологии, коммуникация, активность учащихся, педагогический подход.

Abstract. This article explores the theoretical and practical foundations of using interactive methods in primary education. Interactive teaching methods play a crucial role in developing students’ cognitive activity, independent thinking, communication, and collaboration skills. The study analyzes the effectiveness of interactive methods such as “Brainstorming,” “Blitz Survey,” “Cluster,” and “Insert” in primary school lessons and provides practical recommendations for organizing pedagogical activities based on modern educational technologies. The research results contribute to identifying the significance and mechanisms of applying interactive methods to improve the quality of primary education.

Keywords: primary education, interactive method, teaching effectiveness, innovative technology, communication, learner activity, pedagogical approach.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida yangicha yondashuv va interfaol o‘qitish metodlariga

ehtiyoj ortib bormoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining tafakkuri, nutqi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faolligini oshirish, ularni bilim egallash jarayoniga faol jalb etishning muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4884-son qarorida[1], shuningdek, “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi”[2] da ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, interfaol metodlarni keng joriy etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol metodlarning qo‘llanilishi nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarni darsda faol ishtirok etishga, o‘z fikrini erkin ifoda etishga, jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quv jarayonini biryoqlama ma’lumot uzatishdan ijodiy hamkorlikka asoslangan ta’lim shakliga o‘tkazadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish darajasi hali yetarli emas. Ba’zi o‘qituvchilar an’anaviy usullarga tayanib, o‘quvchilarni faqat bilim qabul qiluvchisi sifatida ko‘radi. Shu sababli, darslarda interfaol metodlarni tizimli qo‘llash, ularning samaradorlik mezonlarini aniqlash va o‘qituvchi kompetensiyasini oshirish zarurati dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar sharhi. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlarni qo‘llash masalasi so‘nggi yillarda mahalliy va xorijiy pedagogika fanida dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida keng o‘rganilmoqda. Zamonaviy ta’lim nazariyasida interfaol metodlar o‘quv jarayonini faollashtiruvchi, o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi va bilimni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiruvchi samarali vosita sifatida e’tirof etiladi.

Rus olimlari A.M. Matyushkin, M.V. Klarin, V.A. Slasteninlarning tadqiqotlarida interfaol o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy mexanizmi sifatida talqin etilib, unda o‘quvchi ta’lim subyekti sifatida faol ishtirok etishi zarurligi ta’kidlanadi[3]. Xorijiy pedagoglardan J. Dewey, J. Piaget, L.S. Vygotskiy va J. Brunerlarning ishlari esa interfaol ta’limning psixologik asoslarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi[4].

L.S. Vygotskiy o‘zining “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasida o‘quvchi o‘qituvchi yoki tengdoshlar bilan muloqot jarayonida o‘zining bilim salohiyatini kengaytirishini asoslab bergan. Unga ko‘ra, interfaol o‘qitish – bu o‘zaro ta’sir va hamkorlik orqali shaxsiy rivojlanishni ta’minlovchi samarali vositadir[5]. J. Bruner esa “kashf etish orqali o‘rganish” tamoyilini ilgari surib, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda o‘yin, muhokama, savol-javob kabi interfaol shakllarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan[6].

O‘zbekistonlik olimlardan M. Ochilov, N. Sayidahmedov, S. To‘raeva, N. Nishonov, R. Mavlonova va boshqalar o‘z tadqiqotlarida interfaol metodlarning

ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilganlar[7]. Xususan, N. Sayidahmedov interfaol ta’limni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotga asoslangan jarayon sifatida talqin etib, unda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, o‘quvchi esa faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘lishi lozimligini qayd etadi[8].

UNESCO tomonidan chop etilgan “Innovative Pedagogy for Primary Education” hisobotida interfaol metodlarning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kommunikativ madaniyat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni alohida e’tirof etilgan[9]. Shuningdek, OECD tomonidan o‘tkazilgan “Future of Education” tadqiqotida interfaol o‘qitish metodlari XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy mexanizmi sifatida ko‘rsatilgan[10].

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quv jarayonini faollashtirish, o‘quvchilarda motivatsiyani kuchaytirish va ta’lim sifatini oshirishning eng muhim pedagogik vositasidir. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ularni samarali joriy etish milliy ta’lim tizimi uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1. Interfaol metodlarning mohiyati va turlari. Interfaol metodlar – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro muloqot, hamkorlik va faol ishtirok asosida bilim, ko‘nikma hamda kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish usullari majmuasidir[11]. Ular o‘quvchini dars jarayonining faol subyekti sifatida shakllantiradi, o‘z fikrini erkin ifoda etish, muammoli vaziyatni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan interfaol metodlarga quyidagilar kiradi:

“Aqliy hujum” (Brainstorming) – o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish uchun;

“Insert” – matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning tushunish, tahlil va fikr bildirish malakasini rivojlantirish uchun;

“Klaster” – muayyan mavzuga oid tushunchalarni guruhlash va ularning o‘zaro aloqasini ko‘rsatish orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi;

“Blits-so‘rov” – tezkor savol-javoblar orqali o‘quvchilarning e’tibor, diqqat va nutq faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodlarning samarali qo‘llanilishi o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, sinfdagi o‘quv muhiti va o‘quvchilarning faollik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

2. Interfaol metodlarning boshlang‘ich ta’lim sifatiga ta’siri

Pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar qo‘llanilganda o‘quvchilarning darsdagi faolligi 25–30 foizga ortadi, o‘z fikrini ifoda etish va savollarga javob berish ko‘nikmasi esa 1,5 barobar yaxshilanadi. Masalan, “Aqliy hujum” metodi yordamida o‘quvchilar yangi mavzuni o‘zlari kashf etishga harakat qiladi, bu esa ularning bilimni mustaqil o‘zlashtirish motivatsiyasini kuchaytiradi. “Klaster” usuli esa o‘quvchilarga o‘rganilgan tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar mavzuni nafaqat yod oladi, balki uni tahlil qiladi, qayta ifodalaydi va amaliyotda qo‘llay oladi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlarni tizimli qo‘llagan o‘qituvchilar darslarda o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini 40% ga oshirgan, darsning o‘zlashtirish samaradorligi esa 30–35% yuqori natijani ko‘rsatgan.

3. Tadqiqot metodlari va amaliy tajriba

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Pedagogik kuzatish – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish amaliyoti o‘rganildi;

So‘rovnoma va suhbat – o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida interfaol metodlarga bo‘lgan munosabat aniqlanib, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi;

Tajriba-sinov ishlari – tanlab olingan 2 ta sinfda (tajriba va nazorat guruhi) 6 haftalik interfaol darslar tashkil etildi.

Tajriba natijalari: Tajriba guruhi darslarida “Aqliy hujum”, “Insert”, “Klaster” va “Debat” metodlari kompleks qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy usullar (ma’ruza, savol-javob) saqlab qolindi. Yakuniy natijalar quyidagicha bo‘ldi:

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Darsda faollik	88	62
O‘z fikrini ifoda etish ko‘nikmasi	84	58
Mavzuni tushunish darajasi	86	60
Guruhda ishlash qobiliyati	81	55

1-jadval. Natijalar tahlili.

Natijalardan ko‘rinadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi

4. O‘qituvchi kompetensiyasining roli

Interfaol metodlarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bog‘liq. N. Sayidahmedov ta’kidlaganidek, o‘qituvchi dars jarayonining markazida emas, balki uni boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, darslarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha muntazam trening va seminarlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Tajriba-sinov darslari natijalarida o‘quvchilarning dars jarayonida ishtirok darajasi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari va o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati sezilarli darajada oshgan.

Mazkur holat Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasini [5] ham amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Chunki interfaol darslarda o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi, o‘qituvchi esa ularning o‘zaro muloqotini boshqaruvchi rolini bajaradi. Bu jarayon o‘quvchilarning nutqiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini tabiiy ravishda ta’minlaydi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham o‘xshash xulosalar keltiriladi. Masalan, **UNESCO** hisobotida interfaol metodlar o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi va bilimni mustahkamlovchi eng samarali ta’lim texnologiyasi sifatida qayd etilgan [9]. **OECD** tomonidan o‘tkazilgan “Future of Education” tadqiqotida esa XXI asr kompetensiyalarini (kommunikativlik, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash) shakllantirishda interfaol yondashuvlar markaziy o‘rinda ekanligi ta’kidlanadi[10].

Mahalliy pedagogik adabiyotlarda ham bu fikr o‘z tasdig‘ini topadi. **R. Mavlonova [7]** o‘z tadqiqotida interfaol metodlar o‘quvchilarda “faol o‘rganish” muhiti yaratib, ularning bilish jarayonini boshqarishga o‘rgatishini ta’kidlagan. Shuningdek, **N. Nishonov [8]** ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik hamkorlikni mustahkamlaydi, darslarni ijodiy muloqotga aylantiradi, degan xulosaga kelgan.

Xorijiy amaliyotda esa “interactive classroom” konsepsiyasi keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniya va Finlyandiya maktablarida boshlang‘ich sinf darslarining 60 foizdan ortig‘ida interfaol usullar asosiy metod sifatida joriy etilgan. Ular o‘quvchilar orasida hamkorlikni rivojlantirish, tanqidiy tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda o‘zini ifoda etish, muammoli vaziyatlarda yechim topish va o‘z fikrini himoya qilish madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa **kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim** tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar, shuningdek tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaraga ega. Ular dars jarayonini o‘qituvchi markazidan o‘quvchi markaziga yo‘naltiradi, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini kuchaytiradi va o‘rganish jarayonini ijodiy muloqotga aylantiradi. Tajriba natijalari asosida interfaol metodlarni kompleks qo‘llagan sinflarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, faolligi va darsdan qoniqish ko‘rsatkichlari nazorat guruhlariga nisbatan 25–30 foiz yuqori bo‘lgani aniqlandi. Bu esa interfaol o‘qitishning o‘quv jarayonidagi amaliy samaradorligini isbotlaydi.

Xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlili interfaol metodlarni o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, ijodkorlik va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiruvchi universal ta’lim mexanizmi sifatida tavsiflaydi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim tizimida interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va innovatsion fikrlash darajasini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4884-son qarori. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2022. -64 b.

3. Матюшкин А.М., Кларин М.В., Сластенин В.А. Педагогические технологии: теория и практика. – Москва: Педагогика, 2018. -236 с.

4. Dewey J. *Experience and Education*. –New York: Macmillan,2016. -144 p.

5. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. -159p.

6. Bruner J. *The Process of Education*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2009. -176 p.

7. Mavlonova R.A. va boshq. *Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. -134 b.

8. Sayidahmedov N. *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar*. – Toshkent: Fan, 2019. -188 b.

9. UNESCO. *Innovative Pedagogy for Primary Education: Global Report*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. -76 p.

10. OECD. *The Future of Education and Skills 2030 Report*. – Paris: OECD Publishing, 2022. -92 p.

11. Jalolov J.J. *Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. -112 b.

TALABALARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHNING MOTIVATSION JIHATI

Botirova Zilola Nodirovna
Osiyo texnologiyalar universiteti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida konteksli yondashuv asosida talabalarda parodoks bilimlarni shakllantirishni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari xususida ma’lumotlar aks ettirilgan va bundan professor-o‘qituvchilar fan mazmunini yoritishda nazariy va amaliy jihatdan keng qo‘llab kelayotganligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Ehtiyoj, motiv, motivatsiya, faoliyat, muloqot, atvor, yorqinlik, yangilik, maroqlilik, qiziqarli o‘qitish, istiqbolli-undovchi motivlar.*

Talabalarning o‘quv-ijodiy faoliyatining motivatsion jihati muhim hisoblanib, faoliyatni faollashtirishda “ehtiyoj”, “motiv” va “motivatsiya” tushunchalari asosiy rol o‘ynaydi.

Ehtiyoj – insonning biror narsaga bo‘lgan zarurati, bu biologik zarurat (oziq-ovqat, havo va boshq.) yoki ijtimoiy (kommunikativ, bilish ehtiyojlari) bo‘lishi mumkin. “Ehtiyojning yo‘naltirilgan shakli motiv hisoblanib, bu ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning ma’lum bir faollik turiga (faoliyat, muloqot, atvor) ichki intilishi bo‘lib hisoblanadi. Motiv sifatida tashqi dunyo predmetlari, tasavvurlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular va kechinmalar, ya’ni ehtiyoj mujassam bo‘lgan hamma narsa bo‘lishi mumkin”

O‘quv motivi – bu o‘quv jarayonida o‘quv-bilish faoliyatni amalga oshirishda talabani undovchi maylidir. O‘quv-bilish faoliyatning motivi quyidagicha talqin qilinadi:

1) ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyat uchun motivatsiya – subyektning faolligini keltirib chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilovchi tashqi yoki ichki shartlar majmui;

2) faoliyat yo‘nalganligining undovchi va belgilovchi tanlovi, u amalga oshirish sababi bo‘lgan predmet;

3) harakatlarni tanlash asosida yotgan anglangan sabab.

Talabalarning o‘quv-bilish faoliyati motivlarining tasniflaridan biri V. A. Slastyonin tomonidan taklif qilingan. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) shaxsning hissiy namoyon bo‘lishiga asoslangan bevosita-undovchi motivlar: “ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular, yorqinlik, yangilik, maroqlilik, qiziqarli o‘qitish, o‘z faoliyatiga yuqori baho olish istagi va boshq”.;

2) istiqbolli-undovchi motivlar – “ularning asosida umuman bilimning va xususan, o‘quv fanining ahamiyatini tushunishga, fanning ijtimoiy va amaliy ahamiyatini bilishga, aniq bilim va ko‘nikmalar; fanning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘liqligi yotadi”.;

3) intellektual-undovchi motivlar – “ularga bilish jarayonining o‘zidan qoniqish olish: bilimga qiziqish, qiziquvchanlik, o‘z madaniy saviyasini kengaytirish istagi, ma’lum ko‘nikmalarni egallash, o‘quv-bilish muammolarni hal qilish jarayoniga ishtiyoq kiradi”

Talabalar faolligini oshirishda o‘quv jarayonining bosqichlari va ularning maqsadlari aniq hisobga olinishi lozim. Chunki har bir bosqich o‘z maqsadiga erishsagina ijobiy natijaga erishish mumkin. O‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda o‘qituvchi talabalarni faoliyatga jalb etish omillarini aniq bilishi lozim.

Mazkur omillar quyidagilar:

1) fanning amaliy ahamiyatini bilish, jamiyat hayotidagi o‘rnini anglashi uchun har bir fanni o‘z rivojlanish negizida o‘zlashtirish;

2) talabalarning ilmiy bilim, ko‘nikmalarini amaliy jarayonlarda qo‘llay olish uyg‘unligi;

3) talaba shaxsining o‘quv-bilish faoliyatida mustaqil izlanishi, turli manbalar orqali o‘zlashtirgan bilimlarini faoliyatga jalb qila olishi, tadqiqiy ishlarga ishtiyoqi;

4) talabaning akademik qobiliyatini hamda pedagogik mahoratini turli usullar bilan rivojlantirish orqali o‘quv faoliyatini samarasini oshirish.

Yuqoridagi har bir omil o‘ziga xos bo‘lib, xususiyatlarini tasniflashga harakat qilamiz.

*Fanni o‘z rivojlanishida o‘rgan*ish talabalarning mustaqil ishlarini tadqiqot ishlar bilan yanada yaqinroq bog‘lashga undashning bir usuli hisoblanadi. Ilmiy bilimlardan foydalanish va ilmiy uslubni yaxshi bilgan talaba muammolarni o‘qituvchi bilan hamkorlikda muammo yechimi ustida mustaqil ishlash orqali hal qilish imkoniyatidan xabardor bo‘ladi. Fanlardan o‘zlashtirilgan integrativ bilimlar muvofiqlashtiriladi. Bunda o‘rganilayotgan muammoning usuli va mohiyatiga e’tibor beriladi. Talabalar nafaqat ma’lumotni egallabgina qolmay, balki o‘rganiladigan fanning rivojlanish bosqichlari, uning ilmiy asoslari hamda amaliy jarayonini ham o‘zlashtirib boradilar. Bu vaziyatda talabalarning fanni o‘rganishga qiziqishi ortishi, ilmiy tadqiqot olib borishga moyillik ko‘rsatishi, yangi g‘oyalar taklifi bilan chiqishi,

ularda ijodkorlikni namoyon bo‘lishini kafolatlaydi. O‘qituvchilar fanni o‘qitishni joriy holati va kelajakdagi ahamiyatini, rivojlanishini, jamiyat uchun ahamiyat kasb etishini talabalarga yetkaza olishi lozim. Talabalarda fanga qiziqish uyg‘otish ularning o‘quv-ijodiy faoliyatini samarali tashkil etilishini omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Abduqodirov A.A. “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. –Toshkent: “Fan va texnologiyalar”. 2015. – B.161.

2. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: “Iste’dod”. 2008. – B. 180.

3.Botirova Z.N. Pedagogical and psychological foundations of the organization of educational and cognitive activities of students on the basis of a contextual approach in higher educational institutions "Экономика и социум" №8(123) 2024.

4.Botirova Z.N. Kontekstli yondashuv asosida o‘quv-ijodiy faoliyatda talabalarni paradoks fikrlashga o‘rgatish metodlari. Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.1996-yilda tashkil etilgan.5-son 2024.

5.Botirova Z.N. Professional competence of english teachers: an in-depth analysis. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/10/1] ISSN 2181-7324.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ILMIY QARASHLAR TAHLILI

Sh.A. Xujakulov
Samarqand viloyti pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy qarashlar haqida so‘z yuritilgan va misollar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kompetent, axborot-kommunikatsiya vositalari, bulutli texnologiya, raqamli kompetentlik, globallashuv, ta’lim texnologiyalari.*

Mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Bu jarayon pedagogik kadrlarni axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish, ularning kasbiy mahoratini zamon talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan.

Mazkur yo‘nalishdagi islohotlar 2019-yil 8-oktabrda tasdiqlangan PF–5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” [1] oliy ta’lim muassasalarida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu konsepsiya doirasida ta’lim sifatini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni axloqiy barkamollik va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish maqsad qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida

amalga oshirilib borilmoqda [2]. Strategiyada ta’lim sohasini raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, unda pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni innovatsion texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash choralari ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonda ham ta’lim sohasini raqamlashtirish, elektron kutubxonalar, onlayn ta’lim platformalari va raqamli resurslardan foydalanishni kengaytirish kabi vazifalar belgilangan [3].

XXI asrda ta’lim jarayonining samaradorligi, avvalo, pedagoglarning raqamli kompetentligiga bevosita bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishlari ta’lim sifatini oshirish, talabalarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsion muhit yaratishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, raqamli kompetentlik tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan turlicha talqin qilinib, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi.

Raqamli kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda turli olimlar o‘zlarining ilmiy konsepsiyalari va metodologik yechimlarini amaliyotda qo‘llaganlar.

Galindo-Domínguez va M.J. Bezanilla, bo‘lajak boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim o‘qituvchilarining raqamli kompetentligini o‘rganar ekan, ularning ko‘nikmalari turlicha darajada rivojlanganini, ayrim sohalarda esa jiddiy bo‘shliqlar mavjudligini ta’kidlaydi [4]. Peters, M., Ejjaberi, E., Martinez, J., Fabregues, J., esa Oliy ta’lim tizimidagi pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarni tahlil qilib, tizimli yondashuv va aniq metodologik tamoyillar zarurligini qayd etadilar [5]. Revuelta-Domínguez, Guerra-Antequera, González-Pérez, Pedrera-Rodríguez, González-Fernándezlar raqamli o‘qituvchilik kompetentligini tizimli ko‘rib chiqib, ushbu tushunchaning tarkibiy qismlarini – texnik ko‘nikmalar, metodik yondashuv va innovatsion faoliyatga tayyorgarlik kabi jihatlar orqali izohlaydilar [6]. Yang H, esa o‘qituvchilarda “Teacher Digital Competency” (TDC) modeli orqali raqamli savodxonlikdan raqamli kompetentlikka o‘tish jarayonini tahlil qilib, raqamli kompetentlikni pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida ta’riflaydi [7].

Shuningdek, mamlakatimiz olimlaridan Turdaliyev Sodikjon Muminjonovichning “Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentliligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida” [8] nomli maqolasida bugungi globallashuv davrida raqamli kompetentlikni rivojlantirish o‘qituvchilar tayyorlash jarayonining ajralmas qismi ekanini ta’kidlasa, U. Jumaeva esa, chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli savodxonlikni rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, LMS platformalari va interaktiv dasturlar o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini mustahkamlashda samarali vosita [9] ekanligini ta’kidlasa, O. X. Mamaziyayev esa ingliz tili bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarda ICT vositalaridan foydalanish darajasini tahlil qilib, ularning raqamli kompetentligini shakllantirishda motivatsion omillar muhim ekanligini ko‘rsatadi [10].

Yana bir qator tadqiqotlarda aralash ta’lim texnologiyalari [11], bulutli texnologiyalar [12] hamda xalqaro kompetentlik ramkalari [13] orqali raqamli kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini mustahkamlash – bu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki mamlakatning raqamli iqtisodiyot va jamiyatda rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan strategik vazifadir. Bu jarayon faqatgina texnik ko‘nikmalarni egallash bilan chegaralanmasdan, metodik, tashkiliy va innovatsion yondashuvlarni qamrab olgan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli muhitda samarali ishlashga tayyorlashni nazarda tutadi. Shu sababli, ushbu sohada kompleks, tizimli va uzluksiz yondashuvni amalga oshirish orqali ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish va kelajak avlodni zamon talablariga mos mutaxassislar sifatida tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”dagi PF–5847-sonli Farmoni. – QHMMB, 06/19/5847/3887-son, 09.10.2019-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmoni. – QHMMB, 06/20/6079/1349-son, 06.10.2020 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – QHMMB, 06/22/60/0082-son, 29.01.2022 y.

4. Galindo-Domínguez, H., & Bezanilla, M. J. *Digital competence in the training of pre-service teachers: Perceptions of students in the degrees of early childhood education and primary education*. Taylor & Francis, 2021.

5. Peters, M., Ejjaberi, E., Martinez, J., & Fabregues, J. *Teacher digital competence development in higher education: Overview of systematic reviews*. AJET, 2022.

6. Revuelta-Domínguez, F.-I., Guerra-Antequera, J., González-Pérez, A., Pedrera-Rodríguez, M.-I., & González-Fernández, A. *Digital Teaching Competence: A Systematic Review*. MDPI, 2022.

7. Yang, H. *From digital literacy to digital competence: the teacher digital competency (TDC) framework*. Taylor & Francis, 2024.

8. Turdialiyev S.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentliligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida // “Modern issues of mathematics and its teaching: approaches and solutions”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. APRIL 25-26, 2025. – URL: https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0077/77_i_20250505_192033_3.17.pdf

9. Jumaeva, U. *The Importance of Developing Digital Literacy Skills in Optimizing the Professional Competence of Future Foreign Language Teachers*. OpenScience, 2023.

10. Mamaziyayev, O. X. *ICT Engagement and Digital Competence of Preservice English Teachers*. Academics.uz, 2024.

11. Rasulova, N. Y., & Normatov, O. M. *Blended Learning as a Tool for Developing Students’ Digital Competence*. Web of Journals, 2023.

12. Mamarajabov, O. E. *Improving Digital Competence Through Cloud Technologies*. Scholar Express, 2023.

13. Rakisheva, A., & Witt, A. *Digital competence frameworks in teacher education – A literature review*. University of Arizona, 2024.

MA’NAVIY BARKAMOL TARBIYACHI – TARAQQIYOT SARI YETAKLOVCHI KUCH

Jabborova Munira Saparboy qizi
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi yetakchi mutaxassis.
Yunusova Surayyo Zopirkulovna
Payariq tumani 13-DMTT direktori

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O‘zbekistonni qurish jarayonida ta’lim-tarbiya tizimining, xususan, ma’naviy barkamol avlod tayyorlashning ahamiyati va buning uchun amalga oshirilayotgan islohatlar yoritilgan. Shuningdek ta’limning barcha bosqichlarida milliy qadriyatlar asosida tarbiyani tashkil etish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, “Kelajak soati” kabi yangi shakllardan foydalanish va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash borasidagi ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Ma’naviy tarbiya, barkamol inson, ta’lim islohotlari, maktabgacha ta’lim, “Kelajak soati”, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, uzluksiz tarbiya, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiyalar, yoshlar tarbiyasi.*

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, uning poydevorini mustahkamlash zamonaviy, raqobatbardosh va yuksak salohiyatli ta’lim tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda jahonning yetakchi davlatlari tomonidan ta’lim sohasini rivojlantirish birinchi darajadagi ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilib, uning natijalari orqali mamlakatlarning global maydondagi raqobatbardoshligi belgilab berilmoqda.

2019-yil 8-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi. Ushbu hujjatda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, ilm-fan bilan integratsiyani kuchaytirish, zamonaviy bilim va innovatsiyalarni joriy etish maqsad qilib qo‘yilgan.

Mazkur strategik yondashuv keyingi yillarda davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan quyidagi fikrda yana bir bor o‘z ifodasini topdi: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz,

Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”[82].

Konsepsiya oliy ta’lim tizimini bosqichma-bosqich isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ham belgilab bergan bo‘lib, unda quyidagi muhim masalalar alohida o‘rin egallaydi:

- “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish;
- ta’lim sifatini yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- raqamli ta’lim platformalaridan keng foydalanish;
- yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash;
- ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va xalqaro miqyosda tan olinadigan natijalarga erishish”[*3*].

Konsepsiyaga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar ongiga milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik, adolat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan:

- Har bir guruhda **xalq og‘zaki ijodi, milliy ertaklar, maqollar, topishmoqlar** orqali tarbiyaviy suhbatlar o‘tkazilmoqda;
- Bolalar ishtirokida **vatanparvarlik ruhidagi badiiy chiqishlar, musobaqalar va teatr sahnalari** tashkil etilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimida ishlayotgan pedagoglar uchun **ma’naviy tarbiya bo‘yicha maxsus treninglar, seminarlar** o‘tkazilmoqda. Ularda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanmoqda:

- Bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish metodikasi;
- Oila va bog‘cha hamkorligini kuchaytirish orqali ma’naviy tarbiyani muvofiqlashtirish;
- Diniy ekstremizm va yot g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishda erta yoshdan boshlab tarbiya berish masalalari.

Konsepsiya asosida yangi **didaktik materiallar, videodarslar, interaktiv o‘yinlar** ishlab chiqilmoqda. Ularda ma’naviy qadriyatlar bolalar ongiga mos ravishda yoritilmoqda. Masalan:

- “Mehrjon”, “Vatan do‘sti”, “Halol bolajon” kabi o‘yinli mashg‘ulotlar orqali bolalarda ijobiy xarakter fazilatlari shakllantirilmoqda;
- Tarbiyachilar ishtirokida **ochiq eshik kunlari, ma’naviy-ma’rifiy kechalar** o‘tkazilmoqda;

Mazkur konsepsiyada ilgari surilgan har bir yo‘nalish ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, yosh avlodni zamon talablariga mos, bilimli va tashabbuskor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 25-avgust kuni 308-son ‘‘Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar

[82] http://www.president.uz/. Shavkat Mirziyoyev, Prezident nutqi, “Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi”, rasmiy saytidagi maqola, 2020-yil 30-oktabr.

samaradorligini oshirish to‘g‘risida’’gi buyrug‘i qabul qilindi. Unga ko‘ra, yangi o‘quv yilidan boshlab **“bog‘cha – maktab – oliy ta’lim”** tizimida yagona g‘oyaviy tarbiya tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Barcha ta’lim tashkilotlarida haftaning **har dushanba kuni** “Kelajak soati” darslari tashkil etilib, zarur qo‘llanmalar milliytarbiya.uz platformasi orqali yetkaziladi. **Ushbu buyruqning 1-ilovasida** bog‘chalarda 2025-2026-o‘quv yilida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning namunaviy ish rejasi keltirilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Kelajak soati” quyidagi shakllarda tashkil etilmoqda:

- **Davra suhbatlari** – tarbiyachilar bolalar bilan Vatan, mehr-oqibat, ota-ona, do‘stlik kabi mavzularda suhbatlashadilar.
- **Interfaol mashg‘ulotlar** – o‘yinlar, qo‘shiq-ma’ruzalar, saboqdan tashqari turli ma’naviy-marifiy vazifalar. Bolalarning fikr bildirishlari, tinglash, o‘zaro muloqot usullaridan foydalanish.
- **Bilimni kengaytiruvchi o‘yinlar** – bolalarda qadriyatlar, madaniyat, tabiat, til kabi tushunchalarni shakllantirish maqsadida o‘yin-o‘yin shaklida.

Shuningdek, ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ul rahbar va pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida har o‘quv yilida **“Milliy qadriyatlar targ‘ibotchisi”** respublika tanlovi o‘tkaziladi. Tanlov g‘oliblarini munosib rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yilishi nazarda tutilgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, ayniqsa ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar orqali Uchinchi Renessans – Yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratish asosiy strategik maqsad sifatida belgilab olingani alohida e’tirof etildi. Bugungi kunda O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bu davr o‘z tabiatiga ko‘ra yangilanish, intellektual salohiyat va ma’naviy uyg‘onishni talab qilmoqda. Aynan shu jarayonda ta’lim-tarbiya tizimi jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida yangicha yondashuvlarni, qat’iy sifat talablarini va zamonaviy texnologiyalarni o‘z ichiga olmoqda.

Shu maqsadda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida pedagog kadrlarning moddiy-ma’naviy sharoitlari tubdan yaxshilanmoqda, ularning mehnati munosib e’tirof etilmoqda hamda o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu esa nafaqat ta’lim sifati oshishiga, balki o‘qituvchi kasbining ijtimoiy nufuzini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Shubhasiz, bu kabi yondashuvlar Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida ta’lim sohasining strategik ahamiyatini, shuningdek, pedagog shaxsining jamiyatdagi o‘rnini tubdan yangicha talqin etilishini ta’minlamoqda.

Yangi O‘zbekstonni barpo qilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning davlat rahbari siaftidagi siyosiy qarashlarida va amaliy ishlarida yoshlarga e’tibor, ularni Vatanga sodiq fuqarolar siaftida tarbiyalash to‘g‘risidagi g‘oyalari xalqimizning baxtli kelajagini yaratishda dasturul amal qilib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida va

nutqlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda yosh avlodda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda metodologik asos sifatida xizmat qilmoqda. Bu g‘oyalar yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasi, Vatanga sadoqat va ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, ularning shaxsiy kamoloti va jamiyatdagi faolligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbarining “Mustaqil fikrlaydigan”, “Vatanga sodiq”, “Qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega”, “Ertangi kunimizning munosib egalarini tarbiyalash” kabi strategik ifodalari yoshlarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini belgilaydi. Shuningdek, yoshlar bilan bevosita ishlash, ularni tinglash, muammolarini hal etish, balandparvoz tadbirlar o‘rniga amaliy, foydali tashabbuslarni ilgari surish g‘oyalari pedagogik yondashuvlarning amaliy yo‘nalishini ifodalaydi. Prezident tomonidan ko‘tarilgan yana bir muhim masala – bu hali to‘liq shakllanmagan yosh avlod ma’naviyatiga zamonaviy tahdidlar ortib borayotgan bir davrda ularni har tomonlama asrash, himoya qilish, va ma’rifat asosida ongi va tafakkurini shakllantirish zaruratidir. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularda Vatanga muhabbat, yuksak ma’naviy-ma’rifiy qarashlarni shakllantirish, komil inson timsolini tarbiyalash bugungi pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ushbu yondashuvlar zamonaviy ta’limda vatanparvarlik tarbiyasini chuqur va tizimli asosda amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida davlat rahbarining pedagogik qarashlaridan foydalanish, ularni amaliyotga tatbiq etish yoshlarda ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim va tarbiyani milliy g‘oya qadriyatlari darajasiga ko‘tarish, ta’lim olishga bo‘lgan intilishni rag‘batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etishni zamonning o‘zi talab etmoqda. Shu bois “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning 4-yo‘nalishida Inson kapitali, 5-yo‘nalishida ma’naviyat sohasini rivojlantirish alohida belgilab berildi.

Mamlakatimizda tarbiya nazariyasi va amaliyoti sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy huquqiy-me’yoriy poydevorlaridan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan 1059-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” e’tirof etiladi.

Konsepsiya O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy tarbiyasini zamonaviy ilmiy-metodik asosda, milliy qadriyatlar va xalqning tarixiy-ma’naviy merosidan kelib chiqib takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, unda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, zamonaviy globallashuv sharoitidagi mafkuraviy tahdidlar, raqamli texnologiyalar ta’sirining kuchayishi kabi omillar inobatga olingan.

“Konsepsiyaning **asosiy maqsadi** – yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy malaka va fazilatlarni yoshga mos holda, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iboratdir.

Konsepsiya to‘rtta uzviy bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda yoshga xos yondashuvlar va tarbiyaviy vazifalar aniqlashtirilgan:

Birinchi bosqich – oila muhitida tarbiya (homiladorlik davri, bola tug‘ilgandan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

Ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim muassasalari (3 yoshdan 6/7 yoshgacha bo‘lgan davr);

Uchinchi bosqich – umumiy o‘rta ta’lim (boshlang‘ich: 6–10 yosh, o‘rta va yuqori sinflar: 11–17/18 yoshgacha);

To‘rtinchi bosqich – o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan va band bo‘lmagan yoshlarga qaratilgan tarbiya bosqichi.

1. Konsepsiyada tarbiyaga **tizimli va kompleks yondashuv** taklif etilgan bo‘lib, unda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari, hamda mahalla tizimining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq ishga solish zarurligi”[6] ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu bosqichlar o‘rtasidagi ilmiy-metodik uzviylikni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish, tarbiyani jamiyatning har bir qatlamiga yetkazish hamda uni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish konsepsiyaning markaziy g‘oyalaridan biri hisoblanadi.

Shu tarzda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” zamonaviy sharoitda ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va barkamol shaxsni tarbiyalashning konseptual asosiga aylangan.

Demak, ma’naviyatga e’tibor bu kelajakka bo‘lgan e’tibordir. Shu nuqtayi-nazardan olganda bo‘lajak tarbiyachilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi ko‘p jihatdan bo‘lajak tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy sifatlariga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, **Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi** maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom etayotgan bo‘lib, ularning samaradorligini oshirish uchun pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida uzviy hamkorlik talab etiladi. Zero, **ma’naviy yetuklik – kelajagi porloq avlod kafolatidir.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.T:-2020-y

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni.Toshkent, 2019-yil 16-dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’gi PF-5847 Farmoni.

4. Shavkat Mirziyoyev, Prezident nutqi, “Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi”, rasmiy saytidagi maqola, 2020-yil 30-oktabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori.

7. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 25-avgust kuni 308-son ‘‘Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida’’gi buyrug‘i.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RISKOLOGIK KOMPETENTLIKNI TARKIB TOPTIRISHNING ASOSIY KOMPONENTLARI

Kandaxarov Mirjalol Abdimurot o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Tezisda "riskologik kompetensiya" tushunchasining mohiyati, uning pedagogika mutaxassisligi bo‘yicha talabalar orasida shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. O‘qituvchining innovatsion ta'lim muhitida o‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun noan'anaviy harakatlar tanlash borasidagi qaror qabul qilish holati tavsiflangan. Riskologik kompetensiyaning komponentlari ajratib ko‘rsatilgan, bo‘lajak o‘qituvchilarda ushbu kompetensiyani shakllantirish jarayonini nazariy asos sifatida ishlatish, shuningdek, ta'lim muhitida samarali ishlashini ta'minlovchi dinamik tizimini yaratishga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: *Risk, pedagogik xavf, xavf subyekti, riskologik kompetensiya, o‘qituvchining innovatsion faoliyati, pedagogik riskologiya.*

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida, ta’lim tashkilotlarida innovatsion jarayonlarning intensivlashuvi ko‘zga tashlanadi, bu ularning strategik rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik faoliyati oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishning murakkabligi ular oldiga samarali qaror qabul qila olish zaruratini qo‘yadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchiga qo‘yiladigan yangi talablar mavjud bo‘lib, ulardan biri innovatsion faoliyat jarayonida pedagogik harakatlarni asosli tanlash va javobgarlikni o‘z zimmalariga olishga tayyorlikdir, bu jarayonlar kutilayotgan xavflarni prognozlash va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tuzishni talab qiladi. Bunday holat o‘qituvchilarda ta’limdagi o‘zgarishlarga yanada moslashuvchan tarzda javob berish qobiliyatini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi, bu esa pedagogik yangiliklarni maktab ta’lim muhitiga yaratish va joriy etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni hisobga olishni talab qiladi.

Riskologik kompetensiyani shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki bu jarayon ularda pedagogik yangiliklarni jamiyat uchun qadriyat sifatida qabul qilishga, moslashuvchan va izchil innovatsion faoliyatni olib borish qobiliyatini rivojlantirishga, pedagogik xavfning yuqori darajasida subyektiv harakatlarni tahlil qilish va nazorat qilishga, shuningdek, «o‘z professional faoliyatining natijalari uchun mas’uliyatni» his qilishga yordam beradi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatidagi riskologik kompetensiyani biz uning pedagogik innovatika va pedagogik riskologiya sohalaridagi bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni amaliy qo‘llash qobiliyati sifatida tushunamiz. Bu kompetensiya o‘qituvchi pedagogik yangiliklarni amalga oshirish sharoitida yuzaga keladigan professional muammolarni hal qilishda, subyektiv noan’anaviy harakatlarni qo‘llash jarayonida ijtimoiy-ta’limiy xavflarni minimallashtirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchining innovatsion faoliyatidagi riskologik kompetensiyaning mohiyatini ochib berish uchun, dastlab «risk» tushunchasining qanday ma’noda talqin qilinishi aniqlanishi zarur. «Risk» tushunchasi subyektiv kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi, chunki innovatsion pedagogik faoliyatning natijalari o‘qituvchi tomonidan shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga intilish sifatida baholanadi, ya’ni o‘zining professional o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarishiga, uning harakatlarini ta’lim muhitining subyektlari tomonidan qabul qilinishiga qaratilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchi ta’limda innovatsion jarayonlarning zarurligini anglab, ularni jamiyatni rivojlantirish manbai sifatida ko‘rsa, uning harakati ushbu maqsadni qadriyat sifatida amalga oshirish ehtiyojiga asoslanadi. Demak, riskologik kompetensiyaning aksiologik komponenti bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik yangilikni qadriyat-maqsad sifatida qabul qilishini aks ettiradi, bu esa uning subyektiv noan’anaviy harakatlarni tanlashini asoslaydi, chunki innovatsion pedagogik faoliyatning erkinligi va ijodkorligi ularning tanlanishi uchun shart sifatida namoyon bo‘ladi.

Riskologik kompetensiyaning keyingi ajralmas komponenti motivatsion-shaxsiy komponent hisoblanadi. Shuningdek, tajribali o‘qituvchilar ham kamdan kam hollarda intellektual pedagogik yangiliklarni yaratish va joriy etishga kirishadilar, chunki ular innovatsion faoliyatda duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklardan qo‘rqishadi, bu esa ularda anti-innovatsion reaksiyani yuzaga keltiradi, bunda motivatsiya ijtimoiy maqomni saqlashga ishonchsizlikdan kelib chiqadi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni riskologik kompetensiyani shakllantirish jarayonida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichida, uning motivatsion-shaxsiy komponentiga alohida e’tibor qaratish zarur.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga undaydigan asosiy motivlardan biri pedagogik yangilikning mazmuniga bo‘lgan qiziqishdir. Shuning uchun, riskologik kompetensiyaning tarkibida keyingi komponentni – kognitiv komponentni ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu komponent, bo‘lajak o‘qituvchining professional faoliyatining asosini tashkil etuvchi bilimlar va ko‘nikmalar tizimi, shuningdek uning samaradorligiga ta’sir qiluvchi ma’lum kognitiv faoliyat xususiyatlarini o‘z ichiga.

Riskologik kompetensiyaning kognitiv komponenti, Blum taksonomiyasining dastlabki uch bosqichini (bilim, tushunish, qo‘llash) o‘z ichiga oladi. Bilim darajasida talabalar pedagogik innovatika va pedagogik riskologiyaning nazariy asoslarini o‘zlashtiradilar. Tushunish darajasida ular o‘rgangan mavzularning asosiy tushunchalarini misollar bilan talqin qila olishadi, bu misollar ularning mohiyatini ochib beradi va sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatishadi. Qo‘llash darajasi bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatdagi xavfli holatlarning belgilari aniqlanishi, ya’ni olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali muammoni hal qilish qobiliyatini

anglatadi (ko‘plab imkoniyatlardan birini ongli tanlash, ya’ni subyektiv noan’anaviy harakatlarni tanlashni asoslash). Talabalar tomonidan olingan bilimlar, o‘qituvchining innovatsion faoliyatidagi xavflar, ular uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rnatish va pedagogik xavflarni oldini olish bo‘yicha harakatlar algoritmini qurish uchun loyiha qilish qobiliyatini shakllantirishga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, kognitiv komponent riskologik kompetensiyaning faoliyat komponentiga asos bo‘lib, bu olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi.

Riskologik kompetensiyaning tuzilmasi uning mohiyatini ochib beradi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatdagi xavflarni minimallashtirishga qodir bo‘lishini shakllantirish uchun zarurdir. Riskologik kompetensiyaning komponentlari o‘rtasidagi birlik va o‘zaro bog‘liqlik, bu muammoni keyingi tadqiqotlarda ushbu komponentlarni metodologik asos sifatida qo‘llash imkonini beradi, shu orqali pedagogik mutaxassisliklar bo‘yicha talabalar orasida ushbu kompetensiyaning shakllanishini qo‘llab-quvvatlovchi psixologik-pedagogik sharoitlarni aniqlash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Асхадуллина Н. Н. Мотивационная готовность учителей к инновационной деятельности как условие снижения рисков в процессе внедрения педагогических новшеств // Казанский педагогический журнал. – 2015. – № 4. – С. 267–270.

2. Сластенин В. А., Подымова Л. С. Педагогика: инновационная деятельность. – М. : Магистр, 1997. – 224 с.

3. Ручкина М. В. Субъект риска: философский и междисциплинарный дискурс // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. – 2008. – № 77. – С. 155–161.

4. Engelhart M. D., Furst E. J., Hill W. H., Krathwohl D. R. Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: The Cognitive Domain [Electronic version]. – URL: http://www.univpgri-palembang.ac.id/perpusfkip/Perpustakaan/Pendidikan%20&%20Pengajaran/Taxonomy_of_Educational_Objectives__Handbook_1__Cognitive_D omain.pdf.

BO‘LAJAK HAMSHIRALAR KASBIY TAYYORGARLIGIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Eshmurodova Dilrabo
Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o‘qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy tibbiyotda axborot texnologiyalarining ortib borayotgan ahamiyati va ularning hamshiralik amaliyotidagi o‘rniqa bag‘ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llanilayotgan asosiy axborot texnologiyalari – elektron sog‘liqni saqlash yozuvlari, klinik qarorlar*

qabul qilish tizimlari, telemeditsina va avtomatlashtirilgan dori-darmonlar boshqaruvi tahliliy ko‘rib chiqilgan.

***Kalit so‘zlar**: axborot texnologiyalari, hamshiralik ta’limi, raqamli kompetentlik, elektron bemor yozuvlari, telemeditsina.*

Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi axborot texnologiyalari (AT) bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli transformatsiya sog‘liqni saqlash sohasiga yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni bir vaqtning o‘zida keltirmoqda. Bugungi kunda hamshira nafaqat an’anaviy parvarishlovchi, balki ma’lumotlarni tahlil qiluvchi, texnologik vositalardan foydalanuvchi va raqamli muhtida ishlaydigan mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak hamshiralarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashga tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu maqola axborot texnologiyalarining hamshiralik amaliyotidagi ahamiyati, bo‘lajak mutaxassislarning raqamli kompetensiyalari va ta’lim tizimidagi integratsiya muammolarini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan.

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida axborot texnologiyalarining ahamiyati. Axborot texnologiyalari tibbiyot sohasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda:

1.1. Elektron sog‘liqni saqlash yozuvlari (ESSY)

- Markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasiga asoslangan bemor tarixini yuritish
- Laboratoriya va instrumental tekshiruv natijalarining tezkor uzatilishi va tahlili
- Bemorning butun hayoti davomidagi sog‘ligi haqidagi ma’lumotlarni uzluksiz kuzatish

1.2. Klinik qarorlar qabul qilish tizimlari

- Tashxis qo‘yishda yordam berish va davolash protokollarini taklif qilish
- Dori-darmonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir xavfini aniqlash
- Individual parvarishlash rejalarini ishlab chiqish

1.3. Telemeditsina va masofaviy monitoring

- Uzoq hududlardagi bemorlarga konsultatsiya berish
- Surunkali kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni uy sharoitida kuzatish
- Mobil tibbiyot qurilmalari orqali ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish

1.4. Avtomatlashtirilgan dori-darmonlar boshqaruvi

- Bar-kod va RFID texnologiyalari asosida dori-darmonlarni hisobga olish
- Dori xatolarining oldini olish tizimlari
- Intravensoz dori terapiyasini boshqarish dasturlari

2. bo‘lajak hamshiralarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari. Zamonaviy hamshira quyidagi asosiy raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur:

2.1. Ma'lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari

- Tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish
- Ma’lumotlarni vizuallashtirish va hisobot tayyorlash
- Ma’lumotlar bazalari bilan ishlash asoslari

2.2. Tibbiy texnologiyalardan foydalanish

- Monitorlar, infuzion pompalar va boshqa tibbiy asbob-uskunalar bilan ishlash
- Maishiy monitoring qurilmalarini o‘rnatish va sozlash
- Tibbiy dasturiy ta'minot interfeyslariga moslashish

2.3. Raqamli muloqot va hamkorlik

- Telemeditsina platformalari orqali bemorlar bilan ishlash
- Elektron konsultatsiyalar o‘tkazish
- Ko‘p tarmoqli tibbiy jamoalar bilan onlayn hamkorlik

2.4. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi

- Bemor ma’lumotlarini himoya qilish mehnatlarini tashkil etish
- Tibbiy ma’lumotlarning maxfiyligini ta'minlash
- Kiberxavfsizlik tahdidlarini taniy bilish

3. Hamshiralik ta'limida axborot texnologiyalarini integratsiyalash muammolari. Mamlakatimizda hamshiralik ta'limida ATdan foydalanish quyidagi to‘siqlarga duch kelmoqda:

3.1. Infratuzilma va resurslar cheklovlari

- O‘quv muassasalarida zamonaviy kompyuter texnikasining yetarli emasligi
- Litsenziyalangan tibbiy dasturiy ta'minotning yuqori narxi
- Simulyatsion markazlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi

3.2. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi

- O‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi
- Amaliyotchi hamshiralarning akademik ta'limda ishtirok etishining cheklanganligi
- Zamonaviy AT bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallarning yetishmasligi

3.3. O‘quv dasturlari va metodologiyalar

- ATga oid mavzularning o‘quv rejalarga fragmentar tarzda kiritilishi
- Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut
- Klinik amaliyotda haqiqiy AT vositalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi

4. Taklif va tavsiyalar. Bo‘lajak hamshiralarning raqamli kompetentligini oshirish uchun quyidagi choralar ko‘rish tavsiya etiladi:

4.1. Ta'lim tizimini takomillashtirish

- Hamshiralik ta'limi standartlariga raqamli ko‘nikmalar majburiy modulini kiritish
- O‘quv dasturlarini zamonaviy AT talablariga moslashtirish
- Elektron o‘quv resurslari va onlayn kurslarni joriy etish

4.2. Infratuzilma va resurslarni rivojlantirish

- O‘quv muassasalarini zamonaviy tibbiy simulyatorlar va dasturiy ta'minot bilan ta'minlash
- Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalanish
- Tibbiyot kollejlari va klinik amaliyot bazalari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish

4.3. Pedagogik kadrlar savodxonligini oshirish

- O‘qituvchilar uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish
- Amaliyotchi hamshiralarni o‘qitish jarayoniga jalb qilish
- Xalqaro tajriba almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish

4.4. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish

- Hamshiralik amaliyotida AT samaradorligini o‘rganish
- Mahalliy sharoitga mos AT yechimlarini ishlab chiqish
- Raqamli texnologiyalar asosida yangi parvarishlash usullarini yaratish

Xulosa o‘rnida shu aytishimiz mumkinki axborot texnologiyalari zamonaviy hamshiralik amaliyotini tubdan o‘zgartirayotgan muhim omil hisoblanadi. Bo‘lajak hamshiralarni nafaqat an’anaviy parvarishlash ko‘nikmalari, balki zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlash kompetensiyalari bilan ham qurollantirish zarur. Buning uchun ta'lim tizimiga tubdan o‘zgartirishlar kiritish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va pedagogik kadrlarning malakasini oshirish talab etiladi. Faqatgina kompleks yondashuv orqali bo‘lajak hamshiralarni raqamli asr talablariga javob bera oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Tursunov, B. (2023). Zamonaviy tibbiyotda raqamli transformatsiya. Tibbiyot jurnali, 4(2), 45-52.

2. Smith, J., & Johnson, M. (2022). Digital health literacy in nursing education. Journal of Nursing Education, 61(3), 123-129.

3. WHO. (2021). Global strategy on digital health 2020-2025. World Health Organization.

4. Ahmedova, M. (2023). Hamshiralik ta'limida innovatsion texnologiyalar. Sog‘liqni saqlash ta'limi, 7(1), 28-35.

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA ZAMONAVIY YOSHLARNING MA’NAVIY QADRIYATLARI VA ULARNI MUSTAHKAMLASH OMILLARI

Axmedov Shaxzod Ilxom o‘g‘li
Yaqin sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi, SamDCHTI
Sunnatullayeva Malika Sirojiddin qizi
Sharq tillari fakulteti, filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili)

Annotatsiya. *Ushbu maqola globallashuv jarayonining zamonaviy yoshlar ma’naviy hayotiga ta’siri, milliy va diniy qadriyatlarning saqlanish darajasi hamda ularni mustahkamlashning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy madaniyatlar ta’sirida o‘sayotgan yosh avlodning ma’naviy qarashlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar asosida o‘rganilgan. Zamonaviy globalizatsiya va raqamli texnologiyalar asrida yoshlarning ma’naviy qadriyatlari o‘zgaruvchan muhitda sinovdan o‘tmoqda. Tahlil adabiyotlar, empirik misollar va ijtimoiy kuzatuvlar*

asosida amalga oshiriladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, global ta’sirlarning ijobiy jihatlari bilan birga, yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq xavfi ham oshmoqda. Xulosa sifatida, ma’naviy tarbiyani mustahkamlash yo‘llari: ta’lim-tarbiya tizimi islohoti, ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy kontent, yoshlar uchun ma’naviy liderlarni targ‘ib qilish joriy etilishi kerakligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, yoshlar, globalizatsiya, qadriyatlar, milliy o‘zlik, raqamli madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, diniy tarbiya, zamonaviy avlod, ma’naviy immunitet.*

Kirish. XXI asr insoniyat tarixida axborot va texnologiyalar inqilobi davri sifatida kirib keldi. Globalizatsiya jarayonlari insoniyatni bir butun axborot maydoniga birlashtirib, madaniyatlar o‘rtasidagi chegaralarni borgan sari yo‘qotmoqda. Bunday jarayonda yoshlar dunyoqarashi, qadriyat tizimi va hayot falsafasi ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarning ma’naviy tarbiyasi, ularning dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirish – yangi O‘zbekistonning eng muhim poydevoridir” (Mirziyoyev, 2021).

Bugungi kunda yoshlarning asosiy hayot manbai bo‘lib turgan internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat ularning ma’naviy qarashlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Global madaniyatning ba’zi unsurlari milliy qadriyatlar bilan mos kelmasa-da, ular yoshlar ongida tez tarqamoqda. Shu bois zamonaviy avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni global axborot oqimi ichida o‘zligini saqlashga o‘rgatish – davr talabi hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – globalizatsiya sharoitida yoshlarning ma’naviy qadriyatlari qanday o‘zgarayotganini tahlil qilish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash omillarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

1.Globalizatsiy va yoshlar ma’naviyatiga ta’sir. Globalizatsiya – iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalarida butun dunyoni yagona tizimga aylantiruvchi jarayondir. UNESCO (2022) hisobotida qayd etilishicha, dunyo yoshlarining 80 foizdan ortig‘i ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanadi va ular orqali global madaniy qadriyatlar bilan tanishadi. Bu esa yoshlar tafakkurida “global shaxs” konsepsiyasini shakllantiradi.

Ammo global madaniyatning ta’siri har doim ijobiy emas. G‘arb madaniyati targ‘ib etayotgan individualizm, iste’molchilik, erkin hayot falsafasi ba’zan o‘zbek xalqining kollektiv qadriyatlariga – oila, hurmat, andisha, sadoqat tamoyillariga zid keladi. Shu bois o‘zbek jamiyatida “ma’naviy bo‘shliq” deb ataluvchi hodisa kuzatilmoqda. Bu holat yoshlarning ruhiy izlanishlarini kuchaytiradi, biroq ular ko‘pincha to‘g‘ri yo‘lni topa olmay, begona qadriyatlarga ergashib qolishadi.

Karimov (2008) “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday yozadi: “Agar millat o‘z ma’naviy tayanchlarini yo‘qotsa, u tashqi kuchlar ta’sirida o‘zligini yo‘qotadi.” Ushbu fikr bugungi global davrda yanada dolzarb bo‘lib, yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash zaruriyatini ta’kidlaydi.

2. Milliy va diniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni

O‘zbekiston tarixida ma’naviy qadriyatlar har doim jamiyat barqarorligining asosi bo‘lib kelgan. Mehmondo‘stlik, sadoqat, halollik, ota-onaga hurmat, mehr-

oqibat kabi qadriyatlar milliy o‘zlikning tayanchidir. Ammo raqamli avlod orasida bu qadriyatlar asta-sekin zamonaviy “trendlar” soyasida qolmoqda.

O‘zbekiston Yoshlar agentligi tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, yoshlarning 47 foizi “internet madaniyati”ni o‘z hayot tarzining muhim qismi deb biladi, biroq atigi 22 foizi “milliy qadriyatlar men uchun ustuvor” deb javob bergan. Bu natijalar yoshlar orasida ma’naviy qadriyatlarni singdirish tizimini kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

Diniy qadriyatlar ham yoshlarning ma’naviy shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Islom dini insonni poklik, sabr, adolat, halollikka chaqiradi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi 2024-yilgi ilmiy kengashda qayd etilishicha, yoshlar orasida diniy ma’naviyatni to‘g‘ri talqin etish, ekstremistik g‘oyalarni rad etish uchun diniy-ma’rifiy ishlar tizimi kengaytirilmoqda. Shu nuqtada, ta’lim va oila institutlari hamkorlikda ishlashi zarur: oila – ma’naviyatning birinchi maktabi, ta’lim esa uni ilmiy asosda mustahkamlaydigan kuchdir.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli madaniyatning ta’siri

Zamonaviy yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlar asosiy axborot manbaiga aylangan. Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalarda “trendlar” orqali yoshlar o‘zini namoyish etadi. Biroq bu jarayon ba’zan ma’naviy qadriyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Ko‘rinish uchun yashash” (appearance-based living) hodisasi – yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda ideal hayot manzarasini yaratib, asl hayotdan uzoqlashishiga olib kelmoqda. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra (Jenkins, 2021, “Digital Youth Culture Study”), bu holat o‘ziga ishonchsizlik, stress va depressiya ko‘rsatkichlarini oshiradi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda qisqa videolar (TikTok, Instagram Reels, YouTube Shorts va hokazo) keng ommalashdi. Ular tezkor axborot, ko‘ngilochar kontent va vizual dinamika orqali auditoriyani o‘ziga jalb qiladi. Biroq bu jarayonning psixologik, ijtimoiy va intellektual oqibatlari ham mavjud bo‘lib, ayniqsa yoshlar orasida ularning salbiy ta’siri tobora kuchaymoqda.

1. Diqqat va tafakkurning qisqarishi

Qisqa videolar foydalanuvchining e’tiborini bir necha soniyagagina ushlab turadi. Bu holat vaqt o‘tishi bilan miyani tez almashuvchi ma’lumotlarga o‘rganishga olib keladi. Natijada yoshlarning uzoq davom etadigan o‘qish, ilmiy izlanish yoki o‘ylash jarayoniga sabri yetmaydi. Frontiers in Psychology jurnalida Ye va hamkorlari (2022) tomonidan chop etilgan maqolada esa, Xitoy o‘smirlarida qisqa video odatining motivatsiya pasayishi, o‘quv intizomi va diqqat barqarorligiga salbiy ta’sir qilishi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu holatni psixologlar “ma’lumot ortiqchaligi sindromi” (information overload syndrome) deb atashadi – ya’ni inson miyasi haddan tashqari ko‘p vizual va emotsional signal qabul qilganida, uni saralab tahlil qilish qobiliyatini yo‘qotadi. Chen, Li, Guo va Wang (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, qisqa video “addiktsiyasi” (ya’ni odatlanib qolish) bilan shug‘ullanadigan foydalanuvchilar Stroop testi davomida diqqatni jamlashda sustroq, reaktsiya vaqti esa ancha uzunroq bo‘lgani aniqlangan. Tadqiqotchilar buni doimiy vizual stimullar (rang, tovush, tez kadr almashinuvi) miyada doimiy dopamin

uyg‘onishiga olib kelishi bilan izohlaydi. Natijada, inson miyasi oddiy, sokin faoliyatlarda (masalan, kitob o‘qish, dars tinglash) e’tiborni saqlay olmay qoladi.

2. Axloqiy va madaniy qadriyatlarning yemirilishi

Qisqa videolar ko‘pincha “trend” va “shov-shuv” orqasidan quvadi. Bunday kontentda ma’naviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar yoki ilmiy mazmun ikkinchi o‘ringa tushib qoladi.

Ko‘p hollarda yoshlar taqlid qilish istagida bo‘lib, nojo‘ya xatti-harakatlarni me’yorga aylantiradilar. Shu tarzda, ularning dunyoqarashi “ko‘rganiga ergashish” tamoyiliga asoslanadi, bu esa mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarining zaiflashishiga olib keladi.

3. Haqiqat va illuziya orasidagi chegara yo‘qolishi

Ko‘p videolar sun’iy ravishda tahrirlangan, real hayotni emas, balki “ideal” hayot ko‘rinishini aks ettiradi. Yoshlar bu “virtual mukammallik”ni hayotiy me’yor deb qabul qila boshlaydilar.

Natijada o‘ziga nisbatan norozilik, past baho berish holatlari ko‘payadi. Psixologlar bu jarayonni “ijtimoiy taqqoslash sindromi” deb ataydilar (Festinger, 1954). Unga ko‘ra, inson doim o‘zini boshqalar bilan solishtiradi va bu ruhiy tushkunlikni kuchaytiradi.

4. Ma’naviy bo‘shliq va vaqtni samarasiz sarflash

Qisqa videolarning ko‘pchiligi axloqiy yoki intellektual mazmunga ega emas. Ular vaqtincha zavq beradi, ammo foydalanuvchini chuqur fikrlashdan uzoqlashtiradi.

Bir qarashda 15–30 soniyalik videolar mayda ko‘rinsa-da, ular ketma-ket ko‘rilganda soatlab vaqtni oladi. Shu bois ko‘plab talabalar va o‘quvchilar o‘qish va o‘zini rivojlantirish uchun ajratilgan vaqtni ijtimoiy tarmoqlarda “yo‘qotadilar”.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar to‘g‘ri foydalanilganda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish vositasiga aylanishi mumkin. Masalan, “Yoshlar ovozi”, “Milliy qadriyatlar sahifasi”, “Ilm va tafakkur” kabi telegram-kanallar ma’naviy tarbiya, tarix va din haqida sifatli kontentlar tarqatmoqda. Demak, muammo tarmoqlarning o‘zida emas, balki ularni qanday maqsadda ishlatilishidadir.

4. Ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash yo‘llari va istiqbollar

Yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlash uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Ta’lim tizimida ma’naviyat fanlarini kuchaytirish. Oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida “Ma’naviyat va milliy g‘oya”, “Etika va madaniyat asoslari” fanlarini zamonaviy interaktiv usullar bilan o‘qitish lozim.

2. Oilaviy tarbiyani qo‘llab-quvvatlash. Har bir ota-ona farzandini nafaqat ilmga, balki odob-axloqqa o‘rgatishi kerak.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy kontent yaratish. Blogerlar, o‘qituvchilar va talabalar milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi onlayn loyihalarda faol bo‘lishi zarur.

4. Davlat siyosatida yoshlar ma’naviyatini ustuvor yo‘nalishga aylantirish. Sh.M. Mirziyoyevning “Yoshlar – yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” konsepsiyasi doirasida yoshlar markazlari, madaniy-ma’rifiy festivallar tashkil etilmoqda.

5. Madaniyatlararo muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish. Global madaniyatdan ijobiy jihatlarni olish, ammo milliy qadriyatlarga zid g‘oyalarni tanqidiy qabul qilish zarur. Yoshlar global dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi uchun ochiq tafakkur bilan birga o‘z milliy ildizlariga sodiq qolishlari kerak. Bu – ma’naviyat va modernlik uyg‘unligi tamoyilidir.

Yoshlar ma’naviy qadriyatlarini saqlash – bu nafaqat madaniy, balki milliy xavfsizlik masalasidir. Globalizatsiya insoniyatni yaqinlashtirsa-da, har bir xalq o‘z ma’naviy ildiziga sodiq qolgan taqdirdagina o‘zligini yo‘qotmaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki: global madaniyat yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ammo ularning milliy o‘zligini zaiflashtirishi mumkin; ma’naviy tarbiya tizimi oila, ta’lim va ommaviy axborot vositalarining hamkorligida samarali bo‘ladi; yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash uchun diniy va milliy qadriyatlar zamonaviy axborot vositalari orqali singdirilishi zarur.

Demak, kelajak avlodi uchun eng muhim vazifa – ma’naviy boylikni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishdir. Yuksak ma’naviyat – millat barqarorligining, yoshlarning esa baxtli kelajagining kafolatidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jenkins, H. (2021). Digital Youth Culture Study. Cambridge University Press.

2. Karimov, I.A. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

3. Mirziyoyev, Sh.M. (2021). Yangi O‘zbekiston yoshlari – bizning eng katta boyligimiz. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.

4. UNESCO. (2022). Youth and Global Cultural Identity Report. Paris: UNESCO Publishing.

5. Ye, J. H., Zhang, X., Liu, Y., & Chen, L. (2022). Effects of short video addiction on the motivation and well-being of learners. Frontiers in Public Health, 10, Article 847672. https://doi.org/10.3389/fpubh.2022.847672

6. O‘zbekiston Yoshlar agentligi. (2023). Yoshlarning ma’naviy qadriyatlari bo‘yicha sotsiologik tadqiqot. Toshkent.

7. O‘zbekiston musulmonlari idorasi. (2024). Yoshlar ma’naviyati va diniy-ma’rifiy ishlar samaradorligi bo‘yicha hisobot. Toshkent.

8. Chen, Y., Li, M., Guo, F., & Wang, X. (2022). The effect of short-form video addiction on users’ attention. Behaviour & Information Technology, 41(15), 3121–3135. https://doi.org/10.1080/0144929X.2022.2151512.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA YOZISHNI O‘YINLAR ORQALI O‘RGATISH

Jovliyeva Ruxshona Mashrab qizi
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda yozishni o‘yinlar orqali o‘rgatishning ahamiyati va usullari tahlil qilinadi. Maqola, o‘yinlarning bolalar ta’limidagi samaradorligini, ayniqsa yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini yoritadi. O‘yinlar yordamida bolalar nafaqat harflar va so‘zlarni o‘rganadilar, balki ular jumlalar tuzishni va qisqa hikoyalar yaratishni ham o‘rganadilar. Maqolada o‘yinlarning bolalarning ijodiy fikrlashini, mantiqiy fikrlashini va diqqatni jamlashni rivojlantirishdagi o‘rni ham ta’kidlanadi. Shu bilan birga, rasmli o‘yinlar, harflar bilan o‘yinlar va raqamli ilovalar kabi turli metodlar ko‘rsatilgan. O‘yinlar yordamida bolalar o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifoda etishni o‘rganadilar, bu esa ularning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini yanada yaxshilaydi. Ushbu maqola o‘yinlarning ta’limdagi samaradorligini ta’kidlashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar.*Maktabgacha yosh, yozish ko‘nikmalari, o‘yinlar, ijodiy fikrlash, nutq rivojlanishi, mantiqiy fikrlash, ta’lim metodlari, rasmli o‘yinlar, mobil ilovalar, ta’lim samaradorligi.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozishni o‘rgatish, ularning til rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon nafaqat yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki mantiqiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va muloqotdagi samaradorlikni ham oshiradi. Yozishni o‘rgatishda o‘yinlar samarali metod sifatida foydalanilmoqda, chunki o‘yinlar bolalar uchun ta’limni qiziqarli va faol qiladi. O‘yinlar orqali yozishni o‘rgatish bolalar uchun tabiiy va qiziqarli jarayon bo‘lib, ularning o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda yozishni o‘yinlar yordamida o‘rgatishning ahamiyati, usullari va samaradorligi tahlil qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozishni o‘rgatishda o‘yinlarning samaradorligi ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlangan. Shamsutdinova [1,45-52] maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyatining rivojlanishidagi o‘rni va uning bolalar ta’limidagi samaradorligini ko‘rib chiqadi. O‘yinlar yordamida bolalar o‘zaro muloqot qilish, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish va fikrlarni aniq ifodalashda yordam beradi. Ismailova[2,23-30.] ijodiy o‘yinlarning bolalar idrokini rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritadi. Unga ko‘ra, ijodiy o‘yinlar bolalarda yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, bolalarning fikrlash va yozish qobiliyatlarini oshiradi. Murtazova[3,11-18] maqolasida bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yinlarning rolini tahlil qiladi va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda bu metodning ahamiyatini ta’kidlaydi. Kamolova[4,35-40] bolalar rivojlanishida o‘yinlarning turlari va ularning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Xudoyberganova[5,12-17] esa bolalarni maktabga tayyorlashda o‘yinlarning rolini yoritadi, bu esa yozishni o‘rgatishda o‘yinlarning muhimligini anglatadi. O‘yinlar yordamida yozishni o‘rgatish, nafaqat bolalarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlar va nutqni to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o‘yinlar bolalar uchun qiziqarli va samarali o‘quv jarayonini taqdim etadi, bu esa bolalarni o‘qish va yozishga yanada qiziqtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozishni o‘rgatish jarayonida o‘yinlar samarali metod sifatida ishlatilishi mumkin. O‘yinlar orqali bolalar nafaqat harflarni, so‘zlarni o‘rganadilar, balki ulardan jumlalar tuzishni va qisqa hikoyalar yaratishni ham o‘rganadilar. Har bir o‘yin o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, bolalarning har bir yozish bosqichini qiziqarli tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, harflar bilan o‘yinlar bolalar uchun o‘z nomlarini yozish yoki qisqa so‘zlar yaratishda foydali bo‘lishi mumkin. So‘zlarni birlashtirish o‘yinlari bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va so‘zlarning tuzilishini yaxshilaydi. Bundan tashqari, rasm va harflarni birlashtirish o‘yinlari ham bolalarga yozishni o‘rgatishda samarali bo‘lishi mumkin. Bolalar har bir harfga mos rasm tanlash orqali harflarni yodlab, ularni yozishda ishlatishni o‘rganadilar. Bu turdagi o‘yinlar bolalar uchun qiziqarli va o‘rganish jarayonini engillashtiradi. Shuningdek, raqamli o‘yinlar va mobil ilovalar orqali bolalar o‘zlarining yozish ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Bu o‘yinlar bolalarga harflar va so‘zlarni yozish jarayonini yanada osonlashtiradi. O‘yinlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular bolalarni yanada faol va mustaqil qilishga yordam beradi. Bolalar o‘yinlar orqali o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifoda etishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘yinlar bolalar o‘rtasida muloqotni rivojlantiradi, bu esa ularning nutqini va yozuvini yanada yaxshilaydi.

O‘yinlar orqali yozishni o‘rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning nutqini, ijodiy fikrlashini, va diqqatni jamlashni ham oshiradi. Bolalar o‘yinlar orqali yozishni o‘rganish jarayonini engillashtiradilar, chunki o‘yinlar ta’limni qiziqarli va samarali qiladi. O‘yinlar yordamida bolalar o‘z fikrlarini tushunarli va aniq ifoda etishni o‘rganadilar, bu esa kelajakda ularning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini yanada yaxshilaydi. O‘yinlar yordamida bolalar o‘zlarini erkin ifoda etishga, ijodiy fikrlashga va nutqni to‘g‘ri tuzishga o‘rgandilar. Bu jarayon bolalarga nafaqat yozishni, balki boshqa akademik ko‘nikmalarni ham rivojlantirishda yordam beradi. O‘yinlar orqali yozishni o‘rgatish, bolalar uchun eng samarali va qiziqarli usuldir, chunki ular o‘yinlar orqali o‘rganishni ko‘proq yoqtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda yozishni o‘yinlar orqali o‘rgatish, ularning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali va qiziqarli usuldir. O‘yinlar yordamida bolalar nafaqat yozishni o‘rganadilar, balki ularning ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlar va diqqatni jamlash ko‘nikmalari ham rivojlantiradi. O‘yinlar bolalarning o‘qish va yozish jarayonlarini engillashtiradi, ularning ta’limda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Shu sababli, o‘yinlarni ta’lim jarayoniga kiritish bolalarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsutdinova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyatini rivojlantirish. Cyberleninka. 2018.
2. Ismailova I. Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini ijodiy o‘yinlar orqali rivojlantirish. Cyberleninka. 2020.
3. Murtazova L. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish metodikasi. Uniwork. 2019.

4. Kamolova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantiruvchi o‘yin turlari. Presedu. 2021.
5. Xudoyberganova T. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Namdu. 2022.

МЕДИА МАТНЛАРИГА ХОС БЎЛГАН ТАСВИРИЙ ВОСИТАЛАР ВА ПОЭТИК ФИГУРАЛАР (ЭССЕ МАТНЛАРИ АСОСИДА)

Рахимова Моҳинабону Абдуҳамид қизи

Samarqand davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabioti kafedrasi dotsenti

Аннотация: *Эссе матнларида қўлланилган тасвирий воситалар, поетик фигуралар, муболаға, литота, такрор, антитеза кабиларнинг лингвомаданий хусусиятлари атрофлича ёритилган. Уларнинг ўзига хос жиҳатлари, мазмун-моҳияти эссе матнларида тутган ўрни таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *тасвирий воситалар, услубий фигуралар, муболаға, литота, антифраза, такрор, диатеза.*

Тилнинг нутқ жараёнидаги энг маҳсулдор қисмини ўзида мужассам қилган бадиий тасвир воситалари тадқиқи кўп йиллардан буён ўзбек тилшуносларининг диққат-эътиборини ўзига тортиб келмоқда. Эссе матнлари тилига хос бўлган асосий тасвирий воситалар – ўхшатиш, метафора, эпитет, муболаға сингари воситалар ҳам матнни экспрессив-эмоционал таъсирини орттиришга хизмат қилади.

Тасвирий ифодалар ёки кўчимлар орасида муболаға ёки гипербола, кичрайтириш ёки литоталар ҳам лингвомаданий ҳодисанинг ифодаланиши жиҳатидан муҳим саналади ва улар бадиий ва публицистик матнларда жуда кенг қўлланади.

Муболаға тропларнинг бир тури сифатида қаралиб, инсонга, нарса-ҳодисага хос бўлган хусусиятни меъёридан ортиқ даражада тасвирлаш учун қўлланилган. Уларнинг маълум қисми эсселар учун анъанавий характерда бўлган. Масалан: Қари отларни кўрсам урушда қатнашган, бир умр имони учун тик турган, *елкалари Боботоғдай,* 18 йиллик қатағон уқубатларидан омон ўтиб, она тупроғида юз ёшида оламдан ўтган пул ҳокимлик Шерна чолнинг тийрак нигоҳларини кўргандай бўламан. (Ш.Салом.Тулпорларим). ...ўзини ухлаганга солган *девлардек* қорайиб, мағрур турган қоялар, арчалар, бодомчалар (Ш.Салом. Кўнгил обидасига йўл).

Литота ёки кичрайтириш: кеча ойдин бўлса-ку, ўзи билрди-я, ески лампанинг ичини олиб ташлаб, сув тўлдириб, ясаб олган лупасини ой нурига тутар, ундан йиғилиб ўтган ёруғлик китобнинг *тугмадек* жойини ёритар, шунда эртакларни бемалол ўқийверса бўларди (Ф.Жабборов. Ой нурида мутолаа);... *кўз ёшдек* кичик-кичик томчилар офтобда жимирлаб, камал бойлаб кўринади (Ш.Салом. Кўнгил обидасига йўл).

Поэтик фигуралар дейилганда матн таркибида бир сўзни такрорлаш, қарама-қарши қўйиш, бошқа маънода тушуниш каби хусусиятлар асосида юзага келадиган тасвирий воситалар ёки услубий фигуралар назарда тутилади. Бунга қуйидагиларни киритса бўлади:

Такрор. Эссе матнида энг фаол қўлланилган синтактик фигуралардан бири такрор бўлиб ҳисобланади. “Бадиий услубда такрорнинг вазифаси фақатгина маълум нарса-ҳодисани ёки ҳолатни ажратиб, таъкидлаб кўрсатиш билангина чегараланмайди. Бадиий асарда, барча бадиий воситаларда бўлгани каби, такрорнинг зиммасига ҳам тил бирликларига эмоционал бўёқ, алоҳида оҳанг, жозиба бериш вазифаси юкланади[83]”.

Умримни бир олис ишққа *алмашдим*,

Кечдим ҳушёрликдан, тушга *алмашдим*.

Беқанот қалбимни қушга *алмашдим*,

Сизсиз ўтган умрим бекор, *ёрижон*,

Не бахтким, юрагим бемор, *ёрижон* (С.Саййид. Олис ишқ соғинчи ёхуд ватан сурати). Борликда нимаики мавжуд – барида, барчасида *қалб* бор, қалбсиз нарса ҳам, жондор ҳам, воқеаю ҳодисот ҳам йўқ. *Қалб* – марказ, *қалб* – калит, *қалб* – ўлчов, мезон (Х.Дўстмуҳаммад. Қалб ҳамиша ўртада). *Шивир-шивир, минғир-минғир* гапларни у ҳам эшитади. (Ф.Жабборов. Ой нурида мутолаа). *Ғарч-ғурч* қилиб боряпман. Бобом менга *қараб-қараб* қўяди, мен ундан кўз узмайман (Ш.Салом. Қорхат.).

Антифраза ҳодисаси матннинг экспрессивлигини оширишга хизмат қилади: Қисқаси, доннинг нонга айланиш жараёни жуда мураккаб босқичлардан иборат бўлиб, бунинг учун юзлаб одамлар *кечани кеча, кундузни кундуз* демай тер тўкади, меҳнат қилади (Ж.Жангиров. Ушоқ билан юзма-юз). … озод бўлмаган инсоннинг *бор-йўқлигига, очлик ва тўқлигига, бахтли ва бебахтлигига кимдир* маъсул, *кимдир* қайғуриши керакдек, гўё (М.Пардаев. Мустақил яшаш маъсулияти). “*Яхшилик ва ёмонлик, шодлигу азоб, мену сен* – бари менга Яратганнинг кўз ўнгидаги ранго-ранг дуд бўлиб кўринади. Яратган ўзидан ўз назирини эвиришни истади ва ўшанда у оламни бино қилди”... Демак, *яхшилик ва ёмонлик, муҳаббат ва нафрат, ишонч ва ишончсизлик, садоқат ва хиёнат, эзгулик ва ёвузлик* оламнинг рамзи, Яратган унинг эврилишини хоҳлайди (Н.Жўраев. Таваллодан муножатгача).

Эссе услубига хос бўлган бу такрорлар, бир томондан, анъанавийлик намуналари, иккинчи томондан, ижодкорлар маҳоратининг ифодаси сифатида намоён бўлади.

Агар матн таркибида маънодош сўзлар ёки зид маъноли сўзлар ўзларининг градуал хусусиятларига кўра ёнма-ён такрорий ҳолда қўлланса бундай услубий фигуралар *антиклимакс* деб юритилади. Мисоллар: *Бевафо,*

[83] Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУнашри, 1994. – Б. 54-55.

бедаво,бераҳм Севги (А.Умирова. Ватан ҳақида қўшиқ). *Қайси* замон*, қайси* давр*, қайси* жамиятни олманг, аёл зоти юрти, оиласи, миллати учун қайғуриб яшайди *(*Э.Охунова. Аёл мафтунангман). Элас-элас, олис-олис соғинчлар, *ҳижрону фироқ, айрилиқ ва дийдор* манзиллари (С.Саййид. Олис ишқ соғинчи ёхуд ватан сурати). *Тун ва кун, кеча ва кундуз, масофалару маконлар* (С.Саййид. Олис ишқ соғинчи ёхуд ватан сурати). Бу эса шахс сифатида ёш Нитшенинг *сурати ва сийрати, шакли ва мазмуни, зоҳири ва ботини* бир хиллигидан далолат беради. Китобда ҳаёт фалсафаси, инсон тушунчаси, кишилик ҳаётининг *ёруғ ва қоронғу томонлари, зиддиятлар ва изтироблар* ўз аксини топган. “Авесто” ғояларини чуқур ўзлаштирган, айни пайтда ана шу ғояларда *одам ва олам* моҳиятини кўра билган, унда *диний ва дунёвий* қарашлар уйғунлашганини англаган Нитше ўз фалсафий қарашларини, илмий ғоялари ва муносабатларини Зардушт орқали ифодалашга эришади. *Жаҳолат, қабоҳат, надомат, хусумат* мавжуд бўлган бир пайтда, *идеал ҳаёт ва идеал инсон* ҳақида ўйлаш қанчалик изтиробли. “*Яхшилик ва ёмонлик, шодлигу азоб, мену сен* – бари менга Яратганнинг кўз ўнгидаги ранго-ранг дуд бўлиб кўринади. Яратган ўзидан ўз назирини эвиришни истади ва ўшанда у оламни бино қилди”. Демак, *яхшилик ва ёмонлик, муҳаббат ва нафрат, ишонч ва ишончсизлик, садоқат ва хиёнат, эзгулик ва ёвузлик* оламнинг рамзи, Яратган унинг эврилишини хоҳлайди (Н.Жўраев. Таваллодан муножатгача).

Диатеза. Бу стилистик фигурада икки инкордан бир тасдиқ маъноси келиб чиқади. Масалан: Эҳтимол турли даврлардаги аёлларнинг *на ташқи гўзаллик, на ички гўзалликда* жинсдошларидан ажралиб турган эркаклар учун бунчалик қурбонликка боришганини тушунманганингиз ҳам бор гапдир (Ш.Ортиқов. Истеъдод балоси). *На бировнинг юзини хотир қиламан, на* бировнинг кўзини (У.Азим. Рауф Парпи).

Жим қолиш - усули ҳам эллипсиснинг бир тури сифатида қаралади. Публицистик услубда муаллифнинг ёки қаҳрамоннинг руҳий изтиробларини, психологик ҳолатини ифодалайдиган жим қолишлар бирмунча фаол. Бу усул ёрдамида ижодкор ва ўқувчи ўртасида мустаҳкам психологик алоқа ўрнатилади, ўқувчи беихтиёр ижодкор ҳиссиётларига шерик бўлади: Қаранг-а! Қандай тотли лаҳзалар… Кўриб, кўнглим тўлқинланиб, ҳар бирининг пешонасидан чўлпиллатиб ўпиб олгим келди. Бундай ширин лаҳзаларнинг вақтида қадрига етмаган эканман. Эссиз…(Б.Қобул Ота бўлиб…). Қишлоққа кетаяпман. Ота-онамни олдига бораман, болаларимни бағримга босиб, бир далаларни кезаман. Кенгликларни……(Б.Қобул Ота бўлиб…). Бунда фикрнинг давоми ўқувчига тушунарли бўлгани учун ёки уни охиригача етказиш мақсадга мувофиқ туюлмагани учун баён қилиш тўхтатилган.

Ора-сирада Рауф ака “*Қани… қани…”* дер ва биз пиёлаларга оз-оздан қуйилган, аллақачонлар “ўзбек миллий таоми”га айланиб қолган ичимликдан нўш этар эдик… Демак, “*Ишламаяпман… Пулим йўқ… Уйга сиғмаяпман…Бировларга эргашиб юрибман…”* (У.Азим. Рауф Парпи). Эссе қаҳрамоннинг оғир руҳий кайфияти берилган.

Перифраза ёки перифраз - юнонча сўз бўлиб, унинг таржимаси айлана, доира, атроф демакдир. Яъни сўзловчи бирор предмет, воқеа-ҳодиса ҳақида маълумот бермасдан унинг атрофида фикр юритади. Шу воқеа-ҳодисани бошқача ном билан атайди. Мисоллар: Бир умр шеърият сабоғини, меҳр-муҳаббат, вафо ва садоқат дарсини олганимиз устоз Зулфия номидаги давлат мукофоти, *санъатимиз дарғаси* Мукаррамхоним Турғунбоева номидаги “Баҳор” ансамбли, номдор аёлларимиз*, қалам соҳибалари* номига қўйилаётган кўчалар, мактаблар, ҳар йили нуфузли аёлларимиз ёдини олиб, улуғлаб ўтказиб турилувчи кечалар, тантанали анжуманлар бизни ғоят қувонтиради. (Э. Охунова. Аёл мафтунангман). Шу тулпорлардир бизнинг болалигимизга эртаклару маталлар қанотида кириб келган *қанотсиз қушлар.* (Ш.Салом. Тулпорларим). Ортимдан *Болаликнинг Овози* эргашди …(Н.Жонузоқ. Митти гиёҳ).

Бадиий ва публицистик матнларда даражаланиш, риторик сўроқ, риторик мурожаат каби услубий фигуралар ҳам ўша матнга эмоционал-экспрессивлик бағишлайди. Аммо бунда интонация ва урғунинг роли жуда катта. Риторий сўроқ ва мурожаат ёрдамида ўқувчи эътибори муайян ҳодисалар моҳияти сари йўналтиради: Айт, яна қаёққа шошасан? Шошқалоқлигинг боиси не? Бундан мақсад нима ўзи, биродар? Қаён кетмоқдасан, эй аллоҳнинг шошқалоқ бандаси? Нега сабр қилмайсан, қаноатни билмайсан, шукрона айтмайсан?.. (А.Жўраев. Шошаётган одам). Бироқ ҳозир ҳам баъзи-баъзода ҳимоячига эҳтиёж сезаман: яқинларим алдаганда, дўстларим ранжитганда! Демак, қайсидир маънода ҳали ҳам бола эканманда, а? (Ф.Фарход ўғли. Болалик эртагим). Эсингдами, бешикдан чопқиллаб тушганинг?! … Ҳиссиз, забонсиз ёғоч?! (А.Жўраев. Шошаётган одам). Дарвоқе, эй одам боласи, бунчалар қаёққа шошасан? Нега шошасан? Нима учун? Менинг шошилиб бераётган саволларим ҳавода варракдай осилиб қолади. Ҳавода. Улар ҳақиқатан ҳам ердаги одамга етиб бормайди (А.Жўраев. Шошаётган одам). Хўш, аллақачон тақдири ҳал бўлди деб ўйлаганингиз бемор ярим кечаси, ҳамма ухлаган бир пайтда (!) уйғониб, ялпизни кўзларига суриб, ўпаётганини кўриб қолсангиз, қандай аҳволга тушасиз?! (Н.Жонузоқ. Митти гиёҳ).

Муаллиф ҳаётнинг ўнқир-чўнқирлари оша инсонларнинг қаёққадир шошаётганлиги, берилган неъматлардан баҳраманд бўлиш ўрнига норизо бўлаётганлигига урғу берган ҳолда ҳаёт фалсафасини ёрқин ифода этган.

Умуман ифода-тасвир воситалари эссе жанрида ўринли қўлланганда, унинг таъсирчанлигини янада оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Курбонов Т.И. Публицистик услуб масаласига доир // Ўзбек тили стилисткаси ва нутқ маданияти масалалари. - Самарқанд: СамДУ, 1980. – Б.77.

2. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол. фан.докт ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2005. – Б.23.

3. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – Б. 105.

4. Каримов С.А. Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – Б. 52-96.

TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O‘QITISH METODIKALARI

Xayrullayev Ulug‘bek Xamdullayevich
Samarqand davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati, ularni o‘qitish metodikalari, interfaol o‘qitish shakllari va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi va ta’lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, axborot texnologiyalari, metodika, interfaol o‘qitish, raqamli ta’lim, kompetensiya.*

Kirish. Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish – “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni taminlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali mutaxassislar bilan taminlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti axborot texnologiyalarining barcha sohalarga chuqur kirib borishini taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Axborot texnologiyalari nafaqat ta’lim jarayonini yengillashtiradi, balki o‘qitishning yangi metod va shakllarini yaratish imkonini beradi. Shu sababli, axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Axborot texnologiyalari ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish, bilimlarni interfaol usulda o‘zlashtirishga yordam beradi. Masofaviy ta’lim, aralash ta’lim (blended learning), elektron darsliklar va onlayn test tizimlari zamonaviy ta’limning asosiy komponentlariga aylangan.

O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan metodlar (muammolarni guruhlar bo‘lib hal qilish, rolli o‘yinlar). Bu usul o‘quvchilarning fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Axborot texnologiyalari doirasidagi ko‘plab o‘quv mashg‘ulotlarida kompyuter dasturlaridan foydalanish, bu orqali o‘quvchilarga zamonaviy

texnologiyalarni o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Loyiha asosida o‘qitish. O‘quvchilarga amaliy loyihalar orqali axborot texnologiyalarini qo‘llashni o‘rgatish. Masalan, o‘quvchilar o‘zlari yaratgan loyiha yordamida axborotlarni taqdim etishni o‘rganishadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarning zamonaviy metodlarini, usullarini va dasturiy vositalarini tatbiq etish bo‘yicha yanada kengroq imkoniyatlarni yaratib berdi. Uzluksiz ta’lim tizimida bu imkoniyatlardan samarali foydalanish o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning bilimi, malakasi, kasbiy mahorati, iqtidori, iste’dodi va madaniyatiga hamda dars jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olish faolligiga bog‘liqdir.

Axborot texnologiyalarini o‘qitishda quyidagi metodlardan keng foydalaniladi:

- Interfaol metodlar: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Blits-so‘rov”, “Elektron viktorina”.
- Loyihaviy ta’lim: talabalar axborot texnologiyalari asosida real loyihalar ishlab chiqadi.
- Masofaviy o‘qitish: Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi onlayn platformalar.
- Simulyatsion o‘qitish: virtual laboratoriyalar, 3D modellar, ta’limiy dasturlar.

O‘qituvchi zamonaviy raqamli pedagog bo‘lishi, texnologiyalarni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilishi, talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishi lozim.

Ta’lim sohasining asosiy qismiga aylanib borayotgan axborot texnologiyalari izchil ravishda sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ta’lim sohasidagi axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi, barqaror o‘zgarishlar dunyoda hayotga mazmunli ta’sir ko‘rsatdi. Yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi barcha an’anaviy ta’lim, ta’lim va tarbiya usullarini ishga soladi, o‘quv dasturlarining barcha sohalariga katta ta’sir o‘tkazadigan ishlarning eng muhim qismi hisoblanadi. Ishda, uyda va ta’lim muassasalarida axborotga bo‘lgan yaqin munosabat bilan tezkor muloqot qilish ta’limning hayotiy faoliyatga aylanishini anglatadi.

Xulosa. Axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikalari ta’lim jarayonini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirib, pedagogik faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishi zarur.

Fanlarni o‘rganish jarayonida zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari bilan bevosita muloqot qilishda o‘quvchilar kompyuter texnologiyalardan kelgusida o‘zining amaliy faoliyatida undan foydalanish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga o‘quvchilarda yangi axborot texnologiyalari va ularning dasturiy vositalariga bo‘lgan qiziqishi ancha sezilarli darajada ijobiy o‘zgaradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning nafaqat o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha,

balki kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha ham yetarlicha chuqur bilimga ega bo‘lishlariga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Sodiqov A., Abdurahmonov Q. Axborot texnologiyalari va ularni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Qodirov B. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Jo‘rayev Sh., Ergasheva N. Ta’limda raqamli texnologiyalar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
6. Xolbekov A. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qitish usullari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023.
7. Muxlisov S.S., Kuchkarbayev R.U., Xazratov F.X. Talimda axborot texnologiyalari – Buxoro,2021
8. Soliyeva N. Umumta’lim maktablarida axborot texnologiyalari ta’lim tizimida innovatsion zamonaviy metodlari va usullari. Maqola. Tafakkur manzili-2022.

PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZLARIDA INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ashurova Barno Nematovna,
Samarqand Davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik mahorat markazlarida inson resurslarini rivojlantirishga oid nazariy asoslar, zamonaviy yondashuvlar va amaliy mexanizmlar tahlil qilingan. Ta’lim tizimida inson kapitali muhim strategik resurs sifatida qaraladi va bu resursni samarali boshqarish, uning salohiyatini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim sifatini yuksaltirishning muhim omili hisoblanadi. Maqolada konstruktivizm, andragogika, kompetensiyaviy yondashuv kabi nazariy nuqtai nazarlar orqali pedagoglarning kasbiy o‘sish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik mahorat markazlarining vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari, ular orqali amalga oshirilayotgan malakani oshirish kurslari, mentorlik tizimi, innovatsion metodlar va raqamli ta’lim platformalarining ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahorat markazlari nafaqat o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, balki ularda yetakchilik, o‘zgarishlarga moslashuv, mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu markazlar inson resurslarini tizimli rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishda muhim institutsional omil sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Maqola ta’lim*

muassasalari rahbarlari, pedagog kadrlar, metodistlar va ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *pedagogik mahorat, inson resurslari, kasbiy rivojlanish, kompetensiya, innovatsiya, ta’lim sifati.*

Kirish. Bugungi kunda jahon ta’lim maydonida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi va ta’lim sifatining global mezonlar asosida baholana boshlashi – pedagog kadrlardan yangi dunyoqarash, yuqori kasbiy saviya, ijodiy yondashuv va doimiy o‘zgarishlarga tayyor holatni talab qilmoqda. O‘z navbatida, bu holat inson resurslarini, xususan, pedagog kadrlarni samarali boshqarish va rivojlantirish masalasini ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi.

Pedagog – ta’lim tizimining asosiy tayanchi, inson kapitaliga sarmoya kiritishda bosh manba hisoblanadi. Zamonaviy pedagog nafaqat dars o‘tuvchi mutaxassis, balki yetakchi, tarbiyachi, maslahatchi va islohotlarni amalga oshiruvchi sub’ekt sifatida ham qaraladi. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning professional rivojlanishiga xizmat qiluvchi maxsus strukturalar – **pedagogik mahorat markazlari** muhim institutsional mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Pedagogik mahorat markazlari – bu nafaqat o‘qituvchilar malakasini oshirish joyi, balki ularning ijtimoiy, metodik, axborot-kommunikatsion va innovatsion kompetensiyalarini shakllantirish, tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy platformadir. Ushbu markazlar orqali inson resurslarini rivojlantirishga nazariy va amaliy yondashuvlar tizimlashtirilib, har bir pedagogning kasbiy o‘sish yo‘li individual ravishda qo‘llab-quvvatlanadi.

Shu bilan birga, ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash, "o‘qituvchini o‘qitish" g‘oyasini institutsional darajada tashkil etish kabi vazifalar pedagogik mahorat markazlarining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Inson resurslarini rivojlantirish bugungi kunda faqatgina malaka oshirish bilan cheklanmaydi, balki shaxsiy va professional kompetensiyalarni mukammal shakllantirishni, yetakchilik salohiyatini rivojlantirishni va hayot davomida o‘rganish (Lifelong Learning) falsafasini amalda joriy etishni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada pedagogik mahorat markazlari faoliyati orqali inson resurslarini rivojlantirishga doir **nazariy asoslar**, **metodik yondashuvlar**, va **ishlash mexanizmlari** ilmiy tahlil qilinadi. Maqola tadqiqotining ob’ekti sifatida pedagogik kadrlarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash tizimi, predmeti sifatida esa ushbu jarayonda pedagogik mahorat markazlarining o‘rni va rolini ko‘rsatish mumkin.

Asosiy qism

1. Inson resurslari tushunchasi va uning ta’limdagi o‘rni

Inson resurslari – bu har qanday tashkilotning, xususan, ta’lim muassasalarining asosiy boyligi bo‘lib, o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy salohiyatini qamrab oladi. Garri Bekkerning inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta’lim va malaka oshirish jarayonlari orqali jamiyatdagi ishchi kuchining qimmati oshadi. Bu nazariya pedagogik sohada ham muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori salohiyatga ega o‘qituvchi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2. Pedagogik mahorat markazlarining vazifalari va ahamiyati

Zamonaviy ta’lim tizimidagi islohotlar, raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi, xalqaro standartlarga mos ta’lim mazmunining yangilanishi – pedagog kadrlardan yuqori kasbiy mahorat, innovatsion tafakkur, doimiy rivojlanishga tayyorlik va o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni talab etmoqda. Shu munosabat bilan, pedagogik mahorat markazlari pedagoglarning professional rivojlanishini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning ijtimoiylashuv jarayoni ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy ta’lim nafaqat bilim berish, balki shaxsni jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan inson sifatida shakllantirishga qaratilgan. Shu boisdan, o‘qitish metodikalarini yangilash, interaktiv va innovatsion yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Ijtimoiylashuv – bu shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishi, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni qabul qilishi hamda ularga amal qilishi jarayonidir. Yoshlarning ijtimoiylashuvi maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda davom etadi.
Ta’lim tizimi yoshlarni bilim, ko‘nikma, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar bilan tanishtiradi, ularni faol fuqarolik hayotiga tayyorlaydi.

Yoshlarning ijtimoiylashuvi asosan quyidagi yo‘nalishlarda kechadi:

- axloqiy qadriyatlarni shakllantirish;
- jamoa bilan ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- fuqarolik mas’uliyatini his etish;
- mehnatsevarlik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, hurmat kabi fazilatlarni egallash.

Bu jarayonning muvaffaqiyati ta’lim tizimida qanday yondashuvlar qo‘llanilishiga bevosita bog‘liq.

Zamonaviy ta’lim metodikalari – bu o‘qitish jarayonini faollashtiruvchi, o‘quvchini mustaqil fikrlashga, muloqotga va jamoaviy hamkorlikka undovchi yondashuvlar tizimidir. Bugungi kunda muammoli o‘qitish, klaster usuli, “aql charxi” (brainstorming), debat, case-study, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) kabi metodlar keng qo‘llanmoqda.

Bu metodlar yoshlarning:

- ijtimoiy faolligini oshirishga;
- hamkorlik va muloqot madaniyatini shakllantirishga;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmasini rivojlantirishga;
- shaxsiy mas’uliyat va jamoaga moslashuv sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar asosidagi o‘qitish metodlari ham ijtimoiylashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, onlayn guruh loyihalari, virtual muhokamalar, interaktiv platformalar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki jamoada ishlash, turli fikrlarni hurmat qilish, muammolarga ijtimoiy yondashuvni o‘rganadilar.

Shuningdek, ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) elementlarini kiritish – empatiya, muloqot, o‘zini boshqarish va boshqalarni tushunish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiylashtiruvchi shaxs sifatida namuna bo‘ladi. O‘qituvchining pedagogik madaniyati, kommunikativ mahorati, axloqiy qadriyatlari o‘quvchilar ijtimoiylashuvida hal qiluvchi omillardan biridir.

Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun:

1. Ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida qurish;
2. “Maktab – oila – jamiyat” hamkorligini kuchaytirish;
3. Axborot texnologiyalarini ijtimoiy loyihalar bilan integratsiya qilish;
4. O‘quvchilarni ijtimoiy faoliyatlarga (volontyorlik, ekologik aksiyalar, ijtimoiy tadbirlar) jalb etish;
5. Har bir o‘quvchining shaxsiy ijtimoiy tajribasini rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim metodikalari yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Chunki bugungi ta’lim jarayoni endilikda faqat bilim berish yoki ma’lumot yetkazish bilan chegaralanmay, balki yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ularning jamiyatga faol integratsiyalashuvi, ijtimoiy tajriba orttirishi, kommunikativ madaniyatini shakllantirish va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida shakllanmoqda.

Innovatsion o‘qitish metodlari – interaktiv mashg‘ulotlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash va ijtimoiy-emotsional ta’lim elementlarini tatbiq etish – yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, muloqot qilish, mas’uliyatni his etish va boshqalarga nisbatan hurmat bilan yondashish kabi muhim ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi. Ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini shunchaki bilim berishdan tashqari,

shaxsni tarbiyalash, uni jamiyatda faol, bunyodkor inson sifatida kamol toptirish markaziga aylantirishi zarur. Bu jarayonda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, pedagogik madaniyati va zamonaviy yondashuvlarga ochiqligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta’limni yangi bosqichga olib chiqib, yoshlarning global axborot maydoniga kirish, turli madaniyatlar bilan muloqot qilish, virtual jamoalarda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ammo bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun o‘quvchi va o‘qituvchi ham axborot madaniyati, raqamli etika va mas’uliyatni chuqur anglashlari lozim. Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish esa shaxsning ruhiy barqarorligi, hamkorlikka ochiqligi, empatiya va o‘zini boshqarish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bularning barchasi yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida muvaffaqiyatli, muvozanatli va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–5117-son qarori, 2021-yil 19-may.

2. Hasanov, B. (2022). Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida til o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Krashen, S. (2013). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press.

O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Rasulova Maftuna Nasimboy qizi
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi, Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda kommunikativ salohiyatning mohiyati, tuzilmasi hamda uni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan didaktik shart-sharoitlar aniqlanadi. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ijtimoiy-konstruktiv yondashuv va andragogik tamoyillar asosida kommunikativ kompetensiyani oshirishning metodik tizimi ishlab chiqiladi. Maqola natijalari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ salohiyat, o‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, didaktik shart-sharoitlar, interfaol metodlar, refleksiya, muloqot madaniyati.*

Kirish. Ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri — o‘qituvchining kommunikativ salohiyatidir. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki uni samarali muloqot orqali o‘quvchiga yetkazish, o‘quvchi bilan hamkorlikda bilimni yaratish jarayonini tashkil eta olishi zarur. Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida yangilanishlar, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini

oshirish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘qituvchilar dars jarayonida monologik nutqqa tayanadi, o‘quvchining fikrini faollashtirishga kam e’tibor beradi, muloqot madaniyati, pedagogik empatiya va til strategiyalarini yetarli darajada qo‘llay olmaydi. Shu sababli, o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirishning **tuzilmasi, mohiyati va didaktik shart-sharoitlarini** ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar sharhi. O‘qituvchi kommunikativ kompetensiyasi masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Hymes (1972) “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini kiritib, uni shaxsning ijtimoiy kontekstda til vositasida samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida talqin qilgan. Canale va Swain (1980) esa uni to‘rtta komponent orqali izohladi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar.

Vygotskiyning (1978) ijtimoiy-konstruktiv nazariyasiga ko‘ra, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot “yaqin rivojlanish zonasi”da bilimlarni birgalikda yaratish mexanizmini ishga soladi. Knowles (1984) esa kattalar ta’limida o‘zini-o‘zi o‘rgatish va refleksiya jarayonlarini markazga qo‘ygan andragogik yondashuvni asoslab bergan.

O‘zbekiston pedagogika maktabida “kommunikativ salohiyat/kompetensiya” o‘qituvchining kasbiy mahorati tarkibidagi tayanch komponent sifatida talqin qilinadi. N. Azizxo‘jayeva o‘qituvchi faoliyatida kommunikativlikni konstruktivlik, tashkilotchilik va ilmiy-bilish bilan bir qatorda alohida komponent sifatida ajratadi; u “kommunikativ qobiliyat — pedagogik o‘zaro aloqalar doirasida namoyon bo‘ladigan muloqot qobiliyati” ekanini ta’kidlaydi. D.A. Abdurahimova va R.A. Mavlonova “Pedagogik mahorat” qo‘llanmasida maktab amaliyotida o‘qituvchi mahoratini “kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati, pedagogik texnika” bilan bog‘laydi; bu salohiyat o‘qituvchining o‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan samarali aloqalarini belgilaydi. G.B. Xasanboyeva (2023) kommunikativ qobiliyatni psixologik bilim, muomala madaniyati va hamkorlar (o‘quvchi–ota-ona–jamoa) bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish qobiliyati sifatida ochib beradi; maqolada kommunikativ, perseptiv, empatik, didaktik va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida yoritiladi. Xulosa qilib, o‘zbek adabiyotlarida kommunikativ salohiyat bilim–ko‘nikma–munosabatlar triadasi va pedagogik muloqot madaniyatiga tayangan integrativ kompetensiya sifatida qaraladi; u o‘qituvchining sinf iqlimini yaratish, dialogni tashkil etish va hamkorlikni boshqarish funksiyalarini qamrab oladi.

Tadqiqot aralash usulda olib borildi: ya’ni, bir tomondan sonli ma’lumotlar (so‘rovnoma, kuzatuv ballari) yig‘ildi, ikkinchi tomondan esa sifat ma’lumotlari (intervyu, dars videolari tahlili, refleksiya yozuvlari) o‘rganildi. Dizayn jihatdan ish kvazi-eksperimental shaklda qurildi: uchta umumta’lim maktabida tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi, umumiy hisobda 90 ga yaqin o‘qituvchi ishtirok etdi. Fanlar kesimi turlicha bo‘ldi (ona tili va adabiyot, fizika, matematika, tarix, boshlang‘ich sinf), staj bo‘yicha esa yangi boshlovchilar ham, tajribali pedagoglar ham bor edi.

Aralashuv dasturi 12 hafta davom etdi. Har ikki haftada bir marta o‘qituvchilar Professional Learning Community (PLC) yig‘ilishida uchrashdilar: qisqa nazariy kirish, birgalikda dars ssenariysi, va amaliy mashq bajarildi. Oyiga bir marotaba mikro-dars (microteaching) o‘tkazildi va qisqa video-epizodlar yozib olindi. Mentorlardan biri (maktab metodisti yoki tajribali ustoz) har bir o‘qituvchi bilan kouching siklini o‘tkazdi: darsdan avval maqsad qo‘yish, darsni kuzatish, keyin esa video parchalari ustida mulohaza va qayta rejalashtirish. Shunday qilib, intervensiya uchta tayanch blokdan iborat bo‘ldi: dialogik dars va savol berish strategiyalari; fikr-mulohaza (feedback) va formativ baholash; video-refleksiya va kouching.

Asosiy o‘lchov vositasi — “kommunikativ salohiyat” (KS) kuzatuv rubrikasi. Rubrika to‘rtta yo‘nalishni qamrab oldi: savollar sifati va mantiqiy izchillik; o‘quvchi ovozi va suhbatdagi ishtirok balansi; metadiskurs va dars maqsadining og‘zaki aniqligi; raqamli vositalar orqali muloqotning maqsadga muvofiqligi. Har band 1 dan 4 gacha baholandi (1 — boshlang‘ich, 4 — yetuk). Shuningdek, sinf muloqoti bo‘yicha qo‘shimcha ko‘rsatkichlar aniqlandi: o‘qituvchi–o‘quvchi replikalar nisbati, ochiq savollar ulushi, “kuting-vaqti” (savoldan keyingi sukut uzunligi), va ishtirok tengligi (teng taqsimlanishga yaqinlashuv).

O‘qituvchilar uchun 20 bandli so‘rovnoma tuzildi (Likert 1–5): o‘zining kommunikativ o‘z-samaradorligi, savol berish strategiyalaridan foydalanish chastotasi, mulohaza sifatini boshqarish, dars maqsadini og‘zaki ifodalash odati, hamkasb bilan tahlil qilishga tayyorlik kabi ko‘rsatkichlar o‘lchandi. Sifat ma’lumotlari uchun yarim tuzilgan intervyular tashkil qilindi (har bir maktabdan 8–10 nafar o‘qituvchi), shuningdek, darsdan keyingi yozma refleksiya jurnallari yig‘ib borildi.

Ma’lumot yig‘ish uch bosqichda bo‘ldi: 1-haftada boshlang‘ich (pre) o‘lchov, 6-haftada oraliq (mid) o‘lchov, 12-haftada yakuniy (post) o‘lchov. Videodan olingan qisqa epizodlar (5–7 daqiqalik) kodlandi, savollar tiplari va o‘quvchi ishtiroki ulushi hisoblab borildi.

Natijalar. Umumiy manzarada kommunikativ salohiyat indeksi o‘sdi. Boshlang‘ich o‘rtacha ball 2,1 atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 12-hafta yakunida tajriba guruhida 3,0 ga yaqinlashdi; nazorat guruhida esa keskin o‘zgarish kuzatilmadi (2,2 atrofida qoldi). Farq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘ldi, amaliy jihatdan esa “o‘rtacha kattalikdagi” ta’sir deb baholash mumkin. Ayniqsa, savollar sifati va qayta savol berish (follow-up) bo‘yicha ko‘rsatkichlar ancha oshdi: ochiq va sababga undovchi savollar ulushi o‘rtacha 34 foizdan 51 foizgacha ko‘tarildi. “Kuting-vaqti” ham ijobiy o‘zgardi: savol berilgach, o‘qituvchi o‘rtacha 1 soniya ham kutmay javob so‘rash odatidan 2–3 soniya sukut saqlash odatiga o‘tdi; bu o‘z navbatida o‘quvchi javoblarining mazmunini to‘laroq qilishga yordam berdi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlar nafaqat dars jarayonini, balki butun maktabdagi kasbiy madaniyatni o‘zgartira boshlaydi. Avvaliga o‘qituvchilar “kommunikativ salohiyat”ni faqatgina nutq madaniyati deb o‘ylagan bo‘lsalar, jarayon davomida bu tushunchaning yanada keng — ya’ni muloqot, tinglash, empatiya, fikr almashish, va refleksiya kabi jihatlarni o‘z ichiga olishini anglab

yetishdi. Treninglar, video-tahlil va kouching sikllari o‘qituvchilarni o‘z nutqini eshitishga, dars jarayoniga o‘quvchi nigohi bilan qarashga o‘rgatdi. Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar savol berish strategiyalarini ongli ravishda tanlashni o‘rgandilar. Masalan, ochiq savollar, qayta yo‘naltirish (“Siz bu fikrga qo‘shilasizmi?”, “Boshqacha izohlasak qanday bo‘ladi?”) kabi usullar sinfda fikrlash madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, dalillash qobiliyati va o‘z fikrini erkin bildirishga tayyorligini oshirdi.

Biroq ayrim to‘siqlar ham kuzatildi. Ba’zi o‘qituvchilar uchun vaqt tanqisligi, darslardan tashqari refleksiya uchun vaqt ajratish qiyin bo‘ldi. Ayrim rahbarlar bu jarayonni “qo‘shimcha yuklama” deb qabul qilgan holatlar ham uchradi. Shu bois, tizimni maktab miqyosida joriy etish uchun rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashi va vaqtni rejalashtirish siyosati muhimdir. Metodologik jihatdan qaraganda, kommunikativ salohiyatni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv samarali ekanligi tasdiqlandi: ya’ni, dars ichida (dialogik strategiyalar), darsdan keyin (video-tahlil) va hamkasblar bilan (kouching) ishlashni bir tizim sifatida olib borish natija beradi. Faqat bitta elementni (masalan, trening) qo‘llash barqaror o‘sishga olib kelmaydi. Yana bir muhim kuzatuv shuki, kommunikativ salohiyat o‘zgarishi nafaqat nutqda, balki o‘qituvchining o‘zini tutishida, ohangida, o‘quvchi bilan muloqotda paydo bo‘lgan ishonchda namoyon bo‘ldi. Darsdagi muhit iliqroq, suhbat ochiqroq bo‘ldi. Shu sababli, bu salohiyatni rivojlantirish nafaqat til, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirishning samarali yo‘li — uni **kasbiy rivojlanish tizimining markaziy komponenti sifatida** tashkil etishdir, degan xulosani beradi. Kommunikativ salohiyatni mustahkamlash — bu shunchaki nutq madaniyatini o‘rganish emas, balki o‘qituvchining o‘z fikrini ifodalash, tinglash, muloqotda hamkorlik qilish va o‘z faoliyatini tahlil qilish madaniyatini shakllantirishdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u **maktab sharoitida o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha aniq, bosqichma-bosqich metodik tizim**ni taklif etadi. Bu tizimni pedagogik malaka oshirish markazlari, metodik birlashmalar yoki raqamli ta’lim platformalarida qo‘llash mumkin.

Shuningdek, kelgusida bu yo‘nalishda **raqamli kommunikativ kompetensiya**, ya’ni onlayn muloqot madaniyati va virtual hamkorlik qobiliyatlarini o‘rganish ham dolzarb bo‘ladi. Chunki zamonaviy o‘qituvchi faqat sinfda emas, balki raqamli makonda ham o‘z kommunikativ salohiyatini namoyon etishi kerak.

Yakuniy so‘z sifatida aytish mumkinki, o‘qituvchining kommunikativ salohiyati — bu ta’lim sifatini belgilovchi yashirin kuchdir. Uni rivojlantirish orqali biz o‘quvchilarni faqat bilimli emas, balki fikrlovchi, muloqotli va ijtimoiy faol shaxslar qilib tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahimova, D. A., & Mavlonova, R. A. (2019). *Pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Alexander, R. (2020). *A dialogic teaching companion*. London: Routledge.

3. Azizxo‘jayeva, N. N. (2006). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Inside the black box: Raising standards through classroom assessment. *Phi Delta Kappan, 80*(2), 139–148.
5. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47. https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1
6. Hattie, J. (2009). *Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. London: Routledge.
7. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected readings* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin Books.
8. Knowles, M. S. (1984). *The adult learner: A neglected species* (3rd ed.). Houston, TX: Gulf Publishing.
9. Nazarova, Z. (2022). O‘qituvchilarning reflektiv faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 4*(3), 45–52.
10. Qodirov, A. (2018). O‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv. *Ta’lim nazariyasi va amaliyoti jurnali, 2*(1), 58–64.
11. Ro‘ziyeva, D., Usmonboeva, M., & Holiqova, Z. (2021). *Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish markazi.
12. Tolipov, O‘., & Usmonboeva, M. (2005). *Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Fan nashriyoti.
13. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
14. Wenger, E. (1998). *Communities of practice: Learning, meaning, and identity*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Xasanboyeva, G. B. (2023). Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. *O‘zbekiston pedagogika jurnali, 7*(2), 33–41.

RAQAMLI KOMPETENTLIK VA SUN’IY INTELLEKT: KELIB CHIQISH TARIXI VA TA’LIMDAGI O‘RNI

Homidov Abdulqodir

Samarqand ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish markazi Axborot texnologiyalari bo‘limi katta o‘qituvchisi

ANOTATSIYA: *Ushbu maqola raqamli kompetentlik tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uzviy bog‘liqligini, shuningdek, ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rnini tadqiq qiladi. Maqolada raqamli kompetentlikning 1970-yillardan hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari, sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi integratsiyasi va O‘zbekiston ta’limida AI texnologiyalarining qo‘llanilishi tahsil etilgan. Tadqiqotda xalqaro va milliy miqyosdagi pedagogik tajribalar asosida raqamli kompetentlik va sun’iy intellektni rivojlantirishning samarali usullari taklif etilgan. Maqola zamonaviy*

pedagogika, sun’iy intellekt texnologiyalari va raqamli ta’lim sohalari uchun qimmatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetentlik, sun’iy intellekt, AI texnologiyalari, машинное обучение, ta’lim texnologiyalari, raqamli transformatsiya, axborot savodxonligi, raqamli fuqarolik, kompetensiya, pedagogik innovatsiya, raqamli ta’lim, O‘zbekiston ta’limi.*

Zamonaviy jamiyatda texnologiyalar tez rivojlanishi, ayniqsa sun’iy intellektning paydo bo‘lishi bilan birga insonlar uchun yangicha ko‘nikma va kompetensiyalar talab qilinmoqda. Shu bilan birga, raqamli kompetentlik atamasi sun’iy intellekt bilan boyib kengaymoqda. Ushbu maqolada raqamli kompetentlikning kelib chiqish tarixi, sun’iy intellekt bilan bog‘liq evolyutsiyasi va ta’lim tizimidagi o‘rnini o‘rganamiz.

Raqamli kompetentlik tushunchasi 1970-yillarda paydo bo‘la boshladi, ammo asosiy rivojlanishi 1990-yillarga to‘g‘ri keladi. Sun’iy intellektning dastlabki shakllari 1950-yillarda paydo bo‘lishiga qaramazon, uning keng qo‘llanilishi 2010-yillarda kuchaydi. 1994-yilda ingliz olimi Paul Gilster "Raqamli savodxonlik" kitobida bu tushunchani kengroq mazmunda talqin qildi, ammo sun’iy intellektning ta’siri hali to‘liq anglanmagan edi.

2000-yillarga kelib, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar raqamli kompetentlikni strategik rivojlanish omili sifatida ko‘ra boshladilar. 2006-yilda Yevropa Komissiyasi "Raqamli kompetentlik"ni 21-asr uchun asosiy kompetensiyalardan biri deb e’lon qildi. 2010-yillarda esa sun’iy intellekt raqamli kompetentlikning ajralmas qismiga aylandi.

Raqamli kompetentlik va sun’iy intellektning evolyutsiyasi

Raqamli kompetentlik tushunchasi bir necha bosqichlardan o‘tib rivojlandi:

1. **1990-yillar**: Asosan texnik ko‘nikmalar (kompyuter ishlatish, ofis dasturlaridan foydalanish)
2. **2000-yillar**: Axborot savodxonligi (ma’lumotlarni qidirish, baholash, tahlil qilish)
3. **2010-yillar**: Kommunikatsiya va hamkorlik (ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar)
4. **2020-yillar**: Raqamli fuqarolik, ma’lumotlar xavfsizligi, sun’iy intellekt bilan ishlash
5. **2024-yillar va undan keyin**: AI asosidagi qaror qabul qilish, generativ AI bilan ishlash, AI etikasi

Sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni

Shaxsiylashtirilgan ta’lim

Sun’iy intellekt har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv tajribasini yaratish imkoniyatini beradi. AI tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va tezligini tahlil qiladi va shaxsiy o‘quv rejalarini ishlab chiqadi.

Adaptiv o‘quv platformalari

AI asosidagi platformalar real vaqt rejimida o‘quvchilarning rivojlanishini

kuzatib boradi va materiallarni ularning darajasiga moslashtiradi. Bu o‘qitish samaradorligini oshiradi va bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Avtomatlashtirilgan baholash

Sun’iy intellekt nafaqat testlarni tekshiradi, balki inson qatnashishisiz murakkab topshiriqlarni, esselarni va loyihalarni baholay oladi. Bu o‘qituvchilarga ko‘p vaqt talab etadigan ma’muriy vazifalardan ozod qiladi.

Intelligent tutoring tizimlari

AI asosidagi o‘qitish tizimlari 24/7 rejimida maslahat va yordam beradi, o‘quvchilarga har qanday vaqtda va joyda o‘qish imkoniyatini yaratadi.

Raqamli kompetentlikning tarkibiy qismlari

Zamonaviy ta’limda raqamli kompetentlik quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. **Axborot va ma’lumotlar savodxonligi**
2. **Kommunikatsiya va hamkorlik**
3. **Raqamli kontent yaratish**
4. **Xavfsizlik**
5. **Muammolarni yechish**
6. **Raqamli fuqarolik**
7. **Sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalari**
8. **AI asosidagi qaror qabul qilish**
9. **Ma’lumotlar tahlili va interpretatsiya qilish**

O‘zbekistonda sun’iy intellekt asosida raqamli kompetentlikni rivojlantirish

"Raqamli O‘zbekiston-2030" strategiyasi

O‘zbekiston Respublikasining "Raqamli O‘zbekiston-2030" strategiyasi sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va raqamli kompetentlikni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berdi.

AI asosidagi ta’lim loyihalari

Mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadigan bir qancha ta’lim platformalari isga tushirildi. Ular orasida:

- **"University 4.0"** - AI asosidagi oliy ta’lim platformasi
- **"School AI"** - maktab o‘quvchilari uchun sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturi
- **"Digital Teacher"** - o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlovchi AI tizimi

Kelajakdagi istiqbollar

Raqamli kompetentlik tushunchasi sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va virtual reallik kabi texnologiyalar rivojlanishi bilan doimiy ravishda evolyutsiyada davom etmoqda. Kelajakda bu tushuncha quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanadi:

- **Generativ AI bilan ishlash** - ChatGPT, DALL-E kabi vositalardan samarali foydalanish
- **AI etikasi** - sun’iy intellektning axloqiy va ijtimoiy ta’sirini tushunish

- **Human-AI hamkorligi** - inson va AI o‘rtasida samarali hamkorlik qilish
- **AI literacy** - sun’iy intellektning asosiy tushunchalarini va qanday ishlashini bilish

Raqamli kompetentlik nafaqat texnologiyalarni qo‘llash qobiliyati, balki zamonaviy jamiyatda samarali faoliyat yuritish, mustaqil fikrlash va doimiy o‘rganish qobiliyatidir. Sun’iy intellekt esa bu kompetentlikning yangi o‘lchovini ifodalaydi. Ta’lim tizimi raqamli kompetentlik va sun’iy intellektni rivojlantirish orqali nafaqat texnologik jihatdan tayyor, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy jihatdan ham rivojlangan shaxslarni tayyorlashi mumkin. Raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt davrida raqamli kompetentlik har bir inson uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmaga aylanmoqda.

Ushbu maqola sun’iy intellektni qamrab olgan holda raqamli kompetentlikning to‘liqroq va dolzarb tasvirini beradi, zamonaviy ta’lim sohasidagi eng so‘nggi tendensiyalarni aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020).** "Raqamli O‘zbekiston-2030" strategiyasi va uning amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoni.
2. **Gilster, P. (1997).** *Digital Literacy*. Wiley Computer Pub.
3. **Eshet-Alkalai, Y. (2004).** "Digital Literacy: A Conceptual Framework for Survival Skills in the Digital Era". *Journal of Educational Multimedia and Hypermedia*, 13(1), 93-106.
4. **Russell, S., & Norvig, P. (2020).** *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
5. **Mitchell, T. (2021).** *Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans*. Penguin Books.
6. **Ala-Mutka, K. (2011).** *Mapping Digital Competence: Towards a Conceptual Understanding*. European Commission Joint Research Centre.
7. **Ferrari, A. (2012).** *Digital Competence in Practice: An Analysis of Frameworks*. European Commission Joint Research Centre.

RAQAMLI KOMPETENTLIK: KELIB CHIQISH TARIXI VA TA’LIMDAGI O‘RNI

Javlon HAKIMOV
Samarqand ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish markazi Axborot texnologiyalari bo‘limi katta o‘qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu tezis raqamli kompetentlik tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi, uning nazariy asoslari va zamonaviy ta'lim tizimidagi o‘rnini tadqiq qiladi. Maqolada raqamli kompetentlikning 1970-yillardan hozirgi kungacha bo‘lgan*

rivojlanish bosqichlari, uning tarkibiy qismlari va O‘zbekiston ta’lim sohasidagi ahamiyati tahsil etilgan. Tadqiqotda xalqaro va milliy miqyosdagi pedagogik tajribalar asosida raqamli kompetentlikni rivojlantirishning samarali usullari taklif etilgan. Maqola zamonaviy pedagogika, axborot texnologiyalari va raqamli ta’lim sohalari uchun qimmatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetentlik, raqamli savodxonlik, ta’lim texnologiyalari, raqamli transformatsiya, axborot savodxonligi, raqamli fuqarolik, kompetensiya, pedagogik innovatsiya, raqamli ta’lim.*

Zamonaviy jamiyatda texnologiyalar tez rivojlanishi bilan birga insonlar uchun yangicha ko‘nikma va kompetensiyalar talab qilinmoqda. Shu bilan birga, raqamli kompetentlik atamasi keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu maqolada raqamli kompetentlikning kelib chiqish tarixi, evolyutsiyasi va ta’lim tizimidagi o‘rnini o‘rganamiz.

Raqamli kompetentlik tushunchasining kelib chiqishi

Raqamli kompetentlik tushunchasi 1970-yillarda paydo bo‘la boshladi, ammo asosiy rivojlanishi 1990-yillarga to‘g‘ri keladi. Dastlab, bu tushuncha asosan kompyuter savodxonligi bilan chegaralangan edi. 1994-yilda ingliz olimi Paul Gilster "Raqamli savodxonlik" kitobida bu tushunchani kengroq mazmunda talqin qildi.

2000-yillarga kelib, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar raqamli kompetentlikni strategik rivojlanish omili sifatida ko‘ra boshladilar. 2006-yilda Yevropa Komissiyasi "Raqamli kompetentlik"ni 21-asr uchun asosiy kompetensiyalardan biri deb e’lon qildi.

Raqamli kompetentlikning evolyutsiyasi

Raqamli kompetentlik tushunchasi bir necha bosqichlardan o‘tib rivojlandi:

1. **1990-yillar**: Asosan texnik ko‘nikmalar (kompyuter ishlatish, ofis dasturlaridan foydalanish)
2. **2000-yillar**: Axborot savodxonligi (ma’lumotlarni qidirish, baholash, tahlil qilish)
3. **2010-yillar**: Kommunikatsiya va hamkorlik (ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar)
4. **2020-yillar**: Raqamli fuqarolik, ma’lumotlar xavfsizligi, sun’iy intellekt bilan ishlash

Raqamli kompetentlik ta’lim jarayonida o‘quv dasturlariga integratsiyasiga ham kirib bordi.

Zamonaviy ta’lim tizimlari raqamli kompetentlikni barcha fanlar va sinflarga integratsiya qilishga intilmoqda. Bu nafaqat alohida fan sifatida, balki barcha fanlarni o‘qitish usuli sifatida qaralmoqda.

O‘qituvchilar endi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki raqamli muhitda o‘qitish usullarini biladigan, raqamli vositalardan samarali foydalana oladigan mutaxassislar bo‘lishi kerak.

Raqamli kompetentlikka ega bo‘lgan talabalar:

- Mustaqil o‘rganish qobiliyatiga ega bo‘ladi
- Tangidiy fikrlashni rivojlantiradi
- Kelajak kasblariga tayyor bo‘ladi

- Global hamjamiyatda faol ishtirok eta oladi



1-rasm. Raqamli kompetentlikning tarkibiy qismlari

Raqamli kompetentlik tushunchasi sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va virtual reallik kabi texnologiyalar rivojlanishi bilan doimiy ravishda evolyutsiyada davom etmoqda. Kelajakda bu tushuncha yanada kengroq ma’nolarni o‘z ichiga olishi kutilmoqda.

Xulosa o‘rnida qaqamli kompetentlik nafaqat texnologiyalarni qo‘llash qobiliyati, balki zamonaviy jamiyatda samarali faoliyat yuritish, mustaqil fikrlash va doimiy o‘rganish qobiliyatidir. Ta’lim tizimi raqamli kompetentlikni rivojlantirish orqali nafaqat texnologik jihatdan tayyor, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy jihatdan ham rivojlangan shaxslarni tayyorlashi mumkin. Raqamli transformatsiya davrida raqamli kompetentlik har bir inson uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmaga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020).** "Raqamli O‘zbekiston-2030" strategiyasi va uning amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoni.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2021).** *Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi*.
3. **Eshet-Alkalai, Y. (2004).** "Digital Literacy: A Conceptual Framework for Survival Skills in the Digital Era". *Journal of Educational Multimedia and Hypermedia*, 13(1), 93-106.
4. **Ferrari, A. (2012).** *Digital Competence in Practice: An Analysis of Frameworks*. European Commission Joint Research Centre.
5. **European Commission. (2006).** *Recommendation of the European Parliament and of the Council on Key Competences for Lifelong Learning*.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA JADID MA’RIFATCHILARINING ILMIY IZLANISH VA G‘OYALARINI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARGA O‘RGATISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Shakarov Axror Amonqulovich
O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadid ma’rifatchilarining ilmiy izlanish, mustaqil fikrlash va ma’rifatparvarlik g‘oyalari zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatilishining ilmiy-pedagogik asoslari yoritiladi. Sun’iy intellekt vositalari orqali jadidlar merosini o‘rgatishning samaradorlik jihatlari, uning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni nazariy va amaliy misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, jadid ma’rifatchilari, pedagogik innovatsiya.*

Kirish. Jadidlar harakati O‘zbekiston ta’lim tarixida ilmiy yangilanish, ma’rifat va millat taraqqiyoti uchun kurashning yorqin namunasi bo‘lib hisoblanadi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori kabi ma’rifatchilar ilm, tajriba, tahlil va yangilikni ta’limning markaziga qo‘ygan.

Bugungi kunda ta’lim sohasida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonning nazariy asoslarini o‘rganganimizda, o‘tgan asr boshida faoliyat yuritgan jadid ma’rifatchilarining pedagogik qarashlari bilan zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt imkoniyatlari o‘rtasida chuqur ideaviy va metodik uyg‘unlik mavjudligini ko‘rish mumkin. Jadidchilik harakati vakillari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa ma’rifatparvarlar ta’limni yangilash, o‘qituvchini ilmiy izlanishga yo‘naltirish, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashni o‘z faoliyatlarining markaziga qo‘ygan. Ularning fikriga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti ilm, tafakkur, tahlil va yangilikka intilish orqali yuz beradi. Shuning uchun jadidlar dars jarayonida faktlarga tayanish, o‘rganilgan bilimni tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish, yangilik yaratish kabi ilmiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni eng muhim vazifa sifatida belgilaganlar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida esa bu tarixiy meros sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan holda yangi mazmun kasb etmoqda. Sun’iy intellekt bo‘lajak o‘qituvchilar uchun nafaqat axborot manbai, balki ilmiy izlanish olib borishning interaktiv, qulay va samarali vositasiga aylandi. SI yordamida talabalar jadid ma’rifatchilarining asarlarini tahlil qiladi, matnlardan asosiy g‘oyalarni ajratadi, fikrlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlaydi, turli tarixiy manbalarni solishtiradi va ulardan ilmiy xulosalar chiqaradi. Bu jarayon jadidlarning “o‘qituvchi izlanishi, o‘quvchi fikrlashi kerak” degan tamoyillarining bugungi zamonaviy talqini sifatida namoyon bo‘ladi.

XXI asrda esa bu g‘oyalarni zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalari orqali yanada samarali o‘qitish imkoniyati mavjud. Bo‘lajak o‘qituvchilar jadidlarning ilmiy-ma’rifiy qarashlarini SI vositalari bilan o‘rganganida:

mavzuni chuqur tahlil qiladi,
tarixiy kontekstni tez va aniq tushunadi,
ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi,
o‘z tadqiqotlarini AI yordamida boyitadi.

Bu esa jadid merosini zamonaviy talqinda qayta kashf qilish imkonini beradi.

Jadidlar ta’limni quyidagi tamoyillar asosida yangilashga intilgan:

Ilmiy asoslangan ta’lim — faktlarga tayanish, dunyo tajribasini o‘rganish.

Mustaqil fikrlash — o‘qituvchi va o‘quvchi tafakkurining erkinligini ta’minlash.

Tahliliy yondashuv — o‘rganilayotgan hodisani solishtirish, mantiqan izohlash.

Innovatsiya va yangilikka intilish — zamonaviy metodlarni izlab topish.

O‘qituvchini tadqiqotchi sifatida shakllantirish — doimiy izlanish ruhini shakllantirish.

Bu g‘oyalar bugungi kunda sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashib yanada samaraliroq shaklga ega bo‘ladi.

Sun’iy intellekt vositalari jadidlar merosini bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatishda bir qator afzalliklar yaratadi. Avvalo, SI tizimlari jadidlarning asarlarini tezkor tahlil qilib, asosiy ma’lumotlarni saralab beradi. Bu talabaga murakkab matnni oson tushunish, muhim fikrlarni ajratib olish, ilmiy savollar shakllantirish imkonini beradi. Ikkinchidan, sun’iy intellekt interaktiv o‘qitish imkoniyatlarini taqdim etadi: virtual suhbatlar, AI tomonidan yaratilgan savol-javoblar, jadidlar g‘oyalariga asoslangan avtomatik testlar va topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil o‘rganish jarayonini yanada jonlantiradi. Uchinchidan, SI tarixiy-pedagogik tahlilni chuqurlashtiradi: u jadidlarning qarashlarini zamonaviy pedagogika nazariyalari bilan solishtirib, o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatib beradi. Bu esa talabaning tahliliy va ilmiy fikrlash salohiyatini oshiradi.

Sun’iy intellekt yordamida tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish ham yuqori samaradorlik beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar SI bilan birgalikda jadidlarning merosi asosida “Behbudiy g‘oyalari va bugungi ta’lim islohotlari”, “Avloniy asarlarida axloq tarbiyasining zamonaviy talqini”, “Jadidlar qarashlari va raqamli ta’lim uyg‘unligi” kabi ilmiy mavzularni shakllantirib, ularga oid konsepsiyalar, grafiklar, matnlar va taqrizlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa nafaqat pedagogik bilim, balki amaliy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Jadidlarning asosiy g‘oyasi — o‘qituvchining izlanishga moyil bo‘lishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi ilmli insonni tarbiyalash edi. Sun’iy intellekt esa bugungi kunda aynan ana shu maqsadga xizmat qilmoqda. SI vositalari bo‘lajak o‘qituvchilarga ilmiy axborotlarni tahlil qilish, ularni qayta ishlash, ilmiy matnlar yaratish va eng muhimi — mustaqil fikrlashni shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayon jadidlarning tarixiy merosi bilan zamonaviy raqamli ta’limni integratsiyalashning eng muvaffaqiyatli shaklidir.

Sun’iy intellekt qadriyatlari orqali jadid merosini o‘rgatish imkoniyatlari

Sun’iy intellekt bo‘lajak o‘qituvchilarga jadidlar merosini quyidagicha o‘rgata oladi:

Matnlarni tahlil qilish. SI jadidlarning asarlarini qisqartirish, sharhlash, tahlil qilishga yordam beradi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat asarlarining mazmuni avtomatik tahlil qilinadi.

AI yordamida:

virtual savol–javoblar,

jadidlar g‘oyalari asosida testlar,

interaktiv topshiriqlar yaratish mumkin.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish

SI gipoteza yaratish, faktlarni tekshirish, xulosa chiqarish qobiliyatini kuchaytiradi — bu jadidlar istagan natijadir.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun metodik yondashuvlar

Jadid merosini SI orqali o‘rgatishda quyidagi metodlar samarali:

AI-Text Analysis – jadid matnlarini tahlil qilish

AI-Quiz Generator – test va savollar yaratish

AI-Research Assistant – ilmiy izlanish bo‘yicha yordamchi

Virtual Debates – jadidlar g‘oyalari bo‘yicha virtual munozaralar

Project-based learning (AI bilan) – AI yordamida tarixiy va ilmiy loyihalar yaratish

Bu metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

analitik fikrlash;

tarixiy manbalar bilan ishlash;

ilmiy izlanish olib borish;

raqamli savodxonlik;

yangilik yaratish.

Jadid ma’rifatchilarining ilmiy izlanish va yangilikka intilish g‘oyalari sun’iy intellekt vositalari orqali zamonaviy talim jarayonida yangi mazmun kasb etmoqda. SI bo‘lajak o‘qituvchilarga:

jadidlar merosini chuqur va tizimli o‘rganishga,

ilmiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga,

tadqiqot olib borishda zamonaviy vositalardan foydalanishga,

tarixiy merosni zamonaviy talqin qilishga

keng imkoniyat yaratadi.

Bu esa jadidlar merosining bugungi ta’lim uchun naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sun’iy intellekt asosida jadid ma’rifatchilarining ilmiy izlanish va ma’rifiy g‘oyalarini bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatish — nafaqat zamon talabi, balki ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan samarali yondashuvdir. Bu jarayon bir tomondan bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan jadidlar merosining yangi avlod ongida qayta tiklanishiga xizmat qiladi. Sun’iy intellektning tahlil qilish, taqqoslash, izohlash, xulosa chiqarish kabi imkoniyatlari jadidchilik g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan holda ilmiy tafakkurni rivojlantirishning kuchli vositasidir. Shunday qilib, SI texnologiyalari yordamida

jadidlarning ilmiy-pedagogik merosini o‘rganish va o‘rgatish bugungi o‘qituvchi tayyorlash jarayonining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmanov, O. (2018). *O‘zbek jadidchiligi tarixi va pedagogik merosi*. Toshkent: Fan.
2. Karimov, T. (2020). *Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari*. Toshkent: Ta’lim.
3. Mirzaev, S. (2019). *Jadid ma’rifatchilarining ilmiy-pedagogik g‘oyalari*. Toshkent: Akademiya.
4. Nazarov, D. (2021). *Sun’iy intellekt va ta’limda uning qo‘llanilishi*. Toshkent: Ilmiy nashr.
5. Salimov, A. (2022). *Oliy va kasb-hunar ta’limida interaktiv texnologiyalar*. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
6. Rustamov, F. (2017). *O‘zbekiston jadidchiligi va pedagogik merosi*. Toshkent: Fan.
7. Shokirov, M. (2021). *Digital pedagogy in teacher education*. London: Routledge.
8. UNESCO. (2020). *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities*. Paris: UNESCO Publishing.
9. Woolf, B. P. (2019). *AI in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Cambridge, MA: MIT Press.

ОТРАЖЕНИЕ В РЯДЕ ИСТОЧНИКОВ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ОДЕЖДЫ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА

Очилова Шоира Сайфиевна
Самаркандский государственный педагогический институт,
доцент каф. «Тарих»

Аннотация. *В данной статье рассмотрен процесс исторического развития традиционной одежды народов Узбекистана на основе различных источников. В частности, проанализированы письменные исторические документы, этнографические исследования, археологические находки и устные народные традиции, в которых отражены сведения о национальной одежде. Освещено влияние социальных, экономических и культурных факторов на формирование традиционного костюма, а также раскрыты его особенности в разные исторические периоды. Статья способствует изучению культурного наследия народов Узбекистана и пониманию развития исторического мышления и обычаев через призму национальной одежды.*

Как и изучение других аспектов народного быта, исследование национальной одежды тесно связано с этнической историей и культурой каждого народа, а также с его взаимодействием с другими этносами. Она представляет собой не только материальное и духовное наследие, но и

критерий, отражающий национальную самобытность и этнические особенности народов. В этом смысле изучение истории одежды дает обширную информацию о богатом культурном наследии народов, существующих на Земле на протяжении тысячелетий, а также о их традициях и образе жизни. Одежда не только удовлетворяет естественные и эстетические потребности человека, но и отражает обычаи каждого народа, социальные отношения, отдельные элементы мировоззрения, религиозные убеждения, представления о красоте и эстетические нормы. Кроме того, в одежде находят отражение место и время, в котором жил человек, его жизненные реалии, радостные и печальные события.

Одежда является составной частью материальной и духовной культуры общества. С одной стороны, будучи результатом человеческого труда, она обладает определённой материальной ценностью и удовлетворяет определённые потребности, с другой стороны, она представляет собой образец прикладного и декоративного искусства.[84]

Подобно архитектурным сооружениям, орудиям труда и бытовым предметам, одежда также отражает особенности исторического периода, природно-климатические условия страны, национальную самобытность народа и его представления о красоте. Хотя понятия «одежда» и «наряд» кажутся схожими по своей сути, между ними существуют определённые различия.

Под одеждой, прежде всего, понимаются предметы, предназначенные для покрытия различных частей тела человека и защищающие его от воздействия окружающей среды. Одежда включает в себя несколько видов: нижняя одежда, верхняя одежда, носки разной длины, обувь и головные уборы. В совокупности с различными аксессуарами, украшениями, причёской и косметикой эти предметы формируют наряд.[85] Именно наряд выражает социальное происхождение человека, его индивидуальные особенности, возраст, пол, характер и эстетический вкус.

Некоторые исследователи считают, что одежда появилась из-за чувства стыда, другие утверждают, что причиной стало желание украсить своё тело, а третьи полагают, что человек почувствовал необходимость в одежде для защиты от холода.

Действительно, многих интересует вопрос: когда появилась одежда? Почему человечество почувствовало в ней потребность? Чтобы ответить на эти и подобные вопросы, на помощь приходит наука о древности – археология. Археологические раскопки показывают, что одежда возникла в глубокой древности, ещё в период раннего развития человечества (около 40–25 тысяч лет до н.э.).[86] Обувь же появилась несколько позже и поначалу была менее распространённой по сравнению с другими элементами одежды.

[84] Бикжанова М.А. Одежда узбечек Ташкента Х1Х-начала ХХ века // Костюм народов Средней Азии. М., 1979. С. 135.

[85] Горшунова О .В. Указ.соч. С.21.

[86] Пугаченкова, Г. А. Очерки искусства Средней Азии / Г. А. Пугаченкова, Л. И. Ремпель. — М.: Искусство, 1982

И также историография изучения традиционной одежды узбекского народа в рамках этнографической науки имеет свою хронологию, но в целом ее основные этапы совпадают с ключевыми вехами развития историографии этнологии. Существуют различные подходы к периодизации научных исследований в этой области. В современной науке принято деление историографии на три периода: досоветский, советский и период независимости. Эта периодизация в целом отражает основные традиции изучения этнологии и этнографии в Узбекистане.

Более детализированную периодизацию предлагают исследователи М.А. Ахунова и Б.В. Лунин, а также узбекский ученый А.Х. Дониеров, занимающийся проблемами историографии и этнологии. В их работах прослеживаются различные этапы изучения традиционной одежды узбекского народа в контексте развития этнографической науки.

М.А. Ахунова и Б.В. Лунин выделяют следующие периоды:

- начало XX века – Октябрьская революция 1917 года;
- 1917 – середина 1930-х годов;
- вторая половина 1930-х – середина 1950-х годов;
- середина 1950-х – 1970-е годы.

А.Х. Дониеров предлагает более подробную периодизацию, включающую:

- колониальный период (до Октябрьской революции);
- 1917 – 1930-е годы – становление национальной исторической науки и этнографической мысли;
- 1940–1950-е годы – развитие этнографических школ;1960-е годы – «период оттепели», когда появляются работы, стремящиеся выйти за рамки жесткой идеологической цензуры;
- период независимости Республики Узбекистан, в котором расширяется исследовательская деятельность и внимание к национальному культурному наследию.[87]

Изучение традиционной одежды узбекского народа проходило через те же исторические этапы. В досоветский период этнографические наблюдения носили описательный характер, а исследования традиционной одежды в основном ограничивались путевыми заметками путешественников и записками востоковедов. В советский период, особенно в 1930–1950-е годы, изучение традиционной одежды происходило в контексте марксистско-ленинской методологии, акцент делался на социально-экономические факторы. В 1960-е годы наблюдается некоторое расширение тематики исследований, однако жесткие идеологические рамки сохранялись.[88]

После обретения независимости Узбекистана значительно возрос интерес к национальной культуре, что привело к углубленному изучению традиционной одежды узбекского народа как важного элемента этнокультурного наследия.

[87] Ахунова М.А., Лунин Б.В .История исторической науки в Узбекистане.

Краткий очерк. Ташкент, 1970.

[88] Аширов А.А. Узбек халкининг кадимий эътщод ва маросимлари. Тошкент, 2007

Исследователи стали уделять внимание не только эстетическим и утилитарным функциям традиционных костюмов, но и их символическому значению, региональным особенностям и процессам трансформации в современном обществе.

Наиболее ранние сведения об образе жизни, материальной и духовной культуре населения Центральной Азии были зафиксированы в «Авесте». Этот древний источник содержит информацию о социальной организации, традициях и верованиях древних народов региона, включая особенности их одежды.

Дальнейшее развитие знаний о культуре и традиционной одежде народов Центральной Азии связано с трудами выдающихся средневековых ученых. Абу Али ибн Сина (Авиценна), помимо медицинских и философских трудов, уделял внимание вопросам материальной культуры. Абу Райхан Бируни, известный своими исследованиями по этнографии, географии и истории, подробно описывал быт и обычаи народов, включая их одежду. Махмуд Кашгари в своем труде «Диван лугат ат-турк» зафиксировал ценные сведения о тюркских народах, их языке, традициях и элементах материальной культуры. Захириддин Мухаммад Бабур, основатель империи Великих Моголов, в своей автобиографической книге «Бабур-наме» подробно описал народы, их быт, культуру и одежду.

Труды этих ученых стали важным источником для последующих исследований традиционной одежды узбекского народа, отражая изменения в ее формах, функциях и символическом значении на протяжении веков.

В XVIII веке в России и других европейских странах возрастает интерес к Центральной Азии, что обусловило более пристальное внимание к этнографической характеристике местного населения, его быту и культуре, включая традиционную одежду.

В этом контексте особый вклад внесли труды российского ученого П.Небольсина и венгерского путешественника и востоковеда Г. Вамбери.[89] Павел Иванович Небольсин[90] (1817–1893) в своих исследованиях подробно описывал различные аспекты жизни народов Средней Азии, уделяя внимание их национальным костюмам, материалам, техникам шитья и традиционному декору.

Герман Вамбери (1832–1913), венгерский востоковед, путешествовавший по Центральной Азии в середине XIX века, в своих трудах представил ценные этнографические наблюдения, включая описания одежды узбеков, особенностей её покроя, цветовой гаммы и региональных различий. Он отметил

[89] Вамбери Г. Путешествие в Бухару. М., 1886. С.112-174

[90] Небольсин П.Очерки торговли России со странами Средней Азии. СПб., 1856. С Л 24.

влияние кочевого и оседлого образа жизни на формирование традиционных костюмов.[91]

Работы этих исследователей стали важными источниками для дальнейшего изучения традиционной одежды узбекского народа, их материалы легли в основу последующих этнографических исследований, проводимых в Российской империи и Европе.

Результатом многолетних исследований В.Л.Ворониной стали публикации, посвященные архитектурным особенностям традиционного жилища узбеков Ферганской долины и других регионов Средней Азии. В своих работах она выделила три школы народного зодчества: ферганскую, бухарскую и шахрисабзскую, подчеркнув, что в XIX веке существенных различий между ними не наблюдалось. Эти исследования свидетельствуют о тесной связи народного быта с природно-климатическими условиями и культурными традициями, что непосредственно отражалось и в традиционной одежде узбекского народа.[92]

Как и архитектурные традиции, национальная одежда узбеков формировалась под влиянием природных условий, социального уклада и художественного вкуса. Например, в Ферганской долине, известной своим тёплым климатом, широко использовались лёгкие ткани, такие как адрас, атлас, шойи, тогда как в более суровых условиях Бухары и Шахрисабза предпочтение отдавалось плотным материалам, таким как бархат, камка, зарбафт.

Традиционное жилище и национальный костюм также объединяет символика орнамента, передающая региональные особенности и этническую самобытность. Если в архитектуре узбеков преобладают геометрические узоры, резьба по дереву и ганчевые украшения, то в одежде аналогичную роль играют вышивка, гулли нақшлар (бутонные узоры), растительные и геометрические мотивы, характерные для определённых областей. Таким образом, традиционная одежда узбеков и народная архитектура Средней Азии представляют собой важные элементы материальной культуры, отражающие исторические, социальные и эстетические аспекты жизни узбекского народа.[93]

Таким образом, традиционная одежда узбеков и народная архитектура Средней Азии представляют собой важные элементы материальной культуры, отражающие исторические, социальные и эстетические аспекты жизни узбекского народа. Важной особенностью национального костюма является его связь с региональными традициями и историческими условиями, в которых формировались те или иные элементы одежды. Например, в горных районах преобладали тёплые плотные ткани, тогда как в пустынных местностях

[91] Зунунова Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX - начало XXI в.). / Г.Ш. Зунунова; отв. ред.: З.Х. Арифханова. Д.А. Алимова; Академия наук Республики Узбекистан, Институт истории. – Ташкент.:2 013. с: 31

[92] Воронина В.Л.Старые жилые дома в Фергане // Архитектура СССР (АС). 1940. №3.С 45-62;

[93] Зунунова Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX - начало XXI в.). / Г.Ш. Зунунова; отв. ред.: З.Х. Арифханова. Д.А. Алимова; Академия наук Республики Узбекистан, Институт истории. – Ташкент.:2 013. с: 37-38

использовались более лёгкие и дышащие материалы. Цветовая гамма и узоры также несли в себе глубокий смысл, символизируя социальный статус, возраст и даже семейное положение человека.

Кроме того, традиционная одежда узбеков выполняла не только практическую, но и ритуально-символическую функцию. Вышитые узоры и орнаменты часто воспринимались как обереги, защищающие владельца от злых духов и недобрых взглядов. Особенно это проявлялось в женской одежде, где вышивка, головные уборы и украшения имели сакральное значение. Национальный костюм и традиционная архитектура остаются важными объектами исследования в области этнографии, истории и искусства. Они не только помогают понять прошлое узбекского народа, но и продолжают вдохновлять современных дизайнеров и архитекторов, способствуя сохранению и развитию культурного наследия.

Использованная литература

1. Ахунова М.А., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. Краткий очерк. – Ташкент, 1970.

2. Аширов А.А. Узбек халкининг кадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007.

3. Бикжанова М.А. Одежда узбечек Ташкента XIX – начала XX века // Костюм народов Средней Азии. – М., 1979.

4. Вамбери Г. Путешествие в Бухару. – М., 1886.

5. Воронина В.Л. Старые жилые дома в Фергане // Архитектура СССР (АС). – 1940.

6. Горшунова О.В. Указ. соч. – С. 21.

7. Небольсин П. Очерки торговли России со странами Средней Азии. – СПб., 1856.

8. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – М.: Искусство, 1982.

9. Зунунова Г.Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX – начало XXI в.). / Отв. ред.: З.Х. Арифханова, Д.А. Алимова; Академия наук Республики Узбекистан, Институт истории. – Ташкент, 2013.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Xolmurodov Behzod Botir o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi va uning talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mustaqil ta’lim jarayonini takomillashtirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning o‘rni yoritilib, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *kredit-modul, mustaqil ta’lim, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim, gamifikatsiya, sun’iy intellekt.*

Kirish. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy ta’lim standartlariga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, bunda kredit-modul tizimi muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimning joriy etilishi o‘quv jarayonining shaffofligini ta’minlash, talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirish hamda ularning individual ta’lim yo‘lini shakllantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish zarurligini ta’kidlab, “Talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yangilik yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish – zamonaviy ta’limning eng muhim vazifasidir” degan edi [1]. Ushbu fikr ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartib”da talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish uchun pedagogik va axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanish, masofaviy ta’lim resurslarini yaratish hamda o‘qituvchi-tutorlar faoliyatini takomillashtirish zarurligi qayd etilgan [2]. Shu bois, kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur tadqiqotda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar, ularning o‘quv motivatsiyasiga va o‘zlashtirish darajasiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Kredit-modul tizimi — o‘quv jarayonini talabaning individual ta’lim yo‘lini inobatga olgan holda tashkil etishga qaratilgan zamonaviy o‘qitish tizimidir. Ushbu tizimda o‘qitish jarayoni modullar asosida tuziladi, har bir fan ma’lum miqdordagi kredit birliklari bilan baholanadi. Talaba o‘zining o‘quv faoliyatini rejalashtirish, bilimini baholash va nazorat qilish jarayonida faol ishtirok etadi.

N. Imamovaning ta’rifida mustaqil ta’lim — bu o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish, turli murakkablik darajasiga ega topshiriqlar va amaliy vazifalarni auditoriyada ham, undan tashqarida ham ijodiy va mustaqil bajarish orqali nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar hamda malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyat sifatida izohlanadi [3]. Mustaqil ta’limni tizimli, nazariya va amaliyotni birlashtiruvchi, ijodiy va mustaqil faoliyatga asoslangan jarayon sifatida talqin qiladi. P. Husanboyeva ta’rifiga ko‘ra, mustaqil ta’lim – bu o‘quv materiallarini o‘z kuchi bilan o‘zlashtirish, turli murakkablik darajasiga ega topshiriqlar hamda amaliy mashqlarni auditoriyada va undan tashqarida ijodkorlik hamda mustaqillik asosida bajarish orqali nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli jarayondir [4].

Mustaqil ta’lim kredit-modul tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u talabaning o‘z ustida mustaqil ishlashi, bilimni mustahkamlashi, tahlil qilish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mustaqil ta’limni to‘g‘ri tashkil etish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim soatlari o‘quv yuklamasining 30–50 foizini tashkil etadi. Bu jarayonning samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining metodik yondashuvi, elektron resurslarning mavjudligi hamda talabaning motivatsiyasiga bog‘liq [5].

Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar deganda, o‘qitish jarayoniga axborot-kommunikatsiya vositalarini, raqamli platformalarni, interfaol metodlarni va masofaviy o‘qitish tizimlarini integratsiya qilish tushuniladi[6].

Bugungi kunda talabalarning mustaqil ta’limini qo‘llab-quvvatlashda quyidagi texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

- **LMS (Learning Management System)** – masofaviy ta’limni boshqarish tizimlari (Moodle, Google Classroom, Edmodo) orqali topshiriqlarni nazorat qilish va tahlil etish;
- **Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari** – test, diagnostika, va baholash tizimlarini avtomatlashtirish;
- **Gamifikatsiya** – o‘quv faoliyatiga o‘yin elementlarini kiritish orqali talabalarning faolligini oshirish.

Bu texnologiyalar talabalarning mustaqil ishlashini osonlashtiradi, ularni o‘z o‘qish faoliyatini boshqarishga o‘rgatadi hamda o‘qituvchi-tutor rolini nazoratchidan yo‘naltiruvchiga aylantiradi.

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun ta’lim mazmunini individuallashtirish, interfaol metodlardan foydalanish va talabalarning refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.



1-rasm. Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarning olib keladigan natijalari.

Masalan, elektron portfolio texnologiyasidan foydalanish talabaning yillik o‘quv natijalarini tizimli kuzatish imkonini beradi. Sun’iy intellektga asoslangan baholash platformalari esa talabaning bilim darajasini aniqlashda xolislikni ta’minlaydi [7]. Shuningdek, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tahlil qilishda analitik dasturlar (Learning Analytics)dan foydalanish, ularning o‘zlashtirish dinamikasini raqamli ko‘rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini monitoring qilishda muhim metodik vosita hisoblanadi [8].

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda quyidagi muammolar uchraydi (2-rasm).

2-rasm. Mustaqil ta’limni tashkil etishdagi muammolar.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun:

1. O‘qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo‘yicha malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish [9];
2. Mustaqil ta’lim uchun milliy elektron resurslar bazasini yaratish;
3. Baholash tizimiga AI-diagnostika vositalarini integratsiya qilish;
4. Talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish maqsadida gamifikatsiya elementlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish — ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar bu jarayonning asosi bo‘lib, ular talabaning o‘quv faoliyatini mustaqil boshqarish, raqamli fikrlash va muammoli vaziyatlarda ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish, o‘qituvchi-tutorlarning raqamli savodxonligini oshirish va ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot infratuzilmasini yaratish mustaqil ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 480 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli buyrug‘i “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartib”. – Toshkent, 2024. – 4 b.
3. Ibodova M.N. Biologiyadan o‘quvchilarning mustaqil ishlarini axborot resurslari vositasida takomillashtirish metodikasi (akademik litseylar misolida). Ped. fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. –T.: 2019. –B.52.
4. Савченко И. В. Электронная учебная книга по педагогике как образовательный ресурс и средство организации самостоятельной работы студентов в условиях диверсификации высшей школы: Дис. . канд. пед. наук: 13.00.01 Ростов н/Д, 2007. 237 с.
5. Xolmurodov Behzod Botir o‘g‘li. (2025). Organizational and Technical Conditions for Establishing Students' Independent Learning with The Help of Artificial Intelligence. Nvpubhouse Library for American Journal of Applied Science and Technology, 5(07), 76-81.

6. Xodjayeva N., Raximova D. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 196 b.

7. Anderson J. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications.* – New York: Springer, 2019. – 254 p.

8. Qodirov A. *Raqamli ta’lim texnologiyalarining ta’lim samaradorligiga ta’siri.* – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 210 b.

9. Z. Mansurov (2024). Informal ta’limning o‘qitish samaradorligini oshirishdagi roli. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(54), 232-237.

ZAMONAVIY TA’LIM VA TARBIYADA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY QARASHLARINING UYG‘UNLASHUVI

Zoirova Sevinchbonu Xurshid qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asr boshidagi yirik ma’rifatparvar va jadidchilik harakatining yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilgari surgan g‘oyalari zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg‘un holda yoritilgan. Bugungi ta’limdagi ayrim muammolar va ular Behbudiy qarashlari asosida tahlil qilinib, ularning yechimlari sifatida berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, zamonaviy ta’lim, raqamlashtirish.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy — o‘zbek xalqining buyuk ma’rifatchisi, jadidchilik harakatining yetakchi namoyondalaridan biri bo‘lib, u ta’lim va tarbiyani millat ravnaqi va kelajak poydevori sifatida ko‘rgan. Behbudiy “ilm – hayot chirog‘i” deya xalqni o‘qishga, zamonaviy bilim olishga, ma’rifat yo‘li bilan jaholatdan chiqishga chaqirgan. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangicha metodikalar va axloqiy tarbiya jarayonlari aynan Behbudiy orzu qilgan g‘oyalar bilan uyg‘unlashib bormoqda.

U xalqni, millatni ilm, ma’rifat va tarbiya orqali yuksaltirishni o‘z hayotining asosiy maqsadi deb bilgan. Uningcha, millatning ravnaqi ta’lim sistemasining rivojiga bog‘liq. Shuning uchun ham u eski usuldagi maktablarni isloh etish, zamonaviy fanlarni yosh avlodga o‘qitish, yosh avlodni dunyoqarashi keng, fikrlashi toza, axloqan pok va vatanparvar qilib tarbiyalash zarur ekanligini ta’kidlagan.

Behbudiy nazarida haqiqiy ta’lim va tarbiya — bu insonni faqat bilim bilan emas, balki to‘g‘ri tarbiya bilan ham qurollantirish. U ilmni jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili, tarbiyani esa insonni komillikka yetkazuvchi buyuk yo‘l deb hisoblagan. Uning fikricha, bolalar dars jarayonida nafaqat yozuv va hisobni, balki halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insof kabi umumiy fazilatlarni ham o‘rganishlari kerak.

Ma’rifatchi ayollarning ta’limiga ham katta ahamiyat qaratgan. U onaning savodli bo‘lishi, o‘qishini kelajak avlod tarbiyasi hamda ta’limining kaliti deb bilgan, chunki “Ilmli ona – ilmli millatning asosi” degan fikrni ilgari surgan. Behbudiy ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni saqlash bilan birga, dunyoviy bilimlarni ham egallashni taklif qilgan. Bundan tashqari maqolalarining aksariyatida Turkiston

maktab-madrasalarining islohi, bu borada qilayotgan sa’y-harakatlar haqida edi. “ Behbudiy maqolalarining ko‘bisi muhim mavzularda yozilg‘on bo‘lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturulamal bo‘laturg‘on foydalik so‘zlardur”, deb yozadi Hoji Muin.

Uning qarashlarini bugungi kun bilan solishtiradigan bo‘lsak, Turkistondan tashqaridagi vaqtli matbuot nashrlaridagi “Aziz talabalarga murojaat” maqolasida asosiy urg‘uni madrasa talabalari tehsil olayotgan darsliklar mazmun-mohiyatini anglatishga, yangi davr talabasi yangicha fikrlar beradigan zamonaviy darsliklardan o‘qib o‘rganishlariga qaratgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning bunday g‘oyalari asosida millatimizda bir qancha fanlar doirasida yoshlarga ta’lim-tarbiya berib kelinmoqda. Xususan, uzluksiz ta’lim tizimi, ayollar ta’limining kengayishi, STEAM yo‘nalishidagi darslar, maktablardagi o‘tkazilayotgan ma’naviyat soatlari hamda milliy g‘oya va vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi mavzular jarayonlari kengayib bormoqda, bu esa Behbudiy orzularining zamonaviy shaklidir. Behbudiy “Oina” jurnalida bosilgan yoshlarni diniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga, ikki emas, to‘rt tilni o‘zlashtirishga da’vat etuvchi maqolalarida ham bugungi yoshlarga taalluqli so‘zlar bitilgan. “Turkiston viloyatining gazeti” qariyb har bir sonida kitob sotib olib o‘qish imkoniga ega bo‘lmagan kishilarda kutubxonaga qiziqishning tobora ortib borayotgani haqida xabar berib borilgan. Bu esa har bir joyda kutubxonalar tashkil etish va ulardan keng foydalanish, jamoat joylarida hamda har bir o‘quv dargohida kutubxonalar bo‘lishi va ulardan hamma keng foydalanishini ta’minlashni yo‘lga qo‘yishga sabab bo‘lgan.

XXI asrda ta’lim-tarbiya tizimi oldida turgan eng katta muammolardan biri — bu ma’naviy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishidir. Yangi texnologiyalar, globalizatsiya, chet el madaniyatlarining kirib kelishi o‘zbek xalqining an’anaviy tarbiya usullariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ayrim yoshlar orasida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy barkamollikka intilish, vatanparvarlik, halollik va odoblilik kabi qadriyatlarga befarqlik holatlari kuzatilmoqda.

Bugungi kundagi ta’lim tizimidagi muammolarga yuzlansak va uni Behbudiy qarashlari asosida yechim topsak, muammolar kamayadi deb o‘ylayman. Masalan, ba’zi joylarda nazariya ustuvor tarzda o‘qitilyapti, ammo amaliyot kam. Bu esa talabalarda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashda kamchilik va muammoga olib kelishi mumkin. Buning yechimini beradigan bo‘lsak, “Behbudiycha yondashuv” ya’ni – “Ilm+axloq+amaliyot” tamoyilini joriy etish orqali talabalarda olgan bilimlarini darhol amaliyotda qo‘llash orqali olgan bilimlari yanada mustahkamlanadi hamda butun umrga yodda saqlab qolish holati yuz beradi deb aytolamiz. Bundan tashqari, yoshlar orasida ma’naviy motivatsiyaning yetarli emasligi ko‘plab o‘quvchilar ta’limida baho olish, diplom olish degan nazariya bilan emas, balki insoniy kamolot sari ilm o‘rganish, “komil inson” bo‘lish uchun harakat qilish zarurligini chuqur anglamaydilar. Buning yechimi esa Behbudiyning qarashlari bilan oladigan bo‘lsak, o‘quvchi shaxsini faollikka chorlash, uni chuqur izlanishga, fikrlashga undash, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ijod qilish, savol

berishga undash hamda ushbu o‘rganganlarini amaliyotga joriy qilgan holda rag‘batlantirish yo‘llari orqali bugungi kun ta’limining vazifasini o‘tagan bo‘lamiz.

Shuningdek, internet va axborot oqimida ma’naviy filtrlash kuchsiz va cheksizligi tufayli yoshlar ongida turli salbiy g‘oyalar, internetga qaramlilik, begona madaniyatlar ta’siri, vaqtning besamar sarflanishi, berilgan vazifalarni o‘z mustaqil bajarmasdan internet orqali ko‘-ko‘rona ko‘chirish ta’sirlari kuchaymoqda. Bu esa milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarni qadrlash, fikrlashning susayishi, xotiraning barqarorligi, bilimlarni amalda qo‘llash, mustaqil izlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologiyalarni ma’rifat vositasiga aylantirish, ya’ni internet va raqamli resusrslardan foydali, tarbiyaviy va milliy mazmundagi kontentlarni yaratish orqali yoshlarni ijobiy g‘oyalarga yo‘naltirish lozim. Behbudiy ta’lim tizimining muvaffaqiyati avvalo muallimning bilim va ma’naviy salohiyatiga bog‘liqligini ta’kidlagan. Shu bois o‘qituvchilarning doimiy o‘qish, yangiliklardan xabardor bo‘lishi va metodik mahoratini oshirishi zarur.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ilgari surgan g‘oyalar — bugungi ta’lim va tarbiya siyosatining ma’naviy ildizidir. U xalqni ma’rifatga, yoshlarni ezgulikka, jamiyatni yangilanishga chorlagan. Zamonaviy O‘zbekiston ta’lim tizimi aynan shu g‘oyalarga tayanmoqda: ilmli, ma’naviy, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash. Demak, Behbudiy merosi – o‘tmish xotirasi emas, balki kelajak taraqqiyotining yo‘lchi yulduzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdirashidov Z. “Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy”.-T,:”Yoshlar nashriyot uyi”, 2022.-73-75-b.

2.Naim Karimov. “Mahmudxo‘ja Behbudiy”.-T.www.ziyouz.com kutubxonasi, 2010.-25-27-b.

3. Normatova, M. “Behbudiy va jadidchilik harakati ta’lim tizimida.” – Ta’lim va tarbiya jurnali, 2021-yil, №5.

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Doniyorov Ibrohim Eshquvvatovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy rivojlatirish jarayonida tinglovchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining “Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish” blokidagi 1.1 “Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy*

hujjatlar” modulining tinglovchilar huquqiy savodxonligini rivojlantirishdagi ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Uzluksiz kasbiy rivojlantirish, tinglovchi faoliyati, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, hamkorlik, interfaol mashg‘ulotm samaradorlik.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79-son farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son Qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246 son buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur vazifalarni samarali hal qilishda I.“Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish” blokidagi 1.1.“Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar” modulining ham ahamiyati katta hisoblanadi. Modul 8 soat, nazariy mashg‘ulot 2 soat, 6 soat amaliy mashg‘ulotdan iborat bo‘lib, maktab pedagog kadrlarining huquqiy savodxonligini yanada rivojlantirishda keng didaktik imkoniyatga ega.

Ushbu modul umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanishini, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish nuqtai-nazaridan o‘z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, huqiqyiy bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish blokidagi 1.1. “Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar” moduli tinglovchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan ularning kasbiy faoliyatida quyidagi kasbiy kompetentlilik komponentlarini rivojlantirishda yanada dolzarblik kasb etadi:

- o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va huqiqiy savodxonlik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirish;
- ularning huquqiy madaniyaning doimiy ravishda rivojlanish uzluksizligini ta’minlash;
- modulni zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitish asosida ularning kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali huquqqiy savodxonlik nuqtai-nazaridan yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishtirish;

- jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini o‘rgatishni zamonaviy yondashuvlar hamda innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish imkoniyatlari beradi.



1-chizma. Modulni o‘qitishda huquqiy savodxonlikni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalar.

I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish blokidagi 1.1. “Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar” modulini innovatsion ta’lim metodlarini foydalanib huquqiy savodxonlikni rivojlantirish yuzasidan amaliy tavsiyalar.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra darslarida ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Huqiqiy savodxonlikni rivojlantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Modul yizasidan darslarida tinglovchilarning demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Modu;l yuzasidan dars mashg‘ulotlarida ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyixalash usullari va amaliy ishlardan ham samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son farmoni, - T.: 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori, - T.: 2024.
3. Wendy Conklin M.A. Higher-Order Thinking Skills to Develop 21st Century Learners, Shell Education. 2012.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yoTlari. - T.: TDPU, 2005 y.
5. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat / S.A.Madiyarova va boshq. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009.

O‘QUVCHILARGA YO‘NALTIRILGAN O‘RGANISH MUHITINI YARATISH

Pulatova Zulfiya Sheraliyevna
SamVPMM kimyo fani metodisti
Mamatova Sitora Egamberdiyevna
SamVPMM fizika va astronomiya fani metodisti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘rganish tamoyillariga asoslangan ta’lim muhitini yaratishning nazariy va amaliy asoslari ko‘rsatib o‘tilgan. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga uning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *HPL modeli, 5E modeli, 3C+1E modeli, Kipling modeli, STAR Legacy modeli, Learner-centered, Knowledge-centered, Assessment-centered, Community-centered.*

O‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘qitish — bu ta’lim jarayonini o‘qituvchi markazidan o‘quvchi markaziga o‘tkazishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu yondashuvda o‘quvchi bilim oluvchi passiv isntirokchi emas, balki faol, mustaqil o‘rganishga mas’ul shaxs sifatida qaraladi. O‘quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, avvalgi bilimlari, ijtimoiy va madaniy tajribasi hisobga olinadi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi markazidagi yondashuv o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijodiy yondashuvga undaydi.

Masalan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda milliy o‘quv dasturlari yangilanishi jarayonida interfaol metodlar, mustaqil ta’lim topshiriqlari va amaliy mashg‘ulotlar ulushi ortib bormoqda. Bu esa o‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘rganish muhitni yaratish uchun shart-sharoitlar yaratilayotganidan dalolat beradi.

Dars jarayonini samarali va sifatli tashkil etish uchun markazda o‘quvchi bo‘lishini ta’minlash hozirdi ta’lim jarayonining asosiy muammosi sanaladi. Buning uchun o‘quvchilar mavzuni nazariya orqali emas, amalda his qilishi kerak. Bunda darhol interaktiv kayfiyat yaratilishi zarur. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda noodatiy usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lib olinadi va uchta noodatiy usul tanlanadi. Bu vazifani bajarishda ularga tanlov erkinligi beriladi, masalan rasm chizish, sxema tuzish, 3 jumlada ifodalash, rolli o‘yin ko‘rinishida namoyish qilish mumkin.

Har bir guruh o‘z ishini taqdim etish davomida ularga savollar beriladi. Masalan, “O‘zingizni qanday his qildingiz? Tanlov imkoniyati sizga qanday ta’sir qildi?”. Mana shu erkinlik va fikr bildirish imkoniyati — o‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitning asosiy tamoyillaridan biridir. O‘quvchi dars jarayonida shuni his qilsa, uning motivatsiyasi, faolligi va ijodiyligi oshadi.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun bir qancha pedagogik modellar ishlab chiqarilgan. Misol tariqasida, HPL, 5E, 3C+1E, Kipling, STAR Legacy modeli

va boshqalar.

HPL (HOW PEOPLE LEARN) modeli

HPL (How People Learn) — 397ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun ishlab chiqilgan 397pedagogik model bo‘lib, insonlar qanday o‘rganishini tushuntiradi.

Model to‘rt asosiy yo‘nalishga tayangan:

Learner-centered

Assessment-centered **Knowledge-centered**



Community-centered

1. O‘quvchiga yo‘naltirilgan (Learner-centered) — o‘quvchining avvalgi bilimlari, tajribasi va qiziqishlarini hisobga olish. O‘quvchining individual farqlarini inobatga olish, uning o‘z o‘rganish jarayoniga mas’uliyatini oshiradi.

2. Bilimga yo‘naltirilgan (Knowledge-centered) — ta’lim jarayonida bilimlarni chuqur tushunishga yo‘naltirish, faktlarni yodlashdan ko‘ra, mantiqiy bog‘lanishlar va tushunchalar tizimini shakllantirish.

3. Baholashga yo‘naltirilgan (Assessment-centered) — o‘quvchilarning rivojlanishini doimiy kuzatish, teskari aloqa berish, o‘z — o‘zini baholash va o‘zaro baholash imkoniyatlarini yaratish.

4. Jamoaga yo‘naltirilgan (Community-centered) — o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, muloqot va qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirish, shuningdek, oila va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Har bir yo‘nalish o‘quvchilarning bilim olish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Masalan, kimyo darslarida oilada iste’mol qilinadigan tuzning yodlangan yoki yodlanmaganligini aniqlash uchun o‘quvchilar tajriba o‘tkazadilar. O‘qituvchi ularga resurslar beradi, savollar beradi va natijada o‘zaro baholash o‘tkaziladi. Yoki, fizika darslarida zanjirni ketma-ket va parallel ulash bo‘yicha amaliy tajriba qilib ko‘rishadi va xonadonlarda elektr tokini ulashning eng samarali usulini bilib olishadi. Bunda o‘qituvchi ularga kerakli jihozlar va tavsiyalar beradi hamda o‘zaro baholashni o‘tkazadi.

O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitni yaratishda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim: a) Individual yondashuv — o‘quvchining qobiliyatini, o‘rganish uslubini, qiziqishlarini inobatga olish; b) Faollik va ishtirok — o‘quvchilarni bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish; c) Mustaqillik — o‘quvchilarni o‘z o‘rganish faoliyatiga mas’ul bo‘lishga undash; d) Hamkorlik — o‘qituvchi va o‘quvchilar hamda o‘quvchilar o‘zaro hamkorligini rivojlantirish; e) Refleksiya — o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va xatolardan saboq olish imkonini yaratish.

Har bir darsda o‘quvchilarga mustaqil ishlash, juftlik va guruh bo‘lib ishlash, shuningdek, o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatini berish muhim hisoblanadi.

O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitni shakllantirishda quyidagi komponentlarga e’tibor berish kerak: a) Psixologik qulaylik — darsda o‘quvchilar erkin fikr bildira oladigan, savol berishdan qo‘rqmaydigan muhit yaratish; b) Jismoniy muhit — sinf xonasi joylashuvi va jihozlari guruhli ishlash, munozara o‘tkazish imkonini beradigan tarzda bo‘lishi; c) Metodik yondashuv — dars jarayonida interfaol metodlardan, loyihaviy ishlardan va amaliy topshiriqlardan foydalanish.

O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitda o‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rganadi, o‘z o‘rganish jarayoniga javobgarlik hissi ortadi, bilim olishga ichki motivatsiya kuchayadi, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu yondashuv kelajakda ijtimoiy faol, mas’uliyatli va ijodkor shaxslar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhit zamonaviy ta’limning eng muhim talabi hisoblanadi. HPL, 5E, 3C+1E, Kipling, STAR Legacy modellari ta’lim jarayonni samarali tashkil etish uchun mukammal metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sherov D. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining ilmiy nazariy asosi. CyberLeninka — 2021.

2. Abddaliyeva F., Kurbonboyeva D. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda o‘qituvchi roli. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar — 2022.

3. Egamnazarov M. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi. Jdpu — 2023.

4. https://iris.peabody.vanderbilt.edu/.

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN 5E MODELI ASOSIDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA FOYDALANISH METODIKASI

Kamolova Uljon
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Fanlarni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi
Xatamova Fazilat
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish
bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada an’anaviy ta’lim va zamonaviy ta’lim tizimining xususiyatlari, o‘qituvchilarning kasbiy bilim darajasi, pedagogik mahoratining o‘quvchilar ta’lim olishida muhim ekanligi shu bilan birgalikda o‘qituvchilar darslarni zamonaviy o‘qitish usullari orqali o‘qitishi muhim ekanligi yoritilgan. Shu bilan birgalikda 5E modelidan tabiiy fan darslarida foydalanish, o‘quvchilarning mavzularni yaxshi o‘zlashtirishda yordam berishi 6 sinf tabiiy fan darsligidagi “Quyosh va uning energiyasi” mavzu misolida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *5E modeli, konstriktuv yondashuv, engage (qiziqtirish), explore (tadqiq qilish), explain (tushuntirish), elaborate (kengaytirish), evaluate (baholash).*

Kirish. Bugun dunyo juda tez sur’atlarda taraqqiy etmoqda. Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, axborot oqimining jadalligi, ishlab chiqarishning tezligi bugungi kun o‘quvchilaridan har tomonlama bilimli, tadqiqotchi, yetuk, jamiyatdagi yangiliklarni ijobiy qabul qiladigan va unga tez moslashuvchan bo‘lishlikni talab etadi. O‘quvchilarda bunday sifatlarni qanday rivojlantirish mumkin. Bu uchun albatta maktab undagi muhit, sinf, dars jarayoni, va dars o‘tish texnologiyasi muhim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun bugungi kun o‘qituvchilarining kasbiy bilim darajasi, yuksak pedagogik mahorati ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar darslarini tashkil etish jarayonida asosiy markazga o‘quvchilarni olib chiqishi zarur. Ya’ni ta’limda an’anaviy yondashuvdan voz kechgan holda konstruktiv yondashuv asosida darslarni tashkil qilish kerak. Bilamizki konstruktiv yondashuv tabiiy fanlarni o‘qitishda ko‘zlangan maqsadga olib chiqish uchun samarali yondshuvdir. O‘quvchilar tabiatda bo‘ladigan jarayonlarni bir butun yaxlit holda o‘rganishi, kuzatishi va xulosa chiqarishi uchun ham ushbu ta’limiy yondashuv muhim hisoblanadi.

Konstriktuv yondashuv Konstruktiv amaliyotlarni, jumladan faol bilim qurish, muhokamalarda ishtirok etish, hayotga asoslangan ta’lim va rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan tadqiqotlarni tatbiq etish ta’lim natijalariga erishishda samarali yondashuv hisoblanadi. Konstruktiv yondashuv o‘quvchilarga faol ishtirok etishga, hamkorlikda ishlashga va muammolarni hal qilishga undaydi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib o‘qituvchilar faoliyatidagi an’naviy va konstruktiv ta’lim o‘rtasidagi farqlar tahlil qilindi (1-jadval). [1]

1.-Jadval.

O‘qituvchilar ta’limida zarur bo‘lgan asosiy o‘zgarishlar	
An’anaviy ta’limdan	Konstruktiv ta’limga
Belgillangan o‘quv reja va qat’iy tartib intizomga rioya qilinadi	O‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari inobatga olinadi
Asosan takrorlashga qaratilgan bilim olish	O‘rganish interaktiv bo‘lib, o‘quvchi o‘zida mavjud bilimlarga tayanadi.
O‘qituvchiga qaratilgan	O‘quvchlarga qaratilgan
O‘qituvchi tayyor bilimlarni o‘quvchiga uzatadi (passiv o‘rganish)	O‘qituvchi yo‘naltiruvchi bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini qurishlariga yordam beradi (faol o‘rganish)
O‘qituvchining roli ko‘rsatmali bo‘lib, hokimiyatga asoslangan.	O‘qituvchining roli faollashtiruvchi, muzokaralarga asoslangan
Bilim “berilgan” va mustahkamlangan	Bilim rivojlanish va yaratilish jarayonida
O‘quvchilar asosan yolg‘iz ishlaydi	O‘quvchilar asosan guruhlarda hamkorlikda ishlaydi

Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki bugun fan o‘qituvchilari darslarini konstruktivizm yondashuv asosida tashkil etishi ustuvor ahamoyatga ega.

Konstruktiv yondashuv asosida darslarni tashkil etishda 5E modelini ko‘rib chiqamiz. 5E modeli tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni o‘rganishga, tanqidiy, kreativ fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish va tadqiqotchilikka yo‘naltirish uchun samarali o‘qitish hisoblanadi.

Model 5 bosqichga bo‘linadi, har bir bosqich o‘quvchining ta’lim olishida, turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan:

1. **Engage (Qiziqtirish):** Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha boshlang‘ich bilimini va yangi mavzu bo‘yicha bo‘shliqlarini aniqlaydi. Bu bosqichda ko‘pincha muammoli savollar berish, mavzu bilan bog‘liq qisqacha video yoki hikoya ko‘rsatish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.
2. **Explore (Tadqiq qilish):**Bu bosqichda o‘quvchilarni yangi mavzu bo‘yicha tajriba yoki tadqiqot o‘tkazishga yo‘naltirilgan topshiriqlar beriladi. O‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish zarur.
3. **Explain (Tushuntirish):** Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tushuntiradi. O‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini ifodalashadi va o‘qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to‘liqroq izohlaydi.
4. **Elaborate (Kengaytirish):** Kengaytirish bo‘sqichida o‘qituvchi o‘quvchilarni yangi bilimlarini o‘zida mavjud bilimlar bilan bog‘lab uni yangi vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi. O‘quvchilar loyiha ishlari, yangi tajribalar yoki modellar asosida eksperimentlar o‘tkazadi

5. Evaluate (Baholash): 5E modeli asosidagi darslarda o‘quvchilarni baholash butun dars jarayonini qamrab oladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni doimiy kuzatib boradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘zini-o‘zi yoki sheriklarini baholashlari mumkin. [2]

Quyida 6-sinf tabiiy fan darsligidagi “Quyosh va uning energiyasi**”** mavzusini 5E modeli asosida tashkil qilamiz.

Mavzu: Quyosh va uning energiyasi (5E modeli)

1. Engage (Jalb qilish): O‘quvchilarga quyidagi muammoli savolni beramiz: “Siz tongda uyg‘onganingizda quyosh chiqmasa nima bo‘ladi?” Savol bilan birgalikda biz o‘quvchilarga mavzuga doir videorolik ham ko‘rsatishimiz mumkin. Yuqoridagi savol o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga undaydi. Bizning hayotimizda quyoshning ahamiyatini, borliqning mavjud bo‘lishida quyosh nurining o‘rni qanchalik muhimligini tasavvur etadi. Quyosh bo‘lmasa o‘simliklar o‘smaydi, biz energiyadan foydalana olmaymiz, harorat pasayadi, hayot xavf ostida qoladi kabi xulosalarga keladi va o‘zaro quyosh energiyasining kundalik hayotdagi rolini muhokama qilishadi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan muammoli savol va videorolik bilan biz o‘quvchilarimizni darsga jalb qilib oldik.

2. Explore (Tadqiq qilish): Bu bosqichda o‘quvchilarga quyosh energiyasini kuzatsh uchun amaliy topshiriq beriladi. Bu uchun havo haroratini o‘lchaydigan termometr kerak bo‘ladi.

1) Quyosh nuri tushgan joy va quyosh nuri tushmaydigan soya joydagi termometr ko‘rsatgichidagi farqlarni aniqlash ya’ni haroratni solishtirish kerakligi vazifa qilib beriladi.

2) Quyosh panellarining energiya ishlab chiqarish jarayoni videorolikda ko‘rsatiladi. Ro‘likni kuzatgan o‘quvchilarga kuzatuv bo‘yicha o‘zlarining fikr va xulosalarini aytib berishligi vazifa sifatida beriladi.

Yuqoridagi topshiriqlar orqali ular quyosh energiyasining qanday tarqalishini va qo‘llanilishini o‘zlari amalda kuzatadilar.

3.Explain (Tushuntirish): O‘qituvchi dastlabki ikki bosqichdagi o‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini va ulardagi bo‘shliqlarini aniqlab, to‘ldirishga yordam beradi. Quyosh energiyasining manbai, qanday tarqalishi va undan qanday foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Quyosh yerdagi asosiy energiya manbai u yorug‘lik va issiqlik ko‘rinishida yerga yetib keladi. O‘simliklarda ham quyosh nuri yordamida fotosintez jarayoni kechadi. Quyosh panellari yordamida elektr energiyasi olinadi.

O‘quvchilar bu bosqichda ilmiy tushunchalarni shakllantiradilar va o‘z kuzatuvlariga ilmiy izohlar berishni o‘rganadilar.

4. Elaborate (Kengaytirish): O‘quvchilar o‘zaro quyosh energiyasidan foydalanishning ekologiyaga foydasi haqida fikr yuritadilar: Quyosh energiyasi toza va qayta tiklanuvchi manbadir. U atrof-muhitni ifloslantirmaydi. Quyosh energiyasidan uylarni isitishda, suvni isitishda, elektr energiyasini olishda foydalaniladi.

Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini kundalik hayot bilan bog‘lab, yangiliklar yaratish imkoniyatini o‘rganadilar. Masalan, “Quyosh energiyasida ishlovchi foydali uy modeli” yaratish loyihasi berilishi mumkin.

5. Evaluate (Baholash): O‘quvchilarning bilimlarini quyidagicha baholash mumkin:

1) O‘quvchilarga “Quyosh energiyasi – kelajak energiyasi” mavzusida yozma ish shaklidagi topshiriq.

2) O‘quvchilar test savollariga javob berishi.

3) Guruhlarga topshiriq “Quyosh energiyasidan qanday foydalanish mumkin?” mavzusida taqdimot o‘tkazish.

Biz yuqoridagi baholash usullari yordamida o‘quvchilarning mavzuni qanday o‘zlashtirgani, mantiqiy fikrlashi va ijodiy yondashuvini aniqlaymiz ya’ni summativ baholay olamiz.

Bugun har bir pedagog o‘z darslarini zamonaviy ta’lim asosida tashkil etishi ustuvor masaladir. Chunki atrofimizda axborot oqimlari keng va rang barang bo‘lganligi uchun yoshlarimizni dars jarayoniga qiziqtirish, ularning e’tiborini asosiy maqsadga yo‘naltirish uchun bu muhimdir. Zamonaviy ta’lim ya’ni 5E modeli asosida tashkil qilingan dars jarayonidan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin: 5E modelidan tabiiy fan darslarida foydalanish birinchi navbatda o‘quvchilarni mavzuga qiziqtirib olishi bilan samaralidir. Bundan tashqari o‘quvchilarda mavzu bo‘icha bilimlarini shakllantiradi, ularning fikrlashi, tadqiq qilishi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechimni topa olishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. “Quyosh va uning energiyasi” mavzusini shu model asosida o‘rganish orqali o‘quvchilar ekologik tafakkurga ega bo‘lishadi va atrof-muhitni asrashga undovchi bilimlarni egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. B. Amirullayeva. Tabiiy fanlar (science)ni o‘qitishda o‘qituvchilarning o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish (6-sinf misolida). 2025-yil.

2. A. B. Amirullayeva, A. I. Kudratova, Zamonaviy yondashuvlar asosida tabiiy fanlar darslarini tashkil etish, Toshkent-2024.

3. WWW. Google.uz .

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Suvankulov Umid Ilxom o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika isnstituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida pedagoglarning diskursiv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi haqida so‘z yuritligan.

Kalit so‘zlar: disksiya, texnologiya, kompetensiya, diskursiv, intellectual, etik, estetik.

Maktabgacha ta’lim taraqqiyoti samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi. Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar o‘qish shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tarbiyachilarning malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentliligi mazminini yanada takomillashtirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” dagi PF-5198-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261- sonli, “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 231-sonli Qarorlarida bayon etilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

MTT tarbiyachisining ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni samarali tashkil etishi uchun kerakli bo‘lgan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini egallash va ularni amalda samarali qo‘llay olinishiga erishish juda zarur hisoblanadi. Tarbiyachining kasbiy layoqatliligini rivojlantirib borishi o‘z ustida ishlash orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni egallanishi emas, kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha integratsion bilimlar va amaliy faoliyatlarining o‘zlashtirilishi muhim hisoblanadi [4.59-b.] Shu bilan birgalikda, kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis o‘z ustida ishlash orqali bilimlarini rivojlantirib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtirib oladi va faoliyatida tadbiq etib keladi, davr talablarini anglaydi, yangi ma’lumotlarni o‘zashtiradi va ularni amalda adaptiv yo‘nalishlarda faoliyatiga tadbiq etadi.

“Diksiya” so‘zi asosan nutq va tilga taalluqli bo‘lib, u so‘zlarning talaffuzi, qay darajada aniq aytish va ovoz o‘sishiga oid bo‘ladi. Diksiyalash, ya'ni so‘z va iboralarni aniq va tushunarli tarzda ifodalash, kommunikatsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Diksiya quydagi asosiy jihatlarga bo‘linadi:

a. Talaffuz: Diksiyaning eng muhim qismi – so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish. Bu, kishi o‘z fikrlarini yoki hissiyotlarini aniq ifodalay olishiga yordam beradi.

b. Ovoz balandligi: Ovoz balandligi, ya'ni so‘zlarni qanchalik kuchli yoki qulay ovozda aytish, tinglovchilarga xabarni yaxshiroq idrok etish imkonini beradi.

c. Toni: Ovoz tonining o‘zgarishi, xayrixohlik, qiziqish yoki boshqa hissiyotlarni etkazishda yordam beradi.

d. Tempo: Diksiyada nutqning tezligi ham muhim. Juda tez yoki juda sekin gapirish, o‘z fikrini tushunish uchun muammo keltirib chiqarishi mumkin.

e. Yuzaki ifoda: Diksiyaning bir qismi nutq jarayonida muloqotda yuz ifodalarini tahlil qilish va balansni ta'minlashdir.

Diksiyaning rivojlanishi sahna san'ati, jurnalistika, maktabgacha ta`lim tashkiloti pedagog-tabiyachilari uchun xam juda muhim xisoblanadi. O‘z diksiyasini rivojlantirish uchun ko‘p mashq qilish, ovozli o‘qish, talaffuzni yaxshilash va boshqa kommunikatsiya texnikalarini o‘rganish tavsiya etiladi.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining diskurs kompetensiyasi aslida aniq bilimlar tizimi va ko‘nikmalar yig‘indisidir. Bu bilimlar va ko‘nikmalar kommunikativ maqsadga erishish uchun muhim omillar hisoblanib, yuqorida keltirilganidek leksik, sintaktik, grammatik qoidalar bilan bir qatorda uslubiy, janrli, madaniy, ijtimoiy, psixologik, hissiy, muvofiqlik va uyg‘unlik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, diskurs, nutq akti va aloqa tushunchalari bir biridan tubdan farq qiladi [3.101-b.].

Xulosa. Til sohasida chet tilini kommunikativ metodika bilan o‘qitishdan maqsad nutq vaziyati doirasida chet tilida muloqotni og‘zaki va yozma shaklda o‘rgatishdir. Ma’lumki, og‘zaki-nutq muloqotining usuli-bu nutq. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining diskursiv kompetensiyalarini rivojlantirishdan maqsad pedagoglarda turli vaziyatlarda og‘zaki muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.[5.109-b.] Ijodiy faoliyat ijodiy xususiyatga ega bo‘lgan faoliyat jarayonida rivojlanadi, bu MTT pedagoglarini nostandart vaziyatlarda yechim topishga majbur qiladi. Agar pedagog nutq madaniyatini, o‘qishni, chet tilidagi nutqni eshitishni, yangi narsalarni o‘rganishni o‘z faoliyatidagi ustuvor vazifaga aylantirsa, ma’lum bir muvaffaqiyatga erishish uchun sharoitlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020- yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son. https://lex.uz/docs/-5013007

2. Edited by J. Schriewer (Comparative estudies series; Volume 10). Discourse Formation in Comparative Education Frankfurt am Main; Berlin; New York; Oxford: Lang, 2000.

3. Mirjalilova S., To‘laganova R. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. –T., 2008.

4. Djamilova N.N. «Maktabgacha metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi» – T.: TDPU, 2017.

5. Sodiqova Sh. A. «Maktabgacha pedagogika». –T.: Fan va texnologiya, 2017

6. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik) – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.

TARIX VA TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA VIRTUAL MUZEYLARDAN FOYDALANISHNING SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMDAGI AHAMIYATI

D.U.Kushanova, D.A.Rahmanova
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarix va tasviriy san’at fanlarining o‘zaro integratsiyasi, ularni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi asosida o‘qitishning ahamiyati hamda darsni samarali tashkil etishda virtual muzeylardan foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan ta’lim orqali o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, estetik idrok, ijodiy fikrlash va milliy o‘zlikni anglash ko‘nikmalari shakllanadi.*

Kalit so‘zlar: *Virtual muzey, Digital art, VR Tasviriy san’at muzeyi, fanlararo integratsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, 3D format.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, bu har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi, his-tuyg‘usi va fikrlash uslubini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish demakdir. Bunday yondashuvda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki o‘quvchi rivojlanishining yo‘l-yo‘riqchisi, yo‘naltiruvchisi bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu ta’lim jarayonida o‘quvchining shaxsiy tajribasi, individual fikri, qobiliyati, his-tuyg‘ulari va qiziqishlari markazga qo‘yiladigan yondashuvdir. Unda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki o‘quvchi faoliyatini yo‘naltiruvchi, ijodiy muhitni tashkil etuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday yondashuvda o‘quvchi:

- mustaqil fikrlaydi, izlanadi;
- ijodiy tashabbus ko‘rsatadi;
- o‘z imkoniyatlarini baholaydi;
- his-tuyg‘ularini erkin ifodalay oladi.

Tarix va tasviriy san’at fanlarini uyg‘unlashtirib o‘qitish esa o‘quvchilarga milliy merosni yanada chuqurroq anglash, tarixiy voqealarga badiiy nigoh bilan qarash imkonini beradi. Bu ikki fan o‘zaro bir-birini boyituvchi, tafakkur va his-tuyg‘ularni uyg‘un rivojlantiruvchi yo‘nalishdir.

Tarixiy jarayonlar insoniyatning madaniy, ma’naviy va badiiy rivojini o‘zida aks ettiradi. Tasviriy san’at esa ana shu tarixning obrazli ifodasidir. Har bir tarixiy davr o‘zining badiiy uslubi, me’morchiligi, kiyim-kechagi, urf-odatlari bilan o‘ziga xos san’at maktabini yaratgan.

Shu bois, tarix darslarida tasviriy san’at namunalaridan, san’at darslarida esa tarixiy manbalardan foydalanish o‘quvchilarning estetik va tarixiy idrokini boyitadi. Bu integratsiya o‘quvchilarga o‘tmish va hozirgi kun o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, milliy o‘zlikni his qilishga yordam beradi. Shu bois, tarix darslarini san’at asarlari orqali tahlil qilish, san’at darslarida esa tarixiy jarayonni o‘rganish o‘quvchilarda:

- tarixiy tafakkurni;
- badiiy estetik didni;
- tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi.

Tarix va tasviriy san’at fanlarini birlashtirgan dars o‘quvchilarni nafaqat tarixiy faktlar bilan tanishtiradi, balki ularni san’at orqali his etishga o‘rgatadi. Bunda darslarni tashkil etishda turli zamonaviy ped texnologiyalar va metodlardan foydalanish samarali dars tashkil etishning asosi hisoblanadi.

Zamonaviy texnika texnologiyalarning rivojlanishi “Digital art” virtual muzeylar, galeriyalarning istalgan joydan kuzatish imkonining mavjudligi darslarda o‘quvchilarni qiziqtirish, darsga jalb etish va ma’lumot berish, fanlararo itegratsiyada samarali hisoblanadi. Ta’limda fanlararo integratsiya adabiyot, tarix, tasviriy san’at, musiqa va texnologiya fanlari bu jarayonni yanada boyitadi - o‘quvchi nafaqat chizishni, balki fikrlashni, his qilishni, atrof-muhitni estetik idrok etishni o‘rganadi.

Virtual muzey ekskursiyalari bugungi kunda o‘yin platformalari orqali yaratilmoqda. STEAMning 2016-yilda chiqarilgan VR Tasviriy san’at muzeyi yoki 2020-yilda Oculus Rift egalari uchun chiqarilgan Art Through Time bunday sayohatlar qulaylik nuqtai nazaridan jozibali. Ular tashrif buyuruvchilarga eksponatlar orasida kezish va ular bilan o‘z uylaridan turib muloqot qilish imkoniyatini beradi, bu o‘z navbatida o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadi.

Bugungi kunda jahonning onlayn kuzatishimiz mumkin bo‘lgan virtual muzeylarning bir nechtasi bilan tanishib chiqamiz:

1. Emritaj muzeyi www.hermitagemuseum.org
2. Britaniya muzeyi britishmuseum.org
3. Luvr muzeyi www.louvre.fr
4. Prado muzeyi www.museodelprado.es
5. Viktorio Alberta muzeyi collections.vam.ac.uk
6. Manxetten muzeyi www.moma.org
7. Ven muzeyi www.khm.at

Tasviriy san’at, tarix, madaniyatshunoslik va adabiyot kabi fanlarda virtual muzeylardan foydalanish o‘quvchilarni madaniy meros bilan bevosita tanishtirish, ularning estetik va tarixiy tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi. Bu borada O‘zbekistonning ham bir nechta muzeylari raqamlashtirilib boy tarixiy merosimiz butun dunyoga tanilmoqda. Masalan: O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi

O‘zbekiston amaliy san’at muzeyi

O‘zbekiston Davlat tabiat muzeyi

O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi

Temuriylar tarixi davlat muzeyi

Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi

Shon-Sharaf muzeyi

Abdulla Qahhor uy-muzeyi

O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi

Virtual muzeylar - bu zamonaviy ta’lim uchun jonli darslik, raqamli ekskursiya va interfaol madaniyat makonidir. Dars jarayonida virtual muzeylardan foydalanishning afzalliklari vizual va hissiy idrokni kuchaytiradi. Virtual muzeyda

o‘quvchi san’at asarlarini 3D formatda tomosha qiladi. Bu esa rasm, haykal, me’moriy obidani jonli ko‘rish hissini beradi. Natijada o‘quvchining estetik didi, idroki va tahliliy tafakkuri rivojlanadi.

Virtual muzeylardan ta’lim tizimida foydalanish “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”ni qo‘llab-quvvatlaydi.

Har bir o‘quvchi virtual muzeyda o‘z qiziqishiga ko‘ra yo‘nalish tanlaydi: kimdir me’morchilikka e’tibor beradi, kimdir miniatyura yoki xalq amaliy san’atiga. Bu – individual yondashuv tamoyilini tabiiy tarzda amalga oshiradi.

Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat tarixiy bilimlarni egallaydilar, balki ularni badiiy tarzda talqin qilish, o‘z munosabatini ifoda etish, milliy qadriyatlarga estetik yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, integratsiyalashgan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - zamonaviy pedagogikaning eng samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib “Shaxsga yo‘naltirilgan” yondashuv tasviriy san’at darslarida quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

- o‘quvchilarga erkin tanlov asosida mavzu yoki material tanlash imkonini berish;
- individual topshiriqlar orqali har bir o‘quvchining ijodiy salohiyatini ochish;
- baholashda nafaqat texnik mahorat, balki g‘oya, hissiyot va shaxsiy yondashuvni e’tiborga olish;
- refleksiya jarayonini yo‘lga qo‘yish – o‘quvchining o‘z ishini tahlil qilishi, xatolarni anglash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Virtual muzeylar ta’limni zamonaviy, interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishning eng samarali vositalaridan biridir. Ular o‘quvchilarga madaniy merosni his etish, tarixni estetik jihatdan idrok qilish va ijodiy fikrlash imkonini beradi. Eng muhimi, virtual muzeylar orqali o‘qituvchi o‘quvchini ko‘ruvchi, tahlil qiluvchi, his etuvchi va yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Inovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2019 yil
2. Azizxo‘jayeva N. O‘qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash texnologiyasi. T.T.DPU, 2000 yil
3. Mahmudov M. O‘quv materiallarini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat»,2002 yil 3-son.
4. Rakhmanova, D. A. (2024). Primary Concepts of Perspective and Scientific Recources on Teaching it as a Science. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(4), 19-24.

TA’LIM SOHASIDA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ISHLARI

Urokov Xasan Ulmasovich
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi assistenti
Mardonova Sug‘diyona Nasibillo qizi
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim sohasida amalga oshirilgan ishlari, darsliklari va pedagogik metodikalari bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Jadid maktablarida o‘quvchilarning savodlari tez chiqishi uchun qilingan harakatlar ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Yangi usul” (Usul-i jadid), “usuli savtiya”, islohot, ta’lim tizimi, jadid, ma’rifat.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy – o‘zbek jadidchilik harakatining eng yetuk vakillaridan biri, ma’rifatparvar, publitsist, dramaturg va ijtimoiy islohotchi sifatida tanilgan shaxsdir. U 1875-yilda Samarqandda tug‘ilgan va hayoti davomida millatning uyg‘onishi, taraqqiyoti hamda ta’lim islohotlari yo‘lida katta hissa qo‘shgan. Behbudiy o‘z zamonasining ilg‘or ziyolilaridan biri sifatida xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifat bilan yuksaltirish tarafdori bo‘lgan. U nafaqat ta’lim sohasida islohotlar o‘tkazgan, balki ijtimoiy va madaniy masalalar bo‘yicha ham chuqur fikrlari bilan tanilgan. U jadid maktablarini ochgan, balki o‘zining ilmiy, pedagogik, nashriyot va ijtimoiy faoliyati orqali ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirishga ham harakat qilgan ziyoli edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ta’lim islohoti yo‘lida katta hissa qo‘shgan. U yangi usul maktablarini tashkil etish orqali xalqning savodxonligini oshirishni maqsad qilgan. An’anaviy maktablarning zamonaviy ilmdan uzoqlashgani, eski ta’lim metodlarining samarali emasligi uni ta’lim sohasida tub burilish qilishga undagan. Behbudiyning darsliklari, maqolalari hamda pedagogik metodikasi o‘z davri uchun inqilobiy ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda ham pedagogik tafakkur rivojida o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi. Behbudiy klassik musulmon madaniyati bilan tanish bo‘lib ulg‘aydi, ammo o‘sha davrda Yevropa va Rossiya ta’lim tizimlarining rivojlanishi ham uning e’tiborini tortdi. U jadidlar g‘oyasini — an’anaviy madrasaviy ta’limdagi nuqsonlarni bartaraf etib, zamonaviy fanni va amaliy ko‘nikmalarni maktabga olib kirish zarurligini ilgari surdi. Uning nazariyasi ta’limni milliy ongni uyg‘otish, taraqqiyparvarlik va jamoaviy faollik vositasi sifatida ko‘radi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim sohasidagi islohotlari yangi usuldagi maktablar ochish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, zamonaviy darsliklar yaratish va o‘qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan edi. U o‘quvchilar uchun sodda va tushunarli darsliklar yozishga harakat qilgan hamda Turkiston jadidchiligida ta’lim-tarbiya taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan.

Behbudiyning islohotlarini quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lishimiz mumkin:

Yangi usuldagi maktablar: Behbudiy zamonaviy ta’lim tizimini yaratish maqsadida yangi usuldagi maktablar ochishga faol harakat qildi.

O‘quv dasturlari va darsliklari: Maktablar uchun yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga va bolalar uchun soddalashtirilgan, tushunarli bo‘lgan darsliklar yozishga katta e’tibor qaratdi.

Ma’rifatparvarlik faoliyati: Behbudiyning ilmiy va madaniy taraqqiyotga qo‘shgan hissasi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan edi, bu esa hozirgi zamon ta’limiga asos bo‘ldi.

Behbudiy jadid pedagogikasining asosiy g‘oyalarini faol ravishda targ‘ib qildi. U Arab harfi asosida bo‘lsa-da, matnni tushunarli, sistematik o‘qitish usullarini ilgari surdi; **“yangi usul”** maktablarida darslarni mavzuga yo‘naltirilgan, amaliy va fanlarga asoslangan tarzda tashkil etishni taklif qildi; o‘quv rejalarida ona tili, matematika, tabiiy fanlar va tarix kabi zamonaviy fanlarga o‘rin berishni qo‘llab-quvvatladi [1; 3].

Behbudiy ta’lim sifatini oshirish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning pedagogik mahoratini oshirishga katta e’tibor berdi: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish tarafdori bo‘ldi, xususan, jadid pedagoglari **“usuli savtiya”** metodida faoliyat ko‘rsata boshlagan maktablar uchun alifbo darsliklari yaratishga birinchi darajali masala sifatida qaradilar; dars berish uslubini takomillashtirish, didaktika va tartib-intizom masalalariga urg‘u berdi; o‘qituvchilarda zamonaviy fikrlash, fanlarni amaliy yo‘nalishda o‘rgatish qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qildi.

Behbudiy an’anaviy jamiyatda oxirgi masala - qizlar ta’limiga alohida e’tibor qaratdi. U qizlar uchun alohida maktab va kurslarni tashkil etish tarafdori edi; oilaviy va ijtimoiy muhitda qizlarning ilm olish huquqini himoya qildi; ayollar ongini oshirish va ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi ta’limni targ‘ib qilgan, ayollar ta’limi bo‘yicha shunday fikr bildirgan:

“Millatni taraqqiy ettirish uchun avvalo onalarimizni tarbiyalashimiz lozim”.

“Agar ayollarimiz o‘qimasa, millatimiz hech qachon ilg‘or bo‘la olmaydi”.

Shu sababdan u ayollar uchun ham yangi usul maktablarini tashkil etish kerakligini ta’kidlagan va bunday maktablarni ochishga harakat qilgan. Uning bu g‘oyalari o‘sha davrda katta qarshiliklarga duch kelgan, chunki ko‘pchilik ayollarning savodli bo‘lishini ortiqcha deb bilgan. Shunga qaramay, Behbudiy ayollar maktablari ochish harakatida davom etgan va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini oshirishga intilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Uning faoliyati natijasida: Yangi usul maktablari keng tarqaldi – Jadid maktablari qisqa vaqt ichida butun Turkiston bo‘ylab yoyildi. Ushbu maktablarda o‘qigan yoshlar keyinchalik turli sohalarda faoliyat yuritib, jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar. Ayollar ta’limi rivojlandi – Behbudiy ayollar ta’limiga e’tibor qaratgani sababli jamiyatda ayollar o‘qitilishiga bo‘lgan munosabat asta-sekin o‘zgarib bordi.

Behbudiy pedagogik g‘oyalarning amaliy tatbiqi uchun o‘quv materiallari va darsliklar muhim ekanini tushundi: zamonaviy fanlarga mos, oson tushunarli darsliklar yaratish va tarqatish tarafdori bo‘ldi; matn, maqola va teatrlashtirilgan

asarlar orqali ta’limiy mazmunni keng ommaga yetkazdi; til va adabiyotni rivojlantirish uchun pedagogik, tarbiyaviy matnlarni qo‘llab-quvvatladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy **“usuli savtiya”** metodi zaminida Turkiston o‘lkasida birinchi bo‘lib alifbo darsligini yaratadi va uga **“Risolayi asbobi savod”** deb nom beradi. 1904-1909-yillarda u o‘zbek va tojik tillarida **“Risolayi asbobi savod”**, **“Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy” (Qisqacha umumiy geografiya), “Kitobat ul-atvol” (Bolalar maktublari), “Muxtasar tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug‘rofiyaviy umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish)** kabi darsliklar yaratdi. Bunday darsliklari o‘quvchilarda nafaqat savod, balki mustaqil fikrlash, vatanparvarlik va ma’naviy yetuklikni shakllantirishga xizmat qilgan. Behbudiy ilgari surgan pedagogik metodlar — faol ta’lim, amaliy mashg‘ulot, tarbiyaviy rivojlanish, ona tili markazligi — bugungi zamonaviy ta’lim tizimi tamoyillariga uyg‘un bo‘lib, uning merosi hanuz dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Behbudiy shunchaki maktablar ochish bilan cheklanmay, madaniy faoliyat orqali ham savodxonlikni oshirishga harakat qildi: jamoat yig‘inlari, muhokamalar va teatrlashtirilgan chiqishlar orqali jamiyatni ma’rifatga chaqirdi; matbuot vositalaridan — risolalar, gazeta va jurnallardan keng foydalanib, ta’limiy mazmunni tarqatdi; kasb-hunar va amaliy bilimlarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy mustaqillik va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shdi. Behbudiyning ta'lim tizimida eng muhim o‘zgartirishlardan biri – madaniyat va ilmni bir-biriga yaqinlashtirish, o‘quvchilarga yangi metodlar va yangicha fikrlashni o‘rgatish edi [6, 130].

Behbudiy o‘z maqolalarida asosan ta’lim, milliy uyg‘onish, jamiyat islohoti, ayollar huquqlari va mustamlakachilikka qarshi kurash kabi mavzularni yoritgan. Uning maqolalari xalq orasida yangicha fikrlash va ma’rifatparvarlikni kuchaytirishga xizmat qilgan. Behbudiy ta’lim sohasida nafaqat amaliy faoliyat bilan, balki ilmiy-ijodiy yo‘nalishda ham katta hissa qo‘shgan. U turli gazetalarda ta’lim va milliy uyg‘onish mavzusida maqolalar yozgan, o‘quvchilar uchun qo‘llanmalar yaratgan. Uning eng muhim asarlaridan biri **“Padarkush”** dramasi bo‘lib, unda eski va yangi dunyo o‘rtasidagi ziddiyat, jaholat va ilm o‘rtasidagi kurash aks ettirilgan. “Zamonaviy ta’lim tizimida uning islohotlari izlari bor. Savodxonlikni oshirish, fanlarni keng qamrovda o‘qitish va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish – bularning barchasi Behbudiy ilgari surgan g‘oyalar bilan uyg‘unlashadi. Matbuot va axborot erkinligi g‘oyalari davom etmoqda. Behbudiy matbuotni xalq ongini uyg‘otish vositasi deb bilgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda matbuot va jurnalistika rivojlanib, jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Milliy o‘zlikni anglash va mustaqil tafakkur shakllanmoqda. Uning milliy uyg‘onish haqidagi fikrlari bugungi O‘zbekiston jamiyatida ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Behbudiyning maqsadi nafaqat ta’limni isloh qilish, balki millatni yuksaltirish, xalqni savodli, dunyoqarashi keng va zamonaviy tafakkurga ega qilish edi. U o‘z davrida shaxsiy manfaatlarni emas, balki butun millat istiqbolini o‘ylagan holda harakat qilgan. Shu sababli uning faoliyati nafaqat XX asr boshlarida, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan” [2; 12].

Bugungi kunda ayollar ta’limi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi, bu esa Behbudiy orzu qilgan jamiyat qurilishidagi muhim qadam bo‘ldi. Bundan tashqari, Behbudiy va uning izdoshlari sanalmish jadidchilikka bo‘lgan qiziqish ortdi – O‘zbekistonda Behbudiy va uning zamondoshlari haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va kitoblar chop etilmoqda. Uning merosi nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki bugungi taraqqiyot uchun muhim tajriba sifatida o‘rganilmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy ayollar ta’limi va ularning jamiyatdagi o‘rniga katta e’tibor qaratgan jadid ziyolilaridan biri edi. Unga ko‘ra, millat taraqqiyoti faqatgina erkaklarning savodli bo‘lishi bilan emas, balki ayollarning ham ilm olishiga bog‘liq edi. Chunki savodsiz ona o‘z farzandiga yetarlicha bilim bera olmaydi va bu butun jamiyatning ortga qaytishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy – xalq ma’rifati va taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik bilan harakat qilgan mutafakkir. Uning ta’lim sohasidagi islohotlari, matbuotdagi faoliyati va ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. U qoldirgan meros O‘zbekistonning ilmiy, madaniy va ma’rifiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda va kelajak avlodlar uchun ibrat manbayi bo‘lib qolmoqda. Behbudiyning bugungi kunda ham yoshlar siyosiy shakllanishida “yangi maktablar ochish”, “kamida to‘rtta tilni bilish”, “to‘y va marakalarga sarf qiladigan mablag‘larni yoshlarning ta’lim olishlari uchun boshqa davlatlarga yuborish”, “kutubxonalar ochish, ularning sonini ko‘paytirish, zarur kitoblar bilan boyitish”, “mahalliy kadrlarning xorijda ta’lim olishlari uchun imkoniyat berish”, “Teatrni rivojlantirish va xalqning, yoshlarning teatr orqali dunyoqarashini, siyosiy ongini shakllantirish” g‘oyalari nafaqat o‘sha davr uchun balki bugungi jamiyat rivoji uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Qosimov. M. Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T:, Ma’naviyat, 2006.
2. Z. Abdirashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy [Matn]: risola. - Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.
3. Ahrarova Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy-pedagogik qarashlari. NDA. – T.: 1997.
4. Ahrorova Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedegogik qarashlari va ma’rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss. Toshkent: 1997. 157 b.
5. Egamov S., Raxmonov M. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim sohasida amalga oshirgan ishlari va ma’rifatparvarlik faoliyati. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 162-166. 2023.
6. Rasulova Z.H. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari. Ilm-fan xabarnomasi, Volume 6, Issue 2. Mart 2025.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY TAFFAKURIDA YOSHLAR VA MILLAT RAVNAQI

Otaqulova Parinoz Ilyos qizi
Samarqand davlat Pedagogika Instituti
Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola o‘zbekning jasur o‘g‘loni, erkparvar jadid Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyati, yoshlar kelajagi uchun chekkan zahmatlarini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Behudiyning milliy o‘zlikni anglash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga ma'rifatparvarlik ilm-fan va xorijiy tillarni o‘rgatishdagi qarashlari, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kelajak avlod, ma'rifatparvarlik, Turkiston, dunyoqarash, jamiyat, taraqqiyot.*

Bugungi murakkab va shiddatli zamonda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intiladigan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqur va puxta egallashi shartini barchamiz yaxshi tushunamiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Maxmudxo‘ja Behbudiy o‘tgan asrning boshidayoq “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, degan haqqoniy fikirlar bilan Turkiston ahlining ong-u shuurini uyg‘otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta. Bu so‘zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlamoqda [1:94-95-bet].

Behbudiyning umir yo‘llari qisqa, ammo kelajak avlod uchun qoldirgan merosi, qilgan ishlari uzundan-uzundir. Bu borada amerikalik olim Adib Xolid shunday ta'kidlaydi. "Behbudiyning hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining eng ko‘zga ko‘ringan siymosi bo‘lganligi bilan alohida ahamiyatga ega. U davrining yirik shaxsi bo‘lib dunyoni o‘zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan farqli ravishda anglay olgan hamda u vaqtda ularning tasavvuriga sig‘maydigan aloqa va tashlikliy shakllardan foydalana olgan” [2:151-bet]. Bundan ko‘rinib turibdiki, dunyoda bo‘lgan o‘zgarish va yangiliklarni anglab yetgan, uni yoshlarga tushintirishga harakat qilgan.

Behbudiy o‘zining “Sayohat xotiralari” Marv, Bayramali, Krasnovodsik, Boku, Kislovodsk, Jeleznovodsk, Yessentuki, Odessiya, Rostov va boshqa shaharlar haqda to‘la ma'lumot bayon etilgan. Turkiya va Jazoir, Suriya kabi arab mamlakatlarining bayoni esa to‘laqonli, mukammal harakter kasb etadi. Bu yerda shaharlarning me’morchiligi va mamlakatlardan siyosiy vaziyatdan tortib to jamiyatda ayollarning tutgan o‘rni, aholining mashg‘uloti, kiyim-kechagi va kiyimlaridagi o‘zgarishlar, bank xizmati va faoliyati, temir yo‘llar hamda mehmohxonalarda tunash va uning narxi, bahosigacha o‘z aksini topgan. U ko‘rgan-kechirganlarini taroziga solib, ularni bir-biriga taqqoslab solishtirib, mamlakat rivojidagi ijobiy va salbiy, ilg‘or va qoloq, taraqqiyotni oldinga va orqaga tortadigan yo‘nalishlarni tahlil qilib, xulosa chiqaradi. Behbudiy Bayrut oliy o‘quv yurtlari va dorulfununlarida farang, olman va ingliz tillari o‘qitilishi Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo

labaratoriyalarining borligi, tibbiyot olygohlarida jarohlik xonalarining borligiga havas va e'tibor qilgan bo‘lib, ona Turkistonning taraqqiyotda naqadar ortda qolganligini afsus bilan yozadi [3:11-bet]. “Bu yerda Turkistondan tashqari, dunyoning barcha mamlakatlaridan yoshlar kelib o‘qishadi” deb nadomat bilan bong uradi [4:1142-bet]. Behbudiy o‘z sayohatlari davomida ko‘rgan ilg‘or mamlakatlar tajribasini Turkiston hayotiga tatbiq etish zarurligini ta’kidladi, yangi usuldagi maktablar tashkil etish, teatr orqali ijtimoiy tarbiya berish kabi dolzarb tashabbuslarni ilgari surdi. Uning merosi bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan bo‘lib, yoshlarning dunyoqarashi, milliy g‘ururi va ma’naviyati shakllanishida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

“Muhtaram yoshlarga murojat” (1914) maqolasida madaniyat, marifat, san'at ravnaqisiz millat tarqaqiyoti haqda gap ham bo‘lishi mumkin emas, degan fikirga kelgan Behbudiy hulosasiga ko‘ra, millat bularsiz “muborizli hayot” maydonida mutloqo “mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur” va nayinki iqtisodiy, balki, hatto diniy ishlarda o‘zgalarning asiri”, ya’ni quli darajasiga tushub, '”bora-bora millat va diyonatni ham qo‘ldan berur” [5:18-19-betlar].

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullanadi. Ro‘znoma va jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib boradi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o‘rganishga kirishib, islom tarixi va nazariyasi bilan shug‘ullana boshlaydi. 1902 yilda Makkaga borib, xo‘ja va mufti unvonlariga ega bo‘lib qaytadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Ovro‘po madaniyati bilan ham qiziqadi. O‘sha davrdagi Qozon, Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qiladi. Uning qator maqolalari ham mazkur jurnal va gazetalar chiqa boshlaydi. Maktab, maorif, madaniyat, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turardi. Xususan, qrim-tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan «Tarjumon» gazetasi M. Behbudiyni buyuk ma’rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi. Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo‘lgan kadetlar partiyasi a’zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta’siri ham katta bo‘lgan. 1912—1913 yillarda Behbudiy Samarqandda «Samarqand» gazetasi, «Oyna» jurnaliga asos soladi. U 1914 yilda yana Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to‘siqlarga uchrab, «jadidlar rahnamosi», «dahriy» deb e’lon qilinadi. Shunga qaramay, u tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma’rifatchilik borasidagi ta’limotini qo‘llab-quvvatlab, o‘z o‘lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko‘p o‘tmay ma’rifatparvar sifatida o‘z xalqi hurmatiga sazovor bo‘ladi.
U bir qator Sharq va G‘arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ‘ibotchisi ham bo‘lgan.

Behbudiy xazratlari o‘z ishlarining fidoisi edi. U jon bera turib, o‘lim talvasasida ma'naviy vasiyat qoldirishga muvaffaq bo‘ldi. O‘z do‘stlariga maorif, madaniyat, fanni rivojlantirish va taraqqiyotga xizmat qilishni vasiyat qildi.

U Turkiston tarixiga kuchli va progressiv harakatni jadidchilik deb nomlanuvchi yangi shabadani olib kirgan siymo timsolida gavdalanadi. Bu harakatning sobit

qadam izdoshlari Maxmudxo‘ja Behbudiy boshchiligidagi tarixni chuqur o‘rganish, zamonni va voqiylikni har tamonlama xis qilish orqaliona-Vatan kelajagi istiqbolini, uning taraqqiyoti yo‘lini rejalashtirib bera oldilar. Turkistonda hukum surgan qoloqlik va eskiliklarni o‘z vaqtida ko‘ra bilgan, yuksak aql-zakovat egasi va vatanparvar edi. Bugungi kunda Behbudiy va safdoshlarining hayoti va faoliyati, ularning boy merosi va taqdirlari Turkiya, AQSH, Yaponiya, Markaziy Osiyo davlatlari va albatta Vatanimiz olimlarining ilmiy nazari markaziga tushgandir. Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining zamonaviy ahamiyati shundaki, u ilgari surgan g‘oyalar bugungi ta’lim, matbuot va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning asarlari yoshlarni ilmli, vatanparvar va zamonaviy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda qo‘llaniladi. Behbudiy merosi bizga nafaqat tarixiy xotira, balki kelajakka ishonch bilan qarash imkoniyatini ham taqdim etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat ma’rifatchi, balki islohotchi sifatida ham tarixda muhim o‘rin tutadi. U jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi sifatida xalqni yangi ta’lim tizimi, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga tayyorlashga intilgan. Uning yangicha maktablar ochish tashabbusi bugungi kunda ham ta’lim sohasida islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Behbudiy o‘zining “Padarkush” dramasida jamiyatdagi muammolarni yoritgan va teatrdan ijtimoiy tarbiya vositasi sifatida foydalangan. Hozirgi davrda ham teatr san’ati yoshlarni tarbiyalash va ularga ijtimoiy hayot haqiqatlarini tushuntirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, Behbudiyning teatrga qo‘shgan hissasi bugungi sahna san’ati rivojida ham o‘z aksini topmoqda.

Behbudiy o‘z vasiyatida ”Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymanglar. Sizlarga vasiyat qilaman! Hamma ozotlik yo‘lini ko‘rsatinglar”!-degan edi. Buguni tadqiqotchilar avlodi xalqimiz ma'rifati yo‘lida Behbudiy belgilagan cho‘qqilar sari intilib, ona-Vatan saodatiga tinmay xizmat qilishi, istiqlol tufayli ana shu bois ma'rifatparvar bobomiz orzularining ro‘yobga chiqishi uchun yo‘l ochganidan dalolat beradi.

Demak, Behbudiy faoliyati va qarashlari nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi mustaqil O‘zbekiston yoshlarining ham ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasida g‘oyat dolzarb ahamiyat kasb etadi. U millat ravnaqi uchun eng to‘g‘ri yo‘l sifatida ma’rifat va ilmiy taraqqiyotni ko‘rsatib, “Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymanglar” degan vasiyati bilan kelajak avlod uchun bebaho ma’naviy meros qoldirdi. Biz yoshlar mana shunday ulug‘ bobomiz borligidan fahirlanamiz va o‘ylaymanki bobomiz orzu qilgan yoshlar bo‘lib yetishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov.Yuksak ma'naviyat yingilmas kuch.Toshkent.-2016-y.94-95-bet
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlar.Toshkent: 2022-y. 151-b.
3. D.A.Aliyeva, D.A.Rashidova. “Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri”. Akademiya: Toshkent. 1999-y. 11-b.
4. M.Behbudiy. Sayohat xotiralari. “Oyna” jurnali 48-son. 20-sentabr.1914-y. 1142-bet.
5. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent:. Ma'naviyat.1997-y.18-19-bet.

MASHINA TARJIMASI VA INSON TAFAKKURI

Axmedov Shaxzod Ilxom o‘g‘li
SamDCHTI, Yaqin Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Sunnatullayeva Malika Sirojiddin qizi
SamDCHTI talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar, xususan, mashina tarjimasi tizimlarining rivojlanishi va ularning inson tafakkuri hamda tarjimonlik faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Unda mashina tarjimasining tezlik va qulaylik jihatidan afzalliklari ,shuningdek, inson tarjimasining madaniy, hissiy va kontekstual tafakkurdagi ustunliklari yoritilgan. Maqolada shuningdek, kelajakda inson va mashina o‘rtasidagi hamkorlik zarurligi ta’kidlanadi. Xulosa sifatida, kelajakda inson va mashina tarjimasi inson ishini to‘ldirishi mumkin, biroq tarjimonning o‘rni to‘liq yo‘qolmaydi, balki uning roli o‘zgaradi degan fikr ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *mashina tarjimasi,sun’iy intellect, inson tafakkuri, tarjimonlik faoliyati, avtomatik tarjima, til va madaniyat, kontekstual tushunish, texnologik rivojlanish, inson va mashina hamkorligi, tarjimonning roli.*

KIRISH: Tarjima qadimdan turli madaniyatlar va tillar o‘rtasida g‘oyalarni uzatish vositasi bo‘lib kelgan. Bugungi kunda esa mashina tarjimasi (machine translation, MT) texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda va tarjimonlik madaniyat va ilmiy taraqqiyot o‘rtasidagi ko‘prik hamdir. So‘nggi yillarda sun’iy intellect kasbiga tahdid solmoqda. Tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki tafakkur, texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida mashina tarjimasi (MT) sohasida katta yutuqlarga erishildi. Ammo bu taraqqiyot inson tarjimonligining o‘rnini bosa oladimi degan savol tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashina tarjimasi matnni tez va arzon tarjima qila olgan taqdirda ham, inson tafakkuriga xos bo‘lgan nozik ma’no, hissiyot va madaniy kontekstni to‘liq yetkaza olmaydi. Shu bois ushbu maqola mashina tarjimasi va inson tafakkuri o‘rtasidagi farqlarni, tarjimonning kelajakdagi rolini hamda ikki tizim o‘rtasidagi hamkorlik madaniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Mashina tarjimasi tushunchasi. Mashina tarjimasi — bu kompyuter dasturi yordamida matnni avtomatik tarzda bir tildan boshqa tilga o‘tkazish jarayonidir. Ammo u davrda texnologiya cheklanganligi sababli natijalar yetarlicha aniq emas edi. Dastlabki mashina tarjimasi 1950-yillarda paydo bo‘lgan bo‘lib, u grammatik qoidalar asosida ishlagan

Sun’iy intellekt va neyron tarmoqlarning kirib kelishi. 2016-yildan boshlab neyron mashina tarjimasi (Neural Machine Translation — NMT) tizimlari keng joriy etildi. Bu tizimlar inson miyasining ishlashiga o‘xshash tarzda o‘rganadi va tarjimalar kontekstini yaxshiroq tushunadi. Google, Microsoft, va DeepL kabi kompaniyalar aynan shu texnologiya asosida ishlaydi. NMT tizimlari statistik va qoida asosidagi usullarga nisbatan yuqori aniqlikka ega bo‘lib, hozirda 100 dan ortiq til juftliklarida ishlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda NMT tarjimasi inson tarjimasiga yaqin natijalar bera oladi, lekin murakkab, badiiy yoki kinoyali matnlarda hanuz zaiflik seziladi.

Mashina tarjimasining afzalliklari. Mashina tarjimasining asosiy ustunliklari: tezlik, ya’ni katta hajmdagi matnlarni soniyalarda tarjima qiladi va bu ko‘plab insonlarning ta’lim olishi hamda boshqa madaniyat egalari bilan ma’lumot almashishi yoki turli munosabatlarda bo‘lishini osonlashtiradi, shuningdek, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy xat almashinuvlarini yaxshilaydi. Ikkinchidan, narx samaradorligi, hozirgi kunda dunyo bo‘ylab turli maqsadlarda sayohatlar kengaymoqda va bunda insonlar tarjimonlarga ehtiyoj sezishadi yoki hujjatlarni boshqa tillarga tarjima qilishi uchun professional til egalari kerak bo‘ladi. Albatta, tarjimonlardan foydalanish turli mexanik tarjimonlar(ChatGPT, Interactive Machine Translation(IMT) va boshqa AI vositalar)idan qimmatroqdir. Shuningdek, til o‘rganuvchilari uchun sun’iy intellect vostilari judayam qulay bo‘lib,bunda o‘quvchi bir so‘zning qanday ma’nolarda ishlatilishini va undan qanday foydalanishni ham o‘rganadi. Uchinchidan, mashina tarjimasida bitta platforma bilan bir necha tillardan foydalanish mumkin. Insonning til bilishi mashinanikidan ko‘ra cheklangan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir necha tillarda yordam bera olmasligi mumkin va bu ko‘p vaqt sarflaydi va ba’zan chalkashliklarga olib keladi, chunki inson unutishi yoki adashishi tabiiy holat, lekin mashina tarjimasida bunday holat deyarli kuzatilmaydi. Oxirgisi, biz mashina tarjimasidan har qachon har yerda foydalanishimiz mumkin va bu bizga katta qulayliklar keltiradi. Biroq bu afzalliklar uning inson tafakkuriga asoslangan tarjima darajasiga chiqishini anglatmaydi.

Mashina tarjimasining cheklovlari: bilamizki, har bir tilda hikmatli so‘zlar, iboralar, masal va maqollar mavjud. Ulardan biz og‘zaki so‘zlashuvda foydalanganimizda mashina tarjimasi masalan, biror bir maqolni to‘liq o‘z ma’nosida boshqa til so‘zlovchisiga yetkazib bera olmasligi mumkin. Misol uchun, “O‘g‘zi ochilib qoldi” ya’ni hayron qoldi yoki “Do‘ppisini osmonga otdi” ya’ni xursand bo‘ldi kabi frazalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Bunda tarjimon tarjima qilinayotgan tildan bu frazalarga ma’no jihatidan mos tushadigan boshqa frazani qo‘llashi kerak. Undan tashqari, yozma adabiyotlarni tarjima qilishda mashina tarjimasi tilning nozik xususiyatlarini farqlay olmasligi, matnda nazarda tutilayotgan ma’noni aniq yetkazib berolmasligi mumkin. Bunda “Mashina tarjimasi sintaktik jihatdan to‘ri, lekin semantic chuqurlikda inson tafakkurini o‘rnini bosa olmaydi” kabi qarash to‘g‘ri keladi.

Inson tafakkuri va tarjimonlik faoliyatining o‘ziga xos jihatlari Inson tafakkuri-bu tildan ham kengroq hodisa. Tarjimon nafaqat so‘zlarni, balki ularning ma’nosi, ohangi va madaniy asosini ham anglaydi. Masalan, “ko‘ngil sovimoq” iborasi ingliz tiliga “lose interest” deb tarjima qilinishi mumkin, ammo bu iboraning hissiy chuqurligi mashina uchun tushunarsiz.

Madaniy va hissiy jihatlar. Har bir tilda xalqning madaniy qadriyatlari mujassam. Tarjimon shu qadriyatlarni to‘g‘ri ifodalash uchun faqat lug‘at bilimiga emas, balki madaniy idrokka ham ega bo‘lishi kerak. Mashina tarjimasi esa ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima bilan cheklanadi.

Masalan, arab tilidagi “يداً بيد” iborasi so‘zma-so‘z “qo‘ldan qo‘lga” degan ma’noni beradi, ammo aslida “birgalikda, hamkorlikda” ma’nosini anglatadi. Bunday iboralarni faqat inson tafakkuri bilan to‘g‘ri izohlash mumkin.

Tarjimonlikdagi ijodiylik. Tarjima bu ijodiy faoliyatdir. Har bir matn uchun mos yechim topish, sinonimlarni tanlash, ohangni saqlab qolish insonning intuitiv qobiliyatiga bog‘liq. Shuning uchun mashina tarjimasi qanchalik mukammal bo‘lmasin, u ijodiy yondashuvni to‘liq takrorlay olmaydi.

Mashina va inson tarjimasining qiyosiy tahlili. Mashina tarjimasining asosiy muammosi — kontekstni noto‘g‘ri tushunish. Masalan, inglizcha “bank” so‘zi “moliyaviy muassasa” yoki “daryo sohili” ma’nosida ishlatilishi mumkin. Mashina bu so‘zning matndagi rolini aniqlay olmay, noto‘g‘ri natija berishi mumkin. Shuningdek, u grammatik bog‘lanishlar, uslubiy o‘ziga xosliklar va metaforalarda ko‘p xato qiladi.

Inson tarjimonning ustun jihatlari: Kontekstual tushunish, ma’noni umumiy g‘oyadan kelib chiqib talqin qiladi.

Hissiy sezgirlik: ohang, kayfiyat, va uslubni saqlaydi.Albatta tilda ohang va urg‘u mavjud bo‘lib, bu gapning ma’nosini shaklidagidan o‘zgartirib yuboradi, masalan, o‘g‘zaki so‘zlashuvda olma, tugma yoki “ Sobir eshakaravani tortdi ” kabi jumla ohangga qarab ma’nolarini o‘zgartiradi. Bunday hollarda mashina tarjimasi maqsad qilingan ma’noni tushunmaydi.

Moslashuvchanlik: matn turiga qarab strategiyani o‘zgartira oladi. Tarjima jarayonida inson tarjimonning eng muhim fazilatlaridan biri — bu moslashuvchanlik, ya’ni matn turiga, maqsadiga va auditoriyasiga qarab tarjima strategiyasini o‘zgartira olish qobiliyatidir. Mashina tarjimonlari ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima bilan cheklanadi, inson esa matnning mazmuni, uslubi, konteksti va madaniy jihatlarini hisobga olgan holda o‘z yondashuvini tanlay oladi.

Inson tarjimon bir xil so‘zlarni turli janr va maqsadlarda har xil tarzda ifodalay oladi. Bu holat tarjimonning lingvistik, madaniy va kontekstual sezgirligini namoyon etadi. Shuningdek, bu moslashuvchanlik tarjima sifatini oshiradi va matnning tabiiyligini saqlab qoladi.Masalan, Ilmiy matn

Inglizcha: “The results indicate a positive trend”.

Tarjima: “Natijalar ijobiy tendensiyani ko‘rsatmoqda”. Bu yerda aniq terminologiya va ruxsatsiz badiiyliksiz tarjima ishlatilgan.

Badiiy matn “The sun died behind the hills”. Tarjima: “Quyosh tog‘lar ortida jon berdi”, ya’ni quyosh tog‘lar ortiga botdi degan ma’noda aytilgan. Bu holatda tarjimon badiiy obraz yaratadi, so‘zma-so‘z emas, ma’nodagi estetikani saqlaydi.

Rasmiy hujjat yoki yangilik matni: “The government announced a new policy”.

Tarjima: “Hukumat yangi siyosatni e’lon qildi”. Bu tarjimada rasmiy, neytral uslub tanlanadi.

Og‘zaki nutq (intervyu yoki suhbat)

“They launched a new project.” Tarjima: “Ular yangi loyihani boshlashdi”. Bu yerda soddalik va tabiiy og‘zaki ohang saqlanadi.

Etik javobgarlik: tarjimon matn uchun mas’uliyat sezadi. Tarjima jarayonida etik javobgarlik — bu tarjimonning matn mazmuni, maqsadi va muallif g‘oyasiga nisbatan mas’uliyatli yondashuvini bildiradi. Tarjimon nafaqat til vositachisi, balki

madaniyatlar, xalqlar va g‘oyalar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu bois u tarjima qilayotgan matn uchun axloqiy va professional mas’uliyatni his qilishi lozim.

Etik javobgarlik shuni anglatadiki, tarjimon: muallif g‘oyasini buzmasligi, ma’lumotni yashirmasligi yoki o‘zgartirmasligi, soxta, noto‘g‘ri, siyosiy yoki diniy ma’noda manipulyatsiya qilmasligi kerak.

Tarjimonning har bir qarori — so‘z tanlovi, ohang, uslub — matn mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli u o‘z ishida halollik, xolislik va aniqlik tamoyillariga amal qilishi zarur.

Misollar:

1. Ilmiy matn tarjimasida. Agar muallif: “This method showed limited success”, desa, tarjimon uni “Ushbu usul katta muvaffaqiyatga erishdi”, deb tarjima qilsa — bu etik buzilish, chunki ma’no o‘zgartirildi.

2. Badiiy asarda. Muallifning g‘oyasini o‘zgartirib, o‘z fikrini kiritish — bu ham etik jihatdan noto‘g‘ri. Masalan, muallif “qahramonning zaifligi”ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tarjimon uni “jasorat” sifatida talqin qilmasligi kerak.

Olib borilgan tadqiqotlar. Sobitova Madinabonu (2025) turizm broshyuralari misolida MT va HT’ni solishtiradi, ekspert baholash va xato tahlili metodlari bilan. U tadqiqotida film, rasmiy promo-matnlar bo‘yicha MT tizimlari so‘zma-so‘z tarjimada tezlik bilan ajralib turishini aniqlaydi, lekin madaniy moslik, idiomatik iboralar va nutq uslubi jihatida bu tizimlar HT darajasiga yetolmaydi. Gibrid yondashuv tavsiya qilinadi: MT asosan tez tarjima vazifasini bajaradi, HT esa madaniy va kontekstual moslikni qilish zarurligini anglatadi. Erus jurnalida chop qilingan(2023) Norqobilova Feruzaning ta’minlaydi.Bu esa dastlab MT tizimlarida tarjima qilib so‘ng, HT tomonidan tahrir tadqiqotida IT terminologiyasini ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida korpus tahlili yo‘li bilan o‘rgangan. U keltirgan natijalarga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tillari ko‘plab xarajat terminlarini o‘z ichiga qabul qilgan bo‘lsa ham, ularning semantik diapazonlari va morfologik shakllari farq qiladi. Masalan, inglizcha termin “server” ingliz matnlarda ko‘p uchraydi, lekin o‘zbek matnlarida “server” va “xost” shakllari aralash ishlatiladi. Ikkala til ham ko‘plab inglizcha IT terminlarini o‘z leksikasiga integratsiya qilgan (borrowings).

• Farqlar: foydalanish chastotasi (frekans) va semantik diapazon jihatida. Ingliz terminlari matnlarda ko‘proq uchraydi.

• Morfologik jihatdan: o‘zbek tilida qo‘shimchalar, suffikslar bilan turlicha kurash, ingliz tilida esa ko‘p jihatdan kompakt shakllar ishlatiladi.

Tarjimonlar IT traduziya qilayotganda leksik moslik, terminologik aniqlik va morfologik integratsiyani hisobga olishlari kerak. Korux teknik tarjimalarda, MT tizimlar bu terminlarni so‘zma-so‘z tarjima qilishi mumkin, lekin ma’nosi va mosligi zaif bo‘lishi ehtimoli yuqori. Zainuddin Hasibuanning tadqiqotida mashina MT va HT o‘rtasidagi sifat farqlarini tahlil qilishga qaratilgan. Asosiy maqsad — bu ikki turdagi tarjima natijalari o‘rtasida aniqlik (accuracy), ravonlik (fluency) va ma’no uzluksizligi (coherence) jihatidan qanday tafovutlar mavjudligini aniqlashdir.

Tadqiqot, shuningdek, mashina tarjimasining inson mehnatini to‘liq almashtira oladimi yoki yo‘qmi, degan muhim savolga ham javob izlaydi. Tadqiqot

natijalariga ko‘ra, mashina tarjimasi va inson tarjimasi o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlangan.

Grammatik jihatdan:Mashina tarjimasi grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi mumkin, ayniqsa oddiy jumlalar va rasmiy matnlarda. Ammo murakkab gaplarda yoki idiomatik iboralarda mashina tizimi kontekstni to‘g‘ri anglay olmaydi, natijada semantik xatolar yuzaga keladi.

Ma’no va kontekst: Inson tarjimasi ma’no uzluksizligini va matnning umumiy ruhini saqlaydi. Mashina esa so‘zma-so‘z (literal) tarjimaga moyil bo‘lgani sababli, ma’no ko‘pincha buziladi. Masalan, “He kicked the bucket” iborasi Google Translate orqali “U chelakni tepdi”, deb tarjima qilingan, aslida esa “U vafot etdi” ma’nosini bildiradi.

Madaniy nuanslar: HT madaniy kontekstni, hazil, metafora yoki so‘z o‘yinlarini tabiiy ifodalay oladi. MT esa bunday nozik jihatlarni tushunmaydi, natijada “g‘alati” yoki “ruxsiz” tarjimalar paydo bo‘ladi.

Tezlik jihatidan: Mashina tarjimasi juda tez ishlaydi va katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqtda tarjima qila oladi. Shu sababli, uni dastlabki (draft) tarjima sifatida ishlatish maqsadga muvofiq.

Mashina tarjimasi grammatik jihatdan nisbatan yaxshi natijalarga erishadi, ammo semantik va madaniy moslik jihatidan inson tarjimoniga tenglasha olmaydi. Inson tarjimasi hali ham ma’no, kontekst va madaniy sezgirlikni saqlashda eng ishonchli usul hisoblanadi. Shu bilan birga, MT va HT bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida qaralishi kerak: mashina tarjimasi tezlikni ta’minlaydi, inson esa sifatni kafolatlaydi. Muallif shunday tavsiya beradi: “The best translation result comes from the combination of machine translation and human post-editing”. (Eng samarali natija mashina tarjimasi va inson tomonidan keyingi tahrirni birlashtirish orqali olinadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy tarjima jarayoni tobora raqamlashtirilayotgan bir davrda MT va HT o‘rtasidagi munosabat o‘zaro raqobatdan ko‘ra, hamkorlik va to‘ldiruvchilik bosqichiga o‘tmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, MT tizimlari, ayniqsa neyron mashina tarjimasi (NMT), so‘nggi yillarda grammatik aniqlik, tezlik va texnik matnlarni qayta ishlash bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishgan. Shunga qaramay, madaniy kontekst, idiomatik ifodalar, badiiy va hissiy ma’no jihatidan ularning imkoniyatlari hali cheklanganligicha qolmoqda. Inson tarjimonining o‘rni tarjima sifatini belgilovchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Inson tafakkuri tildagi ma’no ko‘p qatlamliligi, madaniy konnotatsiyalar va sub’yektiv hissiyotlarni tushunish va to‘g‘ri ifodalash qobiliyatiga ega. Mashina esa hozircha bu darajadagi semantik sezgirlikni to‘liq egallay olgani yo‘q. Shu sababli, tarjima jarayonida inson post-tahriri mashina tomonidan yaratilgan tarjimaning sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shunday qilib, mashina tarjimasi va inson tarjimasining uyg‘unligi zamonaviy tarjimashunoslikning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Sun’iy intellekt vositalari inson ishini soddalashtiradi, ammo uni butunlay almashtira olmaydi. Inson tafakkuri, madaniy sezgirlik va tilning estetik qiymatini anglash qobiliyati hali uzoq yillar davomida tarjima jarayonining markazida bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: “Tafakkur Bo‘stoni”, 2012. – 216 b.

2. Xatamova Zarnigor To‘lqinovna. Inson tarjimasi hamda mashina tarjimasi: muammo va yechim. – O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, 2024. – B. 146–148. DOI: 10.5281/zenodo.11385926.

3. Ismailova Gulmira Ismatillayevna. Mashina va inson tarjimasi: o‘zbekcha–inglizcha tarjimalarning aniqligi va madaniy sezgirligini baholash. – Kokand University Herald, 2025, №3(1). – B. 183–189. DOI: 10.5281/zenodo.11489150

4. Norqobilova Feruza Abdig‘affor qizi. Contrastive Analyses of English and Uzbek IT Terminology. – Erus Journal, 2023.

Manba: erusjournal.com

5. Zainuddin Hasibuan. A Comparative Study Between Human Translation and Machine Translation. – Neliti, Indonesia, 2020.

Manba: neliti.com

6. Sobitova Madinabonu. Comparative Study of Machine vs. Human Translation of Tourism Brochures in Uzbek-English Context. – Zenodo, 2025. DOI: 10.5281/zenodo.11560248

7. Chomsky, N. (1957). Syntactic Structures. The Hague: Mouton. Chomsky, N. (1968). Language and Mind. New York: Harcourt Brace Jovanovich.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA 4K MODELINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Bekmirzayev Xasan Safarovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘imi boshlig‘i

Annotatsiya: *O‘quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o‘rgatish maktab ona tili ta’limi oldida turgan mas’uliyatli vazifalardan sanaladi. Ona tilini namunalar va maxsus mashqlar asosida amaliy, muntazam va izchil o‘rgatish orqali adabiy-badiiy nutq shaklini shakllantirib borishni taqozo qiladi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ta’limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri “4K” modelidir.*

Kalit so‘zlar: *4K modeli, boshlang‘ich ta’lim, bilim, ko‘nikmalar, ijodkorlik, xarakter, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, ta’lim nutq, nutq madaniyati, boshlang‘ich sinf,o‘quvchilar, metodika, ona tili darslari.*

O‘tmish mutafakkirlari ijodida nutqning ma’naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd qilinishi bejiz emas. Jumladan, Kaykovus “Suxandon kishilar bila ham

suhbatda bo‘lgil va qanday qilib so‘zlash shartlarini ham bilgil” [1] Yusuf Xos Hojib “Uquv va bilimning tilmochi tildir... Agar tilga e’tibor bermasa, uni noo‘rin qo‘llasa, odam boshi yorilishi hech gap emas” [2] , Forobiy so‘zning inson hayotida tutgan o‘rni va roli haqida: “…so‘zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi” [3], deb yozgan bo‘lsa, M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asarida «Adab boshi – til» maqolning keltirilishi, A.Navoiyning “Bir bo‘lu, bir ko‘r, bir de, bir tila, Mayl qilma munda ikkilik bila” [4] misralarida bir so‘zlilik, fikriy sobitlik, so‘z va fikr birligi –chin inson uchun bosh dasturdir degan fikr ilgari suriladi.

Boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchi shaxsi shakllanishining poydevori hisoblanadi. Chunki, bu davrida bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham alohida e’tibor talab etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, bola o‘zining o‘quvchi ekanligini his qila boshlaydi, ta’lim olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qila boshlaydi. Bola aynan shu davrda olgan bilimlari unga kelajakda har bir ishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu sababli bugungi kunda ko‘plab pedagog olimlar tomonidan turli xil metodlar ishlab chiqilmoqda. Shu metodlardan biri boshlang‘ich sinflar uchun tayyorlangan “4K” modeli hisoblanadi. “4K” modeli ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida “4K” modelidan foydalanishda o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan hisoblanadi.Ushbu model orqali o‘quvchi nutqining shakllanishida **kollaboratsiya**, **kommunikativlik**, **kreativva kretik fikrlash**ning o‘rni muhum hisoblanadi.

Hozirgi zamon ta’limi oldida turgan asosiy maqsad, o‘quvchi shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, zamonaviy darslarni tashkil qilish negizida 4 “K” modelini qo‘llash asosida o‘quvchilarda kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ va kooperativ ko‘nikmalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugingi kunda ta’limni isloh qilish tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri 4 “K” modelidir.

4 “K” modeli kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kolloboratsiya kabi tushunchalarni qamrab oladi:

1) kritik (tanqidiy) fikrlash - o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish demakdir;

2) kreativ fikrlash (ijodıy yondashuv) - o‘z maqsadiga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko‘nikmalarini o‘rgatish;

3) kommunikativlik (muloqatchanlık) - odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini
rivojlantirish;

4) kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) - ta’lim oluvchining jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish [5].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchillarda 4 “K” modeli ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning tayanch va fanga oid kompetensiyalari elementlarini shakllantirishga, har bir fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga, ma’naviy yetuk, sog‘lom avlod bo‘lib tarbiyalashda, kasb-hunar tanlashlari uchun xizmat qiladi. Tavsiya etilayotgan metod va usullar dars mazmunini ochishiga, o‘quvchilar faolligini oshirishga yordam berib, darsning samaradorligini oshiradi.

Quyidada keltirilgan innovatsion metod va interfaol o‘yinlar o‘quvchilarda 4 “K” modeli tarkibidagi kritik (tanqidiy) fikrlash ko‘nikmasi, kreativlik (ijodkorlik) ko‘nikmasi, kommunikativlik (muloqotchanlik) ko‘nikmasi, va kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) kabi ko‘nikmalarni rivolantirishda hamda fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, zukkolik, tirishqoqlik, chaqqonlik va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib o‘tish esa bolalarni darsdaga faolligini va zo‘r ishtiyoq bilan qatnashishlarini ta‘minlaydi. Ushbu model orqali o‘quvchi har taraflama o‘zida shaxs ko‘nikmasini shakllantirib boradi. Dastur o‘quvchiga faqat nutqni shakillantiribgina qolmay balki, shaxsiy fikrlash doirasi, jamiyatdagi o‘rniga ham alohida ta’sir etadi. 4K modeli nafaqat bolalarni o‘z navbatida o‘qituvchi pedagoglarni ham o‘z ustida ishlash uchun undab kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘rta ta'lim muassasalari, xususan, boshlang‘ich ta'lim o‘quvchilari ta'limi tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining —Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tasdiqlanib, u «milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, mehnat ko‘nikmalari, ijodiy tafakkur, tevarak olamga va kasb tanlashga ongli munosabat negizida fan asoslari bo‘yicha tizimli bilimlar olinishini ta'minlash, bilimlarni o‘zlashtirishga ehtiyojni kuchaytirish, tayanch o‘quv, ilmiy va umummadaniy bilimlar, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish»ga yo‘naltirilgan.

Chiroyli va ravon nutq so‘zlashni, savodli, chiroyli to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq bayon etishni uddalay olmagan yoki to‘g‘ri talaffuz etolmagan o‘quvchi hech qaysi bilimlarni muvaffaqiyat bilan uddalay olmaydi. Bu borada so‘z va nutqning ma’no-mohiyatini teran idrok etgan buyuk qalam sohiblari so‘zlash qobiliyati va go‘zal nutq qudrati bemisil bir ne’mat ekanligini takror va takror ta’kidlaganlar. O‘quvchilar nutqini o‘stirish, avvalo, ularning lug‘atini boyitish va ushbu lug‘atdagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz bilan bog‘liqdir. So‘z boyligini oshirishda lug‘at ustida ishlash katta amaliy ahamiyatga ega.

Xususan, boshlang‘ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to‘g‘riligi ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o‘qituvchining o‘quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlardan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o‘tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o‘rin egallagan. Forobiy to‘g‘ri so‘zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq sohibi bo‘lish haqida shunday deydi: - Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berishga

kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisijismlarga, ya'ni substansiya (mustaqil, o‘z-o‘zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon)lariga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidentiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm logikadir: u ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logic figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri va nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz.

Nutq atamasi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, so‘zlash, nutq; gapirish qobiliyati ma'nosini bildiradi. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. Ma'lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o‘rni va roli qadimdan ko‘pchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida nutqni mahnaviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so‘zlash quvvati haqida shunday deydi: —...so‘zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi.

M.Koshg‘ariyning —Devon-u lug‘otit turk asarida — Adab boshi — til maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog‘li ahamiyatli ekanligiga urg‘u berganini ko‘rsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so‘z orqali a'yon bo‘lishini aytib, nutqning ravon bo‘lishiga da'vat etadi: — o‘quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir.

Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro‘-e'tiborni ham kishi til orqali topadi.

Hech qachon ko‘p gapirma. Juda oz so‘zla. Tuman so‘z tugunini bitta so‘z bilan yozib yubor, ya'ni oz so‘zlarga ko‘proq ma'no singdirish payidan bo‘lgin.

Kaykovus o‘zining — “Qobusnoma” asarida so‘zlash madaniyati quyidagicha e’tirof etadi:

—... xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin.

Xaloyiq sening so‘zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar, har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lug‘at boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi. Boshlang‘ich sinf ona tili dasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so‘z yasalishi, morfemik (so‘z tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o‘quvchilarning nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishlariga yordam berishi, lug‘atini boyitishi,

bog‘lanishli nutqini o‘stirishi jihatidan keng qamrovli bo‘lib, o‘quvchilarning tilni har tomonlama o‘zlashtirishlarini ta'minlashini nazarda tutadi.Ta’kidlash kerakki, boshlang‘ich sinf Ona tili darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning o‘quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o‘stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko‘rsatdi. Ona tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, O‘quvchilar lug‘atini boyitish,nutqini o‘stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo‘la olmaydi. Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga mo‘ljallangan terma to‘qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog‘lanishli nutqni egallashga ijobiy ta'siri kam. Oddiy so‘zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o‘quvchi nutqini boyitish uchun manba bo‘la olmaydi. O‘quvchilarning o‘zbek adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog‘liq. Darslarni didaktik o‘yinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko‘mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o‘tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o‘yinlardan foydalanib, o‘quvchilarning darsga
bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Quyida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin namunalarini keltiramiz:

Zanjirli o‘yini. O‘qituvchi tilda mahnodoshi bo‘lgan so‘z aytadi, o‘quvchilar parta ketma-ketligida unga ma'nodosh so‘zni topib aytadilar. Ma'nodoshi qolmagan paytda navbatdagi o‘quvchining o‘zi tilda ma'nodoshi bor so‘z aytib o‘yinni davom etishiga yordam beradi. Bir qator parta o‘quvchilari bir necha ma'nodosh so‘zlar guruhini tuzishlari mumkin. O‘yin ketma-ketlikda davom ettiraveriladi. Masalan, bir qatorda 10 ta o‘quvchi o‘tirgan bo‘lsa uchta, to‘rtta mahnodosh so‘zlar guruhini tuzishlari mumkin. 4-sinfda 304-mashq bajarilib bo‘lingach bu o‘yin uyushtirilishi mumkin.

Zamonaviy ta’limda zamonaviy o‘qituvchi ta’lim shaklini mavzu, o‘quvchilar va tarjibasidan kelib chiqib tanlaydi. Bunda albatta zamonaviy metodlar qo‘l keladi. Xulosa shuki, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida o‘quvchilarda 4 “K” modelini darslarda tadbiq etish maqsadga muvofiq. Bunda albatta zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Yangi asr avlodi, 2016. -224 b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –T.: Yulduzcha.1990. –188 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –188 b.
4. Alisher Navoiy. Lisonut tayr. matnni nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmon. –T.: G‘afur G‘ulom, 1991. –462 b.
5. Nizomiddinova, D. N. (2023). SPELLING FEATURES OF PLACE NAMES ABOUT LEARNING. Conferencea, 46-53.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PROGNOSTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ikromova Munisa Sheraliyevna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda prognostik (bashorat qilish) kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Mazkur kompetensiya o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin egallab, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilar ehtiyojlarini oldindan ko‘ra bilish, o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga moslashish kabi faoliyatlarda asosiy rol o‘ynaydi. Maqolada prognostik kompetensiyaning mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari (bilimiy, faoliyatga oid, fikrlashga oid) ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kompetentlik, prognozlash kompetensiyasi, axborotga asoslangan prognozlash kompetensiyasi, amaliy-prognozlash kompetensiyasi, baholovchi-prognozlash kompetensiyasi, rejalashtirishga asoslangan prognozlash kompetensiyasi, maxsus prognozlash kompetensiyasi, xususiy-kasbiy kompetensiya.*

Zamonaviy ta’lim jarayonining muhim maqsadlaridan biri bu — pedagogika yo‘nalishidagi oliygoh talabalari prognozlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Tez sur’atlarda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy va ta’limiy muhitda pedagoglarning voqealarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyati va o‘zgarishlarga moslasha olish layoqati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Olimlarning ta’kidlashicha murakkab kasbiy vazifalarni hal qila oladigan va ta’lim amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurati dolzarb ahamiyatga ega[94].

Prognozlash kompetentligini rivojlantirish masalasi bo‘yicha B.S.Gershunskiy, I.K.Jujuravlyov, S.Y.Batyshev, L.F.Spirin, I.Y.Lerner, Y.K.Babanskiy tomonidan muhim ilmiy ishlar olib borilgan. Prognozlashning falsafiy jihatlari S.G.Goncharuk, V.V.Kosolapov, V.P.Tugarinov va G.I.Ruzavin tomonidan tadqiq etilgan. Prognozlash amaliyotining umumiy nazariy asoslari N.I.Jinkin, V.A.Brushlinskiy, P.K.Anoxin va B.F.Lomov asarlarida bayon etilgan. Shuningdek, prognozlash kompetentligini o‘rganishga xorijiy tadqiqotchilardan J.Stover, A.Hoffmann, K.Trundle, M.Bong, S.Sungok, Y.Cho, D.R.Horge, F.F.Hood, R.T.Willis ham o‘z hissasini qo‘shgan.

Prognozlash kompetensiyasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega, chunki u pedagogning kasbiy ko‘nikmalarining ajralmas qismidir. B.D.Kucherning[95] fikricha voqealarni oldindan bashorat qilish qobiliyati o‘qituvchilarga nafaqat ehtimoliy

[94] Сайфуллина Н.А. Структурно-содержательная характеристика прогностической компетентности студентов педагогической магистратуры // Ped.Rev. 2020. № 4. С. 32.

[95] Кучер Б.Д. Формирование профессиональной компетентности учителей: сущность, структура и функции // Концепт. 2024. № 4. С. 159-165.

muammolar va xatarlarni aniqlash, balki ularni yengib o‘tish uchun strategik rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida prognozlash ko‘nikmalarining hozirgi rivojlanish darajasini aniqlash va ushbu kompetensiyani ta’lim dasturlari doirasida chuqurroq o‘rganish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika fanlarida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari o‘rtasida farqlash kuzatiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kompetentlik — kompetensiyadan hosil bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. S.I.Dyakov fikricha, kompetentlik — bu shaxsning individualligi sifatida namoyon bo‘ladigan, ta’lim jarayonida egallangan bilimlar va tajriba asosida faoliyat yuritishga tayyorligi va qobiliyatidir. Kompetensiya esa ta’lim natijasini ifodalaydi, ya’ni abituriyentning aniq vazifalarni bajarishga tayyorligi va layoqatini aks ettiradi[96].

Y.V.Frolov[97]ning ta’kidlashicha prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirish — bu prognozlash harakatlarini o‘zlashtirish va ularni turli pedagogik kontekstlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va hamkorlik jarayonidir. Shu asosda, ilmiy adabiyotlarda “prognozlash kompetensiyasi” va “prognozlash kompetentligi” tushunchalari ajratib ko‘rsatiladi.

Prognozlash kompetensiyasi — bu kasbiy faoliyatda yuzaga kelayotgan voqealar va holatlarni oldindan aytib berish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi bo‘lib, mavjud tendensiyalarni tahlil qilish, qonuniyatlarni aniqlash va belgilangan maqsadlarga erishish uchun strategik rejalar ishlab chiqish qobiliyatini o‘z ichiga oladi[98].

Prognozlash kompetentligi esa — bu shaxsning kompleks sifati bo‘lib, unda prognozlash kompetensiyasini amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olishga tayyorlik va layoqat ifodalanadi. Bu kompetentlik muammolar va xatarlarni oldindan ko‘ra bilish, ularni oldini olish bo‘yicha adekvat choralarni ishlab chiqish va o‘zgarishlarga moslasha olish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi[99].

Darhaqiqat, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida har kuni prognozlash jarayonlari va vaziyatlariga duch keladi, bu esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish uchun zarurdir. Bo‘lajak o‘qituvchining prognozlash kompetentligi — bu shaxsning integrativ sifati bo‘lib, u kasbiy-nazariy bilimlar, shaxsiy fazilatlar, qadriyatga asoslangan munosabatlar, amaliy ko‘nikmalar hamda prognozlash faoliyatiga nisbatan motivatsion-axloqiy munosabat va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan o‘z-o‘zini prognozlashga intilishini o‘z ichiga oladi.

[96] Дьяков С.И., Добряк С.Ю., Кисин К.А. Взаимосвязь понятий «Формирование» и «Развитие» и их роль в педагогической теории и практике // Педагогический журнал. 2023. № 5А. Т. 13. С. 525-536

[97] Фролов Ю.В., Махотин Д.А. Компетентностная модель как основа оценки качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. 2020. № 8. С. 34-41.

[98] Новая психология профессионального труда педагога: от нестабильной реальности к устойчивому развитию: сб. ст. Под ред. Л.М. Митиной. М: Психологический институт РАО, 2021. 356 с.

[99] Никитина Л.Е., Липский И.А., Майорова-Щеглова С.Н. Педагогическое прогнозирование: науч.-метод. пос. Под общ. ред. Л.Е. Никитиной. М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный институт, 2021. 288 с.

O.M.Rastopchina esa prognozlash kompetentligini kasbiy kompetentlik tarkibiy qismi sifatida ko‘radi[100]. Bu esa shuni anglatadiki, prognozlash kompetentligini egallash har kuni va kasbiy faoliyatda bashorat qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, shaxsiy kasbiy shakllanishning individual yo‘lini belgilash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda prognozlash kompetensiyasiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, prognozlash kompetentligini quyidagi asosiy tarkibiy qismlar tashkil etadi:

Axborotga asoslangan prognozlash kompetensiyasi – bu prognozlash faoliyatining asoslarini, shuningdek, talabalarning ma’lumot bilan ishlash yo‘llarini to‘g‘ri tanlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini ifodalaydi.

Amaliy-prognozlash kompetensiyasi – bu prognozlash uslublarini egallash, o‘quv, shaxsiy va boshqa faoliyat sohalariga oid individual bashoratlarni tuza olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Baholovchi-prognozlash kompetensiyasi – bu o‘z faoliyatini prognozlash mezonlari asosida tahlil va baholash qobiliyatini anglatadi.

Rejalashtirishga asoslangan prognozlash kompetensiyasi – bu pedagog yoki o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, mavzulashtirilgan dars rejalarini tuzish, individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishdagi layoqatini bildiradi.

Maxsus prognozlash kompetensiyasi – ma’lum bir kasbiy faoliyatga tegishli prognozlash kompetensiyalarini anglatadi.

Xususiy-kasbiy kompetensiya – bu aniq kasbiy faoliyat turidagi ish yuritish darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, ko‘plab bo‘lajak o‘qituvchilar amaliy faoliyatda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Buning sababi — ular pedagogik ta’sir va o‘zaro munosabatlarning kutilgan natijalarini oldindan belgilay olishda yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi, o‘quvchilarning imkoniyatlarini aniq baholay olmasliklari va ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarga tezkor javob qaytarish ko‘nikmalarining sustligidir.

A.V.Zaxarov tomonidan taklif etilgan prognozlash ko‘nikmalari tuzilmasiga tayangan holda, **prognozlash kompetentligining** quyidagi tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi[101]:

Bilimiy komponent – bu ta’lim jarayonida prognozlash bo‘yicha zarur nazariy bilimlarni, prognozlashning mantiqiy tuzilmasi va amaliy protseduralarini tushunishni shakllantiradi.

Faoliyatga oid komponent – bu faoliyatni prognozlash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradi, masalan: sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, mulohazalarni qayta tashkil qilish va o‘zgartirish.

[100] Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66.

[101] Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66.

Fikrlashga oid komponent – bu tahlil qilish, tafakkurning chuqurligi, ongli yondashuv, moslashuvchanlik, istiqbollilik va fikr yuritishning asoslanganligi kabi tafakkur jarayonlarining bir qator xususiyatlarini rivojlantiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va prognozlash kompetentligiga oid tushunchalarni tizimlashtirish orqali mazkur kompetensiyaning pedagog kadrlar tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati tasdiqlandi. **Prognozlash kompetentligining tarkibi** nafaqat bilim va faoliyatga oid jihatlarni, balki potentsial muammolarni oldindan ko‘ra olish hamda o‘zgarishlarga samarali javob qaytara olish imkonini beruvchi **fikrlash qobiliyatlarini** ham o‘z ichiga oladi. **Xulosa o‘rnida aytish mumkinki**, mazkur tadqiqot mavjud ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va yangilash, shuningdek, ularga prognozlash kompetentligini rivojlantiruvchi komponentlarni kiritish lozimligini asoslaydi. Bunday tarkibiy qismlarni kiritish bo‘lajak pedagoglarga o‘z kasbiy faoliyatlariga yaxshiroq tayyorgarlik ko‘rishga, muammolarni oldindan ko‘ra olish va ularni yengib o‘tish, shuningdek, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida **ta’lim sifatining oshishiga** va zamonaviy ta’lim muhitining talablariga javob bera oladigan **raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga** xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сайфуллина Н.А. Структурно-содержательная характеристика прогностической компетентности студентов педагогической магистратуры // Ped.Rev. 2020. № 4. С. 32.
2. Кучер Б.Д. Формирование профессиональной компетентности учителей: сущность, структура и функции // Концепт. 2024. № 4. С. 159-165.
3. Дьяков С.И., Добряк С.Ю., Кисин К.А. Взаимосвязь понятий «Формирование» и «Развитие» и их роль в педагогической теории и практике // Педагогический журнал. 2023. № 5А. Т. 13. С. 525-536
4. Фролов Ю.В., Махотин Д.А. Компетентностная модель как основа оценки качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. 2020. № 8. С. 34-41.
5. Новая психология профессионального труда педагога: от нестабильной реальности к устойчивому развитию: сб. ст. Под ред. Л.М. Митиной. М: Психологический институт РАО, 2021. 356 с.
6. Никитина Л.Е., Липский И.А., Майорова-Щеглова С.Н. Педагогическое прогнозирование: науч.-метод. пос. Под общ. ред. Л.Е. Никитиной. М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный институт, 2021. 288 с.
7. Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66.

INKLYUZIV TA’LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA IMKONIYATLARI

Mo‘minova Qunduz Xolmamat qizi
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o‘rni va ahamiyati yoritilgan. AKTning kompensator va didaktik funksiyalari alohida ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim jarayonida teng imkoniyatlarini ta’minlashda muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada maxsus texnik vositalar, interaktiv platformalar va elektron resurslardan foydalanish orqali o‘quvchilarning jismoniy va sezgi cheklovlarini kompensatsiya qilish, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirish hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompensatorlik funksiyasi, didaktik funksiyasi, masofaviy texnologiyalar, maxsus texnik vositalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, teng imkoniyatlar.*

Zamonaviy ta’lim tizimida insonparvarlik, innovatsion yondashuv va texnologik rivojlanish tamoyillari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim olish imkonini yaratish - inklyuziv ta’limning bosh maqsadidir. Inklyuziv ta’limning joriy etilishi har bir bolaning bilim olish huquqini kafolatlash bilan birga, ta’lim tizimining zamonaviy talablar asosida yangilanishini ham taqozo etadi. Shu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va masofaviy o‘qitish vositalari muhim pedagogik mexanizm sifatida maydonga chiqmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida o‘qitish metodikalari raqamli transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. An’anaviy uslublar o‘rnini asta-sekin interaktiv, vizual va texnologik yondashuvlar egallamoqda. Ammo bu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud: pedagoglarning AKTdan foydalanish kompetensiyasi yetarli emasligi, texnik bazaning notekis taqsimlanishi, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi va eng muhimi - ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini inklyuziv muhitga to‘liq moslashtirishdagi qiyinchiliklar. Shu sababli, zamonaviy o‘qitish metodikalari va AKT imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish, ularni inklyuziv ta’lim tamoyillariga mos ravishda qo‘llash bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inklyuziv ta’limdagi roli, avvalo, ularning kompensatorlik va didaktik funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Kompensatorlik funksiyasi o‘quvchilarning jismoniy yoki sezgi nuqsonlarini qoplab, ularning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi. Didaktik funksiyasi esa ta’lim jarayonini metodik jihatdan yangilash, interfaol va vizual o‘qitish muhitini tashkil etish, shuningdek, individual o‘quv dasturlari orqali har bir bolaga mos yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida masofaviy texnologiyalardan foydalanish ham inklyuziv yondashuvning ajralmas qismiga aylanmoqda. Onlayn platformalar

(Moodle, Google Classroom, EduPage, Zoom, Teams va boshqalar) orqali tashkil etilgan darslar nogironligi bo‘lgan yoki uzoq masofadagi o‘quvchilarga ta’lim olish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar o‘qituvchilarga darsni vizualizatsiya qilish, individual topshiriqlar berish, natijalarni tezkor tahlil etish hamda o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini monitoring qilish imkonini beradi

Inklyuziv ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) alohida ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning teng imkoniyatlarda ta’lim olishini ta’minlaydigan eng muhim vositalardan biridir. Ularning asosiy funksiyalari ikki yo‘nalishda – **kompensatorlik va didaktik** yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

Kompensatorlik funksiyasi - bu AKTning nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning ayrim jismoniy yoki sezgi nuqsonlarini qoplashga, ularning o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatidir.



1-sxema.

– Masalan, **harakatlanishida cheklovlari bo‘lgan** o‘quvchilar uchun maxsus klaviaturalar, sensorli ekranlar, ovozli boshqaruv tizimlari yozish va muloqot qilish imkonini beradi.

– **Eshitishida nuqsoni bo‘lgan** bolalar uchun radio tizimlar, ovozni matnga aylantiruvchi dasturlar yoki ekranli subtitrlar yordam beradi.

– **Ko‘rishida muammosi bo‘lgan** o‘quvchilar esa ekran o‘qiydigan dasturlar (screen reader), kattalashtiruvchi ilovalar va brail qurilmalar orqali dars materiallarini mustaqil o‘zlashtira oladi.

Bu texnologiyalar o‘quvchilarga teng ta’lim sharoiti yaratish, ularning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun sharoit yaratadi.

Didaktik funksiyasi esa AKTning o‘quv jarayonini metodik jihatdan yangilash, o‘quv faoliyatini interfaol va vizual shaklda tashkil etish imkonini beruvchi xususiyatidir.

– Elektron resurslar, interaktiv taxtalar, ta’limiy platformalar (masalan, Moodle, Google Classroom, EduPage) o‘qitishning zamonaviy uslublarini joriy etadi.

– Dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi, mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

– AKT asosida tashkil etilgan **diagnostika va baholash tizimlari** o‘quvchilarning o‘zlashtirish dinamikasini tahlil qilish, individual rivojlanish xaritalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-sxema.

Umuman olganda, AKTning kompensator va didaktik funksiyalaridan samarali foydalanish inklyuziv ta’lim muhitida **pedagogik moslashuvchanlik, shaxsiy yondashuv** va **teng imkoniyatlarni ta’minlash** tamoyillarini ro‘yobga chiqaradi. Bu esa har bir o‘quvchining ehtiyojiga moslashtirilgan, individual rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

1-rasm.

1. Jismoniy to‘siqlarni yengib o‘tishda AKTning roli. Masofaviy ta’lim harakatlanishida cheklovlari mavjud o‘quvchilar (tayanch-harakat tizimi buzilgan, DCP bilan yashovchi va boshqalar) uchun ta’limni to‘siqsiz amalga oshirish imkonini beradi. Ular darslarga uydan turib onlayn tarzda qatnashadi, topshiriqlarni elektron shaklda bajaradi va o‘qituvchi bilan masofadan muloqotda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday yondashuv ularning ijtimoiylashuvini qo‘llab-quvvatlaydi, izolyatsiyaga tushib qolishining oldini oladi hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Assistent (yordamchi) texnologiyalardan foydalanish. AKT yordamida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga ta’lim olish jarayonida to‘siqlarni bartaraf etish mumkin. Bunda turli yo‘nalishdagi texnologik yechimlardan foydalanish muhimdir:

- ***Harakat buzilishida*** – maxsus klaviaturalar, muqobil kiritish moslamalari, joystick, trekbol yoki bosh bilan boshqariladigan sichqoncha o‘quvchiga yozish va o‘quv faoliyatini mustaqil amalga oshirish imkonini beradi.
- ***Ko‘rish buzilishida*** – ekran o‘qiydigan dasturlar, matnni audio shaklga aylantiruvchi ilovalar, shriftni kattalashtirish funksiyalari, grafik obyektlardan foydalanilgan taqdimotlar va tovushli izohlar orqali o‘quv jarayonida to‘liq ishtirok etish ta’minlanadi.
- ***Eshitish buzilishida*** – subtitrli video darsliklar, ovozli ma’lumotlarni matn ko‘rinishida taqdim etuvchi dasturlar o‘quv materialini to‘liq idrok etishga yordam beradi.

3. O‘quv jarayonida qulaylikni ta’minlovchi universal texnologik imkoniyatlar. Zamonaviy qurilmalar va dasturiy platformalar ko‘plab maxsus funksiyalarni o‘z ichiga olgan. Kattalashtirilgan shriftlar, kontrastli ranglar, ekran lupasi, tovushli bildirishnomalar, ekran o‘qish funksiyasi yoki brauzer kengaytmalari kabi imkoniyatlardan foydalanish o‘quvchilarga o‘z ehtiyojlariga mos muhit yaratadi.

1-jadval

Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun AKTning didaktik va yordamchi funksiyalari

№	Yo‘nalish	AKTning roli va ta’siri	Foydalaniladigan texnologik vositalar	Pedagogik ahamiyati
1	**Jismoniy to‘siqlarni yengib o‘tishda AKT**	Masofaviy ta’lim harakatlanishida cheklovlari mavjud (tayanch-harakat tizimi buzilgan, DCP bilan yashovchi va boshqalar) o‘quvchilarga to‘siqsiz ta’lim olish imkonini beradi. Ular onlayn darslarda qatnashadi, topshiriqlarni elektron shaklda topshiradi va o‘qituvchi bilan masofadan muloqot qiladi.	Onlayn platformalar (Zoom, Google Classroom, Moodle), elektron topshiriq tizimlari, videoaloqa vositalari, virtual sinflar	Ijtimoiy izolyatsiyani kamaytiradi, ijtimoiylashuvni kuchaytiradi, mustaqil o‘qish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi
2	**Assistent (yordamchi) texnologiyalar**	AKT yordamida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning turli jismoniy, ko‘rish va eshitish to‘siqlari bartaraf etiladi.	**Harakat buzilishida:** maxsus klaviatura, bosh bilan boshqariladigan sichqoncha, trekbol, joystick **Ko‘rish buzilishida:** ekran o‘qiydigan dasturlar, matnni audio shaklga aylantiruvchi	O‘quvchi mustaqil ishtirok etadi, o‘quv motivatsiyasi va ishonchi oshadi, teng

			ilovalar, tovushli taqdimotlar **Eshitish buzilishida:** subtitrli videolar, ovoz-matn konvertor dasturlari	imkoniyatlar yaratiladi
3	**Universal texnologik imkoniyatlar**	Zamonaviy qurilma va platformalarda mavjud maxsus funksiyalar o‘quv jarayonini moslashtirishga yordam beradi.	Ekran kattalashtiruvchi (magnifier), kontrast sozlamalari, brauzer kengaytmalari, tovushli bildirishnomalar, ekran o‘qish funksiyalari (Screen Reader), rangni moslashtirish ilovalari	Har bir o‘quvchi o‘z ehtiyojiga mos muhitda o‘qiydi, o‘zlashtirish darajasi oshadi, vizual va audio idrokni kuchaytiradi

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va insonparvarlik tamoyillarining uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) oqilona foydalanish bu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi, balki pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida zamonaviy o‘qitish metodikalari va AKT vositalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos sharoit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. AKT o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini individuallashtirish, interaktiv metodlardan samarali foydalanish hamda o‘quvchilarning o‘zlashtirishini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, AKTni joriy etish jarayonida texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari yetarli emasligi va moslashtirilgan dasturiy ta’minotlar kamligi kabi muammolar mavjud. Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

– pedagoglarning AKT va inklyuziv metodika bo‘yicha malakasini muntazam oshirib borish;

– ta’lim muassasalarini o‘quvchilar ehtiyojiga mos texnik vositalar bilan ta’minlash;

– o‘quv jarayonida universallik tamoyillarini keng qo‘llash;

– masofaviy o‘qitish tizimlarini inklyuzivlashtirish va foydalanuvchilarga qulaylashtirish.

Bu takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi inklyuziv ta’limda teng imkoniyatlar yaratish, o‘qitish sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni pedagogik jarayonga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.E.M. Alkarov, Q.X. Mo‘minova Maktab rahbarlarining inklyuziv ta’limni boshqarish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (raqamli texnologiyalar vositasida) Metodik qo‘llanma.-T.:2025. “Dimal” nashriyot

2.Акимова, О. И. Инклюзивное образование как современная модель образования лиц с ограниченными возможностями здоровья [Электронный

ресурс] / О. И. Акимова // Образование без границ : информ.- метод. портал по инклюзив. и специал. образованию. - Режим доступа: http://www.edu-open.ru. - Дата доступа: 19.11.2012.

3. Leichty, Erle. The Omen SeriesSumma Izbu. Locust Valley, New York: Augustin. 1970.P.70-71.

4.Ilektra Spandagou, Cathy Little, David Evans, Michelle L. Inklusive Education in Schools and Early. Childhood Settings.springer Springer Singapore. 2020.

PIRLS TADQIQOTI TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILARNI MUTOLAA MADANIYATIGA O‘RGATISH

Rabbonayeva Dildora Tolipovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jamiyatimizda mutolaa masalasiga bo‘lgan yondoshuv va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishda PIRLS tadqiqotining o‘rni haqida fikr bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: PIRLS, xalqaro, tadqiqot, kitob, baholash, boshlang‘ich ta’lim, sifat, mutolaa, topshiriq.

Kitob – insonning yaqin do‘sti, suhbatdoshi, sirdoshi. U kishining dunyoqarashi, so‘z boyligini oshiradi. Amerikalik olim, yozuvchi Nil Geyman olib borgan tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, kitob mutolaa qilmaydigan bolalar kelajakda bezori bo‘lib ulg‘ayishi ehtimoli yuqori ekan. Shu bilan birga, kitob o‘qish odamlarni empatiyaga – faqat o‘z xohish-istaklari va manfaatlarini o‘ylashdan voz kechib, umumiy maqsad yo‘lida birlashishga undaydi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O‘qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

“Mutolaa” so‘zi arabcha “o‘qish” degan ma’noga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda.

O‘qish – axborot olish madaniyati bo‘lib, badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ola bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishning bir qancha usullari, yo‘llari mavjud bo‘lib, 2021-yildan boshlab O‘zbekiston yoshlari,

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk bor qatnashayotgan PIRLS tadqiqotining o‘rni beqiyosdir.

PIRLS – *(inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study)* matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo‘lib, maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi mutaxassislar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega.

PIRLS dunyoning turli mamlakatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlarining o‘qish savodxonligi o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi.

Tadqiqotning xalqaro lug‘atiga ko‘ra, “o‘qish savodxonligi” - o‘quvchining matn shaklida berilgan ma‘lumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, o‘qigan ma‘lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqatidir.

PIRLSda o‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishlash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma’lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma’lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarga ikki turdagi matn taqdim etiladi, badiiy matn va axborotli matn. Shuning uchun o‘quvchilar bilimi quyidagi ikki mezon asosida baholanadi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o‘qish.
2. Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadida o‘qish.

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish;
- voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish;
- matnning umumiy g‘oyasini aniqlash;
- matn tarkibining elimentlarini ochib berish;
- qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish;
- asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his –tuyg‘ularini taqqoslash va qiyoslash;
- matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish;
- matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish;
- matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash orqali javob berish;
- matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadidagi o‘qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash;
- kerakli axborotni o‘zida mujassamlashtirgan gapni ajratish;
- xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish;
- matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish;
- matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish;
- matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash;
- matndagi alohida gaplar o‘rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash;
- matn mazmunini izohlab berish;
- turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash;
- matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni anglash va asoslash;
- matndagi ma’lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elimentlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish;
- matnlar, xaritalar, illuystrasiyalar,diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma’lumotlarni umumlashtirish.

PIRLS tadqiqotida belgilangan mahorat tavsiflaridan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar matnni nafaqat tushunishadi balki, matnda berilgan ma‘lumotlarni tushuna olish va ularga o‘zining shaxsiy munosabatini bildira olish ko‘nikmasi, olgan ma‘lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Mutolaa – bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborishi, ongida ma’lum tuyg‘ularni, e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o‘ylashga, hayotda qanday yashashga o‘rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma’naviy o‘gitlarini ilg‘ab olish va bular asosida o‘z hayot yo‘li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o‘qigan kitobidan yangilik topish, ma’naviy dunyosini boyitishdan iborat ekan, bu borada PIRLS matnlari va uning matnlari uchun tuzilgan topshiriqlari, belgilangan mahorat tavsiflari o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda yaqindan yordam beradi.

